O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKANING DOLZARB MASALALARI: NAZARIYA, TADQIQOT VA AMALIYOT” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI



ANDIJON-2025

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKANING DOLZARB MASALALARI: NAZARIYA, TADQIQOT VA AMALIYOT”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2025-yil, 24-dekabr. Andijon

«АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКИ: ТЕОРИЯ, ИССЛЕДОВАНИЕ И ПРАКТИКА»

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
24 декабря 2025 года, Андижан

“CURRENT ISSUES OF MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: THEORY, RESEARCH AND PRACTICE”

REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
December 24, 2025, Andijan

ANDIJON-2025

Mazkur to‘plam oliy ta’lim tizimining psixologiya va boshqa barcha pedagogik sohalarda olib borilayotgan ta’limdagi islohotlardan izchil habardor bo’lib borish, shuningdek asosan jamiyatimizda xal qilinishi kerak bo’lgan mavjud muammolarni bartaraf etishda o’zimizning ilmiy qarashimiz orqali bo’lsada beparvo qarab turmaslik nuqtai nazardan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida **«Zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb masalalari: nazariya, tadqiqot va amaliyot»** mavzusida onlayn Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida nashrga tayyorlandi. To‘plam Andijon davlat universiteti ilmiy kengashi tasdig‘iga asosan va anjuman qatnashchilarining 2025 yil 24 dekabr kungi ZOOM platformasida o‘tkazilgan yig‘ilishida chop etishga tavsiya qilingan.

Tahririyat kengashi:

ADU rektori	prof. Akbaraliyev B.B
Prorektor	dotsent. Axmedov B.
Fakultet dekani	dotsent. Xasanov J.
P.f.d. professor	Safoyev N.S.
PhD professor	Komilova F.M
PhD, professor	Tojiboyeva G.R.
PhD, dotsent	Dumarov M.X.
Dotsent	Yankina R.S
P.f.n. dotsent	Suleymanova T.G
PhD, dotsent	B.E.Parmonov

Psixologiya fanlari bo‘yicha PhD, dotsent M.X.Dumarovning umumiy tahriri ostida.

Mazkur to‘plam “Zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb masalalari: nazariya, tadqiqot va amaliyot**”** mavzusidagi ilmiy- amaliy anjumanda qilingan ma’ruza va berilgan ilmiy, nazariy va amaliy maqolalar, tezis va materiallar asosida konferensiya yalpi majlisi qatnashchilari tavsiyasiga ko‘ra shakllantirildi va chop etildi. To‘plamga kiritilgan materiallardan oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari professor-o‘qtuvchilari, tadqiqotchilar, talabalar va jamiyatimiz barcha fuqarolari ma’rifiy jihatda foydalanishlari mumkin. Chop etilyotgan maqolalar ilmiy-nazariy saviyasiga mualliflar mas’uldirlar.

TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB MUAMMOLARI

Andijon davlat universiteti rektori,
professor B.B.Akbaraliyev

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lida ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga chambarchas bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Aynan shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘tgan davr ichida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilaètgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari doirasida ta’lim sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan masalalar, xususan oliy ta’lim tizimini isloh qilish, zamonaviy xorijiy tajribalarni qo‘llash orqali uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qancha amaliy islohotlar amalga oshirildi.

Mustaqil, demokratik O‘zbekiston Respublikasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy rivojlanishida ustuvor soha deb e’lon qilingan ta’limning takomillashtirilishi, eng avvalo, uning sifat jihatdan yangi holatiga erishishga yo‘naltirilgan. Bu ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha hal etilayotgan favqulodda murakkab, majmuaviy muammodir. Ulardan biri ijtimoiy hayotni boshqarishning o‘ziga xos shakli bo‘lgan ta’lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish va qayta qurishni o‘z ichiga oladi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ2909 - sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifatini oshirish va mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli qo‘shimcha choratadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-3775-sonli qarori alohida ahamiyat kasb etadi Jumladan, Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, “Ilm-fan va ilmiyfaoliyat to‘g‘risida”gi va “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonun va qarorlar orqali oliy ta’lim tizimini isloh qilish, uni zamon talablari asosida xorijiy standartlar asosida yanada rivojlantirish borasida amaliy say-harakatlar olib borilmoqda. Aynan zamon talablariga moslashtirish maqsadida YUNESKO tomonidan joriy etilgan “Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” hamda “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayèrlash sohalari” asosida “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” va “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” kabi hujjatlar orqali bizning oliy ta’lim tizimimizning integratsiyalashuvi amalga oshmoqda. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimiga xalqaro standartlarni joriy qilish asosida ta’lim tizimini takomillashtirishdagi mavjud muammolarga aniqlik kiritildi. Mazkur masalalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmokda.

Bugungi keskin raqobatchilik va iqtisodiy globallashuv sharoitida oliy ta’lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning tayyorgarlik sifati, ularning salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar o‘tkir muammoga aylanmoqda. Buning ustiga, mamlakatimiz ta’lim tizimida, xususan oliy ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e’tirof etildi degan fikr-mulohazalar bilan chegaralanib qolmasdan, uning sifat jihatlarini yanada

oshirish yo‘lida to‘xtab qolmasligimiz, bu boradagi ishlarimizni yanada yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozimligi ta’kidlanmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotini takomillashtirish va jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashtirish uchun mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarining ilmiy potensialidan o‘rinli foydalanish zarur. O‘z navbatida, bu masala regional mikyoslarda amalga oshiriladigan innovatsion va ilmiy-texnik siyosatni yuritish borasida qilinishi lozim bo‘lgan ishlar tizimida oliy o‘quv yurtlarining innovatsion potensiali tutgan o‘rnini belgilab beradi. Boshqaruv faoliyatining mohiyati to‘g‘risida g‘oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi muvaffaqqiyatlar toborayotganligidan kelib chiqqan holda, boshqaruv faoliyatining ilmga bo‘lgan talabi ham to‘xtovsiz o‘sib boradi. Bir tomondan, fan boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo‘lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o‘z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar, fan va ishlab chiqarishni yanada mustahkam aloqasini ta’minlash, ilmiy tadqiqot tashkilotlari hamda real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o‘rtasida uzviy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, innovatsion g‘oyalar va loyihalar ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Ta’lim va amaliyotning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash, kadrlarni amaliyotda ishlashga tayyorlash, ilm-fan yutuqlarini ta’limga keng joriy qilib borish, ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, mustaqil ta’lim OTMda innovatsion ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta’lim va tarbiyani qo‘shib olib borish, yuksak ma’naviy fazilatlarga ega intelligensiyani tarbiyalash, jamiyatda oliy ma’lumotli Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida: kelgan vaziyat, xalqaro globallashuv jarayonlari kuchayishi natijasida innovatsion iqtisodiyotni barpo etish yo‘lida bajarilishi lozim bo‘lgan choratadbirlar natijasida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifaning nechog‘lik samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta’minlashga katta ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Chunki, amaliyotdan ma’lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning samaradorligi bu borada belgilangan vazifalarni bajarishga safarbar qilinadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. un yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

- oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shartsharoit yaratish;

- sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta’minlash.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;

- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish; oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

- ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish; yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;

- oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash;

- oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish;

- oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash;

- ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash, bu borada kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish;

- ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish; -ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o‘zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish;

- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o‘qishni tamomlaganlaridan so‘ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo‘lga qo‘yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

- milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog‘ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o‘quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

- oliy ta’lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiytexnik ma’lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy texnik ma’lumotlar yangiligini ta’minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

- ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

- oliy ta’lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma’lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog‘oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o‘quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta’minlovchi «Elektron universitet» platformasiga bosqichma-bosqich o‘tish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

- oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilib kelmoqda:

- xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e’lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko‘rsatkich «Xirsh» indeksi (hindeks) yuqori bo‘lgan olimlar, professor-o‘qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirib borish tizimini joriy etish;

-oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko‘tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma’lumotlar bilan ta’minlash mexanizmlarini yaratish,

-ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish xorijiy oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta’lim muassasalarining faol hamkorligini yo‘lga qo‘yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

-ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta’lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, «ustoz-shogird» tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma’lumotlar elektron bazasini yaratish; kabi ustivor vazifalar ko‘yilgan .

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa shuki, ta’lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat rivojlanishi va innovatsiyalarni boshqarish muammolarining metodologik asoslarini zamonaviy talablarga asoslangan holda ishlab chiqish zarur. Ta’lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat samarasi oliy ta’lim tizimining innovatsion maqsadlari va imkoniyatlariga, xodimlarning innovatsion fikrlash qobiliyatlariga bog‘liqdir.

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA MA’SULIYAT MUAMMOSINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari doktori professor M.V.Xalimova.

Annotatsiya; Ushbu maqolada ijtimoiy psixologiyada ma’suliyat muammosi xaqida so’z yuritilgan. Ma’suliyat psixologiyasi chet el olimlari tomonidan qanday talqin qilingani va bu qarqshlar shaxning axloqiy rivojlanishiga ta’siri o’rganilgan.Olimlar tamonidan olib borilgan eksperimentlar taxlili xam keltirilgan.

Kalit so’zlar; Axloqiy ma’suliyat, ijtimoiy xulq-atvorni, avtonom subektiv ma’suliyat, uyushma, shaxsni boshqarish omili.

Ijtimoiy psixologiyada ma’suliyat tushunchasini o’rganishda turli yondashuvlar va tadqiqotlarni taxlil qilish orqali erishiladi. Bu borada CHet el olimlarining qarashlari asoslidir. J.Piaje bolaning axloqiy rivojlanish bosqichlarini inobatga olib, tashqi ijtimoiy me’yorlarni o’zlashtirish orqali ma’suliyatning ichki asosini shakllantirishga e’tibor qaratadi. Muallif ma’suliyatni bolaning axloqiy rivojlanishining umumiy jarayonining qismlaridan biri deb hisoblagan. Axloqiy ma’suliyat nazariyasida J.Piaje ma’suliyatni shakllantirishning ikkita asosiy bosqichini aniqladi: ob’ektiv va subektiv. Birinchisi ijtimoiy xulq-atvorni (o’yinlar orqali) o’zlashtirishda yuzaga keladi, ikkinchisi esa shaxsiyatning yuqori darajadagi rivojlanishini aks ettiradi. [1]

L.Kolbergning tadqiqotlarida bu muammo kuyidagicha yoritilgan . Muallif axloqiy ongni rivojlantirishning asosiy omili sifatida shaxsning atrof-muhit bilan faol ijodiy aloqasi muhimligini

ta’kidlaydi. Gipotetik axloqiy dilemma mavzularini sub’ektlar tomonidan hal qilingan umumiy ikkita qabul qilingan axloqiy me’yorlarning teskari yechimi tahlilida axloqiy ongning rivojlanishining besh bosqichi ajratib ko’rsatilgan:

1. "ob’ektiv ma’suliyat"
2. "subektiv ma’suliyat"
3. "asboblar almashinuvi"
4. "ijtimoiy tizim va vijdon axloqi"
5. Jamiyatda qabul qilingan axloq tamoyillariga asoslangan ma’suliyatni tushunish. L. Kolberg kontseptsiyasida shaxsning atrof-muhit bilan faol o’zaro ta’siri jarayoni sifatida ma’suliyatning shakllanishini tushunishdan tashqari, u ijtimoiy xatti-harakatlarni tartibga soluvchi sifatida ma’suliyatga alohida ahamiyat beradi. K.Xelkama ma’suliyat jarayonini o’rgangan. U ma’suliyatni rivojlantirishning bir qator bosqichlarini aniqlaydi:

1. Avtonom subektiv ma’suliyat
2. Ma’suliyat ijtimoiy xodisa sifatida
3. Axloqiy ma’suliyat

F. Heyder kauzal atribut tushunchasining asosiy tamoyillarini bayon qildi. Ushbu yo’nalish xorijiy psixologiyada keng tarqalgan bo’lib, ma’suliyatning subektiv tomonini ochib beradi. Kauzal atributi (sabablarni aniqlash) odamlarning kundalik hayotida ma’lum bir hodisalarning sabablarini tushuntirishga harakat qilganda yuzaga keladigan hodisa. SHuning uchun kontseptsiya "ko’chadan kelgan odam" ning ma’suliyatligi namoyon bo’lishining xatti-harakatlari va xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Kontseptsiya asosidagi uchta asosiy faraz F. Xeyderga shunday xulosaga kelish imkonini berdi, odamlar sababni aktyorga ("Aktyor") yoki atrof-muhitga bog’lashga moyildirlar.

“Birinchisi, insonning ijtimoiy xulq-atvorining munosib xulq-atvori ko’p jihatdan bu odamning o’z atrofidagi dunyoni qanday qabul qilishi va tushuntirishini aniqlashga bog’liq.

Ikkinchisi - odamlar atrof-muhitni, ularning atrof-muhitini bashorat qilishni va boshqarishni xohlashadi. Agar ular boshqa odamlarning xatti-harakatlarining sabablarini to’g’ri belgilashga, ijtimoiy hodisalarning kelib chiqish ildizlarini to’g’ri belgilashga qodir bo’lsalar, bu istakni amalga oshirish mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy va jismoniy ob’ektlarni idrok etish o’rtasida qandaydir o’xshashlik bor. ” [2].

Hodisalar, shuning uchun shaxsning tashqi kuchlari va resurslarining nisbati. F. Xayder ta’kidlashicha, bu har ikkala omilning har biri uchun ma’suliyatni olish chorasi shaxsning bahosiga bog’liq. Axir, inson o’zi ta’sir qilishi mumkin bo’lgan voqealar va ularning oqibatlari uchungina ma’suliyatli bo’lishi mumkin. F.Xayder ma’suliyatni aniqlashning 5 darajasini belgilaydi:

1. Assotsiatsiya - inson bilan bog’liq yoki unga tegishli bo’lgan har qanday natija uchun ma’suliyat.
2. Sabab - inson tomonidan "sabab bo’lgan" uchun ma’suliyat. Agar biror kishi biron bir voqea uchun zarur shart bo’lsa, natijani oldindan bilishning iloji bo’lmagan taqdirda ham qayd etiladi.
3. Bashorat - ma’suliyat, agar u maqsadlar bilan bog’liq bo’lmasa ham, oldindan ko’rilishi mumkin bo’lgan har qanday hodisaga tegishli.
4. Niyat - inson tashabbusi bilan boshlangan va u nima qilmoqchi ekanligi uchun ma’suliyat.
5. Oqlash - sodir bo’layotgan narsalar uchun ma’suliyat atrof-muhit bilan taqsimlanadi va qisman u bilan izohlanadi. [2].

Birinchidan beshinchi darajaga qadar sodir bo’layotgan narsalarga shaxsiy hissa ko’proq og’irlik qiladi, ammo beshinchi darajada majburlash holatlari hisobga olinadi, bu esa ma’suliyat darajasini pasaytiradi. Ko’pgina tadqiqotlar vaziyatni ma’suliyatning namoyon bo’lishiga ta’sir qiluvchi omillarga bag’ishlangan. Bu xatti-harakatlarga yordam berish, shafoat qilish va notanish odamga yordam berish kerak bo’lgan vaziyatlarni tadqiq qilishni o’z ichiga oladi. SHunday qilib, Bibb Latane va Djon Darley [3.] izlanishlari yo’lovchilarning ma’lum xizmatlarni amalga

oshirishga bo'lgan talablariga qanchalik javob berishini aniqlashga bag'ishlangan (soat nechada ekanligini ayting, ismingizni ayting, marshrutingizni ko'rsating va hokazo). Tadqiqotchilar so'rovning tabiati, shuningdek murojaat shakli va ketma-ketligi javoblarga va javob darajasiga ta'sir qilishini aniqladilar SHuningdek, murojaat qiluvchining jinsi, yoshi, tashqi ko'rinishi va boshqalar kabi xususiyatlarining ta'siri aniqlandi. Ko'proq moslashuvchan so'rovga qo'shimcha ravishda qo'shimcha yo'lovchining joylashuvi. Ushbu qator tadqiqotlardagi yo'nalishlardan biri ma'suliyatni o'rganishdir. Allen "yo'qolgan yo'lovchi" modelidan foydalangan holda metro poezdlarida tajriba o'tkazdi. Eksperimentator va yordamchining yordami bilan noto'g'ri ma'lumot berish holati yaratildi."Haqiqiy" yo'lovchiga yaqin joyda "Yo'lovchi - eksperimentator". Yo'lovchini dezinfektsiyalash vositasi guvohi tomonidan tuzatilganligi va uning vaziyatga aralashmaganligi bog'liq o'zgaruvchi sifatida harakat qildi. Allenning ikkinchi seriya tajribalari bir nechta bilan o'tkazildi dezinfektorning o'zgargan xatti-harakati, xususan, notekis xatti-harakatlar, shu sababli bu odam deb taxmin qilish uchun, g'azabga moyil. Bir qator eksperimentlarning natijasi ikkita situatsion omil - ma'suliyatni belgilovchi omillarni shakllantirish edi:

"Birinchi holda - to'g'ridan-to'g'ri murojaat, guvoh va" aqldan ozgan yo'lovchi "o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlarini shakllantiruvchi,

ikkinchi holatda - yuzaki xatti-harakatlar yoki dezinfektsiyalash vositasining to'g'ridan-to'g'ri tahdidlari tufayli vaziyatning xavfliligi." [5].

SH. SHvarts tomonidan ilgari surilgan kontseptsiyaga ko'ra, yordam berish holatlaridagi ijobiy xatti-harakatlar ko'proq birgalikda qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar va shaxsiy tajriba, shuningdek shaxsiy ma'suliyatning o'zaro bog'liqligi natijasi bo'lgan "shaxsiy normalar" ta'sir qiladi. SHaxsiy ma'suliyat bu erda "... biron bir harakatning bajarilishini va uning natijasini boshqarish uchun ma'lum bir qobiliyat hissi" tushuniladi. [5b.175] Biror kishining me'yorlarga muvofiq harakat qilishga tayyorligi, uning boshqa odamlar uchun voqealar qanday oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikrlari va bu oqibatlar uning shaxsiy me'yorlariga qanchalik mos kelishi, shuningdek, o'z javobgarligini his qilish darajasi qanchalik yuqori ekanligi bilan belgilanadi. SHaxsiy me'yorlar men tasviri bilan bog'liq bo'lganligi sababli, me'yorni buzish aybdorlik hissi va o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotishga olib keladi, va muvofiqlik mag'rurlikka va o'z-o'zini hurmat qilishning o'sishiga olib keladi. [5].

J. Rotter shaxsni boshqarish omili kontseptsiyasida tashqi omillarga yoki ichki asoslarga yo'naltirish g'oyasini umumlashtirdi. Boshqarishning ikki turi: ichki va tashqi - hodisalarning sabablarini tashqi yoki ichki manbalarga bog'lash uchun shaxsning mulkiga asoslangan shaxsning xatti-harakatlarini tushuntirish uchun ishlatiladi. Hodisalar uchun ma'suliyatni o'ziga jalb qilish, ularni shaxsiy hissalar nuqtai nazaridan tushuntirish va ularning rivojlanishi va natijalariga ta'sir qilish ichki nazoratning ko'rsatkichidir. Nima sodir bo'layotgani uchun tashqi muhit, atrofdagi odamlar va boshqa tashqi omillar uchun ma'suliyatning belgilanishi boshqaruvning tashqi makonidan dalolat beradi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozim ijtimoiy psixologiyada ma'suliyat masalasi, olimlarning ta'kidlashicha axloqiy me'yorlar bilan ob'ektiv va subektiv tarzda shaxs rivojlanishining ilk bosqichlarida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1.Piaje J. Moralnoe sujdenie u rebenka. M.:Akademicheskiy proekt, 2006.480 s.

2.Latane B., Darley J.M. Group inhibition of bystander intervention in emergencies. - Journal of Personality and Social Psychology, 1968, 10. 215221.

3.Latane B., Darley J.M. The Unresponsive Bystander: Why Doesn't He Help?-New Yrk, 1970. 131 p.

4. Muzdыbaev K. Otvetstvennostь lichnosti v proizvodstvennom kollektive. // Sotsialьno-psixologicheskie problemы proizvodstvennogo kollektiva. M., 1983.S. 133-145.

5. Muzdыbaev, K. Psixologiya otvetstvennosti/ Pod red. V.E. Semenova. Izd. 2-e, dop. M.: Knijnыy dom «LIBROKOM», 2010. 248 s.

6. MuzdыbaevK. Ideya spravedlivosti Sotsis. 1992. №11. 94-101.

7. Mukonina M.V. Tipы professionalьno otvetstvennogo otnosheniya rabotnikov opasnogo proizvodstva v raznыx organizatsionno ekonomicheskix usloviyax. Dis ... kand. psixol. nauk. M., 2002. 185 s.

O'SMIRLARDA IJTIMOIY TARMOQLARGA QARAMLIKNING DEVIANT XULQ ATVORGA TA'SIRI VA UNI KORREKSIYALASH USULLARI

G.Suleymanova Andijon Davlat Unversiteti
Psixologiya va Pedagogika kafedrasi dotsenti
Abduqahhorova Mohiraxon Sanjarbek qizi
ADU Amaliy psixologiya yo'nalishi 401-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'smir yoshdagi o'quvchi yoshlarning glaballashuv davridagi zamonaviy texnalogiylardan va internetdan foydalanishning chegarasini bilmasligi yoritiladi. Bunday chegara buzilishlari natijasida o'smir xulq atvorida deviant ko'rinishlarning yuzaga kelishi va sabablari haqida ma'lumotlar beiladi. Muammolarning sabablari natijasida psixologik yordam ko'rsatishning aniq va samarali usullari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlik psixologiyasi, iijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, deviant xulq, internet, agressiya, tajovuz, salbiy va ijobiy ta'sir, emotsional o'zgarish, psixologik bosim.

O'smirlik — bu rivojlanishining 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oluvchi bosqich bo'lib, jismoniy, psixologik, emotsional va ijtimoiy o'zgarishlar kuchli kechadigan davr hisoblanadi. Bu davrda bola endi bolalikdan chiqib, kattalikka qadam qo'yadi, o'zini anglash, mustaqil fikrlash, shaxsiylikni shakllantirish.15-17 yoshdagi o'smirlar ko'pincha o'z hissiyotlarini boshqarishda qiynalishadi. Kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, g'azab va qayg'u kabi kuchli hissiyotlar paydo bo'lishi mumkin. Bugungi raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylangan, ayniqsa o'smirlar orasida ularning ta'siri keskin ortib bormoqda. O'smirlik — bu shaxs shakllanishining eng muhim bosqichi bo'lib, bu davrda yoshlar tashqi muhit, ayniqsa virtual makondagi axborot oqimiga juda ta'sirchan bo'ladilar. ijtimoiy platformalarda o'smirlar ko'pincha o'zlariga taqlid qilish uchun ideal obrazlarni izlaydilar, lekin bu har doim ham ijobiy natija bermaydi. Salbiy kontent, soxta hayot tarzining targ'ib qilinishi, "like" va "ko'rishlar" uchun yashash, internet qaramligi — bularning barchasi o'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar to'g'ri foydalanilganda o'smirlar uchun bilim olish, fikr almashish va kreativlikni rivojlantirish uchun kuchli vositaga aylanishi mumkin.

Shuning uchun ham bu mavzu bugungi kunda nafaqat ota-onalar va o'qituvchilar, balki jamiyatning har bir a'zosi e'tibor qaratishi zarur bo'lgan eng dolzarb masalalardan biridir. Salbiy ta'sirlari:

1. Psixologik bosim – boshqalarning muvaffaqiyatlari yoki tashqi ko'rinishini ko'rib, o'smirlar o'zlarini past baholashi yoki ijtimoiy tarmoqlardagi boshqalarning, ideal" hayotini ko'rgan o'smirlar o'zini pastroq Ko'ra boshlashi, o'zidan norozilik paydo bo'lishi yoki ota-onasini ayblashi menga ham ota – onam shunday hayot qilib berishi kerak degan fikrlar paydo bo'la boshlaydi. Bu esa bolalarda ota- onasi yoki do'stlari bilan munosabati yomonlashishi mumkin. Hozirgi zamonda o'smir yoshdagi bolalar internetdagi boshqa insonlarni "ideal" hayotini ko'rib o'zlariga past baho berishi yoki ota- onasini yomon ko'rib qolishi mumkin. Ular o'ylab ko'rmaydiki ularni ham qayg'u, g'am, tashvishlari bor. Bizga faqat yaxshi hayotini ko'rsatishadi lekin ularni ham hayotida qiyinchiliklar, yo'qchiliklar bo'ladi. Buni hozirgi zamonda o'smir yoshdagi bolalar tushunmaydi va ularga o'xshashga harakat qiladi. Bu borada ota- onalariga qarshi chiqish paytlari ham bo'ladi. 2022-yil AQShda olib borilgan tadqiqotda 13 yoshli qizlar orasida Instagramdan uzoq foydalanadiganlar orasida depressiya va o'ziga past baho holatlari 60%

ko‘proq uchragan. Shu tadqiqotda ishtirok etganlarning 30% “Instagramdagi suratlar meni o’zimdan norozilikka olib keladi” – deb javob bergan.

2. Internetga qaramlik – ortiqcha foydalanish darslarga, sog’liqqa va uyqu rejimiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. O’smir yoshdagi bolalar ko‘p Telefon, planshet, kompyuter va shunga o’xshash uyali aloqalarda vaqtlarini bexudaga sarflashi orqali maktabdagi darslarini o‘z vaqtida qilmay ma’naviy salohiyati pasayib ketmoqda. O’zlarini kelajagiga katta zarar keltirmoqda. Vaqtini bexuda video, kontentlarga sarflash o’rniga kitob o’qisa, o’zini istida ishlab kelajagi uchun qadam tashlasa foydaliroq bo’ladi. Turli xil bekorchi vaqtni oladigan videolar vaqtni olish bilan birga sog’liq uchun ham katta ta’sir qiladi.

3. Kiberbulling (ilmiy tajribalarda aniqlanishicha, o’smirlar “like” olganda ularning miyasida dopamin (baxt gormoni) darajasi oshadi. Shu sababli ular ko’proq post qilishga va fikr kutishga odatlanib qoladi — bu esa qaramlikka olib keladi. Tazyiq– ijtimoiy tarmoqlarda boshqa foydalanuvchilardan salbiy izohlar yoki tazyiqlar olish xavfi mavjud. Tahqirlash va haqorat qilish – kimnidir izzat-nafsini kamsitadigan so’zlar bilan yozish yoki fotosurat yoki video orqali tahdid – kimningdir ruxsatisiz u haqida yomon niyatli kontent tarqatish va shunga o’xshash hodisalar yuz berishi mumkin. Bu oqibatida bolalarda depressiya, uyquning buzilishi va boshqa kasalliklar yuzaga keladi. O’smirlar internet tarmog’ida turli xil kamentariyalarni yozish orqali kimningdir kamsitish holatlari ham kuzatiladi. Bu xolatda ular bir- biri bilan urishish yoki bor- birini yomon so‘zlar bilan kamsitishi mumkin.

4. Sog’ligiga ta’siri- shuningdek ijtimoiy tarmoq yoshlarni vaqtini olish bilan birga ulardan sog’liqlarini ham olib qo’ymoqda. Bolalar ko’p miqdorda internet tarmoqlardan foydalanish jarayonida ularda turli hil kasalliklar kelib chiqmoqda. Jumladan: ko’z kasalliklari, xotiraning pasayishi, bosh og’rishi, tajanglik, depressiya uyquning buzilishi kabi kasallliklarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlarni faqatgina salbiy tomoni emas balki ijobiy tomonlari ham bordir.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, o’smir yoshdagi bolalar uchun bu virtual olam shunchaki muloqot vositasi emas, balki o’zini izlash, rivojlanish va dunyoni anglash sari yo’naltiruvchi keng maydon bo’lib xizmat qilmoqda. Ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlar salbiy jihatlari bilan tilga olinadi, biroq to’g’ri foydalanilgan taqdirda ular o’smirlarning hayotida chuqur va ijobiy iz qoldirishi mumkin. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlar bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. O’quvchi yoshlar bugun YouTube, Telegram, TikTok kabi platformalar orqali fanlar bo’yicha video darslar, interaktiv testlar, tillarni o’rganishga doir kurslarga bemalol kirish imkoniyatiga ega. Bular orqali ular maktabda o’zlashtira olmagan bilimlarni mustahkamlash, yangi sohalarni o’rganish, hatto kelajakdagi kasbini aniqlashda yordam olmoqda. O’quvchilarning mustaqil ta’lim olishga bo’lgan qiziqishi aynan shu platformalar orqali kuchaymoqda. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar o’smirlar uchun ijodkorlikni rivojlantiruvchi muhit ham yaratadi. Musiqa, rasm, raqs, blog yuritish, video montaj, hikoya yozish kabi ko’plab yo’nalishlarda o’zini sinab ko’rgan yoshlar o‘z qiziqishlarini kengaytirib, o’z ustida ishlashga ilhom olishmoqda. Bu esa ularning o’ziga bo’lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, o’z fikrini ochiq bildirish madaniyatini shakllantiradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy tarmoqlar o’smirlar uchun muloqot va hamkorlikni o’rganish maktabi bo’la oladi. Turli hudud va davlatlardagi tengdoshlar bilan fikr almashish, loyiha va tanlovlarda qatnashish, jamoaviy ishlarda ishtirok etish ularning ijtimoiy ko’nikmalarini mustahkamlaydi. Bu esa keyinchalik jamiyatga moslashuvchan, faol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxs bo’lib ulg’ayishlariga zamin yaratadi. Bundan tashqari, ko’plab sahifalar va kanallarda motivatsion kontent, hayotiy maslahatlar, psixologik ko’makka oid postlar va videolar joylashtiriladi. O’smirlar ushbu axborotlar orqali o’z muammolarini yengishga urinadi, ruhiy tayanch topadi, sog’lom fikrlashni o’rganadi. Jamiyatda har bir inson belgilangan qoidalarga, axloqiy me’yorlarga va qonunlarga amal qilib yashashi kerak.

Ammo hayotda shunday holatlar uchraydiki, ayrim insonlar bu me’yorlardan og’ishadi. Shu xulq-atvor me’yorlarini va ularning sabablarini o’rganuvchi fan — deviantologiya deb ataladi.

Deviant xulq-atvor (lot. deviation – og'ish) – ijtimoiy me'yorlarga zid bo'lgan xulq-atvor. Deviant xulq-atvor "ijtimoiy deviatsiya" deb ham ataladi. Deviant xulq-atvor barcha davlat va jamiyat uchun katta ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Psixologik omillar: Shaxsiy xususiyatlar: O'ziga past baho berish, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, impulsivlik, nomukammallik hissi kabi ba'zi shaxsiy xususiyatlar deviant xatti-harakatlar xavfini oshirishi mumkin. Bunday xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar deviant xulq-atvordan kompensatsiya yoki o'zini tasdiqlash usuli sifatida foydalanishlari mumkin.

Kognitiv buzilishlar: Deviant xatti-harakatlar ko'pincha ratsionalizatsiya, mas'uliyatni inkor etish, zararni minimallashtirish, deviant xatti-harakatlarni ideallashtirish kabi kognitiv buzilishlar bilan birga keladi. Bu buzilishlar o'z xatti-harakatlarini oqlash va aybdorlik hissini kamaytirish imkonini beradi. Emotsional muammolar: Hissiyotlarni samarali boshqara olmaslik, surunkali xavotir, tushkunlik, g'azab salbiy his-tuyg'ularni yengish usuli sifatida deviant xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Intellektning past darajasi: Ba'zi hollarda intellektning past darajasi ijtimoiy me'yorlar va deviant xulq-atvor oqibatlarini tushunishni qiyinlashtirishi mumkin. Jarohatli tajriba:

Bolalikda jismoniy, jinsiy yoki emotsional zo'ravonlik, yaqinlarini yo'qotish, oila yoki maktabdagi salbiy tajribalar psixologik salomatlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi va deviant xulq-atvorning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin. Maktabda xulq-atvori o'zgargan bolaga ko'zi tushgan o'qituvchi aksariyat hollarda uni ma'naviyat xonasiga olib kirib tarbiyalashga urinadi. Odatda, erta yoshlikdan rasm solish, haykal yasash, murakkab arifmetik masalani yecha olish, she'riy misralar bitish, musiqa chalish kabi hislatlarga ega bolalar g'ayritabiiy xulq-atvorga ega bo'lishadi. Ularning aksariyati "bebosh bola" laqabini olib maktab o'qituvchisidan dakki yeb yurishadi. Maktab pedagoglari va psixologlari bunday tug'ma qobiliyatli bolalarni yaxshilab o'rganishlari va ularga barcha zarur sharoitlarni yaratib berishlari kerak.

Deviant xulq-atvor tashxisi bola 8-10 yoshdan oshgandan keyin qo'yiladi. Mutaxassislar fikricha, ushbu patologiyaning dastlabki alomatlari 5-6 yoshdan boshlab ko'zga tashlanadi. Deviant xulq atvor o'smirlik davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu muammo klinik psixologlar, psixiatrlar va, ayniqsa sotsial psixologlar uchun tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Shunday bo'lsa da, bunday yoshlar ushbu mutaxassislarga emas, o'zlarining antisotsial xatti-harakatlari bilan huquqni muhofaza qilish organlari qo'liga tushib qolishadi. Bugungi kunda yoshlar ongiga bo'layotgan internet hujumlar, jamiyatdagi parchalanishlar, ijtimoiy tarmoqlarda ahloqsizlik, gomoseksualizm, pornoindustriya rivojlanib borishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali har bir xonadonga kirib kelishi, ijtimoiy tabaqalanish, ommaviy migratsiyalar, davlatlararo urushlar deviantologiya oldiga yangi va yangi vazifalarni qo'ymoqda va yangi tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo qilmoqda. Agar kerakli choralar ko'rilmasa o'smirlar va bolalardagi xulqiy o'zgarishlarnig asosiy sabalari bu atrofdagilarni befarqligi bo'lib qolishi mumkun. Befarq bo'lmaslik va har doim kuzatuvchan bo'lish uchun deviant xulqli bolalarning asosiy belgilarini bilishi kerak.

Asosiy belgilar. Umumqabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga va rasmiy qonun-qoidalarga zid xatti-harakatlar qilish, o'ziga va atrofdagilar mol-mulkiga ziyon yetkazish va bu holatning doimiy ravishda ro'y berib turishi, insonlarni haqorat qilish va doimo urush-janjallar markazida bo'lishi, yonida sovuq qurollar olib yurishga moyillik; Ota-onasi, aka-ukalari, pedagoglar va boshqalarga agressiv munosabatda bo'lish, doimo norozi bo'lib yurish, minnatdorchilik hissining yo'qligi, mehnatdan qochish, yolg'on so'zlash. Maslahat bergan ota-onasi yoki ustozini yomon ko'radi, biroq o'zi aql o'rgatishni xush ko'radi. Hissiy reaksiyalarning noturg'unligi, tez-tez affekt holatlarga tushib turish, kayfiyatning bir yomon bir yaxshi bo'lib turishi (disforiya), to'g'ri maslahat bergan yoki tanqid qilgan odamni yomon ko'rib qolishi, kayfiyati buzilib jazavaga tushishi. Hufiyona hayotga moyillik. Bunday o'smirlar yolg'izlikni yaxshi ko'rishadi, ota-onasi bilan birga ovqatlanishni xush ko'rishmaydi, xonasiga qamalib olib internetga qaram bo'lib qolishadi, pornofilmlarga moyilligi kuchli bo'ladi, ko'p dars qoldiradi, ko'chaga chiqib bolalar bilan o'ynamaydi, janjalkash odati tufayli do'stlari bilan chiqishmaydi, nari borsa 1-2 ta bola bilan do'st tutishadi xolos. U ham o'ziga o'xshagan bo'ladi. O'quvchilarda deviant xulq belgilarini erta

aniqlash bo'yicha kuzatish va diagnostika metodlari. O'smirlarning deviant xulq-atvori diagnostikasi. Deviant xulq-atvorni erta aniqlash — maktab psixologining eng muhim vazifalaridan biri. Agar og'ishishlar vaqtida sezilsa, ularni bartaraf etish oson bo'ladi va bola sog'lom rivojlanishiga qayta yo'naltiriladi. Shu maqsadda kuzatish va diagnostika metodlari qo'llaniladi. Kuzatish metodi: O'quvchining tabiiy sharoitdagi (sinfda, uyda, tengdoshlar orasida) xatti-harakatini diqqat bilan kuzatish. Belgilari: Intizomsizlik, qo'pollik, agressiya; Jamoadan tashqari yolg'izlik yoki izolyatsiya; Sababsiz dars qoldirish, uy vazifalarini bajarmaslik; Zararli odatlarga qiziqish (sigareta, telefon, internet). Kuzatish o'quvchining real muhitidagi holatini ko'rishga yordam beradi.

Lekin obyektivlik uchun uni uzoq muddatda va turli sharoitlarda olib borish kerak. Suhbat va anketa metodi: Bolaning ichki dunyosi, fikrlari va his tuyg'ularini bilish. Qo'llaniladigan usullar: 1.Individual suhbat (ishonchli muhitda); 2. Guruhli anketa (masalan, "Mening oilam", "Mening do'stlarim", "Men nimaga qo'rqaman?" kabi). Bolaning ehtiyojlari, muammolari va qiziqishlarini ochishda samarali. Sotsiometriya metodi: Sinf jamoasida o'quvchining o'rnini va tengdoshlari bilan munosabatini aniqlash. Misol: Boladan "Sen kim bilan bir guruhda ishlashni xohlaysan?" deb so'ralsa, javoblar orqali u sinfda lidermi, chetlatilganmi yoki izolyatsiyada ekanligi ko'rinadi.

Agressiya, bulling qurboni yoki ijtimoiy izolyatsiyadagi bolalarni erta aniqlash mumkin. Test va psixodiagnostika metodlari Qo'llanadigan testlar:

1. Agressiya darajasini o'lchash testlari (Bass-Darki shkalasi va h.k.);

2. Xavotirlanish darajasi (Spilberger shkalasi);

3. Depressiya, o'zini baholash testlari; 4. Qimorli o'yinlar, internet, gadjetlarga qaramlik testlari.

Bolaning ichki ruhiy holatini chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Ota-ona va o'qituvchilardan ma'lumot yig'ish: Bolaning uy va maktabdagi xatti-harakatini qiyosiy tahlil qilish. Usullar: 1. Ota-onalar bilan intervyu; 2. O'qituvchilardan bola haqida fikr olish. O'quvchi turli muhitlarda o'zini qanday tutishi haqida to'liq tasavvur shakllanadi. Deviant xulq-atvorni erta aniqlashda kompleks yondashuv zarur: kuzatish, suhbat, sotsiometriya, test va ota-onadan ma'lumot olish. Bu usullar maktab psixologiga har bir o'quvchining holatini aniq ko'rish va vaqtida chora ko'rish imkoniyatini yaratadi. Tanlangan metodika: A.Yu. Yegorovning Internetga Qaramlik Testi Bu metodika o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik darajasini aniqlashga yordam berish bo'lib, bunda ball qaramlikning yuqori darajasini bildiradi. Test vositalariga ko'ra, o'smir sinaluvchilarlar uch guruhga ajratiladi: Past Daraja: Qaramlik yo'q yoki juda past. O'rtacha Daraja (Xavf Guruhi): Qaramlikning dastlabki bosqichi, ostida. Yuqori Daraja (Qaram): Ijtimoiy tarmoqlarga yaqin qaramlik mavjud. Tanlangan kontingent: 15 nafar 9-10-sinf o'quvchilari (15-17 yosh). Natijalarining Umumiy Tahlili. Yuqori Daraja (Qaram): 6 nafar o'quvchi (40%) O'rtacha Daraja (Xavf Guruhi): 5 nafar o'quvchi (33,3%) O'tgan Daraja: 4 nafar o'quvchi (26,7%). Umumiy qilib olganda tanlangan ishtirokchilarning 73,3% i ijtimoiy tarmoqlarga o'rtacha yoki yuqori darajada qaramlik ostida aniqlandi. Bu metodikaning asosiy taxlilida deyarli sinaluvchilarning barchasi inernetga tobe bo'lib qolgan. Bunday xolat ortidan turli xulqiy og'ishlarning ham kelib chiqish ehtimoli yuqori bo'lib, sinaluvchilarning barchasiga kichik korreksion dastur asosida yordam berish ishlarini olib borish zarur. Ularning hayotiga faoliyatiga o'zlarini rivojlantiruvchi, o'z qiziqishlari asosida tuzilgan ijobiy va rivijlantiruvchi faoliyatlar jadvalini tuzish va bularning barchasida ishtirok etishiga o'zida ishonch uyg'otish, motivatsiya berish va eng asosiysi uning qilayotgan ishlariga psixolog va atrofdagilarning ishonchli munosabatini shakillantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Psixologlarning yana bir vazifasi bu shu dasturiy ishlar amalga oshayotganda sinaluvchining faoliyatini birma bir kuzatib borish hamdir.

Xulosa qilib aytganda takidlab o'tilgan barcha qarashlar fikirlar va qo'llaniladigan psidokorreksion va diagnostik metodika usullar o'smirlar va ularning xulq atvoridagi, faoliyati xatti harakatlaridagi o'zgarishlarning sabab oqibatlarini belgilash ularni oldini olishga qaratilgan. Umumiy qilib olganda o'smirlik xususiyatlari u psixologik bo'ladimi biologik yoki ijtimoiy ta'sir

natijasidami alohida e’tibor talab qiladigan yosh davri hisoblanadi. Bugungi galoballashuv davrining zamonaviy texnologik qurilma va sytlarida o’smirning xulqiga noto’g’ri ta’sir qiluvchi axborot oqimlari bor ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ammo internet yoki ijtimoiy tarmoqlarning faqat salbiy emas ijobiy yomonlari bor ekanligini ko’zda tutgan holda o’smir yoshlarimizga internetdan to’g’ri foydalanishni o’rgatish uchun maktab litseylarda qo’shimcha mashg’ulotlar tashkil qilinishi, oila muhitida esa ota onalarning zamonaviy qurilmalardan foydalanish ko’nikmalarini oshirish uchun mahalla faollari ishtirokida “Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning eng oson yo’llarini o’rganish” mavzusida seminar va ma’ruza daslarini tashkil qilish va bunga barchani faollik bilan ishtirok etishga jalb qilish maqsadga muofiq bo’ladi. O’smirlardagi deviant xulqning namoyon bo’lishiga turli hil sabablar mavjud. Ammo hozirgi zamonning eng dolzarb sabablaridan biri bu ijtimoiy tarmoqlardagi har hil video, adabiyot , o’yinlarning bola xulqiga noto’g’ri ta’siri hisoblanadi. Zamonimizning o’smirlari hozirgi kunda turli jangari o’yinlarni o’ynash orqali turli agressiv hatti harakatalrni atrofdagilarga eng og’iri ziyon yetkazish darajasida ko’rsatib bermoqda. O’smirlarning bo’sh vaqtini unumli emas qandaydir o’yinlar bilan o’tkazishi bu oilada ota onaning farzandining kelajagiga, bilim olishiga, hoyotiy faoliyatiga befarq ekanligini ko’rsatib bermoqda. Asosiy taliflar o’smirning bo’sh vaqtini unumli qilish uchun maktab psixologlari mahalla oila birgalikda o’smir qiziqishlarini hisobga olgan holda rejali dastur tuzishi va bu dasturni faol borishini nazorta qilishi zarur. Kelajag shu yoshlar qo’lida ekanligini unutmagan holda farzandlarimiznining taqdiriga befarq qaramaslik bizni shiorimiz bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Asadov Yu, R. Musurmanov “O’smirlar deviantxatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” -T. Sano standart, 2011.
2. Zmanovskaya Ye.V. Deviantologiya: (Psixologiya otklonyayuщegosya povedeniya). – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya”, 2004.
3. Komilova N.G’. Xulqi og’ishgan bolalar psixologiyasi: Uslubiy qo’llanma. – T., 2008
4. Nazarova G’.R. Rivojlanish psixologiyasi. – Buxoro: Ilm nuri, 2021.
5. Ergasheva D.N. Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar: psixologik yondashuv. – Qarshi: Nasaf, 2022.
6. Beron R., Richardson D. Agressiya. – SPb.: Izdatelstvo “Piter”, 2000.
7. Berkovis L. Agressiya: prichinы, posledstviya i kontrol. – SPb.: praym YEVROZNAK, 2001.
8. Breslav G.E. Psixologicheskaya korreksiya detskoy i podrostkovoy agressivnosti. – SPb.:Rech, 2004.
9. Gippenreyter Yu.B. Obщatsya s rebenkom. Kak? — M.: CheRo, 1991
11. Deviant xulq-atvorli o’smirlarning ijtimoiy-pedagogik tomoni: https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/931
12. Deviantulq-atvorli o’smirlarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashning yordami xzi: https://pedagoglar.org/02/article/download/845/770/1496
13. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik-XXI asr epidemiyasi: https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/ijtimoiy-tarmoqlarga-qaramlik-xxi-asr-epidemiyas

ЗЎРАВОНЛИК ФЕНОМЕНИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Андижон давлат университети
Психология ва педагогика
кафедраси доценти Ё.М.Юсупова

Аннотация: Мазкур мақолада зўравонлик феноменининг психология фани нуқтаи назаридан моҳияти, унинг индивидуал-шуҳсий, эмотсионал, мотивацион ва когнитив

асослари ёритилади. Зўравонлик хулқининг шаклланишида оилавий муҳит, тенгдошлар гуруҳи, оммавий ахборот воситалари ва шахсий хусусиятларнинг ўзаро таъсири илмий жиҳатдан таҳлил этилади. Шу билан бирга, зўравонликнинг психологик механизмлари, агрессия ҳақидаги классик назариялар ҳамда профилактика ва психокоррекция йўналишларига оид баъзи амалий тавсиялар келтирилган.

Калит сўзлар: зўравонлик, агрессия, психология, эмотсионал ҳолат, когнитив схемалар, мотивация, ижтимоий муҳит.

Зўравонлик муаммоси инсоният тарихининг деярли барча даврларида мавжуд бўлиб, у жамият, группа ва якка шахс даражасида ўта оғриқли ижтимоий-рухий оқибатларни келтириб чиқаради. Психология фани зўравонликни фақат ҳуқуқий ёки ахлоқий нуқтаи назардан эмас, балки шахснинг ички дунёси, унинг эҳтиёжлари, ҳис-туйғулари, тасаввур ва ишончлари билан боғлиқ комплекс психологик ҳолат сифатида ўрганади. Зўравонлик хулқи тасодифий эмас, балки муайян психологик механизмлар ва ижтимоий омиллар таъсирида шаклланади. Зўравонликнинг психологик хусусиятларини ўрганиш, аввало, унинг ички мотивларини, агрессия манбасини, қурбон ва тажовузкор ўртасидаги муносабат динамикаси ва зўравонликни оқлайдиган ёки унга қаршилик кўрсатадиган когнитив схемаларни таҳлил қилишни талаб этади. Мазкур мақолада зўравонлик феноменининг баъзи асосий психологик жиҳатлари босқичма-босқич тавсифланади.

1. Зўравонлик тушунчаси ва психологик назарий ёндашувлар.

Психологияда зўравонлик кўпинча агрессия тушунчаси билан узвий боғланибқаралади. Агрессия – бу бошқаларга жисмоний ёки маънавий зарар етказишга қаратилган онгли ёки яримонгли хатти-ҳаракатлар мажмуаси сифатида таърифланади. Зўравонлик эса агрессиянинг чегарадан ошган, ижтимоий меъёр ва қонунларни бузувчи, тизимли ва кўпинча асимметрик куч муносабатларига асосланган шаклидир. Психологик ёндашувда зўравонлик фақат ҳаракат эмас, балки маълум дунёқараш, ички руҳий ҳолат ва қадриятлар тизимининг ифодаси сифатида ҳам талқин қилинади. Зўравонликни тушунтирувчи бир қатор классик назариялар мавжуд. Биологик ёндашувда агрессия инсон табиатига хос, эволюцион механизм сифатида қаралади; у ўзини ҳимоя қилиш, ресурслар учун курашиш каби вазифаларни бажаргани таъкидланади. Бихевиористик назарияларга кўра эса зўравонлик ўрганилган хулқ-атвор бўлиб, мукофотланиб борилган тақдирда мустаҳкамланади. Масалан, бола зўравон хатти-ҳаракат орқали мақсадига эришса, у мазкур усулни самарали деб қабул қилади ва кейинчалик ҳам қўллашга мойил бўлади. Когнитив ёндашув зўравонликни инсоннинг воқеликни қандай талқин қилиши, бошқалар ҳақидаги стереотиплар ва ички ишончлари билан боғлайди. Масалан, “дунё хатарли жой”, “ҳар ким фақат ўз манфаатини ўйлайди”, “муаммоларни куч билан ҳал қилиш керак” каби схемалар тажовузкор реакцияларга замин яратади. Психоаналитик қарашларда эса агрессия ички конфликтлар, фрустрацияланган эҳтиёжлар, болаликда бошдан кечирилган травмалар билан боғлиқ ҳолда изоҳланади.

2. Зўравонликнинг эмотсионал ва когнитив-психологик механизмлари

Зўравонлик хулқининг юзага чиқишида эмотсионал жараёнлар марказий ўрин тутади. Юқори даражадаги ғазаб, хавф ҳисси, таҳқирланганлик ёки адолатсизликка учраганлик туйғулари шахсни тажовузкор реакцияга этаклаши мумкин. Агар шахс ўз ҳис-туйғуларини тинич ва конструктив шаклда ифода этиш кўникмаларидан маҳрум бўлса, у зўравонлик орқали ички зўриқишни «ташқарига чиқариш»га уринади. Шу жиҳатдан, эмоционал интеллект даражаси паст бўлган шахсларда зўравонликка мойиллик юқорироқ экани кўплаб тадқиқотларда қайд этилган. Когнитив механизмлар зўравонликка муайян маъно бериш, уни оқлаш ёки аксинча, унга қаршилик кўрсатишда намоён бўлади. Масалан, агар шахс “қурбон элитадан эмас”, “у жазога арзийди”, “мен ундан кучлиман, демак устунман” каби фикрларга ишонса, у ўз тажовузини ички жиҳатдан оқлайди ва виждон азобини камроқ ҳис этади. Зўравонликнинг таҳдидни каттароқ кўриши ва инсонларни дегуманизация

қилиш (олдиндан «одам эмас», “гуноҳкор” сифатида қабул қилиш) каби когнитив дисторсиялар билан боғланиши ҳам муҳим психологик хусусиятдир. Мотивацион нуқтаи назардан қаралганда, зўравонлик орқали шахс бир қатор мақсадларга эришиши мумкин: куч ва назоратни ҳис этиш, мавқе ошириш, ички хавотирни камайтириш, жамият ёки гуруҳ томонидан тан олиниш ва ҳоказо. Айрим ҳолларда зўравонлик “ўзини ҳимоя қилиш” ёки “адолат тиклаш” деган ниқоб остида намоён бўлади. Бу ҳолда тажовузкор ўзини эмас, балки қурбонни айбдор сифатида қабул қилади; бу эса психологик ҳимоя механизмларининг (проекция, рационализация ва бошқалар) фаоллашувини кўрсатади.

3. Шахс, оила ва ижтимоий муҳит омиллари.

Зўравонликнинг психологик хусусиятлари унинг индивид, оила ва кенг ижтимоий муҳит таъсирида шаклланишини кўрсатади. Шахсий даражада темперамент, асаб тизими лабиллиги, импульсивлик, эмпатия (ҳамдардлик) даражаси, ўзини баҳолашнинг хусусиятлари муҳим рол ўйнайди. Ҳис-туйғуларини назорат қила олмайдиган, бошқалар дардига бефарқ, ўзига ишончи ноустувор шахслар кўпроқ зўравонликка мойил бўлиши мумкин. Оилавий муҳитда доимий жанжаллар, жисмоний жазо, ҳақорат ва таҳқир, зўравонликни нормал хол сифатида кўрсатувчи тарбия моделлари болалар ва ўсмирларда тажовузкор хулқ учун асос яратади. Бола катталарнинг ўзаро муносабатини кузатиб, “муаммо куч билан ҳал этилади” деган хулосага келиши мумкин. Аксинча, мулоқот, ҳурмат, келишув асосида ташкил этилган оилавий муҳит зўравонликни эмас, балки ҳамкорлик ва ҳамдардликни қўллаб-қувватлайди. Ижтимоий муҳит – тенгдошлар гуруҳи, таълим муассасаси, маҳалла, оммавий ахборот воситалари ва интернет макони – ҳам зўравонликни кучайтирувчи ёки камайтирувчи омил сифатида намоён бўлади. Зўравонлик, қаҳрамонлик ва таҳқирни романтиклаштирувчи фильм, ўйин ва контентлар шахсда агрессив сценарийларнинг шаклланишига хизмат қилади. Шу билан бирга, ҳуқуқий саводхонлик, ҳурмат, инсон ҳуқуқларини эътироф этиш каби ижтимоий қадриятлар устувор бўлган муҳит зўравонликка нисбатан психологик тўсиқларни кучайтиради.

Хулоса қилиб айтганда, зўравонликнинг психологик хусусиятлари унинг кўп омилли, кўп даражали ва комплекс феномен эканлигини кўрсатади. Зўравон хулқ шахснинг эмоционал барқарорлиги, когнитив схемалари, мотивацион эҳтиёжлари ва ижтимоий муҳит билан узвий боғлиқ ҳолда юзага келади. Шу сабабли, зўравонликка қарши кураш фақат жазо чоралари билан чекланиб қолмаслиги, балки эмоционал интеллектни ривожлантириш, ҳамдардлик ва мулоқот кўникмаларини шакллантириш, оилавий тарбияни такомиллаштириш, оммавий ахборот воситаларида масъулиятли контентни рағбатлантириш каби комплекс психопрофилактика ва психокоррекция чоралари билан тўлдирилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бандура А. Агрессия: социально-когнитивная теория. – М., 2000.
2. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности. – М., 1994.
3. Бошиева С. Зўравонлик психологияси. – Тошкент: Фан, 2019.
4. Жуманиёзова Д. Агрессив хулқнинг психокоррекция усуллари. – Тошкент, 2022.
5. Zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar to‘plami. – Toshkent, 2023.

O‘SMIRLIK DAVRIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA MOYILLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Abayev Abduvohid Abdulhamidovich
Psixologiya va pedagogika kafedrasi o`qituvchisi
Andijon davlat universiteti. Andijon shahri
akbarovakbar865@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ishda o‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga moyillikning psixologik va ijtimoiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘smirlarning raqamli muhitga jalb etilish sabablari, ularning shaxsiy rivojlanishiga, kommunikativ ko‘nikmalariga hamda emotsional holatiga ta’siri nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, texnologik qaramlikning shakllanish omillari va uning profilaktik yo‘nalishlari yoritilgan. Natijalar o‘smirlarning raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro munosabatini psixologik jihatdan chuqur tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, raqamli texnologiyalar, psixologik moyillik, texnologik qaramlik, raqamli muhit, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu texnologiyalar shaxs rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘smirlar axborot izlash, muloqot qilish, o‘qish va hordiq chiqarishda ko‘proq raqamli muhitdan foydalanadilar. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarga haddan tashqari moyillik ularning emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari hamda kognitiv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun o‘smirlarning raqamli texnologiyalarga bo‘lgan moyilligini psixologik nuqtai nazardan o‘rganish, uning shakllanish mexanizmlari va oqibatlarini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Mazkur ishda o‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga moyillikning nazariy asoslari yoritilib, bu jarayonning psixologik, ijtimoiy va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

So‘nggi tadqiqotlar raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘smirlarning rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta’sirlarini ko‘rsatmoqda. Twenge (2017) o‘z tadqiqotlarida o‘smirlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining oshishi ularning ijtimoiy ko‘nikmalari, diqqat markazi va emotsional barqarorligiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi.[12].

Bizningcha, o‘smirlarning raqamli texnologiyalardan, ayniqsa smartfon va internetdan haddan tashqari foydalanishi ularning ijtimoiy ko‘nikmalari zaiflashishiga, diqqatni jamlash qiyinchiliklariga va emotsional barqarorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Twenge (2017) fikriga ko‘ra, raqamli vositalarga haddan ortiq bog‘lanish o‘smirlarning real hayotdagi muloqotdan chetlashishiga, psixologik beqarorlikka va uzoq muddatli rivojlanish muammolariga sabab bo‘ladi.

Xususan, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq muddat foydalanish o‘smirlar orasida o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasining pasayishi va tashvish holatlarining ko‘payishiga olib kelishi mumkin [13].

Bizningcha, ijtimoiy tarmoqlardan uzoq muddat va nazoratsiz foydalanish o‘smirlar psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, bu holat o‘z-o‘zini hurmat qilish darajasining pasayishi, tashvish va xavotir holatlarining kuchayishi, hamda o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali emotsional beqarorlik rivojlanishiga olib keladi.

O‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga moyillikning psixologik mexanizmlari ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida muhokama qilinganidek, raqamli muhit o‘smirlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish imkonini bersa-da, uning uzoq muddatli oqibatlari ko‘pincha salbiy bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish o‘smirlarning real hayotdagi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qilishi va yuzma-yuz munosabatlarni qisqartirishi mumkin [11]. Bu holat o‘smirlar orasida ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlik hissi kuchayishiga olib keladi, bu esa ularning psixologik farovonligiga putur yetkazadi.

Raqamli texnologiyalarga moyillikning yana bir muhim ijtimoiy-psixologik oqibati o‘smirlarning o‘z-o‘zini taqqoslash tendensiyasining kuchayishidir. Ijtimoiy tarmoqlar platformalarida idealizatsiyalangan hayot tarzi va tashqi ko‘rinish namoyish etilishi o‘smirlarning o‘zini boshqalar bilan solishtirishiga olib keladi, bu esa past o‘z-o‘zini hurmat qilish va tana imidjidan norozilik kabi muammolarni keltirib chiqaradi [4].

Bu jarayon, ayniqsa, o‘smir qizlar orasida ko‘proq kuzatiladi, chunki ular ijtimoiy tarmoqlarda tashqi ko‘rinishga urg‘u beruvchi kontentga ko‘proq duch kelishadi. Shu bilan birga,

raqamli muhitda tengdoshlarning bosimi ham kuchayishi mumkin, chunki o‘smirlar ijtimoiy tarmoqlarda "qabul qilinadigan" xatti-harakatlar va imidjni taqlid qilishga majbur bo‘lishadi [2].

Bundan shuni tushunish mumkinki, raqamli texnologiyalarga ortiqcha moyillik o‘smirlarning o‘z-o‘zini idrok etish va baholash jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatib,o‘z-o‘zini taqqoslashning kuchayishi, o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishi, tana imidjidan norozilik, tengdoshlar bosimining oshishi kabi holatlarni kuchaytiradi. Demak, raqamli muhitdagi ijtimoiy solishtirish mexanizmlari o‘smirlarning emotsional barqarorligiga, o‘z-o‘zini baholashiga va psixologik farovonligiga bevosita ta’sir qiladi, va bu jarayon ayniqsa o‘smir qizlar orasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga moyillik nafaqat ijtimoiy-psixologik, balki kognitiv jarayonlarga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oldingi paragraflarda ta’kidlanganidek, raqamli muhit o‘smirlarning psixologik holati va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir qiladi, ammo uning kognitiv rivojlanishga, xususan, diqqat, xotira va muammoni hal qilish qobiliyatlariga ta’siri alohida e’tiborga loyiqdir.

Raqamli texnologiyalardan, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn o‘yinlardan uzoq muddat foydalanish o‘smirlarning diqqat jamlash qobiliyatini zaiflashtirishi mumkin, bu esa “raqamli demensiya” deb ataluvchi holatga olib kelishi haqida tadqiqotlar mavjud [9]. Bu jarayon o‘smirlarning ko‘p vazifali (multitasking) muhitda ishlashga odatlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u diqqatni uzoq muddat jamlashni qiyinlashtiradi va kognitiv resurslarni samarasiz ishlatishga olib keladi.

Demak, raqamli texnologiyalar bilan me’yoridan ortiq shug‘ullanish diqqat barqarorligini kamaytirib, o‘smirlarning o‘quv faoliyati va umumiy kognitiv salomatligiga xavf tug‘diradi.

Addiksiya, psixologiya va tibbiyot nuqtai nazaridan, shaxsning muayyan modda yoki xatti-harakatga (masalan, raqamli texnologiyalarga) patologik darajada qaram bo‘lishi sifatida ta’riflanadi, bu esa uning hayot sifati, ijtimoiy munosabatlari va psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi[1].

Addiksiya — bu shaxsning ma’lum bir modda yoki xatti-harakatga nazoratni yo‘qotgan holda patologik bog‘lanishi bo‘lib, u hayot sifatini pasaytiradi, ijtimoiy aloqalarni buzadi va psixologik hamda jismoniy salomatlikka zarar yetkazadi. Demak, addiksiya faqat individual odat emas, balki kompleks psixososial va tibbiy muammo sifatida qaralishi kerak.

O‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga moyillik ko‘pincha “raqamli addiksiya” yoki “internet-addiksiya” shaklida namoyon bo‘lib, bu holat oldingi paragraflarda muhokama qilingan kognitiv, ijtimoiy va psixologik ta’sirlar bilan uzviy bog‘liqdir. Raqamli addiksiya o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlar, onlayn o‘yinlar yoki boshqa raqamli platformalardan doimiy foydalanishga bo‘lgan nazoratsiz istagi sifatida xarakterlanadi, bu esa ularning o‘quv faoliyati, uyqu rejimi va emotsional barqarorligiga putur yetkazadi [16]. Bundan shuni tushunish mumkinki, o‘smirlik davrida raqamli texnologiyalarga ortiqcha moyillik ko‘pincha “raqamli addiksiya” shaklida namoyon bo‘lib, bu nafaqat psixologik, balki kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ham salbiy ta’sir qiladi.

Mobil telefonlar, xususan, smartfonlar zamonaviy hayotda doimiy hamroh sifatida eng ko‘p afzal ko‘riladigan raqamli qurilmalardan biriga aylandi. Smartfonlar aloqa vositasi, o‘yin-kulgi manbai va kundalik vazifalarni boshqarishda yordamchi sifatida muhim o‘rin tutadi, deyarli to‘laqonli kompyuter funksiyalarini cho‘ntakka sig‘adigan hajmda taqdim etadi [5].

Smartfonlarga qaramlik o‘smirlarning kundalik hayotida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning aksariyati smartfonlarini bir lahza ham qo‘ldan tushirmaydi, bu esa ularning o‘quv faoliyatiga, chuqur fikrlash qobiliyatiga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [14].

Demak, smartfonlardan ortiqcha foydalanish o‘smirlarning nafaqat o‘quv faoliyatini, balki ularning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini ham sekinlashtiruvchi salbiy omil sifatida qaraladi.

Smartfonlarga doimiy e’tibor qaratish o‘smirlarning diqqat jamlash qobiliyatini pasaytiradi, ularning real hayotdagi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi va

psixologik farovonlikni kamaytiradi. Nomofobiya belgilari, masalan, telefonsiz qolishdan qo‘rqish yoki doimiy ravishda bildirishnomalarni tekshirish zarurati, o‘smirlar orasida tashvish va stress darajasini oshiradi [15].

Bizningcha, smartfonlardan doimiy foydalanish va nomofobiya o‘smirlarning psixologik salomatligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, raqamli qaramlik va nomofobiya nafaqat texnologik odat, balki o‘smirlarning ta’limiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga xavf soluvchi psixologik muammo sifatida qaralishi kerak.

Smartfon qaramligining salbiy oqibatlari psixologik va xulq-atvor muammolari, shuningdek, qaram shaxslarning o‘z-o‘ziga samaradorlik darajasining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi[17].

Smartfon qaramligining sabablari va oqibatlari ko‘plab ilmiy nashrlarda o‘rganilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, smartfon qaramligi tashvish va depressiya bilan ijobiy bog‘liqlikni namoyish etadi, bu bog‘liqlik turli yosh toifalarida kuzatiladi va ikki tomonlama xarakterga ega: tashvish va depressiya nafaqat qaramlikning oldingi omili, balki uning oqibati sifatida ham yuzaga keladi [6].

Demak, smartfon qaramligi psixologik omillar bilan o‘zaro mustahkam aloqada bo‘lib, uni faqat texnologik odat sifatida emas, balki psixologik va ijtimoiy salomatlik muammosi sifatida ham ko‘rib chiqish zarur.

Smartfon qaramligining gender farqlari ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar ayollar orasida qaramlik darajasining erkaklarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi [8].

Qaramlik xavfini oshiruvchi omillar sifatida ayol jinsi, internetdan faol foydalanish va tashvish holati aniqlangan [3].

Bizningcha, smartfon qaramligi genderga xos psixologik va ijtimoiy farqlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayollarda xavf darajasi yuqoriroq. Shuning uchun profilaktika va psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqishda gender omillarini hisobga olish muhim.

Mobil qaramlik jonli muloqotdan qo‘rqish sifatida namoyon bo‘lib, shaxs ushbu muloqotni internet yoki telefon orqali almashtirishga intiladi. Oldingi paragraflarda muhokama qilingan smartfon qaramligi va nomofobiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bu holat, shaxsning virtual muhitga haddan tashqari moyilligini aks ettiradi. Virtual muloqotga berilib ketgan odamlar jonli his-tuyg‘ular va emotsiyalarni qadrlash qobiliyatini yo‘qotadi, natijada ular o‘z farzandlariga bu his-tuyg‘ularni qadrlashni o‘rgata olmaydi. [10].

Mobil qaramlikka chalingan shaxs noqulay ijtimoiy vaziyatga tushib qolganda, o‘zini xavfsiz his qilish uchun telefoniga murojaat qiladi. Bu xatti-harakatlar hisob balansini tekshirish, xabar yozish yoki o‘qish, vaqtni ko‘rish, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazish yoki shunchaki tugmalarni bosish kabi harakatlarda namoyon bo‘ladi [7].

Demak, mobil qaramlik nafaqat individual psixologik muammo, balki ijtimoiy va avlodlararo oqibatlarga ham ega bo‘lgan dolzarb hodisadir.

Smartfon—bu doimiy ravishda boshqalarning hissiy va intellektual resurslaridan foydalanish imkoniyati. Bu — noma’lumlikdan, xavfdan va kuchli hissiy holatlardan qochish uchun odatga aylangan vasvasa. Bu odat esa odamning o‘z hissiy va aqliy imkoniyatlariga tayanish qobiliyatini sustlashtiradi. Masalan, bog‘cha yoshidagi bola kimdandir ranjisa, darhol tarbiyachiga yuguradi. Hozirgi zamon odami ham, biror muammo yuzaga kelsa, avvalo kimgadir qo‘ng‘iroq qiladi va o‘z resurslarini esdan chiqaradi. Kuchli hissiyotlarni, ayniqsa salbiylarini boshdan kechira olish va ularni yenga olish qobiliyati har qanday faoliyatda, xoh biznes bo‘lsin, xoh shaxsiy hayotda — muvaffaqiyatning muhim omilidir. Mashhur va muvaffaqiyatli insonlarning tarjimai hollarida ko‘pincha umidsizlik, to‘liq qulash holatlari uchraydi, lekin ular bilan bir qatorda maqsadga erishish istagi kuchli bo‘lgan. Odatda, muvaffaqiyat eng yuqori darajadagi hissiy taranglik—g‘azab, qo‘rquv yoki umidsizlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Mobil telefon qaramligi – bu muammo ilk bor bir necha yil avval ko‘tarilgan, biroq hozirgi vaqtda, rivojlangan davlatlarda har 10 kishidan 7 tasida mobil telefon borligi sababli, bu holat

haqiqiy epidemiyaga aylandi. Mobil aloqa nuqtayi nazaridan qaraganda, odat va qaramlikni ajratish har doim ham oson emas, ammo bu zarur, hatto majburiydir.

Angliyalik sotsiologlar ma'lumotlariga ko'ra:

- 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan britaniyaliklarning 95% i "telefonni doim o'zi bilan olib yurishini" tan olgan.
- 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan respondentlarning 75% i mobil telefonsiz hayotni tasavvur qila olmaydi va uning yo'qolishini katta yo'qotish deb hisoblaydi.
- **70%** odam "mobil telefonsiz yashay olmayman" degan fikrni bildirgan.
- **55%** respondent mobil telefon ularga "shaxsiy muammolaridan qochishga yordam beradi" deb aytgan.
- **40%** odam telefon bilan o'tkaziladigan vaqtni cheklashga harakat qilgan, biroq bunga erisha olmagan.
- **50%** respondent telefonni doim qo'lida yoki hech bo'lmasa cho'ntagida tutishga intiladi.
- **40%** odam kimdir ularning sevimli telefonini qo'liga olsa, jahl qiladi.
- **72%** foydalanuvchi hatto ta'til paytida ham doimiy ravishda yangi xabar kelgan-kelmaganini tekshirib turadi. Ularning har beshchisidan biri esa muhim ish uchrashuvi yoki uchrashuv vaqtida ham xabarga zudlik bilan javob berish uchun suhbatni to'xtatishga tayyor.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, smartfonlardan haddan tashqari foydalanayotgan o'smirlar orasida stress holatlari va kognitiv charchoq belgilari 30–40 foizga ko'proq uchraydi. Bu esa o'smirlarning ruhiy salomatligi va kognitiv funksiyalariga raqamli texnologiyalarning salbiy ta'sirini ilmiy asosda o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, ayniqsa smartfonlar va internetdan foydalanish darajasi o'smirlar orasida sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston Respublikasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vazirligining (2023) ma'lumotlariga ko'ra, 12–18 yoshdagi o'smirlarning 90–92 foizida shaxsiy smartfon mavjud.

Shuningdek, o'smirlarning 87 foizi kuniga kamida 2 soatdan ortiq vaqt davomida smartfonlardan foydalanishini bildirgan. Internetdan foydalanish sabablari sifatida respondentlarning 60 foizi ijtimoiy tarmoqlar va mobil o'yinlarni ko'rsatgan bo'lsa, bu o'smirlarning raqamli texnologiyalardan, asosan, ko'ngilochar maqsadlarda foydalanayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, o'smirlarning 41 foizi smartfondan foydalanganda o'zlarini jamiyatdan uzilgan (ya'ni, izolyatsiya) holatda his qilishlarini bildirgan. 28 foizi esa o'qish jarayonida yoki kundalik vazifalarni bajarishda diqqatni jamlashda muammolarga duch kelayotganini ta'kidlagan.

Qolaversa, 10–15 foiz o'smirlar mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan me'yorlardan (kuniga 5 soatdan ortiq) ko'proq vaqt davomida smartfonlardan foydalanmoqda. Ushbu raqamlar O'zbekiston sharoitida ham o'smirlarning raqamli texnologiyalarga ortiqcha qaramligi ularning psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va kognitiv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Ko'rsatkich	AQSH	O'zbekiston
Smartfon egaligi	95%	90–92%
Har kuni foydalanish	46% (3+ soat)	87% (2+ soat)
Smartfonsiz yashash qiyin	54%	50–55% taxmin
Oqibatlari (stress, charchoq)	30–40% o'sish	25–30% o'sish ehtimoli

O'smirlarning smartfondan uzoq muddatli va me'yordan ortiq foydalanishi turli psixologik muammolar—xususan, kognitiv charchoq, stress holatlari, diqqatning pasayishi va umidsizlik hislarining kuchayishi kabi oqibatlarga olib kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

smartfondan ko‘p foydalanadigan o‘smirlarda kognitiv charchoq belgilari 30–40% ga yuqoriroq darajada namoyon bo‘ladi.

O‘smirlar o‘rtasida smartfon foydalanishning ortishi natijasida psixologik charchoq, diqqat buzilishi va xavotirli holatlarning oshgani kuzatilmoqda. Jumladan, axborot tezkorligi, muloqotning virtualizatsiyasi va tez-tez axborot almashinishi o‘smirlarning psixologik tayyorgarligi va kognitiv imkoniyatlariga katta bosim o‘tkazmoqda.

Bunday tadqiqot nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliyot uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘smirlar o‘rtasida psixologik muvozanatni saqlash, salbiy ta’sirlarni kamaytirish va ongli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo‘yicha aniq statistik ma’lumotlar cheklangan bo‘lsa-da, global tendensiyalar bu jarayonning tezlashayotganini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda smartfonlarga qaramlik va nomofobiya masalasi so‘nggi yillarda dolzarb bo‘lib kelmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda o‘zbek o‘smirlarining katta qismi kuniga 4-6 soat smartfonlardan foydalanishi va bu holatning ularning akademik muvaffaqiyati, uyqu rejimi va psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Smartfonlarga qaramlikning jismoniy va psixologik oqibatlari, masalan, ko‘z charchoqligi, uyqusizlik va depressiya belgilari, o‘smirlarning hayot sifatini pasaytiradi. Shu sababli, O‘zbekistonda nomofobiya va smartfon qaramligining oldini olish bo‘yicha ta’lim dasturlari va psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish zarur. Raqamli muhitdan oqilona foydalanish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish o‘smirlarning sog‘lom psixologik rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Muammoning gender jihatlari bo‘yicha maxsus tadqiqotlar cheklangan bo‘lsa-da, mahalliy o‘smirlar orasida smartfon qaramligining psixologik oqibatlari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu hodisani chuqur o‘rganish O‘zbekistonda ta’lim va psixologik yordam tizimlarida samarali profilaktik strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda bu muammoning oqibatlari mahalliy ijtimoiy-madaniy omillar bilan yanada murakkablashadi, chunki o‘zbek jamiyatida oilaviy va jamoaviy muloqot muhim o‘rin tutadi. Mobil qaramlikka qarshi kurashda o‘smirlar va ularning ota-onalari o‘rtasida jonli muloqotni rag‘batlantiruvchi ta’lim dasturlari va psixologik yordam tizimlarini joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). Washington, DC: American Psychiatric Publishing
2. Boyd, D. (2014). *It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens*. New Haven: Yale University Press
3. Choi, S. W., et al. (2015). Risk factors for smartphone addiction in Korean adolescents: Smartphone use patterns. *Journal of Korean Medical Science, 30*(11), 1677-1683. DOI:10.3346/jkms.2015.30.11.1677
4. Fardouly, J., & Vartanian, L. R. (2016). Social media and body image concerns: Current research and future directions. *Current Opinion in Psychology, 9*, 1-5. DOI:10.1016/j.copsyc.2015.09.005
5. Katz, J. E., & Aakhus, M. (2002). *Perpetual Contact: Mobile Communication, Private Talk, Public Performance*. Cambridge: Cambridge University Press
6. Kim, J. H., et al. (2019). The relationship between smartphone addiction and symptoms of depression, anxiety, and stress in university students. *Frontiers in Psychiatry, 10*, 672. DOI:10.3389/fpsyt.2019.00672
7. King, A. L. S., Valença, A. M., Silva, A. C. O., Baczynski, T., Carvalho, M. R., & Nardi, A. E. (2014). Nomophobia: Dependency on virtual environments or social phobia? *Computers in Human Behavior, 29*(1), 140-144. DOI:10.1016/j.chb.2012.07.025

8. Samaha, M., & Hawi, N. S. (2016). Relationships among smartphone addiction, stress, academic performance, and satisfaction with life. *Computers in Human Behavior, 57*, 321-325. DOI:10.1016/j.chb.2015.12.045

9. Spitzer, M. (2012). *Digitale Demenz: Wie wir uns und unsere Kinder um den Verstand bringen*. München: Droemer Verlag

10. Turkle S.(2015). *Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age*. New York: Penguin Press

11. Turkle, S. (2015). *Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age*. New York: Penguin Press

12. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less

13. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2019). Media use is linked to lower psychological well-being: Evidence from three datasets. Psychiatric Quarterly, 90(2), 311-331

14. Twenge, J. M., & Campbell, W. K. (2019). Media use is linked to lower psychological well-being: Evidence from three datasets. *Psychiatric Quarterly, 90*(2), 311-331. DOI:10. 1007/s11126-019-09630-7

15. Yildirim, C., & Correia, A. P. (2015). Exploring the dimensions of nomophobia: Development and validation of a self-reported questionnaire. *Computers in Human Behavior, 49*, 130-137. DOI:10.1016/j.chb.2015.02.059

16. Young, K. S. (1998). Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior, 1*(3), 237-244. DOI:10.1089/cpb.1998.1.237

17. Шейнов В.П (2019). Зависимость от смартфона: Психологические и поведенческие последство. Вестник Российского университета дружбу народов. Серия*: Психология и педагогика, 16*(3), 345-362.

QOBILIYATLAR KREATIVLIK FENOMENINING ASOSI SIFATIDA

ADU Psixologiya va pedagogika kafedrasi
dotsenti PhD A.A.Odiljonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada kreativlik fenomenining psixologik mohiyati va uning shakllanishida qobiliyatlarning tutgan o‘rni nazariy jihatdan tahlil etilgan. Kreativlik shaxsning individual-psixologik imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liq murakkab hodisa sifatida talqin qilinadi hamda uning rivojlanish mexanizmlarida qobiliyatlar tizimining ahamiyati asoslab beriladi. Ilmiy adabiyotlar tahliliga tayangan holda kreativlik va qobiliyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ochib berilib, qobiliyatlarning kreativ tafakkur uchun psixologik poydevor ekani ta’kidlanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik yondashuvlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, qobiliyatlar, kreativ tafakkur, individual-psixologik xususiyatlar, divergent fikrlash, ijodiy salohiyat, shaxs rivojlanishi, pedagogik sharoitlar.

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida kreativlik fenomeni shaxs taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va innovatsion jarayonlar jadallashgan hozirgi sharoitda jamiyatdan mustaqil, moslashuvchan va ijodiy fikrlay oladigan shaxslarni talab etilishi kreativlik muammosini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, kreativlikning psixologik manbalari va uni belgilovchi asosiy omillarni aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Kreativlik shaxsning yangicha g‘oyalar ishlab chiqish, muammolarga noodatiy yondashish va innovatsion yechimlar topish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Mazkur fenomenning shakllanishi va namoyon bo‘lishida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, xususan, qobiliyatlar muhim o‘rin tutadi. Qobiliyatlar insonning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini belgilovchi psixologik xususiyatlar bo‘lib, ular intellektual, ijodiy, kommunikativ va amaliy jihatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Ilmiy tadqiqotlarda qobiliyatlar kreativlikning ichki resursi, uning rivojlanishi va barqaror namoyon bo‘lishini ta’minlovchi asosiy psixologik poydevor sifatida qaraladi. Aynan qobiliyatlar orqali shaxsning kreativ salohiyati yuzaga chiqadi, takomillashadi va faoliyat jarayonida konkret natijalarda namoyon bo‘ladi. Shu bois, qobiliyatlarni kreativlik fenomenining asosi sifatida o‘rganish shaxs rivojlanishining mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolada qobiliyatlarning kreativlik bilan o‘zaro aloqasi, ularning psixologik mohiyati va kreativ tafakkur shakllanishidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik va psixologik yondashuvlarni ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Kreativlik va qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida uzoq yillardan buyon fundamental tadqiqot obyekti sifatida qaralib kelinadi. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar kreativlikni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, kognitiv jarayonlari va faoliyat samaradorligi bilan bog‘liq holda tushuntirishga qaratilgan.

Klassik psixologik yondashuvlarda qobiliyatlar shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta’minlovchi psixologik xususiyatlar majmui sifatida talqin etiladi. B.M. Teplov qobiliyatlarni bilim va ko‘nikmalardan farqlab, ularni faoliyatni egallash tezligi va sifatini belgilovchi individual xususiyatlar sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv kreativlikni qobiliyatlar rivojlanishining yuqori darajasi sifatida tushunishga zamin yaratadi.

L.S. Vigotskiy ijod va tasavvur muammosini tahlil qilar ekan, kreativlikni inson tafakkurining eng murakkab va oliy shakli sifatida ko‘rsatadi. U kreativ faoliyatning ijtimoiy tabiatini asoslab, qobiliyatlarning rivojlanishi madaniy tajriba, til va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Vigotskiy nazariyasida kreativlik shaxsning mavjud tajribasini yangi kombinatsiyalarda qayta tashkil etish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

G‘arb psixologiyasida kreativlikni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda J. Guilfordning divergent fikrlash konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Uning intellekt tuzilmasi modelida kreativ qobiliyatlar fikrlashning moslashuvchanligi, originalligi va ravonligi orqali izohlanadi. Bu yondashuv kreativlikni intellektual qobiliyatlarning muayyan tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

E. Torrensning tadqiqotlarida esa kreativ qobiliyatlar shaxsning muammoli vaziyatlarda noodatiy yechimlar topish imkoniyati bilan bog‘lanadi. U tomonidan ishlab chiqilgan testlar kreativlikni diagnostika qilishda keng qo‘llanilib, kreativ qobiliyatlarning strukturaviy komponentlarini aniqlashga xizmat qiladi. Torrans yondashuvida kreativlik shaxsning bilish jarayonlari bilan bir qatorda motivatsion va emotsional omillar bilan ham bog‘liq holda qaraladi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda kreativlik fenomeni ko‘p o‘lchovli va tizimli hodisa sifatida izohlanadi. T.A. Barisheva va Y.A. Jigalovlar kreativlikni motivatsion, intellektual, estetik, ekzistensial va kommunikativ komponentlardan iborat murakkab psixologik tuzilma sifatida talqin qiladilar. Ushbu yondashuv qobiliyatlarning kreativlikdagi markaziy o‘rnini yanada aniqlashtiradi.

O‘zbek olimlarining tadqiqotlarida ham kreativlik va qobiliyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim ilmiy masala sifatida yoritilgan. M. Quronov, B. Qodirov, Z. Nishonova va boshqa tadqiqotchilar kreativ qobiliyatlarni shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida baholab, ularning ta’lim-tarbiya jarayonida shakllanish mexanizmlarini tahlil qilganlar. Ushbu izlanishlarda qobiliyatlar kreativlikni rivojlantiruvchi ichki resurs sifatida qaraladi va pedagogik sharoitlar orqali faollashtirilishi mumkinligi asoslanadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik fenomeni qobiliyatlarsiz to‘liq shakllanmaydi. Qobiliyatlar kreativ tafakkurning psixologik asosi bo‘lib,

ularning rivojlanish darajasi shaxsning ijodiy salohiyatini belgilaydi. Mazkur holat qobiliyatlarni kreativlik fenomenining asosiy manbai sifatida ilmiy jihatdan o‘rganish zaruratini yanada dolzarb qiladi. Tadqiqot davomida kreativlik fenomenining psixologik mohiyati va uning shakllanishida qobiliyatlarning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik shaxsning alohida, mustaqil xususiyati sifatida emas, balki uning individual-psixologik imkoniyatlari, xususan, qobiliyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadigan murakkab psixologik hodisadir.

Qobiliyatlar shaxsning muayyan faoliyat turini samarali amalga oshirishini ta’minlovchi ichki resurs bo‘lib, ular kreativ tafakkurning rivojlanishi uchun zarur psixologik asosni tashkil etadi. Aynan qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi shaxsning yangicha fikrlashi, noodatiy yechimlar topishi va innovatsion natijalarga erishish imkoniyatlarini belgilaydi. Shu ma’noda, qobiliyatlar kreativlikning ichki mexanizmi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kreativlik qobiliyatlarning tabiiy yoki ijtimoiy rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, u maqsadli pedagogik va psixologik ta’sirlar orqali rivojlantirilishi mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayonida qobiliyatlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish kreativ salohiyatni faollashtirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, shaxsning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim muhiti kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qobiliyatlarni kreativlik fenomenining asosi sifatida o‘rganish shaxs rivojlanishining chuqur psixologik mexanizmlarini anglash imkonini beradi. Ushbu yondashuv pedagogik va psixologik amaliyotda kreativ shaxsni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Vigotskiy L. S**. Bolalikdagi tasavvur va ijod.** – Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Teplov B. M. **Qobiliyatlar psixologiyasi.** – Moskva: Pedagogika, 1985.
3. Guilford J. P**. The Nature of Human Intelligence.** – New York: McGraw-Hill, 1967.
4. Torrance E. P. **Creativity in the Classroom.** – Washington: National Education Association, 1977.
5. Mednik S. A. **The associative basis of the creative process.** Psychological Review, 1962, №69, 220–232.
6. Barisheva T. A., Jigalov Y. A. **Kreativlik psixologiyasi.** – Sankt-Peterburg: Piter, 2006.

PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE CHILD IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM

Mominova Khijran Eldarovna
Andijan State University,
Teacher of the Department of General Psychology

Abstract. Various situations, contradictions, imbalances that appear in the modern psychological service of preschool education, analytical description of the state of psychological service in preschool educational institutions, experimental study of some individual characteristics of the child's psyche, view of insufficiently studied problems in child psychology Research and practice are extremely important. Two types of problems are considered in our research work, the solution of which makes our work relevant: the psychological preschool service itself - its methodology; relevant and promising working models; supplementing the specific activity of a psychologist with the implementation of preventive, propaedeutic, diagnostic, developmental,

correctional, educational and expert activities; problems of preschool education, solving them in accordance with the ideology of a relevant and promising model of psychological service, reflecting the state of preschool education and the direction of its development.

Key words: psychodiagnostics, individual diagnostic examination, practicing psychologist, behavior, socialization, activity.

Psychological service is an important component of the system of preschool education and upbringing, and psychological service in the system of preschool education is one of the most important aspects of integrated psychological service in our Republic.

As a clear example of this, it is possible to consider the development of a number of decisions and laws related to the preschool education system and psychological services in the education system. In particular, in order to ensure the organization of this field, which is the basic foundation of the education system of our country, at the level of quality and time requirements, President Sh. -measures", dated September 9, 2017 No. PQ-3261 "On measures to radically improve the preschool education system", dated September 30, 2017 No. PQ-3305 "O' Resolutions of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan, as well as Decree No. PF-5198 of September 30, 2017, "On Measures to Fundamentally Improve the Management of the Preschool Education System" are important documents received on time.

Improving education, raising it to the level of world standards, practical implementation of innovations in the field of science remains one of the important issues. At the threshold of the 21st century, the science of psychology and its advanced representatives managed to theoretically and scientifically substantiate their next global scientific goal - the inevitability of the system of providing psychological services to people, and at the same time, to society. In recent years, a number of works have been carried out in the Republic of Uzbekistan to support the training and activities of practicing psychologists in all social spheres. In particular, theoretical and practical orientation of the psychologist's activities in the process of education is considered a social demand of the republic.

Analytical description of the state of psychological services in local pre-school educational institutions, in the diagnostic and correctional work of psychologists, and in child psychology, the experimental study of the individual characteristics of the psyche is insufficiently studied, in the psychology of children, the conditions favorable for their development are insufficiently studied. , it is very necessary to generalize the theoretical information on the development of the child's psyche and personality formation developed in domestic and foreign psychology, to bring them to a methodical and practical level in practice by psychologists of preschool educational institutions.

Our article considers two types of problems, the solution of which makes our work relevant: the activity of a preschool psychologist and his methodology; current and prospective models; getting acquainted with the specific content of the psychologist's activities in the implementation of diagnostic and correctional work of psychologists and solving problems of preschool education in accordance with the ideology of the current and prospective model of psychological service, which reflects the state of preschool education and its direction of development.

The specific group of problems of the psychological service includes:

• the need to create a promising model that overcomes the disproportionate centralization of psychological services in working with developmental disabilities;

• elimination of inconsistency in the interaction of psychological and pedagogical practices;

• clarifying the content of the activities of psychologists involved in the educational process in kindergarten;

• theoretical development of certain aspects of mental development (for example, the mechanisms of strengthening the mental development of the child, the individuality of the child, especially the development of formal dynamics).

• the need to create a perspective model that overcomes the disproportionate centralization of psychological services in working with deviations in children's development;

• to eliminate the inconsistency of the interaction of psychological and pedagogical practice;

• clarification of the content of activities of psychologists involved in the educational process in kindergarten;

• theoretical development of some laws of mental development (for example, mechanisms of strengthening the child's mental development, development of the child's personality, especially the formal dynamic).

Actual problems of formation of preschool psychological service are training and professional development of practical psychologists. All these problems need theoretical, methodological and practical development.

By the time they are admitted to kindergarten, children have a well-formed set of character traits, habits and views. It is very important to find an individual approach to each child. Otherwise, there are cases where the child becomes isolated or, on the contrary, gives in to unreasonable aggression and begins to show stubbornness. In this case, the psychologist may face difficulties in establishing contact with the child. The basis of the psychological-pedagogical system of the famous Italian doctor, pedagogue and psychologist Maria Montessori is the important position of the manifestation of any life activity. "The beginning of development," writes M. Montessori, "is in the psyche. [1] The child grows not because he eats or breathes, but because he is in a favorable environment: his unique life develops and manifests itself, he is hereditary , becomes a "product" subject to predetermined biological laws" The main component of the Montessori theory is the concept of sensitive development periods of the child. According to Montessori, sensitive periods are similar to critical periods, which she sees as genetically programmed periods of time when she is able to acquire certain skills. Montessori education is about creating an environment that best suits the child's needs. The essence of psychocorrection methods developed by M. Montessori encourages the child to self-educate, self-study and self-development.

Psychological education means familiarizing adults (educators, parents) and children with psychological knowledge. Psychological knowledge is not very widespread in society, psychological culture is not always expressed, which means interest in another person, respect for his personality traits, the ability and desire to regulate one's own relationships, experiences, and actions. In pedagogical teams, as well as in families, conflicts may arise based on mental "deafness" in adults, listening to each other, understanding, forgiving, giving in, etc., so it is very important to raise the psychological culture of people working with a practical psychologist. The main meaning of psychological education is to acquaint educators and parents with the basic laws and conditions for the positive mental development of the child, popularize and explain the results of psychological research, form the need for psychological knowledge and use it in working with the child or in one's own forming a desire to use one's personality in the interests of development.

Also, to gain an understanding of the need for practical psychology and the work of a psychologist in kindergartens and other educational institutions. Psychological education can be conducted in the form of lectures, conversations, seminars.

A kindergarten psychologist is, first of all, a person who knows and deeply understands the child, knows not only the general laws and age characteristics of children's mental development, but also individual changes in these characteristics. Being a specialist in child psychology, he should be at least broadly oriented to the psychology of adults, understand and evaluate the position of adults in relation to children, and analyze their joint activities.

The main tasks of a kindergarten psychologist are related to protecting the physical and mental health of children, creating conditions that improve their emotional state and ensure the free and effective development of each child's abilities. [2] The implementation of these functions requires the implementation of a number of types of work that are directly related to children, their parents and employees of kindergartens.

The success of a psychologist largely depends on the place he can occupy in the team, his relationship with the manager and other employees of the kindergarten. In no case should he seek to replace managers and employees, his role is to act as a competent and friendly consultant whose recommendations are implemented due to his personal authority and recognized competence. In order to have such a reputation, it is necessary to regularly carry out the psychological knowledge of the team, to convince colleagues through their work of the importance of psychological knowledge for the successful performance of their tasks.

The duties of a kindergarten psychologist can be divided into two groups.

First, he should participate in the educational process in general, try to "psychologize" it. Here, the psychological preparation of kindergarten employees and parents is of great importance: psychology of children, their age characteristics, optimal methods of organizing children's communication with adults and communication between children of different ages, principles of organizing children's groups, etc. Of course, psychological education should not be limited to general information about child psychology: it should be based on the results of studying the specific characteristics of this kindergarten and its staff, national traditions and local conditions, staff qualifications and should take into account the individual work style of educators, the uniqueness of children and their parents.

The tasks of the second group are more complex and diverse, are related to individual work with children, and should help to take into account their individual psychological characteristics in the process of education. Using observation and appropriate diagnostic methods, the psychologist should determine the specific characteristics of the relationship between the teacher and the children during a long study of each group of the kindergarten, as well as evaluate the individual psychological characteristics of the children and their level of mental development. The result of this work should be recommendations for educators and parents, including the differentiation of teaching and learning, and in some cases, the development of methods of corrective work with children. It should also be remembered that a psychologist cannot and should not perform tasks related to the powers of medicine and special pedagogy. Only if necessary, he advises to refer to the appropriate specialist - pediatrician, psychiatrist, defectologist, speech therapist, or involves them for consultation.

The second group of tasks includes important functions of the psychologist, such as determining the child's readiness for school and carrying out appropriate corrective work. At the

same time, although the formation of a child's psychological readiness to study at school is traditionally considered one of the most important tasks of preschool education, the psychologist should remember that this task is not the only or even the most important in his work.

Many schools of psychology and the community of psychologists consider it appropriate to consider psychological services in kindergartens as preventive mental health services. They note that preschools have the opportunity to meet large numbers of children over a long period of time, and therefore have important opportunities for psychologists and educators to influence children's social and emotional development. The main difficulty in implementing this requirement is that psychologists and educators face serious difficulties in developing prevention programs. Also, it can be considered that the content of psycho-prophylactic measures is to maintain and strengthen the mental and spiritual health of children and inmates of the institution.[3]

Based on the ideas about the essence of psychological education service, we can give the following definition of psychoprophylactic work.

Psychoprophylaxis is a special type of activity of a child psychologist aimed at maintaining, strengthening and developing the psychological health of children at all stages of preschool age.

Psychological prevention includes:

• responsibility for compliance with the psychological conditions necessary for the child's full mental development and formation at each age stage in children's educational institutions;

• timely identification of such characteristics that lead to certain difficulties and deviations in the child's mental and emotional development, behavior and relationships;

• prevention of complications related to the transition of children to the next age stage.

Thus, it can be noted that the psychologist, based on his knowledge and experience, should conduct psychological prevention in cases where he works to prevent diseases that may occur in the mental and personal development of children, but to create the most favorable psychological conditions for this development. . Psychoprophylactic activities can be carried out with individual children or groups of children, classes, age comparisons, as well as with educators, parents, and other adults who influence the child's outlook and development. The main difficulty of this activity is that psychologists, as a rule, do not understand the importance of psychoprophylaxis among educators (and parents). Why is this happening? Perhaps because there are so many problems in kindergarten, both for individual children and for whole groups, adults do not want to think about the difficulties that may arise. They believe that they only have to overcome existing difficulties.[4] A psychologist should never come to such an opinion. Psychological services based only on solving important problems cannot bring significant benefits to the preschool education system. He should anticipate the possibility of these problems and try to prevent them. In other words, when there are no difficulties in working with a child, group, etc., the psychologist starts psychoprophylactic measures and warns of these difficulties as much as possible in advance.

REFERENCES

1. Z.T. Nishanova Psixologik xizmat: o`quv qo`llanma – Toshkent. 2007 43- b

2. Савельева Н. Настольная книга **педагога-психолога** детского образовательного учреждения- Ростов н.Д: Феникс, 2005 38-с

3. Широкова Г. А. Справочник дошкольного психолога. - Изд. 5-е-Ростов н.Д:Феникс, 2007. 58-с

4. Урунтаева Г. А. Афонькина Ю. А. Практикум по детской психологии. -М.: Просвещение: Владос,1995.92 –с

QADRIYATLARNING YOSHLAR ONGIDA SHAKLLANISHIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK O‘RNI

Saidova Feruzaxon Nizamjanovna,
Andijon davlat universiteti katta o`qituvchisi
E-mail:saidovaf1977@gmail.com

Yoshlar davri shaxsiyatning ma’naviy va psixologik rivojlanishi uchun eng sezgir va muhim bosqichlardan biridir. Shu davrda qadriyatlar tizimi shakllanadi, ya’ni shaxsning hayotiy qarorlarini, ijtimoiy xulqini va o‘zini anglashini belgilovchi asosiy ichki me’zonlar vujudga keladi. Qadriyatlarning shakllanishi ko‘plab omillar ta’sirida sodir bo‘ladi, ularning orasida shaxslararo munosabatlar - ya’ni ota-ona, o‘qituvchilar, sinfdoshlar va do‘stlar bilan o‘zaro aloqalar - ijtimoiy-psixologik jihatdan hal qiluvchi omil hisoblanadi [1]

Psixolog Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davri shaxsning hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda individ o‘zining ijtimoiy va axloqiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Bu jarayonda yoshlarning o‘zini anglash va jamiyat bilan bog‘lanish jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, atrofdagi oilaviy a’zolar, do‘stlar, o‘qituvchilar va boshqa ijtimoiy guruhlarning ta’siri yoshlarning qadriyatlar tizimini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, L.S. Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi ham shuni ta’kidlaydiki, insonning ma’naviy, kognitiv va psixologik xususiyatlari bevosita ijtimoiy muhit va muloqot jarayonlari orqali shakllanadi. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘zini rivojlantirishidagi asosiy vosita bu – boshqalar bilan hamkorlikda o‘rganish va tajriba almashishdir, ya’ni ijtimoiy interaktsiya shaxsiy rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu tariqa, Erikson va Vigotskiy nazariyalari o‘smirlik davrida shaxsning identifikatsiyasi va qadriyatlar tizimining shakllanishida ijtimoiy muhit va interaktsiyaning hal qiluvchi ahamiyatini ilmiy asos bilan ko‘rsatadi.

Qadriyatlar — bu shaxsning ichki psixologik tuzilishi bo‘lib, unda uning e’tiqodlari, axloqiy me’yorlari va hayotiy maqsadlari mujassamlanadi [2]. Aynan qadriyatlar tizimi shaxsning xatti-harakatlarini boshqaruvchi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasini belgilovchi asosiy omil sifatida xizmat qiladi. Yoshlar davrida bu tizimning shakllanishi muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu davrda individ o‘zining xulq-atvorini, ijtimoiy qarashlarini va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidan o‘tadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlarning mustahkamligi va ularning atrof-muhit bilan uyg‘unligi yoshlarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish va shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynaydi [3]. Shu nuqtai nazardan, yoshlarning qadriyatlar tizimi bilan o‘zaro aloqasi nafaqat ularning axloqiy va kognitiv rivojlanishini belgilaydi, balki ijtimoiy va emotsional farovonlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ularning kelajakdagi hayotiy tanlovlari va shaxsiy identifikatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1. Shaxsiy qadriyatlar — shaxsning o‘ziga xos axloqiy va ma’naviy e’tiqodlari;

2. Ijtimoiy qadriyatlar — jamiyat tomonidan qabul qilingan me’yorlar va normativ qadriyatlar.

Yoshlar qadriyatlar tizimini shakllantirish jarayonida har ikkala guruh o‘zaro uyg‘unlashib, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiyani rivojlantiradi.

Shaxslararo munosabatlarning roli

Shaxslararo munosabatlar yoshlar qadriyatlar tizimini shakllantirishda bir nechta asosiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi:

1. Axloqiy qadriyatlarni singdirish: Yoshlar atrofidagilar — ota-ona, do‘stlar, o‘qituvchilar — bilan muloqot orqali halollik, hurmat, mas’uliyat, vatanparvarlik kabi qadriyatlarni o‘zlashtiradi [4]

2. Ijtimoiy identifikatsiya va rol modellarini shakllantirish: Shaxslararo aloqalar yoshlar uchun ma’naviy va psixologik namuna sifatida xizmat qiladi. Masalan, sinfdoshlar yoki do‘stlar guruhidagi ijobiy xulq-atvor yoshlarning shaxsiy qadriyatlarini mustahkamlaydi .

3. Psixologik barqarorlikni ta’minlash: Sog‘lom ijtimoiy aloqalar yoshlarni stressga bardoshli qiladi va ijtimoiy qabul qilingan qadriyatlarni qabul qilishga yordam beradi .

4. Axloqiy qaror qabul qilishni rivojlantirish: Shaxslararo munosabatlar yoshlarning qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy va axloqiy me’yorlarni hisobga olishga undaydi .

Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Psixologiyada shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari yoshlarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mexanizmlar orqali shaxs atrof-muhit bilan muloqot qiladi, o‘z qadriyatlarini shakllantiradi va ijtimoiy hayotga moslashadi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Ijtimoiy taqlid (imitation): Bandura (1977) nazariyasiga ko‘ra, yoshlar o‘z atrofidagi odamlarni kuzatib, ularning xatti-harakatlarini o‘rganadi va bu jarayon orqali o‘z qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlarini shakllantiradi. Taqlid nafaqat xulq-atvorni o‘rganish, balki ijtimoiy identifikatsiyani rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan, o‘smirlar do‘stlarining ijobiy harakatlarini kuzatib, o‘sha xatti-harakatlarni o‘zida rivojlantirishga intiladi, bu esa ularning shaxsiy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlaydi.

2. Rag‘batlantirish va mukofotlash: Skinner (1953) tomonidan ilgari surilgan operant shartlanish nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy muhitda berilgan ijobiy javoblar, maqtovlar yoki rag‘batlar yoshlarning ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, yosh kishi ijobiy xulqi yoki mas’uliyatli qarorlari uchun maqtov olganda, u bu xulqni takrorlashga vaqti-vaqti bilan uni o‘z qadriyat tizimining bir qismiga aylantiradi.

3. Jamiyat me’yorlariga integratsiya: Durkheim (1912) ta’kidlashicha, shaxslararo munosabatlar yoshlarning jamiyatning axloqiy va ma’naviy me’yorlariga moslashishiga xizmat qiladi. Jamiyat me’yorlarini qabul qilish orqali individ ijtimoiy farovonlikka erishadi, o‘zining axloqiy qoidalarini shakllantiradi va ijtimoiy identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Shu tariqa, ijtimoiy integratsiya shaxsning qadriyatlar tizimining rivojlanishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash: Bowlby (1969) nazariyasiga ko‘ra, sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy munosabatlar yoshlarning o‘z-o‘zini anglashini va qadriyatlarni qabul qilish jarayonini tezlashtiradi. Bu mexanizm ayniqsa ota-ona, do‘stlar yoki muallimlar bilan ijobiy aloqalar orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsning emotsional barqarorligini ta’minlashga yordam beradi va ijtimoiy qiyinchiliklarga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Umuman olganda, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar shaxsning qadriyatlar tizimi, axloqiy qarashlari va ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantirishda ajralmas rol o‘ynaydi. Ular orqali individ o‘z atrof-muhiti bilan o‘zaro bog‘lanadi, ijtimoiy qoidalarni o‘rganadi va o‘zining shaxsiy hamda ma’naviy identifikatsiyasini mustahkamlaydi.

Olimlar fikrlaricha psixologlar va pedagoglar yoshlar qadriyatlarining shakllanishida shaxslararo munosabatlarning muhimligini qayd etganlar:

L.S. Vigotskiy: Shaxsning psixologik va ma’naviy rivojlanishi ijtimoiy muloqot va yaqinlar bilan o‘zaro ta’sir orqali sodir bo‘ladi (Vigotskiy, 1978).

E. Erikson: O‘smirlik davrida shaxs ijtimoiy identifikatsiyani shakllantiradi, bunda yaqinlar bilan munosabatlar qadriyatlarni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega (Erikson, 1968).

A. Bandura: Shaxslararo taqlid va o‘zaro aloqalar yoshlarning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantiradi (Bandura, 1977).

Shvarts: Qadriyatlar tizimi shaxsning qaror qabul qilish va ijtimoiy faoliyatini belgilaydi, shaxslararo munosabatlar esa bu jarayonning asosiy mexanizmi hisoblanadi (Shvarts, 1992).

Yoshlar ongida qadriyatlar tizimini shakllantirishda shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik o‘rni beqiyosdir. Ular yoshlarning axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘zlashtirishini ta’minlaydi, psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi va shaxsning ma’naviy rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyat va ta’lim muassasalari shaxslararo muloqotni rag‘batlantirish, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish va yoshlarning qadriyatlar tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Olimlar fikriga ko‘ra, qadriyatlarning shakllanishida ijtimoiy va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish yoshlarning barkamol va ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib yetishishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adaabiyotlar

1. Andreeva G.M., Bogomolova N.N., Petrovskaya L.A. Zarubejnaya sotsialnaya psixologiya XX stoletiya. -M.: «Aspekt Press», 2002.

2. Abduraxmanova Z.E. Psixologiya fanidan atlas. uslubiy qo‘llanma. T. Iqbol-Turon. 2021 y.

3. Abduraxmonov F.R., Abdurahmonova Z.E. “O‘zingni bil, o‘zingni angla”. Uslubiy qo‘llanma. –T.: “Noshir”. 2012 y

НАУЧНО МЕТОДИЧЕСКИЕ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И КУЛЬТУРНОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Хакимова Илтифат Бахадировна
доцент Андижанского государственного университета.
E-mail:xakimova_57gmail.com

Аннотация: В данной статье освещаются формирование экологической культуры у дошкольников, формы реализации экологического воспитания, а также особенности обучения с использованием дидактических принципов в экологическом воспитании и вытекающее из этого значение.

Ключевые слова: Экологическое воспитание, дидактическое, методическое, дошкольная образовательная организация, природа, дети.

Abstract: In this article, the formation of environmental culture in preschool children, the forms of implementation of environmental education, and the specific features of teaching using didactic principles in environmental education and its resulting importance are highlighted.

Key words: Ecological education, didactic, methodological, preschool educational organization, nature, children.

Мы знаем, что организации дошкольного образования развиваются день ото дня в результате того внимания, которое сегодня уделяется системе образования. Именно внедрение современных образовательных технологий в сферу образования позволяет детям, обучающимся в дошкольных образовательных учреждениях, быстрее и легче осваивать процесс обучения. Слова Президента, заявившего, что «приняты конкретные государственные программы системного развития дошкольного образования, уровень охвата детей дошкольным образованием увеличился в два раза до 100 процентов». Сегодня одним из явлений, подвергающих человечество серьезной опасности, является экологическая ситуация. В следующий период к теории и практике педагогики добавились «экологическое образование», «экологическое воспитание», «экологическое сознание», «экологическая деятельность», «экологическая ответственность», «экологическая вера»,

«экологическое просвещение». экологическая культура» и ряд других терминов и родственных понятий. Экологическое образование является основным аспектом экологического просвещения и представляет собой передачу имеющегося социального экологического опыта от поколения к поколению в процессах обучения и воспитания. Экологические знания, умения и компетенции формируются у человека посредством экологического образования. Экологическое воспитание (в узком смысле) предполагает формирование у развивающегося человека соответствующих нравственно-экологических качеств, и тем самым улучшается экологическое поведение человека. Экологическое сознание регулирует практическую экологическую деятельность и поведение человека. Экологическая деятельность – совокупность действий, осуществляемых для обеспечения охраны природы и окружающей среды на основе экологических знаний. Под «экологической ответственностью», являющейся составной частью экологического мировоззрения, мы понимаем ответственное отношение человека к окружающей среде. Такое отношение формируется только в результате осознания последствий негативного воздействия человечества, в частности, некоторых людей, неосознанно и необдуманно на природу, и стремления устранить такое воздействие. Экологическая культура – образцовое нравственно-экологическое поведение личности, выражающее состояние способности вызывать удовольствие у других. Этот термин используется для определения уровня отношения личности и общества к окружающей среде. Как известно, в нашей республике создана «Концепция непрерывного экологического образования». Согласно этой концепции детям дошкольных образовательных учреждений даются простые элементы экологического воспитания. В общеобразовательных учреждениях до 182 школы дети должны общаться с окружающей средой, тепло-холод, свет-темнота, ночь-день, дождь-снег, добро-зло, птицы, животные, уметь обращаться с растениями, узнавать цвета в природе. Цель начального экологического образования дошкольников - воспитать из них природолюбивое, заботливое, вежливое, свободомыслящее, национально гордое, всесторонне развитое здоровое поколение. Экологическое образование является еще одним важным компонентом социального образования, и в процессе его организации необходимо решить следующие задачи:

1. Формирование экологических представлений у детей в процессе учебной и внеурочной деятельности.

2. Обогащение их восприятия природы и экологии окружающей среды.

3. Формирование у детей ответственности за то, что охрана природы и окружающей среды является социальной необходимостью.

4. Воспитание у детей умения вести себя на природе, чувства охраны окружающей среды, добиваться их активного участия в процессе обеспечения природы и охраны окружающей среды. Основным средовым источником этих отношений является процесс самосознания ребенка и игровая деятельность. Дидактические игры считаются основной формой обучения, они делают обучение быстрым и легким, становятся условием усвоения знаний, заранее не предусмотренных детьми. Например: Занесено ли название этой птицы в Красную книгу? Найдите эту игру с птицами. Во время этого занятия воспитатель заставляет детей встать в круг, произносит название птицы и бросает ребенку мяч. Ребенок берет в руки мяч и говорит, занесен он в Красную книгу или нет. При разработке содержания игры про охрану природы необходимо обратить внимание на взаимодействие людей и их отношение к внешней среде работа с даст хорошие результаты В нашем воспитании мы должны учить детей не тратить воду попусту, экономно расходовать электроэнергию и не выбрасывать мусор в воду.

В заключение можно сказать, что экологическое воспитание детей дошкольного возраста является основой для повышения их любви к природе и интереса к естествознанию, кроме того, целесообразно использование современных образовательных

технологий в процессе экологического воспитания больших групп учащихся. дети, и это принесет плоды.

Использованная литература:

1. Содикова. Ш. А.- «Дошкольная педагогика»-Т,-2008.
2. Ш. Мирзиёев - «Стратегия Нового Узбекистана» - Ташкент-2021.
3. Каюмова.Н.М.-«Дошкольная педагогика» Т.: ТДПУ-2013.
4. Учебная программа «Первая ступень» дошкольных образовательных учреждений.

OILAVIY MUNOSABATLARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Bozarboeva Namuna Davronbek qizi
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur ishda oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta'minlash mexanizmlari yoritib berilgan. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida insonlar orasidagi ijtimoiy, psixologik va madaniy munosabatlarni shakllantiradi. Oila a'zolari o'rtasida bag'rikenglik va o'zaro hurmat muhitini yaratish – barqaror va sog'lom oilani ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Ishda tolerantlik tushunchasining mohiyati, uning oilaviy munosabatlardagi o'rni, shuningdek, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: Oila Tolerantlik, oilaviy munosabatlar, bag'rikenglikIjtimoiy, psixologik muhit, o'zaro hurmat, konfliktologiya, milliy qadriyatlar, tarbiya, kommunikatsiya, huquqiy mexanizmlar,

Tolerantlik turli qarashlar, manfaatlar va shaxsiy xususiyatlar o'rtasida o'zaro hurmatni ta'minlashga yordam beradi. Tolerantlik faqatgina sabr-toqat emas, balki boshqalarning qadr-qimmatini tan olish va hurmat qilish madaniyati hamdir. Bu tushuncha ijtimoiy-psixologik va madaniy aspektlarga ega bo'lib, inson faoliyati va munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinadi. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini va inson hayotidagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar inson shaxsiyatining shakllanishiga, uning ijtimoiy ko'nikmalari va qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bugungi globalizatsiya jarayonida turli madaniyatlar va dunyoqarashlarning o'zaro ta'siri ortib borayotgan bir sharoitda oilada tolerantlikni shakllantirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Tolerantlik – bu faqat sabr-toqat emas, balki har bir shaxsning qarashlari, urf-odatlari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish madaniyatidir[2]. Oilada tolerantlikning mavjudligi oila a'zolari o'rtasida o'zaro hurmat, tushunish va hamkorlik muhitini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ota-ona va farzandlar, turmush o'rtoqlar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarda tolerantlik tamoyillariga rioya qilish orqali ziddiyatlar va kelishmovchiliklarning oldini olish mumkin. Tolerantlik muhitida o'sgan bolalar keyinchalik jamiyatda muvaffaqiyatli va bag'rikeng shaxslar bo'lib voyaga yetadilar. Ushbu maqolada oilada tolerantlikni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy va psixologik mexanizmlar tahlil qilinib, uning jamiyat taraqqiyoti va mustahkamligi uchun ahamiyati yoritiladi [4]. Tadqiqotda ijtimoiy ta'lim nazariyasi, kognitiv rivojlanish nazariyasi, ijtimoiy aloqalar nazariyasi va emotsional intellekt nazariyasi kabi nazariy yondashuvlar asosida oilada tolerantlikning shakllanishi va uning mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni shakllantirish va ta'minlash bir necha nazariy yondashuvlar mavjud.

Oilaviy munosabatlarda tolerantlik oilaning har bir a'zosining huquq va qadr-qimmatini tan olish, farqli fikr va qadriyatlarni hurmat qilish orqali barqaror va uyg'un muhit yaratishga xizmat qiladi. Oila – jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, undagi munosabatlar tizimi inson shaxsiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Oila doirasida tolerantlik prinsiplari amalda

bo‘lgan hollarda nizolar kamayadi, o‘zaro tushunish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash kuchayadi [3]. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada tolerantlik muhitining mavjudligi psixologik sog‘lomlikni ta’minlaydi, oilaning ijtimoiy funksiyalarini samarali bajarishiga yordam beradi va bolalarda ijobiy ijtimoiy ko‘nikmalar shakllantiradi.

Tolerantlikni ta’minlovchi mexanizmlarga quyidagilar kiradi:

Psixologik mexanizmlar: o‘zaro empatiya, tinglash madaniyati, stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni saqlash.

Tarbiyaviy mexanizmlar: ota-onaning namunali xulqi, farzandlarga bag‘rikenglik va hurmat ruhida tarbiya berish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.

Kommunikativ mexanizmlar: ochiq va to‘g‘ri muloqot, nizolarni muzokara orqali hal etish, fikr almashish va murosaga erishish.

Huquqiy mexanizmlar: O‘zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" va boshqa normativ hujjatlar orqali oilaviy nizolarni oldini olish va hal etish tartiblarini belgilash [2].

Zamonaviy jamiyatda oilada tolerantlik madaniyatini shakllantirish nafaqat oilaning ichki muhitini sog‘lomlashtiradi, balki jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazarga ko’ra quyidagi nazariy yondoshuvlarga tayanadi.

Ijtimoiy ta’lim nazariyasi (A. Bandura, 1977) – ushbu nazariyaga ko’ra, bolalar va oila a’zolari tolerantlikni uzatish va o’rganish jarayonida ota-ona va atrofdagi insonlarning xulq-atvoriga asoslanib shakllantiradi. Agar bola tolerantlikka asoslangan muhitda ulg’aysa, u kelajakda boshqalarga nisbatan sabrli va hurmatli munosabatda bo’ladi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi (J. Piaget, 1952) – insonning tafakkur rivojlanish bosqichlariga ko’ra, bolalar va kattalarda tolerantlik darajasi tajriba va ta’lim jarayonida shakllanadi. Oilada ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligiga bo’lgan hurmat tolerantlikning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy aloqalar nazariyasi (E. Goffman, 1959) – insonning ijtimoiy munosabatlari va ularning tashqi muhitga moslashuvchanligi tolerantlik darajasini belgilaydi. Oilada muloqot madaniyati va o’zaro hurmat qanchalik yuqori bo’lsa, jamiyatda tolerantlik shu qadar mustahkam bo’ladi [5].

Emotsional intellekt nazariyasi (D. Goleman, 1995) – ushbu nazariyaga ko’ra, tolerantlik shaxsning emotsional intellekt darajasi bilan uzviy bog’liq. Oilada bir-birini tushunish va hissiy qo’llab-quvvatlash tolerantlikni mustahkamlashga yordam beradi. Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud. Ular quyidagi asosiy yo’nalishlarda ko’rib chiqilishi mumkin:

1. Tarbiya va ta’lim mexanizmlari

Bolalikdan oilada o’zaro hurmat va bag’rikenglikni shakllantirish.

Inson huquqlari va etik normalarga asoslangan ta’lim berish.

Bolalar va kattalarga ijtimoiy tanqidiy fikrlashni o’rgatish.

2. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Empatiya va emotsional intellektni rivojlantirish.

Oilaviy muammolarni hal qilishda ochiq muloqotni qo’llash.

Konfliktdan olishlardan qochish emas, balki ularni to’g’ri hal qilish madaniyatini shakllantirish.

3. Kommunikativ mexanizmlar

Oila a’zolari o’rtasidagi muloqotni samarali tashkil qilish.

Bir-birining fikriga hurmat bilan yondashish.

Noto’g’ri tushunishlardan qochish uchun aniq va ochiq fikr bildirish.

4. Ijtimoiy-madaniy mexanizmlar

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’rganish va qo’llash.

Turli madaniyat va an’analarga hurmat bilan munosabatda bo’lish.

Oilaviy an’analar va bayramlarning tolerantlikni shakllantirishdagi o’rnini e’tirof etish.

5. Huquqiy va institutsional mexanizmlar

Oila huquqiy me’yorlar va normalar asosida barqaror munosabatlar qurishi kerak.

Davlat va jamoat tashkilotlarining tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash [6].

1.Insonparvarlik (gumanistik) yondashuv

Bu yondashuv inson qadr-qimmati, huquqlari va ehtiyojlarini birinchi o’ringa qo’yadi. Oilaviy munosabatlarda har bir a’zo ehtiyojlarini hurmat qilish, ularni qabul qilish va tushunishni ta’minlash orqali tolerantlik muhitini yaratishni nazarda tutadi. Karl Rojers va A. Maslou kabi gumanistik psixologiya namoyondalari tomonidan ushbu yo’nalish ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy- yondashuv (sotsial-psixologik)

Bu yondashuv oila a’zolari o’rtasidagi ijtimoiy rollar, maqomlar va munosabatlar tizimini o’rganishga asoslanadi. Tolerantlikni shakllantirishda fuqarolik madaniyati, ijtimoiy normalar, qoidalar va oiladagi muomala standartlariga ahamiyat qaratiladi. Oila – bu ijtimoiy institut sifatida qaralib, fuqarolik ongi va muloqot madaniyati orqali tolerantlik tarbiyalanadi.

Ilmiy-psixologik yondashuv

Bu yondashuv tolerantlikni psixologik mexanizm sifatida ko’radi va uning shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki (shaxsiy) va tashqi (ijtimoiy) omillarni o’rganadi. SHaxslararo munosabatlardagi kommunikativ kompetentlik, emotsional barqarorlik va psixologik moslashuvchanlikni rivojlantirish tolerantlikni ta’minlashda asosiy o’rin tutadi.

Taraqqiyot psixologiyasi Oilada tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish shaxs o’sishining turli bosqichlariga qarab baholanadi. Bu metodologik yondashuv bola va kattalar psixologiyasining rivojlanish jarayonlarini hisobga oladi va oilada muvozanatli hamkorlik muhitini ta’minlashga qaratilgan.

Oilaviy munosabatlarda tolerantlikni ta’minlash uchun ta’lim, ijtimoiy-psixologik va madaniy mexanizmlar o’zaro bog’liq holda ishlashi kerak. Tolerantlik oilada shakllanib, jamiyatda namoyon bo’ladi. Oilaviy bag’rikenglik mustahkam va totuv jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biridir. SHuning uchun, oilaviy tarbiya jarayonida tolerantlik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Zamonaviy jamiyatda sog‘lom va barqaror oilani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Oila a’zolari o‘rtasida bag‘rikenglik, sabr-toqat, o‘zaro hurmat va tushunish muhitini yaratish orqali ko‘plab nizolar va muammolar oldi olinadi. Tolerantlikni shakllantirishda milliy an’ana va qadriyatlar, zamonaviy psixologik yondashuvlar, ta’lim-tarbiya va huquqiy normalarning o‘rni beqiyosdir. Oila a’zolarining ijtimoiy-psixologik savodxonligini oshirish, to‘g‘ri muloqot va murosaga intilish, bir-birini tinglash va qo‘llab-quvvatlash orqali oilada ijobiy muhit qaror topadi. Tolerantlik oilaviy barqarorlik va farovonlikni mustahkamlovchi eng asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi va bu yo‘lda kompleks yondashuv – tarbiyaviy, kommunikativ va huquqiy mexanizmlarni uyg‘un qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. va boshqalar. Oilaviy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
2. Jo‘raqulova Z.B. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Xudoyberganov M. Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo‘llari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. G‘ofurov K. Sotsiologiya. – Toshkent: Universitet, 2020.
5. Tohirov S. Tolerantlik va o‘zaro munosabatlar madaniyati. – Samarqand, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi". – Toshkent: Adolat, 2022.

YOSHLARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHDA MAHALLA INSTITUTINING O’RNI

Qo’rg’ontepa tumani 1-sonli Politexnikum
o’quv ishlari bo’yicha direktor
o’rinbosari I.V.Xalimov

Annotatsiya: Bu maqolada yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash jarayonida mahalla institutining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Mahalla yoshlarning ijtimoiylashuvi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, kasbga yo‘naltirilishi hamda fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy muhit sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, mahalla tomonidan amalga oshirilayotgan tarbiyaviy, madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining yoshlarning mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va jamiyatda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, mustaqil hayot, mahalla, ijtimoiylashuv, tarbiya, ma’naviy-axloqiy rivojlanish, kasbga yo‘naltirish, fuqarolik mas’uliyati.

Hozirgi globallashuv jarayoni kechayotgan sharoitda har tomonlama yetuk, ham ruhan, ham jismonan – barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan va buni amalga oshirish asosiy vazifalardan etib belgilangan.Bu vazifani amalga oshirishda yurtimizda o’zining munosib mavqeiga ega bo’lgan mahalla tashkilotlarining ham o’rni beqiyosdir. Hususan xalqimiz orasida “Bir bolaga yeti mahalla ota-ona” degan naql jamiyat a’zolarining qon-qoniga singib ketgan. Mahallada muhitda bolalar yoshligidan o’z ona (milliy) tillarining va unda aksini topgan ertaklar, afsonalar, rivoyatlar, maqollar, ashulalar, ta’sirida asta-sekin milliy an’analar, urf-odatlar, qadiryatlarga ko’nikadi ular asosida ulg’ayadi. Mahallarimiz uchun ananviy bo’lgan oilalar o’rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, o’zaro yordam va bag’rikenglik,rahm-shavqat,mehribonlik, farzandlar tarbiyasida, ularni mustaqil hayotga tarbiyalash kabi insoniy qadriyat va qarashlarimiz bugun shaxs shakllanishiga bevosita va bilvosita ta’sir qiluvchi muhiti hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda yurtimizda mahallarning bugungi kundagi o’rnini oshirish maqsadida: 2003-yilning ”Obod mahalla yili” deb e’lon qilinishi, mahallalar o’z-o’zini boshqarish organi maqomi berilishi ham buning yorqin dalilidir.

Yosh davrlari orasida o’smirlik davri o’zining beqaror va shidatli kechishi bilan ajralib turadi. Jismoniy-fiziologik va psixik o’zgarishlar natijasida o’smirning o’zini tutishida, atrofdagilarga munosabatida katta o’zgarishlar paydo bo’ladi. Odobli, dilkash o’smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo’pol, serzarda bo’lib qoldi.O’smir xulqidagi bunday o’zgarishlar tajribasiz ota-onasini va o’qituvchilarini qattiq tashvishga soladi. Avvalari itoatkor bo’lgan o’smir endi mustaqillikka intiladi. O’smirdagi shu kabi o’zgarishlar vaqtida va ularning noto’g’ri baholanishi, jamiyatdagi salbiy ta’sirlar sharoitida, o’smirda salbiy hulq-atvorning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bularning oldini olishda oila, maktab bilan bir qatorda mahallaning ham o’rni beqiyosdir. Hususan O’zbekiston Respublika vazirlar Mahkamasining 2002 yil 16-maydagi 162-sonli qarori asosida mahallalarda pedagog-tarbiyachilar shtati tashkil etildi. Ularning faoliyat yuritishi profilaktika inspektorlari tomonidan hisobga olingan tarbiyasi og`ir bolalar va o`smirlarni to`g`ri yo`lga solishda birmuncha qo`l keladi. Bundan tashqari har bir mahalla yig’inlari raislari va faollari oldiga – mahalla a’zolari bilan manaviy-marifiy, maishiy munosabat o’rnatish bilan bir qatorda, yoshalar o’rtasida jinoyatchilik va qonun buzarlikning oldini olish; mahalladagi o’smir yoshlarni diniy-ekstremistik oqimga kirib qolmasliklarini oldini olish; mahalladagi notinch oilalar bilan ishlashni kuchaytirish; maktab-kollej, litsey o’quvchilari bilan ishlash kabi vazifalar qo’yilgan.

O’simirlik yoshidagi bolalardagi o’zgarishlarni hisobga olgan holda mahalla faollari hamkorlikda psixolog, pedagoglar, diniy muassasa vakillari bilan uchrashuvlar o’tkazishi mahalla a’zolari o’rtasida o’smirlik davri haqida, ulardagi o’zgarishlar va ular bilan munosabatda bo’lish malaka va ko’nikmalarini hosil bo’lishiga, ortishiga sabab bo’lardi. O’smirlarda paydo bo’lgan bo’sh vaqtdan unumli foydalanishida “Barkamol avlod” davlat dasturiga binoan mahallalarda sport majmualarini, maydonchalarini tashkil etish, milliy hunarmandchilik to’garaklarini tashkil etish, mavjudlarini tamirdan chiqarib yoshlar sport va to’garak mashg’ulotlari bilan shug’ullanishida imkoniyat yaratib berish ularning ham jismonan sog’lom rivojlanishida, mehnat o’rganishida,masuliyat hissining shakllanishida asosiy omil bo’lib, bekorchik tufayli o’smirlar

orasida sodir bo'ladigan jinoyat va turli noxushliklarning oldini olishga xizmat qilardi. Mahallada o'smirlar bilan "Qizlar maslahatxonasi","Sog'lom tanda sog' aql" va "Psixolog maslahat"i kabi kurs va uchrashuvlarni tashkil etish orqali tushuntirish ishlarini olib borishi, ularda paydo bo'lgan va o'tayogan o'zgarishlar haqida ma'lumot va tushuntirish ishlarini olib borish, o'smirda atrofidagilarga va o'ziga nisbatan ishonchini oshirishi, savollariga javobni chetdan izlashiga imkoniyat qoldirmasdi.

Har bir mahallada va mahallalar o'rtasida "biz ichkilikbozlikka, giyohvandlikka, ahloqsizlikka yoki g'oyaviy buzg'unchilikka qarshimiz" kabi shiordagi ko'rik tanlovlar, uchrashuv, seminarlar o'tkazish orqali o'smirlar o'rtasida salbiy ilatlarning tarqalishini kamaytirshga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar – kelajagimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
2. Abdurahmonov Q.X. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Jo'rayev T., Qodirov B. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
4. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi materiallari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosatiga oid farmon va qarorlari.
6. Rasulov A. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy muhitning roli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
7. Xolmatova D. Mahalla institutining ijtimoiy funksiyalari. Ilmiy maqola, 2021.

TALABA QIZLAR PROFESSIONAL KARYERASINI REJALASHTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

Psixologiya kafedrasi

katta o'qituvchisi (PhD) G.D.Toxirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada, respublikamizda so'nggi yillarda lider ayollarni shakllantirish, yoshlar yetakchilari, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollarini tayorlash sohasida qator tub islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. Davlat xizmatidagi mas'ul lavozimlar shakllantirilgan. Jahon taraqqiyoti tajribasida inson kapitalini rivojlantirish professional mavqeini belgilab beruvchi omillar ichida eng muhimi sanalib, bu yo'lda har bir shaxsga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish alohida ahamiyat kasb etganligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar: «vertikal», «gorizontal», «aralash» ko'rinishdagi «professional karyeraga erishgan xotin-qizlar» va «karyerani maqsad qilgan talaba qizlar,«Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash» va «Yoshlar dasturi»

Professional karyera yo'nalishlari, ya'ni «vertikal», «gorizontal», «aralash» ko'rinishdagi «professional karyeraga erishgan xotin-qizlar» va «karyerani maqsad qilgan talaba qizlar»ning ustuvor faoliyat turi va (yoki) egallagan mavqeiga ko'ra, motivlar reytingida karyera tasavvuri bir-biridan tubdan tafovutlanadi. Ushbu natijalar sinaluvchilarning standartlashtirilgan intervyuga bergan javoblari orqali qo'lga kiritildi. Har ikkala toifa sinaluvchilar tomonidan e'tirof etilgan motivlar reytingi orasidagi o'zaro aloqa Spirmen mezoni bo'yicha muhim korrelyatsion bog'liqlikka ega bo'lib, buni biz quyidagi sharhlar orqali batafsil tushuntirishga harakat qildik. Masalan, professional karyeraga erishgan xotin-qizlar sanalgan «Kelajak liderlari», «Rahbar ayollar maktabi» tinglovchilari va «Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sovrindorlarining 90,3 foizda ayni

vaqtda faoliyatni tanlanilishi va davom ettirilishiga sabab bo‘lgan motivlar ichida birinchi o‘rinda «mas’uliyatli jamoada va obro‘li shaxslar bilan ishlash imkoniyati»ning mavjudlik motivi qayd etilgan.

Buning sababi sifatida «professional karyeraga erishgan xotin-qizlar» sanalgan ushbu toifa sinaluvchilar faoliyat yuritayotgan tashkilotlardagi lavozimlarini o‘zaro manfaatdorlik negizida, «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash» va «Yoshlar» borasida davlat siyosati darajasidagi muhim normativ-huquqiy hujjatlar va (yoki) Prezident tashabbusi asosida tashkil qilinganligi bilan izohlashadi. Tadqiqot ishimizning mazkur bosqichida respublikamiz bo‘yicha xizmat pillapoyalarida o‘sgan 10 000 lab xotin-qizlardan faqatgina 113 nafari, shuningdek, mamlakatimizdagi xotin-qizlarga bo‘lgan davlat siyosatidan ilhomlanib, karyerani tanlagan 100 000 lab talaba-qizlarimizdan 112 nafari sinaluvchi sifatida qatnashdi.

Ikkinchi o‘rinda tanlangan motiv sifatida 84,7 foiz «hududda va (yoki) yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar» tanlangan. Uchinchi o‘rinda tanlangan motivlar reytingida 83,3 foiz karyera egalari «referent guruh tavsiyasiga asosan» karyeraga kirishganliklari ijtimoiy-psixologik jihatdan ahamiyatli hodisalardan biri sanaladi. Sababi sifatida hududda yaratilgan komfort sharoitlar, odatda kasbiy faoliyat jozibadorligini oshirib, dunyo darajasidagi obro‘li ayollarni mahalliy xotin-qizlar bilan ishlashga hamda ular o‘rtasida ishonchni shakllanishiga olib kelishini, alohida e’tirof etish mumkin. Masalan, bunday davlat fuqarolik xizmatchisining rotatsiyasi joylarda mahalliy xotin-qizlarimizning shaxsiy va kasbga oid sifatlarini rivojlantirishga, professional faoliyati samaradorligini oshirishga, ular orasida rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirishga asos bo‘lgan.

Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarning natijalari ham xuddi yuqoridagi respondentlar guruhi ko‘rsatkichlariga yaqinligi bilan ahamiyatli sanaladi. 88,0 foiz sinaluvchi karyerani rejalashtirish va uni tashkil etishiga birinchi darajali motiv sifatida «mas’uliyatli jamoada va obro‘li shaxslar bilan ishlash imkoniyati»ni e’tirof etishgan. Ushbu toifa respondentlar, odatda shaxsiy rivojlanish darajasi natijalari faqatgina o‘z ustozlari va oldindan bu mavqeidan xabardor shaxslar (masalan, ota-onalar) o‘rtasida ma’lum bo‘lganligi bois ham, ustozlar (hatto yaqin qarindoshlar) orasidagi obro‘-e’tiborga sazovor shaxslarning mavjudligi, ularga alohida mas’uliyatni yuklagan. Sababi, meritokratiya tamoyiliga binoan ushbu shaxslar o‘zlarini yuksaltirish borasida jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida bo‘lishsa-da, ammo ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaraganda bo‘lajak rahbar kadr sifatida tanlanishshlarida alohida tayyorgarlik kerakligini yaxshi bilishadi.

Ikkinchi darajali motiv sifatida «hududda yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar»ni 80,0 foiz talaba-qiz o‘z javoblarida qayd etishgan. Ushbu javoblar odatda AnDU vakillari javoblarida ko‘proq aks etgan. AnDU da tahsil olayotgan qizlarning aksariyati Andijon viloyatidan ekanligi ma’lum, ya’ni mahalliy aholi vakili bo‘lishgani sababli, hududda yaratilgan komfort shart-sharoitlardan, ilgaridan bir-biri bilan tanish bo‘lgan shaxslar ustoz-shogird tamoyili asosida birgalikda karyerani rejalashtirishga muvaffaq bo‘lishgan.

Professional karyeraga erishgan xotin-qizlardan farq qilgan holda, 78,0 foiz ushbu toifa sinaluvchilar tomonidan «amalga oshirayotgan faoliyat turining atrofdagilarga foyda keltirishi va vatan ravnaqiga qo‘shadigan ulushi» motivini uchinchi darajali sabab sifatida qayd etishgan. Tanlov sababi sifatida ushbu toifa sinaluvchilarni tevarak-atrofdagi va Andijon viloyati ravnaqaiga bo‘lgan yo‘nalganligini alohida e’tirof etish mumkin.

Tadqiqotning ushbu bosqichida biz respondentlarga V.V. Sinyavskiy va V.A. Fedoroshinlar tomonidan ishlab chiqilgan, mahalliy muhitga V.M. Karimova moslashtirgan «Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarini aniqlash» (KOS-2) metodikasi bilan murojaat qildik. Mazkur metodika natijalari bizga xotin-qizlarning ijtimoiy-psixologik ustanovkalarni

aniqlovchi sifatlar, tevarak-atrofdagilar bilan ishchanlik muloqotini o‘rnata bilish va bunda tashabbuskorlikni namoyon qila olish darajalarini tushuntirishda qo‘l keldi.

Professional karyeraga erishgan xotin-qizlarda kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichlarini tahliliga ko‘ra, sinaluvchilarning 12 foizi kommunikativ va 10 foizi tashkiliy faoliyatga moyilliklarining juda past darajada namoyon qilishdi. Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarda esa bu ko‘rsatkich mos ravishda 1,4 foiz va 1,4 foizni tashkil etdi (3.5-jadvalga qarang). Ikkinchi toifa sinaluvchilarimiz orasidan faqat 1 nafarida kommunikativ va (yoki) tashkilotchilik qobiliyatlarining past darajada namoyon bo‘lishini, odatda rejalashtirilgan professional karyera yo‘nalishining turiga, ya’ni ilmiy tadqiqot borasida tashkil etilishi maqsad qilingan «kasbiy xususiyatlar» orqali tushuntirish mumkin. Sababi, ilmiy izlanish yuzasidan har bir qabul qilinadigan qaror ko‘pchilikning tanlovi asosida bo‘lishi, sinaluvchi faoliyatidagi xatoliklarni kamaytiradi.

Karyeraga erishgan xotin-qizlar orasidan 4 foiz sinaluvchida professional faoliyatda muhim sanalgan kommunikativ qobiliyat va 2 foiz respondentda tashkiliy mayllarning rivojlanishi o‘rtacha darajadan past darajada ekanligi aniqlandi. Karyerani maqsad qilgan talaba qizlarimizda bu ko‘rsatkich – mos ravishda – 7,0 foiz va 11,1 foizni tashkil qildi.

Ushbu ko‘rsatkich, birinchi navbatda, respondentlarning tanlangan professional karyera yo‘nalishidagi faoliyat kontekstida muloqotga kirishish motivatsiyasining kuchini hamda emotsional intellekti darajasining pastligidan dalolat beradi. Ikkinchidan, bu holat sinaluvchilarning faoliyatni tashkil etishda taym-menejmentga amal qilish darajasini keskin pasaytirib, rahbar va (yoki) xodimlar bilan aloqa o‘rnatishlarida qiyinchilik tug‘diradi. Uchinchidan esa natijalar, sinaluvchilarda rejalashtirilgan professional karyera yo‘nalishida tashabbuskorlikning past darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatib, bu o‘z navbatida, xotin-qizlarda muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jur’at yetishmasligiga sabab bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ–92-son «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»[4] qarorida keltirilgan vazifalarni ijrosi ta’minlash yo‘lida yetakchi lavozimida faoliyat ko‘rsatayotgan qizlarimiz tomonidan «Yoshlar balansi»ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni «Yoshlar daftari» va «Yoshlar portali» elektron platformalariga kiritib borilayotganligi va har chorakda mahallada yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishda yuqori natijadorlikka erishgan mamlakat bo‘yicha eng ilg‘or 100 nafar yetakchi bir oylik ish haqiga teng miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlanayotganligi orqali izohlash mumkin.

O‘zbekistonda xotin-qizlar professional-xizmat karyerasini rejalashtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarni empirik o‘rganish asnosida olib borgan izlanishlarimiz, bizga, bob yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:Professional karyeraga erishgan xotin-qizlar shaxsiyatidagi o‘zini o‘zi yaxshi ko‘ruvchi, egotsentrik ustanovkalarga yo‘g‘rilgan qarashlarini korreksiyalash hisobiga autopsixologik kompetentlikni, ya’ni o‘zini o‘zi nazorat qilish xususiyatini rivojlashtirish o‘ta muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullajanova D.S. Boshqaruvda ayollar faolligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Toshkent shahar tuman kengashlari misolida): Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – Toshkent: O‘zMU, 2020. – 48 b.
2. Abdullajanova D.S. O‘zbekistonda boshqaruv kadrlari zaxirasini samarali shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillar: Psixol. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: O‘zMU, 2023. – 229 b.
3. Abdullayev B.A. Boshqaruv kadrlarini saralashning ijtimoiy-psixologik mezonlari:

Psixol. fan. bo‘y. fal. dok-ri (PhD) ... dis-ya. – Toshkent: O‘zMU, 2022. – 140 b.
4. https://lex.uz/uz/docs/5831865
5. Ананьев Б.Г. Личность, субъект деятельности, индивидуальность. Проблемы возрастной и дифференциальной психологии. – Москва: Директ-Медиа, 2008. – 209 с.
Вебер М. Избранное. Образ общества. – 3-е изд., испр. и доп. / Сост. С.Я. Левит. – Москва; Санкт-Петербург: Центр гуманитарных инициатив, 2017. – 767 с.

SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANISHIGA OILA VA TA’LIMNING PSIXOLOGIK TA’SIRI

Andijon davlat universiteti
Qodirova Odina Djurabaevna
Psixologiya va Pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya; Ushbu maqolada, emotsional intellektni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning umumiy xususiyatlari taxlil qilingan. Oiladagi psixologik iqlim, oila muhiti, oila a’zolari o’rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning bolalarga munosabati, xavfsizlik hissi va ma’suliyati yoritilgan. Emotsional intellektning ta’lim jarayonida rivojlantirishning psixologik asoslari va talabalar hissiy emotsional sohasi xarakteristikasi, ilmiy izoxlangan.

Kalit so’zlar; emotsional intellekt, hissiy aloqa, his-tuyg’ularini boshqarish, hayotiy tajriba, ta’lim – tarbiya, ijtimoiy muhit, ta’lim jarayoni, o’quv faoliyati.

Mamlakatimizda, jamiyat taraqqiyoti uchun bilimli, zehnli, iqtidorli va yuksak intellektual salohiyatli kadrlarlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonidagi intensiv o’zgarishlar shaxs psixik xolatlariga bevosita o’z ta’sirini o’tkazadi, natijada, stress, qo’rquv, o’ziga ishonchsizlik va emotsional tizimni boshqarishda bir qancha muammolar yuzaga keladi. SHaxsdagi ushbu xolatlarni to’g’ri tushunish va boshqarish emotsional intellekt qobiliyati bilan amalga oshiriladi.

SHaxs barkamoligini ta’minlovchi asosiy bo’g’in oila va ta’lim-tarbiya jarayonidir. Bizning tadqiqotimizning asosiy maqsadi talaba-yoshlarining emotsional intellektini rivojlantirish orqali shaxsiy va kasbiy faoliyati mazmundorligiga, samaradorligiga erishish. Har bir oliy ta’lim dargohiga kelgan talaba o’zig hos tizimiga ega bo’lgan oilaning farzadidir. Ushbu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda biz emotsional intellektni oila muhitida rivojlantirish omillarini to’liq, noto’liq, ko’p farzandli, yakka farzandli oilalar kesimida taxlil qildik.

Oila muhitida bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir etuvchi ommillar mahalliy va xorijiy psixologlarning (V.Karimova, B.SHoumarov, N.Safoev, F.Akromova, L.S.Vigotskiy, A.Ya.Varga, O.A.Karabanova, K.M.Bouen,) K.Uitaker va boshqalar) asarlarida alohida ta’kidlangan. Oiladagi muhit bolaning shaxsiy fazilatlarini, o’ziga va boshqalarga munosabatini, boshqalarning hissiy holatini boshqarish va o’zinikini tushunish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Oila tarkibi ierarxiyasida hissiy va shaxsiy komponent alohida rol o’ynaydi, bu oiladagi psixologik iqlim, oila muhiti, oila a’zolari o’rtasidagi munosabatlar, ota-onalarning bolalarga munosabati, xavfsizlik hissini yaratadi.

Psixikaga madaniy-tarixiy yondashuv nuqtai nazaridan, shaxsning rivojlanishi boshqa shaxs bilan dialogik hissiy aloqada sodir bo’ladi, deb ta’kidlash mumkin.

O.V.Xuxlaevaning tadqiqotlariga ko’ra. Oilada ko’proq tajribali kattalar o’z his-tuyg’ulariga dosh bera olishlari, ulardan xabardor bo’lishlari, ochiq va samimiy ko’rsatishlari kerak: bunday xatti-harakatlar bolalar tomonidan hurmat bilan qabul qilinadi, ular o’zlarini xavfsiz his qiladilar, chunki ular ota-onalar nafaqat ularning shaxsiy harakatlarini, balki o’zlari ham [1].SHunday qilib, bolalar fikrlarni his-tuyg’ulardan ajratishni o’rganadilar, bunday jarayon emotsional intellekt kabi psixologik qobiliyatni rivojlantirish uchun asosiy omildir.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida talabalarning o’quv faoliyati bilan bog’liq hissiy sohasida o’ziga xos tajribalar paydo bo’lishiga xizmat qiladi. Bunday foydali hissiy tajribalar organizmdagi fiziologik jarayonlarga ham ijobiy ta’sir etadi. Demak, hissiy soha insonning intellektual rivojlanishi uchun ham psixologik asos sifatida ahamiyatli sanaladi.

Tadqiqotchi V.N.Kolesnikovning ilmiy tadqiqotlari xulosalardan shu narsa ayon bo’ldiki, imtihonlar bilan bog’liq sharoitlar talabalarda katta ruhiy stress va emotsional zo’riqishlarni keltirib chiqaradi. Talabalar o’z intilish darajalariga ko’ra hamda individual xususiyatlariga qarab quvon, yengillik, norozilik, tushkunlik, chorasizlik kabi his – tuyg’ularni boshdan kechiradilar [2].

Biz tadqiqotimiz doirasida to’liq, noto’liq, ko’p farzandli, yakka farzandli oilalarda talaba farzandlarining emotsional intellektini N.Xollning “Emotsional intellektni baholash” testi orqali taxlil qildik.

Natijada, turli darajadagi emotsional intellektga ega bo’lgan talabalarning ota-onalari, oilalari o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan gipoteza ilgari surildi.

Biz tadqiqotimiz davomida ikkinchi valid hisoblangan metod ya’ni, N.Xoll tomonidan ishlab chiqilgan “Emotsional intellektni o’rganish” metodikasi orqali talabalardagi emotsional intellektning “o’z emotsiyasini bilish”, “o’z emotsiyasini boshqarish”, “shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish”, “boshqa insonlarning emotsiyasini aniqlash” va “o’zaro munosabatlar bilan boshqarish” kabi tayanch mezonlarini shakllanganlik darajalarini aniqlashni maqsad qilgandik. Mazkur maqsadni amalga oshirishda biz nazorat va tajriba guruhlariga saralab olingan 610 nafar talabalar orasida mazkur metodni jins,kurs va oila kesimida o’tkazdik va quyidagicha qiziqarli empirik natijalarni qo’lga kiritdi.

Oila tizimining xususiyatlari o’rtasidagi munosabatlar muammosining ishlab chiqilishi ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Demak,oila muhitida shakllangan emotsional intellekt determinantlari har bir shaxsni muvaffaqiyatli faoliyatiga undaydi. Ushbu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimiz ob’ekti bo’lgan talabalarning emotsional intellektini shakllanishi oila muhitiga, rivojlanishi darajasi esa ta’lim jarayoniga bevosita bog’liqligini ko’rib chiqamiz.

Sohada mazkur masalaga daxldor ko’plab tadqiqotlar emotsional soha turli kechinmalarga asoslangan murakkab regulyatsion jarayon sanalib, u hayotiy tajriba, ta’lim – tarbiya, ijtimoiy muhit va ayrim irsiy omillar orqali takomillasha borishligi ma’lum bo’ldi. Jumladan tadqiqotchi G.V.Bulanovaning fikricha, talabalar faoliyatida hissiy-emotsional intellekt quyidagi funktsiyalarni bajaradi[3]:

- Har qanday muvaffaqqiyatli harakatlarni rag’batlantirish;
- Xulq – atvorni tartiblash va boshqarish;
- Ongni axborotlar oqimi bilan ta’minlash;
- Kutilmagan vaziyatlarni baholash.

Tadqiqotchi B.G.Ananьevning aytishicha, hayot va mehnat sharoitlari faqat insonning intellektual rivojlanishi uchun emas, balki hissiy emotsional sohasi uchun ham yaratilgan [4].

Tadqiqotchi Ya. D. Kolominskiy o’quv faoliyatida emotsional intellekti yaqqol namoyon bo’ladigan, ya’ni muvaffaqiyat qozonishga moyil bo’lgan talabalarni quyidagicha ta’riflaydi: “bunday tipdagi yoshlar odatda faol va izlanuvchandirlar. Agar, biror maqsadlari yo’lida to’siqlar paydo bo’lsa, ularni yengish yo’llarini tez topadilar. Ushbu talabalar boshqa talabalardan, o’z maqsadlariga erishish yo’lida qat’iyatliligi bilan bilan ajralib turadilar shuningdek, ular o’z kelajaklarini uzoq vaqt davomida rejalashtirishga moyildirlar”[5]. Mualifning mazkur ilmiy izohlaridan ko’rinib turibdiki, demak emotsional intellekning samaradorligi aynan isonlarning irodaviy sifatlarini barqarorligiga ham bog’liq ekan.

Demak, talabalarda emotsional-intellektual soha va uning o’ziga xos psixologik xususiyatlari muammosini tahlil qilib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. O’quv faoliyati natijasida hosil bo’lgan his-tuyg’ular nafaqat shaxsning emotsional-intellektual sohasiga, balki irodaviy sohasiga ham ko’plab o’zgarishlar olib keladi. Bundan tashqari, salbiy his – tuyg’ular

motivatsiyalarni noaniqlashtirish bilan birga, talabalar o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini kamaytiradi hamda o'zini o'zi boshqarish mexanizmlariga ta'sir qiladi.

Yuqoridagi masalaga daxldor barcha tadqiqotlarning ilmiy xulosalarini umumlashtirib, bir hissa chiqarib ilmiy mushohada qiladigan bo'lsak, talabalar shaxsida rivojlangan barqaror emotsional-intellektning tayanch mezonlari, jumladan empatiya, tolereantlik, hissiy barqarorlik, o'z – o'zini anglash va yuksak hislar keyinchalik, ularning shaxs sifatida barkamollikka erishishida hamda hayotiy, kasbiy oliy maqsadlarini amalga oshirishda o'ta muhim fundamentlal omil bo'lib xizmat qiladi deyish mumkin.

Adabiyotlar.

1. Ponomarenko L.P. Posledstviya kognitivno-emotsionalьnoy nediffirentsi-rovannosti semeynыx otnosheniy dlya razvitiya lichnostnoy avtonomii // Psixologiya i jiznь: psixologicheskie problemы sovremennoy semьi: materialы 5-oy Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii, Minsk, 4-25 noyabrya 2011 g. - Minsk, 2011. -S. 226-230.
2. Bulanova G.V. Emotsionalьnoe sostoyanie studentov kak faktor ix uchebnoy uspeshnosti: Avtoref. ...kand. ped. nauk. L. – 1989. – 16 s.
3. Vasilev I.A. Rolь intellektualьnыx emotsiy v regulyatsii mыslitelьnoy deyatelьnosti Psixologich. jurnal. 1998.Tom 19. 4 – S.49 – 60.
4. Vundt V. Osnovы fiziologicheskoy psixologii. Yestestvoznanie i psixologiya. Vыp. 1. S. – Pb.: Tipogr. P.P. Soykina, 2007. – S. 44-82.
5. Kolesnikov V.N. Emotsionalьnыy faktor v strukture lichnosti i uchebnoy deyatelьnosti studentov: Avtoref. dis. kand. psix. nauk. – SPb., 1997. – 16 s.

HARBIYLARDA EMOTSIONAL INTELLEKT QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi.
X.Ibragimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiylar faoliyatida emotsional intellekt qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Emotsional intellektning harbiy jamoada samarali muloqot, stressga bardoshlilik, yetakchilik, qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlikni mustahkamlashdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, xizmat jarayonida yuzaga keladigan psixologik bosimlar sharoitida emotsiyalarni anglash, boshqarish va boshqalarning hissiy holatini to'g'ri baholash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda harbiy xizmatchilarning kasbiy samaradorligini oshirishda emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik omillar va amaliy yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, harbiy xizmatchilar, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, stressga bardoshlilik, muloqot madaniyati, yetakchilik, jamoaviy hamkorlik, kasbiy samaradorlik.

Hozirgi vaqtda psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri insonning hissiy madaniyatini rivojlantirishdir. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda inson hayoti va faoliyatiga his-tuyg'ularni tarbiyalash muammosining dolzarbligi ta'kidlangan. Olimlarning ta'kidlashicha, dunyodagi umumiy yo'nalish bilan bir qatorda, emotsional yo'nalish ham zarur, bu boshqa odamlarning hissiy holatini to'g'ridan-to'g'ri taxmin qilish va ularning boshqa odamlar bilan emotsional munosabatlarini to'g'ridan-to'g'ri tan olish qobiliyatidan iborat. Ularning fikricha, individual faoliyatning yo'nalishi aniqligiga, shu jumladan emotsional yo'nalishga bog'liqligi aniq, bu shaxsning shakllanishi davrida muhim jarayon sifatida qaraladi.[1].

Shaxsning his-tuyg'ular dunyosiga yanada samarali yo'nalishiga emotsional intellekt rivojlanishi yordam beradi. Xususan, harbiy faoliyat "odam - odam" sohasiga tegishli, shuning uchun nozik hissiy darajadagi tushunish qobiliyati harbiy xizmatning kelajagi uchun muximdir.

Rus psixologiyasida emotsiya va intellektning birligi haqidagi g'oya, emotsiyonal va intellektual jarayonlarning birligi bo'lgan dinamik semantik tizim mavjudligini kashf etgan L.S.Vigotskiy asarlarida paydo bo'lgan[3]. Fikrlashning ta'sirga ta'siri bilan bir qatorda teskari ta'sir ham mavjud: bu fikrlashga ta'sir qiladi, bu, birinchi navbatda, "... har bir g'oyada qayta ko'rib chiqilgan shaklda odamning ta'sirchan munosabatini o'z ichiga oladi. bu g'oyada keltirilgan haqiqatga "4; ikkinchidan, fikrning o'zi bizning ongimizning rag'batlantiruvchi sohasidan kelib chiqadi.

A. N. Leont'ev ham fikrlashning emotsional (affektiv) tartibga ega ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda affektiv va intellektual jarayonlarning birligi haqidagi izlanuvchan g'oya "emotsional intellekt" atamasi bilan aks ettirilgan bo'lib, u o'z his-tuyg'ularini va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini tushunish va nazorat qilish uchun aqliy qobiliyatlar to'plami sifatida ta'riflanadi. hissiy sohasi.[7]. Hozirgi vaqtda hissiy intellektning bashoratli qiymati haqidagi tadqiqotlar dolzarbdir. Qobiliyat modelining mualliflari uni prootsial xatti -harakatlarning old sharti8, "aralash" modellar tarafdorlari - muloqot va faoliyatdagi muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida qaraydilar. Psixologik eksperiment o'tkazilganda, yuqori darajadagi emotsional intellektga ega bo'lgan, odatda, o'z va boshqa odamlarning his-tuyg'ularini samarali tushunishga va ularni boshqarishga qodir bo'lgan shaxslar, o'z-o'zini namoyon qiladigan shaxsga xos bo'lgan qadriyatlarni qabul qilishga moyil ekanligi aniqlandi.

Shaxsiy ichki emotsional intellekti yuqori bo'lgan shaxslar o'zlarining ijobiy fazilatlarini qadrlashadi va o'zlarini hurmat qilishadi. Ular kuchli va zaif tomonlaridan qat'iy nazar o'zlarini qabul qilishadi; ular mustaqil va hayotda o'z maqsadlari, e'tiqodlari, tamoyillari va munosabatlari bilan boshqariladi. Shu bilan birga, ular tezda odamlar bilan chuqur va yaqin hissiy boy aloqalarni o'rnatishga moyildirlar10. Ta'kidlash joizki, his-tuyg'ular va his-tuyg'ularning ichki muhitini saqlab, harakat qilish qobiliyati hissiy ko'rinishlarning tabiiyligiga va o'z-o'zini ijobiy tutishiga yordam beradi.

Keling, emotsional intellektning quyidagi tuzilmasidan foydalanaylik:

1) hissiy xabardorlik - boshqa odamlar boshdan kechirayotgan his -tuyg'ularni, og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti -harakatlarini tushunish, boshqa odamlarning his -tuyg'ularining haqiqiy va yolg'on ko'rinishini farqlash qobiliyati;

2) his -tuyg'ularingizni boshqarish - hissiyotning manbasini va sababini, uning maqsadi va rivojlanishining mumkin bo'lgan oqibatlarini, ma'lum bir vaziyatda foydalilik darajasini aniqlash qobiliyati; shunga muvofiq, agar kerak bo'lsa, his -tuyg'ularni tartibga solish yo'lini toping;

3) o'z -o'zini rag'batlantirish - samarali harakat qilish va hissiyotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyati;

4) empatiya - boshqa odamning his -tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyati;

5) boshqa odamlarning his -tuyg'ularini tan olish - hissiyotning boshqa odamda paydo bo'lishining mumkin bo'lgan sababini aniqlash va uning rivojlanishining oqibatlarini, og'zaki va og'zaki bo'lmagan boshqa odamning hissiy holatining o'zgarishini bilish qobiliyati.

Emotsional intellekt ko'pincha professional muvaffaqiyat bilan bog'liq. Kasbiy faoliyat, o'z navbatida, shaxsning hissiy-irodaviy sohasi bilan chambarchas bog'liq. Shu munosabat bilan, shaxsning emotsional intellekti va irodali fazilatlari darajasining o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqish zarur.

Shaxsning umumiy madaniyatining asoslaridan biri, uni ifodalash mezonini psixologik madaniyat deb atash mumkin, bu integratsiyalashgan kasbiy va shaxsiy sifatdir [6].

Psixologik madaniyatni ko'p bosqichli tizimli aqliy ta'lim sifatida ko'rib, ekspertlar unda aksiologik, kommunikativ, emotsional, faollik, kognitiv, refleksiv, ijodiy, baholovchi va boshqalar kabi komponentlarni ajratadilar. Psixologik madaniyat tarkibidagi emotsional komponentni o'rganish. O'zaro munosabatlar tizimi asosida hissiy o'zini o'zi boshqarish va sheriklarning his-

tuyg'ularini boshqarish sohasidagi muvaffaqiyati haqidagi bilimlar tizimini ishlab chiqish, shaxsning o'z ruhiy voqelikni rivojlantirish qobiliyati haqidagi g'oyalarni shakllantirish. [3].
Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda ko'pincha boshqa odamlarning hissiy holatini tushunishga imkon beradigan hissiy yo'nalishning ahamiyati haqida savol tug'iladi. Bu yo'nalishning sabablaridan biri, bizning fikrimizcha, inson psixikasidagi kognitiv va hissiyotning o'zaro ta'sirini belgilaydigan emotsional intellekt deb atash mumkin.

Ofitserning kasbiy faoliyati, shubhasiz, hissiy xarakterga ega, chunki yuqori darajadagi zo'riqish va mas'uliyat, o'ziga xos bo'ysunuvchi me'yorlar doirasida mavjud bo'lgan shaxslararo faol o'zaro ta'sir. Bu zobitning emotsional-ixtiyoriy tartibga solish ko'nikmalari va ko'nikmalarining yuqori darajasini nazarda tutadi: empatiya, hissiy tiyilish, muvozanat, kommunikativ bag'rikenglik, hissiy barqarorlik.

Shuni ta’kidlash kerakki, ofitser kasbi ijtimoiy uzluksizdir, chunki odamlar (bo'ysunuvchilar, hamkasblar, qo'mondonlar, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, fuqarolik xodimlari) ham ofitserning professional faoliyatining sub'ekti va ob'ekti. Hech shubha yo'qki, hissiy va intellektual ofitserlar nafaqat turli vaziyatlarda o'zlarini "nazorat qila" olishadi, balki harbiy professional faoliyatning boshqa sub'ektlari bilan ham munosabatlarni samarali o'rnatishlari mumkin [2].
Shunday qilib, G.G. Garskova bu hodisani intellektual tahlil va sintez asosida hissiyotlarni ifodalash va hissiy sohani boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi.
M.A. Manoilova emotsional intellektni boshqa odamlarning hissiy holatlari va his-tuyg'ularini tan olish, qabul qilish va tartibga solish qobiliyati deb biladi, ularning asosiy komponentlari empatiya, bag'rikenglik (bag'rikenglik), qat'iyatlilik va shaxsning o'zini o'zi qadrlashidir [4].
I.S.Stepanovning ta'kidlashicha, hissiy intellekt-bu shaxslararo o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatini, o'zini o'zi qadrlashini, ijobiy fikrlashni, shuningdek, hissiyotlar va qobiliyatlarning ahamiyatini anglashga asoslangan etakchilik qobiliyatini belgilaydigan dinamik ajralmas psixologik ta'lim. Ularni boshqarish uchun [6].

I.N. Meshcheryakova, shuningdek, hissiy intellektni kompleks integratsion ta'lim deb ta'riflaydi, u o'z tarkibiga o'z his -tuyg'ulari va boshqalarning his -tuyg'ularini anglash, tushunish va tartibga solishni ta'minlaydigan, shaxslararo o'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatiga va shaxsiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi bilim, xulq -atvor va hissiy komponentlarni o'z ichiga oladi. .
T.I. Solodkova emotsional intellekt charchoq sindromini engib o'tishning shaxsiy manbasi ekanligiga e'tibor qaratadi [7].

I.N. Andreeva emotsional intellekt tuzilmasida quyidagilarni ajratadi:

- hissiy xabardorlik- og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarning boshqa odamlar boshidan kechirgan his-tuyg'ularni tushunish imkoniyati sifatida;

- his-tuyg'ularingizni boshqarish, bu hissiyotlar paydo bo'lishining aniqlovchilarini va uning rivojlanishining mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash va shunga mos ravishda emotsional holatni tartibga solish usullarini topish qobiliyatidan iborat;

- ta'sirchan harakat qilish va hissiyotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatida ifodalangan o'z-o'zini rag'batlantirish;

empatiya - bu boshqa odamning his -tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyati va boshqalar [1].

Mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, shuningdek, bizning shaxsiy tadqiqotlarimiz, odamning psixologik madaniyati tarkibidagi emotsional intellektning funktsiyalarini ajratib ko'rsatish imkonini berdi.

O'ziga va atrofidagilarning hissiy reaktsiyalari va tajribalarini aniqlash va shu asosda vaziyatga, xulq -atvorga va hokazolarga munosib munosabatni shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan baholovchi;

- moslashuvchanlik, realizm, moslashish qobiliyatida, shu jumladan hissiy jihatdan, notanish, oldindan aytib bo'lmaydigan va tez o'zgaruvchan sharoitda aks ettirilgan;

- o'z his -tuyg'ularini, istaklarini va his -tuyg'ularini aniq ifoda etish, xatti -harakatlarini mustaqil ravishda tartibga solish, o'z fikrlarini himoya qilish va his -tuyg'ularini ochiq ifoda etish qobiliyati bilan shartlangan qat'iy;
- refleksiv, o'zaro va hissiy tajribalarni tushunishda emotsional intellektning ishtirokidan iborat;
- muloqotning og'zaki va og'zaki bo'lmagan tomonlarini emotsional va intellektual dekodlashga asoslangan kommunikativ o'zaro ta'sirning muvaffaqiyatini ta'minlash orqali aniqlanadigan kommunikativ;
- tartibga soluvchi, hissiy intellektning xatti -harakatlarni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishda va emotsional charchashning ayrim belgilarining namoyon bo'lishini minimallashtirishda namoyon bo'ladi;
-ijobiy his -tuyg'ular va his -tuyg'ularga bo'lgan ehtiyojni qondirish muvaffaqiyatiga hissa qo'shadigan, shakllangan hedonistik me'yorlar asosida atrofdagi dunyoni va odamlarni ijobiy idrok etishda ifodalanadi.

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki; harbiy oily ta’limning o'quv jarayoniga psixologik va pedagogik sharoitlarni kiritish zarurligini ko'rsatadi. , bu shaxsiy konstruktsiyani rivojlantirishga qaratilgan. Xulq-atvorning nostandart texnikasi va taktikasi, biznes va rolli o'yinlar, interaktiv texnologiyalar, ijtimoiy-psixologik treninglar asosida hal qilinadigan bo'lajak kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan tegishli vaziyatlardan foydalanish, shubhasiz, o'zaro ta'sirli ssenariylarni ishlab chiqishga yordam beradi, ijtimoiy mas'uliyat, qat'iyatlilik, ekspressivlik, kommunikativ bag'rikenglik va emotsional intellektning boshqa ko'rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Щербаков С.В. Эмоциональный интеллект как структурный компонент психологической культуры курсантов военных вузов // фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-19. – с. 4336-4339;

2. Друкер П. Ф. Эффективный руководитель. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2012. 481 с. 13. 3.Полянова Л. М. Влияние уровня эмоционального интеллекта руководителя на эффективность управленческой деятельности: автореф. дис. … канд. соц. наук. М., 2015. 25 с. 14. Joseph D. L., 4.Newman D. 5. Стернберг Р. Дж., Форсайт Дж. Б., Хедланд Дж., Григоренко Е. Л. Практический интеллект. СПб.: Питер, 2002. 272 с.

6. Гоулман Д., Бояцис Р., Макки Э. Эмоциональное лидерство: Искусство управления людьми на основе эмоционального интеллекта. М.: Альпина Паблишер, 2012. 301 с.

7. Livingstone H., Nadjiwon-Foster M., Smithers S. Emotional Intelligence and Military Leadership. Report Prepared for the Canadian Forces Leadership Institute. Ottawa: DND, 2002. 54 p

INSON RUHIY SALOMATLIGNI TAKOMILLASHTIRISH: ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING ILMIY ASOSLANGAN YONDASHUVLARI

Guzarboyeva Jasmina Umidjon qizi
ADU Fizika yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy psixologiyaning inson ruhiy salomatligini takomillashtirishga qaratilgan eng samarali yondashuvlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Pozitiv psixologiya orqali shaxsning ichki resurslarini faollashtirish va ijobiy psixik barqarorlikni shakllantirish mexanizmlari ilmiy asoslar bilan yoritiladi. Mindfulness va meditatsiyaning hissiy muvozanatni tiklash, stressni kamaytirish va ongning hozirgi lahzaga qaytishini ta’minlovchi psixologik jarayonlari chuqur tahlil etiladi. Kognitiv-behavioral terapiya salbiy fikrlash andozalarini o‘zgartirish orqali ruhiy farovonlikni oshirishning eng ishonchli va amaliy metodlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: ruhiy salomatlik, zamonaviy psixologiya, pozitiv psixologiya, mindfulness, meditatsiya, kognitiv-behavioral terapiya, emotsional intellekt, raqamli psixologiya, VR-intervensiya, psixologik farovonlik, stressni boshqarish, kognitiv jarayonlar, psixoterapiya usullari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА: НАУЧНО ОБОСНОВАННЫЕ ПОДХОДЫ СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация: Данная работа раскрывает воспитательный и едитивный потенциал оперного искусства как уникального средства эстетического и духовного развития личности. В исследовании анализируются художественные, эмоциональные и культурные компоненты оперы, способные формировать мировоззрение, ценностные ориентиры и эмоциональный интеллект молодёжи. Особое внимание уделено тому, как опера через синтез музыки, драматургии и сценического искусства способствует нравственному совершенствованию человека. Материал основан на научных источниках и современных культурологических исследованиях.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, художественное восприятие, культурное развитие, эмоциональный интеллект, духовное формирование.

ENHANCING HUMAN MENTAL HEALTH: SCIENTIFICALLY BASED APPROACHES IN MODERN PSYCHOLOGY

Annotation: This paper explores the educational and formative potential of opera as a unique medium for the aesthetic and spiritual development of the individual. The study examines the artistic, emotional, and cultural components of opera that shape worldview, value orientation, and emotional intelligence in young people. Special attention is given to how opera, through the synthesis of music, drama, and stage performance, contributes to the moral elevation of a person. The material is based on academic sources and contemporary cultural studies research.

Keywords: aesthetic education, artistic perception, cultural development, emotional intelligence, spiritual formation.

Hozirgi dunyoda inson ruhiy salomatligi nafaqat shaxsiy farovonlik, balki jamiyatning umumiy sog‘ligi va ijtimoiy muvozanati uchun ham muhim omil hisoblanadi. Hayotning tezkor sur’ati, doimiy axborot bosimi va kundalik stress sharoitida shaxsning ruhiy holati zaiflashadi, bu esa ko‘plab muammolarga olib keladi. Shu sababli zamonaviy psixologiya ruhiy salomatlikni saqlash va mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan samarali yondashuvlarni ishlab chiqdi, ular bir-birini to‘ldiradigan tarzda ishlatilganda esa yanada kuchli natijalarni beradi.

Birinchi navbatda, Kognitiv-Behavioral terapiya deb ataluvchi metod shaxsning fikrlash uslubini qayta shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv yordamida odam o‘z salbiy fikrlarini aniqlab, ularni konstruktiv va realistik fikrlarga almashtiradi. Bu jarayon depressiya, tashvish va stress holatlarini kamaytirishda samarali bo‘ladi, shuningdek, shaxsning ichki resurslarini faollashtiradi. Masalan, David D. Burnsning “Feeling Good: The New Mood Therapy” asarida CBTning depressiya va bezovtalikka qarshi samaradorligi keng tahlil qilingan. CBT boshqa psixologik metodlar bilan uyg‘un ishlatilganda esa natija sezilarli darajada oshadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — mindfulness va meditatsiya amaliyotlari bo‘lib, ular ongni hozirgi lahzaga jalb qilish va hissiyotlarni baholamasdan qabul qilishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam mindfulness mashqlari stress va bezovtalik darajasini kamaytiradi, e’tibor va konsentratsiyani oshiradi hamda ichki tinchlikni mustahkamlaydi. Kabat-Zinnning “Full Catastrophe Living” asarida mindfulnessning inson ruhiy salomatligiga ijobiy ta’siri batafsil yoritilgan. Shu bilan birga, meditatsiya nafaqat ruhiy holatni yaxshilash, balki ijodiy fikrlash va psixik barqarorlikni kuchaytirishda ham samarali vosita sifatida ishlatiladi.

Shuningdek, shaxsning emotsional intellekti ruhiy salomatlikda muhim rol o‘ynaydi. Emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalar hissiyotini tushunish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shaxs o‘z hissiyotlarini tushunib, ularni samarali boshqarishni o‘rgansa, ichki muvozanat va ruhiy barqarorlikni sezilarli darajada oshiradi. Daniel Golemanning “Emotional Intelligence” asarida hissiy intellektni rivojlantirish ruhiy va ijtimoiy moslashuvni oshirishda asosiy omil sifatida ta’kidlangan. Bu qobiliyat ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lish va stressga bardoshli bo‘lishga xizmat qiladi.

Zamonaviy psixologiyada raqamli vositalar va texnologiyalar ham ruhiy salomatlikni mustahkamlashga yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Onlayn terapiya, mobil meditatsiya ilovalari va virtual treninglar shaxsga uy sharoitida psixologik yordam olish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar muntazam mashqlarni kuzatish va nazorat qilish imkonini ham beradi, bu esa psixologik yordamning samaradorligini oshiradi va ruhiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Integrativ yondashuv, ya’ni CBT, mindfulness, emotsional intellektni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni uyg‘un qo‘llash ruhiy salomatlikni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Har bir metod bir-birini to‘ldiradi va shaxsning ichki resurslarini faollashtiradi, stressga bardoshni oshiradi va hayotdan qoniqish hissini kuchaytiradi. Shu tarzda shaxs o‘z ruhiy barqarorligini nafaqat saqlab qoladi, balki rivojlantiradi va ongini mustahkamlaydi.

Hozirgi sharoitda inson ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash zarurati ortib bormoqda. Integrativ yondashuvlar shaxsga o‘z fikrlari va hissiyotlarini boshqarish, stress va tashvishdan himoyalanish, shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy muammolarga moslashish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular shaxsiy o‘sish, ichki uyg‘unlik va hayotdan qoniqish hissini oshirishga xizmat qiladi. Har bir shaxs kundalik hayotida ongli ravishda fikr va hissiyotlarni boshqarishga o‘rgansa, ruhiy barqarorlik va ichki tinchlik darajasi sezilarli darajada kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda ruhiy salomatlikni saqlash nafaqat ilmiy metodlarga amal qilish, balki ongli hayot kechirish va o‘z fikr hamda hissiyotlariga e’tibor berishda ham yotadi. Inson o‘z ichki dunyosini tushunib, hissiyotlarini boshqarishni o‘rganishi orqali murakkab vaziyatlarda ham muvozanatni saqlay oladi. Har bir kichik o‘zgarish, har bir ongli qaror shaxsni kuchliroq va bardoshliroq qiladi, bu esa hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Menimcha, mindfulness va meditatsiya faqat stressni kamaytirish vositasi emas, balki ongni tozalash va ichki tinchlikni topish san’ati hisoblanadi. Shuningdek, o‘z hissiyotlarini anglagan shaxs ijtimoiy munosabatlarda ham muvaffaqiyatli bo‘ladi va atrofidagilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar yordamida psixologik mashqlarni uy sharoitida ham bajarish mumkin, bu esa o‘z-o‘zini rivojlantirishni qulay va samarali qiladi. Har bir inson ruhiy barqarorlikni muntazam ravishda rivojlantirish orqali o‘z hayotini yanada boyitishi va baxtini oshirishi mumkin. Menimcha, integrativ yondashuvlar — fikrni boshqarish, ongni uyg‘unlashtirish va hissiy intellektni rivojlantirish — shaxsni har tomonlama kuchaytiradi. Shu sababli, har bir inson ruhiy salomatlikni rivojlantirishga doimiy e’tibor qaratishi lozim. Nihoyat, o‘z ichki uyg‘unligini topgan va ruhiy barqarorlikka erishgan inson hayotdan maksimal darajada zavq oladi va atrofidagilarga ijobiy energiya ulashadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Rogers, C. (1980). *A Way of Being*. Boston: Houghton Mifflin.
2. Seligman, M. (2011). *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being*. New York: Free Press.
3. Kabat-Zinn, J. (1994). *Wherever You Go, There You Are*. New York: Hyperion.
4. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.

BOLALARDA AGRESSIYANI KAMAYTIRISHNING PSIXOLOGIK STRATEGIYALARI

Andijon davlat universiteti

2-bosqich psixologiya
yo‘nalishi 201-guruh talabasi
Jo‘raboyeva Ruxshona

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarda agressiyani kamaytirishning psixologik strategiyalariga bag‘ishlangan. Unda agressiyaning bolalar rivojlanishidagi tabiiyligi va uning ortiqcha namoyon bo‘lishining salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Maqolada agressiyaning sabablari, shakllari va ularni aniqlash usullari keltirilgan. Shuningdek, ijobiy modellashtirish, hissiy boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish, muammolarni hal qilish strategiyalari, ijtimoiy o‘yinlar va rag‘batlantirish usullari orqali agressiyani kamaytirishning samarali yo‘llari bayon etilgan. Maqola ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi hamda bolalarning hissiy barqarorligini oshirish va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, ortiqcha agressiya kuzatilganda mutaxassis yordami zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: agressiya, bola psixologiyasi, hissiy boshqarish, ijobiy modellashtirish, muammolarni hal qilish, rag‘batlantirish, ijtimoiy o‘yinlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ СНИЖЕНИЯ АГРЕССИИ У ДЕТЕЙ

Аннотация: Данная статья посвящена психологическим стратегиям снижения агрессии у детей. В ней анализируются природная сущность агрессии в детском развитии и негативные последствия её чрезмерного проявления. В статье представлены причины агрессии, её формы и методы выявления. Также описаны эффективные способы уменьшения агрессивного поведения посредством позитивного моделирования, формирования навыков эмоциональной регуляции, стратегий решения проблем, социальных игр и методов поощрения. Статья включает практические рекомендации для родителей, педагогов и психологов, направленные на повышение эмоциональной устойчивости детей и развитие их социальной адаптации. Кроме того, подчёркивается важность обращения к специалисту при наблюдении чрезмерной агрессии.

Ключевые слова: агрессия, детская психология, эмоциональная регуляция, позитивное моделирование, решение проблем, поощрение, социальные игры.

PSYCHOLOGICAL STRATEGIES FOR REDUCING AGGRESSION IN CHILDREN

Abstract: This article is dedicated to psychological strategies for reducing aggression in children. It analyzes the natural role of aggression in child development and the negative consequences of its excessive manifestation. The article presents the causes and forms of aggression, as well as methods for identifying it. Effective approaches for reducing aggressive behavior—such as positive modeling, developing emotional regulation skills, problem-solving strategies, social play, and reinforcement techniques—are discussed in detail. The article offers practical recommendations for parents, teachers, and psychologists, aimed at enhancing children’s emotional stability and improving their social adaptation. The importance of seeking professional help when excessive aggression is observed is also emphasized.

Keywords: aggression, child psychology, emotional regulation, positive modeling, problem solving, reinforcement, social games.

Bolalarda agressiyani kamaytirishning psixologik strategiyalari. Agressiya bolalarda rivojlanish jarayonida uchraydigan tabiiy xatti-harakatlardan biri hisoblanadi, lekin uning ortiqcha namoyon bo‘lishi bolaning psixologik holatiga, ijtimoiy munosabatlariga va o‘quv jarayonlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun agressiyani kamaytirish bo‘yicha samarali strategiyalarni bilish va ularni hayotda qo‘llash juda muhimdir. Bu

jarayonning muvaffaqiyati bolalarning hissiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va muammolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga bevosita bog‘liqdir[1].

Agressiyani aniqlash va uning sabablarini tushunish. Birinchi qadam - bolada agressiyaning mavjudligini aniqlash va uning sabablari bilan tanishishdir. Buning uchun bolaning hissiy holati, u qachon jahldor bo‘lishi va qanday vaziyatlarda o‘zini agressiv tutishi diqqat bilan kuzatiladi. Shuningdek, agressiyaning shakllari - jismoniy, so‘z bilan ifodalangan yoki passiv agressiya - aniqlanadi, chunki turli shakllar turli strategiyalarni talab qiladi. Sabablarni tushunish muhim: boladagi agressiya ko‘pincha ruhiy charchoq, oilaviy muhitdagi nizolar, do‘stlar bilan kelib chiqqan mojaro yoki stress holatlaridan kelib chiqadi. Shu asosda, bolaning xatti-harakati sabablarini aniqlash va unga mos psixologik yondashuvni tanlash mumkin bo‘ladi.

Ijobiy modellashtirish. Bolalar kattalarning xulqini kuzatib, o‘rganadi, shuning uchun ular uchun eng muhim o‘rnak - ota-onalar va pedagoglardir. Shu sababli, kattalar o‘zlarida sabr-toqat, muloyimlik va konstruktiv muloqotni namoyish etishi lozim. Konflikt vaziyatlarida tinch va muloyim yo‘l bilan yechim topish, hissiyotlarni nazorat qilish va so‘zlash orqali muammolarni hal qilish bolalar uchun eng yaxshi dars bo‘ladi. Bolalar ijobiy modellashtirish orqali agressiyani kamaytirishning samarali yo‘llarini o‘rganadi va ijtimoiy muhitda muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Emotsiyalarni boshqarishni o‘rgatish. Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni bilmasa, ular tezda agressiv xatti-harakatlarga murojaat qiladilar. Shu sababli bolalarga hissiyotlarni aniqlash va ularni so‘z bilan ifodalashni o‘rgatish zarur. Masalan, “Men jahlim chiqqanida yuragim tez uradi va qo‘lim titraydi” kabi ifodalar orqali bola o‘z holatini tushunadi va boshqarishga harakat qiladi. Shuningdek, stressni kamaytirish texnikalari - chuqur nafas olish, tasavvur qilish, qisqa tanaffuslar qilish yoki tinchlantiruvchi mashqlar - bolalarga agressiyani nazorat qilishga yordam beradi va ularni hissiy barqaror qiladi.

Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Ko‘pincha agressiya bolalarning muammolarni yecha olmasligidan kelib chiqadi. Shu sababli ularga muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishni o‘rgatish muhimdir. Masalan, “muammo – yechim” strategiyasini qo‘llash: muammoni aniqlash, bir nechta variantni ishlab chiqish, eng ma’qul yechimni tanlash va natijani baholash. Shu orqali bolalar jismoniy kuch ishlatmasdan nizolarni hal qilishni o‘rganadilar, o‘zini boshqarish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar[2].

Rag‘batlantirish va ijobiy mustahkamlash. Agressiya kamayganda bolani rag‘batlantirish uning motivatsiyasini oshiradi va xulqni ijobiy yo‘naltirishga yordam beradi. Bolani ijobiy xulq qilgani uchun maqtash, kichik mukofotlar berish va uning muvaffaqiyatlarini e’tirof etish - uning ijobiy tajriba orttirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, salbiy xatti-harakatlarga e’tibor bermaslik, lekin to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish orqali bola agressiyani nazorat qilishni o‘rganadi va xulqini ijobiylashtiradi.

Ijtimoiy o‘yinlar va guruh faoliyati. O‘yinlar bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun samarali vosita hisoblanadi. Ijtimoiy o‘yinlar orqali bolalar o‘z hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadilar, hamkorlik qilish va hamdardlik ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Shuningdek, o‘yinlarda yuzaga kelgan konflikt vaziyatlarda tinch yo‘l bilan yechim topish imkoniyatini ko‘rishadi. Shu tariqa, o‘yinlar agressiyani kamaytirish va ijtimoiy moslashuvni oshirishning samarali strategiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mutaxassis yordami. Agar agressiya ortiqcha va kundalik hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatsa, psixolog yoki psixiatr bilan maslahatlashish muhimdir. Individual psixoterapiya, guruh mashg‘ulotlari yoki maxsus o‘quv dasturlari orqali agressiya kamaytirilishi mumkin. Mutaxassis yordami bola uchun xavfsiz va konstruktiv muhitni yaratadi, uning hissiy va ijtimoiy barqarorligini oshirishga yordam beradi.

[1] Ginzburg, A. B. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 256 b.
[2] Islomova, N. Psixologik strategiyalar va bolalarning hissiy rivojlanishi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 192 b.

Bolalarda agressiyani kamaytirish psixologik strategiyalarni puxta qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Agressiyaning sabablari aniqlangach, ijobiy modellashtirish, hissiy boshqarish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, ijtimoiy o‘yinlar va rag‘batlantirish orqali bola hissiy barqarorlik va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi. Ortib ketgan agressiya holatlarida mutaxassis yordami muhim ahamiyatga ega. Shu bilan, ota-onalar va pedagoglarning faol ishtiroki bolada agressiyani nazorat qilish va ijobiy xulqni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ginzburg, A. B. Bolalar psixologiyasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 256 b.
2. Islomova, N. Psixologik strategiyalar va bolalarning hissiy rivojlanishi. – Toshkent: Sharq, 2018. – 192 b.
3. Karimov, T. Ota-onalar uchun psixologik qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2017. – 210 b.
4. Rasulova, L. Bolalarda agressiyani kamaytirish metodikasi. – Toshkent: Yoshlar, 2019. – 145 b.
5. Shamsiyev, R. Hissiy intellekt va bolalar tarbiyasi. – Toshkent: Movarounnahr, 2020. – 178 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Psixologik yordam va bolalarni rivojlantirish to‘g‘risida qonun. – Toshkent, 2016.

Internet manbalar:

https://www.unicef.org
https://www.psychologytoday.com

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASINING O`ZIGA XOSLIGI

Fizika matematika va IT fakulteti
Fizik amatematika kafedrasi
Sattarova Muhlisa Iborhimjon qizi
sattorovmuxlis6@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik maktab yoshi bosqichining psixologik, pedagogik va fiziologik xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Mazkur davrda bolalarning bilish jarayonlari, emotsional rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ta’lim jarayoniga moslashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshi o‘quv faoliyatining shakllanishi, mustaqil fikrlashning rivojlanishi, nutq va tafakkur jarayonlarining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Maqolada shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, motivatsiya omillari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi pedagogik muloqotning roli ham yoritilgan bo‘lib, mazkur bosqichda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, psixologik rivojlanish, bilish jarayonlari, ijtimoiylashuv, motivatsiya, ta’lim texnologiyalari, muloqot, o‘quv faoliyati

Annotation: this article provides an in-depth analysis of the psychological, pedagogical, and physiological characteristics of early school age. At this stage, the development of cognitive processes, emotional formation, social adaptation, and readiness for the learning process become especially important. Early school age is characterized by rapid development of thinking, improved speech activity, strengthened learning motivation, and formation of academic skills. The article also discusses the role of modern educational technologies, motivational strategies, and teacher–student communication, highlighting methods that enhance educational effectiveness at this developmental stage.

Keywords: early school age, psychological development, cognitive skills, motivation, socialization, learning process, pedagogy, communication

Аннотация: в данной статье проводится глубокий анализ психологических, педагогических и физиологических особенностей младшего школьного возраста. В этот период особенно важными становятся развитие познавательных процессов, эмоциональное формирование, социализация и адаптация детей к учебной деятельности. Младший школьный возраст характеризуется интенсивным развитием мышления, улучшением речевой активности, формированием учебной мотивации и начальных учебных навыков. В статье также рассматриваются современные образовательные технологии, мотивационные факторы, а также роль педагогического общения в повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: младший школьный возраст, психологическое развитие, познавательные процессы, социализация, мотивация, педагогика, учебная деятельность, общение

Kichik maktab yoshi — bu bolaning psixologik va pedagogik rivojlanishida tub burilish bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrda bola maktab muhitiga moslashadi, o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji shakllanadi, yangi ijtimoiy rol — “o‘quvchi” sifatida o‘zini anglay boshlaydi. Ushbu bosqichning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bolada bilish jarayonlari (diqqat, xotira, tafakkur, idrok) jadal rivojlanadi, bu esa o‘quv faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishda asosiy mezonlardan biridir. Maktabga moslashuv jarayonida bolalarda ijtimoiy-emotsional holat, o‘z-o‘zini boshqarish, vazifalarni mustaqil bajarish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Shu sababli, kichik maktab yoshi ta’lim jarayonining psixologik asoslarini chuqur o‘rganishni, individual farqlarni hisobga olgan holda, ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni talab etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanish dinamikasini to‘g‘ri bashorat qilish, ularda barqaror motivatsiya shakllantirish va bilish faoliyatlarini qo‘llab-quvvatlashni dolzarb vazifa deb hisoblaydi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modellari ushbu yoshdagi bolalarning o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qituvchining kommunikativ mahorati, muloqot madaniyati, bolalar psixologiyasini chuqur bilishi ta’lim natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kichik maktab yoshi nafaqat pedagoglar, balki psixologlar, ota-onalar va ta’lim siyosatini belgilovchi mutaxassislar uchun ham dolzarb tadqiqot sohasi bo‘lib, bu bosqichda olib borilgan ilmiy va amaliy izlanishlar keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Kichik maktab yoshi bolalik davrining eng mas’uliyatli bosqichlaridan biri bo‘lib, taxminan 6–10 yosh oralig‘ini o‘z ichiga oladi. Bu davrda bola maktab muhitiga moslashadi, bilish jarayonlari faol rivojlanadi va shaxsiy sifatlar shakllanadi. Ushbu yoshda bolalarda tafakkur, xotira, diqqat va nutqning rivojlanishi jadal kechadi, chunki ta’lim jarayoni ularning intellektual salohiyatini faollashtirib, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Kichik maktab yoshi bolaning psixik rivojida yangi bosqichni boshlab beradi, bunda ta’lim faoliyati yetakchi faoliyat sifatida shakllanadi va uning shaxsiy rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bu yoshdagi bolalarning bilish jarayonlari o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Masalan, ularning tafakkuri hali konkret-obrazli xarakterga ega bo‘lib, mavhum tushunchalarni tushunishi qiyinroq bo‘ladi. Ular ko‘proq ko‘rgazmali qurol, tasvirlar, misollar va real hayotiy vaziyatlar orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik, faol ishtirok, tajribaga asoslangan o‘qitish usullari alohida o‘rin tutadi. Xotira ham ko‘proq ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘lib, bola eslab qolishni o‘zlashtirish jarayonida qiziqish orqali amalga oshiradi. O‘qituvchi va ota-onalar bola xotirasini rivojlantirish uchun uni motivatsiyalash, mazmunli o‘rganish metodlarini tanlashi lozim bo‘ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning diqqat jarayoni ham hali barqaror emas, uning tez chalg‘ishi yoki toliqishi kuzatiladi. Bu holat o‘quv topshiriqlarini qisqa, aniq, ketma-ketlikka ega tarzda berishni, faoliyatni tez-tez almashtirib turishni talab qiladi. Shuningdek, bu davrda bola ixtiyoriy diqqatni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichida bo‘ladi, ya’ni diqqatni ma’lum vaqt

davomida bir obyektga qaratish va uni boshqarish ko‘nikmalari asta-sekin shakllanadi. Bunday rivojlanish ta’lim jarayonida tartib-intizom, darslarni rejalashtirish, o‘quv jarayoniga jalb qilish kabi pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini oshiradi.

Shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan kichik maktab yoshi bolalarning o‘ziga bo‘lgan bahosi, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy moslashuv darajasi shakllanadigan davrdir. Ushbu bosqichda bola o‘qituvchi fikriga yuqori darajada tayanadi va uning bahosini eng muhim motivatsion omil sifatida qabul qiladi. Shu bois pedagogning ijobiy munosabati, adolatli baholashi, qo‘llab-quvvatlashi bolaning o‘ziga ishonchi, o‘z-o‘zini qadrlashi va ijtimoiy moslashuviga kuchli ta’sir qiladi. Bu davrda jamoa bilan ishlash ko‘nikmalari ham shakllanib boradi, bola sinf jamoasida o‘z o‘rnini egallashni, hamkorlik qilishni o‘rganadi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishda kichik maktab yoshi bolaning his-tuyg‘ularni boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish kabi ko‘nikmalarni egallash bosqichidir. Bu yoshda bolalar emotsional beqarorlikka moyil bo‘lishi mumkin: ular o‘z his-tuyg‘ularini to‘liq boshqarishni hali o‘rganmagan bo‘ladi. O‘qituvchi va ota-onalar tomonidan emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijobiy muloqot, stressni boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish bolaning ruhiy barqarorligi uchun muhim hisoblanadi. Maktab muhiti esa o‘quvchi shaxsining ijtimoiylashuv darajasini belgilovchi asosiy maydon bo‘lib, undagi pedagogik yondashuvlar bolaning emotsional sog‘lom rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi.

Jismoniy rivojlanish ham kichik maktab yoshida faol kechadi. Bu davrda skelet-mushak tizimi, muvozanat, mayda va yirik motorika ko‘nikmalari takomillashadi, ammo hali to‘liq shakllanmagan bo‘lganligi sababli toliqish, charchash yoki mushak zo‘riqishlari tez-tez uchrashi mumkin. Shu bois ta’lim jarayonida tanaffuslarni to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy daqiqalar, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, o‘quv yuklamasini yosh psixofiziologik imkoniyatlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat bolaning sog‘lig‘ini saqlash, balki uning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga ham yordam beradi.

Kichik maktab yoshi bolaning nutqiy rivojlanishi va kommunikativ ko‘nikmalarining shakllanishi uchun ham eng muhim davr hisoblanadi. Bu yoshda lug‘at boyligi keskin oshadi, grammatik tuzilma shakllanadi va muloqot madaniyati rivojlanadi. Ta’lim jarayonida o‘qish, yozish, matnni tahlil qilish, fikrni aniq bayon etish kabi ko‘nikmalar shakllanadi, bu esa bola intellektual rivojlanishining keyingi bosqichlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Kommunikativ faollikni oshirish, fikr almashish jarayonlariga jalb qilish, savol-javoblar, suhbatlar tashkil qilish nutqni rivojlantirishning eng samarali metodlaridan biri hisoblanadi.

Kichik maktab yoshi bolalarning intellektual, emotsional, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishida jamlangan davr bo‘lib, bu bosqichda qo‘llaniladigan pedagogik va psixologik yondashuvlar bolalarning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligini belgilab beradi. Maktabning psixologik muhitini sog‘lom saqlash, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim tashkil etish, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarining ijobiy bo‘lishi ushbu yosh davrining samarali o‘tishini ta’minlaydi.

Kichik maktab yoshi bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida eng mas’uliyatli davrlardan biri bo‘lib, bu bosqichda shakllanadigan ko‘nikmalar keyingi ta’lim bosqichlarining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu davrda bolaning tafakkuri ko‘proq ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lsa-da, asta-sekin tafakkurning mantiqiy shakllari, tasniflash, tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish jarayonlari shakllanadi. Shuningdek, kichik maktab yoshi o‘quv motivatsiyasining rivojlanishida, o‘quv jarayoniga ongli munosabatning shakllanishida va shaxsning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining paydo bo‘lishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu bosqichdagi bolalarning psixologik xususiyatlari o‘qituvchidan nozik pedagogik yondashuvni, individual rivojlanish darajasini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishni talab qiladi.

Kichik maktab yoshida ijtimoiy rivojlanish ham jadal kechadi: bola sinfdoshlar bilan o‘zaro munosabat o‘rnatadi, jamoa ichidagi o‘rnini anglaydi va ijtimoiy rollarni o‘zlashtira boshlaydi. Shu davrda shakllangan kommunikativ ko‘nikmalar, emotsional barqarorlik, o‘zini

nazorat qilish va baholash qobiliyatlari kelajakdagi ijtimoiy kompetensiyaning poydevorini tashkil qiladi. Ta’lim jarayonida interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, muammoli vazifalar va integratsiyalashgan yondashuvlar qo‘llanilishi bolaning faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshi — bu bolaning har tomonlama rivojlanishida eng sezgir va samarali davr bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi uning keyingi intellektual va shaxsiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva, M. Boshlang‘ich ta’lim psixologiyasi. Toshkent, 2022.
2. Akhmedov, A. Kichik maktab yoshidagi bolalar rivojlanish xususiyatlari. Samarqand, 2023.
3. Azizova, D. Pedagogik jarayonda yosh davri psixologiyasi. Buxoro, 2024.
4. Bozorov, I. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish. Namangan, 2022.
5. Iskandarov, R. Kichik yoshdagi bolalarda tafakkur rivoji. Toshkent, 2023.
6. Karimova, L. Yosh psixologiyasi va ta’lim texnologiyalari. Farg‘ona, 2025.
7. Rakhimova, Z. Boshlang‘ich ta’limda didaktik yondashuvlar. Qarshi, 2024.
8. Sattorov, N. Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy metodlari. Toshkent, 2023.
9. To‘xtasinova, M. O‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish. Andijon, 2025.
10. Yo‘ldosheva, S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik holatini o‘rganish metodlari. Nukus, 2022.

O'SMIRLARNING HISSIY INTELLEKTI VA DAHLDORLIKNI O'ZLASHTIRISH

Aribjanova Umida Abdurashitovna
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD*)*

Annotatsiya: O'smirlarning hissiy intellekti va dahldorlikni o'zlashtirish mavzusi, yoshlarning psixologik rivojlanishining muhim jihatlarini o'rganishga qaratilgan. O'smirlik davri insonning hissiy va ijtimoiy ongini shakllantirishdagi eng faol bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda o'smirlar o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalar bilan aloqalarida empatiya ko'rsatish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Hissiy intellektning o'zlashtirilishi, o'smirlarning shaxsiyatini mustahkamlash va ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda o'smirlarning hissiy intellektni rivojlantirish va dahldorlikni o'zlashtirish jarayonlaridagi psixologik omillar, shuningdek, bu jarayonlarning ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'smirlar Hissiy intellect, dahldorlik, psixologik rivojlanish empatiya, ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini anglash, psixologik muhit ijtimoiy ong

O'smirlarning hissiy intellekti va dahldorlikni o'zlashtirish bugungi kunda ijtimoiy va psixologik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. O'smirlik davri insonning hissiy va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda o'smirlar o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, va boshqalar bilan aloqalarida empatiya ko'rsatish kabi muhim ko'nikmalarni o'zlashtiradilar. Hissiy intellekt va dahldorlikni rivojlantirish, o'smirlarning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashda, ularning shaxsiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Hissiy intellektni rivojlantirish va dahldorlikni o'zlashtirish jarayoni, o'smirlarning o'zaro munosabatlari, ijtimoiy muloqoti va kelajakdagi psixologik salomatligi uchun katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bu masala jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga, o'smirlarning boshqaruvchanlik va o'zini anglash darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunning psixologik va pedagogik izlanishlari, o'smirlarning hissiy intellektini rivojlantirish va dahldorlikni oshirish orqali ularning ijtimoiy va psixologik salomatligini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni

ishlab chiqishni talab qiladi. Shu sababli, o'smirlarning hissiy intellekti va dahldorlikni o'zlashtirish mavzusi zamonaviy psixologiya va pedagogikaga oid dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu soha bo'yicha tadqiqotlar, o'smirlarning ijtimoiy ongini rivojlantirish, hissiy salomatligini qo'llab-quvvatlash va kelajakdagi shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. [2,12.b]. Daniel Goleman – Hissiy intellekt (EI) kontseptsiyasining asoschilaridan biri. U o'zining "Emotional Intelligence" (1995) kitobida hissiy intellektning ta'rifi va uning o'smirlarning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan. Goleman hissiy intellektning ijtimoiy aloqalar, o'zini anglash va boshqalar bilan muvaffaqiyatli munosabatlar qurishda katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. John D. Mayer va Peter Salovey – Hissiy intellektni o'rganish bo'yicha asosiy ilmiy tadqiqotlarni olib borgan olimlardir. Ular hissiy intellektni o'lchash va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishda muhim rol o'ynagan. Mayer va Salovey hissiy intellektni individualning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalar bilan muloqotda bo'lish qobiliyati sifatida ta'riflaydilar. **Hissiy intellektni rivojlantirishning o'smirlar ijtimoiy aloqalariga ta'siri:** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiy intellektni rivojlantirgan o'smirlar o'zaro muloqotda samaraliroq bo'lishadi. Ular boshqalar bilan muammolarni hal qilishda, tushunishga va empatiya ko'rsatishda yaxshiroq muvaffaqiyatga erishadilar. Hissiy intellektning rivojlanishi o'smirlarni do'stlik, guruh ichidagi hamkorlik va jamoa faoliyatlariga faol jalb qilishga yordam beradi. **Dahldorlik va o'zlik anglashni oshirish:** Hissiy intellektni rivojlantirish orqali o'smirlarning dahldorligi va o'zlik anglash darajasi oshadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hissiy intellektni oshirish uchun o'tkazilgan treninglar va psixologik mashg'ulotlar o'smirlar o'rtasida o'zaro hurmatni, boshqalar fikrini eshitishni va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytiradi.

Xulosa:

O'smirlarning hissiy intellekti va dahldorlikni o'zlashtirish, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hissiy intellektni rivojlantirish o'smirlarning o'z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalar bilan munosabatlarni yaxshilash, empatiya ko'rsatish, shuningdek, stressni boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Bu jarayon o'smirlarning ijtimoiy ongini, o'zini anglashni va o'z qadr-qimmatini mustahkamlashga yordam beradi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. Ushbu asar hissiy intellektni tushunish va uning inson hayotidagi ahamiyati haqida chuqur tahlil beradi.
3. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is Emotional Intelligence? In P. Salovey & D. J. Sluyter (Eds.), Emotional Development and Emotional Intelligence: Implications for Educators (pp. 3-31). Basic Books.
4. Mayer va Salovey tomonidan ishlab chiqilgan hissiy intellekt nazariyasi haqida muhim ma'lumotlar.
5. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. Basic Books.
6. Howard Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi haqida asar, bu hissiy intellektni ham o'z ichiga oladi.

O’SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Sirtqi bo’lim Amaliy psixologiya yo’nalishi 5-bosqich 502-guruh talabasi Abduvaxobova Mushtariy

Annotatsiya: Maqolada o’smir yosh davrining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari, shaxs rivojlanishidagi o’ziga xos jarayonlar va ularni belgilovchi omillar yoritib berilgan.O’smirlarning

emotsional barqarorligi,impulsivlik darajasi, tengdoshlar guruhining ta’siri, oilaviy muhitning psixologik ahamiyati hamda o’z- o’zini baholash jarayonlari yoritildi. shuningdek bu davrda tanqidiy fikrlashning shakllanishi, o’zida bo’layotgan o’zgarishlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar, kattalarga nisbatan mustaqillik ehtiyoji va muloqot uslubidagi o’zgarishlar ham tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Emotsional barqarorlik, impulsivlik, tafakkur xususiyatlari, oilaviy muhit, psixik jarayon ,identifikatsiya, abstrakt tafakkur, kommunikativlik.

Аннотация: В статье раскрыты социально -психологические особенности подросткового возраста, специфические процессы развития личности и определяющие их факторы. Освещены вопросы емоциональной устойчивости подростков, уровня импульсивности, влияния группы сверстников, психологической значимости самооценки.Кроме того.проанализированы формирование критического мышления в етот период, трудности принятия происходящих с собой изменения в стилях общения с взрослыми.

Ключевые слова: Емоциональная стабильность, импульсивность, особенности мышления, семейная среда, психические процессы, идентификация, абстрактное мышление, коммуникативность.

Abstract: It describes the social and psychological features of adolescence, the specific process of personality development, and the factors that condition them.It gives a detailed look at emotional stability, the level of impulsivity, peer groups, the psychological importance of the familial environment, and the self-assessment processes. For this stage the article then continues to describe the buildingof critical thinking, complications with the acceptance of personal changes, the need for independence regarding adults, and the changing communicational styles.

Keywords: Emotional stability, impulsivity, thinking characteristics, family environment, psychological processes, identification, abstract thinking, communicativeness.

O’smirlik davri shaxsning psixologik ,emotsional va ijtimoiy jihatdan eng sezgir va faol rivojlanadigon bosqichidir. Ushbu davrda o’smirning asosiy ehtiyojlari : o’zini tasdiqlash, mustaqillik, tengdoshlar guruhiga mansublik va ijtimoiy mavqe topishdir. Glaballashuv jarayoni o’smirlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi: internet ijtimoiy tarmoqlar va global madaniyat ularning qadryatlari va xulq-atvorini tez o’zgartirmoqda.O’z -o’zini baholashdagi o’zgarishlar o’smirlar tashqi ko’rinishi va qobiliyatlarini boshqalar bilan taqqoslaydi. Tanqidga o’ta sezgir bo’ladi.O’zini past baholash, uyatchanlik yoki aksincha haddan tashqari o’ziga ishonch kuzatilishi mumkin.O’smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo’lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o’smirlar o’tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan ancha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o’sish oldinroq namoyon bo’lmoqda.

O’smirlik – bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi.Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi.O’smirda ro’y beradigan biologik - jismoniy o’zgarish tanijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi .O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatishga intiladilar.O’smirlik davriga kimningdir xatti- harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko’pincha ular o’zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti- harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O’smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O’smirlarda o’z-o’zini anglash hissining tarkib topishi, o’ziga nisbatan go’yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipdagi o’smirlar uchun muhim xususiyatlardir. O’smir o’g’il-

qizlar shaxsining kamol topishida, o'zini anglash jarayonida, o'ziga baho berish mayli va istagi o'zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o'ziga bino qo'yish ehtiyoji paydo bo'ladi.

O'smirlik davrida kattalardan masofa saqlash va begonalashish ro'y beradi. O'smir bir tomondan kattalar bilan huquqlardan teng ekanligini prinsipial jihatdan talab qiladi, ikkinchi tomondan kattalarning yordamiga , qo'llab-quvvatlashiga, himoyasiga, bahosiga ehtiyoj sezadi. Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlardagi muammolar, o'qituvchilar bilan nizolashishlar – o'smirlik davri uchun odatiy hol, bo'lsa-da, bunday holatlarning namoyon bo'lish tezligi kattalarning unga bo'lgan munosabatiga, oilaviy tarbiya uslubiga, o'smir xulq- atvoriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasiga bog'liq. O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Muxammed Gabdulgalimovich

Davletshin O'zbekistonda ilmiy maktab yaratgan, o'smirlar ruhiyatini chuqur o'rgangan yetakchi psixologlardan biri. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi.Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat – bu o'qish,muloqot va mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi – bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir.

O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir. O'smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo'ladi.

Aynan 13 – 14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig'i keskin ko'tariladi. Bunday holatlarda o'smir atrofdagi narsa va voqealarga to'liq diqqatini qarata olmaydi.

Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi. J.Piajening ta'kidlashicha, "Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi". Bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z - o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Emotsional rivojlanish: kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, emotsional beqarorlik, tengdoshlarning fikri va bahosi o'ta muhim bo'lib qoladi, o'z "Men" i haqida o'ylash va o'zini anglash kuchayadi. Impulsivlik va o'zini boshqarish : qaror qabul qilishda shoshqaloqlik, oldindan oqibatni baholash qiyinroq bo'ladi, shu bilan birga asta-sekin o'zini nazorat qilish, mas'uliyat hissi shakllanadi. Ijtimoiy muhit ta'siri: tengdoshlar guruhi yetakchi o'rin egallaydi, do'stlarning bahosi ko'proq ahamiyatli bo'ladi, ijtimoiy identifikatsiya (kimman? , qaysi guruhga mansubman?) jarayoni avj oladi, mustaqil bo'lishga intilish kuchayadi; ota-onalar, pedagoglar bilan kichik ziddiyatlar paydo bolishi mumkin.

Oilaviy muhitning roli: ota-onaning qo'llab quvvatlashi, mehr - muhabbati, nazorat me'yorining to'g'riligi o'smir ruhiy sog'ligiga kuchli ta'sir qiladi, qattiqqo'llik, e'tiborsizlik, haddan ortiq erkalatish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Kognitiv (aqliy) rivojlanish: abstrakt tafakkur, mantiqiy fikrlash shakllanadi.

O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib ,o'ziga xos xususiyatlar bilan harakterlanadi.O'smirlik davri ham bir inqiroz hisoblanadi chunki, organiszm har taraflama fiziologik , psixologik , jismoniy taraflama tez rivojlanadi, ichki sekretsiya bezlari faoliyati kuchayib organizmda gormonal o'zgarishlar ro'y beradi.Bu davrda ota -onalar va pedagoglarning mehr muhabbati hamda e'tibori yosh o'smirlar hayotida muhim ahamiyatga ega.O'smirlarning turli ekstremistik oqimlarga ,giyohvandlik, ichkilik va boshqa yomon yo'llarga kirib qolmasliklari uchun ota-onalar va pedagoglar o'smirlarni to'g'ri yo'naltirishlari kerak.Ular bilan do'stona munosabatda bo'lib ,jamiyatda shaxs sifatida shakllanishlariga yordam berishlari pedagog va ota -onalarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. ''Rivojlanish psixologiyasi'' Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova .Toshkent- 2018 (322-350 betlar)

2. Ergash G'oziyev, '' Umumiy psixologiya'' Psixologiya mutaxasislari uchun darsligidan.

3. Елконин Д.Б «Психология развития»

SHAXS SHAKLLANISHIDA IJOBIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASOSLARI

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich 201-guruh talabasi
Kamoldinova Muxayyo

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijobiy fikrlashning rivojlanishining psixologik mexanizmlari va ularning shaxsni shakllantirishdagi roli o'rganiladi. Unda ijobiy fikrlash aqliy sxemalar, hissiy tartibga solish strategiyalari va ijtimoiy o'zaro ta'sir modellari ta'sirida dinamik kognitiv-emotsional jarayon sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda konstruktiv fikrlashning shakllanishi kognitiv qayta qurish, moslashuvchan kurashish va o'ziga ishonchni asta-sekin kuchaytirishga bog'liqligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ijobiy fikrlash; shaxsiyatni shakllantirish; kognitiv jarayonlar; hissiy tartibga solish; o'ziga ishonch; chidamlilik.

Insonning shakllanishi ichki tajribalar, ijtimoiy ta'sirlar va dunyoni talqin qilishning individual naqshlari bilan shakllangan umrbod davom etadigan psixologik jarayondir. Rivojlanishning ushbu murakkab tizimida ijobiy fikrlash hissiy barqarorlikka, moslashuvchan xulq-atvorga va o'z-o'zini umumiy uyg'unlashtirishga hissa qo'shadigan muhim psixologik resurs sifatida paydo bo'ldi. Shunchaki optimizm yoki orzu qilingan fikrlashni ifodalashdan uzoqda, ijobiy fikrlash shaxslar hayot voqealarini baholaydigan, reaksiyalarini tartibga soladigan va mazmunli nuqtai nazarlarni yaratadigan kognitiv va hissiy strategiyalar to'plamini o'z ichiga oladi.

So'nggi o'n yilliklarda psixologik tadqiqotlar tobora ko'proq ushbu konstruktiv fikrlash naqshlari qanday rivojlanishiga va ularning shaxsni shakllantirishning asosiy jihatlariga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratmoqda. Kognitiv psixologiyadagi tadqiqotlar aqliy sxemalar va tushuntirish uslublarining inson dunyoqarashini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi, rivojlanish va ijtimoiy psixologiya esa erta munosabatlar, qo'llab-quvvatlovchi muhit va modellashtirishning mustahkam ichki asoslarni yaratishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuning uchun ijobiy fikrlash bilish, hissiyot va ijtimoiy tajriba chorrahasida turadi.

Ijobiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik jihatlarini tushunish nafaqat shaxslarning qiyinchiliklarga qanday moslashishini tushuntirish uchun, balki uzoq muddatli farovonlik va shaxsiy o'sishni ta'minlaydigan mexanizmlarni aniqlash uchun ham muhimdir. Ushbu o'zaro bog'liq jarayonlarni o'rganish orqali ushbu maqola ijobiy fikrlashning sog'lom shaxsiyat rivojlanishiga va muvozanatli psixologik dunyoqarashga qanday hissa qo'shishini yoritishga intiladi.

Ijobiy fikrlash shaxsni shakllantirish jarayonida markaziy psixologik omil bo'lib, shaxslarning tajribalarni qanday talqin qilishiga, his-tuyg'ularni tartibga solishiga va qiyinchiliklarga qanday munosabatda bo'lishiga ta'sir qiladi. Kognitiv nuqtai nazardan, u moslashuvchan aqliy sxemalar, kognitiv qayta qurish va metakognitiv xabardorlikni shakllantirish orqali rivojlanadi, bu esa shaxslarga o'z fikrlarini tanqidiy baholash va avtomatik salbiy talqinlarni yanada muvozanatli va konstruktiv talqinlar bilan almashtirish imkonini beradi. Muvaffaqiyatsizliklarni o'rganish imkoniyatlari sifatida qayta ko'rib chiqish kabi kognitiv strategiyalar muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshiradi va moslashuvchan xatti-harakatlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, metakognitiv ko'nikmalar shaxslarga o'z fikrlash jarayonlarini kuzatish, samarasiz naqshlarni aniqlash va ataylab optimizmni rivojlantirish imkonini beradi, bu esa uzoq muddatli kognitiv moslashuvchanlik va psixologik o'sishga hissa qo'shadi.

Hissiy tartibga solish ijobiy fikrlashni rivojlantirishda chambarchas bog'liq rol o'ynaydi. Shaxslar hissiy qayta baholash, onglilik va muammoga yo'naltirilgan yengish kabi adaptiv strategiyalardan foydalanganda konstruktiv kognitiv naqshlar kuchayadi. Ushbu strategiyalar stressning ta'sirini kamaytiradi, chidamlilikni oshiradi va shaxslarga qiyinchiliklarga duch kelganda hissiy barqarorlikni saqlashga imkon beradi. Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijobiy fikrlashga takroriy jalb qilish mukofotni oldindan bilish, motivatsiya va ijro nazorati bilan bog'liq neyron zanjirlarini kuchaytiradi, bu esa optimistik kognitiv-emotsional javoblarni tobora odatiy holga aylantiradi. Vaqt o'tishi bilan bu barqaror farovonlik va shaxsiy rivojlanish uchun qulay psixologik muhitni yaratadi.

Ijtimoiy va ekologik kontekst ijobiy fikrlashni shakllantirishda va uning shaxs rivojlanishiga qo'shgan hissasida bir xil darajada muhimdir. Erta bog'lanish tajribalari va qo'llab-quvvatlovchi oilaviy muhit konstruktiv kognitiv va hissiy odatlarning paydo bo'lishi uchun zarur bo'lgan hissiy xavfsizlikni ta'minlaydi. Ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlarning ijobiy fikr-mulohazalari moslashuvchan xatti-harakatlarni kuchaytiradi va o'ziga ishonchni kuchaytiradi, avtonomiya, muammolarni hal qilish va hamkorlikda o'rganishni rag'batlantiradigan ta'lim muhitlari esa optimistik fikrlash shakllarini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlaydi. Madaniy va ijtimoiy qadriyatlar ham ijobiy fikrlashning rivojlanishiga ta'sir qiladi, chunki o'sish, chidamlilik va o'z-o'zini boshqarishga qaratilgan o'rganishga urg'u beradigan muhit moslashuvchan munosabat va xatti-harakatlarni rivojlantirish uchun unumdor zamin yaratadi.

Ijobiy fikrlash - bu shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan dinamik, ko'p o'lchovli psixologik konstruksiya. U kognitiv moslashuvchanlik, hissiy tartibga solish, ijtimoiy tajribalar va motivatsion jarayonlarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadi, moslashuvchan xulq-atvor, chidamlilik va farovonlik uchun zamin yaratadi. Muvozanatli fikrlash shakllarini, konstruktiv hissiy javoblarni va qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy faollikni rivojlantirish orqali ijobiy fikrlash izchil, o'zini o'zi boshqaradigan va bardoshli shaxsni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Uning psixologik asoslarini tushunish ta'lim, psixoterapiya va shaxsiy rivojlanish uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi, ijobiy fikrlashni ham aralashuv maqsadi, ham shaxsiy o'sish uchun umrbod resurs sifatida ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ivanov, P.I., & Zufarova, M.E. (2008). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘quvchi.
2. Irismetova, D.A. (2019). O‘quvchilarda pozitivlik xususiyatlarini shakllantirishning psixologik masalalari. Psixologik Tadqiqotlar, 3(12), 45–53.
3. Sobirov, A. (2015). Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. Karimova, N. (2017). Ijobiy fikrlash va shaxsiyatni shakllantirish: psixologik yondashuvlar. O‘zbekiston Psixologiya Jurnali, 5(2), 12–22.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOLALAR PSIXOLOGIYASIGA TA’SIRI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo’nalishi 2-bosqich 201-guruh talabasi
Kamoldinova Muxayyo

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning bolalarning psixologik rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi, kognitiv, hissiy va ijtimoiy sohalarga e'tibor qaratilishi o'rganiladi. Maqolada raqamli sezgirlikdagi yoshga bog'liq farqlar ta'kidlangan va media vositalaridan muvozanatli foydalanish, ota-onalarning ko'rsatmalari va sog'lom raqamli odatlarning muhimligi ta'kidlangan. Umuman olganda, tadqiqot texnologiyaning bolalarga ta'siri ko'p qirrali ekanligini va foydalanish shakllari, atrof-muhit omillari va rivojlanish ehtiyojlariga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar; bolalar psixologiyasi; kognitiv rivojlanish; raqamli savodxonlik; onlayn xavfsizlik; ota-onalar vositachiligi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar bolalarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylanib, ularning dunyoni qanday o'rganishi, muloqot qilishi va tushunishiga ta'sir qilmoqda. Smartfonlar va planshetlardan tortib interaktiv o'quv platformalari va ijtimoiy tarmoqlargacha, raqamli vositalar tobora yoshroq yoshdagi bolalarga ta'sir qiladi. Bu tezkor raqamli immersiya uning psixologik rivojlanishga ta'siri haqida muhim savollarni tug'diradi.

Raqamli texnologiyalar ma'lumotlarga tezroq kirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilash va ijodiy ifoda etish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan muhim afzalliklarni taqdim etadi. Interaktiv ta'lim mazmuni motivatsiyani oshirishi va individual o'rganishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shu bilan birga, diqqatni jamlash vaqtining qisqarishi, hissiy haddan tashqari rag'batlantirish va real hayotdagi ijtimoiy muloqotning cheklanganligi kabi potentsial salbiy ta'sirlar haqida xavotirlar kuchaymoqda. Haddan tashqari ekran vaqti uyqu rejimiga, o'zini o'zi boshqarishga va xulq-atvorga ham ta'sir qilishi mumkin.

Raqamli muhitlarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishni qanday shakllantirishini tushunish ota-onalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun juda muhimdir. Bolalarning texnologiyaga bo'lgan munosabati yoshga, shaxsiyatga, foydalanish rejimiga va kattalar tomonidan taqdim etiladigan ko'rsatmalar darajasiga qarab juda farq qiladi. Shuning uchun, ushbu maqolaning maqsadi raqamli texnologiyalarning bolalar psixologiyasiga ko'p qirrali ta'sirini o'rganish va sog'lom va muvozanatli raqamli aloqani rag'batlantiruvchi strategiyalarni ta'kidlashdir.

Raqamli texnologiyalar bolalarning psixologik rivojlanishiga bir-biri bilan bog'liq bir necha yo'llar bilan ta'sir qiladi. Eng sezilarli sohalardan biri bu kognitiv rivojlanishdir. Interaktiv ilovalar, o'yinlar va onlayn o'rganish vositalari muammolarni hal qilish qobiliyatlarini, vizual ishlov berishni va erta savodxonlik ko'nikmalarini mustahkamlashi mumkin. Shu bilan birga, tez sur'atlarda rivojlanayotgan raqamli kontentga doimiy ravishda duch kelish bolaning diqqatini saqlab qolish qobiliyatini cheklab qo'yishi, chuqur diqqatni jamlash o'rniga tez o'tishlarni rag'batlantirishi mumkin. Raqamli tajribalarni boyitish va haddan tashqari rag'batlantirish o'rtasidagi muvozanat kognitiv natijalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli muhitlarning hissiy rivojlanishga ta'siri ham bir xil darajada muhimdir. Ko'pgina bolalar o'yin-kulgi, muloqot va hissiy qulaylik uchun raqamli qurilmalardan foydalanadilar. Bu zavq va stressni engillashtirishi mumkin bo'lsa-da, ekranlarga hissiy qaramlik xavfini ham keltirib chiqaradi. Tez-tez raqamli aloqa real hayotdagi vaziyatlarda hissiy tartibga solishni mashq qilish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin. Bolalar, shuningdek, kayfiyat, o'ziga ishonch va hissiy barqarorlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan mojarolar, tanqid yoki haddan tashqari kontent kabi onlayn qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy xulq-atvorni ham o'zgartiradi. Virtual muloqot bolalarga hatto uzoq masofalarda ham tengdoshlari bilan aloqada bo'lish imkonini beradi va o'zini ifoda etishga ishonchni oshirishga yordam beradi. Biroq, haddan tashqari raqamli muloqot mazmunli yuzma-yuz muloqotning o'rnini bosishi, empatiya, ijtimoiy ishoralar va real hayotdagi muloqot ko'nikmalarining rivojlanishini cheklashi mumkin. Ijtimoiy o'rganish uchun to'g'ridan-to'g'ri muloqotga ko'p tayanadigan yosh bolalar bu o'zgarishga ayniqsa sezgir.

Yana bir muhim jihat - bu xulq-atvor odatlari. Raqamli qurilmalar doimiy rag'batlantirish va darhol mukofotlarni ta'minlaydi, bu esa impulslarni boshqarish va sabr-toqatga ta'sir qilishi mumkin. Haddan tashqari foydalanish uyqu, jismoniy faollik va oilaviy vaqt kabi kundalik tartiblarni buzishi mumkin. Rejalashtirilgan foydalanish, yoshga mos kontent va muntazam tanaffuslar kabi sog'lom raqamli odatlar bu xavflarni kamaytirishga va muvozanatli rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning bolalarga ta'siri murakkab va ko'p qirrali. Bu nafaqat ekran vaqtiga, balki kontent sifatiga, foydalanish kontekstiga va kattalarning qo'llab-

quvvatlovchi ko'rsatmalariga ham bog'liq. Raqamli vositalardan puxta, o'rtacha foydalanish bolalarning o'rganishi va ijodkorligini oshirishi mumkin, shu bilan birga ongli chegaralar ularning hissiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilishga yordam beradi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar bolalar psixologiyasiga murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Ular bolalarning bilim olish jarayonini tezlashtiradi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, interaktiv o‘yinlar va ta’lim vositalari orqali tezkor axborotni qabul qilish va tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bilan birga, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanish diqqatni uzoq muddat davomida jamlashni qiyinlashtirishi, o‘quvchilarni tez charchatishi va mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Emotsional sohada, raqamli muhit bolalarga vaqtincha qulaylik va ko‘ngil ocharlik taqdim etsa-da, ularni real hayotiy vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan chetda qoldirishi mumkin. Bolalar ko‘pincha ekran ortida stress va kayfiyat o‘zgarishlariga duch keladi, bu esa ularning ruhiy barqarorligini zaiflashtiradi. Shu sababli, texnologiyalardan foydalanish bilan birga, bolalarga emotsiyalarini tushunish va boshqarish, muammolarni mustaqil hal qilish imkoniyatlarini berish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy jihatdan, onlayn platformalar bolalarga do‘stlar bilan muloqot qilish va yangi doiralarni kengaytirish imkoniyatini beradi, lekin ular yuzma-yuz muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini kamaytiradi. Haddan tashqari virtual aloqa bolalarda empatiya va ijtimoiy sezgirlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, texnologiyalardan foydalanish muvozanatli bo‘lishi va bolalarning real ijtimoiy tajribalarini boyitadigan faoliyatlar bilan uyg‘unlashishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qobilova M, Odilbekov M., Bola psixologiyasida axborot texnologiyalarining roli va ta’siri, Worldly Journals, Toshkent, 2025-yil.

2.Shamsiddinov S., Raqamli texnologiyalar va bolalar psixologiyasi, Inlibrary.uz, Toshkent, 2025-yil.

3.Normatjonova Z., Raqamli texnologiyalarning bolalar ruhiy salomatligiga salbiy ta’sirini oldini olish, Inlibrary.uz, Toshkent, 2025-yil.

4.Sharipov M., Eshqo‘ziyeva G., Media muhit va yoshlar psixologiyasi, Universalpublishings.com, Toshkent, 2025-yil.

5.Karimova M., Bolalarni psixologik salomatligini saqlash usullari, Ruslit.jdpu.uz, Jizzax, 2024-yil.

HUQUQIY SOHALARDA PSOXOLGIK YONDASHUVLAR

Mo‘minova Sarvinoz Muhammadsoli qizi,
Andijon davlat universiteti, Tarix va iqtisodiyot fakulteti
Amaliy psixologiya yonalishi 5-kurs 501-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy psihologiya masalalari ko‘rib chiqiladi. Kelajakdagi huquqshunosning kasbiy tayyorgarligi inson psixikasi asoslari, umumiy psixologik tushunchalar, xulq-atvor qonuniyatlari va faoliyatning psixologik xususiyatlarini chuqur bilishni talab qiladi. Biroq huquqiy psixologiya – bu qo‘llanish sohasi o‘ziga xosligi bilan bog‘liq maxsus bo‘limdir.

Kalit so’zlar: huquqiy psixologiya, shaxs, yuridik, qonuniyat, omil, qiyin hayotiy vaziyatlar, moslashuv buzilishlari, stress, psixologik xususiyatlar, yurist.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы юридической психологии. Профессиональная подготовка будущего юриста требует глубокого знания основ психики человека, общих психологических понятий, закономерностей поведения и

психологических особенностей деятельности. Однако юридическая психология представляет собой специальный раздел, связанный со спецификой области её применения.

Ключевые слова: юридическая психология, личность, юридический, закономерность, фактор, трудные жизненные ситуации, расстройства адаптации, стресс, психологические особенности, юрист.

Annotation: This article examines issues of legal psychology. The professional training of a future lawyer requires deep knowledge of the foundations of human psyche, general psychological concepts, behavioral patterns, and the psychological characteristics of activity. However, legal psychology is a special field related to the specific nature of its application.

Keywords: legal psychology, personality, legal, pattern, factor, difficult life situations, adjustment disorders, stress, psychological characteristics, lawyer.

Kelajakdagi huquqshunosning kasbiy tayyorgarligi inson psixikasi asoslari, umumiy psixologik tushunchalar, xulq-atvor qonuniyatlari va faoliyatning psixologik xususiyatlarini chuqur bilishni talab qiladi. Biroq huquqiy psixologiya – bu qo‘llanish sohasi o‘ziga xosligi bilan bog‘liq maxsus bo‘limdir.

Psixologik bilimlarni egallash an’anaviy dars shakllarini ham, talabaning mustaqil tayyorgarligi va kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish ustida ishlashini ham o‘z ichiga oladi.

Nazariy tayyorgarlik huquqiy psixologiyaning predmeti va tuzilishi, asosiy bo‘limlari, shuningdek shaxsga oid umumiy psixologik tushunchalarni o‘rganishni qamrab oladi.

Huquqiy psixologiya insonni faqat ongning emas, balki huquqiy ongning egasi sifatida ham o‘rganadi. Huquqiy ong – bu insonning xulq-atvor me’yorlari, ijtimoiy mavqei, huquq va majburiyatlari haqidagi tasavvurlaridir. Jamiyatning insondan talab qiladigan narsalari uning burchlari bo‘lib, ularni bajarish axloqiy ehtiyojdir.

Huquqiy psixologiya insonning huquqiy munosabatlarni qanday aks ettirishini o‘rganadi. Unga sotsializatsiya, ijtimoiy adolat, huquqqa itoatkor xulq-atvor, huquqiy ong, mas’uliyat va huquq kabi tushunchalar xosdir. Huquq – bu jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy me’yorlar majmui. Huquqiy tartibga solish shaxs va jamiyatning huquq hamda burchlari nisbatiga, yaxshilik va yomonlik tushunchalariga asoslanadi. Yuridik me’yorlar shaxs va davlat o‘rtasidagi eng muhim munosabatlarni aks ettiradi. “Mas’uliyat” tushunchasi faol hayotiy pozitsiya, o‘z harakatlari uchun javob berishga tayyorlik, boshqalar uchun ham mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni anglatadi. U “fuqarolik”, “burch hissi” kabi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat qadriyatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Huquqiy mas’uliyat – bu me’yorlardan og‘ish holatlarida davlatning fuqaro oldiga qo‘yadigan talablaridir.

Yuridik mas’uliyat inson huquqiy me’yorlarni buzganida yuzaga keladi.

Huquqiy ong – bu inson ongida jamiyat va odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xulq me’yorlarining aks etishidir. U hayotiy tajriba, shaxsning jamiyatdagi xulqi, jamiyat mafkurasi ta’sirida shakllanadi. Huquqiy ong nafaqat axloqiy tushunchalarni bilishni, balki ularni axloqiy e’tiqodlarga aylantirishni ham nazarda tutadi. Huquqiy ong shakllanishida bola atrofidagi yaqin muhit, oila va maktab, o‘quv fanlari, kattalar namunasi, jamoat tashkilotlari, tengdoshlar muhim rol o‘ynaydi. Huquqiy ong rivojlanishining mezoni – bu inson xulqidir.

Huquqqa itoatkor xulq-atvor – bu inson ijtimoiy me’yorlarga ongli ravishda rioya qiladigan huquqiy tajribadir. Huquq me’yorlariga mos xulq usullarini o‘zlashtirish shaxsning huquqiy sotsializatsiyasi hisoblanadi. Keng ma’noda sotsializatsiya – bu jamiyat madaniyatini o‘zlashtirish va hayot sharoitlariga moslashish qobiliyatining shakllanishidir. Hozir munosabatlar madaniyati zarur, chunki uning yo‘qligi shaxsning deformatsiyasiga, alkogollashuvga va tajovuzkorlikka olib keladi.

Huquqiy psixologiyaning vazifalari:

– Insonning umumiy dunyoqarashi va ijtimoiy yo‘nalganligi tarkibida mustaqil ong shaklini – shaxsning huquqiy qarashlari va munosabatlarini shakllantirish. Huquqiy ong asosida quyidagi

tamoyil yotishi kerak: “Boshqalarga zarar yetkazmaydigan barcha narsalarni qilishga ruxsat etiladi”.

– Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, qonunga chuqur hurmatni singdirish.

Huquqiy ongning bir necha darajalari ajratiladi:

– Past daraja – qadriyat yo‘nalishlarining buzilishi, egoistik stereotiplar ustunligi;

– O‘rta daraja – jamiyat qoidalarini bilish, lekin barqaror axloqiy tamoyillarning sustligi;

– Yuqori daraja – o‘z huquqlarini bilish, ularni himoya qila olish, huquqiy e’tiqodlar shakllangan bo‘lishi.

Aqli zaif bolalar o‘z harakatlari oqibatlarini oldindan bilolmagani uchun huquqiy cheklovlarni o‘zlashtira olmaydi va bu ularning ijtimoiy nomunosib xatti-harakatlarga moyilligini oshiradi.

Bola nimani o‘rganishi kerak? Avvalo – ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq qoidalar majmuini: o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini, his-tuyg‘u bilan mustahkamlangan ijobiy xatti-harakatlarni.

Agar bolaga bolalikdan boshqalarning shaxsiy hududiga bostirib kirish mumkin emasligi o‘rgatilganida edi, ko‘plab muammolar oldi olingan bo‘lardi. Buni kim o‘rgatadi? Bu yerda asosiy rol oilaga – ota va onaga tegishlidir.

Ikkinchi majburiyat – mehnat majburiyatidir. Jamiyatning barcha moddiy va ma’naviy boyliklari mehnat orqali yaratiladi. Ko‘plab illatlar aynan shu ikki axloqiy majburiyatning bajarilmasligidan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alferov Yu. A. Psixologo-pedagogik diagnostika va ta’sir. 1990.
2. Balabanova L. M. Sud psixopatologiyasi. 1998.
3. Belicheva S. L. Preventiv psixologiya. 1994.
4. Vasilev V. L. Yuridik psixologiya. 1991, 1997.
5. Dulov A. V. Sud psixologiyasi. 1975.
6. Kozyulya V. G., Ochnev V.K. Huquqbuzar shaxsning psixologik xususiyatlari. 1987.
7. Romanov V. V. Yuridik psixologiya. 1999.
8. Chufarovskiy Yu. V. Yuridik psixologiya. 2000.

SHAXS TARAQQIYOTINING YOSHGA OID BOSQICHLARI: KOGNITIV, EMOTSIONAL VA IJTIMOIY RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI TAHLILI

Mo‘minova Odinaxon Abdukarimovna
503 guruh talabasi
Psixologiya va pedagogika
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs taraqqiyotining yoshga oid bosqichlari, insonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi psixologik mexanizmlar yoritiladi. Natijalar shaxs rivojlanishini bosqichma-bosqich tushunish, ta’lim-tarbiya jarayonida yosh psixologiyasining ahamiyatini baholash hamda pedagogik amaliyotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: Shaxs taraqqiyoti; yosh davrlari psixologiyasi; kognitiv rivojlanish; emotsional rivojlanish; ijtimoiylashuv; temperament; xarakter shakllanishi; psixologik omillar.

Kirish. Shaxs taraqqiyoti insonning butun hayoti davomida kechadigan murakkab, dinamik va uzluksiz psixologik jarayon bo‘lib, uning mazmuni har bir yosh davrining o‘ziga xos ehtiyojlari, imkoniyatlari va rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi[4]. Psixologiyada shaxs

rivojlanishi jarayonini tushuntirish uchun ko‘plab nazariyalar mavjud bo‘lib, ular insonning tug‘ilishidan boshlab qarilik davrigacha bo‘lgan bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni ilmiy jihatdan izohlashga xizmat qiladi.

Yosh davrlarining psixologik xususiyatlarini o‘rganish pedagogika, psixiatriya, psixoterapiya, sotsiologiya va tarbiya jarayonlari uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki har bir yosh bosqichiga mos yondashuvni tanlash, o‘quv-tarbiya jarayonini individual psixologik imkoniyatlarga moslashtirish, shaxsning qobiliyati va ijtimoiy faolligini to‘g‘ri yo‘naltirish ta’lim samaradorligini oshiradi[6]. Yoshga mos bo‘lmagan talablar qo‘yish, psixologik ehtiyojlarni inobatga olmaslik yoki shaxsning rivojlanish darajasini noto‘g‘ri baholash turli muammolar, jumladan, stress, o‘ziga ishonchsizlik, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari va psixologik to‘sqinliklarga olib kelishi mumkin[1].

Izlanish maqsadi: Ushbu izlanishning asosiy maqsadi shaxs taraqqiyotining turli yosh bosqichlarida sodir bo‘ladigan kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganish, har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashdan iboratdir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda shaxs taraqqiyotining yoshga oid xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish maqsadida bir nechta ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi. Eng avvalo, psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish metodi qo‘llanildi.

Asosiy natijalar.

Tadqiqot davomida yosh bosqichlari bo‘yicha shaxsning rivojlanish dinamikasini umumlashtirish maqsadida quyidagi **1-jadval** shakllantirildi.

Jadval 1.

Yosh davrlarida ustuvor psixologik rivojlanish yo‘nalishlari.

Yosh davri	**Kognitiv rivojlanish**	**Emotsional rivojlanish**	**Ijtimoiy rivojlanish**
3–6 yosh	Idrok, xotira, nutq, tasavvurning jadal rivoji	Emotsional bog‘liqlik kuchli, hissiy beqarorlik yuqori	Oila va yaqinlar bilan ijtimoiy munosabat shakllanishi
7–12 yosh	Tafakkur va mantiqiy operatsiyalar rivoji	O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish boshlanishi	Maktab jamoasiga moslashuv, do‘stlik munosabatlari
13–17 yosh	Abstrakt fikrlashning shakllanishi	Emotsional keskinlik, o‘ziga baho shakllanishi	Tengdoshlar ta’sirining kuchayishi, identifikatsiya jarayoni
18–25 yosh	Kasbiy bilim va qaror qabul qilish ko‘nikmalari	Emotsional barqarorlikning mustahkamlanishi	Mustaqillik, kasb tanlash, ijtimoiy mavqe izlash
26+ yosh	Kasbiy kompetensiya, analitik fikrlash	Barqaror emotsional boshqaruv	Oilaviy, mehnat va ijtimoiy rollar shakllanishi

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yosh bosqichlarida rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar bir xil emas. Biologik omillar bolalikda yetakchi bo‘lsa, o‘smirlik davrida psixologik va emotsional omillar ustunlik qiladi, kattalar davrida esa sotsial rollar va mas’uliyatning oshishi shaxs rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot doirasida olingan ma’lumotlar asosida shaxs taraqqiyotiga ta’sir etuvchi asosiy omillar quyidagi **2-jadval**da jamlandi.

Jadval 2.

Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar.

Omillar guruhi	**Tarkibiy elementlar**	**Rivojlanishga ta’siri**

Biologik	Irsiyat, temperament, fiziologik o‘sish	Temperamentning barqaror shakllanishi, nerv tizimi rivoji
Psixologik	Idrok, xotira, tafakkur, emotsional boshqaruv	Shaxs xulq-atvori, qaror qabul qilish, o‘zini anglash jarayonlari
Ijtimoiy	Oila muhiti, tengdoshlar, maktab, jamiyat	Ijtimoiy moslashuv, kommunikativ ko‘nikmalar, ijtimoiy identifikatsiya
Madaniy	An’analar, qadriyatlar, tarbiya uslublari	Xarakter, qadriyat tizimi, o‘ziga xos ijtimoiy rol tanlovi
Muayyan sharoitlar	Turmush tarzi, ta’lim muhiti, psixologik qo‘llab-quvvatlov	Rivojlanish sur’ati va imkoniyatlar darajasi

Yosh davrlariga mos psixologik yondashuvlarni qo‘llash shaxs taraqqiyotini optimallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shaxs taraqqiyotining yoshga oid bosqichlarda kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishning o‘zaro bog‘liq murakkab jarayonlar asosida kechishini ko‘rsatdi. Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini inobatga olish ta’lim, tarbiya va shaxsni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karpov A.V. Современные подходы к психологии развития и возрастной периодизации. Москва: НИЦ Инфра-М, 2021.
2. Mirzayeva M.G. Yosh davrlari psixologiyasi va shaxs taraqqiyoti bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
3. Papalia D., Feldman R. Human Development in a Changing World. New York: McGraw-Hill, 2022.
4. Santrock J.W. Life-Span Development (Updated Edition). New York: McGraw-Hill, 2023.
5. Semenova I.V. Психическое развитие детей и подростков в условиях цифровой среды. Санкт-Петербург: Питер, 2022.
6. Tokhirov A.A. Shaxs rivojlanishida ijtimoiylashuvning psixologik asoslari. Andijon: ASU nashriyoti, 2021.

SHAXS SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING O`RNI

Nabijonova Muslimaxon Bahromjon qizi
Andijon davlat universiteti talabasi
e-mail nabijonovamuslimaxon10@gmail.com.
Tel: +998200138203

Annotasiya: Ushbu maqolada jamiyatda muloqotning tutgan o’rni, muloqot shakillari va bosqichlari , interaktiv , pertseptiv tomonlari va pedagogik muloqot haqida ma’lumot berilgan. Mazkur maqolada shaxs shakllanish jarayonida muloqotning ijtimoiy-psixologik ahamiyati nazariy jihatdan tahlil etilgan. Muloqot shaxsning psixik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, o‘zini anglash jarayoni hamda individual va ijtimoiy tajribani egallashining asosiy omili sifatida talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlar tahliliga tayangan holda muloqotning shaxs xulq-atvori, emotsional soha, motivatsiya va qadriyatlar tizimi shakllanishidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, muloqot jarayonining bolalik va o‘smirlik davrlarida shaxs rivojlanishiga ta’siri yoritilib, samarali muloqotni tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning ijtimoiy faolligini va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar:muloqot jarayoni, shaxslararo aloqa , axborot almashinuvi, pedagogik muloqot.

Muloqot-insonlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida eng birinchi ya’ni yetakchi o’rinni egallaydi, muloqot insondagi eng muhim ehtiyojni yashash va o’zini shaxs deb hisoblash bilan bog’liq ehtiyojlarni qondiradi. Muloqot-odamlarning bir-biri bilan o’zaro munosabatlarga kirishish jarayoni hisoblanadi. Muloqot -kamida ikki kishining o’zaro ta’sir jarayoni bo’lib , bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o’rnatiladi. Muloqot o’ta murakkab jarayon bo’lganligi sababli unga yagona to’g’ri ta’rifini berish qiyin. Shuning uchun muloqot tushunchasining mazmuni uning ayrim tomonlariga urg’u berish orqali ta’riflanadi. Muloqot tushunchasi shunday jarayonki, unga bir vaqtning o’zida quyidagilar kiradi:

1.Individlarning o’zaro ta’sir jarayoni;

2. Individlar o’rtasida axborot almashinuvi jarayoni;

3.Bir shaxsning boshqa shaxslarga munosabati jarayoni;

4.Bir kishining boshqalarga ta’sir ko’rsatish jarayoni;

5. Bir-biriga hamdardlik bildirish imkoniyati; 6.Shaxslarning bir-birlarini tushunish jarayoni.

Psixologik omil V.A.Kan -Kalik tatqiqotiga ko’ra: Pedagogik ishi o’z tuzilishida ikkiyuzdan ortiq tuzulmani tashkil qiladi.Ularning ichida eng murakkabi muloqot xisoblanadi,negaki u orqali pedagogic faoliyatning eng asosiy maqsadi-o’qituvchi shaxsining o’quvchi shaxsga ta’siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim maxoratlaridan yana biri o’quvchilar bilan uzoq va samarali ta’sir o’tkazishni tashkil etishdir.Odatda, bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobilyati bilan bog’laydilar.O’qituvchi o’quvchi bilan to’g’ri muloqot qila olsa,dars jarayoni oson va samarali o’tadi.Chunki o’quvchi o’zini tushunilganini sezsa, o’qituvchiga bo’lgan ishonchi ortadi va darsga bo’lgan qiziqishi oshadi.

Muloqot nafaqat kundalik hayotta , balki ta’limda , ish faoliyatida va shaxslarga bo’lgan munosabatlarda ham juda muhim sanaladi.

G.M.Andreeva muloqotning quyidagi tuzilishini taklif qiladi; 1.Muloqotning kommunikativ tomoni;ya’ni, muloqotga kirishuvchilar o’rtasidagi ma’lumot va axborotlar almashinuvi jarayoni .

2.Muloqotning interaktiv tomoni; ya’ni muloqotga kirishuvchi tomonlarni bir-birlarining ijtimoiy xulq-atvorga ta’sir ko’rsatish jarayoni.

3.Muloqotning pertseptiv tomoni; ya’ni, muloqotga kirishuvchi tomonlarning bir-birini idrok etishlari va tushunishlari bilan bog’liq bo’lgan murakkab psixologik jarayon.

Muloqot inson faoliyatining ajralmas qismidir,u axborot almashish, shaxsning ichki dunyosini o’rganish, boshqalarni tushunish va jamiyatda o’z o’rnini topishga ham xizmat qiladi. Muloqot jarayonida odamlar faqat so’z bilan emas , balki mimika, ohang kabi neverbal vositalar orqali ham bir-biriga ta’sir ko’rsatadilar. Muloqot inson hayotining eng zarur jarayonlaridan biridir.Odamlarning bir-birini tushunishi,fikr almashishi va o’zaro munosabat shakllanishida katta ahamiyatga ega. Inson jamiyatda yashar ekan, albatta boshqalar bilan aloqa o’rnatishga, o’z fikrini yetkazishga va ulardan ma’lumot olishga ehtiyoj sezadi. Shu sababli muloqot jarayoni bir vaqtning o’zida bir nechta vazifani bajaradi.Umuman olganda muloqot insonlar o’rtasidagi eng asosiy ko’prikdir. Odamlar bir-biriga yaqinlashishi ham , bir-birini to’g’ri tushunishi ham shu jarayonlar orqali amalga oshadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, muloqot har bir insonning tajribasi, uning insoniy qiyofasi,fazilatlar va hattoki nuqsonlari ham, muloqot jarayoning maxsulidir.Jamiyatdan ajiralgan , muloqatda bo’lish qobilyatini yo’qotgan odam o’zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin ,lekin u shaxs bo’la olmaydi. Alisher Navoiy aytganlaridek;”Shirin so’z ko’ngillar uchun bamisoli asaldir.” Shuning uchun ham pedagog har doim nutq madaniyatiga kuchli e’tibor berishi va o’zning psixologik, estetik, axloqiy jiyatlarini namuna holida namoyon etishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Karimova V.”Psixologiya asoslari”-Toshkent:Universitet,2018

2.G’oziyev E. “Umumiy psixologiya”-Toshkent:O’qituvchi,2019

3.Xabibullayev X.”Pedagogika”-Toshkent: O’qituvchi,2019
4.Jalolov J. “Pedagogik muloqot asoslari”- Toshkent,2017
5.Zokirov A.”Kommunikatsiya va muloqot madaniyati”-Toshkent,2021

HUQUQIY JARAYONLARDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sodiqaliyeva Zarifa Ulug’bek qizi
Amaliy psixalogiya sirtqi 503- guruh talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy jarayonlarda psixologik yondashuvlarning nazariy asoslari, ularning amaliy mexanizmlari va jamiyat barqarorligidagi o‘rni chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar, jinoyatchilikning psixologik ildizlari, sud jarayonidagi xulq-atvor dinamikasi hamda psixologik ekspertizaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar bilan solishtirma tahlil o‘tkazilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida psixologik metodlarning qo‘llanish darajasi va ularni takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari psixologik yondashuvlar huquqiy tizim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Huquqiy psixologiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jinoyatchilik psixologiyasi, sud psixologiyasi, psixologik ekspertiza, shaxs motivatsiyasi, kriminal profayling, ijtimoiy psixologiya, konfliktologiya, mediatsiya, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shaxs xulq-atvori, emotsional-irodaviy jarayonlar, adolat tamoyillari.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ПРАВОВЫХ ПРОЦЕССАХ: ИХ РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация: В данной статье проводится глубокий научный анализ теоретических основ психологических подходов в правовых процессах, их практических механизмов и роли в обеспечении общественной стабильности. В ходе исследования раскрываются психологические факторы, влияющие на формирование правового сознания и правовой культуры, психологические корни преступности, динамика поведения в судебном процессе, а также значение психологической экспертизы. Кроме того, проводится сравнительный анализ с международным опытом, определяется уровень применения психологических методов в деятельности правоохранительных органов и пути его совершенствования. Результаты исследования подтверждают, что психологические подходы являются важным фактором повышения эффективности правовой системы.

Ключевые слова: юридическая психология, правовое сознание, правовая культура, психология преступности, судебная психология, психологическая экспертиза, мотивация личности, криминальный профайлинг, социальная психология, конфликтология, медиация, правоохранительные органы, поведение личности, эмоционально-волевые процессы, принципы справедливости.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN LEGAL PROCESSES

Annotation: This article provides an in-depth scientific analysis of the theoretical foundations of psychological approaches in legal processes, their practical mechanisms, and their role in ensuring societal stability. The study highlights psychological factors influencing the development of legal consciousness and legal culture, the psychological roots of criminal behavior, behavioral dynamics in court proceedings, and the importance of psychological expertise. A comparative analysis with international practices is also presented, addressing the extent to which psychological methods are applied in the activities of law enforcement agencies and proposing

ways to improve their implementation. The results of the research confirm that psychological approaches are a crucial factor in increasing the effectiveness of the legal system.

Keywords: legal psychology, legal consciousness, legal culture, psychology of criminal behavior, forensic psychology, psychological examination, personal motivation, criminal profiling, social psychology, conflictology, mediation, law enforcement agencies, individual behavior, emotional-volitional processes, principles of justice.

Huquqiy tizimlar inson faoliyati va xulq-atvori bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy institutlardir. Har qanday normativ-huquqiy munosabatning markazida inson turadi, shu bois psixologik omillar huquqiy jarayonlarning deyarli barcha bosqichida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Insonning ong darajasi, emotsional holati, axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy tajribasi, motivlari va psixologik ehtiyojlari uning huquqqa bo‘lgan munosabati, qonunlarga rioya qilish darajasi hamda ijtimoiy xulq-atvorini bevosita belgilaydi.

Zamonaviy davrda huquqiy psixologiya jinoyatchilik profilaktikasi, sud-tergov faoliyati, nizolarni mediatsiya yo‘li bilan hal qilish, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Psixologiya va huquqning integratsiyasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining samaradorligini oshiradi, adolatning ta’minlanishiga xizmat qiladi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka asos yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — huquqiy jarayonlarda psixologik yondashuvlarning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va ularning milliy hamda xalqaro tajribadagi o‘rnini chuqur ilmiy tahlil qilishdir.

Huquqiy psixologiya fani global miqyosda bir necha ilmiy maktablar va empirik yo‘nalishlar asosida shakllangan.

Z. Freydning psixoanalitik maktabi jinoyat xatti-harakatini ongsiz impulslar, ichki konfliktlar va bolalik tajribalaridan kelib chiqadigan travmalar bilan bog‘laydi. Shu bois jinoyatchilikni “ijtimoiy-huquqiy hodisa” sifatida emas, balki kompleks psixologik dinamik jarayon sifatida talqin qiladi.

E. Erikson shaxsning rivojlanish bosqichlarida vujudga keladigan psixososial inqirozlar uning huquqqa munosabatiga ta’sir qilishi, ayniqsa o‘smirlik davrida noto‘g‘ri ijtimoiylashuv jinoyatchilik xavfini oshirishi mumkinligini isbotlagan.

J. Piage kognitiv rivojlanish bosqichlarini o‘rganib, huquqiy ongning shakllanishi shaxsning tafakkur darajasi va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi.

D. Kanter, J. Duglas, R. Resslerlar kriminal profayling uslubini yaratgan bo‘lib, jinoyatchining psixotipi, motivi va xulqiy modeli jinoyat izlarini tahlil qilish orqali qayta tiklanishi mumkinligini ilmiy asoslagan. Ularning tadqiqotlari asosida “jinoyatchining xarakter portreti” va “xulq-atvor izlari” degan tushunchalar shakllandi.

G. Ebbingauz xotiraning buzilish qonuniyatlari (unutish egri chizig‘i) guvoh ko‘rsatmalarining ishonchliligini baholashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatgan. M. Shteyn yolg‘on ko‘rsatmalar psixologiyasi, neverbal signallar va muloqotdagi ziddiyatlarni o‘rganib, sud jarayonlarida psixodiagnostikaning o‘rnini belgilagan.

A. Jalilov – milliy mentalitet va huquqiy ongning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini o‘rgangan. Sh. Farmonov – huquqiy madaniyat va ijtimoiy psixologiya integratsiyasini tahlil qilgan. M. Xolmatov – sud-tergov jarayonlarida psixologik ekspertiza metodlarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borgan. Ushbu adabiyotlar mazkur sohaga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari psixologik omillar huquqiy jarayonlarning barcha bosqichida yetakchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Xorijiy amaliyot, xususan AQSh va Germaniya tajribasi, har bir politsiya bo‘limida professional psixolog mavjudligi sud-tergov jarayonlarining samaradorligini oshirishi, nizolarni tezroq hal qilishga yordam berishini isbotlaydi.

O‘zbekistonda ham psixologik ekspertiza, mediatsiya va profilaktika ishlari rivojlanib bormoqda. Ammo tizimning to‘liq psixologik integratsiyadan o‘tishi kelajakdagi ustuvor vazifalardan biridir.

Huquqiy jarayonlarda psixologik yondashuvlar adolatni ta’minlashda muhim bo‘g‘indir. Jinoyatchilikning asosiy sabablari ko‘pincha psixologik ildizlarga borib taqaladi. Huquqiy ong va madaniyatni oshirish jamiyat barqarorligining asosiy omilidir. Sud psixologiyasi guvoh ko‘rsatmalari, ayblanuvchi holati va kommunikatsiyaga ilmiy asos beradi. Psixologik ekspertiza huquqni muhofaza qiluvchi tizimning ajralmas qismidir. Xodimlar psixologik tayyorgarligi tizimi kuchaytirilsa, jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligi ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalilov A. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning psixologik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
2. Xolmatov M. Sud psixologiyasi va ekspertiza asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
3. Farmonov Sh. Ijtimoiy psixologiya va huquqiy jarayonlar integratsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Karimov Sh. Jinoyatchilikning psixologik omillari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2023.

STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sirtqi bo`limi 5-bosqich talabasi
To`xtasinova Xonzodabegim

Annotatsiya. Ushbu maqolada stressing psixologik mohiyati,uning inson ruhiyati va organizmiga ta`siri hamda stressni kamaytirishning samarali tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy qarashlar asosida stressing kelib chiqish sabablari ochib berilgan va kundalik hayotda qo`llash mumkin bo`lgan boshqaruv strategiyalari yoritilgan.Xulosalarga ko`ra ,nafas mashqlari, meditatsiya , vaqtni boshqarish va psixologik chegaralarini belgilash stressni kamaytirishda eng samarali usullardandir.

**Kalit so`zlar**:Stress ,psixologik bosim, kortizol, stressni boshqarish, meditatsiya, psixologik sog`lomlik.

Abstract This article examines the psychological nature of stress, its influence on mental and physical well-being, and effective methods of stress management. The study examines the primary causes of stress and offers useful tactics that can be used in daily life , all based on current scientific research.Tindings indicate that breathing exercises, meditation, time magement and the establishment of healthy psychological boun daries are among the most effective approaches for reducing stress levels.

Аннотатция.В данной статье рассматривается психологическая природа стресса его влияние на психическое и физическое состоянние человека а также наиболее эффективные методы управления стрессом. На основе совроменных исследованний анализируются практические стратегии которые можно применять в повседлагаются в повседневной жизни. Результаты показывают что дыхательные упражнения медитатция тайм-менеджимент и установление здоровых психологических границ являются наиболее действенными способами снижения уровня стресса.

Stress (inglizcha:stress- “bosim”,”kuchlanish”,”tanglik”)- odam va hayvonlarda kuchli ta`sirirotlar natijasida paydo bo`ladigon o`ta hayajonlanish , asabiylik holati. Stress- bu gomeostazni buzish bilan tahdid qilivchi turli ekstremal omillar ta`sirida yuzaga keladigan tananing o`ziga xos bo`lmagan reaktsiyasi va asab va endokrin tizimlar faoliyatida stereotiplik

o`zgarishlar bilan tavsiflanadi .Organizmda har xil ta`sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya “stress” terminini kanadalik patalog G.Seyle ta`riflab ,tibbiyotga kiritilgan (1936).Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb , ular ta`sirida organizmda ro`y beradigan o`zgarishlarni moslashish sindromi deb ataladi .

Zamonaviy hayotning tezlashgan sur`ati inson ruhiyatiga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Ishdagi yuqori talablar, o`qishdagi bosim , oilaviy mas`uliyat, axborot oqimining ko`pligi va ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlar ko`pligi va ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlar stressning kuchayishiga sabab bo`lmoqda .

Stressning uzoq davom etishi ruhiy iztirob, charchoq va jismoniy kasalliklarga olib keladi . Shu bois stressni boshqarish-har bir inson bilishi kerak bo`lgan ko`nikmadir Stress- bu organizmning ichki yoki tashqi bosimlarga beradigan tabiiy reaksiyasidir. Kuchli hayajon , mas`uliyat yoki xavf holatida tanada stress gormonlari -kortizol va adrenalin ajraladi. Bu jarayon tanani “kurash yoki qochish” holatiga tayyorlaydi. Stressni keltirib chiqaruvchi omillar:

-Ish va o`qishdagi yuklama;
-Uyqu yetishmasligi;
-Oilaviy kelishmovchiliklar;
-Ijtimoiy bosimlar;
-Moliyaviy xavotirlar;
-O`ziga yuqori talab qo`yish.

Ularning barchasi inson ruhiyatiga uzoq muddatda salbiy ta`sir ko`rsatadi. Stressning psixologik va jismoniy ta`siri:

Psixologik alomatlar:
-hissiy beqarorlik;
-xavotir kuchayishi;
-tushkunlik;
-motivatsiya pasayishi;
-diqqat jamlash qobiliyatining susayishi;

Jismoniy alomatlar:
-bosh og`rig`i;
-yurak urishining tezlashishi;
-uyqusizlik;
-mushaklarda taranglik;
-immunitetning pasayishi.

Uzoq davom etgan stress yurak kasalliklari, ovqat hazm qilish buzilishlari va nervrozlarning kuchayishiga olib kelishi xam mumkin .

Stressni samarali boshqarish usullari.

1. Nafas mashqlari.

CHuqur va ritmik nafas stress gormonlarini kamaytiradi.Masalan , 4-4-6 texnikasi: 4 soniya nafas olish, 4 soniya ushlab turish, 6 soniya chiqarish.

2. Meditatsiya va mindfulness.

Ongni hozirgi daqiqada qaratish ruhiy tinchlikni tiklaydi.

3. Vaqtni boshqarish.

Rejalashtirilgan kunlik tartib ortiqcha ruhiy bosimni sezilarli darajada kamaytiradi.

4. Jismoniy faollik .

Kunlik sayr , yengil sport mashqlari kortizol darajasini pasaytiradi.

5. Ijtimoiy qo`llab-quvvatlash .

Suhbat, hissiy qo`llab-quvvatlash stressning 40% gacha kamaytirishi isbotlangan.

6. Sog`lom psixologik chegaralar.

Keraksiz vazifalarni rad etish , ortiqcha mas`uliyatni bo`yniga olmaslik stressning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda , stress har bir inson hayotida uchraydigan tabiiy holat bo`lsa-da, unga to`gri munosabatda bo`lish juda muhim ekanini ko`ramiz. Hayotda ish , o`qish, oilaviy mas`uliyatlar yoki kutilmagan holatlar tufayli turli stress manbalari paydo bo`ladi. Ammo muhim jihati shundaki, stressni butunlay yo`qotishning imkoni bo`lmasa xam , uni boshqarish , kamaytirish va unga moslashishni o`rganish har kimning qo`lidan keladi. Shuni xam aytish kerakki , stress ba`zida insonni harakatga undaydigan , mas`uliyatni oshiradigan yoki muammolarga yangicha yondashishga yordam beradigan ijobiy kuch xam bo`lishi mumkin . Muhimi-uni to`g`ri boshqarish – bu bir kunlik jarayon emas, balki doimiy ravishda o`z ustida ishlashni talab qiladigan hayotiy ko`nikmadir. Kim o`z ruhiy salomatligiga e`tibor bersa, o`ziga mehrli bo`lsa va salbiy hissiyotlarga berilib ketmasa, u nafaqat stressni kamaytiradi , balki o`z hayotini yanada tinch , sog`lom va baxtli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O`zbekiston Psixologlar Assotsiatsiyasi. Stress bo`yicha metodik qo`llanma 2022.
2. G`oziyev.E.G`-Psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2013.
3. Yo`ldoshev J.G`. Shaxs psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2018.
4. Razzoqov R . Umumiy psixologiya . Toshkent : Innovatsion Ziyo . 2021.

RAQAMLI TA’LIM SHAROITIDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Toxirova Shabbona Bahodirjon qizi
Andijon davlat universiteti talabasi
e-mail shabbona20071807@gmail.com. Tel: +998930031897

Annotasiya: Maqolada raqamli ta’lim sharoitida yoshlarning psixologik moslashuvi, uning asosiy psixologik omillari va ta’sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli platformalar o‘quv jarayoniga kirib kelishi bilan yuzaga kelayotgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlar psixologik nazariyalar asosida sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik moslashuv, raqamli ta’lim, emotsional zo‘riqish, kognitiv jarayonlar, motivatsiya.

PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF YOUTH IN DIGITAL EDUCATION: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of willpower psychology, the process of its formation, and its role in personal development. It discusses the interaction between willpower, motivation, emotions, and conscious decision-making, as well as major psychological approaches explaining volitional processes. The article concludes with the significance of willpower in human activity and strategies for its development.

Keywords: psychological adaptation, digital education, youth psychology, motivation, distance learning, emotional stability, adaptation strategies

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ АДАПТАЦИЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация: статье рассматриваются психологические трудности, с которыми сталкивается молодежь при адаптации к цифровому образованию. Анализируются факторы, влияющие на мотивацию, эмоциональную устойчивость и саморегуляцию обучающихся. Представлены рекомендации по эффективной поддержке психологической адаптации в цифровой образовательной среде

Ключевые слова: психологическая адаптация, цифровое образование, психология молодежи, мотивация, дистанционное обучение, эмоциональная устойчивость, стратегии адаптации

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga chuqur kirib kelishi yoshlarning psixologik rivojlanishi va moslashuv jarayonini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida ta’limning onlayn formatlarga o‘tishi o‘quvchilar va talabalar ongida yangi kognitiv jarayonlar shakllanishiga, o‘rganishdagi mustaqillikning oshishiga, shu bilan birga emotsional murakkabliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda(1). Ayniqsa, motivatsiya barqarorligining pasayishi, ortiqcha axborot oqimi va muloqot shaklining o‘zgarishi yoshlarning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda(2). Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli ta’lim bugun oddiy o‘quv shakli emas, balki yoshlarning shaxsiy rivoji, ijtimoiylashuvi va ruhiy barqarorligi bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida qaralmoqda. Shuning uchun psixologik moslashuv mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Onlayn ta’limning psixologik ta’sirini tushunishda avvalo kognitiv jarayonlar yetakchi o‘rin tutadi. Onlayn ta’lim sharoitida o‘quvchi axborotni mustaqil qabul qiladi, tartiblaydi va qayta ishlaydi; bu jarayon esa xotira, tafakkur, diqqat kabi funksiyalarni faollashtiradi. Ayni paytda axborotning haddan tashqari ko‘pligi kognitiv yuklamani oshirib, diqqatning tarqoqlashishiga sabab bo‘lishi mumkin(3). Shu nuqtai nazardan, o‘quv jarayonida axborotni filtrlash va faol qayta ishlash bo‘yicha ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etadi. Emotsional moslashuv ham raqamli ta’limning asosiy psixologik omillaridan biridir. O‘quvchining onlayn muhitda o‘zini tutishi, o‘rganishga bo‘lgan munosabati, ichki kayfiyatining o‘zgarishi emotsional barqarorlikni belgilaydi. Mustaqil ishlashning ko‘payishi, muloqotning cheklanishi va yutuqlarni tez-tez baholash zarurati ichki zo‘riqish jarayonini kuchaytirishi mumkin. Biroq, emotsional o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllangan shaxslar raqamli ta’lim muhitiga nisbatan ancha tez moslashadi(4).

Ijtimoiy moslashuv raqamli ta’limda alohida e’tibor talab qiladi. An’anaviy sinf muhitida sodir bo‘ladigan muloqot, hamkorlik va jamoaviy faoliyat o‘rnini onlayn platformalardagi virtual aloqalar egallaydi. Bu holat yoshlarning ijtimoiy faolligini saqlashini talab qiladi. Shu bilan birga, guruhli topshiriqlar, videomuloqotlar, fikr almashish platformalaridan foydalanish ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlaydi va ijtimoiy identifikatsiyani mustahkamlaydi(5). Raqamli o‘quv muhiti yoshlarning motivatsion jarayonlariga ham sezilarli ta’sir qiladi. Ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi metodlar — mustaqil faoliyat, erkin vaqt boshqaruvi, individual yondashuv — o‘quvchini faol bo‘lishga undaydi. Biroq tashqi rag‘batlantirish tizimining kuchayishi, baholashning avtomatlashtirilishi va natijalarga yo‘naltirilgan bosim motivatsiya pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Shuning uchun o‘qituvchilar tomonidan yoshlarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantiruvchi psixologik yondashuvlar qo‘llanilishi muhim hisoblanadi. Umuman olganda, raqamli ta’lim jarayonidagi psixologik moslashuv bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning birgalikdagi ta’siri orqali shakllanadi. Bu omillar uyg‘unlashganda, raqamli ta’lim yoshlarning shaxsiy rivoji va ta’lim jarayonidagi faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Onlayn ta’lim yoshlarning psixologik moslashuvi va sog‘lig‘iga ham ta’sir qiladi. Uzoq ekran vaqti diqqatning pasayishi, vizual charchoq va uyqu buzilishiga olib keladi. Harakatsiz turmush tarzi mushak-skelet tizimiga zarar yetkazishi va charchashni oshiradi.bOnlayn muloqotning ortishi ijtimoiy aloqalarni cheklab, stress va o‘ziga ishonch pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu sabab, raqamli ta’lim jarayonida tanaffuslar, jismoniy mashqlar, uyqu va vizual gigiyena bo‘yicha tavsiyalarni qo‘llash, psixologik maslahatlar va stressni boshqarish treninglarini joriy etish moslashuvni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Onlayn ta’lim sharoitida psixologik moslashuv jarayoni murakkab va uzluksiz davom etuvchi psixologik mexanizmdir. Mazkur moslashuv kognitiv faollik, emotsional barqarorlik va ijtimoiy integratsiya orqali amalga oshadi. Bu ta’limning afzalliklari mavjud bo‘lsa-da, psixologik yuklama, motivatsiyaning o‘zgarishi va muloqot shaklining cheklanishi kabi omillar unga ma’lum darajada ta’sir qilishi mumkin(6).

Shuning uchun pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi yoshlarning psixologik barqarorligi va samarali o‘qishida muhim rol o‘ynaydi. Onlayn ta’lim sharoitida moslashuv jarayonini chuqur o‘rganish va takomillashtirish kelajak ta’limi uchun dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Bu o‘quv jarayonida yoshlarning psixologik moslashuvini kuchaytirish uchun o‘quv jarayonini nafaqat texnik, balki psixologik jihatdan ham qo‘llab-quvvatlash zarur. Buning uchun motivatsiyani barqarorlashtiruvchi psixoprofilaktik dasturlarni joriy etish, emosional zo‘riqishni kamaytirishga qaratilgan psixologik yordam shakllarini tizimli yo‘lga qo‘yish hamda raqamli muhitda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish samarali natija beradi. Shuningdek, talabalarda diqqatni boshqarish, stressni yengillashtirish va masofaviy o‘qishga mos psixologik strategiyalarni rivojlantirish moslashuv jarayonining muhim omili hisoblanadi. Onlayn ta’limda kuzatiladigan qiyinchiliklarni erta aniqlash va individual psixologik maslahatlar bilan o‘z vaqtida korreksiya qilish esa eng to‘g‘ri ilmiy asoslangan yechim deb o‘ylayman

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psikhologii. – Moskva, 2002.
2. Vygotskiy L.S. Pedagogical Psychology. – Moscow, 2003.
3. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – Moskva, 1975.
4. Lazarus R., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984.
5. Nurmamatov X. Psixologiya asoslari. – Toshkent, 2019.
6. “Raqamli ta’lim va yoshlarning psixologik moslashuvi”. — edu-psychology.uz
7. “Onlayn ta’limda psixologik muammolar”. — psychologyonline.org

SHAXS SHAKLLANISHIDA IJOBIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya ta’lim yo’nalishi 2-bosqich 201-guruh talabalari
Xamitjonova Parizod Sharifjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs shakllanishida ijobiy fikrlashning psixologik asoslari, uning neyropsixologik, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Ijobiy fikrlashning bolalikdan boshlab kattalik davrigacha bo‘lgan rivojlanish jarayoni, ta’lim muassasalari va oilaning roli hamda shaxsning motivatsiyasi, o‘zini boshqarish qobiliyati va liderlik salohiyatiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqolada ijobiy fikrlashning kundalik hayotdagi ahamiyati, uning salbiy fikrlashga qarshi kurash mexanizmlari, sog‘liq va akademik muvaffaqiyatdagi o‘rni ham yoritilgan.

Kalit so’zlar: Ijobiy fikrlash, shaxs rivoji, kognitiv jarayonlar, motivatsiya, emotsional intellekt, ijtimoiy omillar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПОЗИТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические основы развития позитивного мышления в процессе формирования личности. Анализируются его нейропсихологические, когнитивные, эмоциональные и социальные аспекты. Освещается роль семьи, образовательных учреждений, мотивации, саморегуляции и лидерства. Также показано влияние позитивного мышления на здоровье, социальные отношения и академическую успешность.

Ключевые слова: Позитивное мышление, развитие личности, когнитивные процессы, мотивация, эмоциональный интеллект, социальные факторы.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING POSITIVE THINKING IN PERSONALITY FORMATION

Annotatsion. This article examines the psychological foundations of developing positive thinking in personality formation. It analyzes its connection with neuropsychological, cognitive, emotional, and social factors. The article highlights the development of positive thinking from childhood to adulthood, the role of family and educational institutions, and its impact on motivation, self-regulation, leadership, and health. Additionally, the mechanisms for overcoming negative thinking and the importance of positive thinking in academic success are studied.

Keywords: Positive thinking, personality development, cognitive processes, motivation, emotional intelligence, social factors.

Shaxs shakllanishi insonning butun hayoti davomida kechadigan murakkab jarayon bo‘lib, unda ijtimoiy muhit, oila, ta’lim, psixologik holat va fikrlash tizimi muhim rol o‘ynaydi. Fikrlash insonning borliqni idrok etish, hodisalarni baholash, qaror qabul qilish va xatti-harakatlarini belgilovchi asosiy psixik jarayonlardan biridir. Zamonaviy psixologiya fanida ijobiy fikrlash shaxsning ruhiy salomatligini mustahkamlash, stressni kamaytirish, motivatsiyani oshirish va muvaffaqiyatga erishishga yordam beruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Ayniqsa yoshlar bilan ishlashda, ta’lim-tarbiya jarayonida, oila va jamiyatda bu sifatni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar ijobiy fikrlashning shakllanishi bolalik davridan boshlanishini va individning keyingi faoliyatiga bevosita ta’sir qilinishini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, ijobiy fikrlash miya faoliyati, emotsional intellekt, ijtimoiy muhit, psixodinamik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu maqolada ijobiy fikrlashning psixologik jihatlari, shakllanish bosqichlari va uning shaxs rivojiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Ijobiy fikrlashning psixologik mazmuni. Ijobiy fikrlash – bu insonning voqea-hodisalarni optimistik ruhda baholashi, stressli vaziyatlarda ham konstruktiv yechim topa olishi, o‘z salohiyatiga ishonishi va hayotga yorqin nigoh bilan qarashi demakdir. Ijobiy fikrlash quyidagilar bilan belgilanadi: optimistik dunyoqarash, muammolarni imkoniyat sifatida ko‘rish, o‘zini qadrlashning yuqoriligi, emotsional barqarorlik, realistik baholash.

Neyropsixologik asoslar: Ijobiy fikrlashning shakllanishida miya faoliyatining bir necha bo‘laklari ishtirok etadi: Prefrontal korteks, Mas’ul: qaror qabul qilish, stressni boshqarish, ongli baholash.

Limbik tizim: Emotsiyalarni boshqaradi. Ijobiy tajribalar dopamin va serotonin ishlab chiqarilishini ko‘paytiradi. Dopamin va serotonin, dopamin – motivatsiya va zavq, serotonin – xotirjamlik va ruhiy barqarorlik.

Kognitiv nazariya asosida ijobiy fikrlash. Salbiy fikrlash ko‘pincha kognitiv xatoliklar natijasida yuzaga keladi: umumlashtirish, katastrofizatsiya, filtrlash o‘zini ayblash. Ijobiy fikrlash bu xatoliklarni tahlil qilish va ularni to‘g‘ri konstruktiv fikrlar bilan almashtirishga asoslanadi.

Oila va ta’limning o‘rni shundaki mehr-muhabbat, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, ijobiy muloqot muhitini yaratish muhim ahamiyatga egadir. Rag‘batlantiruvchi pedagogik yondashuv, motivatsion treninglar, stressni yengish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib boriladi.

IJOBIY VA SALBIY FIKRLASHNING TAQQOSLANISHI

№	Ko’rsatkichlar	Ijobiy fikrlash	Salbiy fikirlash
1	Emotsiya	Barqaror, tinch	Stressli, xavotirli
2	Qaror qabul qilish	O’ylangan, aniqlik bilan	Shoshma-shosharlik
3	Munosabat	Ijobiy muloqot	Tanqidiy, salbiy

4	Sag’liq	Yaxshi	Muammolar kuchayishi
5	Motivatsiya	Yuqori	Past

Xulosa qilib aytganda, shaxs shakllanishida ijobiy fikrlashning roli beqiyosdir. U insonning ruhiy barqarorligi, intellektual faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va umumiy hayoti sifatini belgilovchi asosiy omildir. Ijobiy fikrlashni bolalikdan shakllantirish, oilada iliq muhit yaratish, ta’lim jarayonida motivatsion yondashuvdan foydalanish shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Shuningdek, ijobiy fikrlash orqali inson o‘zini boshqarish, stressga chidamli bo‘lish, sog‘lom turmush tarzini olib borish va jamiyatda faol o‘rin egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Aron Bek. “Kognitiv psixologiya asoslari”.
2. Yung K. “Psixologik tahlil nazariyalari”.
3. Vygotskiy L.S. “Shaxs va tafakkur rivoji”
4. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi metodik qo‘llanmalari.

OILAVIY MUNOSABATLAR-KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

G.T.Xamraqulova, SH.O.Oybekova, F.M.Ummatova.
ADU .Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti

Amaliy psixologiya yo’nalishi talabalari

Annotatsiya: Maqolada oilaviy munosabatlar-kichik maktab yoshi davrida ijodkorlikni rivojlantirish omili xaqida, oilada kichik o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish masalalari va zamonaviy ota-onalar turli sabablarga ko'ra o'z farzandlarining intellektual va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari xaqidagi fikr va taxlillar bayon etilgan

Kalit so’zlar: Oila, kichik maktab yoshi, maxsus qobiliyatlar, intellect, farzandlar, ota-ona, ijodkorlik.

Hozirgi vaqtda oilada kichik o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqish qobiliyatlar psixologiyasining eng kam o'rganilgan sohasi va oilaviy tarbiyaning eng dolzarb muammosi hisoblanadi. Zamonaviy ota-onalar turli sabablarga ko'ra o'z farzandlarining intellektual va maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga intilmoqda. Birinchidan, qo'shimcha ta'limning "modasi" tufayli, keng va chuqur ta'limning obro'si, ikkinchidan, o'z farzandlari hisobidan buning o'rnini qoplashga harakat qilayotgan ota-onalarning o'zlarini ijtimoiy sohada amalga oshirmasliklari sababli. Ushbu motivlar ota-onalarni bolaga maxsus sharoitlar yaratishga undaydi Uni zarur materiallar (asboblar, kitoblar, kompyuter) bilan ta'minlash, uni ish joyi bilan ta'minlash kerak, bundan tashqari, bu oila a'zolarining ta'lim va tarbiyaviy harakatlarini, teatrga, muzeylarga, kinoteatrlarga, kontsertlarga, ommaviy dam olish joylariga sayohatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun umumiy iqtidorni rivojlantirish uchun yuqoridagi motivlar ijobiy rol o'ynaydi. Ammo, albatta, kichik o'quvchining oila ichida ijodkorligini rivojlantirishda oilaviy ta'lim uslublari, oila a'zolarining muloqoti va birgalikdagi faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. An'anaga ko'ra oilalarning 3 asosiy turi mavjud.

- oqsoqollarning shubhasiz vakolatiga asoslangan an'anaviy;
- bolaga yo'naltirilgan, bolani haddan tashqari himoya qilish va simbiyotik aloqalarga asoslangan va

- demokratik, oila a'zolarining manfaatlari tengligi va o'zaro ishonchga asoslangan. Shartli ravishda aytishimiz mumkinki, tegishli tarbiya uslublari oilalar turlari bilan bog'liq (garchi bu erda to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik bo'lmasa ham) avtoritar, demokratik, uyg'un.

Ota-onalarning uslublari va oilaning turlari o'z-o'zidan bolaning ijodiy qobiliyatlarini chiziqli ravishda belgilamaydi, aksincha ularning oilada rivojlanishiga har xil ta'sir qiladi. Shunday qilib, bola bilan yuqori darajadagi aloqa va nazoratga ega bo'lgan avtoritar uslub faoliyat samaradorligini oshirishga, rivojlanish tezligini tezlashishiga yordam beradi va agar kattalar haddan tashqari tanqid qilsalar, ijodni susaytiradi va to'xtatadi. Bola bilan yuqori darajadagi aloqa va unga nisbatan past nazorat bilan ruxsat etilgan uslub, uni ota-onalar bilan muloqotda to'plangan ijtimoiy tajriba bilan keng tajriba o'tkazishga undaydi va past darajadagi aloqa yoki e'tiborsiz qoldirilgan nazorat bilan, bu pedagogik e'tiborsizlikka olib kelishi mumkin. Demokratik tarbiya uslubi, bizning fikrimizcha, ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulayroqdir, chunki u bolani oilaviy hayotda sheriklik holatiga keltiradi, uning hayotiy manfaatlarini inobatga oladi, tanlash huquqini beradi va shu bilan uni ongli ravishda mustaqil qaror qabul qilishga undaydi, vaziyatga qarab egiluvchan harakat qiladi. Oilaviy tarbiya uslubi bola bilan aloqa o'rnatishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, unga oila tarkibining me'yorlari va qoidalarini taqdim etadi. Yosh o'quvchining mazmuni va mohiyati, ijodkorligi kattalar bilan muloqotda va birgalikdagi tadbirlarda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda oilaviy psixologiya ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarning bolaning aql-idrokini rivojlanishiga ta'siri haqida ma'lumotlarga ega. Ota-onalar bilan intensiv hissiy aloqa bolaning aql-idrokini rivojlanishiga hissa qo'shishi, uning aql darajasi katta yoshdagi odamning aql darajasi bilan o'zaro bog'liqligi aniqlandi. Bu xususiyat turli tadqiqotchilar tomonidan turli davrlarda kuzatilgan (R. Plomin, D.S.De Vriz, V.N.Druzhinin, S.V. Nebykova, J. Xorn). Xususan, Drujinin V.N. S.V.Nebikova bilan birgalikda ota bilan hamkorlik bolalarning og'zaki bo'lmagan ongini rivojlantiradi, onasi bilan muloqot - og'zaki; bolaga nisbatan ota-onalarni haddan tashqari tanqid qilish bu ko'rsatkichlarni pasaytiradi. Shunga o'xshashlik bilan taxmin qilish mumkin (buning uchun tajribaviy tasdiqlash kerak), bolalarning ishlab chiqarish faoliyatining rivojlanishi ham sodir bo'ladi. Qo'shma tadbirlarda (o'yin, yozuv, hazil, rasm chizish) kattalar bolaga ijodiy xulq-atvor namunalarini taqdim etadilar va aksincha: bola tasavvurining maxsus intensivligi, idrokga bo'lgan ehtiyoj kattalarning ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantiradi. Shunday qilib, kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyat kattalar va bolaning ijodkorligi amaliy va rivojlanishini topadigan yashash maydoni vazifasini bajaradi.

Bolalar va ota-onalarning aloqasi va birgalikdagi faoliyati aksariyat hollarda ijodkorlikni rivojlantirishning nisbatan boshqariladigan, ixtisoslashtirilmagan omilidir (ota-onalar va bolalar birinchi navbatda ota-ona munosabatlari bilan bog'lanadi). Agar bola musiqachi, rassom yoki u yoki bu oilaviy ta'lim tizimining izdoshlari oilasida o'ssa, ular tabiatan ixtisoslashgan bo'lishi mumkin, ammo bunday erta maqsadli oilaviy ta'lim (turli oilalarda juda individual) har doim ham ijodkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shmaydi. Aloqa va qo'shma tadbirlar, ijodkorlikning namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun faqatgina zamin yaratadi, aksincha ta'limdan farqli o'laroq, ob'ektiv faoliyatda, atrofdagi haqiqatni bilishda ijodkorlikni shakllantirishni rag'batlantiradi. Shu sababli, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun ijodkorlikni tarbiyalashning maxsus usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: treninglar, ilmiy loyihalar, ijodiy ustaxonalar va boshqalar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Yo‘ldosheva R.. Bola psixologiyasi va ijodkorlik rivoji**.** – Toshkent: Fan, 2020. **–** 220 б.
2. Qodirova N. Oilaviy tarbiya va bolalar rivoji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 200 б.
3. Abdusaidov A. Pedagogik psixologiya**.** – Toshkent: Universitet, 2017. – 280 б**.**
4. Ashurova M. Ijodkorlik psixologiyasi**.** – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 210 б.

5. O‘rinboyeva S. Kichik maktab o‘quvchilarining rivojlanish xususiyatlari. – Toshkent, 2019. – 185 б

ДЕЗАДАПТАЦИЯНИ ОЛДИНИ ОЛИШ VA ПРОФЕССИОНАЛ МУҲИТ ТАҲЛИЛИ

Тиловов Саидбек,
Расулова Нодирабегим,
Убаева Дилноза
Андижон Давлатуниверситети ,
Амалий психология йўналиши
4-боскич талабалари

Аннотация. Ушбу маколада психологик дезадаптациянинг касбий фаолиятдаги роли ва ахамияти стрессли холатлар ва унинг психологик жихатлари хакидаги фикр мулохазалар ва илмий тахлиллар баён этилган.

Калит сузлар, психологик дезадаптация, касбий фаолият, стрессли холатлар.

Психик адаптация индивидиумга долзарб эҳтиёжларни қондиришга ва улар билан боғлиқ аҳамиятли мақсадларни (бунда психик (руҳий) ва жисмоний саломатликни сақлаган ҳолда) амалга оширишга ёрдам берадиган, инсоннинг ўз фаолиятини юритишидаги атроф муҳит ва шахснинг оптимал муносиблигини ўрнатувчи жараён сифатида аниқланади. Шу билан бирга, ушбу жараён инсон психик фаолияти ва унинг хулқи муҳит талабларига мос келишини ҳам таъминлайди. Психик адаптация тушунчаси индивид ва уни қуршаб турган муҳитнинг ўзаро таъсирига гомеостатик вазминлик тамойилининг экстрапояцияси ҳисобланади Меҳнат психологиясида М.А. Дмитриева таъкидлаганидек, профессионал адаптация дейилганда, <меҳнат субъекти – профессионал муҳит> тизимида динамик мувозанатнинг барпо бўлиши ва қайта тикланиши жараёни тушунилади. Ҳозирги вақтда, профессионал фаолиятни психологик таъминлаш вазифаларини ҳал қилишда, профессионал стресс ва адаптацияларни бошқаришга ёндашиш керагича ишлаб чиқилмаган ҳисобланади. Стрессли ҳолатларни ва адаптацион имкониятлар зўриқишини келтириб чиқарадиган оғир профессионал ситуациялар кам ҳолатларда кўриб чиқиш объекти ҳисобланаётган бир вақтда, асосий эътибор профессионал фаолият талабларига меҳнат субъектининг муҳим профессионал сифатлари мос келишини белгилашга қаратилмоқда. Муракаб профессионал вазиятларни меҳнат субъекти ва профессионал муҳитнинг ўзаро таъсирини таҳлил қилиш бирлиги сифатида кўриб чиқиш керак.

Стрессли вазият мураккаб кўп босқичли ва кўп компонентли феномен сифатида кўриб чиқилган. Стрессли таъсирларнинг беш даражали таснифи келтирилган. Талаба ўз фаолияти жараёнида дуч келадиган психологик ва ижтимоий қийин вазиятлар мавжудки, бу жараён бевосита талаба фаоллигига негатив тарзда таъсир этади. Бу уларнинг касб эгаллашга йўналтирилган фаоллигида стрессли вазиятларга сабаб бўлади. Негатив кечинмалар билан кузатилувчи, профессионал қийинчиликларни енгиб ўтиш қобилиятининг йўқлиги, психик куйиб кетишга яъни эмоционал ҳолсизланиш, мадорсизланишга олиб келиши кузатилган. Бу эса профессионал дезадаптацияни юзага келтирувчи омил сифатида тахлил қилинади.Яъни касбга йўналтириш ва касб эгалллаш жараёнида фаолиятга нисбатан дезатапцияни намоён бўлиши ҳисобланади.

Маълумки, вазият муаммоси бўйича психология соҳаларида кўп вақт давомида тортишувлар, турли қарашлар мавжуд эдики, уларнинг тахлилига кўра, вазият(ситуация)-бу субъект фаоллигини уйғатувчи ва детерминацияловчи, субъектга нисбатан ташқи

шароитлар тизими тушунилган. С. А. Трифонова таъкидлашича “вазият”- тушунчаси ўзида қуйидаги компонентларни мужассам этади. Улар:

- Вазият-бу инсон фаоллигига таъсир эътувчи , субъект фаоллиги ва вазиятни амалга оширишнинг чегараларини белгиловчи, шароитларни келтириб чиқарувчи субъектга нисбатан ташқи шароитлар тизими сифатида тушуниш мумкин;
- Вазият-бу инсон фаоллигини таъминловчи ва унинг фаолиятида турли натижаларга олиб келувчи шароитлар тизими ёки комплекси сифатида эътироф этиш мумкин.;
- Вазият-бу шахслараро муносабатларда, шгахс фаоллигини таъминлашда шахс ва муҳитнинг ўзаро таъсирининг маҳсули ва натижаси сифатида караш мумкин;
- Вазият- бу шахсга хос индивидуалликни номоён қилувчи ноаниқлик шароитидаги ҳолати сифатида тушуниш мумкин.

Ўрганилган назарий манбаалар асосида шуни таъкидлаш мумкинки, стрессли вазиятлар муаммоси бўйича

- стрессли эпизод,
- стрессли вазиятлар,
- стрессли стимуллар

каби тушунчалар ўртасида аниқ чегаралар мавжуд эмас. Шунинг учун айрим ҳолатларда бу тушунча ҳақида терминологик чалкашлик, чигалликларни кузатикузатиш мумкин. Бу ўрин стрессли таъсирларнинг даражали таснифларини келтириб ўтамиз.

1. Стрессли стимуллар – алоҳида объектлар ёки ҳаракатлар.
2. Стрессли воқеа-ҳодисалар – сабаб ва оқибатга эга ўта муҳим ҳаётий эпизодлар.
3. Стрессли вазиятлар - ташқи шароитлар билан аниқланувчи жисмоний вақт билан боғлиқ ва психологик параметрлар. Вазиятни қабул қилиш ва интерпретациялаш, вазият стрессогенлигини субъектив баҳолашни белгилайди:
4. Стрессли қуршов – стрессли вазиятлар типларини характерловчи, тушунчасини умумлаштирувчи.
5. Стрессли муҳит – жисмоний ва ижтимоий ташқи дунё (олам) стрессоген ўзгарувчиларнинг йиғиндиси (мажмуаси, тўплами).

Демак, стрессли вазият кўп босқичли ва кўп компонентли мураккаб феномен бўлиб, уни тушуниш учун стрессли вазиятларнинг бирма-бир, изчил таҳлили зарур бўлади[3]. Стрессли вазият сифатида профессионал қийин вазиятнинг структуравий ва мазмунли жиҳатларини ажратиб ўтиш мумкин. Р. Лазарус стрессли вазиятларнинг учта типини келтирган.

Биринчи типи – йўқотиш вазияти. Катта шахсий аҳамиятга эга бўлган, психикани жароҳатловчи нарса ёки инсонни йўқотиш (масалан, ишни йўқотиш).

Иккинчи тип – хавф-хатар вазияти. Инсондан катта тиришқоқликни адаптацион имкониятларини фаоллаштиришни талаб қилади.

Учинчи тип – бирор нарсага қарши чиқиш вазияти. Адаптация учун енгиб ўтишнинг мураккаб ва потенциал хавфли стратегияларини талаб қилади.

Структуравий жиҳатларга:

валентлик – вазиятнинг стрессогенлигини қабул қилишга таъсир кўрсатувчи, унинг индивидуал шартланган субъектив аҳамияти;

назорат қилинувчанли – стрессли вазиятни назорат қилишда шахсий қобилиятига субъектив баҳо бериш;

ўзгарувчанлик – стрессли вазият мустақил, субъектив иштирокисиз ўзгаришига субъектив баҳо бериш;

ноаниқлик – вазиятнинг ноаниқлиги ва мужмаллигини субъектив баҳолаш;

[3]**Бурлачук Л.Ф., Коржова Е.Ю. 1998**

қайтарувчанлик – стрессли вазиятнинг қайтарувчанлигини субъектив баҳолаш;

хабардорлилик – шунга ўхшаган вазиятларни кечириш (бошдан ўтказиш) бўйича шахсий тажрибанинг даражаси[4]

Тадқиқотларнинг амалий тахлили шуни кўрсатадики, кўп учрайдиган профессионал қийин вазиятлар - агрессив вазияти, манманлик ва суҳбатдаги шахснинг эркин бўлмаслиги, психологик зўриқишни юзага келтирувчи холатлар бўлиб, шахс ҳаётидаги муҳим мулокотлар жараёнидаги дезадаптация ҳолатини юзага келтишига сабаб бўлади. Мулоқотнинг қўпол, одобсиз кўринишлари кам бўлган холатларда шахсдаги стрессли ҳолатларни номоён бўлиши кам учрайди. Масалан рахбар ва ходим ўртасидаги мулокотда, ўқитувчи ва талаба, ишга кирувчи шахс ва иш берувчи рахбар ўртасидаги мулокот профессионал мулоқотнинг қийинчиликларини юзага келтирувчи вазиятлар ҳисобланади.

Демак, мехнат субъекти ва профессионал мухит шахсларнинг стрессоген вазиятларини олдини олишдаги ижтимоий омил сифатида ўзига хос характерга эгадир. Бунинг асосини фаолиятнинг турли жихатларида негатив вазиятларга нисбатан ижобий мотивларни шакллантириш ва фаолликнинг шаклланиш имкониятларига эътиборни қаратиш ташкил этади. Шунинг учун хар бир вазиятга нисбатан ижобий профессионал ёндашиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

1. Абдурахманов Қ.Х**.** Меҳнат психологияси ва инсон омили**.** – Тошкент: Фан, 2018. 312 б.

2. Маматқулов Ш., Ризаев Ш. Стресс ва дезадаптация психологияси**.** – Тошкент: Университет, 2020. **–** 256 б.

3 Ғофуров Д. Иш жойида стресс ва уни бартараф этиш**.** – Тошкент, 2021. – 180 б.

4. Шоймонов Р. Профессионал дезадаптация асослари**.** – Тошкент, 2019. – 210 б.

5. Караяни А.Г., Никифоров Г.С. Психология профессионального здоровья**.** – Санкт-Петербург: Питер, 2016. **–** 384 с.

INDIVIDUAL TARBIYA USULLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

N. U.Uzaqova, O.O.Ganijanova, M.X.Turg'unboyeva.
ADU. Tarix va ijtimoiy fanlar fakul'teti
Amaliy psixologiya yo'nalishi talabalari.

Annotatsiya. Maqolada ilgari surilgan masala bubungi kundagi dolzarb muammolarni yoritishga qaratilgan. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsaga o'xshaydi, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iboratdir. Agar inson tashqi olam va o'z ichki dunyosi haqida bilimlarni o'zlashtirish va anglashdek muhim xususiyatdan mahrum bo'lganda, unda hech qanday bilim va ong shakllanmagan bo'lar edi.

Kalit so'zlar. individual tarbiya, shaxs, xarakter, qobiliyat, individ, tarbiya va ta'lim.

Mustaqillik yillarida ta'lim tarbiyaga alohida e'tibor berilib bu sohada tub burilishlar yuzaga kelganini guvohi bo'layapmiz. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman.

[4] Абабков В.А., Перре М., СПб., 2004

Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari o‘tgan asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqgda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi”. [1.53] - degan fikrlari bugungi kunda tarbiya masalalariga alohida yondashish, individual tomonlariga e’tibor berishni taqozo etadi.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsaga o‘xshaydi, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iboratdir. Agar inson tashqi olam va o‘z ichki dunyosi haqida bilimlarni o‘zlashtirish va anglashdek muhim xususiyatdan mahrum bo‘lganda, unda hech qanday bilim va ong shakllanmagan bo‘lar edi. Bizning bilimlarimiz ongning birlamchi, asosini tashkil kiladi. Bilimlar turli psixik jarayonlari, sezgi, idrok, diqqat, nutq, xayol va boshqalar yordamida o‘zlashtiriladi, xotirada saqlanadi, tafakkur jarayonida tahlil qilinadi, va boyitib boriladi. Bu jarayonlar shu qadar bir-biri bilan bog‘liqki, o‘quvchilar ixtiyoriy xayolini shakllantirishda ularning birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Masalan ko‘rib, idrok qilib turgan narsamizni fikrlamay ko‘ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Yoki qaysi bir faoliyatni bajarishdan oldin albatta, uning taxminiy rejasini tuzamiz, so‘ngra amalga oshiramiz.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta’kidlab o‘tilganidek ta’lim – tarbiya jarayonida har bir shaxsga psixologik jixatdan individual yondashish muxim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi qator individual – psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, taraqqiy etib borayotgan aniq shaxs bilan shug‘ullanadi. Bir o‘quvchiga nisbatan muvaffaqiyat bilan qo‘llanilgan tarbiyaviy tadbirlarni boshqa o‘quvchiga nisbatan qo‘llagan vaqtda kutilgan samarani bermasligi xam xuddi ana shu bilan izoxlanadi. Shuning uchun umumiy tarbiyaviy tadbirlar individual yondoshish bilan to‘ldirilishi lozim. Individual yondoshishda, birinchi navbatda, shaxsda biror xislatning tarkib topishiga ta’sir etadigan idividual, maxsus sharoitlarni bilish va hisobga olish nazarda tutiladi. Shaxsning biror bir xususiyatini namoyon bo‘lish tabiatini tushungan takdirdagina uni to‘g‘ri tushinish mumkinligi uchun ham bu jarayonni bilish lozim. Masalan, tarbiyachi bolaning o‘jarligiga barham berishni maksad kilib oldi deylik. Avvalo tushunish, tushunganda ham to‘g‘ri tushunish uchun bu o‘jarlikning tabiati kandayligini, uning sababini, qanday xarakterda ekanligini bilib olish kerak. Turli tabiatdagi o‘jarlikni tushunib olish turlicha bo‘lishi kerak. Shundagina tarbiyachi to‘g‘ri yondasha oladi. Individual tarbiya usullari bolalarning psixologik xususiyatlaridagi ayrim salbiy jihatlarni bartarf etish imkoniyatini beradi. Bolada mustakil xarakat va fikrlash jarayoni rivojlanadi va o‘ziga ishonch tuyg‘usi o‘sadi.

O‘quvchi shaxsining eng ko‘p tarqalgan xatti – harakat nuqsonlari hamda salbiy tomonlari xaqida to‘xtalamiz va ularni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan sabablarni ko‘rsatib o‘tamiz. Maktab yoshida eng ko‘p tarqalgan xatti – harakat kamchiliklaridan biri, barcha oqilona dalillar va fikrlarga karshilik ko‘rsatishda, boshqa kishilarning iltimoslari, maslahatlari, talablari, ko‘rsatmalariga asossiz tarzda qarshilik ko‘rsatishda namoyon bo‘ladigan o‘jarlikdir. Ko‘pincha bunga o‘quvchi nerv sistemasining kuchli taassurotlar, toliqish, og‘ir kechinmalar bilan qayta qo‘zg‘alishi sabab bo‘ladi. O‘jarlikka moyillik ba’zan mustaqillik va tashabbuskorlikka intilish, o‘z hohishini so‘zsiz bajarishga harakat qilish bilan izohlanadi. O‘jarlik, maqtash, kattalar tomonidan xech narsaning talab kilinmasligi, o‘zining barcha istaklari va hohishlarining so‘zsiz bajarilishiga odatlanib qolgan, erkatoy qilib yuborilgan bola xulq-atvorining odatdagi formasi bo‘lishi mumkin. Nixoyat, o‘jarlik ba’zan bolaning norozilik bildirish, o‘zidagi rivojlanayotgan mustaqillik xamda tashabbuskorlikning kattalar tomonidan xukumronlik bilan qo‘pollik bilan va asossiz ravishda bo‘g‘ilishidan norozi bo‘lish ifodasining o‘ziga xos formasi tariqasida yuzaga keladi. Individual yondashishda xatti – harakatlarning affektiv formalari deb atalmish formalariga ega bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e’tibor berish nazarda tutiladi. Xatti – harakatlarning bunday formalari har xil sabablar ta’sirida, ammo asosan – o‘kishdagi muvaffaqiyatsizlik, o‘kituvchi yoki jamoa bilan to‘knashish, yoxud o‘quvchining da’volari darajasi va jamoada uning aslida tutgan o‘rni o‘rtasidagi o‘ziga xos to‘knashuv ta’sirida yuzaga keladi. Bunga o‘xshagan xollarda o‘quvchilarga ko‘pincha affektiv xolatlar va og‘ir kechinmalar yuzaga keladi. Xamda shu asosda xatti – harakatlarning salbiy formalari tarkib topa boshlaydi. O‘quvchi arazchang,o‘jar, qo‘pol, serjaxl bo‘lib koladi, o‘kituvchilarning talablariga bo‘ysunishdan bo‘yin tovlaydi, o‘zini jamoaga

karama – karshi kilib ko‘yadi. Nixoyat, individual yondoshish ishida I.P.Pavlovning katta miya yarim sharlari po‘stlarining fazali xolatlari to‘g‘risidagi ta’limoti muxim ahamiyatga egadir.

Xulosa kilib,hammaga ma’lum bo‘lgan lekin, hamma vaqt ham hasobga olinavermaydigan quyidagi fikrni ta’kidlab o‘tmokchimiz: individual yondashishda tarbiyaviy ishda xar bir o‘quvchi shaxsidagi mavjud ijobiy fazilatlarga, chunonchi uning qiziqish-havaslariga (sport, muzika, rasm chizish, tabiat hamda boshqa narsalarni sevishiga), sog‘lom axloqiy intilishlariga (garchi ular hatto qo‘llanib bo‘lmaydigan formalarda bo‘lsa xam), o‘rtoqlariga nisbatan hatto hazil tariqasidagi do‘stona munosabatlarga tayana olish nazarda tutiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarga mavjud ijobiy xislatlarni yuzaga keltirish, ularning ijobiy hatti-xarakatlarini rag‘batlantirish yo‘li bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga oson erishishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuchdir.T-2008y.
2. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi.Toshkent, Noshir., T 2010
3. Do‘stmuhammedova Sh.A., Z.T.Nishonova, S.X.Jalilova, Sh.T.Karimova, Sh.T.Alimbayeva “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya” Toshkent Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi. 2013
4. Davletshin M.G. va boshqalar «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» T.: TDPU, 2004 yil

Internet saitlari.

1. www. pedagog. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. uz

TALABALARNI OLIY O‘QUV YURTIDAGI O‘QUV FAOLIYATIGA MOSLAShISh MUAMMOLARI

N.N.Yaqubova,G.A.Sultonova,M.A.Xoshimova.
ADU .Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
Amaliy psixologiya yo’nalishi talabalari

Annotatsiya. Maqolada oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishning samaradorligi va sifati va talabalarni oliy ta`lim sharoitlariga moslashtirish muammosi hozirgi kunda oliy ta`lim pedagogikasi va didaktikasida o`rganilayotgan muhim vazifalardan biri ekanligi xamda Kasbiy ta'limning zamonaviy tizimi nafaqat ixtisoslashgan bilimlarni uzatishga, balki kelajakdagi mutaxassisni ma'lum bir madaniyatning vakili va tashuvchisi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi, bu bilim, ko'nikma xaqidagi fikr ,muloxazalar va taxlillar bayon etilgan

Kalit so’zlar.moslashish, pedagigika,psixologiya,kasbiy ta’lim ko’nikma, malaka.

Oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishning samaradorligi va sifati har tomonlama va yaxlit holda baholanadi. Bugungi kunda bilim va ko'nikmalar bilan bir qatorda, shaxsning kasbiy fazilatlari, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, bilimlarni mustaqil ravishda va ijodiy ravishda egallash va qo'llash qobiliyati kasbiy va pedagogik tayyorgarlikning sifat mezonidir. Bu shuni ko'rsatadiki, pedagogik universitetdagi o'quv jarayoni nafaqat talabalarning bilim sohasini rivojlantirishga, balki ularning bilim faoliyati, mustaqilligini rivojlantirishga, o'z-o'zini tarbiyalash usullarini mohirona egallashga, kasbiy pedagogik faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish muammosining dolzarbligi universitetda o'qish davrida professionallik asoslari qo'yilganligi, o'zgaruvchan sharoitlarda uzluksiz o'z-o'zini o'qitish zarurati va tayyorgarligi shakllanganligi bilan izohlanadi. Shu munosabat bilan, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etayotgan o'quvchilarni o'qitishning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab ta'lim va kasbiy faoliyat natijalari shaxsning

haqiqiy mulkiga aylanishini bilish juda muhimdir. Talabalarni oliy ta`lim sharoitlariga moslashtirish muammosi hozirgi kunda oliy ta`lim pedagogikasi va didaktikasida o`rganilayotgan muhim vazifalardan biridir [1]. Bundan tashqari, talabalarni universitetlarga moslashtirish jarayonining o'ziga xosligi o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'qitish usullarining farqiga bog'liq. Masalan, birinchi kurs talabalari universitetda dasturni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan qobiliyat va qobiliyatlarga ega emaslar. Buni tirishqoqlik bilan qoplashga urinishlar har doim ham muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Talaba yangi o'quv talablariga moslashishi uchun ko'p vaqt talab etiladi. Bu ko'pincha maktabda va universitetda bir odamga dars berishda, ayniqsa, uning natijalarida sezilarli farqlarga olib keladi. Bundan tashqari, o'rta va oliy ma'lumot o'rtasidagi zaif uzluksizlik, universitetda o'quv jarayonini metodikasi va tashkil etishning o'ziga xosligi, ma'lumotlarning katta miqdori, mustaqil ish qobiliyatining etishmasligi katta hissiy stressni keltirib chiqaradi, bu ko'pincha kelajakdagi kasbni tanlashda umidsizlikka olib keladi [2]. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mualliflar Lysenko RB, Rzhavskiy EA, Nikiforova MP Universitetning turli texnik mutaxassisliklari talabalari o'rtasida tadqiqotlar o'tkazildi. Quyida fizika va ekologiya bo'yicha ikkinchi mutaxassisliklar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari keltirilgan. 2-kurs talabalari tanlab olindi, chunki maktabdan universitetga o'tish davrida moslashuv jarayoni ularda bo'lgan va shu bilan birga u bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar ham unutilmagan. Olingan natijalar tahlili shundan kelib chiqadiki, talabalar gumanitar fanlarning universitetda moslashish uchun ahamiyatini bir xil baholadilar (bu guruh ikkala mutaxassislik bo'yicha o'rtacha hisoblangan). Shu bilan birga, iqtisodiy fanlar va psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar guruhlarini baholashda bir oz og'ishlar mavjud. Shu bilan birga, "Fizika" mutaxassisligi talabalarining fikriga ko'ra, 4-guruh psixologiyasi, sotsiologiyasi talabalarga universitetda tez moslashishga yordam beradi, iqtisodiy fanlar ular tomonidan eng kam ta'sirchan omil sifatida baholandi. Ekologiya" mutaxassisligi talabalari psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar guruhining muhimligini ta'kidladilar, ammo bu omil ular tomonidan eng muhim deb tan olinmadi, iqtisodiy fanlar ham ular tomonidan ahamiyatsiz omillardan biri sifatida baholandi. Eng katta farq umumiy ilmiy fanlar va maxsus fanlar guruhlarini baholashda kuzatildi. Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, talabalar fiziklari tomonidan umumiy ilmiy fanlar eng muhim omillardan biri sifatida tan olingan (ushbu fanlar guruhi ikkinchi o'rinda edi), atrof-muhit talabalari esa bu talabaning universitetga erta moslashishi uchun eng kam ahamiyatga ega bo'lgan omil deb hisoblashadi. Maxsus fanlarga kelsak, ekologlar ularni tezroq moslashish uchun eng muhim guruh deb bilishadi, fiziklar esa bu fanlarni, aksincha, eng muhim omillardan biri deb bilishadi. Ushbu tadqiqot nafaqat universitet o'qituvchilari, balki maktab o'qituvchilari uchun ham qiziqarli bo'lishi mumkin va ta'lim sifatini boshqarish jarayonida amaliy foydalanish maqsadida davom ettirilishi mumkin.

Talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish muammosi hali maxsus o'rganish mavzusiga aylanmagan, garchi amaliyot shuni ko'rsatadiki, talabalarning katta qismi universitetni tugatgandan so'ng sezilarli tanaffusdan keyin (2 yildan ortiq - OZO talabalarining 50,4%). o'quv va kasbiy faoliyatning yangi usullarini tashkil etish va o'zlashtirishda qiyinchiliklar. Bu o'quv va kasbiy faoliyat natijalaridan qoniqmaslik, kasb tanlashning to'g'riligiga shubha tug'diradi. Shu munosabat bilan talabalarni o'qitish jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilish zarurati mavjud:

Ijtimoiy-pedagogik tabiat: bir tomondan, ta'lim va kasbiy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislarga Rossiya jamiyatining ortib borayotgan ehtiyojlari o'rtasida, ikkinchi tomondan, uni tashkil etishda ta'lim muassasalarining potentsial imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmagan;

Ilmiy va pedagogik tabiat: bir tomondan, o'quv va kasbiy faoliyat muammolariga bag'ishlangan juda ko'p tadqiqotlar mavjudligi o'rtasida, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashishi muammosining nazariy jihatdan etarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

Ilmiy va uslubiy tabiati: bir tomondan, bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablar o'rtasida, ikkinchi tomondan, talabalarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayonini etarli darajada asosli va uslubiy qo'llab-quvvatlamasligi.

Ijtimoiy-pedagogik va psixologik talablar va o'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashuv xususiyatlarini o'rganish va izlash natijasida quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin edi:

O'quvchilarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashuvi tarkibi uchta bog'liq omillarni o'z ichiga oladi: moslashuvchan ehtiyoj, moslashuvchan vaziyat va moslashuvchanlik;

Talabalarning o'quv va kasbiy faoliyatga moslashish dinamikasi mos keladi, chunki rivojlanish intuitiv darajadan ijodiy darajaga ko'tariladi;

O'quvchilarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish ob'ektning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirini ta'minlaydi;

Shaxsiyatning yangi xususiyatlarini shakllantirish; kasbiy identifikatsiya va hk.;

Yangi ijtimoiy maqomni shakllantirish, yangi ijtimoiy rollarni ishlab chiqish, yangi qadriyatlarni egallash, kasbiy faoliyat an'analarining ahamiyatini tushunishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarni o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish - bu kelajakda faoliyat ko'rsatadigan mutaxassisning ijtimoiy, kasbiy, psixofiziologik o'sishining boshlang'ich bosqichi bo'lib, u erda o'zini o'zi amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Universitet talabalarini o'quv va kasbiy faoliyatga moslashtirish jarayoni, shu tariqa, qarama-qarshi tomonlarning dialektik birligi vazifasini bajaradi: shaxsni atrof-muhitga moslashishi va ushbu muhitni faol ravishda o'zgartirish. Bundan tashqari, har ikkala tomon ham bir-birisiz mavjud emas va inson o'zining moslashishi mumkin bo'lgan muhit tomonidan rivojlanishning yagona jarayonining ifodasi sifatida yig'ilgan holda xizmat qiladi. Shuning uchun moslashuv jarayoni shaxsning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik holati sifatida shaxsning faoliyatida ro'y beradi [3, 9-bet]. Boshqa tomondan, ajralib turadigan xususiyatlar kasb-hunar ta'limi muammolarini aktuallashtiradi, turli vaziyatlardagi ishlarga misollar keltiradi, vaziyatga oid o'zaro tajribani umumlashtirishga imkon beradi va shaxslararo munosabatlar tizimiga bilvosita ta'sir qiladi

Hulosa qilib aytganda, talabalarni oliy ta'limda o'qish sharoitlariga moslashtirish muammosi hozirgi kunda oliy ta'lim pedagogikasi va didaktikasida o'rganilayotgan muhim vazifalardan biridir [1]. Kasbiy ta'limning zamonaviy tizimi nafaqat ixtisoslashgan bilimlarni uzatishga, balki kelajakdagi mutaxassisni ma'lum bir madaniyatning vakili va tashuvchisi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi, bu bilim, ko'nikma, shuningdek, ma'lum bir dunyoqarash, nuqtai nazar va qadriyatlar va kasbiy xulq-atvorning kombinatsiyasi bilan ajralib turadi.

Moslashish muammosining ilmiy va amaliy dolzarbligi zamonaviy jamiyat insonning jismoniy va ruhiy salomatligini saqlash va yaxshilash, ularning intellektual salohiyatini oshirishdan manfaatdor ekanligidir. Shu sababli, turli darajadagi turli xil sanoat va ijtimoiy sharoitlarda insonning moslashish mexanizmlari va shakllarini o'rganish hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar ro’yhati.

1. Yo‘ldoshev J. Talabalar psixologiyasi**.** – Toshkent: Universitet, 2019. – 240 б.

2.To‘ychiyeva M. Yoshlar psixologiyasi va moslashuv jarayonlari. **–** Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 210 б.

3. G‘aniyev A. Pedagogik psixologiya**.** – Toshkent: Innovatsiya, 2018**. –** 280 б.

4. Qodirova N. Talabalarda moslashuv jarayonining psixologik asoslari**.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. **–** 198 б.

5. Abdurahmonov Q. Faoliyat va shaxs rivoji**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – **256 б**

6.Андреева Д.А. О понимании адаптации. Исследование адаптации студентов к условиям обучения в вузе // Человек и общество: Уч. записки XIII. - Л.: ЛГУ, 1993, с. 62-69

7. Федорова Е.Е. Адаптация студентов ВУЗов к учебно-профессиональной деятельности. – Магнитогорск, 2007 – 13.00.08.

O‘QUVChILAR O‘QUV FAOLIYATIDA BILISh FAOLLIGINI ShAKLLANTIRIShNING AMALIY ASOSLARI

Gofurova Ozoda .
Ilxomova Munisa
Abduraxmonov Azizbek
ADU .Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
Amaliy psixologiya yo’nalishi talabalari.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o’quvchilar o\quv faoliyatidagi bilish faolligiga ta’sir etuvchi omillar va ularning psixologik jixatlari xaqidagi fikr muloxazalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar. Oquv faoliyati, bilish jaryoni,

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq har bir sohani tubdan isloh qilish ishlari amalga oshrilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo‘lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan xarakterlanadi. Respublikamiz miqiyosida ta’lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko‘nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustivor vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi davrda fuqorolarning ongiga mustaqillik, vatanparvarlik, sadoqat kabi tushunchalarni singdirish, ularni kelajakka ishonch, buyuk davlatning munosib farzandlari qilib kamol toptirish zamon talabidir. Shu o‘rinda bu vazifalarni o‘smirlik davrida rivojlantirish va ularni ta’sir darajasini aniklash maqsadga muvofiqdir.

O‘smirlik yoshdagi bolalar bilish faolligining rivojlanishi bugungi kun talablari darajasida mavjud imkoniyatlar asosida amalga oshirilmoqda. Yosh davrlarniing o‘ziga xos hususiyatlari tarkibida o‘smirlik yoshdagi davrda bilish faolligini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan biridir. Asosiy yetakchi faoliyati ta’lim va mexnat hisoblangan bolalarda bilishga bo‘lgan qiziqishlarini ortirish uchun psixologiyada turli tadqiqotlarni ishlab chiqish va mavjudlarini modifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bola psixik taraqqiyotida bilish faolligini oshirish va takomillashtirish bugungi kun dolzarb masalalaridan biri sifatida qaraladi.

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi o‘smirlik yoshdagi bolalar o‘quv faoliyati va bilish faolligini rivojlanishi va uning nazariy asoslarini qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar.

O‘smirlik yoshdagi o‘quvchilarning atrof muxitga va o‘z-o‘ziga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi asosida bilish faolligini rivojlanishi masalasi xorijlik psixologlar, xususan, DJ.Piyaje, D.El’konin, S.Muxina D.Maers, V.Kvin, R.Beyron, D.Richardson, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan. Shuningdek, bilish faolligini rivojlantirish muammosi sobiq sovet psixologlaridan G.Andreeva, V.Ageev, A.Donsov, V.Trusov, T.Emel’yanova, L.Petrovskaya, S.Moscovitsi, I.Jaspars, kabi rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan.

Olimlar tomonidan to‘plangan ilmiy dalil va hulosalarning barchasi katta ahamiyatga ega Takidlash joizki, Markaziy Osiyolik olimlardan V.Polvonova, M.Beysenova, R.Samarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham bilish faolligini oshirish muammosi, undagi psixologik va ijtimoiy omillarning ta’lim va tarbiya jarayoniga qay darajada ta’sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan.. Ularning natijalari bugungi kunda bola aqliy rivojlanishi komponentlarini o‘rganishga xizmat qilmoqda. Shu bois ham, mavjud muammoni o‘rganish dolzarb. Bundan tashqari, o‘smirlik yosh davrlarda bola aqliy rivojlanishi jumladan, ta’lim tarbiya munosabatlarining xarakterini belgilovchi o‘zaro munosabatlarning u yoki bu jihatlari mamlakatimizdagi psixolog, sotsiolog, pedagog olimlarning ilmiy monografiyalari va

tadqiqotlarida o‘ziga xos tarzda talqin etilgan (E.G‘oziev, M.Davletshin, M.Voxidov, va boshqalar).

O‘smirlik yoshining tadqiqotlariiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo‘lamiz. O‘smirlik yoshiga xos yorqin Psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo‘lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o‘smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o‘zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan. L.S.Vigotskiy ta’lim va taraqqiyotning o‘zaro masalasini ko‘rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o‘qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma’lumotlarni vujudga keltiradi, oliy psixik funksiya takomillashtiriladi. Ta’lim psixikaning shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o‘zgaradi.

Olim shuni ko‘rsatib o‘tadiki, har qanday ta’lim ham effektiv bo‘lavermaydi. Qaysiki taraqqiyotdan ilgarilab va o‘zining orqasidan ergashtira olsagina, effektiv samara beradi. Rivojlanayotgan ta’lim nafaqat mustaqil faoliyat jarayonida, aktual rivojlanish sohasi, bolaning o‘zi kiradigan balki, u kattalar bilan hamkorlikni yaqin rivojlanish sohasini hisobga olgan L.S.Vыgotskiyning bu fikri hozirgi kundagi bolaning aqliy rivojlanishini mukammmallashtirishga intilayotgan o‘qituvchilar uchun katta ahamiyatga ega.

Bilish faolligini va bilish jarayonlarini tadqiq etish orqali yosh davrlarda bu jarayonni shakllanishi va taraqqiy etishini psixologik konuniyatlar asosida tushunish imkoniyatlari oshadi. Psixologik muhofaza omillarini qaror toptirish orqali shaxs faoliyati va faolligini oshirishga ko‘maklashuvchi psixologik konuniyatlar asosida asosiy yo‘nalishlarini va bugungi dolzarb vazifalarni aniqlashga imkon beradi. O‘smirlik yosh davri psixik xususiyatlarini rivojlantirishda va ularning bilish faolligini taraqqiyotidagi asosiy determinanti va tadqiqot usullarini qo‘llanish imkoniyati yaratiladi.

Bizning murakkab, shiddat bilan o‘zgaradigan davrda insonga katta bir kuch kerak. U yangi ijtimoiy-ijodiy sharoitlarda o‘zining o‘rnini topishi, ma’naviy boyliklar ko‘zga tashlanmayotgan bir paytda o‘zining unikal xayotining ma’nosini aniqlash, eski ideallar singan paytda depressiv tendensiyalar o‘z domiga tortib olishiga yo‘l qo‘ymay, o‘zida ishonch, intilish, xayot xursandchiliklarini saqlab qolishi zarur. Agar bunday ichki kuch yetishmasachi? U xolda apatiyaga, kasallikka chalinishi muqarrar.

O‘smirlar o‘z-o‘zini tarbiyalashga zarurat sezadilar buni ulardan onglilikning o‘sishi, kattalarga o‘xshashga intilishlari bilan tushintirish mumkin, endi ular ma’lum darajada o‘zini ishontirish, o‘ziga buyruq berish, o‘zini nazorat qilish kabi o‘z-o‘zini tarbiyalash vositalariga egadirlar. Ular ayniqsa, jismoniy va iroda siqatlarini o‘stirishga harakat qiladilar. O‘z holiga tashlab qo‘yilgan o‘smirlar juda sodda, bolalarcha qilinadigon ishlarga tayanib (masalan: o‘zining mardligini va chidamliligini sinash uchun yonib turgan gugurtni qo‘liga yaqin olib keladilar yoki o‘zlarini chiniqtirish uchun paltosiz qorning ustiga yotadilar)har doim ham o‘z-o‘zini tarbiyalashning to‘g‘ri yo‘lidan bormaydilar. O‘smirlikda bolalarda burch va javobgarlik tuyg‘ulari yetarli darajada o‘sgan bo‘ladi , bolalar o‘zlari ongli ravishda tanlagan ma’lum maqsadga erishish uchun ish-harakatlar qilishga qobil bo‘lib qoladilar.O‘smirda boshqa yosh davrlaridan farqli o‘laroq bilish jarayoni ham o‘zgarib boradi. Uning idroki voqelikdagi narsa va xodisalarning tashqi tomonlarinigina emas, ularning ancha murakkab tomonlarini idrok qiladi. U narsalarning mohiyatini bilishga, narsa va xodisalarni tahlil qilishga, ularni o‘zaro taqqoslashga harakat qiladilar. Muhim o‘xshash tomonlarini farqlarini aniq idrok qiladi va bu ularda yaxshi kuzatuvchanlik sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi.O‘smir xotirasi sezilarli darajada o‘zgaradi. Kichik maktab yoshidagi mexanik xotira o‘rnini mantiqiy xotira egallaydi. O‘qituvchi yosh davriga e’ibor bergan xolda o‘smirda she’r yoki tekstlarni muvaffaqiyatli esda qoldirish yo‘llarini izlab topish kerak, bir-biriga bog‘lab o‘rganish yo‘llarini o‘rgatish zarur.Ayrim katta kishilar o‘smirlar bilan, ularni kichkina bola deb, mensimay munosabatda bo‘ladilar. Ularga

iltifotsizlik qiladilar. Bu o‘smirlarga qattiq ta’sir qiladi. Bolaning katta bo‘lganligini anglash. Ular bilan jiddiy munosabatda bo‘lish va unga mas’uliyatli ishlarni topshirish quvonarli narsadir.O‘smir irodasini tarbiyalash uning o‘z-o‘zini tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Bunga ehtiyoj o‘smirlik yoshida paydo bo‘ladi. O‘smirlar o‘z oldiga ma’lum talablarni qo‘ymog‘i mumkin, ular o‘zlariga tanqidiy qarashga qobildirlar. O‘zlari ideal deb hisoblagan xislatlarni tarbiyalashga intiladilar. Biroq kishi o‘z-o‘zini tarbiyalashga keyinroq yetuklik yoshida chinaakm intiladi. O‘smirning o‘qish va boshqa xildagi faoliyati qat’iylik ko‘rsatmasdan amalga oshishi mumkin ham emas. Boshlagan ishni oxiriga yetkazishni bilish va uni talab qila borish qat’iylikni tarbiyalashga yordam beradi. Qat’iylik zo‘r berib fikrlashni, ichki intizomlikni talab qiladi. Xulosa qilib aytganda o‘smirlik davrining psixofiziologik rivojlanishi va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganar ekanmiz , bu davr o‘smir yoshida muxim davr xisoblanaishiga amin bo‘ldik.O‘smirlar o‘zlarini psixologik rivojlanish xususiyatlari asosida o‘quv faoliyati va o‘z qiziqishlari asosida faollikka kirishadilar.Ularning faollikka undovchi motivlari ko‘proq ijtimoiy psixologik omillar xisoblanadi.

Adabiyotlar

1. I.Karimov.“Barkamol avlod orzusi”. –T., 2000.
1. V.Karimova.Psixologiya Toshkent.2002y.
2. Давлетшин М.Г. Обшая психология Т., ТДПУ, 2002
3. Филатов Е.С. Искусство понимат себя и окружаюших. Воронеж.2000.
4. Р.Берон, Д.Ричардсон. Агрессия. Питер. 2002

ЎСМИРЛИККА ХОС ЎЗ-ЎЗИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Д.О.Жахонгирова
Д.Д.Дадабоева
АДУ.Амалий психология йўналиши
4-босқич талабалари.

Аннатация. Ушбу маколада усмирлик ёши ва унинг узини узи психологик химоя килиш усуллари ва унинг психологик механизмлари хакида тахлиллар баён этилган

Калит сузлар. Шахс, комил инсон, ақл-идрок, ўзини ўзи назорат килиш, ўсмир, индивидуал фарқ.

Шахснинг комил инсон бўлиб шаклланишида унинг ақл-идроки, онги-шуури, фахм-фаросати муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ҳислатнинг ёшларда шаклланиши, камол топишида инсон шахсидаги ўзини ўзи назорат килиш муҳим аҳамимятга эгадир. Ўсмирлик даврида организмнинг интенсив ривожланиши рўй беради, мия тузилишининг морфофункционал етилиши ва асосан ҳаракат тизимининг шаклланиши якунланади. Бу эса ўсмирлик давридаги ўзини –ўзи назорат қилишнинг ривожланишида ўзига хос йўналишга боғлиқлиги билан изоҳланади.

Маълумки, ўсмирлик давридаги ўқув фаолиятида бажарилаётган мувофиқлашган намунанинг мавжудлиги, ўзаро муносабат жараёнини амалга ошириш малакаси уларда ўзини-ўзи назорат қилишнинг асосий шарти сифатида катта аҳамиятга эгадир. Лекин, ўсмирлардаги ўзини-ўзи назорат қилишда маълум бир ўзгаришлар юзага келадики. Буни биз куйидаги ҳолатларда кўришимиз мумкин.

-биринчидан, ўсмирлар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишнинг ўқув фаолияти сифатини кўтарилишида катта рол ўйнаши;.

-иккинчидан ўсмир фаолиятида ҳаракатлар ва ўзини-ўзи назорат қилиш жараёнларининг уйғунлиги рўй беради ва улар ўқув фаолиятига унинг ажралмас қисми сифатида табиий равшда кириб боради.

Ўсмирлик даври охирида ўзини-ўзи назорат қилиш умумлашган ақлий фаолиятга айланади. Ўзини-ўзи назорат қилишга зарур бўлган фикрлаш жараёнлари қисқарган шаклда ифодалана бошлайди, бироқ уларнинг ўзини назорат қилиши англанган ва асосланган бўлиб, агар ўсмир ўқув фаолиятида маълум қийинчиликларга дуч келса у ҳолатда шу вазиятга боғлиқ равишда бажарилаётган вазифани тўғрилигига ишончсизлик ҳисси юзага келади. Ўзини-ўзи назорат қилишни амалга оширишни индивидуал ўзига хослиги муаммоси психологиянинг кам ўрганилган масалаларидан биридир. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг индивидуал фарқлари олий нерв фаолиятининг типологик ўзига хослиги билан боғлиқ бўлиб, у таълимда ўқув кўникмалари ва ўзини-ўзи назорат қилишни ижро этишини таъминлайди. Бу даврдаги ўзини-ўзи назорат қилишнинг етарли даражада ривожланмаганлиги ўсмирларнинг ёшга доир ўзига хослиги билан белгиланмайди, балки ижтимоий омилларнинг таъсири натижаси яъни ўқитувчилар ва мактаб томонидан ўқувчиларнинг ўзини-ўзи назорат қилишни амалга оширилишини тизимли ва узлуксиз талабчанликни йўқлиги билан тушунтириш мумкин.

Ҳар қандай фаолият сингари ақл-идрокли фаолиятларида кўпгина майл-истак, хоҳишлар ва мотивлар ётади. Шу мотивларнинг қайси бирини бошқа мативациядан устун туриши, бажарилаётган фаолиятнинг самарадорлиги белгиларини ва ушбу бажарилаётган фаолиятни муваффақиятли тугатишга олиб келиши мумкин. Шу ўринда ўсмирлик ёшига хос ўзини ўзи назорат қилишнинг психологик жихатларига эътибор бериш оқали унинг айрим хусусиятларини кўриб ўтамиз.Ўқувчилар ўз фаолиятининг маълум вақт оралиғидаги ва якуний натижаларини назорат қилиш билан бир қаторда дастлабки ўзини-ўзи назорат қилишга ҳам эътиборини қаратадилар. Натижада улар ўз фаолиятининг мақсадини аниқлашга ҳаракат қиладилар, ҳаракат режасини белгилайдилар, режалаштирилаётган ишларининг натижаларини коррекциясини амалга оширишга интиладилар. Собиқ совет психолог олими П.П.Блонский томонидан таълимнинг турли босқичларида ўзини-ўзи назорат қилишнинг ҳарактери сифатида тафаккурни кўрсатилиб ўтилган.олимнинг таъкидлашича тафаккур ривожланиши ўсмир ёшидаги ўзини –ўзи назорат қилиш билан боғлиқ ҳолда ўзгаришлар юзага келиши мумкин. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тафаккурини етарли даражада ривожланмаганлиги сабабли, уларнинг ўқув материалини ўзлаштириши асосан хотира ёрдамида амалга оширилади. Бунда тафаккурнинг назорат роли сезиларли кучайиб боради. Ўсмирларда ўзини-ўзи назорат қилишдан, амалий ўзини-ўзи назорат қилишни тўлиқ ижроси таъминланади. Бошқача айтганда аввалгиларни эсдан чиқармаслик, ёдда олиб қолиш, кейинроқ эса тўғри ёдда олиб қолиш билан боғлиқ хавотир юзага келади. Ўқитишнинг дастлабки босқичларида ўзини-ўзи назорат қилишнинг дастлабки ва намунавий турлари умуман кузатилмайди ёки расмий хусусиятга эга бўлади. Касбий таълимни бошланғич босқичида ўқувчиларнинг ўзини-ўзи назорат қилишнинг камлиги уларнинг предметнинг доимий ўзгаришларини тизимли кузатиш имконини берувчи ўзини-ўзи назорат қилишнинг ролини восита сифатида етарли тушунмасликларидан гувоҳлик беради.

1. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг самарадорлигини оширилишини Н.И.Кувшинов қуйидагиларда кўради:
2. мақсадларин максимал аниқ шакллантириш,
3. топшириқларни бажариш усуллари ва кетма-кетлиги,
4. ўқувчи томонидан ўзини-ўзи назорат қилиш асосида ҳаракатнинг назорат ўлчов кўникмалари ва ўзини ҳаракатларини бошқариш усулларини ишлаб чиқаришга йўналтирилган машқларнинг бажарилиши,
5. ўқувчиларнинг оддий машқлардан мураккаб комплекс топшириқларга муваффақиятли ўтишини белгилайдиган методик усулларни махсус ишлаб чиқиш кабилар.

Ўсмирларнинг ўз фаолиятига, теварак атрофга, ўзгаларга нисбатан мувофиқлиги таълим ва касбга йўллашнинг муҳим шарти бўлиб, улар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишнинг фаолиятдаги аҳамияти ва ўзини англаш, ўзларининг хатти-ҳаракатларини

назорат қилиш ва бошқаришга хизмат қиладиган стимулларни ўзлаштириш ҳисобланади. Шу орқали ўзини-ўзи назорат қилишнинг шаклланиш динамикаси шаклланади. Таълимнинг дастлабки босқичларида ўзини-ўзи назорат қилиш ўсмирлар учун иш натижаларини текширишга қаратилган мустақил фаолият сифатида кўрилади. Кейинчалик фаолиятнинг кетма-кет ривожланиши билан мураккаброқ кўринишдаги ўзини-ўзи назорат қилиш шаклланади, у фаолият жараёни билан уйғунлаша бошлайди ва иш ҳаракатларини бошқаришда эталон ролини бажарадиган мускул ҳаркат сезги образлари асосида амалга оширилади. Ўзини-ўзи назорат қилишни самарадорлиги ўсмирларнинг ўз фаолият натижаларини текширишда амал қилиш керак бўладиган ўзини-ўзи назорат қилиш усуллари ва стимулларини ўзлаштиришига боғлиқ бўлади.

Ўсмирларда фаолиятга нисбатан кўникмаларни шакллантириш учун тажрибага эга бўлган Л.Б.Ительсоннинг фикрига кўра таълим жараёнида ўқув машғулотлари мавзуларини ўзлаштириш даражаларини аниқлаш учун назорат қисмини ўсмир томонидан англанганлиги таъминлаш учун тушунарли масалалар бўлими ҳам бўлиши зарур. Ўсмирнинг фикрлаш имкониятларини ривожланиши ва такомиллашуви ўзининг хулқ-атворини янада кўпроқ ихтиёрий ташкил қилишда акс этади. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг дастлабки прогнозлаш имкониятига таянадиган ихтиёрийлик бу ёш даврида ўқув фаолиятининг асосий янгидан ташкил этишилиши билан изоҳланади. Ўсмирларда иродавий ҳаракатнинг англанганлик даражаси ортиб боради. Ўсмирлик даврида аҳлоқ соҳасида янги ўзига хосликлар ифодаланиши улар ижтимоий хулқ-атвор нормаларини эгаллашларини кўрсатади ва улар энди одамларнинг ўзаро муносабатлари билан боғлиқ масалаларга кўпроқ эътибор қила бошлайдилар; ўзларининг хулқ-атворини бошқаришда эса маълум даражада тасодифий таъсирларга чидамли мустақил ахлоқий қарашлар, мушохадалар ва баҳоларга амал қиладилар.

Умуман олганда бу даврда жавобгарлик хисси шахснинг ахлоқий сифати ва ўсмирнинг ўз хатти-ҳаракатларини назорат қилиш қобилияти сифатида кўрина бошлайди. Ўсмирларнинг ахлоқ нормаларига муносабати кичик мактаб ёши ўқувчилариникига нисбатан бошқача кўринишга эгадир. Ўсмирлар учун ахлоқ нормалари ҳар доим ҳам бузиб бўлмас эмас, улар томонидан ўзларининг обрўларини ва катталар билан ўзаро муносабатларда маълум ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун меъёрлар бузилади. Л.В.Доменская, ўсмирларда хулқ-атворни ўзини-ўзи назорат қилишнинг 3та даражасини кўрсатади: юқори, ўрта ва паст. Улар ўсмирлар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишни зарурлигини англанганлигининг чуқурлиги ва уни амалга ошириш усулларини эгалланганлик даражасига кўра фарқлайдилар. Ўсмирлардаги ўз хулқ-атворини назорат қилишга боғлиқ бўлган омиллардан ўқишда муваффақиятларга йўналтирилган мотивлар ҳисобланади; эмоционал муваффақиятни таъминлаш; жамоавий мотивлар, катталик ва мустаҳкамликка интилишни қондириш билан боғлиқ мотивлар . Олимнинг таъкидлашича, ўсмирларда хулқ-атвор назорати даражаси ўзаро назорат шароитида кўтарилишига эътибор қбариш керак, бунда ўсмирлар ўқитувчидан бошқа ўқувчиларнинг ўқув фаолияти ва хулқ-атвори устидан назорат учун рухсат оладилар. Кейинчалик шахсда ўзини-ўзи тарбиялаш муҳим аҳамият касб эта бошлайди, унда қўйилган мақсадларга эришишда ўзини-ўзи назорат қилишни ролини тушуниш ва шунингдек одамнинг ўзида ўзини-ўзи назорат қилишнинг зарур механизмларини шакллантиришга ҳохиши ва билими акс этади.

Ўзини-ўзи тарбиялаш деганда ҳозирги ва келажакда маҳсулдор фаолият учун зарур бўлган шахс ўзида янги сифатларни такомиллаштириши ёки шакллантириш мақсадида ўз устида онгли, тўлақонли, тизимли ишлаш тушунилади. Ўзини-ўзи тарбиялаш одам ўзидаги мавжуд сифатларини таҳлил қилиб ва баҳолай олса, уларнинг тўғрилигини жамоат томонидан ва ўзи банд бўлган ёки интилаётган фаолияти қўяётган талаблар асосида тўғрилигини текширсагина амалга ошади.

Демак, ўзини-ўзи тарбиялаш жараёнида зарур имкониятлардан бири ўзини-ўзи назорат қилишдир. Ўз шахсини ўзини-ўзи тарбиялаш воситасида шакллантириш ўсмирлик даврининг янги ва принципиал муҳим томони ҳисобланади.

Адабиётлар руйхати.

1.Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. 1999y.

2.Karimova V.M va boshqalar.«Mustaqil fikrlash» Toshkent.SHarq».2000 y

3.Karimova V.M, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o'quv qo'llanmasi byicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «SHarq» 2000

ЎСМИРЛИККА ХОС ЎЗ-ЎЗИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Д.О.Жахонгирова
Д.Д.Дадабоева
АДУ.Амалий психология йўналиши
4-босқич талабалари.

Аннатация. Ушбу маколада усмирлик ёши ва унинг узини узи психологик химоя килиш усуллари ва унинг психологик механизмлари хакида тахлиллар баён этилган

Калит сузлар. Шахс, комил инсон, ақл-идрок, ўзини ўзи назорат килиш, ўсмир, индивидуал фарқ.

Шахснинг комил инсон бўлиб шаклланишида унинг ақл-идроки, онги-шуури, фахм-фаросати муҳим аҳамиятга эга. Ушбу ҳислатнинг ёшларда шаклланиши, камол топишида инсон шахсидаги ўзини ўзи назорат килиш муҳим аҳамимятга эгадир. Ўсмирлик даврида организмнинг интенсив ривожланиши рўй беради, мия тузилишининг морфофункционал етилиши ва асосан ҳаракат тизимининг шаклланиши якунланади. Бу эса ўсмирлик давридаги ўзини –ўзи назорат қилишнинг ривожланишида ўзига хос йўналишга боғлиқлиги билан изоҳланади.

Маълумки, ўсмирлик давридаги ўқув фаолиятида бажарилаётган мувофиқлашган намунанинг мавжудлиги, ўзаро муносабат жараёнини амалга ошириш малакаси уларда ўзини-ўзи назорат қилишнинг асосий шарти сифатида катта аҳамиятга эгадир. Лекин, ўсмирлардаги ўзини-ўзи назорат қилишда маълум бир ўзгаришлар юзага келадики. Буни биз куйидаги ҳолатларда кўришимиз мумкин.

-биринчидан, ўсмирлар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишнинг ўқув фаолияти сифатини кўтарилишида катта рол ўйнаши;.

-иккинчидан ўсмир фаолиятида ҳаракатлар ва ўзини-ўзи назорат қилиш жараёнларининг уйғунлиги рўй беради ва улар ўқув фаолиятига унинг ажралмас қисми сифатида табиий равшда кириб боради.

Ўсмирлик даври охирида ўзини-ўзи назорат қилиш умумлашган ақлий фаолиятга айланади. Ўзини-ўзи назорат қилишга зарур бўлган фикрлаш жараёнлари қисқарган шаклда ифодалана бошлайди, бироқ уларнинг ўзини назорат қилиши англанган ва асосланган бўлиб, агар ўсмир ўқув фаолиятида маълум қийинчиликларга дуч келса у ҳолатда шу вазиятга боғлиқ равишда бажарилаётган вазифани тўғрилигига ишончсизлик ҳисси юзага келади. Ўзини-ўзи назорат қилишни амалга оширишни индивидуал ўзига хослиги муаммоси психологиянинг кам ўрганилган масалаларидан биридир. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг индивидуал фарқлари олий нерв фаолиятининг типологик ўзига хослиги билан боғлиқ бўлиб, у таълимда ўқув кўникмалари ва ўзини-ўзи назорат қилишни ижро этишини таъминлайди. Бу даврдаги ўзини-ўзи назорат қилишнинг етарли даражада ривожланмаганлиги ўсмирларнинг ёшга доир ўзига хослиги билан белгиланмайди, балки ижтимоий омилларнинг таъсири натижаси яъни ўқитувчилар ва мактаб томонидан

ўқувчиларнинг ўзини-ўзи назорат қилишни амалга оширилишини тизимли ва узлуксиз талабчанликни йўқлиги билан тушунтириш мумкин.

Ҳар қандай фаолият сингари ақл-идрокли фаолиятларида кўпгина майл-истак, хоҳишлар ва мотивлар ётади. Шу мотивларнинг қайси бирини бошқа мативациядан устун туриши, бажарилаётган фаолиятнинг самарадорлиги белгиларини ва ушбу бажарилаётган фаолиятни муваффақиятли тугатишга олиб келиши мумкин. Шу ўринда ўсмирлик ёшига хос ўзини ўзи назорат қилишнинг психологик жихатларига эътибор бериш оқали унинг айрим хусусиятларини кўриб ўтамиз.Ўқувчилар ўз фаолиятининг маълум вақт оралиғидаги ва якуний натижаларини назорат қилиш билан бир қаторда дастлабки ўзини-ўзи назорат қилишга ҳам эътиборини қаратадилар. Натижада улар ўз фаолиятининг мақсадини аниқлашга ҳаракат қиладилар, ҳаракат режасини белгилайдилар, режалаштирилаётган ишларининг натижаларини коррекциясини амалга оширишга интиладилар. Собиқ совет психолог олими П.П.Блонский томонидан таълимнинг турли босқичларида ўзини-ўзи назорат қилишнинг ҳарактери сифатида тафаккурни кўрсатилиб ўтилган.олимнинг таъкидлашича тафаккур ривожланиши ўсмир ёшидаги ўзини –ўзи назорат қилиш билан боғлиқ ҳолда ўзгаришлар юзага келиши мумкин. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг тафаккурини етарли даражада ривожланмаганлиги сабабли, уларнинг ўқув материалини ўзлаштириши асосан хотира ёрдамида амалга оширилади. Бунда тафаккурнинг назорат роли сезиларли кучайиб боради. Ўсмирларда ўзини-ўзи назорат қилишдан, амалий ўзини-ўзи назорат қилишни тўлиқ ижроси таъминланади. Бошқача айтганда аввалгиларни эсдан чиқармаслик, ёдда олиб қолиш, кейинроқ эса тўғри ёдда олиб қолиш билан боғлиқ хавотир юзага келади. Ўқитишнинг дастлабки босқичларида ўзини-ўзи назорат қилишнинг дастлабки ва намунавий турлари умуман кузатилмайди ёки расмий хусусиятга эга бўлади. Касбий таълимни бошланғич босқичида ўқувчиларнинг ўзини-ўзи назорат қилишнинг камлиги уларнинг предметнинг доимий ўзгаришларини тизимли кузатиш имконини берувчи ўзини-ўзи назорат қилишнинг ролини восита сифатида етарли тушунмасликларидан гувоҳлик беради.

1. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг самарадорлигини оширилишини Н.И.Кувшинов қуйидагиларда кўради:
2. мақсадларин максимал аниқ шакллантириш,
3. топшириқларни бажариш усуллари ва кетма-кетлиги,
4. ўқувчи томонидан ўзини-ўзи назорат қилиш асосида ҳаракатнинг назорат ўлчов кўникмалари ва ўзини ҳаракатларини бошқариш усулларини ишлаб чиқаришга йўналтирилган машқларнинг бажарилиши,
5. ўқувчиларнинг оддий машқлардан мураккаб комплекс топшириқларга муваффақиятли ўтишини белгилайдиган методик усулларни махсус ишлаб чиқиш кабилар.

Ўсмирларнинг ўз фаолиятига, теварак атрофга, ўзгаларга нисбатан мувофиқлиги таълим ва касбга йўллашнинг муҳим шарти бўлиб, улар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишнинг фаолиятдаги аҳамияти ва ўзини англаш, ўзларининг хатти-ҳаракатларини назорат қилиш ва бошқаришга хизмат қиладиган стимулларни ўзлаштириш ҳисобланади. Шу орқали ўзини-ўзи назорат қилишнинг шаклланиш динамикаси шаклланади. Таълимнинг дастлабки босқичларида ўзини-ўзи назорат қилиш ўсмирлар учун иш натижаларини текширишга қаратилган мустақил фаолият сифатида кўрилади. Кейинчалик фаолиятнинг кетма-кет ривожланиши билан мураккаброқ кўринишдаги ўзини-ўзи назорат қилиш шаклланади, у фаолият жараёни билан уйғунлаша бошлайди ва иш ҳаракатларини бошқаришда эталон ролини бажарадиган мускул ҳаркат сезги образлари асосида амалга оширилади. Ўзини-ўзи назорат қилишни самарадорлиги ўсмирларнинг ўз фаолият натижаларини текширишда амал қилиш керак бўладиган ўзини-ўзи назорат қилиш усуллари ва стимулларини ўзлаштиришига боғлиқ бўлади.

Ўсмирларда фаолиятга нисбатан кўникмаларни шакллантириш учун тажрибага эга бўлган Л.Б.Ительсоннинг фикрига кўра таълим жараёнида ўқув машғулотлари мавзуларини

ўзлаштириш даражаларини аниқлаш учун назорат қисмини ўсмир томонидан англанганлиги таъминлаш учун тушунарли масалалар бўлими ҳам бўлиши зарур. Ўсмирнинг фикрлаш имкониятларини ривожланиши ва такомиллашуви ўзининг хулқ-атворини янада кўпроқ ихтиёрий ташкил қилишда акс этади. Ўзини-ўзи назорат қилишнинг дастлабки прогнозлаш имкониятига таянадиган ихтиёрийлик бу ёш даврида ўқув фаолиятининг асосий янгидан ташкил этишилиши билан изоҳланади. Ўсмирларда иродавий ҳаракатнинг англанганлик даражаси ортиб боради. Ўсмирлик даврида аҳлоқ соҳасида янги ўзига хосликлар ифодаланиши улар ижтимоий хулқ-атвор нормаларини эгаллашларини кўрсатади ва улар энди одамларнинг ўзаро муносабатлари билан боғлиқ масалаларга кўпроқ эътибор қила бошлайдилар; ўзларининг хулқ-атворини бошқаришда эса маълум даражада тасодифий таъсирларга чидамли мустақил ахлоқий қарашлар, мушохадалар ва баҳоларга амал қиладилар.

Умуман олганда бу даврда жавобгарлик хисси шахснинг ахлоқий сифати ва ўсмирнинг ўз хатти-ҳаракатларини назорат қилиш қобилияти сифатида кўрина бошлайди. Ўсмирларнинг ахлоқ нормаларига муносабати кичик мактаб ёши ўқувчилариникига нисбатан бошқача кўринишга эгадир. Ўсмирлар учун ахлоқ нормалари ҳар доим ҳам бузиб бўлмас эмас, улар томонидан ўзларининг обрўларини ва катталар билан ўзаро муносабатларда маълум ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун меъёрлар бузилади. Л.В.Доменская, ўсмирларда хулқ-атворни ўзини-ўзи назорат қилишнинг 3та даражасини кўрсатади: юқори, ўрта ва паст. Улар ўсмирлар томонидан ўзини-ўзи назорат қилишни зарурлигини англанганлигининг чуқурлиги ва уни амалга ошириш усулларини эгалланганлик даражасига кўра фарқлайдилар. Ўсмирлардаги ўз хулқ-атворини назорат қилишга боғлиқ бўлган омиллардан ўқишда муваффақиятларга йўналтирилган мотивлар ҳисобланади; эмоционал муваффақиятни таъминлаш; жамоавий мотивлар, катталик ва мустаҳкамликка интилишни қондириш билан боғлиқ мотивлар . Олимнинг таъкидлашича, ўсмирларда хулқ-атвор назорати даражаси ўзаро назорат шароитида кўтарилишига эътибор қбариш керак, бунда ўсмирлар ўқитувчидан бошқа ўқувчиларнинг ўқув фаолияти ва хулқ-атвори устидан назорат учун рухсат оладилар. Кейинчалик шахсда ўзини-ўзи тарбиялаш муҳим аҳамият касб эта бошлайди, унда қўйилган мақсадларга эришишда ўзини-ўзи назорат қилишни ролини тушуниш ва шунингдек одамнинг ўзида ўзини-ўзи назорат қилишнинг зарур механизмларини шакллантиришга ҳохиши ва билими акс этади.

Ўзини-ўзи тарбиялаш деганда ҳозирги ва келажакда маҳсулдор фаолият учун зарур бўлган шахс ўзида янги сифатларни такомиллаштириши ёки шакллантириш мақсадида ўз устида онгли, тўлақонли, тизимли ишлаш тушунилади. Ўзини-ўзи тарбиялаш одам ўзидаги мавжуд сифатларини таҳлил қилиб ва баҳолай олса, уларнинг тўғрилигини жамоат томонидан ва ўзи банд бўлган ёки интилаётган фаолияти қўяётган талаблар асосида тўғрилигини текширсагина амалга ошади.

Демак, ўзини-ўзи тарбиялаш жараёнида зарур имкониятлардан бири ўзини-ўзи назорат қилишдир. Ўз шахсини ўзини-ўзи тарбиялаш воситасида шакллантириш ўсмирлик даврининг янги ва принципиал муҳим томони ҳисобланади.

Адабиётлар руйхати.

1. Karimova V.M «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» Toshkent. 1999y.
2. Karimova V.M va boshqalar.«Mustaqil fikrlash» Toshkent.SHarq».2000 y
3. Karimova V.M, R.Sunnatova. «Mustaqil fikrlash» o’quv qo’llanmasi byicha mashg’ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. Toshkent «SHarq» 2000.

O’SMIRLARDA O’Z-O’ZINI PSIXOLOGIK MUHOFAZA QILISH HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.

Isroilov Azizbek Shuxratjon o'g'li.
Jamolova Maysara O'rmonbekovna.

ADU.
Tarix va ijtimoiy fanlar fakul'teti
Amaliy psixologiya yo'nalishi
4-bosqich talabalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarda o'z-o'zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni shakllantirish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Inson, o'z-o'zini muxofaza qilish, ong, idrok, anglash, ijtimoiy xayot tamoyil.

Insonning o'z-o'zini psixologik muhofaza qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning xar jixatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'z-o'zini rivojlantira borishi ko'p jixatdan ushbu jarayonga bog'liqdir. Ma'lumki, inson ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglash xususiyati hisoblanadi. Uning o'zini anglashi o'z navbatida o'ziga xos tavsiflanadiki, bevosita shaxsning muhim belgisi sifatida talqin etiladi. Insonlar o'z navbatida o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'ekt hamdir. Idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uchung uchun inson ob'ekt vazifasi bajaradi. Ana shu nuqtai-nazardan olganda, insonning o'zini anglashi sub'ektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida shakllanadi va ifodalanadi. Shuning uchun ham inson ijtimoiy zot nuqtai nazardan, unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan har turli munosabatlarda insonning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etib boradi. Ho'sh o'zini anglash negizida nimalarni tushunish mumkin? Avvalo;

- o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi;
- o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi;
- o'z xuquq va burchini anglashi; va nihoyat
- o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi;
- o'zini anglashiga kiradi.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch bu ijtimoiy omillardir ya'ni, jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishlarir. Bundan tashqari yana inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarning tarbiya vositasi orqali kelajak avlodlarga koldirishi va uzatishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan

-birinchisi inson tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa,

-ikkinchisi insonga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat,

-uchinchisi insonga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir.

Aloxida ta'kidlash joizki, shaxslar o'zlarining ma'lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchililiklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o'z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so'z bilan aytganda o'zlari haqida yanada teran, ijobiy va o'ziga xos ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O'smirlik davri esa xuddi shunday "imkoniyatlar" ko'lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko'tarilmoqda. Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan.

Tarix va ijtimoiy xayot tamoyillari shuni ko'rsatmokdaki, jamiyatning xar tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi xayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo xar bir

faoliyat ko’rsatuvchi shaxsdagi uziga xos psixologik saloxiyatning ne chog’lik to’la-to’kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, xar bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma’naviy taraqqiyot yo’liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Shu boisdan bo’lsa kerak, xozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo’lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda uz fuqarolarining ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruxiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo’llarini izlashga jiddiy e’tiborni karatmokdalar. Shu nuqtai nazardan, xar bir mamlakatda inson va uning faoliyati o’rtasidagi uyg’unlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik muhofaza tizimining joriy etilishi aloxida axamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek “Tafakkur” jurnalining muxbiri bilan suhbat chog’ida, jumladan, shunday deydi: “Har qanday odam ham o’smirlik chog’ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatda munosib o’rnini topish kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlarga, ba’zan esa og’ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo’ladi. Yosh yigit-qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o’z o’rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o’z qadrini yo’qotishga olib keladi. O’z qadriga, o’z sha’niga ega bo’lmagan inson hayotda ko’p-ko’p to’siqlarga duchor bo’ladi, beqaror va salbiy ta’sirlarga beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi.” [5] Tabiiyki aytilgan mazkur fikrlar eng avvalo o’smirlar tarbiyasi uchun mas’ul bo’lgan pedagoglar, ayniqsa psixologlar oldiga juda katta ijtimoiy vazifalarni qo’yadi. Chunki bugungi kunda har bir o’smirni tarbiyalashdan oldin uni shaxs sifatida qabul qilish tushunish, undagi ijtimoiy psixologik imkoniyatlar ko’lamiga jiddiy e’tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o’smirlik davri o’zining o’ta murakkabligi psixologlar tili bilan aytganda, shaxs taraqqiyoti uchun “o’tish” yoki “tub burilish” davri ekanligi bilan unga nisbatan jiddiy yondashuv muqarrarligini taqozo etadi.

Qator psixologik tadqiqot natijalari shuni ko’rsatmoqdaki bugungi kunda talaygina o’smirlar o’quv faoliyatida juda ko’plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarni kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta’kidlaydilar.

Bularning barchasi, bizningcha bugungi kunda har bir o’smir uchun xarakterli bo’lgan o’z-o’zini psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlar ko’lamini o’rganishni va shu “ko’lam” asosida tegishli individual tarbiyaviy ishlar olib borish tizimini yaratish muqarrarligini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar.

1.Abduvalali R. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. -Toshkent: Universitet, 2020. 280 b.

2. Qodirova N., Raximova Sh. Osmir psixologiyasi: munosabatlar va munosabatlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. -210 b.

3. Bolalikdan o'smirlikkacha psixologiya (to'plam). Toshkent: Fan, 2018. 320 b.

4. Выготский Л.С. Проблемы возраста развития**.** – Москва: Смысл, 2001. – **352 с.**

5. Захаров А.И. Как предотвращать отклонения в поведении детей и подростков**.** – Санкт-Петербург: Речь, 2005. – 270 с.

O’SMIRLIK DAVRIDA KASBGA YO’NALTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Z.M.Nurillayeva.
ADU Amaliy psixologiya yo’nalishi
4-bosqich talabasi

[5] I.A.Karimov “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin” “Tafakkur” jurnali, 1998 yil 2-son.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbga yo'naltirishning psixologik jihatlari va uning yoshga asoslangan yondashuvi tasvirlangan. Kasbiy yo'naltirishga yoshga asoslangan yondashuv, birinchi navbatda, oilaviy muhitdagi munosabatlarning motivlaridan boshlanadi...
Kalit so'zlar: kasb, professional xarakter, ijtimoiy motivlar, oilaviy tarbiya. Talaba, bilim, qiziqish, motiv.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ..

Аннотация: В статье описаны психологические аспекты профориентации и ее возрастной подход. Возрастной подход к профориентации начинается, прежде всего, с мотивов отношения в семейном окружении ...
Ключевые слова: профессия, профессиональный характер, социальные мотивы, семейное воспитание. Студент, знания, любопытство, мотив.

MODERN APPROACHES TO CAREER GUIDANCE IN ADOLESCENCE.

Resume: The article describes the psychological aspects of vocational guidance and its age-related approach. The age-related approach to career guidance begins, first of all, with the motives of the relationship in the family environment ...
Key words: profession, professional character, social motives, family education. Student, knowledge, curiosity, motive.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim - jamiyatning ustivor sohasi ekanligi jamiyatimizdagi so‘ngi yillardagi ijobiy o‘zgarishlar bunga misol bo‘la oladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiya olayotgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarni bilim olishlari, mehnat ta’limi, boshlang‘ich kasb ko‘nikmalari egallashlari, qobiliyatlarini va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishni amalga oshirmoqdalar Mustaqillik yillari davomida O‘zbekistonda bolalarning manfaatlarini himoya qilish, ularni kamol toptirish sohasida erishilgan natijalar xalqaro uchrashuvlarda belgilangan harakatlar dasturi va tavsiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Aksariyat kompleks tadbirlar, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va sog‘lom avlodni shakllantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari buning misolidir.Davlat va jamiyat xar bir oila farzandlariga alohida g‘amkorlik qiladi. Ularning ma’naviy-ahloqiy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish xukumatimizning olib borayotgan siyosatini e’tirof etish maksadga muvofiqdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash bilan birga ularning kasbiy layoqatlarini rivojlantirish va kasbga yo‘llash io‘larini takomillashdir. Albatta, barkamol inson deganda, ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z xisasini qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan kadrlar nazarda tutiladi. Ushbu tushunchaga taxliliy yondashilsa, uning naqadar serqirra, murakkab va xar tomonlama umuminsoniy qadiryatlarga mos kelishini idrok etish mumkin.

“Kishilik tarixi paydo bo‘lganidan buyon, ming yillar davomida har qanday mamlakatning, xar qanday millatning, ota-ona bo‘lish nasib etgan har qanday insonning eng mo‘tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga yetkazishdan iborat bo‘lib kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shubhasiz,har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, ta’lim-tarbiyaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va

mehr-oqibat, or-nomus va andisha tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Albatta bolani mexnatga o‘rgatish, uning ongida dastlabki kasbga xos tasavvurlarni shakllantirish ham oiladan boshlanadi. Demak kasbga yo‘naltirish ishlaridagi yoshga xos yondashuv avvalo oila muxitidagi munosabat motivlari asosida boshlanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi..

Bugungi kunda “Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish davlatimizning diqqat markazida bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda; ularni baxtli barkamol avlod qilib tarbyalash; o‘z iste’dodlarini to‘la nomoyn etish uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan va yartilmoqda. Nazariy va amaliy, ilmiy, zamonaviy bilimlarni egallagan yoshlarni xayotda o‘z o‘rnini topishga yordam berish-muhim masalalardan biridir. Bu esa o‘z navbatida kasb tanlash ishlarini tubdan yaxshilashni yoshlarni kasbga yo‘llash, kasblar haqida aniq va yetarli ma’lumotlar berish ishiga alohida etibor berishni taqozo etadi. Chunki xar bir inson o‘zi sevgan faoliyat bilan shug‘illansa, unda natija samarali bo‘ladi; tashabbus ko‘rsatadi, yangi g‘oya fikrlarni o‘rtaga tashlaydi, samaradorlikni oshishiga xizmat qiluvchi usul va yo‘llarni topadi.

Xar bir yoshning o‘ziga xos rivojlanish bosqichlari bo‘lganidek, kasbiy bilimlar, dastlabki kasbga xos ma’lumotlarni anglash, va kabul qilish ham yoshga xos tarzda shakllanadi. Endigina o‘sib kelayotgan o‘smirlik yoshidagi o‘quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko‘pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan va turmush tajribasidan ma’lumki, odatda o‘smirlik yoshidagi o‘g‘il-qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to‘g‘risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli kasb tanlash davrida oqilona va to‘g‘ri yo‘l tutishni bilmay mustakil kasb tanlashga qiynaladilar yoki tavakkaliga ish ko‘radilar.O‘zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo‘ladilar. Natijada noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. O‘smirlarning ba’zilari kasb tanlashda yaqqol ko‘zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar. Bunda o‘z atroflaridagi yaqin kishilarni nazarda tutadilar, ularning yo‘lidan borishni mo‘ljallaydilar.

Dunyoga umid bilan qadam qo‘yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o‘rnini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo‘lib yashaydi. Komillik sari intilish shaxsning kasbiy shakillanishi bilan birgalikda yaxlit xolda kechadigan va deyarli bir umr davom etadigan murakkab jarayondir. Keng ma’noda kasbiy shakllanish deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatlari, jismoniy imkoniyatlari, u yoki bu soxaga bo‘lgan layoqatlari, qiziqish va intilishlari, shuningdek qadiryat va dunyoqarashlariga ko‘ra. biror- bir kasb soxasiga kirishib, moslasha borishi va nixoyat yillar davomida yetuk va malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi tushiniladi.

Kasb tanlash jiddiy va ma’sulyatli ishdir. O‘z hayot yo‘lini jiddiy tarzda belgilab olish uchun har bir inson o‘z hayotida hurmat va shuhrat qozonishga, atrofidagilarning e’tibori va e’tirofida bo‘lishga, ularning qo‘llab-quvvatlashiga, barchaning sevgisiga, muhabbatiga erishishga, shu bilan birga, mustaqil hayot kechirishga intilib yashashi zarur. Sanab o‘tilganlarning barchasiga birvarakayiga erishishning yo‘li bor, u ham bo‘lsa shaxs o‘z qiziqishi va qobilyatiga mos bo‘lgan “qadrdon” kasbni tanlashdir.[6]

Bilamizki, hayotda yaxshi narsalarga ega bo‘lmoqchi bo‘lsak, shunga mos bo‘lgan to‘lovni to‘lashimiz talab etiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan darajadagi hayot tarziga ega bo‘lishni xoxlagan inson, yaxshi kasbni egasi bo‘lishi, bu esa yaxshigina “to‘lovga” qodir bo‘lishini talab etadi. Bu yerda “to‘lov” tushinchasi ostida: bilimga chanqoqlik, kizikish, kasbiy layoqatni takomillashtirish, ma’suliyatni his qilish, intizomlilik, qat’iylik, mehnatsevarlik va tirishqoqlik kabi fazilatlari nazarda tutiladi. Bu so‘zlar ko‘pchilikka tanish va ancha siyqasi chiqqandek tuyulishi mumkin, lekin farovon hayotga erishishning boshqacha yo‘li mavjud emas!. Agar bu tushunchalarning asl ma’nosini tushunib yetsak, demak har bir inson uchun farovon hayot kechirish imkoniyatiga ega ekanligi to‘g‘risidagi xulosa kelib chiqadi. Shunday ekan, xar bir davrda o‘ziga xos kasbiy bilim va tushunchalarni egallab borish va unga munosabatlarini qiyosiy psixologik taxlil asosida yondashish maksadga muvofiqdir.

---

[6]Анвар Жалолов: “Касб қандай танланади?”, Тошкент-2010 й. 54-60 б.

Xar bir davrning rivojlanish, krizis, va ob'ektiv olamga nisbatan munosabat motivlari turlicha shakllanadi. Shu nuktai nazardan xar bir inson o'zlarining farovon hayotini ko'rishi uchun aqllarini tanib boshlagan kundan harakat qila borishlari kerak.

Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o'rnini topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlarga, ba'zan esa og'ir fojealarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'ladi. Yosh yigit qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o'z o'rnini topa olmaslik holatlari ularning jamiyatda o'z qadrini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lmagan inson hayotda to'siqlarga duchor bo'ladi, beqaror va salbiy ta'sirlarga tez beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi. Aytish mumkinki, barkamol insonnig shakllanishi, uning munosib-kasb korini egallashi, jamiyat taraqqiyoti uchun baxoli qudrat o'z xissasini qo'shib yashashi va shu orqali jamiyatda o'zligini namoyon etishi, ya'ni shaxs sifatida kamol topishi nazarda tutiladi.

O'smirning psixik rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, o'quv jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatdan iboratdir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o'smirning axloqiy, aqliy, nafosat jihatdan tez o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Shu bilan birga, fikrimizga yuqorida bayon etilgan ishlar samarasini yanada oshirish uchun yoshlarni kasbga yo'naltirish sohasida yana bir qator ishlar qilinishi zarur deb hisoblaymiz. Ya'ni, bugungi kunda mamlakatimizda aynan o'quvchilar uchun mo'lljalangan kasb tanlash bo'yicha yaxlit bilim beradigan ommabop adabiyotlarning ko'proq yaratilishi muhim deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov: "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", -T; "Ma'naviyat" 2008 y, 11-,13,-53 –b.

2. G'oziev E. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent, Universitet, 1997.

3. Majidov N.M, Norov Sh, "Kasb tanlash; muammo va yechim.Yosh olimlar ilmiy amaliy konferenstiyasi materiallari". Toshkent 2011-yil

4. Anvar Jalolov: "Kasb qanday tanlanadi?", Toshkent-2010 y. 54-60 b.

5. Kosheleva Yu.P. Samopred'yavlenie odinokix lyudey v tekste gazetnix ob'yavleniy. // Voprosy psixologii 2006. № 2. st.106-116.

http://vvv.Goov.uz, vvv.lolakarimova.com.

YOSHGA MOS MOSLASHUVNING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

O'ktambekov Islombek Abduxalil o'g'li
OXU magistri.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh davrlariga muvofiq moslashuv jarayonlarining psixologik mexanizmlari keng qamrovda tahlil qilinadi. Moslashuvning biologik, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar bilan bog'liq tarkibiy tuzilmalari o'rganiladi. Shuningdek, rivojlanish psixologiyasi, neyropsixologiya va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazarlaridan moslashuvning yoshga xos dinamikasi ochib beriladi. Tadqiqot shaxsning turli yosh bosqichlarida duch keladigan krizislar va ularni yengib o'tish mexanizmlarini yoritadi

Kalit so'zlar: yosh, moslashuv, psixologik mexanizmlar, shaxs, kognitsiya, emotsional regulyatsiya, ijtimoiy psixologiya, krizis

Inson taraqqiyoti davomida moslashuv — shaxsning o'z muhitidagi biologik, ijtimoiy va psixologik talablarni adekvat tarzda qabul qilish, tahlil qilish va javob qaytarish qobiliyatidir. Moslashuv jarayonining muvaffaqiyati asosan yoshga xos rivojlanish xususiyatlari, neyrofiziologik o'zgarishlar va ijtimoiy tajriba bilan belgilanadi.

Yoshga mos moslashuv murakkab, ko‘p komponentli psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning umumiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moslashuv kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlarning uzviy integratsiyasi orqali amalga oshadi. Har bir yosh bosqichida moslashuvning o‘ziga xos vazifalari, qiyinchiliklari va mexanizmlari mavjud. Ushbu holatlar psixolog, pedagog va ota-onalarga bolaning psixologik rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi Rivojlanish psixologiyasi vakillari J. Piajé, E. Erikson, L.S. Vigotskiylar ta’kidlaganidek, insonning har bir yosh bosqichi o‘ziga xos rivojlanish vazifalari va mos ravishda yechilishi lozim bo‘lgan psixologik inqirozlarga egadir. Moslashuv darajasi esa ushbu vazifalar qanchalik muvaffaqiyatli bajarilishiga bog‘liq.bo’ladi. Moslashuv (adaptatsiya) tushunchasi biologiya, psixologiya va sotsiologiya fanlarida turlicha talqin qilinadi. Psixologiya fanida moslashuv ko‘proq shaxsning o‘z psixik faoliyatini muhit talablariga mos ravishda qayta tashkil etish **jarayoni** sifatida izohlanadi.

Biopsixologik yondashuv

Biologik moslashuv psixologik moslashuvning fiziologik poydevorini belgilaydi. Ayniqsa, erta bolalikda neyron tizimlarning plastiklik darajasi yuqori bo‘lgani sababli tashqi muhit bilan uyg‘unlashuv jarayoni tez kechadi. Neyrofiziologlar fikriga ko‘ra, miyadagi “ijro funksiyalari” (executive functions) moslashuvning markaziy mexanizmlaridan biridir.

Kognitiv yondashuvda Piajé nazariyasiga ko‘ra, moslashuv assimilyatsiya va akomodatsiya jarayonlaridan iborat. Bola yangi axborotni mavjud sxemalariga moslashtiradi yoki sxemalarni yangilaydi. Bu jarayon yosh oshgan sari murakkablashadi.

Sotsiopsixologik yondashuv

Insonning moslashuvi ijtimoiy rollarni egallashi, jamoadagi o‘rnini topishi va kommunikativ kompetensiyalarining rivoji bilan uzviy bog‘liq. Moslashuvning eng kuchli ijtimoiy shakli — ijtimoiy identifikatsiya bo‘lib, unda shaxs muayyan guruh bilan o‘zini bog‘laydi. Har bir yoshning moslashuv jarayoni murakkab psixologik tizimlar majmuasi orqali kechadi. Quyida ularning asosiylari tahlil qilinadi Kognitiv mexanizmlar quyidagilardan iborat:

1. Idrok va e’tiborni moslashtirish ya’ni, ilk bolalik davrida idrokning rivoji moslashuv rivoji bilan bevosita bog‘liq. Muhitga moslashish uchun bola sensor ma’lumotlarni to‘g‘ri ajratish va interpretatsiya qilishni o‘rganadi.
2. Tafakkurning moslashuvi yani: maktab yoshiga kelib mantiqiy operatsiyalar, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammolarni hal qilish ko‘nikmasi shakllanadi. Bu jarayon o‘qish faoliyatiga moslashuvda hal qiluvchi rol o‘ynaydi
3. Metakognitiv nazorat yani, o‘smirlikda o‘z fikrlash jarayonini boshqarish (metakognitsiya) kuchayadi. Bu esa qaror qabul qilish, xulqni muvofiqlashtirish va ijtimoiy moslashuvda muhim omil hisoblanadi

Emotsional-regulyativ mexanizmlar

1.Emotsional nazoratning shakllanishi: Emotsional o‘zini boshqarish qobiliyati yoshga qarab rivojlanadi. Kichik yoshdagi bolalar ko‘proq tashqi boshqaruvga muhtoj bo‘lsa, o‘smirlar va kattalar ichki regulyativ mexanizmlarni rivojlantiradilar

2.Stressga chidamlilik- O‘smirlik davrida stress omillari intensivlashadi. Ushbu davrda psixologik barqarorlik va frustratsiyaga chidamlilik moslashuvning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

3.Empatiya va ijtimoiy his-tuyg‘ular- Empatiya ijtimoiy moslashuvning asosiy mexanizmidir. Yetuklik davrida empatik ko‘nikmalar kasbiy hamkorlik, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy o‘zaro aloqalarda muhim o‘rin tutad

Ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Identifikatsiya- Bola ota-onalar bilan, o‘smir tengdoshlar bilan, katta yoshdagilar esa professional jamoalar bilan identifikatsiyalanadi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi.

Ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish-Har bir yosh bosqichi o‘ziga xos rollar bilan bog‘liq: o‘quvchi, do‘st, hamkor, ota-ona, malakali mutaxassis va boshqalar. Ushbu rollarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish moslashuvning yuqori darajasini ko‘rsatadi.

Kommunikativ kompetensiyalar-Til, muloqot strategiyalari, ijtimoiy signallarni tushunish moslashuvning asosiy ijtimoiy mexanizmidir. Yetuklik davrida bu kompetensiyalar kasbiy va shaxslararo muvaffaqiyatni ta’minlaydi.

Demak,yoshga mos moslashuv — shaxs taraqqiyotining markaziy mexanizmi bo‘lib, u kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillar integratsiyasi orqali amalga oshadi. Har bir yosh bosqichida moslashuvning o‘ziga xos inqirozlari mavjud bo‘lsa-da, to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash va psixologik yordam orqali bu jarayon samarali kechadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, moslashuvning poydevori erta bolalikda shakllanib, keyingi bosqichlarda murakkablashib boradi.

Adabiyotlar ro’yxati

1.Karimova V.M.–“Ijtimoiy psixologiya**”** Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. **320** b.

2.G‘oziev E. – “Umumiy psixologiya**”** Toshkent: “Universitet”, 2010. – 480 b.

3.Rasulova N.K. – “Yosh va pedagogik psixologiya**”** Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 350 b

4.Nishonova Z., Abdurahmonova K. – “Ontogenez psixologiyasi” Toshkent: “Zamin nashr”, 2018. – 280 b.

5.Эльконин Д.Б. – “Психология развития” Москва: Академия, 2001. – 336 с

5. Berry J. et al. – “Cross-Cultural Psychology: Research and Applications**”** Cambridge University Press, 2015. – 620 p.

IJTIMOIY MOSLASHUVNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

O'ktambekov Islombek Abduxalil O'g'li
Osiyo Xalqaro Universiteti Magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy moslashuv jarayonining psixologik mazmuni, uning tarkibiy komponentlari, mexanizmlari va yosh davrlaridagi namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, shaxsning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuviga ta’sir etuvchi psixologik omillar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy moslashuv, adaptatsiya, psixologik moslashuv, shaxs, ijtimoiy muhit, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

Zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, globallashuv jarayonlari, madaniy xilma-xillikning ortishi va texnologik jarayonlarning jadallashuvi insonning ijtimoiy muhitga moslashuvini yanada murakkablashtirmoqda. Shu sababli shaxsning turli ijtimoiy sharoitlarga moslasha olishi, stressni boshqarishi, o‘z xatti-harakatlarini yangi vaziyatga mos ravishda qayta tashkil eta olishi psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy moslashuv har qanday yosh davrida shaxs taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, u shaxsning jamiyatda faol ishtirok etishi, ijtimoiy rollarni bajara olishi, barqaror psixik holatni saqlashi hamda o‘zining ichki salohiyatini namoyon etishiga xizmat qiladi. Psixolog olimlar — L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, E. Erikson, U. Bronfenbrenner, A. Bodalev va boshqalar — moslashuv jarayonini insonning ijtimoiy rivojlanishidagi asosiy mexanizmlardan biri sifatida izohlaydi.

Ijtimoiy moslashuv tushunchasining psixologik mazmuni

Psixologik nuqtai nazardan, moslashuv — bu shaxsning:

1. Ijtimoiy normalarni qabul qilishi;
2. Yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi;
3. Muloqot jarayonida mos strategiyalarni qo‘llashi;
4. Ichki psixologik muvozanatni saqlashi jarayonidir.

L.S. Vygotskiy, D.B. Elkonin, E. Erikson, U. Bronfenbrenner kabi olimlar moslashuvni insonning ijtimoiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan rivojlanish mexanizmi sifatida talqin etganlar. Ularning fikricha, ijtimoiy moslashuv shaxsning psixik rivojlanishida muhim determinant bo‘lib xizmat qiladi

Ijtimoiy moslashuv murakkab psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Asosiy mexanizmlar quyidagilardan iborat:

1. Kognitiv (idrok va tafakkur) mexanizmlar**:** Yangi ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish;Stereotiplar, tasavvurlar va ijtimoiy normalarni anglash; Muammolarni hal qilish strategiyalarini shakllantirish.

2. Emotsional mexanizmlar**:**Stressga bardoshlilik;Emotsional barqarorlik; Ijobiy hissiy munosabat shakllantirish.

3. Motivatsion mexanizmlar**:** Ijtimoiy faollik motivlari; O‘zini o‘zi tasdiqlash; Muvaffaqiyatga erishish istagi.

4. Kompensator mexanizmlar**:** Shaxsdagi psixologik noqulayliklarni kamaytiruvchi himoya mexanizmlari: Ratsionalizatsiya, inkor, sublimatsiya; Muloqotda o‘zini himoya qilish strategiyalari.

5**.** Kommunikativ mexanizmlar: Muloqot ko‘nikmalari; Konfliktlarni boshqarish; Empatiya va ijtimoiy sezgirlik.

Ijtimoiy moslashuvga ta’sir etuvchi psixologik omillar quyidagilardan iborat: Shaxsning ijobiy o‘zini baholashi: Kommunikativ kompetensiya: Emotsional intellektL Stressga chidamlilik: Moslashuvchan fikrlash va fleksibil tafakkurL Oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Mazkur omillar moslashuv jarayonini kuchaytirishi xami, va aksincha, uni qiyinlashtirishi mumkin

Ijtimoiy moslashuv shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va uyg‘unlikning shakllanishi bo‘lib, unda psixik jarayonlar, muloqot ko‘nikmalari, his-tuyg‘ular, motivlar, qadriyatlar va xulq-atvor me’yorlari faol qatnashadi. Mazkur maqolada ijtimoiy moslashuvning psixologik xususiyatlari, yoshga oid farqlari, uning mexanizmlari va muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillar ilmiy tahlil qilinadi.

Ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) shaxsning ijtimoiy muhit talablari va normalariga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, yangi sharoitga psixologik jihatdan moslashishi jarayonidir. Psixologiyada moslashuv murakkab, ko‘p omilli tizim bo‘lib, unda shaxsning ichki ehtiyojlari, motivlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimi namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy moslashuvning samaradorligi shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Ijtimoiy moslashuv — shaxsning jamiyat talablariga mos ravishda o‘zini tutishi, ijtimoiy rollarni egallashi va ruhiy barqarorligini saqlashi jarayonidir. Uning psixologik xususiyatlari shaxsning motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, kognitiv jarayonlari va kommunikativ ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liq. Moslashuv muvaffaqiyati shaxsning ijtimoiy muhitga qo‘shilishi, o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy faolligini ta’minlaydi. Mazkur jarayonni psixologik jihatdan o‘rganish shaxs rivojlanishining barcha bosqichlarida katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy moslashuv — shaxsning ijtimoiy normalar, qadriyatlar, talablar va rollarga mos ravishda o‘z xatti-harakatlarini tashkil etish jarayonidir. Uning psixologik asoslari shaxsning kognitiv jarayonlari, emotsional barqarorligi, motivatsiyasi va kommunikativ salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, moslashuv jarayoni bir martalik emas, balki dinamik, uzluksiz va ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, turli yosh davrlarida turlicha kechadi.

Bola va o‘smirlik davrida moslashuv asosan taqlid, identifikatsiya va tengdoshlar ta’siri orqali shakllansa, katta yoshda moslashuvni shaxsiy tajriba, kasbiy ko‘nikmalar va ijtimoiy maqom belgilaydi. Shaxsning ijtimoiy moslashuvi yuqori bo‘lsa, u jamiyatda faol, barqaror, maqsadli va psixologik jihatdan sog‘lom bo‘lib shakllanadi.

Moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga quyidagi omillar katta ta’sir ko‘rsatadi: oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ijobiy ijtimoiy munosabatlar, emotsional intellekt, kommunikativ kompetensiya, o‘zini baholashning adekvatligi, stressga chidamlilik va moslashuvchan fikrlash.

Shu sababli ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish shaxsning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi, psixologik barqarorlikni oshiradi va uning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati.

1.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya**.** — Toshkent: O‘zbekiston, 2019. — 320 b.

2. G‘oziev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: Universitet, 2010. — 480 b.

3. Rasulova N.K. **Yo**sh va pedagogik psixologiya**.** —Toshkent: TDPU, 2021. 350 b.

4.Nishonova Z., Abdurahmonova K. Ontogenez psixologiyasi. — Toshkent: Zamin nashr, 2018. — 280 b.

5.Jalolova X. Yosh davrlari psixologiyasi**.** — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 300 b.

6. Эльконин Д.Б. Психология развития. — Москва: Академия, 2001. 336 с.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Hoshimov Farruhbek Muxtorjon o'g'li
Andijon davlat universiteti
Amaliy matematika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Telefon raqam: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishning psixologik omillari va ularni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Motivatsiya ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida ko‘riladi va shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘zini namoyon qilish intilishi bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Tezisda o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi psixologik omillar, interfaol metodlar, gamifikatsiya, STEAM va raqamli ta’lim resurslarining ta’siri, shuningdek pedagogik strategiyalar tavsifi keltiriladi. Natijada, o‘quvchilarda motivatsiyani rivojlantirishning samarali yo‘llari va istiqbollari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, psixologik omillar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o‘quvchi, gamifikatsiya, STEAM, raqamli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ И ТЕХНОЛОГИИ ИХ РАЗВИТИЯ

Хошимов Фаррухбек Мухторжонович
Андижанский государственный университет
Студент 1-курса направления «Прикладная математика»
Телефон: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются психологические факторы, способствующие повышению мотивации учащихся в образовательном процессе, а также современные педагогические технологии, направленные на их развитие. Мотивация рассматривается как важнейший фактор эффективности обучения и показывается её тесная связь с внутренними потребностями личности, интересами и стремлением к самореализации. В тезисе представлены психологические факторы, усиливающие внутреннюю мотивацию учащихся, влияние интерактивных методов, геймификации, STEAM-подхода и цифровых образовательных ресурсов, а также описаны педагогические стратегии. В результате определяются эффективные пути и перспективы развития мотивации учащихся.

Ключевые слова: мотивация, психологические факторы, педагогические технологии, интерактивные методы, учащийся, геймификация, STEAM, цифровое обучение, личностно-ориентированное обучение.

PSYCHOLOGICAL FACTORS FOR INCREASING STUDENTS' MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND TECHNOLOGIES FOR THEIR DEVELOPMENT

Hoshimov Farrukhbek Mukhtorjonovich
Andijan State University
1st-year student, Applied Mathematics Department
Phone: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Annotation: This thesis analyzes the psychological factors that enhance students' motivation in the educational process, as well as modern pedagogical technologies aimed at developing these factors. Motivation is considered a key determinant of learning effectiveness and is shown to be closely connected with an individual's internal needs, interests, and desire for self-expression. The thesis presents psychological factors that strengthen intrinsic motivation, the impact of interactive methods, gamification, the STEAM approach, and digital learning resources, along with a description of relevant pedagogical strategies. As a result, effective ways and prospects for developing students' motivation are identified.

Keywords: motivation, psychological factors, pedagogical technologies, interactive methods, student, gamification, STEAM, digital education, learner-centered education.

Ta'lim jarayonida o‘quvchi motivatsiyasi o‘quv faoliyatining mazmuni, sifati va samaradorligini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. Yuqori motivatsiya o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, faol ishtirokni ta'minlaydi, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlashga undaydi, past motivatsiya esa aksincha, bilim o‘zlashtirish jarayonida sustkashlik, diqqatning pasayishi va o‘quv natijalarining zaiflashuviga olib keladi. Motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, maqsadlari, qiziqishlari, o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan intilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta'lim jarayonida bu omillar o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri boshqarilganda samarali o‘sish natijalari kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar motivatsiyani mustahkamlashni o‘quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘rib, har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olib, individual va differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil etishni taqozo qiladi.

O‘quvchi motivatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashda bir qator psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Avvalo, shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘zini baholash darajasi va vazifani bajarishga bo‘lgan ichki tayyorgarligi motivatsiyaning uzluksizligini belgilaydi. Buning ustiga, o‘quvchining o‘qituvchi bilan bo‘lgan ijobiy munosabati, sinfdagi psixologik muhit, emotsional qo‘llab-quvvatlash, ishonch va hurmat tamoyillarining mavjudligi motivatsion jarayonni kuchaytiradi. Qiziqishlar, ehtiyojlar va maqsadlarning shaxs tomonidan anglanishi ham o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ichki ehtiyojni oshiradi. Shuningdek, muvaffaqiyat hissi, kichik g‘alabalarni his qilish va o‘zlashtirishdagi yutuqlarni vaqtida tan olish o‘quvchini yanada yuqori natijalar sari undaydi. Shu bois psixologik omillarni o‘qituvchi tomonidan chuqur anglash va ularni ta'lim jarayonida oqilona boshqarish motivatsiyani barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishning samarali vositasi bo‘lib, ular ta'lim jarayonini interfaol, qiziqarli va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta'lim, gamifikatsiya, STEAM yondashuvi, raqamli platformalar va multimediya resurslari o‘quvchining faol ishtirokini kuchaytirib,

o‘rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bunday texnologiyalar o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi psixologik omillar — qiziqish, raqobat ruhiyati, mustaqillik, ijodkorlik va o‘z imkoniyatlarini namoyon qilish ehtiyojini qo‘llab-quvvatlaydi. Texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, ular individual yondashuvni kuchaytirib, har bir o‘quvchining o‘z tempida o‘rganishi va o‘z-o‘zini baholashi uchun qulay muhit yaratadi. Natijada ta’lim jarayoni an’anaviy biryoqlamalikdan voz kechib, o‘quvchining faolligi va ichki motivatsiyasini doimiy rag‘batlantiruvchi tizimga aylanadi.

O‘quvchilarda motivatsiyani mustahkamlash uchun psixologik va pedagogik strategiyalar uyg‘un qo‘llanilishi muhim bo‘lib, ular o‘quv faoliyatining mazmuni va jarayonini samarali tashkil etishga yo‘naltiriladi. O‘quv maqsadlarini aniq belgilash, darsni mazmunan sodda va tushunarli qilish, kichik bosqichlarda muvaffaqiyatlar yaratish, ijobiy rag‘batlantirish va o‘z vaqtida fikr bildirish (feedback) motivatsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘quvchini tinglash, uning fikrini qadrlash va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltirish shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ichki motivatsiyani faollashtiradi. Yana bir samarali strategiya — dars jarayonida real hayotiy misollar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish bo‘lib, ular o‘quvchining qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sinfdagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, hamkorlikdagi o‘qitish usullarini qo‘llash va individual ehtiyojlarni inobatga olish motivatsiyaning barqaror rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi motivatsiyasini oshirish psixologik omillarni chuqur anglash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash orqali yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlaydi. Motivatsiyaning shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va maqsadlariga tayanar ekan, o‘qituvchi ushbu jihatlarni inobatga olgan holda darsni tashkil qilishi lozim. Interfaol metodlar, raqamli resurslar, gamifikatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va ijobiy pedagogik muhit o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Kelgusida ta’lim tizimiga sun’iy intellekt, adaptiv o‘qitish tizimlari, psixologik diagnostika vositalari va raqamli muhitga mos individual o‘quv yo‘llari keng joriy etilishi motivatsion jarayonning samaradorligini yanada oshirishi kutiladi. Shu bois motivatsiyani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar va innovatsion pedagogik strategiyalar ta’lim jarayonining kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov, O. (2020). *Ta’lim psixologiyasi asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
2. Islomov, B. (2019). *O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish metodlari*. Toshkent: Fan va Ta’lim.
3. Rahmonova, L. (2021). *Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim*. Toshkent: O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi.
4. Karimov, S. (2018). *Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘quvchi motivatsiyasi*. Andijon: Andijon Davlat Universiteti Nashriyoti.
5. Tursunov, M. (2022). *Interfaol metodlar yordamida o‘quvchi motivatsiyasini oshirish*. Toshkent: Pedagogika.

EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA SHAKLLANISHIGA QADAR PSIXOLOGIYANING ONG HAQIDAGI FAN SIFATIDA RIVOJLANISHI

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya ta’lim yo’nalishi 302 guruh talabalari Fayzullayeva Maftuna Abduqahhorova Dildora

Ilmiy raxbar: dotsent S.G.Xasanova

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixologiya fanining eksperimental yo‘nalish shakllanishidan avvalgi davrlarda ong haqidagi qarashlar, uning falsafiy, diniy va ilmiy-konseptual asoslari o‘rganiladi. Inson ongini tushuntirishga qaratilgan dastlabki yondashuvlar qadimgi Sharq va G‘arb falsafasi, antik dunyo mutafakkirlari, o‘rta asr ilohiyotchilari hamda Yevropa Uyg‘onish davri olimlarining qarashlari asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, Aristotel, Aflotun, Ibn Sino, Forobiy, Dekart, Leybnits, Lokk, Berkli va Yum kabi mutafakkirlarning ong, idrok, tafakkur va ruhiyatga oid g‘oyalari psixologiya fani tarixida muhim o‘rin tutgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada ong tushunchasining turli davrlarda bir xil talqin qilinmaganligi, aksincha, jamiyat taraqqiyoti, ilmiy tafakkurning rivoji va falsafiy dunyoqarashlar bilan uzviy ravishda takomillashgani ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ong, ruhiyat, introspektsiya, tafakkur, falsafa, idrok, ruhshunoslik, ong nazariyalari, psixologiya tarixi.

Kirish

Psixologiya fanining shakllanish va rivojlanish tarixi inson ongini tushuntirishga qaratilgan falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Eksperimental psixologiya XIX asrda V.Vundt tomonidan tashkil qilingan bo‘lsa-da, ong haqidagi fikrlar bundan ancha oldin, qadimgi davrlardan boshlab shakllana boshlagan. Inson o‘zining ichki dunyosini, fikrlash jarayonlarini, idrok va xotirani anglashga bo‘lgan intilishlari ong fenomenining ilmiy izohga ehtiyoj sezganligini ko‘rsatadi. Shu sababli psixologiya uzoq vaqt davomida falsafa bag‘rida rivojlandi va inson ruhiyati haqidagi tasavvurlar falsafiy metodlar – mushohada, mantiqiy tahlil va kuzatishlarga tayandi.

Psixologiyaning eksperimental bosqichga o‘tishidan avval ongning inson faoliyatidagi o‘rni, ichki jarayonlar tabiatini bilishga qaratilgan introspektiv, rasional va metafizik yondashuvlar tahlil qilinadi. Xususan, ongni “ruhiy substansiya”, “ichki tajriba”, “aql va fikrlash markazi”, “bilishning yuqori shakli” sifatida tushuntirgan qarashlarning nazariy mohiyati yoritiladi. Shuningdek, ongni ilmiy jihatdan o‘rganish ehtiyojining kuchayishi hamda psixologiyaning falsafadan ajralib chiqish jarayoni psixologiya tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri sifatida baholandi. Maqola ushbu jarayonni turli manbalar asosida keng qamrovda tahlil qilib, psixologiyaning eksperimental davrgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘lini, uning ilmiy-metodologik asoslarini va tafakkur evolyutsiyasini yoritishga qaratilgan.

Qadimgi Sharq tamadduni — Xitoy, Hindiston va Yunonistonda ong, ruhiyat, bilish jarayonlari borasidagi tasavvurlar juda boy bo‘lgan. Ayniqsa, antik falsafada ong masalasi borasida Aflotun va Aristotelning qarashlari psixologik bilimlar rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Aflotun ongni ruhning asosiy qismi sifatida ko‘rib, uni tanadan mustaqil substansiya sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Aristotel ruhni tiriklikning mohiyati deb ko‘radi. Shu tariqa, psixologiya dastlab “ruh haqidagi fan” sifatida shakllangan.

O‘rta asrlarda ong masalasi diniy-falsafiy talqinlar, xususan Islom olamidagi yirik allomalar tomonidan yanada boyitildi. Ibn Sino, Forobiy, Beruniy kabi mutafakkirlar ongni nafaqat ruhiy hodisa, balki fiziologik jarayonlar bilan bog‘liq murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqdilar. Ayniqsa, Ibn Sinoning psixologik qarashlari keyinchalik Yevropa ilmiy tafakkurining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uyg‘onish va Yangi davr falsafasi ongni ilmiy tadqiq etishga bo‘lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. Dekartning “fikrlovchi substansiya” haqidagi g‘oyasi, Britaniya empiriklarining sezgi va tajribaga asoslangan ong talqinlari psixologiyaning falsafadan ajralib chiqishiga zamin yaratdi. Aynan ushbu davr eksperimental psixologiya paydo bo‘lishiga olib kelgan ilmiy-mantiqiy asoslarning shakllanishi bilan ajralib turadi.

Ong masalasining ilmiy jihatdan tahlil qilinishi insoniyat falsafiy merosida muhim mavzu bo‘lib kelgan. Qadimgi Yunoniston faylasuflarining asarlari orasida Aristotelning “Ruh haqida” asari psixologiya tarixida alohida o‘rin tutadi. U ruhni tiriklikning shakli sifatida talqin qilish orqali ongni biologik jarayonlar bilan bog‘lagan ilk mutafakkirlardan biri bo‘ldi. Aflotun esa ongni

ruhning uch qismidan biri deb izohlagan va tafakkur jarayonini ilohiy mohiyat bilan bog‘lagan. Bu qarashlar ruhiy hodisalarni metafizik asosda tushuntirishga xizmat qildi. Sharq mutafakkirlarining asarlari ham ong haqidagi tasavvurlarning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Forobiyning “Aql haqida”, Ibn Sinoning “Shifo”, “Najot” kabi asarlarida ongning paydo bo‘lishi, aqlning turlari, bilish jarayonining bosqichlari kabi masalalar keng yoritilgan. Ular ongni murakkab psixofiziologik hodisa sifatida talqin qilgan bo‘lib, bu yondashuv Yevropa psixologiyasi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Yangi davr falsafasida Dekartning dualistik qarashlari ongni moddiy bo‘lmagan substansiya sifatida tushuntiradi. Uning fikricha, ong tanadan mustaqil ravishda mavjud bo‘ladi, biroq ular o‘zaro ta’sir qiladi. Britaniya empiriklari — Lokk, Berkli, Yum esa ongni tajriba va sezgi orqali shakllanadigan hodisa sifatida talqin qilib, psixologiyaning keyingi empirik yo‘nalishlari uchun nazariy zamin yaratdi.

XIX asrga kelib, ongni ilmiy metodlar yordamida o‘rganishga intilish kuchaydi. Herbart ruhiy jarayonlarni matematik model yordamida ifodalash mumkinligini ilgari surdi. Fechner va Vebber esa sezgi va idrokning miqdoriy o‘lchash usullarini ishlab chiqib, eksperimental psixologiyaga asos soldi. Ularning ishlari Vundt laboratoriyasi faoliyati uchun metodologik asos bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi eksperimental psixologiya shakllanishigacha bo‘lgan davrda ong haqidagi qarashlarning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ularning ilmiy asoslari va psixologiya faniga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida tarixiy-taqqoslovchi, mantiqiy tahlil, konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi. Turli davrlarga mansub ilmiy va falsafiy manbalar bir-biri bilan solishtirilib, ong fenomenining mazmuni, talqini va mohiyati o‘rganildi. Tadqiqot bir necha bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda qadimgi dunyo manbalari o‘rganilib, ongni ruhiy substansiya sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar tahlil qilindi. Antik faylasuflarning ongni bilishning asosiy shakli sifatida izohlashlari psixologiya tarixida dastlabki qarashlar sifatida baholandi.

O‘rta asr Sharq mutafakkirlari qarashlari o‘rganildi. Ular ongni nafaqat ruhiy jarayon, balki fiziologik tizimlar bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin etganlar. Bu davrda psixologik bilimlar ilmiy yo‘nalishga yaqinlashgan bo‘lib, bilish jarayonlari, sezgi, idrok, xayol, xotira va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik chuqur tahlil qilingan. Yevropa Yangi davri falsafasi bilan bog‘liq bo‘lib, ongni ilmiy kuzatish predmetiga aylantirish jarayonining shakllanishi o‘rganildi. Empirizm va ratsionalizm oqimlari ongning kelib chiqishi, bilish vositalari va aqliy jarayonlarning tabiati borasida keskin farq qiluvchi nazariyalar taklif qildi. Bu esa psixologiyaning falsafadan ajralib chiqa boshlashiga turtki berdi.

XIX asrda psixologiyaning eksperimental yo‘nalishga o‘tishiga zamin yaratgan ilmiy yondashuvlar tahlil qilindi. Fechner, Vundt va Vebberning ishlari ongni miqdoriy va eksperimental usullar bilan o‘rganishga imkon tug‘dirgan.

Ong haqidagi qarashlarning uzluksiz takomillashganini va eksperimental psixologiyaning paydo bo‘lishi ana shu uzoq tarixiy jarayonning mantiqiy davomi ekanligini ko‘rsatdi. Dastlab ong ruhning ilohiy yoki metafizik mohiyati sifatida talqin qilinsa, keyingi davrlarda u asta-sekin bilish jarayonlari bilan bog‘liq psixik hodisa sifatida izohlana boshladi. Qadimgi Yunoniston faylasuflarining qarashlari ong masalasining nazariy poydevorini yaratgan bo‘lsa, o‘rta asr Sharq mutafakkirlari mazkur masalani psixofiziologik asosda tushuntirib, ilmiylikka yaqinlashtirdilar.

Yangi davr falsafasida ong tushunchasi inson tajribasi, sezgi va tafakkur jarayonlari bilan bog‘lab tahlil qilindi. Empirik va ratsional yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar ongni tushuntirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarning kengayishiga olib keldi. Ayniqsa, Britaniya empiriklarining tajribaga asoslangan qarashlari psixologiyaning keyingi eksperimental metodlariga nazariy asos bo‘ldi. XIX asrga kelib, ongni ilmiy yo‘l bilan o‘rganishning zarurligi va imkoniyati yuzaga chiqdi. Fechnerning psixofizik qonuniyatlari, Vundtning laboratoriya tajribalari ongni sifatli o‘rganishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eksperimental psixologiya paydo bo‘lguniga qadar ong haqidagi qarashlar murakkab va ko‘p bosqichli taraqqiyot yo‘lini bosib

o‘tgan. Dastlab ong ruh, jon, ilohiy substansiya sifatida talqin qilingan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u insonning bilish jarayoni, fikrlashi, idroki va tafakkuri bilan bog‘liq murakkab psixik hodisa sifatida izohlangan. Qadimgi Yunoniston, Sharq mutafakkirlari va Yevropa Yangi davri falsafasi vakillarining qarashlari psixologiyaning ilmiy asoslarini shakllantirdi.

Eksperimental psixologiya shakllanishiga qadar ongni o‘rganishning asosiy metodlari introspektsiya, mushohada, mantiqiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish bo‘lgan bo‘lsa-da, XIX asrga kelib, ilmiy eksperimentning joriy etilishi psixologiya fanida tub burilish yasadi. Ong haqidagi qarashlarning tarixiy ildizlari chuqur bo‘lib, ular psixologiya fanining mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishida fundamental ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. Psixologiya tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Jo‘rayev M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Olimov A. Falsafa asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Rasulov R. Psixologiya: nazariya va tarix. – Samarqand: SamDU nashri, 2021.
5. Mamarasulov B. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari. – Buxoro, 2017.

ASSOTSIATIV PSIXOLOGIYA: SHAKLLANISH TARIXI, ASOSIY G‘OYALARI VA ILMIY AHAMIYATI

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabalari
Latifjonova Gulshoda, Turg’unova Mohina
dotsent S.G.Xasanova

Annotatsiya. Maqola assotsiativ psixologiya yo‘nalishini o‘zbek psixologi E.G‘oziyev talqinida tahlil qiladi. Assotsiativ psixologiya psixik jarayonlarni assotsiatsiya mexanizmi orqali tushuntiruvchi klassik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqiladi. G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” asaridagi talqinida bu yo‘nalishning tarixiy ahamiyati, cheklovlari va zamonaviy psixologiyaga ta’siri muhokama etiladi. Maqolada assotsiatsiyaning xotira, tafakkur va o‘rganish jarayonlaridagi roli ta’kidlanadi, shuningdek, o‘zbek ta’lim tizimida qo‘llanilishi masalalari yoritiladi.

Kalit so’zlar. Assotsiativ psixologiya, assotsiatsiya, E. G‘oziyev, psixik jarayonlar, xotira, tafakkur, o‘rganish nazariyasi, psixologiya tarixi, umumiy psixologiya, Gartli, Yum, Ebbingauz.

Kirish. Psixologiya fanining rivojlanish tarixida assotsiativ yo‘nalish muhim o‘rin tutadi. Bu yo‘nalish psixik hayotning barcha jarayonlarini – xotira, tafakkur, his-tuyg‘u va harakatlarni assotsiatsiya (bog‘lanish) mexanizmi orqali tushuntirishga asoslanadi. Assotsiativ psixologiya XVII-XIX asrlarda shakllangan bo‘lib, uning asoschilari D. Gartli, D. Yum, J. Mill va boshqalar hisoblanadi.

O‘zbekiston psixologiya fanida bu yo‘nalishni talqin qilishda taniqli olim Ergash G‘oziyevning hissasi katta. Uning “Umumiy psixologiya” (I va II kitoblar, 2002-2010) asarida assotsiativ psixologiya psixologiya fanining klassik yo‘nalishlaridan biri sifatida batafsil yoritilgan. G‘oziyev talqinida assotsiatsiya nafaqat psixik elementlarni bog‘lovchi mexanizm, balki o‘rganish va xotira jarayonlarining asosi sifatida ko‘rsatiladi.

Hozirgi kunda assotsiativ psixologiya g‘oyalari zamonaviy kognitiv va pedagogik psixologiyada qo‘llanilmoqda. Ushbu maqola G‘oziyev talqinida assotsiativ psixologiyaning mohiyatini, uning afzalliklari va cheklovlarini ochib berishga bag‘ishlanadi. Bu mavzu o‘zbek ta’lim tizimida psixologik bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda dolzarbdir.

Maqolaning maqsadi. Maqolaning asosiy maqsadi – assotsiativ psixologiya yo‘nalishini E. G‘oziyev talqinida tahlil qilish va uning psixik jarayonlarni tushuntirishdagi rolini ochib

berishdir.
Aniqroq vazifalar:

- Assotsiativ psixologiyaning tarixiy shakllanishi va asosiy printsiplarini yoritish;
- E. G‘oziyev asarlarida bu yo‘nalishning talqinini ko‘rsatish;
- Assotsiatsiya mexanizmining xotira, tafakkur va o‘rganish jarayonlaridagi ahamiyatini baholash;
- Yo‘nalishning zamonaviy psixologiya va o‘zbek ta’lim amaliyotiga ta’sirini aniqlash.

Adabiy manbalar tahlili. Assotsiativ psixologiya haqidagi adabiyotlar boy va xilma-xildir. Yo‘nalishning asoschilari D. Gartli (1749) assotsiatsiyani fiziologik mexanizm sifatida talqin qilgan, D. Yum esa uni empirik bog‘lanishlar asosi deb hisoblagan. XIX asrda J. Mill, G. Ebbingauz va G. Myuller tajribalar orqali assotsiatsiyani xotira qonuniyatlari bilan bog‘lagan.

O‘zbek va postsovet psixologiyasida E. G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” asari (2002, 2010) muhim o‘rin tutadi. Unda assotsiativ yo‘nalish psixologiya tarixining muhim bosqichi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, uning mexanistik cheklovlari tanqid qilinadi, lekin o‘rganish nazariyasidagi foydasi ta’kidlanadi.

Xorijiy manbalarda (D. Myers “Psychology”, 2010) assotsiatsiya kognitiv jarayonlarning asosi sifatida qolmoqda. O‘zbek olimlari (V. Karimova, Z.Nishonova va b.) pedagogik psixologiyada assotsiativ g‘oyalardan foydalangan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, G‘oziyev talqini assotsiativ psixologiyani nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan qimmatli deb baholaydi, ammo uni gestaltpsixologiya va bixeviorizm bilan solishtirib, cheklovlarini ko‘rsatadi.

Metodologiya. Ushbu maqola nazariy tahlilga asoslangan bo‘lib, assotsiativ psixologiya yo‘nalishini E. G‘oziyev talqinida o‘rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanilgan:

a) Tarixiy-taqqosiy metod — Assotsiativ psixologiyaning klassik vakillari (D. Gartli, D. Yum, J. Mill, G. Ebbingauz) g‘oyalari bilan G‘oziyevning “Umumiy psixologiya” asaridagi talqinini solishtirish orqali yo‘nalishning evolyutsiyasini aniqlash.

b) Adabiyotlar tahlili — E. G‘oziyevning asarlari (2002, 2010 yillar nashrlari), xorijiy klassik manbalar (Gartli “Observations on Man”, 1749; Ebbingauz “Über das Gedächtnis”, 1885) va zamonaviy psixologik adabiyotlar (D. Myers, A. Reber) o‘rganildi.

c) Nazariy modellash — Assotsiatsiya mexanizmini xotira va o‘rganish jarayonlarida modellashtirish, G‘oziyevning pedagogik psixologiyaga ta’sirini baholash.

d) Induktiv va deduktiv yondashuv — Umumiy printsiplardan (assotsiatsiya qonunlari) xususiy xulosalarga (o‘zbek ta’lim amaliyotida qo‘llanilishi) o‘tish.

Maqola empirik tajribalarga emas, balki nazariy talqinga asoslanganligi sababli, metodologiya asosan kitobiy va arxiv materiallarga tayangan. Tadqiqot jarayonida G‘oziyevning asarlaridagi iqtiboslar va misollar keltirilgan.

Natijalar va muhokama. Tahlil natijalariga ko‘ra, E. G‘oziyev assotsiativ psixologiyani psixologiya tarixining muhim bosqichi sifatida baholaydi. Uning talqinida assotsiatsiya nafaqat mexanik bog‘lanish, balki psixik jarayonlarning asosi – xotira shakllanishi, tafakkur rivoji va o‘rganish mexanizmi sifatida ko‘rsatiladi. G‘oziyev Gartli va Yumning assotsiatsiya qonunlarini (yaqinlik, o‘xshashlik, kontrast bo‘yicha) qabul qiladi, lekin ularni mexanistik deb tanqid qilib, faol shaxsiy omilni ta’kidlaydi.

Natijalarda shuni ko‘rish mumkinki, assotsiativ yo‘nalish xotirani tajribiy o‘rganishda (Ebbingauz tajribalari) katta yutuqlarga erishgan, ammo murakkab psixik hodisalarni (ijodiy tafakkur, shaxsiyat) to‘liq tushuntira olmagan. G‘oziyev bu cheklovlarni gestaltpsixologiya va bixeviorizm bilan solishtirib, assotsiatsiyani zamonaviy kognitiv psixologiyada qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi.

Muhokamada ta’kidlanishicha, o‘zbek ta’lim tizimida assotsiativ printsiplar (masalan, yangi materialni eskisi bilan bog‘lash) o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Biroq, zamonaviy sharoitda assotsiatsiyani faqat mexanik emas, balki ma’noli bog‘lanish sifatida qo‘llash kerak. G‘oziyev talqini assotsiativ psixologiyani nafaqat tarixiy, balki amaliy qimmatli yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi, bu o‘zbek psixologiya fanining rivojiga hissa qo‘shgan.

Xulosa. Maqola natijalariga ko‘ra, E. G‘oziyev talqinida assotsiativ psixologiya psixik jarayonlarni tushuntirishning klassik mexanizmi sifatida muhim ahamiyatga ega. Yo‘nalishning afzalliklari – xotira va o‘rganish qonuniyatlarini ochishda, cheklovlari esa mexanistik yondashuvda. G‘oziyev bu yo‘nalishni zamonaviy psixologiya bilan bog‘lab, uning pedagogik amaliyotdagi rolini ta’kidlaydi.

Kelajak tadqiqotlar uchun assotsiatsiyani neyropsixologiya va sun’iy intellekt modellari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi. Ushbu talqin o‘zbek psixologiya fanida assotsiativ g‘oyalarni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. I kitob. – Toshkent: Universitet, 2002.
2. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. II kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. Gartli D. Observations on Man. – London, 1749.
4. Yum D. A Treatise of Human Nature. – 1739.
5. Ebbingauz G. Über das Gedächtnis. – Leipzig, 1885.
6. Myers D. Psychology. – New York: Worth Publishers, 2010.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent, 1994.

O‘RTA ASRLARDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
dotsent Xasanova Saida Ganijonovna
Amaliy psixologiya ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabalari
Mamadaliyeva Sevich

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘rta asrlarda psixologik bilimlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning falsafa, tibbiyot va diniy qarashlar bilan uzviy aloqasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘rta asr psixologiyasi mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan bo‘lsa-da, inson ruhiyati, idrok, xotira, tafakkur, hissiyot va iroda kabi psixik jarayonlar haqida muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: o‘rta asrlar psixologiyasi, ruhiyat, falsafa va psixologiya, Sharq mutafakkirlari, G‘arb falsafasi, idrok va tafakkur, diniy psixologiya, psixik jarayonlar.

ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ формирования и этапов развития психологических знаний в Средневековье, а также их неразрывной связи с философией, медициной и религиозными взглядами. Хотя средневековая психология не выделялась как самостоятельная наука, были выдвинуты важные теоретические взгляды на человеческую психику, такие как восприятие, память, мышление, эмоции и психические процессы.

Ключевые слова: средневековая психология, психика, философия и психология, восточные мыслители, западная философия, восприятие и мышление, религиозная психология, психические процессы.

Kirish

Psixologiya fanining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, uning ildizlari qadimgi falsafiy qarashlarga borib taqaladi. O‘rta asrlar davri psixologik bilimlar taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur davrda psixologiya mustaqil fan sifatida mavjud bo‘lmagan bo‘lsa-da, inson ruhiyati haqidagi bilimlar falsafa, tibbiyot, axloqshunoslik va diniy ta’limotlar doirasida chuqur tahlil qilingan. O‘rta asrlar psixologik qarashlarining asosiy xususiyati shundaki, inson ruhiyati ko‘pincha ilohiy kuchlar, ruh va tana munosabati, axloqiy poklik bilan bog‘liq holda tushuntirilgan. Bu davrda insonning ichki dunyosi, xulq-atvori, bilish jarayonlari va hissiy holatlari muhim ilmiy muammo sifatida qaralgan. Ayniqsa, ruh va tana munosabati masalasi o‘rta asr falsafasi va psixologiyasining markaziy mavzularidan biri bo‘lgan.

Sharq va G‘arb o‘rta asrlarida psixologik bilimlar rivoji turli yo‘nalishlarda kechgan. Sharq mutafakkirlari ilmiy va tajribaviy yondashuvga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lsa, G‘arbda diniy-falsafiy talqinlar ustuvor bo‘lgan. Biroq har ikki yo‘nalish ham psixologik tafakkur taraqqiyotiga muhim hissa qo‘shgan.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘rta asrlarda psixologik bilimlarning rivojlanish jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish, yetakchi mutafakkirlarning qarashlarini yoritish hamda ularning zamonaviy psixologiya faniga ta’sirini aniqlashdan iborat.

O‘rta asrlar psixologik bilimlari asosan falsafiy va tibbiy asarlarda mujassam bo‘lgan. Abu Nasr Forobiy inson aqliy faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlanadigan jarayon sifatida talqin qilgan. U idrok, tasavvur va aql tushunchalarini bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda izohlagan. Abu Ali ibn Sino psixologik bilimlarning rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan mutafakkir hisoblanadi. Uning “Tib qonunlari” va “Kitob ush-shifo” asarlarida ruhiy holatlar, xotira, hissiyot, temperament va shaxs xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Ibn Sino ruhiy kasalliklarni faqat diniy emas, balki fiziologik va psixologik omillar bilan bog‘lab tushuntirgan.

Abu Rayhon Beruniy inson bilish faoliyatida tajriba va kuzatishning ahamiyatini ta’kidlab, psixologik bilimlarning empirik asoslarini mustahkamlagan. Uning asarlarida idrok va sezgi jarayonlari muhim o‘rin egallaydi.

G‘arb mutafakkirlaridan Avreliy Avgustin inson ichki kechinmalari va o‘zini anglash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Foma Akvinskiy esa Aristotel qarashlarini xristian ta’limoti bilan uyg‘unlashtirib, ruh va tana birligi g‘oyasini ilgari surgan. Tarixiy-taqqoslash, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining psixologik qarashlari o‘zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, manbalar tahlili orqali psixologik tushunchalarning shakllanish dinamikasi o‘rganildi.

Sharq mutafakkirlari ilmiy-ratsional yondashuvga tayanib, psixologik bilimlarni tizimlashtirgan. G‘arbda esa diniy talqinlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa-da, ichki psixik tajribaga katta e’tibor qaratilgan.

O‘rta asr psixologik qarashlari bugungi zamonaviy psixologiya bilan to‘liq mos kelmasa-da, ularning metodologik ahamiyati katta. Bu davrda psixik jarayonlar bir butun tizim sifatida tushunilgan. Ayniqsa, Ibn Sino qarashlari hozirgi klinik va tibbiy psixologiyaning shakllanishiga zamin yaratgan. O‘rta asr psixologiyasi inson ruhiyatini faqat biologik emas, balki ijtimoiy va axloqiy hodisa sifatida talqin qilgani bilan ahamiyatlidir. Bu holat zamonaviy gumanistik psixologiya g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asrlar davri psixologik bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Garchi bu davrda psixologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqmagan bo‘lsa-da, inson ruhiyati, bilish jarayonlari, hissiyot va iroda masalalari falsafa, tibbiyot va diniy qarashlar doirasida chuqur va tizimli ravishda o‘rganilgan. O‘rta asr mutafakkirlarining ilmiy merosi keyingi davrlarda psixologiya fanining mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.

Sharq mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy inson psixikasini ilmiy-ratsional yondashuv asosida talqin etib, bilish jarayonlarining bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab berganlar. Ibn Sinoning ruhiy holatlar, temperament,

xotira va hissiy kechinmalar haqidagi qarashlari zamonaviy klinik va tibbiy psixologiya rivojiga zamin yaratganini alohida ta’kidlash lozim. Uning inson ruhiyatini tana bilan uzviy bog‘liq holda tushuntirishi bugungi biopsixologik yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi. G‘arb o‘rta asrlarida esa psixologik bilimlar ko‘proq diniy-falsafiy talqinlarda namoyon bo‘lgan. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy qarashlarida inson ichki kechinmalari, irodasi va axloqiy tanlovlari markaziy o‘rinni egallaydi. Bu qarashlar psixologiyaning subyektiv tajriba va o‘zini anglash masalalariga e’tibor qaratishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, Sharq va G‘arb o‘rta asr psixologik qarashlari bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, umumiy ilmiy tafakkur taraqqiyotiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Ibn Sino, A. A. (2005). Tib qonunlari (1–5-jildlar). Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot.
3. Beruniy, A. R. (1997). Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. G‘oziyev, E. G‘. (2010). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.
5. Karimova, V. M. (2016). Psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Nishonov, M. S. (2018). Psixologiya tarixi. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo.
7. S.G.Xasnova. (2025). OILAVIY TARBIYANING O ‘QUVCHINING PSIXOLOGIK HOLATIGA TA’SIRI. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL, 95(1), 202-206.

ONG HAQIDAGI FALSAFIY TA’LIMOT DOIRASIDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI

Muallif: ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabalari Ismoilov Umarjo’ja
Ilmiy rahbar: dotsent Xasanova Saida Ganijonovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada ong haqidagi falsafiy ta’limotlar doirasida psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tizimli ravishda tahlil qilinadi. Inson ongini tushuntirishga qaratilgan falsafiy yondashuvlar psixologik bilimlarning nazariy asoslarini vujudga keltirgani ilmiy nuqtai nazardan asoslanadi. Ong, ruh va bilish jarayonlari dastlab falsafaning markaziy muammosi sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik ular mustaqil ilmiy tadqiqot obyektiga aylangan. Ongni anglashda metafizik, ratsional va empirik yondashuvlarning psixologiya metodologiyasiga ta’siri yoritiladi. Ongni o‘rganishda falsafiy tafakkur psixologik kategoriyalar, tushunchalar va tadqiqot usullarining shakllanishiga muhim turtki bo‘lgani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ong, psixologiya, falsafiy ta’limotlar, bilish jarayonlari, ruhiy faoliyat, tafakkur, idrok, empirik yondashuv, ratsional tahlil, ilmiy metodologiya.

Kirish. Inson ongini anglash muammosi qadimdan ilmiy tafakkurning markaziy masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Ong insonning borliqni idrok etishi, atrof-muhitga munosabat bildirish mexanizmlari hamda ichki ruhiy faoliyatini belgilovchi murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Ushbu tushuncha faqat psixologiya fanining emas, balki falsafa, pedagogika, sotsiologiya va neyrofanlarning ham muhim tadqiqot obyektidir. Shu sababli ong muammosini tahlil qilish ko‘p asrlik falsafiy izlanishlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan.

Psixologiya fanining tarixiy rivojlanishida ong tushunchasi markaziy o‘rin egallagan. Dastlab inson ruhiyati va ong hodisalari falsafiy tafakkur doirasida umumiy va mavhum tarzda izohlangan. Insonning bilish jarayonlari, idrok, xotira, tafakkur va iroda kabi psixik holatlar mustaqil ilmiy tahlildan ko‘ra nazariy mulohazalar asosida tushuntirilgan. Biroq jamiyat

taraqqiyoti, ilm-fan rivoji va tajriba asosidagi bilimlarning ortib borishi natijasida ongni ilmiy asosda o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi.

Falsafiy ta’limotlar ongni tushuntirishda turli yondashuvlarni ilgari surdi. Metafizik qarashlarda ong moddiy borliqdan ajralgan hodisa sifatida talqin qilinsa, keyingi davrlarda ongning tabiiy, ijtimoiy va biologik asoslari muhokama qilina boshlandi. Ayniqsa, bilish jarayonlarining ichki mexanizmlarini anglashga qaratilgan qarashlar psixologiya fanining nazariy poydevorini shakllantirishga xizmat qildi. Shu tariqa ong falsafiy tushunchadan asta-sekin ilmiy kategoriya darajasiga ko‘tarildi.

Psixologiya fanining mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi aynan ong muammosining chuqurroq va tizimli tadqiq etilishi bilan bog‘liqdir. Falsafiy tafakkurda shakllangan ong haqidagi tushunchalar keyinchalik ilmiy metodlar bilan boyitildi va eksperimental tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ongni o‘rganishda nazariy tahlil bilan bir qatorda empirik kuzatish, tajriba va taqqoslash metodlari qo‘llanila boshlandi. Bu holat psixologiyaning ilmiy fan sifatida rivojlanishiga keng yo‘l ochdi. Asosiy maqsadi ong haqidagi falsafiy ta’limotlar asosida psixologiyaning shakllanishi va rivojlanish jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, ong muammosining falsafiy va psixologik talqinlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berish hamda zamonaviy psixologiya fanida ushbu masalaning dolzarbligini asoslash ko‘zda tutiladi.

Ong muammosi bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu tushuncha psixologiya faniga kelguniga qadar uzoq falsafiy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Ilk manbalarda ong insonning ruhiy mohiyati, ichki dunyosi va bilish qobiliyatlari bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Bu davrdagi adabiyotlarda ong ko‘proq umumiy, nazariy va metafizik tushuncha sifatida yoritilgan bo‘lib, empirik tahlil imkoniyatlari cheklangan edi. Keyingi davrlarga oid manbalarda ongni tushuntirishda bilish jarayonlariga alohida e’tibor qaratila boshlaganini ko‘rish mumkin. Idrok, xotira, tasavvur va tafakkur kabi psixik jarayonlar ongning tarkibiy qismlari sifatida qaralgan. Adabiyotlarda bu jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning inson faoliyatidagi roli va rivojlanish mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu qarashlar psixologik kategoriyalarning shakllanishiga muhim zamin yaratgan.

Falsafiy yo‘nalishdagi adabiyotlarda ongni izohlashda ikki asosiy yondashuv ajralib turadi: ratsional va empirik qarashlar. Ratsional yondashuvga oid manbalarda ong aql va tafakkur faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv ongning mantiqiy, tahliliy va tushunchaviy jihatlarini ochib berishga xizmat qilgan. Empirik adabiyotlarda esa ong tajriba, sezgi va kuzatish natijasi sifatida qaraladi. Bu esa psixologiyada kuzatish va tajriba metodlarining rivojlanishiga olib kelgan. Psixologik adabiyotlarning keyingi bosqichida ong muammosi mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqila boshlandi.

Ongni o‘rganishga bag‘ishlangan asarlarda eksperimental yondashuv, psixik jarayonlarni o‘lchash va tahlil qilishga qaratilgan metodlar tavsiya etildi. Ushbu adabiyotlar psixologiyaning nazariy chegaralarini kengaytirib, uni amaliy fan sifatida rivojlantirishga xizmat qildi. Zamonaviy ilmiy manbalarda ong muammosi fanlararo yondashuv asosida yoritilmoqda. Psixologiya, falsafa, neyrofiziologiya va kognitiv fanlar o‘rtasidagi integratsiya ongni yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Adabiyotlarda ongning biologik asoslari, ijtimoiy omillar ta’siri va madaniy kontekstda shakllanishi masalalari keng muhokama qilinadi. Bu esa ong muammosining dolzarbligi hozirgi kunda ham saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Ong muammosining falsafiy va psixologik talqinlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur tushuncha fanlararo xususiyatga ega bo‘lib, uni bir yoqlama yondashuv asosida izohlash to‘liq ilmiy natija bermaydi. Falsafiy ta’limotlar ongni umumiy, abstrakt va konseptual darajada tushuntirgan bo‘lsa, psixologiya ushbu qarashlarni konkret psixik jarayonlar orqali ilmiy tadqiqot obyektiga aylantirdi. Bu holat ong muammosining mazmun jihatidan boyib borishiga xizmat qildi. Muhokama jarayonida ayon bo‘ladiki, falsafiy tafakkur ongni tushuntirishda muhim metodologik asos yaratgan.

Aynan falsafiy yondashuvlar orqali ongning mohiyati, kelib chiqishi va faoliyat mexanizmlari haqida umumiy tasavvurlar shakllangan. Psixologiya esa ushbu tasavvurlarni empirik tekshiruvdan o‘tkazib, ilmiy isbotlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan, falsafa va psixologiya o‘rtasidagi aloqani qarama-qarshi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi munosabat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Ongni o‘rganishda ratsional va empirik yondashuvlarning uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat aqlga yoki faqat tajribaga tayanish ongning murakkab tuzilishini to‘liq ochib bera olmaydi. Ratsional tahlil ongning mantiqiy va tushunchaviy jihatlarini ochib bersa, empirik metodlar uning real psixik faoliyatdagi namoyon bo‘lishini aniqlashga xizmat qiladi. Bu ikki yondashuvning uyg‘unligi zamonaviy psixologik tadqiqotlarda keng qo‘llanilmoqda.

Xususan, ongning faqat ichki kuzatish orqali emas, balki faoliyat, muloqot va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganilishi psixologiya fanining nazariy chegaralarini kengaytirdi. O‘tkazilgan nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ong haqidagi falsafiy ta’limotlar psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qilgan. Dastlab ong falsafiy tushuncha sifatida umumiy va mavhum tarzda izohlangan bo‘lsa, keyinchalik ushbu qarashlar psixologik tadqiqotlar uchun konseptual asos vazifasini bajargan. Natijada ong psixologiya fanining markaziy kategoriyalaridan biriga aylangan.

Xulosa

Mazkur maqolada ong haqidagi falsafiy ta’limotlar asosida psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayoni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, inson ongini anglash muammosi dastlab falsafiy tafakkur doirasida yuzaga kelib, psixologiya fanining nazariy poydevorini yaratgan muhim omil hisoblanadi.

Ong, ruh va bilish jarayonlari haqidagi dastlabki qarashlar psixologik tushunchalarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Falsafa tomonidan ishlab chiqilgan umumiy tushunchalar va nazariy qarashlar psixologiya fanida empirik tadqiqotlar olib borish uchun konseptual asos vazifasini bajargan. Natijada ong falsafiy kategoriya sifatidagi mavhum tushunchadan psixologik tadqiqot obyektiga aylangan. Bu jarayon psixologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ong muammosini o‘rganishda ratsional va empirik yondashuvlarning uyg‘unligi zarurligi asoslab berildi.

Aqlga asoslangan nazariy tahlil ongning ichki mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qilsa, tajriba va kuzatishga tayangan empirik yondashuvlar uning real faoliyatdagi namoyon bo‘lishini ochib beradi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy ishonchliligini oshiradi. Ong haqidagi falsafiy ta’limotlar psixologiya fanining rivojlanishida tarixiy, nazariy va metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon psixologik izlanishlarida ham falsafiy merosga tayangan holda ongni chuqurroq va tizimli o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bois, ong muammosini falsafa va psixologiya integratsiyasi asosida tadqiq etish ilmiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvaliyev, S. (2018). Falsafiy tafakkur va psixologiya [Philosophical thinking and psychology]. Toshkent: Universitet nashriyoti.
2. Bobojonov, M. (2020). Psixologiya nazariyalari va falsafiy ildizlari [Psychological theories and philosophical roots]. Toshkent: Ilm-fan.
3. G‘aniev, A. (2017). Ong va bilish jarayonlari [Consciousness and cognitive processes]. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Rustamov, B. (2018). Ongni o‘rganish metodologiyasi [Methodology of studying consciousness]. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.
5. Xolmirzaev, J. (2017). Falsafiy tafakkur va inson ruhiyati [Philosophical thinking and human psyche]. Toshkent: Universitet nashriyoti.

BOSHQARUV FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARNING NAZARIY TALQINI VA AMALIY QO‘LLANILISH

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti kafedrasi o’qituvchi Abdurazzoqov Sh.
ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti 1-bosqish talabalari Abdullayev Ahmadillo.
Muxtorov Mashxurbek

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashkiliy va boshqaruv psixologiyasining predmeti, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Boshqaruv jarayonida shaxs omili, motivatsiya, kommunikatsiya hamda liderlik masalalari tahlil qilingan. Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasining zamonaviy tashkilotlar faoliyatidagi amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tashkiliy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, rahbarlik, liderlik, motivatsiya, kommunikatsiya, shaxslararo munosabatlar, jamoa.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida tashkilotlar faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan inson omiliga, xususan, rahbarlar va xodimlarning psixologik xususiyatlariga bog‘liq. Shu bois boshqaruv jarayonlarini nafaqat iqtisodiy va tashkiliy, balki psixologik jihatdan ham chuqur tahlil qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Aynan shu ehtiyoj tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi fanining rivojlanishiga asos bo‘lgan.

Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi tashkilotlarda inson xulqi, shaxslararo munosabatlar, rahbarlik uslublari, motivatsiya, kommunikatsiya hamda jamoa faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganadi. Ushbu fan sohasi boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ta’minlash va sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada tashkiliy va boshqaruv psixologiyasining nazariy asoslari, predmeti, vazifalari hamda zamonaviy tashkilotlar faoliyatidagi amaliy ahamiyati yoritiladi tashkiliy va boshqaruv psixologiyasining predmeti va vazifalari

Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi — bu tashkilotlar va boshqaruv tizimlarida inson omilining psixologik jihatlarini o‘rganuvchi fan sohasi hisoblanadi. Uning asosiy predmeti rahbar va xodimlar faoliyati, ularning o‘zaro munosabatlari, qaror qabul qilish jarayonlari va jamoaviy xulq-atvordir.

Mazkur fan quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- tashkilotda shaxslararo munosabatlarni tahlil qilish;
- rahbarlik va yetakchilik uslublarining psixologik asoslarini aniqlash;
- xodimlar motivatsiyasi va mehnatga munosabatini o‘rganish;
- konfliktlarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqish;
- boshqaruv jarayonida samarali kommunikatsiyani ta’minlash.

Bu vazifalar tashkilot faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruv jarayonida shaxs omili yetakchi o‘rin tutadi. Rahbar shaxsi, uning individual-psixologik xususiyatlari, boshqaruv uslubi va muloqot madaniyati tashkilot muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardandir.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, samarali rahbar quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

- mas’uliyatlilik va qat’iyatlilik;
- emotsional barqarorlik;
- kommunikativ kompetentlik;
- qaror qabul qilishda mustaqillik;
- empatiya va ijtimoiy sezgirlik.

Rahbarning ushbu sifatlari xodimlarda ishonch uyg‘otadi, jamoa a’zolarining faol ishtirokini ta’minlaydi va ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi.

Motivatsiya boshqaruv psixologiyasining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Xodimlarning mehnatga bo‘lgan munosabati, faolligi va ish samaradorligi ko‘p jihatdan ularning ehtiyojlari va motivlariga bog‘liq.

Tashkiliy psixologiyada motivatsiyaning ichki va tashqi turlari farqlanadi. Ichki motivatsiya shaxsning o‘z faoliyatidan qoniqish olishi bilan bog‘liq bo‘lsa, tashqi motivatsiya rag‘batlantirish, moddiy mukofot va ijtimoiy e’tirof orqali yuzaga keladi.

Samarali boshqaruv tizimida rahbar ushbu ikki turdagi motivatsiyani uyg‘unlashtirgan holda xodimlarning mehnat faoliyatini tashkil etishi zarur. Bu esa mehnat unumdorligini oshirish va kadrlar almashinuvini kamaytirishga xizmat qiladi.

Tashkilotda kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlar kommunikatsiyasi boshqaruv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, axborot almashinuvi orqali tashkilot faoliyati muvofiqlashtiriladi. Tashkiliy psixologiyada vertikal (rahbar–xodim) va gorizontal (xodimlar o‘rtasida) kommunikatsiya turlari ajratiladi.

Samarali kommunikatsiya quyidagi omillarga bog‘liq:

- axborotning aniqligi va tushunarliligi;
- muloqot jarayonida tinglash ko‘nikmasi;
- ochiqlik va ishonch muhitining mavjudligi;
- ijtimoiy-psixologik to‘siqlarning kamaytirilishi.

Shaxslararo munosabatlarning sog‘lom bo‘lishi jamoada ijobiy psixologik iqlimni shakllantiradi va tashkilot maqsadlariga erishishni osonlashtiradi.

Boshqaruv psixologiyasida liderlik tushunchasi alohida o‘rin egallaydi. Lider — bu jamoani ortidan ergashtira oladigan, boshqalarni ilhomlantiruvchi va maqsad sari yo‘naltiruvchi shaxsdir. Rahbarlik uslublari esa avtoritar, demokratik va liberal turlarga ajratiladi.

Zamonaviy tashkilotlarda demokratik va vaziyatga moslashuvchan rahbarlik uslubi eng samarali deb hisoblanadi. Chunki bu uslub xodimlarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi, mas’uliyat hissini kuchaytiradi va jamoaviy qaror qabul qilishni rag‘batlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi zamonaviy tashkilotlar faoliyatida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fan sohasi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish rahbar va xodimlar faoliyatining psixologik qonuniyatlarini o‘rganish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tashkilotlarda sog‘lom psixologik muhitni yaratish, motivatsiya tizimini takomillashtirish va samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish bevosita tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi yutuqlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Shu bois mazkur fan sohasi pedagogika, psixologiya va menejment yo‘nalishlarida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гозиев Э. Psixologiya. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Давлетшин М. Boshqaruv psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Абдуллаев А. Tashkiliy psixologiya asoslari. — Toshkent, 2018.
4. Ананьев Б.Г. Человек как субъект управления. — Санкт-Петербург, 2001.
5. Robbins S.P. Organizational Behavior. — New Jersey: Pearson, 2016.
6. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. — London: Sage, 2018.

O‘RTA OSIYODA PSIXOLOGIYA FANINING 20-ASRDA RIVOJLANISHI.

ADU Pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o’qituvchi Payziyeva M.N.

ADU Tarix va Ijtimoiy fanlar fakul'teti
Tarix 1-bosqich talabasi Abduxalimova O'g'iloy

ANNOTATSIYA: Maqolada 20-asr o'rta Osiyoda psixologiya fanining rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Sovet davrida pedagogik, ijtimoiy va klinik psixologiyaning shakllanishi, ilmiy tadqiqotlar va amaliy qo'llanishi yoritilgan. Psixologiyaning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ko'rsatildi.

KALIT SO'ZLAR:O'rta Osiyo, psixologiya fani, pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, klinik psixologiya, 20-asr, ilmiy rivojlanish.

20-asr o'rta Osiyo hududi ilmiy-texnik va madaniy rivojlanishning muhim bosqichlaridan o'tdi. Shu davrda psixologiya fani ham jadal rivojlanib, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda ilmiy tadqiqotlar bilan mustahkamlandi. Psixologiya shu davrda nafaqat nazariy fan sifatida, balki amaliy sohalarda — pedagogika, tibbiyot va huquq tizimida ham qo'llanila boshlandi.

O'rta Osiyo psixologiyasi Sovet davri ta'lim siyosati, ilmiy tashkilotlarning rivojlanishi va xalqaro psixologik tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi (Khusainova, 2010). Shu davrda psixologiyaning asosiy yo'nalishlari — rivojlanish psixologiyasi, pedagogik psixologiya va klinik psixologiya shakllana boshladi.

20-asr o'rta osiyoda psixologiya fanining tarixiy asosi ilk tadqiqotlar va maktablar 20-asr boshlarida psixologiya fani asosan G'arb psixologiyasi va fiziologiya ilmiy maktablarining ta'siri ostida shakllandi. Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida ta'lim muassasalarida psixologik tadqiqotlar va sinovlar boshlanib, pedagogik psixologiyaning asosiy konsepsiyalari ishlab chiqildi (Rakhimov, 2005).

Shu davrda psixologiya fani ko'proq pedagogik jarayonlarni o'rganish va bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan edi. Shu bilan birga, ruhiy kasalliklarni aniqlash va davolashga qaratilgan klinik psixologik tadqiqotlar ham rivojlana boshladi.

1920–1950-yillarda Sovet ta'lim va ilmiy siyosati O'rta Osiyoda psixologiyaning rivojlanishini rag'batlantirdi. Toshkent Pedagogika Instituti va boshqa ilmiy markazlar psixologiya laboratoriyalarini tashkil qildi. Shu davrda psixologiyaning quyidagi yo'nalishlari rivojlandi:

Rivojlanish psixologiyasi — bolalik va o'smirlik davri psixikasini o'rganish.

Pedagogik psixologiya — ta'lim jarayonida o'quvchilarni o'rganish va individual yondashuvlarni ishlab chiqish.

Klinik psixologiya — ruhiy kasalliklar, diagnostika va reabilitatsiya.

Sovet davrida psixologik bilimlar amaliy sohalarga keng joriy etilib, kasb-hunar ta'limi va maktab tizimida qo'llanildi.

Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar O'rta Osiyoda psixologiya fanining rivojlanishi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Shaxs va guruhlararo munosabatlar, motivatsiya, mehnat faoliyati va ijtimoiy normalar o'rganildi (Khusainova, 2010). Shu davrda pedagogik psixologiya maktablarda ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarni individual rivojlantirishga qaratildi.

Pedagogik psixologiyaning shakllanishi Pedagogik psixologiya bolalik va o'smirlik davrida kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishni o'rganishga asoslandi. Shu davrda psixologik testlar, kuzatuv va intervyu metodlari keng qo'llanila boshlandi. Bu metodlar ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish va samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qildi.

Klinika va terapevtik yo'nalishlar Sovet davrida ruhiy kasalliklarni aniqlash va davolashga qaratilgan klinik psixologiya ham rivojlana boshladi. Psixologik maslahatlar, terapevtik mashg'ulotlar va psixodiagnostika usullari ijtimoiy barqarorlikni saqlash va shaxsning ruhiy salomatligini ta'minlashga xizmat qildi.

Ta’lim tizimida qo‘llanilishi — psixologik bilimlar o‘quvchilarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini nazorat qilishga imkon berdi.

Sog‘liqni saqlashda ro’li — ruhiy kasalliklarni aniqlash va davolash, psixoterapiya va reabilitatsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash.

Ijtimoiy tadqiqotlar — guruh xatti-harakti, motivatsiya va ijtimoiy stereotiplarni tahlil qilish.

Huquqiy va ish faoliyatidagi qo‘llanish — shaxsning huquqiy xulq-atvori va ish faoliyatini tahlil qilish.

20-asr o‘rta Osiyoda psixologiya fani ilmiy va amaliy rivojlanishning muhim bosqichlarini boshdan kechirdi. Pedagogik, klinik va ijtimoiy psixologiya yo‘nalishlari shakllanib, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda qo‘llanildi. Shu davr psixologiyaning nazariy va metodologik asoslarini yaratish, shaxs va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qildi.

Hozirgi kunda ushbu rivojlanish psixologiyaning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish uchun poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khusainova, Z. (2010). Psixologiya fanining rivojlanishi O‘rta Osiyoda. Toshkent: Fan.
2. Rakhimov, A. (2005). Pedagogik psixologiya tarixi. Samarqand: Sharq.
3. Bartol, C. R., & Bartol, A. M. (2012). Introduction to Forensic Psychology: Research and Application. Thousand Oaks: SAGE Publications.
4. Myers, D. G. (2013). Psychology. New York: Worth Publishers.
5. Santrock, J. W. (2020). Life-Span Development. New York: McGraw-Hill.

INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘SMIRLAR RUHIYATIGA TA’SIRI

ADTI “O’zbek tili adabiyoti va tillar” kafedrasi o’qituvchisi Muydinxonov B.

ADTI Davolash fakul’teti 2 kurs talabasi Qodirova Feruzaxon Botirjon qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiy salomatligiga ta’siri, ularning onlayn va real hayotdagi balansni saqlash zaruriyati va raqamli savodxonlikning ahamiyati haqida batafsil tahlil qilinadi. Maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy va ijobiy tomonlari, psixologik stress, depressiya, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash va virtual ro’llarga qaramlik kabi muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yoshlarni onlayn xavfsizlik, media savodxonlik va raqamli gigiyena tamoyillari bilan tanishtirishning ahamiyati ta’kidlanadi. Zamonaviy tadqiqotlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan ruhiy va ijtimoiy muammolar misollari keltiriladi. Muallif yoshlar, ota-ona va pedagoglar uchun onlayn va offlayn hayotni uyg‘unlashtirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Shuningdek, maqola raqamli asrda yoshlar psixologik barqarorligini saqlashning strategik yo‘llarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, ruhiy salomatlik, onlayn muloqot, raqamli savodxonlik, media savodxonlik, raqamli gigiyena, depressiya, virtual “ro’l”, yoshlar, balans.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar deyarli barcha yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intensiv va nazoratsiz internetdan foydalanish ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ortga chekinmasdan ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan vaqt depressiya va tashvish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Doimiy “ideal hayot” tasvirlarini ko‘rish yoshlarni o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga undaydi. Bunday taqqoslash o‘zini yetarli deb bilmaslik hissi va komplekslar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy

tarmoqlarda kiber-ta’qib va salbiy izohlar yoshlar psixikasiga zarar yetkazadi. “Do‘stlar soni” va “like” bilan o‘lchanadigan qabul qilinish instinkti me’yordan ortiq onlayn faollikka olib keladi. Onlayn faollik real hayotdagi muloqot o‘rnini bosishi mumkin.Virtual munosabatlar real do‘stlik va yuzma-yuz suhbatlarni siqib chiqaradi. Bu holat yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarining zaiflashishiga sabab bo‘ladi. Onlayn va real hayot orasidagi chegarani aniqlay olmaslik shaxsiy identifikatsiya muammolarini keltirib chiqaradi. Yoshlar real muammolarni onlaynda yashirish vositasi sifatida ko‘radi.Internet va ijtimoiy tarmoqlar faqat salbiy emas, ular ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yangi do‘stliklar imkonini beradi. Qiziqishlar, hobbi va ta’lim bilan bog‘liq guruhlar yoshlarni ijobiy muhit bilan ta’minlaydi. Onlayn ta’lim va malaka oshirish imkoniyatlari bugungi kunda kengaygan. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun imkoniyatlar manbai bo‘lishi mumkin, agar ular ongli ishlatilsa. Texnologiyalar tez o‘zgarib boradi, bu esa yangi psixologik xatarlarni keltirib chiqaradi. 2025-yil tadqiqotlari ortiqcha internetdan foydalanish depressiya va ruhiy tushkunlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tarmoqlardagi salbiy kontent yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatiga ta’sir qiladi. Axborotni tanqidiy baholay olmaslik manipulyatsiyalarga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlardan mo‘tadil foydalanish foydali, haddan tashqari esa muammo tug‘diradi. “Raqamli gigiyena” tushunchasi yoshlar uchun muhimdir. Media savodxonlik yoshlarni manipulyatsiyadan himoya qiladi. Ota-ona va pedagoglar yoshlarni onlayn xatarlar haqida ogohlantirishi lozim. Maktablarda raqamli savodxonlik bo‘yicha darslar foydali bo‘ladi. Ochiq suhbat va qo‘llab-quvvatlash yoshlar ruhiy salomatligi uchun muhimdir. Onlayn va offlayn hayot balansda bo‘lsa, raqamli muhit foydali bo‘ladi. Aks holda, ruhiy salomatlik va ijtimoiy ko‘nikmalar zarar ko‘radi. Har bir o‘smir raqamli muhitda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim va ijod uchun foydalanishi kerak. Ekran oldida sarflangan vaqt va real hayot faoliyati muvozanatda bo‘lishi lozim. Uyqu sifati internetdan foydalanishga bog‘liq. Kechga yaqin telefon va video ko‘rish uyqu rejimini buzadi. Uyqusizlik diqqat va o‘qishga ta’sir qiladi. Ko‘p onlayn kontent emotsional zo‘riqishga olib keladi. Psixologik stress va hissiy beqarorlik holatlari ko‘payadi. Yoshlar virtual “rol”larga bog‘lanib, o‘zligini unutadi. Bu identifikatsiya va o‘ziga bo‘lgan hurmatni pasaytiradi. Ba’zi o‘smirlar virtual muvaffaqiyatga intilib, real maqsadlarni unutadi. Shaxsiy rivojlanish va maqsadlar ikkinchi planga tushadi. Yuzma-yuz suhbatlar kamayadi, ijtimoiy ko‘nikmalar zaiflashadi. Ota-ona va pedagoglar salbiy tomonlarni ochiq tushuntirishi kerak. Faoliyat ko‘ngilochar, ta’lim va ijodga asoslangan bo‘lishi lozim. Yoshlarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish zarur.

Axborotni tahlil qilish va filtrlar yordamida manipulyatsiyadan himoya qilish kerak. Media savodxonlik va kontentni tanqidiy baholash ko‘nikmasi zarur. Shaxsiy ma’lumotlar va onlayn xavfsizlikni tushunish muhim. O‘smirlar onlayn va real hayotni ajrata olishi kerak. Raqamli muhitda o‘sishga yordam beruvchi funksiyalar ko‘p. Onlayn kurslar va o‘quv guruhlari yoshlar imkoniyatini kengaytiradi. Yangi do‘stlar va qiziqish guruhlari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash beradi.

Hulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida faqat vosita emas, balki kuchli ta’sir kuchiga ega muhit ekanligi aniqlandi. Ular ruhiy salomatlik, o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘lni belgilaydi. Ortga chekinmasdan o‘smirlar virtual dunyoga qaramlikka tushishi mumkin, bu esa real hayotni unutishga yetaklaydi. Depressiya, tashvish, uyqusizlik va emotsional zo‘riqish kabi muammolar internetdan haddan tashqari foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Har bir “like” va “follow” yoshlar uchun kichik, lekin keskin stress manbaiga aylanadi.

Onlayn taqqoslash hissi shaxsiy qadr-qimmat va o‘ziga bo‘lgan hurmatni sezilarli darajada pasaytiradi. Ammo internet va ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ishlatilsa, yoshlarni rivojlantiruvchi va ilhomlantiruvchi vosita bo‘lishi mumkin. Raqamli savodxonlik va media savodxonlik har bir yosh uchun himoya qalqoni vazifasini bajaradi. Ota-ona va pedagoglarning doimiy qo‘llab-quvvatlashi yoshlarning onlayn xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Real hayot va virtual dunyo o‘rtasidagi me’yorni anglash yoshlar ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Har bir o‘smir shaxsiy chegaralarni belgilashni va ekran vaqtini nazorat qilishni o‘rganishi zarur. Uyqu, sport va real ijtimoiy muloqot bilan balansni saqlash eng muhim strategiya hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodiy va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Yoshlar yangi do‘stlar topish, qiziqish asosida guruhlar yaratish va bilim olish imkoniyatiga ega. Biroq har bir onlayn muloqot va kontent tanqidiy baholanishi lozim. Virtual muvaffaqiyatga intilish real hayotdagi maqsad va qadriyatlarni unuttirmasligi kerak. Raqamli asrda shaxsiy rivojlanish va ruhiy barqarorlik bir-biriga bog‘liq jarayonlarga aylangan. Yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni va onlayn stressni kamaytirishni o‘rganishi shart.

Ijtimoiy tarmoqlarni ongli va maqsadli ishlatish ijtimoiy rivojlanish uchun kalit hisoblanadi. Har bir yosh uchun media savodxonlik, raqamli gigiyena va xavfsizlik bo‘yicha strategiyalar zarur. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ishlatilganda yoshlarni motivatsiya qiluvchi kuchga ega. Aks holda, ular ruhiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga xavf tug‘diradi. Yoshlar onlayn va real hayot balansini saqlashni o‘rganishi — kelajakdagi muvaffaqiyat va farovonlikning kafolati. Shuning uchun har bir o‘smir, ota-ona va pedagog birgalikda harakat qilishi lozim. Internetni ongli va mas’uliyatli ishlatish orqali yoshlar hayotini boyitish, ruhiy salomatlikni mustahkamlash va kelajakni nurli qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boyd, D., & Ellison, N. (2007). Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 13(1), 210–230.
2. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. Atria Books.
3. Kross, E., et al. (2013). Facebook Use Predicts Declines in Subjective Well-Being in Young Adults. PLOS ONE, 8(8), e69841.
4. Orben, A., & Przybylski, A. K. (2019). The association between adolescent well-being and digital technology use. Nature Human Behaviour, 3, 173–182.
5. Livingstone, S., & Smith, P. K. (2014). Annual Research Review: Harms experienced by child users of online and mobile technologies. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 55(6), 635–654.

KLINIK VA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING DOLZARB MASALALARI, NAZARIY VA AMALIY TAHLIL

ADTI “O’zbek tili adabiyoti va tillar” kafedrasi o’qituvchi Toshmatova M
ADTI Davolash 201[a] guruh talabasi
Rasuljonova Xushnoza

ANNOTATSIYA: Maqolada klinik va psixologik salomatlikning dolzarb masalalari tahlil qilingan. Stress, emotsional barqarorlik, psixosomatik kasalliklar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va

biopsixososial yondashuvlar asosida klinik va psixologik salomatlikni ta’minlashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Klinik salomatlik, psixologik salomatlik, stress, emotsional barqarorlik, psixosomatik kasalliklar, biopsixososial yondashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Inson salomatligi — bu nafaqat jismoniy holat, balki psixologik va ijtimoiy barqarorlikni ham o‘z ichiga olgan murakkab tushuncha hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta’rifiga ko‘ra, sog‘liq — bu kasallik yo‘qligi emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir. Shu sababli klinik va psixologik salomatlik masalalari zamonaviy tibbiyot, psixologiya va pedagogika sohalarida dolzarb mavzulardan biri sifatida qaraladi.

Klinik salomatlik kasalliklarning diagnostikasi, davolash va oldini olish bilan bog‘liq bo‘lsa, psixologik salomatlik shaxsning ruhiy barqarorligi, emotsional holati va stressga chidamliligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda stress, travma, depressiya, psixosomatik kasalliklar va psixologik moslashuv muammolari global muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.Mazkur maqolada klinik va psixologik salomatlikning dolzarb masalalari, ularni o‘rganishning nazariy asoslari va amaliy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kasalliklarning profilaktikasi va diagnostikasi klinik salomatlikni ta’minlashda eng muhim masalalardan biri kasalliklarning vaqtida aniqlanishi va profilaktik choralarni amalga oshirishdir. Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklari, endokrin tizim kasalliklari, saraton va yuqumli kasalliklar global sog‘liq muammolari sifatida e’tirof etilgan.Profilaktika va erta diagnostika orqali bemorlar uchun davolash samaradorligi oshadi, kasallikning surunkali bosqichga o‘tishi oldi olinadi va umumiy sog‘liqni saqlash samaradorligi oshadi. Psixosomatik kasalliklar psixosomatik kasalliklar ruhiy holat va jismoniy salomatlik o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Stress, travmatik hodisalar va doimiy emotsional zo‘riqish organizmning immun tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, yurak, oshqozon-ichak va boshqa organlarda kasalliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli klinik salomatlikni ta’minlashda psixologik faktorlarni hisobga olish zarur.

Stress va uning oqibatlari zamonaviy hayot sharoitida stress psixologik salomatlikka eng katta tahdid hisoblanadi. Stressning uzoq davom etishi depressiya, asabiylashuv, uyqu buzilishi va ijtimoiy moslashuv muammolarini yuzaga keltiradi. Shu bois stressni aniqlash, boshqarish va bartaraf etish metodlari psixologik salomatlikning dolzarb masalalari sifatida qaraladi.

Emotsional barqarorlik shaxsning kundalik hayotdagi qiyinchiliklarga moslashishi, hissiy reaksiyalarini boshqarishi va ijtimoiy muloqotda muvaffaqiyatli bo‘lishi bilan belgilanadi. Emotsional barqarorlik yetarli bo‘lmagan shaxslarda psixologik muammolar ko‘p uchraydi, shu jumladan, depressiya, xavotir, uyatsizlik va agressiya.

Psixologik salomatlikni ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi. Oila, do‘stlar va ish muhitidagi qo‘llab-quvvatlash shaxsning ruhiy holatini barqarorlashtiradi, stress va xavotirni kamaytiradi. Shu sababli psixologik maslahatlar, treninglar va psixoterapiya zamonaviy psixologik amaliyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Klinik va psixologik salomatlikning integrallashgan yondashuvi zamonaviy sog‘liqni saqlash amaliyotida klinik va psixologik yondashuvlarni birlashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Masalan, psixosomatik kasalliklarda dori-darmon terapiyasi bilan birga psixologik qo‘llab-quvvatlash, stressni boshqarish metodlari qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, ruhiy salomatlikni mustahkamlash orqali bemorlarning umumiy sog‘lig‘i yaxshilanadi, kasallikning surunkali bosqichga o‘tishi sekinlashadi va davolash samaradorligi oshadi.

Dolzarb masalalarning nazariy asoslari biopsixososial yondashuv klinik va psixologik salomatlikni tushunishda asosiy nazariy asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, sog‘liq shaxsning biologik, psixologik va ijtimoiy faktorlarining o‘zaro ta’siri natijasida belgilanadi.

Psixologik salomatlikni ta’minlashda kognitiv-behavoral terapiya, stressni boshqarish treninglari, emotsional qo‘llab-quvvatlash va boshqa psixoterapevtik metodlar samarali hisoblanadi. Klinik va psixologik salomatlik zamonaviy jamiyatdagi eng dolzarb masalalardan biri

hisoblanadi. Kasalliklarning profilaktikasi, psixosomatik muammolar, stress, emotsional barqarorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash klinik va psixologik salomatlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Klinik va psixologik yondashuvlarni birlashtirish, biopsixososial nazariya asosida muolaja olib borish, sog‘lom shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu masalalarni chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziev E. Sog‘liqni saqlash psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Davletshin M. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Lazarus R., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. — New York: Springer, 1984.
4. Engel G. The Biopsychosocial Model and Health. — New York: Norton, 1977.
5. World Health Organization. Mental Health: Strengthening Our Response. — Geneva: WHO, 2018.
6. Erikson E. Identity and the Life Cycle. — New York: Norton, 1980.

ILK BOLALIK (1–3 YOSH) DAVRIDA IJTIMOIY RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI

ADTI O’zbek tili adabiyoti va tillar kafedrasi
PhD Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna
ADTI Davolash fakul’teti 2-kurs talabasi
Mahammadonov Feruzbek Adahamjon o'g'li

Annotatsiya: Ilk bolalik davri (1–3 yosh) da shakllanishi. Asosiy psixik jarayonlarning mazmuni va ularning bola rivojlanishidagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot beradi.

Ilk bolalik inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu yillarda idrok, xotira, tafakkur, nutq va emotsional holatlar jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. 1–3 yosh oralig‘ida yuzaga keladigan sensor-motor rivojlanish, faol harakatlar.

Kalit so'zlar: Ilk bolalik davri, 1–3 yosh, psixik rivojlanish, idrok, xotira, tafakkur, nutq rivoji, emotsional rivojlanish, sensor-motor jarayonlar, ijtimoiy muloqot, shaxs shakllanishi, rivojlanish omillari.

Bolalikning ilk davri – bu inson rivojlanishining go‘daklikdan keyingi va o‘rta bolalikdan oldingi bosqichidir. Bu bosqich bir necha yillarni o‘z ichiga oladi va bu davrni o‘yin yoshi deb ham ataladi.Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadi.

Ma’lumki, ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to‘siqlardan oshib o‘tish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalaming ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarakatrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi. Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo‘q bo‘lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o‘zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlami o‘zlashtira boshlaydi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola o‘zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko‘z o‘ngidagi hamma narsalami tekshirib ko‘radi. Natijada juda ko‘p yangiliklarni bilib oladi, o‘zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini — umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Bu yoshdagi davrda sezgilaming rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog‘liqdir.Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, teri va

harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalaiga bevosita to‘qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Bolaning sezgisi rivojlangan sari idroki ham rivojlana boshlaydi.

Bu yoshdagi bolalaming idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko‘zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko‘chib keta veradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo‘lgani uchun ular o‘zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg‘otadigan narsalarni idrok qiladilar.Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalami umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalami qanday bo‘lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlami idrok qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko‘rsatilsa, hayron bo‘lib, otning o‘zi qani, deb so‘raydi.Bola idrokining takomillashuvida so‘z kata ahamiyatga ega. Bola so‘z yordamida o‘xshash narsalami oddiygina guruhlaiga ajrata boshlaydi.

Ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalami to‘g‘ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yo‘q.

Bir yoshgacha bo‘lgan bolalaming diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo‘lsa, ikki yoshga to‘lgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi.Bola o‘sib ulg‘aygan sari uning diqqati barqaror bola boshlaydi. Diqqatning ozmi-ko‘pmi barqaror bola boshlagani shundan ko‘rinadiki, bola o‘zini qiziqtiigan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug‘ullana oladi. Ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygach so‘zlarni tushunadi. So‘z boyligi ortgach, bolaning o‘ziga xos bo‘lgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalari, ya’ni analiz, umumlashtirish kabilami ko‘ramiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushgan narsalarni paypaslab, buzib analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurblari yetmaydi. Bu yoshning oxiriga kelib tafakkurning o‘sishida nutqning roli juda oshadi.

Jan Pjiae (Jean Piaje) 1–3 yoshdagi bolalar tafakkuri va xotirasini ob’ektning doimiyligi tajribasi orqali isbotlagan. U bola ko‘z o‘ngida o‘yinchoqni yashirgan. 1 yoshda bola uni qidirmaydi – “yo‘q bo‘ldi” deb o‘ylaydi, 2 yoshga yaqin bola yashirilgan narsani qidirib topadi. Bu tajriba orqali, 2 yoshdan boshlab bola ko‘rinmayotgan narsaning ham mavjudligini eslab, aqliy tasavvur qila oladi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bolmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi, lekin bu asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Nutqning o‘sishi bola xayolining o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo‘lgach, har xil ertak va hikoyalami qiziqib tinglaydi.

1–3 yoshdagi bolalarda xotira asosan ixtiyorsiz shaklda rivojlanadi: bola ko‘proq qiziqtirgan, ko‘p takrorlangan va hissiy ta’sir qilgan voqealarni oson eslab qoladi. Bu davrda tasvirli xotira (ko‘rgan narsasini eslab qolish), harakat xotirasi (o‘rgangan harakatlarni takrorlash) va nutq orqali eslab qolish tez kuchayadi. Emotsional tajribalar — mehr, quvonch, o‘yin — xotiraning shakllanishida eng muhim omillardan biridir.

Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o‘sgan bola tevarak-atrofdagi har xil narsalaiga ongli munosabatda bola boshlaydi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M.Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o‘z sezgilarini tevarak-atrofdagi narsalardan ajratib, o‘z-o‘zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalaming so‘z boyligida o‘z shaxsini bildiruvchi “men” degan olmosh tez-tez uchrab turadigan boladi. Ana shu tariqa bola juda elementlar tarzda bolsa ham o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. A.P. Usova aytganidek uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o‘ynay olashadi.

Xulosa qilib aytganda 1–3 yosh davri bolaning psixik rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Shu yoshda shakllanadigan idrok, diqqat, xotira, nutq, tushuncha, fantaziya va ijtimoiy

qobiliyatlar uning kelajakdagi bilim olish, muloqot va ijodiy faoliyati uchun mustahkam poydevor

yaratadi. Bolaning o‘rganishi va rivojlanishida ota-ona roli ajralmas ahamiyatga ega: ular mehrmuhabbat, xavfsizlik va doimiy muloqot orqali bolaga hissiy barqarorlik beradi, o‘yinda ishtirok etish orqali tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bois, ilk bolalik davri nafaqat bolaning shaxsiyati va hissiy dunyosini shakllantiradigan davr, balki ota-ona qo‘llab-quvvatlashi bilan uning intellektual, ijtimoiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy poydevor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent:
1. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
2. Sunnatova R. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018. (1–3 yosh psixik rivoji, xotira, idrok va emotsional rivojlanish haqida bo‘limlar mavjud.)
3. Jalilova S. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2015. (Ilk bolalik davri psixik jarayonlari, sensor-motor rivojlanish keng yoritilgan.)
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi metodik qo‘llanmalari (2019–2023).
5. (Erta yoshdagi bolalar rivojlanishi bo‘yicha rasmiy metodik tavsiyalar.) S.Jalilova. Bolalar psixologiyasi. TDIU nashriyoti, Toshkent, 2015.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi metodik qo‘llanmalari, 2020–2023.

SHAXSNING SHAKLLANISHI RAQAMLI ONLAYN VA OFFLAYN “MEN” O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK ZIDDIYATLAR

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
o’qituvchisi Abdurazzoqov Sh.Z.

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning raqamli makondagi “ideal men” obrazi va real hayotdagi “haqiqiy men” o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik tafovutlar chuqur tahlil qilinadi, ularning shakllanish mexanizmlari zamonaviy psixologiya nazariyalari asosida yoritiladi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda e’tibor, izoh va bildirishnomalarga qaramlik insonning o‘zini baholashi, emotsional barqarorligi va ruhiy salomatligiga qanday ta’sir qilishi ilmiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Ushbu maqolada virtual makonda o‘zini ijobiyroq ko‘rsatish istagi natijasida paydo bo‘ladigan ziddiyat, tashvish va ichki konfliktlar shaxsning kundalik hayotidagi xulq-atvori bilan bog‘lab izohlanadi. Ushbu maqolada shaxsning onlayn va offlayn identifikatsiyasi o‘rtasidagi nomutanosiblik ijtimoiy solishtirish, ijtimoiy ta’sir va psixologik moslashuv jarayonlari misolida tahlil qilinadi. Ushbu maqolada raqamli shaxsni barqaror shakllantirish, real va virtual obrazlar uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so’zlar; Raqamli shaxs, virtual identifikatsiya, onlayn “men”, offlayn “men”, ideal obraz, ijtimoiy tarmoqlar, o‘zini baholash, psixologik moslashuv, emotsional bosim, ijtimoiy solishtirish, internet qaramlik, o‘zini taqdim etish, raqamli ziddiyat, shaxsiy rivojlanish, virtual kommunikatsiya, psixologik xavotir

Raqamli muhit inson psixologiyasini tubdan o‘zgartirayotgan eng kuchli omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda, chunki ijtimoiy tarmoqlar shaxsning kundalik hayotida doimiy psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining virtual sahifasi orqali atrofdagilar ko‘zi oldida qanday ko‘rinishni xohlasa, aynan shunday obraz yaratishga intiladi va bu identifikatsiya jarayonini murakkablashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o‘zlarini ideallashtirilgan ko‘rinishda taqdim etishi real hayotdagi o‘zlikdan uzoqlashuvga olib kelishi mumkin. Ko‘pincha insonlar ijtimoiy tarmoqdagi imidjlarini saqlab qolish uchun hissiyotlarini yashiradi va real his-tuyg‘ularini virtual niqob ostiga joylashtiradi. Raqamli muloqotda yuz ifodalari, tana tili yo‘qligi sababli emotsiyalar filtrlab uzatiladi va bu hissiy aloqalarning chuqurligiga putur yetkazadi. Virtual dunyoda o‘zini erkin namoyon qilish imkoniyati insonni real muhitda yuzlashishi kerak bo‘lgan vazifalar va mas’uliyatlardan uzoqlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuchli vizual ta’sir insonni tashqi ko‘rinish va mavqega haddan ortiq e’tibor berishga undaydi. Har kuni boshqalar hayotini kuzatish insonda taqqoslash sindromini shakllantiradi va bu o‘zini past baholash xavfini oshiradi. Ko‘pchilik odamlar o‘z hayoti boshqalarnikidan ortda qolyapti degan fikrni o‘ylab, ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, doimiy taqqoslash stress va xavotir darajasini orttiradi. Layklar, sharhlar va kuzatuvchilar soni odamning o‘zini qadrlash mezoniga aylanganda psixologik qaramlik kuchayadi. Raqamli e’tiborga bog‘lanib qolgan shaxs, e’tibor kamayganda o‘zini keraksiz his qilishi mumkin. Shaxsning ijtimoiy tarmoqlarga psixologik qaramligi real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning zaiflashuviga olib keladi.

Doimiy onlayn bo‘lish istagi insonni aqliy hordiqdan mahrum qiladi va miyasiga haddan ortiq yuk tushiradi. Aniqlanganidek, uzluksiz bildirishnomalar va xabar kutish holati psixikani doimiy hushyorlikka majbur qiladi. Bu esa uyqu sifatining buzilishiga, diqqatning tarqoqlashishiga va ish samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt sarflovchi yoshlar doimiy ravishda tasdiqlanishga muhtoj bo‘lib boradi. Virtual muhitda olingan qisqa muddatli lazzatlar uzoq muddatli motivatsiyani pasaytiradi. Shaxsning e’tibor markazi doimiy rag‘bat izlashga ko‘chadi va bu odatni tark etish qiyin bo‘ladi. Ko‘p tadqiqotlarda qayd etilishicha, ijtimoiy tarmoqlardan cheklangan foydalanish inson ruhiy salomatligi uchun foydaliroqdir. Raqamli hayotning tezkorligi vaqtning psixologik idrokini buzadi: vaqt juda tez o‘tyotgandek his qilinadi. Odamlar vaqtni ko‘proq internetda sarflab, real faoliyatga kamroq e’tibor qaratadi. Virtual aloqa osonligiga qaramay, real ijtimoiy qo‘rquv kuchayishi mumkin, chunki odam yuzma-yuz muloqotda o‘zini erkin his etmay qo‘yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘plab tanishlar orttirish mumkin bo‘lsa-da, chuqur va ishonchli munosabatlar kamayadi. Bu holat yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi, garchi inson virtual dunyoda minglab “do‘stlar”ga ega bo‘lsa ham. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsga o‘zini yangidan kashf qilish va ijodkorlik imkoniyatini beradi, lekin shu bilan birga ruhiy himoyasizlikni ham kuchaytiradi. Virtual jamoalarda inson o‘z fikrini oson bildira olganiga qaramay, salbiy sharhlar unga kuchli psixologik zarba bo‘lishi mumkin. Kiberta’qib va onlayn agressiya stress, tashvish va ishonchsizlikni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Anonimlik sababli odamlar real hayotda aytolmaydigan so‘zlarni aytib, boshqalarga ruhiy zarar yetkazadi. Shaxsning ruhiy chegaralari buzilganda, u o‘zini himoyasiz his qiladi va bu ruhiy travmaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi integratsiyalashgan reklama inson xulqiga ong osti orqali ta’sir ko‘rsatadi va iste’molchilikni kuchaytiradi. Inson doimiy tarzda axborot oqimi ichida bo‘lgani uchun miyasiga dam berishga vaqt qolmaydi. Axborot ortiqligidan charchash (information overload) diqqatning buzilishi va qaror qabul qilish qiyinchiligini kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan cheklanmagan axborot insonni fikran tarqoqlashtirib, ma’lumotni chuqur tahlil qilish qobiliyatini pasaytiradi. Insonlar algoritmlar boshqaradigan axborot muhitida yashayotganini sezmay qoladi va bu mustaqil fikrlashga ta’sir qiladi. Algoritmlar shaxsga aynan qaysi kontentni ko‘rsatishi orqali uning qiziqishlari va e’tiqodlarini shakllantiradi. Bu holat psixologik manipulyatsiya shakllaridan biri sanaladi va ruhiy mustaqillikni zaiflashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda yaratiladigan mukammallik illyuziyasi haqiqiy hayotdagi kamchiliklarni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Ba’zi yoshlar o‘zini kamerada ko‘rinadigan qiyofasiga qarab,

jismoniy koʻrinishidan norozi boʻla boshlaydi. Koʻrinishidan norozi boʻlish tana haqidagi tashvishlarni kuchaytiradi va ba'zan depressiyaga sabab boʻladi. Virtual muhitda inson oʻzini doimiy ravishda boshqalar talablari va trendlariga moslashtiradi. Bu esa shaxsiy qadriyatlarning oʻzgarishiga olib keladi va mustaqil fikr yuritishni qiyinlashtiradi. Raqamli platformalarda soxta axborot va manipulyativ kontentga duch kelish ruhiy xavotirlarni kuchaytiradi. Axborot ishonchliligining pasayishi insonni chalkash fikrlashga olib keladi va psixologik beqarorlikni orttiradi. Doimiy raqamli tashvish shaxsning ijtimoiy munosabatlarga boʻlgan ishonchini ham pasaytiradi. Virtual olamdagi ijobiy stimullar tezda tugaganida, inson oʻzining psixologik boʻshligini chuqurroq his qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar vaqt oʻtishi bilan maqsadsiz foydalanishga aylanib qolishi va bu odamni ichki boʻshlikka olib kelishi mumkin.

Psixologlar fikricha, raqamli hayotning koʻrinishi koʻpincha hissiy ehtiyojlardan qochish strategiyasiga aylanadi. Bu strategiya psixikani vaqtinchalik yengillik bilan ta'minlasa-da, muammo ildizini hal qilmaydi. Inson real hayotiy muammolardan qochib virtual qulay zonaga yashiringan sari ruhiy zaiflik kuchayadi. Raqamli psixologik mavjudlik shaxsning ruhiy energiyasini sezilarli darajada iste'mol qiladi va bu charchoqni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ziyod qaram boʻlgan insonlar oʻz hayotlari ustidan nazoratni yoʻqotib qoʻyishi mumkin. Bu qaramlik xulq-atvorini boshqarish qiyinlashadi va ruhiy salomatlik muammolari kuchayadi. Tadqiqotlarda qayd etiladiki, ijtimoiy tarmoqlardan me'yorida foydalanish inson uchun foydali, lekin chegaradan oʻtish ruhiy salomatlikni izdan chiqaradi. Demak, raqamli muhit inson psixologik hayotining ajralmas qismi boʻlib bormoqda va u shaxs ongining yangi shakllanish bosqichiga aylanmoqda. Raqamli psixologik mavjudlikning rivojlanishi psixologiya fanidan yangi yondashuv, yangi tadqiqot metodlari va kompleks oʻrganishni talab etadi. Bugun psixika ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida yangicha shakllanayotgan boʻlsa, ertaga bu jarayon ruhiy evolyutsiyaning asosiy yoʻnalishiga aylanadi. Virtual olamning cheksiz imkoniyatlari inson ongini kengaytirsa-da, ruhiy xavflar va mas'uliyatni ham orttiradi. Raqamli hayot bilan real hayot oʻrtasida muvozanatni topa olish shaxsning eng muhim psixologik koʻnikmalaridan biriga aylanmoqda. Agar inson raqamli mavjudlik va real mavjudlikni uygʻunlashtira olsa, ruhiy salomatlik barqaror boʻladi. Aks holda, virtual dunyo shaxsni oʻzi yaratgan sun'iy haqiqat ichida yoʻqotib qoʻyishi mumkin.

Raqamli psixologik mavjudlik shaxsning ongiy evolyutsiyasi jarayonida paydo boʻlgan, real va virtual haqiqat oʻrtasidagi chegaralarni keskin oʻzgartiruvchi murakkab psixologik hodisa sifatida inson ruhiyatining har bir qatlamiga ta'sir koʻrsatmoqda.

Raqamli muhitda shaxs oʻzini ideallashtirilgan obraz orqali namoyon etishi real hayotdagi oʻzlik bilan mos kelmaydigan psixologik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu holat oʻzini anglash jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Virtual aloqalar inson oʻrtasidagi muloqotni osonlashtirsada, ular vaqt oʻtishi bilan hissiy chuqurlikdan mahrum boʻlib, ijtimoiy yaqinlikning barqarorligini susaytirishi mumkin boʻladi.

Shaxs raqamli maydonda oʻzligining turli koʻrinishlarini yaratishi natijasida bir vaqtning oʻzida bir nechta rolni bajarishga majbur boʻladi, bu esa psixologik moslashuvchanlikni oshirgan holda ruhiy charchoq xavfini ham kuchaytiradi.

Raqamli kommunikatsiyaga ortiqcha bogʻliqlik insonning real ijtimoiy munosabatlariga boʻlgan ehtiyojini pasaytirib, psixologik izolyatsiya va yolgʻizlik hissini keltirib chiqara oladi.

Virtual muhitda muvaffaqiyat raqamli koʻrsatkichlar asosida baholanishi shaxsning oʻzini qadrlash darajasini tashqi omillarga bogʻlab qoʻyadi va ichki barqarorlikning zaiflashuviga sabab boʻladi.

Emotsional tajribalar virtual muhitda ham real fiziologik reaksiya bilan kechgani sababli inson psixikasiga chuqur iz qoldirishi ham mumkin, lekin ular koʻpincha tezda soʻnib ketuvchi vaqtinchalik hissiyotlar bilan chegaralanadi.

Raqamli xotiraning kuchayishi va ma'lumotlarni tashqi omborga topshirish odati asta-sekin insonning mustaqil eslab qolish qobiliyatini zaiflashtirib, ongning tabiiy faoliyatini oʻzgartiradi.

Anonimlikning mavjudligi shaxsga erkinlik bagʻishlasa-da, ijtimoiy me'yorlar sustlashuvi va mas'uliyatsiz xulq-atvorning kuchayishi kabi salbiy oqibatlarni ham yuzaga keltiradi.

Raqamli olamda ijtimoiy taqqoslash doimiy jarayonga aylangani sababli inson o‘zini boshqalar bilan solishtirib, ruhiy beqarorlik, xavotir va past baholanish sindromiga duch keladi.

Virtual yaqinlikning tez va oson shakllanishi psixologik qoniqish uyg‘otsa-da, uning beqarorligi kuchli ruhiy zarbalar xavfini orttiradi va munosabatlarning sun’iyligini yanada kuchaytiradi.

Raqamli muhitning keskin tezkorligi psixikani doimiy yangilik va rag‘batga qaram holda ushlab turadi, bu esa uzoq muddatli maqsadlarga e’tibor qaratish qobiliyatini pasaytiradi.

Shaxs virtual makonda o‘zini ideal tasvirlashga odatlanib qolganida real hayotdagi kamchiliklarni qabul qilish yanada og‘irlashadi va psixologik inqiroz yuzaga kelishi mumkin.

Raqamli himoya mexanizmlari shakllangani holda psixikani zararli axborot oqimidan himoya qilsa-da, ayrim holatlarda bu mexanizmlar real hayot muammolaridan qochish vositasiga aylanadi. Virtual muhitdagi ijtimoiy qadriyatlar ko‘pincha haqiqiy jamiyat qadriyatlaridan keskin farq qilgani uchun shaxsning moslashuv jarayoni ikki xil standart o‘rtasida bo‘linib qoladi. Shaxs raqamli muhitda o‘ziga xos “qo‘shimcha haqiqat” yaratib, unda yashashga ko‘proq intilar ekan, real hayotdagi mas’uliyat va vazifalardan uzoqlashish xavfi katta bo‘ladi.

Raqamli identifikatsiya jarayonida shaxs o‘zining kimligini boshqalar tasdig‘iga bog‘lashi natijasida ruhiy mustaqillik susayishi va psixologik qaramlik kuchayishi ehtimoli mavjud. Virtual psixologik maydon doimiy o‘zgarishda bo‘lgani uchun inson ongining moslashuvchanligi ham yuqori bo‘lishi kerak, aks holda ruhiy muvozanatning buzilishi muqarrar bo‘lib qoladi.

Kelajak psixologik tadqiqotlarida raqamli mavjudlikning shaxs rivojlanishi, emotsional barqarorlik, motivatsion tizim va ijtimoiy moslashuvga ta’siri chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Natijada, raqamli psixologik mavjudlik fenomeni inson ruhiyatining yangi davrda qayta shakllanishi, uning imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, mas’uliyatli va ehtiyotkor yondashuvni ham talab etadigan dolzarb psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.
2. Przybylski, A. K., & Weinstein, N. (2019). Digital screen time and psychological wellbeing: Evidence from a population study. Computers in Human Behavior, 93, 13–24.
3. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). Social Networking Sites and Addiction: Ten Lessons Learned. International Journal of Environmental Research and Public Health, 14(3), 311–330.
4. Goggin, G. (2021). Digital Media and Society. Polity Press.
5. Howard, P. N. (2020). Lie Machines: How to Save Democracy from Troll Armies, Deceitful Robots, Junk News Operations. Yale University Press.
6. Nash, K. (2022). Identity in the digital age: Psychological implications of online self-presentation. Journal of Cyber Psychology, 8(2), 45–62.

OILA PSIXOLOGIYASI VA GENDER TADQIQOTLARINI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY NAZARIY VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi
katta o’qituvchisi Payziyeva M.N.
Tarix fakul’teti 1-bosqich talabasi
Azimova Feruzaxon

ANNOTATSIYA: Maqolada oila psixologiyasi va gender tadqiqotlarning nazariy asoslari yoritilgan. Oilaviy munosabatlarda gender ro’llari, er-xotin va ota-onalik munosabatlarining

psixologik jihatlari tahlil qilingan. Gender yondashuvning sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Oila psixologiyasi, gender tadqiqotlar, gender ro’llari, er-xotin munosabatlari, ota-onalik, gender tenglik, oilaviy munosabatlar.

Zamonaviy jamiyatda oila ijtimoiy institut sifatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va ma’naviy kamolotida yetakchi ro’l o‘ynaydi. Oila muhitida shaxslararo munosabatlar, emotsional aloqalar, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Shu sababli oilaviy munosabatlarni psixologik jihatdan o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda oila psixologiyasini gender tadqiqotlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Gender tadqiqotlar erkak va ayol rollari, ularning oiladagi vazifalari, ijtimoiy kutilmalar hamda tenglik masalalarini tahlil qilishga qaratilgan. Gender yondashuvi oilaviy munosabatlarni chuqurroq anglash, nizolar sabablarini aniqlash va sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada oila psixologiyasining nazariy asoslari, gender tadqiqotlarning mazmuni va ularning oilaviy munosabatlarga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Oila psixologiyasi — bu oila a’zolari o‘rtasidagi psixologik munosabatlar, ularning emotsional holati, ro’llar taqsimoti va o‘zaro ta’sir mexanizmlarini o‘rganuvchi psixologiya sohasi hisoblanadi. Ushbu fan oilaviy tizimning barqarorligi, nikoh munosabatlari, ota-onalik va farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonlarni tahlil qiladi.

Oila psixologiyasining asosiy predmeti quyidagilardan iborat:

- er-xotin munosabatlari;
- ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi psixologik aloqalar;
- oiladagi emotsional muhit;
- oilaviy konfliktlar va ularni hal etish yo‘llari;
- oilaning shaxs rivojlanishiga ta’siri.

Oila psixologiyasi oilani yaxlit tizim sifatida ko‘rib, undagi har bir a’zoning xulqi va holati boshqa a’zolarga bevosita ta’sir ko‘rsatishini e’tiborga oladi gender tadqiqotlarining mohiyati

Gender tadqiqotlar biologik jins (sex) va ijtimoiy jins (gender) o‘rtasidagi farqlarni ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Gender tushunchasi jamiyat tomonidan erkak va ayollarga yuklatilgan ijtimoiy rollar, xulq-atvor me’yorlari va kutilmalarni anglatadi.

Gender tadqiqotlar quyidagi masalalarni o‘rganadi:

- erkak va ayol rollarining ijtimoiy shakllanishi;
- gender stereotiplari;
- gender tengligi va tengsizlik muammolari;
- oilada rollar taqsimoti;
- gender omilining shaxs rivojlanishiga ta’siri.

Gender yondashuvi oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan ziddiyatlarni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tushuntirishga imkon beradioilada gender rollari va ularning psixologik xususiyatlari

An’anaviy jamiyatlarda oilada erkak va ayol ro’llari qat’iy belgilangan bo‘lib, erkak — boquvchi va himoyachi, ayol esa — tarbiyachi va uy bekasi sifatida talqin qilingan. Zamonaviy jamiyatda esa ushbu rollar nisbatan moslashuvchan tus olmoqda.

Gender ro’llarining o‘zgarishi oilaviy munosabatlarga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu jarayon erkak va ayol o‘rtasida tenglikni ta’minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, rollarning qayta taqsimlanishi oilaviy nizolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Psixologik jihatdan qaralganda, rollar mos kelmasligi yoki noaniqligi oilada stress, norozilik va emotsional ziddiyatlarni kuchaytiradi. Shu bois oilada rollarni kelishilgan holda taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Er-xotin munosabatlari oilaviy tizimning markaziy elementi hisoblanadi. Gender omili ushbu munosabatlarning xarakteri, muloqot uslubi va nizolarni hal etish strategiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, erkak va ayollar emotsiyalarni ifodalash, muammolarga munosabat bildirish va qaror qabul qilishda farqlanishi mumkin. Ushbu farqlarni inobatga olmaslik o‘zaro tushunmovchilikka olib keladi.

Gender sezgirlikka asoslangan yondashuv er-xotin munosabatlarida empatiya, murosa va o‘zaro hurmatni kuchaytirishga yordam beradi.

Ota-onalik faoliyatida gender tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. Bola oilada erkaklik va ayollik haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi. Ota va onaning xulq-atvori, o‘zaro munosabati va farzandlarga bo‘lgan munosabati bolaning gender identifikatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gender tenglikka asoslangan tarbiya bolalarda mustaqillik, o‘zaro hurmat va ijtimoiy moslashuvni rivojlantiradi. Aksincha, qat’iy stereotiplarga asoslangan tarbiya shaxs rivojlanishida cheklovlar yuzaga keltirishi mumkin oila psixologiyasi va gender tadqiqotlarning amaliy ahamiyati

Oila psixologiyasi va gender tadqiqotlar natijalari oilaviy maslahat, psixologik konsalting va ta’lim sohalarida keng qo‘llaniladi. Ushbu yondashuvlar yordamida:

oilaviy nizolarni oldini olish;

er-xotin munosabatlarini mustahkamlash;

ota-onalik kompetensiyasini oshirish;

gender tenglikka asoslangan sog‘lom oilaviy muhitni yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, oila psixologiyasi va gender tadqiqotlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq ilmiy yo‘nalishlar bo‘lib, oilaviy munosabatlarni chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Gender omilini hisobga olgan holda oilaviy munosabatlarni o‘rganish sog‘lom, barqaror va psixologik jihatdan qulay oilani shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga muhim hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гозиев Э. Oila psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Давлетшин M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Абдуллаев A. Gender psixologiyasi asoslari. — Toshkent, 2018.
4. Connell R. Gender and Power. — Stanford: Stanford University Press, 2009.
5. Eagly A. Sex Differences in Social Behavior. — Hillsdale: Erlbaum, 2013.
6. Erikson E. Childhood and Society. — New York: Norton, 1982.

ILK BOLALIK DAVRI PSIXOLOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti Tarix fakul’teti 1-bosqich talabalari.
Muhammadov Davlatbek.
Rahmonov Odilbek

Annotatsiya: Maqolada ilk bolalik davrining psixologik rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Kognitiv, nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish, o‘yin faoliyatining ahamiyati va maktabga tayyorgarlik masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, ota-ona va pedagoglarning roli ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Ilk bolalik, psixologik rivojlanish, kognitiv faoliyat, nutq rivoji, emotsional barqarorlik, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘yin faoliyati.

Ilk bolalik davri — inson hayotining eng muhim va mas’uliyatli rivojlanish bosqichlaridan biridir. Bu davr taxminan 1 yoshdan 6–7 yoshgacha davom etadi va bolaning jismoniy, psixologik, emotsional hamda ijtimoiy jihatdan shakllanishi bilan xarakterlanadi. Shu davrda shakllangan psixologik jarayonlar va xulq-atvor me’yorlari bolaning kelgusidagi shaxsiyati, ijtimoiy moslashuvi va akademik tayyorgarligi uchun poydevor vazifasini bajaradi (goziev, 2019).

Ilk bolalik davrini o‘rganish psixologiya va pedagogika fanlari uchun dolzarbdir, chunki bu davrda bolaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari aniqlanadi, tarbiya va ta’lim jarayonida individual yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Ilk bolalik davrining psixologik xususiyatlari kognitiv rivojlanishda ilk bolalik davrida kognitiv rivojlanish jadal kechadi. Piagetning nazariyasiga ko‘ra, bu davr "sensorimotor" va "old-preoperatsion" bosqichlarga bo‘linadi (piaget, 2008). Bola atrof-muhit bilan amaliy harakatlar orqali tanishadi, obyektlarni tasniflaydi, sabab-natija munosabatlarini o‘rganadi.

Shuningdek, bolada xotira, diqqat va tafakkur asta-sekin rivojlanadi. Bu jarayonlar bolaning o‘yin faoliyati va kundalik tajribalari orqali mustahkamlanadi.

Nutq rivoji ilk bolalik davrida eng muhim psixologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Bola dastlab so‘zlarni takrorlash, keyin esa ularni ma’no bilan bog‘lash orqali lug‘at boyligini kengaytiradi. Nutq orqali bola fikrini ifodalaydi, emotsiyalarini boshqaradi va ijtimoiy munosabatlarga kiradi (davletshin, 2020).

O‘rganish tajribalari shuni ko‘rsatadiki, nutq rivoji va kognitiv faoliyat bir-birini mustahkamlaydi; nutq rivojlangan bola murakkab vazifalarni tezroq o‘rganadi.

Emotsional va irodaviy rivojlanishi ilk bolalik davrida emotsiyalar aniq va bevosita namoyon bo‘ladi. Bola quvonch, qo‘rqish, g‘azab, hayrat kabi his-tuyg‘ularni yashirgan holda ifodalay olmaydi. Shu davrda ota-ona va muhitning ta’siri bilan emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi (vygotskiy, 2005).

Iroda va sabr-toqat qobiliyatlari ham asta-sekin rivojlanadi. O‘yin va kundalik faoliyat orqali bola vazifani tugallashni, qoidalarga rioya qilishni va mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi.

Ijtimoiy rivojlanishda ilk bolalik davri shaxsning ijtimoiylashuvi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bola dastlab ota-ona va yaqinlar bilan muloqot qiladi, keyinchalik tengdoshlar bilan o‘yin orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rganadi. Bu davrda axloqiy tushunchalar va ijtimoiy me’yorlar shakllanadi (elkonin, 2010).

Bola “men” tushunchasini anglashi, o‘z his-tuyg‘ularini boshqalarga tushuntira olish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy moslashuv va kelajakdagi o‘rganish jarayoni uchun muhimdir.

O‘yin ilk bolalik davrida markaziy faoliyat turidir. Rolli o‘yinlar orqali bola turli ijtimoiy rollarni o‘rganadi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijodiy tafakkurini oshiradi.

O‘yin davomida bola qoidalarni o‘rganadi, jamoada harakat qilishni, o‘z harakatlarini nazorat qilishni o‘rganadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin faoliyatiga alohida e’tibor qaratish zarur.

Maktabga tayyorlanish va psixologik asosi ilk bolalik davri maktabga tayyorgarlik bosqichini o‘z ichiga oladi. Bu davrda bola harflar, raqamlar, oddiy mantiqiy tushunchalarni o‘rganadi. Kognitiv, nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalar maktabdagi muvaffaqiyatga asos yaratadi.

Ota-ona va pedagoglarning pedagogik yondashuvi bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi lozim, bu esa psixologik barqarorlik va o‘rganishga qiziqishni oshiradi.

Ilk bolalik davri inson hayotida psixologik rivojlanishning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Shu davrda bolaning kognitiv, nutqiy, emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanadi. O‘yin faoliyati, ota-ona va pedagoglarning ta’siri bolaning rivojlanishiga hal qiluvchi ro’l o‘ynaydi.

Ilk bolalik davrini chuqur o‘rganish va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali shaxsning kelajakdagi muvaffaqiyati, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goziev, e. (2019). Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent: fan.
2. Davletshin, m. (2020). Umumiy psixologiya. Toshkent: o‘qituvchi.
3. Vygotskiy, l.s. (2005). Bola psixik rivojlanishi. Moskva: prosveshchenie.
4. Elkonin, d.b. (2010). Bolalar psixologiyasi. Moskva: akademiya.
5. Piaget, j. (2008). the psychology of the child. new york: basic books.

HUQUQIY SOHALARDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

ADU Tarix va Ijtimoiy fanlar fakul’teti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o’qituvchi Payziyeva M.N.
Tarix fakul’teti 1-bosqich talabasi Jo’rayeva Baxtigul.

ANNOTATSIYA: Maqolada huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Jinoyat psixologiyasi, sud va advokatlik faoliyati, jinoyatchi va qurbonlar psixologiyasi, forensik psixologiya kabi yo‘nalishlar yoritilgan. Shuningdek, biopsixososial va kognitiv-behavoral yondashuvlar asosida huquqiy jarayonlarni samarali tashkil etish imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Huquqiy sohalar, psixologik yondashuvlar, jinoyat psixologiyasi, forensik psixologiya, sud ekspertizasi, kognitiv-behavoral yondashuv, biopsixososial model, qurbonlar psixologiyasi.

Huquqiy sohalar inson hayotidagi muhim ijtimoiy institutlarni tashkil etadi va jamiyatda tartibni ta’minlaydi. Shu bilan birga, huquqiy munosabatlar shaxsning psixologik xatti-harakatlari, qaror qabul qilish jarayoni, motivatsiya va emotsional holat bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Huquqiy psixologiya — bu shaxsning huquqiy munosabatlardagi xatti-harakatlari, sud va jinoyat jarayonlaridagi psixologik xususiyatlari hamda huquqiy qaror qabul qilishning psixologik asoslarini o‘rganadigan ilmiy soha hisoblanadi (Bartol & Bartol, 2012).

Huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlarning asosiy yo‘nalishlari jinoyat psixologiyasi shaxsning jinoyat sodir etish motivlari, psixologik xususiyatlari va shaxsiyat tipologiyasini o‘rganadi. Bu sohada psixologik ekspertiza, profilaktika va jinoyatchilikni oldini olish metodlari ishlab chiqiladi (Bartol & Bartol, 2012).

Jinoyatchilikka moyillik va ruhiy holat o‘rganilgach, sud jarayonlarida psixologik baholash yordamida adolatli qaror qabul qilish imkoniyati oshadi.

Sud va advokatlik faoliyatida psixologik yondashuv sud jarayonlarida sudyalarning, advokatlar va guvohlarning qaror qabul qilish jarayonida psixologik omillar muhim ro’l o‘ynaydi. Masalan, hukm chiqarishda stress, e’tiborning kamayishi va kognitiv qiyinchiliklar natijasida xato qarorlar qabul qilinishi mumkin (Pozzulo & Forth, 2009).

Psixologik bilimlarni qo‘llash sud jarayonlarining samaradorligini oshiradi, guvohlarning esdalik qobiliyati va xulq-atvorini baholash imkonini beradi.

Huquqiy sohalarda psixologik yondashuv shuningdek, jinoyatchi va qurbonlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi. Bu jinoyat sabablarini aniqlash, jinoyatchilikni oldini olish va qurbonlarni psixologik qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi (Wrightsman, 2010).

Jinoyatchilikning individual, ijtimoiy va psixologik sabablarini tahlil qilish psixologik profil va reabilitatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Forensik psixologiya huquqiy tizimda psixologik bilimlarni amaliy qo‘llash bilan bog‘liq. Bu soha sud ekspertizasi, jinoyatchilik profilaktikasi, guvohlarning ishonchliligi va psixologik xulq-atvor tahlilini o‘z ichiga oladi (Heilbrun et al., 2012).

Forensik psixologlar huquqiy qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash, sud va tergov jarayonlarida adolatni ta’minlashga yordam beradi.

Huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlarning amaliy ahamiyati sud ekspertizasi va qaror qabul qilish — guvohlarning xotira va e’tiborini baholash, xulq-atvorni tahlil qilish.

Jinoyatchilikni oldini olish — jinoyatchilikka moyillikni aniqlash va profilaktik choralar ishlab chiqish.

Qurbonlarni qo‘llab-quvvatlash — ruhiy zararni kamaytirish va ijtimoiy moslashuvni oshirish.

Huquqiy ta’lim — shaxsning huquqiy bilimlarini oshirish, xatti-harakatlarni tartibga solish.

Psixologik yondashuvlar huquqiy sohalarda nafaqat jinoyatlarni oldini olish, balki shaxs va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Huquqiy sohalarda biopsixososial yondashuv shaxsning jinoyatchilikka moyilligi va huquqiy xulq-atvorini tushunishda qo‘llaniladi. Biologik, psixologik va ijtimoiy omillar shaxsning xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatadi (Engel, 1977).

Kognitiv-behavoral yondashuv shaxsning xatti-harakatini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, jinoyatchilikka moyil shaxslar bilan ishlashda bu yondashuv ularning xatti-harakatini o‘zgartirish va ijtimoiy moslashuvini oshirish imkonini beradi (Beck, 2011).

Huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlar shaxsning huquqiy munosabatlardagi xulq-atvori, jinoyatchilik, sud va advokatlik faoliyati, guvoh va qurbonlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Ushbu yondashuvlar nazariy va amaliy jihatdan huquqiy tizimni samarali tashkil etish, adolatni ta’minlash va shaxsning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bartol, C. R., & Bartol, A. M. (2012). Introduction to Forensic Psychology: Research and Application. Thousand Oaks: SAGE Publications.
2. Pozzulo, J. D., & Forth, A. E. (2009). Forensic Psychology. Toronto: Pearson.
3. Wrightsman, L. S. (2010). Psychology and the Legal System. Belmont: Wadsworth.
4. Heilbrun, K., Marczyk, G., & DeMatteo, D. (2012). Forensic Mental Health Assessment: A Casebook. Oxford: Oxford University Press.
5. Engel, G. L. (1977). The Biopsychosocial Model and Health. Science, 196(4286), 129–136.
6. Beck, A. T. (2011). Cognitive Therapy of Personality Disorders. New York: Guilford Press.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISHNING QONUNIYATLARI VA SHAXSIY SHAKLLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ADU Pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o’qituvchi Payziyeva M.N.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, psixik jarayonlar va shaxs rivojlanishining asosiy qonuniyatlari tahlil qilingan. O‘yin faoliyatining yetakchi ro’li hamda maktabgacha ta’limda psixologik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘Zlar: Maktabgacha yosh, yosh davrlari psixologiyasi, psixik jarayonlar, o‘yin faoliyati, nutq rivoji, ijtimoiylashuv, shaxs rivojlanishi.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim va mas’uliyatli rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda bolaning psixik jarayonlari, shaxsiy sifatlari, ijtimoiy munosabatlari va xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Aynan maktabgacha yoshda bolaning

kelgusidagi ta’lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo‘lgan asosiy psixologik poydevor yaratiladi.Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida maktabgacha yosh davri psixologiyasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida qaraladi. Bu soha bolaning yoshga xos rivojlanish qonuniyatlari, psixik jarayonlarining shakllanishi hamda tarbiya va ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyatini o‘rganadi. Mazkur maqolada maktabgacha yosh davrining asosiy psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Maktabgacha yosh davri, odatda, 3 yoshdan 6–7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr bola organizmi va psixikasining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bola tashqi muhit bilan faol o‘zaro ta’sirga kirishadi, nutqi boyiydi, tafakkuri rivojlanadi va ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi kuchayadi.

Mazkur davrda o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin orqali bola atrof-muhitni anglaydi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi va o‘z emotsiyalarini boshqarishni o‘rganadi. Shu sababli maktabgacha yosh psixologiyasida o‘yin faoliyatining ahamiyati alohida e’tirof etiladi maktabgacha yoshda psixik jarayonlarning rivojlanishi.

Maktabgacha yoshda sezgi va idrok jarayonlari faol rivojlanadi. Bola ranglar, shakllar, tovushlar va fazoviy munosabatlarni farqlashni o‘rganadi. Idrok hali barqaror bo‘lmaganligi sababli, bola e’tiborini tez-tez boshqa obyektlarga qaratishi mumkin. Shu bilan birga, idrokning aniqligi va mazmuni kattalarning rahbarligi ostida asta-sekin takomillashadi.

Ushbu davrda diqqat asosan ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi. Bola qiziqarli va emotsional jihatdan jozibador obyektlarga ko‘proq e’tibor qaratadi. 5–6 yoshga kelib esa ixtiyoriy diqqat unsurlari shakllana boshlaydi, ya’ni bola ma’lum vaqt davomida topshiriqqa e’tiborini jamlay oladi.

Maktabgacha yoshda xotira asosan obrazli va ixtiyorsiz xarakterga ega. Bola ko‘rgan, eshitgan va his qilgan narsalarni oson eslab qoladi. Katta yoshga yaqinlashgan sari mantiqiy xotira elementlari rivojlanib, eslab qolish va esga tushirish jarayonlari ongli tus ola boshlaydi.

Nutq maktabgacha yosh davrida eng jadal rivojlanadigan psixik jarayonlardan biridir. Bola lug‘at boyligini tez sur’atda kengaytiradi, gap tuzish qobiliyati shakllanadi va muloqot madaniyati rivojlanadi. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurning rivojlanishida ham muhim ro’l o‘ynaydi.

Tafakkur dastlab ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli shaklda namoyon bo‘ladi. Bola muammolarni ko‘proq amaliy harakatlar va tasavvurlar orqali hal qiladi. Maktabga tayyorgarlik davrida esa elementar mantiqiy tafakkur shakllanadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning emotsional hayoti rang-barang va bevosita bo‘ladi. Quvonch, qo‘rquv, xafa bo‘lish kabi his-tuyg‘ular tez-tez namoyon bo‘ladi. Bola hali emotsiyalarini to‘liq nazorat qila olmaydi, biroq tarbiya jarayonida emotsional o‘zini boshqarish asta-sekin rivojlanadi.

Irodaviy sifatlar, jumladan, sabr-toqat, qat’iyat va mustaqillik ushbu davrda shakllana boshlaydi. Kattalar tomonidan qo‘yilgan talablar va qoidalar bola irodasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yosh davri shaxsning ijtimoiylashuvi uchun muhim bosqichdir. Bola o‘zini alohida shaxs sifatida anglay boshlaydi, “Men” tushunchasi shakllanadi. Tengdoshlar bilan muloqot qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.

Ushbu davrda axloqiy me’yorlar, yaxshi va yomon xulq-atvor haqidagi tasavvurlar shakllanadi. Kattalarning shaxsiy namunasi bolaning axloqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O‘yin maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati bo‘lib, uning psixik rivojlanishida markaziy o‘rin egallaydi. Rolli o‘yinlar orqali bola ijtimoiy munosabatlarni modellashtiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijodiy tafakkurni namoyon etadi.

O‘yin jarayonida bola o‘z xatti-harakatlarini boshqarishni, qoidalarga rioya qilishni va jamoada harakat qilishni o‘rganadi. Shu bois maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin faoliyatiga alohida e’tibor qaratilishi zarur.

Maktabgacha ta’lim jarayonida yoshga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiya jarayonlari bolaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi lozim.

Psixologik jihatdan qulay muhit yaratish, ijobiy rag‘batlantirish va emotsional qo‘llab-quvvatlash bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri psixologiyasi inson shaxsining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan davrni o‘rganadi. Ushbu bosqichda psixik jarayonlar, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jadal kechadi. O‘yin faoliyati, nutq va muloqot bolaning yetakchi rivojlanish omillari hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash sog‘lom, barkamol va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Davletshin M. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Vygotskiy L.S. Bola psixik rivojlanishi. — Moskva, 2005.
4. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. — Moskva, 2010.
5. Piaget J. The Psychology of the Child. — New York: Basic Books, 2008.
6. Birren, J. E., & Schaie, K. W. (2006). Handbook of the Psychology of Aging. 6th Edition. Elsevier Academic Press.

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AMALIY YONDASHUVLAR.

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi katta o’qituvchisi Payziyeva M.N.
ADU Ta’rix va ijtimoiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi
Karimov Shohislombek, Otaxonov Humoyunmirzo

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘smir shaxsining emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish jihatlari yoritilgan hamda ushbu davrning pedagogik-psixologik ahamiyati ochib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: O‘smirlik davri, yosh psixologiyasi, o‘z-o‘zini anglash, emotsional beqarorlik, motivatsiya, ijtimoiy munosabatlar, identifikatsiya.

O‘smirlik davri inson rivojlanishidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davr odatda 11–15 (16) yosh oralig‘ini qamrab olib, bolalikdan kattalik sari o‘tish davri sifatida tavsiflanadi. O‘smirlik davrida shaxsning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishida keskin o‘zgarishlar yuz beradi. Aynan shu davrda shaxsning xarakteri, dunyoqarashi, o‘z-o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabati shakllanadi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davri “inqirozli davr” sifatida ham talqin qilinadi. Chunki bu bosqichda emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, kattalar bilan ziddiyatlar va ichki qarama-qarshiliklar tez-tez uchraydi. Shu bois o‘smirlik davri psixologiyasini chuqur o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va o‘smir shaxsining sog‘lom rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, asosiy rivojlanish yo‘nalishlari hamda ushbu davrning pedagogik-psixologik ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi.

O‘smirlik davri biologik yetilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, pubertat jarayoni ushbu davrning asosiy belgilaridan biridir. Gormonal o‘zgarishlar o‘smir organizmida jismoniy o‘sish bilan birga psixik holatga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Natijada o‘smirlarning hissiy reaksiyalari keskin, kayfiyat o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Psixologik jihatdan o‘smirlik davri o‘z-o‘zini anglashning kuchayishi, “Men” konsepsiyasining shakllanishi va shaxsiy mustaqillikka intilish bilan xarakterlanadi. O‘smir o‘zini kattalar qatorida ko‘rishni istaydi, o‘z fikrini mustaqil bildirishga harakat qiladi va ijtimoiy bahoga nisbatan sezgir bo‘ladi.

O‘smirlik davrida shaxs rivojlanishining asosiy psixologik xususiyatlari o‘z-o‘zini anglash va identifikatsiya o‘smirlik davrining eng muhim psixologik xususiyatlaridan biri — o‘z-o‘zini anglash jarayonining faollashuvidir. O‘smir o‘zining kimligi, jamiyatdagi o‘rni va kelajakdagi maqsadlari haqida o‘ylay boshlaydi. Bu jarayonda shaxsiy identifikatsiya shakllanadi.

O‘smirlar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga intiladi, tashqi ko‘rinishiga va atrofdagilarning fikriga katta ahamiyat beradi. Bu holat ba’zan o‘ziga nisbatan ishonchsizlik yoki ortiqcha o‘zini yuqori baholashga olib kelishi mumkin.

Emotsional beqarorlik o‘smirlik davrida emotsional soha keskin o‘zgarishlarga uchraydi. Kayfiyatning tez-tez almashishi, impulsivlik, hissiyotlarning kuchli namoyon bo‘lishi ushbu davrga xosdir. O‘smirlar ba’zan sababini tushuntirib bera olmaydigan ichki bezovtalik va xavotirni boshdan kechiradilar.

Emotsional beqarorlikning asosiy sabablari biologik o‘zgarishlar, ijtimoiy talablarning ortishi va shaxsiy tajribaning yetarli emasligi bilan bog‘liqdir.kognitiv rivojlanish xususiyatlari

O‘smirlik davrida tafakkur sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tariladi. Abstrakt va mantiqiy fikrlash rivojlanib, o‘smir murakkab tushunchalarni anglay boshlaydi. Tanqidiy fikrlash kuchayadi, mavjud qoidalar va kattalarning fikrlariga shubha bilan qarash holatlari kuzatiladi.

Xotira va diqqat jarayonlari ham rivojlanadi, biroq emotsional beqarorlik sababli diqqatning barqarorligi ba’zan pasayishi mumkin. Ta’lim faoliyatida o‘smirlarning qiziqishlari yetakchi rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy munosabatlar va muloqot o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi ahamiyat kasb etadi. O‘smir uchun do‘stlar guruhi muhim ijtimoiy muhit bo‘lib, u yerda o‘zini erkin his qiladi va ijtimoiy tajriba orttiradi. Tengdoshlar fikri ko‘pincha ota-ona va o‘qituvchilar fikridan ustun turadi.

Kattalar bilan munosabatlarda esa mustaqillikka intilish sababli ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu holat o‘smirning shaxs sifatida ajralib chiqish jarayonining tabiiy ko‘rinishi hisoblanadi motivatsiya va qadriyatlar tizimi

O‘smirlik davrida motivatsion soha faol rivojlanadi. Shaxsiy qiziqishlar, ideal va orzular shakllanadi. O‘smirlar hayotiy maqsadlar haqida o‘ylay boshlaydi, kasb tanlashga qiziqish paydo bo‘ladi.

Qadriyatlar tizimi ham aynan shu davrda shakllanib, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy ideallar o‘zlashtiriladi. Tarbiya va ijtimoiy muhit ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

O‘smirlik davrining pedagogik-psixologik aha xususiyatlarini hisobga olish ta’lim-tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi va ota-onalar o‘smirga nisbatan tushunish, hurmat va qo‘llab-quvvatlashni namoyon etishlari zarur. Buyruqbozlik va haddan tashqari nazorat o‘smirda qarshilik reaksiyasini kuchaytirishi mumkin.

O‘smirlik davrida psixologik qo‘llab-quvvatlash, ijobiy muloqot va mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish shaxsning sog‘lom rivojlanishini ta’minlaydi.

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishidagi murakkab va muhim bosqich bo‘lib, unda biologik yetilish, psixologik o‘zgarishlar va ijtimoiy moslashuv jarayonlari bir vaqtning o‘zida kechadi. O‘z-o‘zini anglash, emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish va ijtimoiy faollik ushbu davrning asosiy psixologik xususiyatlari hisoblanadi.

O‘smirlik davri psixologiyasini chuqur o‘rganish pedagoglar, psixologlar va ota-onalar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bu bilimlar sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гозиев Э. Yosh psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
2. Давлетшин М. Yosh va pedagogik psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Абдуллаев А. O‘smirlik davri psixologiyasi. — Toshkent, 2018.
4. Выготский Л.С. Psixik rivojlanish nazariyasi. — Moskva, 2005.
5. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. — New York: Norton, 1980.
6. Craig G. Human Development. — Boston: Pearson, 2016.

O‘SMIRLARDA PSIXOLOGIK INQIROZNI BARTARAF ETISH OMILLARI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va Ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi 402-guruh talabasi
Qashamshoxova Zebo Halimjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlar davrida uchraydigan psixologik inqirozning asosiy sabablari, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda inqirozni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy muhit, maktab tarbiyasi, tengdoshlar bilan munosabatlar va shaxsiy hissiy holatning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘smirlarning psixologik barqarorligini oshirishga xizmat qiluvchi profilaktik chora-tadbirlar, psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash strategiyalari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, psixologik inqiroz, profilaktika, psixologik yordam, oilaviy muhit, tarbiya, emosional barqarorlik.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, jismoniy, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan kechadi. Shaxsiy “men”ni anglash jarayoni kuchayadi, mustaqillikka intilish ortadi, natijada o‘smir turli ichki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarga duch keladi. Mazkur jarayon ko‘plab psixologlar tomonidan “o‘tish davri krizisi” sifatida ta’riflanadi.

O‘smirlarda psixologik inqirozning vujudga kelishi ko‘p qirrali bo‘lib, oilaviy munosabatlar, maktab muhiti, ijtimoiy bosim, tengdoshlar ta’siri hamda individual xususiyatlar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu maqolaning maqsadi o‘smirlarda psixologik inqirozning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va uni bartaraf etuvchi asosiy omillarni yoritishdir.

Psixologik inqiroz — bu shaxsning ichki hissiy muvozanati buzilishi, o‘ziga baho berishdagi noturg‘unlik, kelajakka nisbatan ishonchsizlik, o‘z o‘rnini topa olmaslik kabi holatlar bilan tavsiflanadi. O‘smirlik davrida gormonal o‘zgarishlar, ijtimoiy mavqe o‘zgarishi va o‘z-o‘zini anglash jarayoni bunday holatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Psixologik inqirozning asosiy sabablari:

-shaxsiy omillar: impulsivlik, o‘ziga ishonchsizlik, stressga chidamlilikning pastligi;

-oilaviy omillar: ota-onaning e’tibor yetishmasligi, oilaviy ziddiyatlar, avtoritar tarbiya;

-maktab muhitiga bog‘liq omillar: o‘qituvchining adolatsiz munosabati, yuqori o‘quv yuklamasi, bullying;

-ijtimoiy omillar: tengdoshlar bosimi, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ideal obrazlarga taqlid, kiberbulling.

Oila o‘smirning eng yaqin tayanchi bo‘lib, unda sog‘lom muloqot va emotsional qo‘llab-quvvatlash bo‘lishi zarur. Ota-ona tomonidan tushunish, ishonch bildirish, haddan tashqari tanqiddan voz kechish o‘smirning ruhiy barqarorligini oshiradi. Qulay psixologik muhit yaratish, pedagoglarning ijobiy yondashuvi, adolatli baholash, o‘quvchining qobiliyatlarini rivojlantiruvchi

sharoitlar psixologik inqirozni sezilarli kamaytiradi. Maktab psixologining muntazam ishlashi ham katta ahamiyatga ega.

Sport jamoalari, san'at to‘garaklari, fan klublari kabi ijobiy guruhlarga jalb etilgan o‘smir salbiy ta'sirlardan yiroq bo‘ladi. Ijobiy kommunikatsiya, do‘stona munosabatlar ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhi shaxs rivojlanishida muhim psixologik omil hisoblanadi. Ijobiy yo‘nalgan tengdoshlar muhitida o‘smir o‘zini erkin ifoda etishi, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishi, o‘z fikrini himoya qilishni, boshqalarni tinglashni o‘rganadi. Bunday guruhlar konstruktiv muloqot, hamkorlik, sport yoki ijodiy faoliyatlar orqali o‘smirning ijobiy xulq-atvorini mustahkamlaydi. Tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashi o‘smirning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy moslashuv jarayonini osonlashtiradi hamda stress va emosional zo‘riqishni kamaytiradi. Ijobiy tengdoshlar guruhi o‘smirni zararli odatlardan himoya qilishga ham katta hissa qo‘shadi.

O‘z qiziqishlari bo‘yicha faoliyat (ijod, ilm, sport), mas'uliyat yuklangan kichik vazifalar, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish (rejalashtirish, vaqtni boshqarish) ruhiy barqarorlikni oshiradi.

O‘smirning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash — uning qiziqishlari, qobiliyatlari, kuchli tomonlarini aniqlab, ularni rivojlantirishga imkon berishdan iborat. Bu jarayon o‘smirga mustaqil qaror qabul qilish, mas'uliyatni his etish, maqsad qo‘yish va unga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ota-ona va pedagoglarning o‘smirga nisbatan hurmat, ishonch va muloqotga ochiqligi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash jarayonida o‘smirning emosional holatini kuzatish, uning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olish, keraksiz tanqid va bosimdan saqlanish muhim sanaladi. Bu yondashuv o‘smirning barkamol, mustaqil va ongli shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Stressni boshqarish texnikalari (nafas mashqlari, relaksatsiya), san'at terapiyasi, psixologik suhbatlar inqirozni yengillashtiradi. Zarur bo‘lsa, mutaxassis-pedagoglar bilan hamkorlik qilinadi.

O‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik inqirozlarni yumshatishda psixologik va pedagogik yordam muhim o‘rin egallaydi. Maktab psixologi, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlik o‘smirning ruhiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Psixologik yordam jarayonida o‘smirga stressni boshqarish, konfliktlarni hal etish, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va nazorat qilish bo‘yicha ko‘nikmalar beriladi. Pedagogik yordam esa o‘quv jarayoniga moslashuvni osonlashtirish, o‘quv motivatsiyasini oshirish, individual yondashuv orqali o‘smirning qiyinchiliklarini aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratiladi. Bunday tizimli yordam o‘smirning umumiy psixologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Internetdan me'yorli foydalanish, kiberxavfsizlik qoidalarini o‘rgatish, zararli kontentdan himoya qilish o‘smir psixikasidagi salbiy ta'sirlarni kamaytiradi.

Bugungi kunda raqamli makon o‘smirlarning hayotida muhim o‘rin tutadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri, maqsadga muvofiq foydalanish o‘smirning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishi mumkin. Raqamli makondan oqilona foydalanish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: vaqtni boshqarish, xavfsiz internet qoida-lariga rioya qilish, zararli kontentdan himoyalanish, raqamli madaniyatga ega bo‘lish. Bu orqali o‘smir ortiqcha bog‘lanish, kiberbulling, virtual qaramlik kabi xavflardan himoyalanadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida foydalanish esa o‘smirning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, bu jarayonda psixologik inqirozlarning yuzaga kelishi tabiiy hol sanaladi. Ushbu inqirozlarning kelib chiqishi o‘smirning biologik, emosional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishidagi keskin o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri boshqarish o‘smirning sog‘lom shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘smirning psixologik barqarorligiga eng kuchli ta'sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga tengdoshlar guruhining ijobiy ta'siri, shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, psixologik va pedagogik yordam, shuningdek raqamli makondan oqilona foydalanish kiradi. Ijobiy yo‘nalishga ega tengdoshlar muhitining shakllanishi o‘smirning ijtimoiy faolligi,

o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijobiy xulq-atvorini mustahkamlaydi. Ota-ona va pedagoglarning o‘smirni tushunishga, qo‘llab-quvvatlashga intilishi esa uning shaxs sifatida o‘sishiga kuchli zamin yaratadi.

Shuningdek, o‘z vaqtida ko‘rsatilgan psixologik va pedagogik yordam o‘smirning ichki kechinmalarini yengillashtirib, stress va inqirozlarni konstruktiv tarzda boshqarishga o‘rgatadi. Bu jarayon maktab psixologi, o‘qituvchilar va oilaning uzviy hamkorlikda ishlashini talab etadi. Bugungi raqamli davrda esa o‘smirning internet va texnologiyalar bilan munosabati ham alohida nazorat va to‘g‘ri yo‘naltirishni talab etadi; raqamli madaniyatni shakllantirish o‘smirni kiberxavf-xatarlar va virtual qaramlikdan himoya qiladi.

Umuman olganda, o‘smirlik davridagi psixologik inqirozlarni bartaraf etish kompleks, tizimli va uzluksiz yondashuvni talab etadi. Oila, maktab, jamiyat va mutaxassislar birgalikda harakat qilgan taqdirda, o‘smirlar psixologik qiyinchiliklarni yengib o‘tib, hayotga ongli, barqaror va ijobiy qarashlarga ega bo‘lgan yetuk shaxs sifatida kamol topadilar. Shu bois mazkur yo‘nalishda olib boriladigan profilaktik tadbirlar va psixologik qo‘llab-quvvatlashlar jamiyatning sog‘lom kelajagini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, V. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Andreeva, G. M. Sotsial psixologiya. Moskva: Aspekt Press, 2014.
3. Erikson, E. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company, 1968.
4. Vigotskiy, L. S. Psixologiya rivojlanish nazariyalari. Moskva: Pedagogika nashriyoti, 1991.
5. Piaje, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972.

SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA AMALIY YONDASHUVLARI.

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi
katta o’qituvchisi Payziyeva M.N.
ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakul’teti
1-bosqich talabasi
Qo’ldasheva Zaynabxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari, unga ta’sir etuvchi omillar va asosiy mexanizmlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. O‘z-o‘zini anglash, emotsional va motivatsion rivojlanish hamda ijtimoiy moslashuv masalalari yoritilgan. Shaxs rivojlanishini o‘rganishning pedagogik va psixologik ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs rivojlanishi, psixologik xususiyatlar, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, ontogenez.

Inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishi psixologiya fanining eng muhim va murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Shaxs rivojlanishi — bu biologik, ijtimoiy va psixologik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab, uzluksiz jarayondir. Ushbu jarayon davomida insonning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvori shakllanadi.

Shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlarini o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, shaxsning individual imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish hamda psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, zamonaviy jamiyat sharoitida shaxsning moslashuvchanligi, mustaqilligi va ijtimoiy faolligi katta ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari, uning asosiy omillari, mexanizmlari hamda shaxs kamolotida muhim rol o‘ynovchi psixik jarayonlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Shaxs rivojlanishi — bu inson psixikasida sodir bo‘ladigan miqdoriy va sifat jihatdan o‘zgarishlar jarayoni bo‘lib, u yangi psixik tuzilmalar, xususiyatlar va imkoniyatlarning vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon tug‘ilishdan boshlab butun hayot davomida uzluksiz davom etadi.

Psixologiyada shaxs rivojlanishi faqat biologik yetilish bilan cheklanmaydi, balki ijtimoiy tajribaning o‘zlashtirilishi, faoliyat va muloqot jarayonida shakllanadigan psixologik sifatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhitning roli ayniqsa muhim bo‘lib, u shaxsning qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvorini belgilaydi.

Shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar shaxs rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, quyidagi asosiy omillar orqali ta’minlanadi.

Biologik omillar shaxs rivojlanishining tabiiy asosini tashkil etadi. Irsiyat, nerv tizimining tipi, temperament xususiyatlari shaxsning psixik rivojlanish sur’ati va individual farqlarini belgilaydi. Biroq biologik omillar shaxs rivojlanishini to‘liq aniqlab bermaydi, balki uning imkoniyat doirasini belgilaydi.

Ijtimoiy muhit shaxs rivojlanishining yetakchi omillaridan biri hisoblanadi. Oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va jamiyat shaxsning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit orqali shaxs axloqiy me’yorlar, ijtimoiy rollar va madaniy qadriyatlarni egallaydi.

Faoliyat va muloqot shaxs rivojlanishining asosiy mexanizmlaridan biridir. Inson faoliyat jarayonida atrof-muhitni o‘zgartiradi va shu bilan birga o‘zining psixologik xususiyatlarini rivojlantiradi. Muloqot esa shaxslararo munosabatlarni shakllantirib, ijtimoiy tajribaning o‘zlashtirilishini ta’minlaydi shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari

Shaxs rivojlanishining muhim psixologik xususiyatlaridan biri — o‘z-o‘zini anglash jarayonidir. O‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘zini mustaqil subyekt sifatida idrok etishi, o‘z imkoniyatlari va cheklovlarini anglashida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon yosh o‘tishi bilan chuqurlashib, shaxsning “Men” konsepsiyasi shakllanishiga olib keladi.

Emotsional sohaning rivojlanishi shaxs psixologik yetukligining muhim ko‘rsatkichidir. Shaxs rivojlanishi davomida emotsiyalarni boshqarish, stressga chidamlilik va emotsional barqarorlik shakllanadi. Yetuk shaxs o‘z hissiyotlarini anglay oladi va ularni ijtimoiy maqbul tarzda namoyon etadi.

Motivatsiya shaxs faoliyatining ichki harakatlantiruvchi kuchidir. Shaxs rivojlanish jarayonida ehtiyojlar tizimi murakkablashib, ijtimoiy motivlar ustuvorlik kasb etadi. Shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi va o‘zini o‘zi rivojlantirishga intilishi motivatsion sohaning yetukligini ifodalaydi.

Ijtimoiy moslashuv shaxs rivojlanishining muhim jihatlaridan biridir. Inson jamiyat talablariga moslashish jarayonida ijtimoiy normalar va qoidalarni o‘zlashtiradi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy kompetentligini shakllantiradi hamda jamiyatda samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Shaxs rivojlanishida ijtimoiy moslashuv faqat moslashish bilan cheklanmay, balki shaxsning ijtimoiy muhitga faol ta’sir ko‘rsatishini ham o‘z ichiga oladi shaxs rivojlanishida inqirozlarning o‘rni.

Many researchers have studied the benefits of military-style training for young people. Mirziyoyev (2021) wrote about the importance of moral education and willpower. Karimov (2019) discussed how internal motivation and clear goals help people succeed. Sobirov & Rustamova (2020) scientifically studied the role of military education in youth psychology. International researchers like Johnson & Smith (2018) and Brown (2019) also confirm that structured training builds resilience and self-regulation in adolescents.

This study used several methods to collect information:

1. Psychological Observation: Researchers watched students during military-educational activities and in normal school life. They noted changes in self-control, discipline, and behavior.

2. Interviews: Researchers talked with students and their instructors. They asked questions about feelings, motivation, and personal changes.

3. Psychodiagnostic Tests: Students took special tests to measure their stress resilience, level of motivation, and critical thinking skills before and after the training period.

The study Involved 120 students aged 17-19 from different colleges and universities in Uzbekistan. They participated in a special program of military-educational activities for 6 months.

The research found clear positive changes in students who took part in the activities. The main benefits are in five areas:

Military-educational activities have a strict daily routine.Students must wake up early, follow a schedule, complete tasks on time, and keep themselves and their equipment in order. This structure teaches them self-discipline. When they see they can complete difficult tasks, their internal motivation grows. They start to believe in their own abilities and want to improve themselves without external pressure.

The training is based on achieving clear objectives.For example, a student might have the goal of completing an obstacle course, mastering a drill, or leading a small team. Instructors teach them to break big goals into small steps. Students learn to plan their actions, use time wisely, and focus on the result. These skills are very useful not only in training but also in studies and future careers.

The training includes physical and psychological challenges.Students face difficult situations, fatigue, and time pressure. Learning to work under these conditions makes them emotionally stronger. They learn to control fear, manage stress, and stay calm in difficult moments. This “stress inoculation” helps them in everyday life when facing exams, conflicts, or social pressure.

Military training is a team activity.Students learn to work together, help each other, and communicate effectively. They understand that the success of the group depends on each member. This builds a sense of responsibility, trust, and belonging. For many young people, this improves their social skills and helps them find their place in a team, reducing feelings of loneliness and isolation.

This is one of the most important results.Destructive groups often target young people who are confused, lack purpose, or have low self-esteem. Military-educational activities build a strong, confident personality. Through critical thinking exercises and analysis of information, students learn to question what they see and hear. They develop a strong sense of patriotism, personal honor, and civic duty. This combination of strong character and critical thinking is the best protection against manipulation and extremist ideas.

The data collected from tests and observations show clear statistical proof of these benefits:

78% of students who finished the program continued regular self-development activities (like sports, reading, or learning new skills) on their own. This shows that the program created a lasting habit of self-improvement.

The average stress resilience index among participants increased by 25% compared to the control group that did not participate. They reported feeling more confident and calm in stressful situations.

Tests showed a significant improvement in critical thinking skills. Students became better at analyzing information sources, identifying logical errors, and making independent judgments.

In interviews, over 85% of students stated that they now feel more confident in saying “no” to peer pressure and in evaluating information from social media and other sources.

These numbers confirm that military-educational activities have a strong positive effect on key aspects of personal development that protect against destructive influences.

In conclusion, military-educational activities are a powerful tool for the positive development of youth. They are much more than just physical training. These activities help students:

Develop a strong need for continuous self-improvement.

Build unshakeable psychological resilience to face life’s challenges.

Form a strong “immune system” against destructive ideas and manipulation.

Acquire essential life competencies like critical thinking, planning, and teamwork.

The systematic implementation of such programs in schools, colleges, and universities is very important. It is a practical answer to the call of President Shavkat Mirziyoyev for the quality education and upbringing of the younger generation. By investing in military-educational activities, we invest in building a healthy, patriotic, and intellectually strong youth capable of building a great future for Uzbekistan and protecting itself from any threats.

References

1. Mirziyoyev, Sh. M. Our Great Future Will Be Built Together with a Brave and Noble People. Tashkent: Uzbekistan, 2017.

2. Mirziyoyev, Sh. M. We Will Build a Free and Prosperous Democratic Uzbekistan Together. Tashkent: Uzbekistan, 2016.

3. Sobirov, B., Rustamova, N. Military Training Methods and Youth Psychology. Tashkent, 2020.

4. Johnson, R., & Smith, L. Military Training and Adolescent Self-Development. New York: Springer, 2018.

5. Brown, P. Resilience and Self-Regulation in Youth Education. London: Routledge, 2019.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGNING HISSIY - EMOTSIONAL TOLIQISHINING PSIXOPROFILAKTIKASI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
dotsenti B.E.Parmonov,
Amaliy psixologiya 4 –bosqich talabasi M.Mutalipov

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion ta’lim muhiti sharoitida pedagoglarda yuzaga keladigan hissiy-emotsional toliqish (burnout) muammosi psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining jadal joriy etilishi, raqamlashtirish jarayonlari va pedagogik faoliyatga qo‘yilayotgan yuqori kasbiy talablarning o‘qituvchilarning emotsional holatiga ta’siri yoritilgan. Hissiy-emotsional toliqishning asosiy sabablari, namoyon bo‘lish shakllari hamda uning pedagog shaxsiyati va kasbiy samaradorligiga salbiy oqibatlari

ochib beriladi. Shuningdek, pedagoglarda stressga bardoshlilikni oshirish, emotsional muvozanatni saqlash va kasbiy sog‘lomlikni ta’minlashga qaratilgan psixoprofilaktik mexanizmlar, trening va psixologik qo‘llab-quvvatlash shakllari ilmiy asosda tavsiflanadi. Maqola natijalari ta’lim muassasalarida pedagoglarning hissiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion ta’lim muhiti, pedagog, hissiy-emotsional toliqish, kasbiy stress, psixoprofilaktika, emotsional barqarorlik, pedagogik faoliyat, psixologik salomatlik

Innovatsion ta’limning bugungi kundagi ta’lim jarayoniga tadbiq etilishi globallashuv sharoitidan kelib chiqib, axborotlar oqimining xaddan ziyod ortishi, talabalar qabul qilish darajasida individual farqlarni hisobga olgan holda pedagogdan quyidagi xususiyatlarni talab qiladi:

- innovatsion ta’limning psixologik jihatlarini bilishni;
- innovatsion ta’lim muxitida pedagogning kompetentsiyasini shakllantirishini;
- kreativlik xususiyatini boyitish;
- qobiliyatlarini muntazam shakllantirib borish;
- har qanday muammoli vaziyatga adaptatsiyasini;
- maishiy, ijtimoiy jarayonlarni yuzaga kelishi hamda kechishining sabab-oqibat va aloqadorligini anglay olish tajribasini shakllantirish kabi funktsional tarkiblarga alohida e’tibor qaratadi.

Hozirgi innovatsion ta’lim muhitida yuqoridagi keltirilgan pedagog shaxsida shakllanuvchi xususiyatlar psixologik nuqtai-nazardan uning faoliyati negizida turli emotsiogen omillar o’zgarishi, buzilishi va kuchayishi ro’y beradi. Bunday emotsiogen omillar ta’sirida kasbiy *dezadaptatsiya* va shu bilan birga *kasbiy yaroqsizlik* holatlari kelib chiqishi kuzatiladi.

N.V.Klyuev tahriri ostida nashr qilingan ―Pedagogicheskaya psixologiya darsligida pedagoglarning psixologik salomatligini saqlashga qaratilgan faoliyatning olti jihatini ajratib ko’rsatgan:

- o’ziga nisbatan ijobiy munosabat;
- shaxsning optimal darajadagi taraqqiyoti, rivojlanishi va o’zligini namoyon qilishi;
- psixik integratsiya;
- shaxsiy mustaqillik;
- atrof muhitni real idrok etish;
- atrof-muhitga adekvat ta’sir o’tkaza olish.

Deyarli 80% pedagoglar o’zlarida ―kuyish sindromi, ya’ni doimiy emotsional zo’riqish bilan bog’liq bo’lgan emotsional, jismoniy va aqliy to’yinishni o’zida mujassamlashtirgan murakkab psixofiziologik fenomenni mavjudligini ta’kidlaydilar. Mazkur sindrom depressiv holat, charchoq hissi va loqaydlik, shijoat va entuziazm (ishtiyoq)ning yetishmasligi, o’z faoliyatining ijobiy tomonlarini ko’ra olmaslik va ishga, umuman hayotga nisbatan munosabatda salbiy ustanovkalarda namoyon bo’ladi.

Pedagogning emotsional holatiga birinchi navbatda jamoadagi muhit va rahbariyatning munosabati ta’sir qiladi. Agar ta’lim muassasasi rahbariyati hodimlar uchun kasbiy o’sish uchun sharoit yaratsa, qo’llab-quvvatlasa, javobgarlikni teng taqsimlasa bunday muhit pedagoglar jamoasidagi ijobiy emotsional muhitni shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi innovatsion ta’limni rivojlantirish, ta’lim sifatini takomillashtirish uchun pedagoglar faoliyatini tashkil qilishda ularning ruhiy salomatligiga xavf soluvchi quyidagi omillarni bartaraf etish psixologik xizmat nuqtai-nazaridan quyidagi muammolarga javob topish vazifasini qo’yadi:

- pedagogik jamoadagi zo’riqishlar va nizolar, jamoa tomonidan qo’llab-quvvatlanishning yo’qligi;
- pedagoglarning o’z ustida ishlashiga sharoit yaratilmagan va ta’lim novatsiyalarini joriy etish muhitining yo’qligi, faoliyatdagi bir xillik;

- pedagogik jamoa tomonidan yetarlicha e’tibor berilmasligi va tan olinmaslik;

- ta’limiy vositalarning tanqisligi tufayli zo’riqish;

- pedagoglardagi pedagogik faoliyat modelining real holati va idealdagi holatidagi tafovutlarning borligi;

- kasbiy karьeraning va istiqbolning yo’qligi;

-o’quvchilarning motivatsiyalashmaganligi natijasida kelajakni ko’ra bilmaslik;

- pedagogning shaxsiy nizolari va noto’liqlik hissi.

Bunday holatga tushib qolgan pedagoglar bilan ishlashda amalyotchi psixologlar tomonidan odatda quyidagi terapevtik usullar qo’llaniladi:

- bixevioral;

- gumanistik;

- kognitiv va boshqalar.

Masalan Nemis olimi F.SHtaufenbil o’tkazgan madaniy-sotsiologik tadqiqotidan so’ng mehnat madaniyati degan tushuncha paydo bo’ldi va bunda pedagoglarning kundalik faoliyatida o’zlari qo’llay olishi mumkin bo’lgan quyidagi qoidalarni tavsiya etgan:

1. Aqliy va jismoniy o’zaro mehnatni almashtirib qo’llash;

2. Pedagogik jamoada ijobiy muhitni shakllantirish;

3. Mehnatni ilmiy tashkil etish;

4. Atrof muhitni estetik bezaklariga e’tibor qaratish.

SHundan kelib chiqib hissiy toliqish sindromi va uni psixologik omillarini nazariy metodologik asoslarini aniq tushinib olish lozim. Bunda kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonida faqat voqelikni bilib qolmay, balki xayotdagi u yoki bu narsalarga munosabat bildiradi va ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy his-tuyg’u uyg’onadi. Mamnun bo’lish, suyunish, g’azablanish kabilar his-tuyg’ularning ko’rinishlaridir. His-tuyg’ular kishining o’z xayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg’ul bo’layotganiga nisbatan o’zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg’ular o’zining kechishiga ko’ra o’zgarib turadigan psixik jarayondir. His-tuyg’ularni boshdan kechirishning turli shakllari - emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli xayajonlanish (stress), ehtiros ko’rinishlariga ega bo’ladi. His-tuyg’ular shaxsning emotsional sohasini tashkil etadi.

Kishida his-tuyg’ular uning extiyojlari qondirilishi jarayoni qanday kechayotganligi belgisi sifatida namoyon bo’ladi. Barcha psixik jarayonlar kabi emotsional xolatlar, his-tuyg’ularning kechishi ham miya faoliyatining natijasi bo’lib hisoblanadi. Emotsiyaning paydo bulishi tashqi olamda ro’y beradigan o’zgarishlardan boshlanadi. Bu o’zgarishlar kishi xayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil extiyojlarning paydo bulishiga yoki yo’qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o’zgarishlarga olib boradi. His-tuyg’ular kechishiga oid fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog’liqdir.

SHunday ekan kasbiy deformatsiya mehnatga moslashish (ko’nikish) – bu shaxsning yangi mehnat vaziyatini o’zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo’lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta’sir ko’rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi.

Inson ishga kirar ekan, muayyan mehnat tashkilotining kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o’zi uchun yangi bo’lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o’zlashtirib oladi, o’zining alohida tutgan yo’lini tashkilot (mehnat jamoasi)ning maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o’zining xulqini mazkur korxona yoki muassasaning xizmat yo’l-yo’riqlariga bo’ysundiradi.

Biroq inson ishga kirishda avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo’nalishiga ega bo’ladi, shularga muvofiq korxonaga bo’lgan o’z talablarini shakllantiradi, korxona esa o’z maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, xodimga, uning xulq-atvoriga o’z talablarini qo’yadi. Xodim va korxona o’z talablarini amalga oshira borib, o’zaro bir-birlariga ta’sir ko’rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni

amalga oshiriladi. SHunday qilib, mehnatga moslashuv – shaxs va uning uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhit o'rtasidagi ikki tomonlama jarayondir.

Yuqorilardan kelib chiqib, pedagogik jamoada aynan hissiy toliqishlarni, emotsional kuyinishni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar rejasi tashkil qilinishi innovatsion ta'lim muhitini sifatli bo'lishi va takomillashishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslach C., Jackson S.E. Burnout in organizational settings // *Applied Social Psychology Annual*. – Vol. 5. – New York: Wiley, 1984. – B. 133–153.
2. Бойко В.В. Синдром эмоционального выгорания в профессиональном общении. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 336 с.
3. Реан А.А., Коломинский Я.Л. Социальная педагогическая психология. – Москва: Юрайт, 2018. – 479 с.
4. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития личности. – Москва: Академия, 2016. – 240 с.
5. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005. – 368 p.

AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

ADU psixologiya va pedagogika kafedrasi B.E.Parmonov,
Kaxramonova Odina Mirzoxid kizi
Psixologiya Masofaviy 101 gurux

Anotatsiya: usbu maqola amaliyotchi psixolognig kasbiy kompetentligi, ta`limni rivojlantirish, zamonaviy talablarga asoslangan amaliyotchi psixolog faoliyati, psixologning kasbiy maxorati, kasbiy shakllanishiga ta`sir etuvchi omillari.

**Kalit so`zlar:** amaliyotchi psixolog, kasbiy kompetentlik, kasbiy vakolat, barkamollik, vakolat, ta`lim, shaxsiy mavqey.

Аннотация: Психологическая профессиональная компетентность данной статьи. Развитие образования, практического опыта основано на требованиях музея, психологической активности, психологического профессионализма, факторов, влияющих на формирование и профессионализм.

Ключевые слова: практический психолог, профессиональная компетентность, профессиональная компетентность, совершенствование, компетентность, образование, личностная позиция.

Annotation: Psychological professional competence of this article. The development of education, practical experience based on the requirements of the museum, psychological activity, psychological professionalism, and the factors influencing its formation.

Key words: Practical psychologist, professional competence, professional competence, perfection, competence, education, personal position.

Amaliyotchi psixolog ichki amaliyotga yo'naltirilgan psixologiyaning eng rivojlangan shakllaridan biridir. Bundan tashqari, ta'limning amaliy psixologiyasida ta'lim nazariyasi va amaliyoti o'rtasidagi munosabat tubdan o'zgardi - ta'limni rivojlantirish amaliyoti o'quv jarayonlarida shaxsni psixologik jihatdan sog'lom rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishning boshlang'ich nuqtasi bo'ldi [2]. Shu bilan birga, ta'limning amaliy psixologiyasi sog'lom nazariy va psixologik asosga asoslanishi kerak. Ta'limni rivojlantirishda ta'lim psixologiyasi o'quv

jarayonlarida insonning asosiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy va uslubiy asosi sifatida shunday asosga aylanishi mumkin.

Ta'lim sohasi uchun amaliyotchi psixologlar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muammosi mavjud. Psixologlar ushbu yo'nalishda muhim ishlarni amalga oshirdilar. Shu bilan birga, mahalliy kasb-hunar ta'limi tizimining vakolatlarga asoslangan yondashuv metodologiyasi asosida yaratilgan uchinchi avlodga o'tishi amaliyotchi psixologining kasbiy vakolatlarini aniqlash va shakllantirish vazifasini qo'yadi. Psixologning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatining muhim sharti bu kompetentsiya. "Kasbiy kompetensiya" va "kasbiy vakolat" tushunchalarini farqlash odat tusiga kiradi.

"Kasbiy kompetensiya" tushunchasi faoliyat sub'ektining o'z kasbiy vazifalarini zamonaviy talablar darajasida bajara oladigan xususiyatlarini anglatadi.

Barkamollik - bu talaba istagan yoki taxmin qilinganidan (erishilgan) erishgan narsadir. Barkamollik darajasi shaxs uchun o'quv amaliyoti natijalarining tavsifidir. Barkamollik - bu ta'lim natijasida erishilishi kerak bo'lgan natijaning tasviri sifatida (ta'lim standarti, o'quv rejasi, ish beruvchining talablari va boshqalar) taxmin qilinadigan narsa.

Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, vakolatlar faqat bilim bilan chegaralanib qolmaydi, balki uni muvaffaqiyatli amalga oshirish, bu bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi. "Muvaffaqiyat", deb yozadi D.A. Ivanov, ma'lum bir jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalar muammolar doirasini hal etishga qaratilgan harakatlarining samaradorligi , samaradorligini baholash natijasida insonga berilgan xususiyatdir. ”[1]. Bunday holatda vakolatli bo'lish qobiliyat deb tushuniladi. Bizning fikrimizcha, kompetentsiya va ko'nikmalarni aniqlash mos emas. "Barkamollik" atamasi istalgan natijaga erishish va jamiyat va shaxslarning talablarini qondirish imkoniyatini ta'minlaydigan murakkab harakatlar tizimini, shu jumladan ko'nikmalar va harakatlarning boshqa tarkibiy qismlarini tavsiflaydi.

Vakolat - bu bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda qo'llash qobiliyati; u tegishli harakatlar vaziyatini va faoliyat sub'ektining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Zamonaviy psixologik kasbning voqeliklarini tahlil qilishda psixologning kasbiy mahorati aniqlanadi. Bizning vazifalarimiz psixologning kasbiy faoliyatining turli xil vazifalari va funktsiyalarini o'rganish va tegishli kasbiy vakolatlarni taqsimlashni o'z ichiga olmaydi. “Psixologning kasbiy kompetentsiyasi” fenomenini tushunishga yondashishni aniqlash juda muhimdir.

Tahlil, bizning fikrimizcha, psixologning zamonaviy kasbiy faoliyatining ko'rinishini (turlarini) aniqlashdan kelib chiqadi. Hozirgi vaqtda professional psixolog faoliyatining uchta mustaqil sohasi mavjud: tadqiqot (psixolog-tadqiqotchi), pedagogik (o'qituvchi yoki psixologiya o'qituvchisi), amaliy (psixolog-amaliyotchi). Shunga ko'ra, psixologning kasbiy faoliyatining har bir turi o'z predmetining kasbiy vakolatlarining etarli versiyasini yaratishi kerak. Tadqiqotchi sifatida psixologning, o'qituvchi (o'qituvchi) sifatida psixologning, amaliyotchi sifatida psixologning va menejer sifatida psixologning kasbiy mahorati to'g'risida gapirish qonuniydir. Shaxsiy tarkibiy qismlar bir-biriga mos kelganda, ushbu professional vakolatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Psixologning kasbiy mahoratini tahlil qilishning navbatdagi bosqichi individual kasbiy vakolatlar yoki vakolatlar tizimini taqsimlashdir. Kasbiy vakolatlarni ta'kidlash uchun asos bo'lib, kasbiy faoliyatning muayyan turining funktsional tuzilishi hisoblanadi. Tadqiqot psixologi bitta funktsional tuzilishga ega, psixolog o'qituvchi (o'qituvchi) sifatida boshqasiga ega va boshqalar. Shu bilan birga, tadqiqot va pedagogik faoliyatning funktsional tuzilishini ajratishda uning bosqichlari ketma-ketligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Psixolog uchun profilaktika, diagnostika, o'qitish, tuzatish, maslahat, terapiya kabi amaliy faoliyatning asosiy funktsiyalari va shakllari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra, vakolatlar faqat bilim bilan chegaralanib qolmaydi, balki uni muvaffaqiyatli amalga oshirish, bu bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

"Muvaffaqiyat", deb yozadi D.A. Ivanov, ma'lum bir jamiyat uchun muhim bo'lgan vazifalar, muammolar doirasini hal etishga qaratilgan harakatlarining samaradorligi, samaradorligini baholash natijasida insonga berilgan xususiyatdir. ”[1]. Bunday holatda vakolatli bo'lish qobiliyat deb tushuniladi. Bizning fikrimizcha, kompetentsiya va ko'nikmalarni aniqlash mos emas. "Barkamollik" atamasi istalgan natijaga erishish va jamiyat va shaxslarning talablarini qondirish imkoniyatini ta'minlaydigan murakkab harakatlar tizimini, shu jumladan ko'nikmalar va harakatlarning boshqa tarkibiy qismlarini tavsiflaydi. Vakolat - bu bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarni muayyan sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda qo'llash qobiliyati; u tegishli harakatlar vaziyatini va faoliyat sub'ektining xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Psixololog mutaxasisligiga ega bo`lgan kasb egalari:

1) ijtimoiy va shaxsiy mavqe va rivojlanishdagi og'ishlarning oldini olishga qaratilgan standart dasturlarni amalga oshirishga; 2) respondentlarning maqsadlari, vaziyati va kontingentiga mos psixodiagnostik usullarini tanlash va qo'llash, 3 4) ma'lum bir sohadagi kasbiy faoliyat tuzilmasining tavsifi; 4) an'anaviy usul va texnologiyalardan foydalangan holda shaxsga, guruhga, psixologik yordamni tashkil qilish uchun standart asosiy protseduralarni amalga oshirish, 5) yosh bosqichlari, rivojlanish inqirozlari va xavf omillarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, odamning aqliy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; 6) bilim, motivatsion-ixtiyoriy sohaning rivojlanish darajasini psixologik diagnostika, o'z-o'zini anglash, psixomotor mahorat, qobiliyat, xarakter, temperament, funktsional 7) insonning aqliy faoliyatini uyg'unlashtirish uchun holatlar, shaxsiy xususiyatlar va normadagi urg'u, aqliy buzilishlar bilan; 7) davrlarning rivojlanishi va faoliyati darajasi dinamikasi va dinamikasi kognitiv, motivatsion-ixtiyoriy sohaning mavjudligi, o'zini anglash, psixomotor, qobiliyat, xarakter, temperament, funktsional holatlar, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va normada va aqliy nosimmetrikliklar bilan urg'u berish, 8) usta yoki psixologning psixologik aralashuv va ta'sirni amalga oshirishda yordam berish. maqsad hayotning turli sohalarida shaxs, guruh, jamoaning aqliy faoliyatini optimallashtirish. Bu barcha vakolatlar ta'lim bakalavriga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Kasbiy bilim nafaqat psixologiya bilimlarini, balki fanning turli sohalaridagi ma'lum bilimlar to'plamini ham qamrab oladi. Psixolog ko'p qirrali mutaxassis bo'lishi kerak. Shuning uchun uning kasbiy bilimlari nafaqat psixologiya sohasidagi bilimlarni, balki falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, pedagogika, iqtisodiyot, sotsiologiya, siyosatshunoslik, huquq, filologiya, jismoniy tarbiya, matematika va informatika, zamonaviy tushunchalar sohasidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. tabiiy fanlardan ham yaxshi xabardor bo`lishi shart.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Ivanov D.A. Zamonaviy ta'limda vakolat va vakolatlarga asoslangan yondashuv. M.: Chistye Prudy, 2007 yil.

2. Slobodchikov V.I. Ichki ta'limning antropologik istiqbollari. Ekaterinburg, 2009 yil.

INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM ORQALI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK JIHATLARI

Psixologiya masofaviy ta’lim yo‘nalishi 102 guruh talabasi
Juraboyeva Gulsanam Komiljon qizi.

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimini takomillashib borishi, ta’lim sifatini oshirish, malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va integratsiyalashgan ta’lim orqali kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning ijtimoiy psixologik jihatlari ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Maqolada uzluksiz ta’lim tizimi tizimidagi pedagoglar, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ta’lim tizimini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasidagi

uzluksiz ta’lim tizimi mustaqilligini kengaytirish masalalari va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» «Ta’lim to‘g‘risi»dagi O‘zbekiston Respublikasi qonunidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Ijtimoiy borliqning barcha jabhalari chuqur globallashayotgan va ularda muammolar yechilayotgan bir sharoitda, o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lgan hozirgi davrda serqirra tafakkurli yoshlarning har tomonlama mukammal rivojlanishi, kamol topishi va shakllanishiga ehtiyoj bor. Ta’lim mazmuni va tuzilishini takomillashtirish yo‘llarini izlash, zamonaviy ilmiy integratsiya g‘oyalari asosida boshlang‘ich ta’limning didaktik asoslarini ishlab chiqish orqali tanqidiy tafakkur egalarini tabiyalash hozirgi kunning muhim talabidir.[1]

Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bunday tafakkur qilish natijasida bunyodkor g‘oyalarni vayronkor g‘oyalardan farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda mustaqil faollikni, fikrlar rang-barangligini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Fanlararo aloqadorlik faqatgina fanlarni o‘rganishda umumiy ijtimoiy maqsadlar asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir. Bugungi kunda o‘quv materiali uyg‘unlashtirilgan kontekstli, tanqidiy o‘qitish kabi o‘qitishning integrativ turlari va texnologiyalari jadallik bilan joriy etilmoqda. Bugungi kunda pedagogika oliy maktablarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash” fani o‘quv rejaga kiritilib o‘qitilmoqda. Bu ham bo‘lsa bu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.[2]

Ta’lim-tarbiya jarayonini integrastiyalash orqali tashkil etishda formal mantiq va pedagogika fanlararo izlanish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaga bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash imkonini beradi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili, matematika, o‘qish, tabiatshunoslik, rasm darslarini o‘tar ekan o‘quv predmetlarining integrastiyasini o‘quvchilar bilan birgalikda ta’lim mazmunini tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, izohlaydilar. Natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash imkoniyati yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘p fikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi.[3] Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, muammolarni hal qilish yoki yangi fikr kashfiyotiga alohida e’tibor beriladi. Bu jarayonda fikrlar bayonida mantiqiy silogizmlarning o‘rni beqiyos. Integratsiyalashgan darslarda bu maqsadni amalga oshirish uchun imkoniyatlar kattadir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish ta'limda integratsiyalashgan yondoshuvning metodik asosini belgilaydi. Integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligida predmetlararo bog‘liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari va yangi kontekstda qayta ko‘rib chiqishlari tanqidiy fikrlashga olib keladi. O‘qituvchi avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash imkoniyati mavjudligini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalariga bog‘liq. Masalan, 4-sinf tabiatshunoslik darsida o‘quvchilar «Tabiatda suvning aylanishi» mavzusi bilan tanishganda suvning barcha tirik mavjudotlar uchun ahamiyati, uning xususiyatlari, tabiatda suvning aylanishi, uning turli holatlarda bo‘lishi haqida bilim egallasa, o‘qish darsida «Soy suvi» haqida ertak mavzusi, umuman suvga ta’luqli ertak, hikoya, she’rlar o‘rganilganda esa o‘quvchilar suvlarning qayerlarda bo‘lishi, nima maqsadda ishlatilishi, uning xususiyatlari, tabiat xilma xilligini o‘rganib, bizham uning bir bo‘lagi ekanligimizni va tabiat qonunlariga bo‘y sunishimiz lozimligini, undan oqilonafoydalanib asrab, avaylash kerakligi to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladilar. Rasm darsida «Suv-bu hayot» mavzusida rasm ishlash asnosida o‘quvchilar atrof-borliq elementlarini ranglar vositasida tasvirlaydilar. Bu o‘quv predmetlaridagi o‘quv materiallari o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang‘ich tasavvur hosil qilish, dialektik tafakkur, mantiqiy fikrlash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish va tabiatning

har bir ne’matlaridan oqilona foydalanishni o‘rgatadi. Ona tili darsida esa o‘quvchilarga “Suvni tejang” mavzusida ijodiy bayon yozish taklif etiladi. Mustaqil matn – til va tafakkur integratsiyasi mahsuli hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Yozuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo‘ladi va bu o‘qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o‘quvchi doimo faol bo‘ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bilimlardan foydalanadi.[4] U o‘z fikrini mustahkamlash uchun etarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bu dalillar fikrdagi mantiqiy ketma-ketlikni shakllantiradi.

O‘qituvchining bunday topshirig‘i tanqidiy fikrlash imkonini berib natijada:

– o‘quvchilarning fikrlashini faollashtiradi;

– turli o‘quv predmetlaridagi mazmunlar mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan analiz, sintez, qiyoslash, farqlash, solishtirish, birlashtirish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– o‘quvchilarda xilma- xil fikrlash imkoni tug‘iladi;

– o‘quvchida o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi;

– o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi ortadi.

Bu bilan predmetlararo aloqa axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy tafakkurlarini har tomonlama rivojlantirib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashining shakllanishiga olib keladi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, umumiy yaxlit, mantiqan ketma-ketlikda va o‘ziga xos o‘tish metodikasiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Tajribali pedagog o‘zining faollashtiruvchi savollari bilan o‘quv xonasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, fanlararo aloqadorlikda o‘quvchilarni mulohaza yuritishga undovchi savollar yordamida umumlashtirish, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni anglash, g‘oya va takliflarni mukammal shakllantirish uchun muayyan sharoit yaratadi. Bunday hollarda o‘quvchilarning fikrlash darajasi ko‘tariladi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarishi, balki ularning ob’ektiv, tanqidiy fikrlashlari uchun turtki bo‘lishi kerak. Demak, o‘quvchining tanqidiy fikrlash faoliyatini savollar yordamida tarkib toptirish muhim pedagogik ahamiyata ega. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun frontal savollar berish maqsadga muvofiq emas. O‘qituvchi o‘quv jarayoniga ijodiy yondoshgan holda savollar vositasida, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga , undashi kerak. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga berilgan savollar, ularda ijodkorlik, mantiqiylik, konstruktivlik, tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish, erkin mushohada qilishga yo‘llash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni anglash, fanlararo aloqadorlikni fahmlashi, o‘z fikrini aniq shakllantirish uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buning uchun o‘qituvchilar quyidagi savollardan foydalanishlari mumkin: «O‘tilgan mavzuga oid qanday ma’lumotlarni bilasiz?», «Bu haqida oldindan sizga nimalar ma’lum edi?», «Matndan siz nimani angladingiz?», «Bu materiallardagi eng muhim yangiliklar qaysilar?», «Sizda nima chuqurroq taassurot qoldirdi?», «Bu ma’lumotlarga yaqin, o‘xshash yoki to‘ldiruvchi bilimlarni yana qaysi fanimizda (darsimizda) uchratgansiz?», «Bularning bir biridan farqli va umumiylik tomonlari nimada?», «Nimalarni bilishni istaysiz, qanday hodisalar siz uchun tushunarsiz?», «Qay birlari sizda ko‘proq qiziqish uyg‘otdi, nima uchun?» kabilar. Bunda ular o‘z e'tibor fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki, tahlil qilish shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o‘zlashtiradilar.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish ularning qiziqish va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni vujudga keltirish orqali amalga oshadi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish fanlararo aloqadorlikda taqdim qilinayotgan o‘quv materiali aqliy faoliyat: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, kabilardan foydalanilganda samarali natija beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlashga undovchi ijodiy pedagogik muhitni qaror toptirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ishchan muloqot, hamkorlik vaziyatini vujudga keltirish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.
4. Mavlonova R. va b. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash. – T.: TDPU, 2009.

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNI KAMAYTIRISHDA GENDERGA MOS O‘YIN TEXNIKALARI

Turdiyeva Muhayyo Soxibjon qizi,
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
Qurbonova Rahimaxon Shermaxammad qizi
"Ijtimoiy va amaliy fanlar"fakulteti
"Musiqa ta’limi yo‘nalishi" 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning kelib chiqish omillari va uni kamaytirishga qaratilgan genderga mos o‘yin texnikalarining samaradorligi yoritiladi hamda qiz va o‘g‘il bolalarning psixologik ehtiyojlari o‘rtasidagi farqlar, o‘yin jarayonida namoyon bo‘ladigan emotsional holatlar hamda pedagogning o‘yin faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishidagi ro‘li tahlil qilinadi. Genderga moslashtirilgan o‘yinlar bolaga o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, xavotirni tabiiy tarzda kamaytirish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash masalalari keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, xavotirlanish, gender yondashuvi, o‘yin texnikalari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, emotsional rivojlanish, bolalar psixologiyasi.

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolalarning hissiy-irodaviy rivojlanishi, shaxsiy xulq-atvori va ijtimoiy moslashuv jarayoni jadal shakllanadigan eng mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalar turli psixologik holatlarga, jumladan, xavotirlanish, qo‘rquv, ishonchsizlik yoki ichki taranglikka moyil bo‘lishi mumkin. Xavotirlanishning erta aniqlanishi va uni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik-psixologik yondashuvlar bolalarning sog‘lom ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limda genderga yo‘naltirilgan metodika va individual yondashuv tamoyillari tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Qiz va o‘g‘il bolalarning emotsional reaksiyalari, qiziqishlari va o‘yin ehtiyojlaridagi tabiiy farqlarni hisobga olgan holda tuzilgan o‘yin texnikalari xavotirlanishni kamaytirishning samarali vositasiga aylanmoqda. Chunki o‘yin faoliyati bolalarning ichki kechinmalarini ifodalash, energiyani chiqarish, o‘zini erkin his qilish va muloqotga kirishish uchun eng tabiiy psixologik muhitni yaratadi.

Genderga mos o‘yin texnikalaridan to‘g‘ri foydalanish nafaqat xavotirlanish holatini pasaytiradi, balki bolalarning o‘zini anglash, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ijtimoiy-emosional kompetensiyalarini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlar nafaqat didaktik jarayonning bir qismi, balki psixologik profilaktika va rivojlantiruvchi yordam vositasi sifatida ko‘rilishi zarur. Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, ayniqsa xavotirlanish darajasini pasaytirish, pedagogik-psixologik ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Genderga mos o‘yin texnikalaridan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga imkon beradi. Chunki o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlari, individual ehtiyojlari hamda genderga xos emotsional va ijtimoiy reaksiyalariga mos ravishda tanlanganda ular o‘z his-tuyg‘ularini tabiiy tarzda ifodalashga, ichki taranglikni kamaytirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’limda genderga mos o‘yin texnikalaridan foydalanish xavotirlanishni kamaytirishning samarali va tabiiy yo‘lidir. [1.102]

O‘yin orqali his-tuyg‘ularni boshqarish bolalarning psixologik farovonligini ta’minlaydi, ularning ijtimoiy moslashuviga, kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanishiga va umumiy ruhiy salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar uchun tasviriy ijod, rolli o‘yinlar, syujetli o‘yinlar va musiqiy-harakat texnikalari xavotirlanish darajasini pasaytirishda ijobiy samara beradi. Bu o‘yinlar qizlarning nutqiy faolligini kuchaytiradi, ijtimoiy muloqot ehtiyojini qondiradi va o‘z his-tuyg‘ularini boshqalar bilan bo‘lishish imkonini yaratadi. O‘g‘il bolalar esa ko‘proq harakatli, konstruktorlik, sport unsurlari bo‘lgan o‘yinlar orqali emotsional bo‘shashishga moyil bo‘ladilar. [2.86]

Ushbu texnikalar ularga ortiqcha energiyani chiqarishga, tashqi muhitga moslashishga va xavotir sabab bo‘layotgan ichki zo‘riqishni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, raqobat va tadqiqotga asoslangan o‘yinlar o‘g‘il bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Pedagogning o‘yin jarayonini boshqarishi, bolaning his-tuyg‘usini qabul qilishi va uni qo‘llab-quvvatlashi xavotirlanishning pasayishida alohida ahamiyatga ega. Genderga mos o‘yin texnikalaridan muntazam foydalanish bolalarning emotsional barqarorligi, o‘zini namoyon etish qobiliyati hamda psixologik chidamliligini shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish bu tashqi yoki ichki stimullarga nisbatan hissiy javob bo‘lib, u bolalarning emotsional holatiga, ijtimoiy muloqot qobiliyatiga va o‘yin faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. [3.57]

Bolalardagi xavotirlanish ko‘pincha yangi vaziyatlar, jamoaviy faoliyat, ijtimoiy taqqoslashlar yoki o‘rganilmagan muhit bilan bog‘liq paydo bo‘ladi. Bu yoshda xavotirlanishning davomiyligi va kuchi bolalarning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy muhit va pedagogik ta’lim jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Xavotirlanish bolalarda quyidagi belgilarda namoyon bo‘lishi mumkin:

1-ichki taranglik va qo‘rquv;

2-o‘zini uyatchan tutish yoki sessiya davomida passivlashish;

3-muayyan faoliyatdan qochish yoki unga nisbatan salbiy munosabat;

4-uyqu va ovqatlanish ritmining o‘zgarishi.

Pedagog uchun bu belgilarning erta aniqlanishi va tegishli o‘yin texnikalari orqali ularni bartaraf etish muhimdir. Qiz bolalar ko‘proq nutqiy, tasviriy va hissiy jihatdan boy faoliyatlarga moyil bo‘ladi. Shu sababli ularni xavotirlanishdan chiqarishda quyidagi o‘yin texnikalari samarali bo‘ladi:

Syujetli rolli o‘yinlar – uy-ro‘zg‘or, dars-sinf yoki do‘stona rolli o‘yinlar orqali qizlar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga o‘rganadi;

Tasviriy ijodiy faoliyat – rasm chizish, loy bilan ishlash, kollajlar yasash bolalarga ichki taranglikni kamaytirishga yordam beradi;

Musiqa va harakatli o‘yinlar – qo‘shiq aytish, ritmik harakatlar qizlarning emotsional stressini yengillashtiradi va o‘zini erkin ifoda etishga imkon yaratadi.

O‘g‘il bolalar esa ko‘proq harakatga, tadqiqot va konstruktorlik o‘yinlariga moyildir. Shu bois xavotirlanish darajasini pasaytirish uchun ular quyidagi texnikalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

Harakatli o‘yinlar – sport o‘yinlari, yugurish, to‘p bilan mashqlar energiyani chiqarishga yordam beradi;

Konstruktorlik va texnik o‘yinlar – Lego, bloklar va boshqa qurilish o‘yinlari bolalarning diqqatini jamlaydi, stressni kamaytiradi;

Raqobat va tadqiqotga asoslangan o‘yinlar – kichik musobaqalar va muammolarni yechish o‘g‘il bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va xavotirni kamaytiradi.[4.97]

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish ularning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim psixologik holatdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, genderga moslashtirilgan o‘yin texnikalari bolalarning emotsional barqarorligini oshirishda samarali vositadir. Qiz bolalar uchun syujetli rolli o‘yinlar, tasviriy ijod va musiqa-harakatli faoliyatlar, o‘g‘il bolalar uchun esa harakatli, konstruktorlik va tadqiqotga asoslangan o‘yinlar xavotirni kamaytirish va o‘zini erkin ifoda etishga yordam beradi. Pedagogning ro‘li bu jarayonda alohida ahamiyatga ega, u bolalarning

individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘yin jarayonini tashkil etishi, ijobiy motivatsiya berishi va xavotirni kamaytirishga yo‘naltirilgan amaliy texnikalardan foydalanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional rivojlanish va pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti 2018-y.

2. Islomova, G. Bolalar psixologiyasi: xavotirlanish va uning oldini olish usullari. Toshkent: Fan va ta’lim nashriyoti 2020-y.

3. Mirzaeva, D. Maktabgacha ta’limda o‘yin texnikalari va gender yondashuv. Toshkent: Pedagogika nashriyoti 2019-y.

4. Tursunova, S. Bolalarda xavotirlanishni kamaytirishga qaratilgan innovatsion o‘yin metodikalari. Toshkent. 2017-y.

РАЗРЕШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКИХ ЗАДАЧ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ВАРИАЦИОННОМ ИСЧИСЛЕНИИ

Г.А.Абдуалимова PhD, доцент направления "Прикладная математика" АГУ
С.А.Аллахкулова магистр направления "Математика",
О.Р.Набиева магистр направления "Математика"

Аннотация. В тезисе рассматривается методика развития креативного мышления студентов в процессе изучения курса вариационного исчисления на основе использования инженерных задач. Обоснована актуальность интеграции практико-ориентированных и междисциплинарных задач в преподавание фундаментальной математической дисциплины. Показано, что применение инженерных задач способствует формированию у студентов навыков нестандартного мышления, анализа реальных проблем, построения математических моделей и поиска оптимальных решений. В работе раскрываются дидактические возможности вариационного исчисления для развития креативного мышления, а также предлагаются основные методические подходы к организации учебного процесса. Полученные результаты могут быть использованы в практике преподавания высшей математики в инженерных и технических вузах.

Ключевые слова. Электрическая цепь, закон синусоида, произвольная постоянная,функция, уравнения, электродвижущая сила.

В условиях стремительного развития науки и техники возрастает потребность в специалистах, обладающих не только глубокими теоретическими знаниями, но и развитым креативным мышлением, способностью находить нестандартные решения сложных профессиональных задач. Современное высшее образование ориентировано на формирование у студентов умений самостоятельно анализировать проблемы, выдвигать гипотезы и применять математический аппарат в практико-ориентированных ситуациях. В этом контексте особую актуальность приобретает поиск эффективных методик развития креативного мышления в процессе изучения фундаментальных математических дисциплин.

Задача.

Сила тока в заводской электрической цепи с омическим сопротивлением R и коэффициентом самоиндукции L удовлетворяет дифференциальному уравнению

$$L\frac{di}{dt} + Ri = E,$$

где E – электродвижущая сила. Найти зависимость силы тока i(t) от времени,если E изменяется по синусоидальному закону E=E_0sin ωt и i(0) = 0. [3, 75]

Решение.

Из уравнения

$$L\frac{di}{dt}+Ri=E, \qquad (1)$$

имеем

$$\frac{di}{dt}+\alpha i=\frac{E_0}{L}\sin\omega t, \qquad (2)$$

где $\alpha=\frac{R}{L}$. Решение уравнения (2) ищем в виде i(t)= u(t)v(t) . Подставляя

это выражение в (2), получим

$$\frac{du}{dt}v+u\frac{dv}{dt}+\alpha uv=\frac{E_0}{L}\sin\omega t. \qquad (3)$$

Пусть u (t) – одно из решений уравнения $\frac{du}{dt}+\alpha u=0$, например

$u=e^{-at}$.Тогда из уравнения (3) находи $\frac{dv}{dt}=\frac{E_0}{L}e^{at}\sin\omega t$. Отсюда

$$v(t)=\frac{E_0}{L}\int e^{at}\sin\omega t dt. \qquad (4)$$

Обозначив $I=\int e^{at}\sin\omega t dt$, имеем

$I=\int e^{at}\sin\omega t dt = -e^{at}\frac{1}{\omega}\cos\omega t+\frac{a}{t}\int e^{at}\cos\omega t dt=$

$=-\frac{1}{\omega}e^{at}\cos\omega t+\frac{\alpha}{\omega^2}e^{at}\sin\omega t-\frac{\alpha^2}{\omega^2}\int e^{at}\sin\omega t dt=$

$==-\frac{1}{\omega}e^{at}\cos\omega t+\frac{\alpha}{\omega^2}e^{at}\sin\omega t-\frac{\alpha^2}{\omega^2}I.$

Следовательно, $I=\frac{e^{at}(-\omega\cos\omega t+\alpha\sin\omega t)}{\omega^2+\alpha^2}$. Подставляя это выражение в формулу(4), находим

$v(t)=\frac{E_0}{L}(\frac{e^{at}(-\omega\cos\omega t+\alpha\sin\omega t)}{\omega^2+\alpha^2}+C)$,

где C – произвольная постоянная.

Перемножая найденные функции u(t) и v(t) , получим закон изменения силы тока:

$I(t)=\frac{E_0}{L}(\frac{-\omega\cos\omega t+\alpha\sin\omega t}{\omega^2+\alpha^2}+Ce^{-at})$

Используя начальные условия i(0)=0, находим C :

$0=\frac{E_0}{L}(\frac{-\omega}{\omega^2+\alpha^2}+C)$, то есть $C=\frac{\omega}{\omega^2+\alpha^2}$. Следовательно,

$I(t)=\frac{E_0}{L(\omega^2+\alpha^2)}(-\omega\cos\omega t+\alpha\sin\omega t+\omega e^{-at})$.

При больших значениях t (α>0) величина e^{-at} достаточна мала, так что i(t) со временем приближается к стационарному режиму:

$I(t)=\frac{E_0}{L(\omega^2+\alpha^2)}(-\omega\cos\omega t+\alpha\sin\omega t)=\frac{E_0}{L\sqrt{\omega^2+\alpha^2}}\sin(\omega t-\varphi)=$

$=\frac{E_0}{\sqrt{(L\omega)^2+R^2}}\sin(\omega t-\varphi)$,


где $\varphi=\text{arctg}\frac{\omega}{\alpha}$ – начальная фаза тока


Иллюстрация решения уравнения $L\frac{di}{dt}+Ri=E_0\sin\omega t$. График показывает ,как ток выходит на установившийся режим.

Данное задача решена на JavaScript

JavaScript — это язык программирования, который в основном используется для создания интерактивных веб-страниц

Если HTML — это структура страницы,
CSS — её внешний вид,
то JavaScript — это поведение страницы.
Что умеет JavaScript:
реагировать на действия пользователя (клики, ввод текста);
менять содержимое страницы без перезагрузки;
создавать анимации;
проверять формы (валидация);
работать с сервером (загрузка данных);
использоваться не только в браузере, но и на сервере (Node.js).





Аналитическая формула(результат):

I(t)=I_m $(\sin(\omega t - \varphi) + e^{-Rt/L} \sin\varphi)$

Первое слагаемое-вынужденные колебания(установившийся режим).

Второе слагаемое-свободное колебания (переходный процесс),которые затухают со временем.

Фазовый сдвиг φ =arctg$\frac{\omega L}{R}$

Список литературы:

1. Далингер, В. А. Профессионально ориентированные задачи по ма тематике для студентов инженерных специальностей: учеб. пособие / В. А. Далингер, Л. В. Васяк. – Омск: ООО ИПЦ «Сфера», 2007. – 60 с.

2. Михайленко, В. М. Сборник прикладных задач по высшей матема тике: учеб. пособие / В. М. Михайленко, Р. А. Антонюк. – Киев: Выща шк., 1990. – 167 с.

3. Т. И. Бова, О. И. Кузьменко, И. И. Малахов, Прикладные задачи по математике для студентов инженерных специальностей

РАЗРЕШЕНИЕ ГЕОМЕТРИЧЕСКИХ ЗАДАЧ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ВАРИАЦИОННОМ ИСЧИСЛЕНИИ

Г.А.Абдуалимова -Phd, доцент направления "Прикладная Математика"АГУ
О.Р.Набиева-магистр направления "Математика"
С.А.Аллахкулова -магистр направления "Математика"

Аннотация .Данная работа посвящена разработке методики, направленной на развитие умения применять теоретические знания в области вариационного исчисления к решению практическихзадач. Вариационное исчисление является мощным инструментом в математике и инженерных науках, позволяющим находить экстремумы функционалов и оптимизировать процессы.

Ключевые слова. Экстремум, функция, Лагранж, стационарные точки, множители, локальные решения.

Keng ma'noda axborot bosimi dunyoning axborot obrazini shakllantirish, transformatsiyalash – tuzilishini o'zgartirish, deb tushuniladi, ya'ni bu jarayon “ongning axborot matritsasini transformatsiya qilish vositasida bilim, fikr, tasavvur, tushuncha va x.k. larni o'zgartirish jarayonidan iborat. O'z-o'zidan axborot bosimi ongning hamma komponentlariga –

psixik jarayonlar, psixik holatlar va shaxsning psixik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin [5, 87;].

Xozirgi sharoitda axborot muhitining odamlar psixikasiga bosimining ko'lami va qudrati axborot-psixologik xavfsizlik muammosini aktuallashtirdi. Axborot-psixologik xavfsizlik muammosining aktuallashishining yana bir sababi shundaki, ong va ong ostining psixologik va mafkuraviy qurilmasini o'zgartirish, emotsional holatlarni transformatsiya qilish maqsadida odamlarga ta'sir qilishning yangidan-yangi usullari va axborot uslublari paydo bo'lmoqda. Bularning barchasi atrof borliqni noadekvat aks ettirishga, xulqning, milliy psixologik qiyofa xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta'kidlanganidek axborot oqimining bevosita ta'siri eng yuqori darajada shaxs sifatida odamga yo'naltiriladi, chunki axborot bosimi har doim psixologik xarakterga ega bo'lib psixologik mexanizmlar orqali xulqni belgilaydi. Axborot fazosining globallashuvi, tobora ortib borayotgan axborot xajmi odam ongiga yog'ilib uning axborot ongini ma'lum stereotiplar, fikrni toraytiradigan ustanovkalar, dunyoning buzilgan obrazi bilan to'ldiradi, shaxsning o'ziga xos qadriyatlari yo'nalishi va qabul qilayotgan ma'lumotini shaxs tomonidan anglay olmaslik ko'rinishida yuzaki tafakkurning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Axborot muhitida o'zaro qorishib va turli birikmada bir vaqtda ham mavjud olamni adekvat aks ettiradigan ma'lumot va shaklan buzilgan, yolg'on ma'lumot ham mavjud bo'ladi. Bunday holat bir tomondan bilish jarayonining murakkabligi, olam xaqidagi bilimlarimizning to'liq emasligi bilan, ikkinchi tomondan ma'lumotni yaratayotgan odamlarning sub'ektivligi bilan bog'liq. Axborot oqimi anglangan va anglanmagan murakkab qorishmasining odam, uning psixikasining hamma darajasiga ta'siri axborotni qayta ishlab chiqarish, idrok qilish, qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, baholash, munosabat bildirish, axborotga pozitsiya va dispozitsiya kabi to'plam shaklida odamning xulq motivlarini shakllantiradi.

Shaxsga bosim o'tkazadigan axborot-psixologik xatarlar omillari deganda “odam – axborot muhiti” tizimining odamning normal xayot faoliyati uchun o'ta xavfli bo'lgan axborot bosimining psixologik samaralari bilan bog'liq sifatlari tushuniladi. Boshqacha aytganda bu yerda so'z axborot omillarining psixik jarohat yetkazuvchi va psixikaning barqarorligini izdan chiqaruvchi bosim o'tkazishi xaqida ketayapti.Odamning boshqa odamlar, odamlar guruhi, texnik qurilmalar, ramzlar va belgilar tizimi va x.k.lar bilan har qanday bevosita hamda bilvosita o'zaro munosabatga kirishishi shaxs uchun axborot-psixologik xatar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bevosita odamning o'ziga taalluqli bo'lgan axborot-psixologik xatar omillariga quyidagilar kiradi va aynan shu omillar ko'proq yoshlarga xos bo'lib hisoblanadi: shaxsning o'z e'tiqodlari, rejalari, o'z shaxsiy taraqqiyotiga mos axborotni anglab, mustaqil tanlay olishga noqobilligida namoyon bo'ladigan yetuk yemasligi; shaxsning konformizmga, taqlidchanlikka ustanovkasi, manipulyativ axborot bosimini idrok qilishga tayyorligi.

Shuni qayd etish lozimki, ilmiy adabiyotlarda shaxs axborot-psixologik xavfsizligini o'rganishning ikkita yo'nalishi ko'p uchraydi:

Birinchi yo'nalish vakillari shaxsni uning munosabatlari tizimiga mos bo'lgan ijtimoiy xulqining adekvat axborot-yo'naltiruvchi asosining shakllanishi va mavjud bo'lishini qiyinlashtiradigan yoki unga to'sqinlik qiladigan salbiy axborot bosimlaridan himoyalanganlik holatini o'rganadi. Bunday axborot xurujlari odatda odamning psixik holati va psixik xarkteristikasini o'zgartirishga, hulqini butunlay qayta qurishga qobil bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalish vakillari shaxs manfaatlari himoyalanganligini uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, aqliy, jismoniy va ma'naviy taraqqiyotida shaxsiy xavfsizligining ta'minlanishi, turli ijtimoiy ob'ektlar va jamiyatdagi axborot muhiti tomonidan odam psixikasiga axborot bosimi o'tkazadigan xatarlardan saqlash sifatida o'rganadi [4, 41;].

Shunday qilib, turli tadqiqotchilarning axborot-psixologik xavfsizlik muaaamosiga qarashlarini umumlashtirib xulosa qilish mumkinki, birinchidan, axborot-psixologik xavfsizlik – shaxsning, uning bir butunliligiga va o'z-o'zini tashkil qilishiga xavf solayotgan real yoki potentsial axborot-psixologik xatarlarga qarshi tura oladigan vaziyatlarda o'z hayot faoliyatining asosiy

maqsadlariga mos qaror qabul qilishga tayyorligini ifodalasa, ikkinchidan, bu tushuncha odam xulqining adekvat axborot-yo'naltiruvchi asosining shakllanishi va mavjud bo'lishini, o'z-o'ziga adekvat munosabatni, shaxsning shaxsiy bir butunligini saqlashni hisobga olgan holda moslashib mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi omil bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zidan axborot-psixologik xavfsizlik shaxsning uning psixik xususiyatlari va psixik holatini o'zgartirishga qodir bo'lgan, xulqini modifikatsiya qiladigan salbiy axborot xurujlaridan barqaror himoyalanganlik holatini, shaxsning axborot bosimida o'z shaxsi qurilmasini tashkil qiluvchi tizimlarni va asosiy psixologik sifatlarini saqlashga qobilligini anglatadi.

Tan olish kerak, xozirgi sharoitda shaxsda aynan shu sifatlarni shakllantirish oson vazifa emas. Chunki shaxsga bosim o'tkazadigan axborot oqimi va uning xajmi kundan-kun kuchayib bormoqda, bosim o'tkazishning shakl va usullari tobora takomillashib bormoqda, axborotdan g'araz maqsadlarda foydalanish vositasida milliy o'ziga xoslikni vayron qilishga intilishlar kuchayib bormoqda. Axborotning yo'lini to'sib qo'yish esa teskari samaraga, mish-mishlar va vahimaning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday sharoitda istisnosiz barcha jamiyat a'zolarini sodir bo'layotgan voqea xodisalar va ularning mohiyati xaqida “oldini olib” xabardor qilib borishimiz, har qanday tashqaridan uzatilayotgan ma'lumotning albatta ma'lum maqsad ko'zlashini anglatishimiz va eng muhimi yuqorida Prezidentimiz nutqlarida ta'kidlanganidek, “agar biz bu yorug' dunyoda „o'zbek“, „o'zbekistonlik“, „O'zbekiston“ degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo'lsak” bunday tadbirlarni kerak bo'lganda emas, doimiy, muntazam “zararli axborotga qarshi emlash” shaklida amalga oshirishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Ma'naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 2023 yil 22 dekabr' kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutq.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2024 yil 12 yanvar kuni bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi.
3. Atadjanov M. Perexodnoe pokolenie v sovremennom sotsiume: ot pokoleniya iks k internet-pokoleniyu //Nauchniy vestnik Voronejskogo gosudarstvennogo arxitekturno-stroitel'nogo universiteta. Seriya: Sotsial'no-gumanitarnie nauki. – 2015. – №. 4. – S. 69-73.
4. Baeva I. A., Baev N. N., Kondakova I. V. Lichnostnie resursi soprotivlyaemosti cheloveka negativnim vozdeystviyam sotsial'noy sredi kak uslovie ustoychivogo psixicheskogo razvitiya // — Perm', 2018.
5. Bodrov M.A. Psixologicheskoe vozdeystvie na lichnost', Izd.: MOO Mejregional'naya obshestvennaya organizatsiya Akademiya bezopasnosti i vijivaniya, 2017.
6. Doklad o tsifrovoy ekonomike 2019, organizatsii ob'edinennix natsiy.

OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O’RNI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti B.E.Parmonov
4-bosqich amaliy psixologiya talabalsi O.Sobirxonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida psixologik bilimlarning tutgan o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Unda bolalarning yosh va individual psixologik xususiyatlari, emotsional rivojlanishi, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ota-onalarning psixologik savodxonligi, pedagogik madaniyati va tarbiyaviy munosabatlarining bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta’siri asoslab berilgan. Maqolada

psixologik bilimlarga tayangan holda oilaviy tarbiyani samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari, psixologlar hamda ota-onalar uchun metodik ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, oilaviy tarbiya, psixologik bilimlar, shaxs rivojlanishi, emotsional rivojlanish, ota-onalar psixologik savodxonligi, individual xususiyatlar, tarbiyaviy munosabat.

Oila tarbiyasi har doim eng mashhur ta'lim turidir. Oilaning ijtimoiy-madaniy hodisasi, uning evolyutsiyasi yoki turg'unligi (tushkunlik, turg'unlik), o'z rivojlanish tajribasini farqlash qobiliyati, barcha oila a'zolarining o'zini o'zi namoyon qilishi, xavfsizligi, qabul qilinishi va tasdiqlanishi, shaxsiy o'sishi va shakllanishidagi asosiy ehtiyojlarini qondirish. Ushbu oilaviy ko'rsatkichlar har bir oila a'zosining biologik, psixologik va ijtimoiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa bolalar va o'smirlar uchun muhimdir.

Zamonaviy sharoitda oila instituti bolani tarbiyalash va rivojlantirishda asosiy hisoblanadi, shu bilan birga oila, jamoat va davlat muassasalari (bolalar bog'chasi, maktab, qo'shimcha ta'lim muassasalari va boshqalar) muhim rol o'ynaydi.

Oila bu jamoaning bir turi bo'lib, uning a'zolari yoshiga, kasbiga ko'ra har xil, qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, umumiy oilani boshqarishda bolalar ham qatnashadilar. Oila a'zolarining o'zaro munosabati o'zaro sevgi va tushunish va qabul qilish, qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordamga bo'lgan hurmatga asoslanadi. Oilada alohida atmosfera barcha oila a'zolari: bolalar va ota-onalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar bilan muloqot qilishning kommunikativ madaniyati tomonidan yaratiladi. Bolalarning hayotiy tajribasini boyitish, ularning ma'naviy va axloqiy shakllanish darajasi oila a'zolarining o'zaro munosabatlar darajasiga bog'liq.

Bolani oilada tarbiyalashning o'ziga xos xususiyati shundaki, homila rivojlanishining tug'ilishidan boshlab, bola hayotining birinchi kunlari, oylari, yillari eng mas'uliyatli va eng og'ir hisoblanadi.

Bolaning tug'ilishi bilan oilada yangi va murakkab vazifalar paydo bo'ladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi va tarbiyasini ta'minlash oilaning asosiy vazifalaridan biridir. Bu bolani parvarish qilish, o'z vaqtida va to'g'ri ovqatlanish, yurish, tanani qattiqlashtirish va sanitariya-gigiena ko'nikmalarini shakllantirish. Kichik bolalar uchun mavzuli o'yinchoqlar bilan o'yinlarni tashkil qilish muhimdir (yuklab olish, ovqatlantirish, minish, yotish va h.k.) Ushbu o'yin harakatlar bolani kattalar dunyosiga tanishtiradi va uning jismoniy qobiliyatini yaxshilaydi, ufqini kengaytiradi.

Bolaning hayotining birinchi yillarida ota-onalarning jismoniy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha g'amxo'rligi uning ma'naviy va axloqiy shakllanishi rivojlanishi bilan birlashtirilishi kerak. Bular hikoyalar o'qish, kitob o'qish, bolalarning multfilmlarini, filmlarini tomosha qilish, musiqa tinglash, rasmlar va rasmlarga qarash.

Maktabgacha yoshdagi oilada tarbiya tuyg'ular madaniyatini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu ota-onalarga, oqsoqollarga xurmat qilishdan, oila va do'stlarni xafa qilishdan qo'rqish bilan hurmatni rivojlantirish (chuqur hurmat). Ota-onaga bo'lgan ehtirom itoatkorlikni shakllantirishga yordam beradi, bu zamonaviy sharoitlarda "mumkin" va "yo'q" kabi belgilar yo'qolganda. Oila bolaligida to'xtashiga yo'l qo'ymaslik uchun bolaga har bir insonga xos bo'lgan uyatchanlik, uyatchanlik tuyg'usini singdirish uchun shart-sharoit yaratishi shart. Oilada bolalarni tarbiyalashda muhim o'rin iste'mol qilish, o'zini tutish, o'zini tutish madaniyati hisoblanadi. Buning uchun bolalarda kun tartibini kuzatish, qotib qolish, uy ishlarini bajarish, ovqatlanishning aniqligi, me'yorini bilish zarurligini shakllantirish kerak. Hurmatni rivojlantirish boshqa odam bilan munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi: bular tushunish va rahm-shafqat hissi. Erta yoshdan boshlab bolalar qoidalarni o'rganishlari kerak: hech kimni xafa qilmang; iloji boricha yordam bering; yaxshilik qiling. Oiladagi bolalarda rostgo'ylikni tarbiyalashga alohida e'tibor berilishi kerak, buning uchun ota-onalar, kattalar oila a'zolari so'zlarda va xatti-harakatlarda namuna bo'lishi, bolalarni aldamasliklari va ularga yolg'on xabarlar bermasliklari kerak. O'ziga

xoslik irodasini tarbiyalash - bu xarakterni tarbiyalash. Ko'proq A.S. Makarenkoning fikriga ko’ra irodani tarbiyalash uchun mashqlarni taklif qildi va ularni "xulq gimnastikasi" deb atadi. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada irodani kuchaytirish uchun etarli miqdordagi mashqlar to'plangan: Ixtiyoriy harakatlarning namoyon bo'lishi uchun "O'zingizni maqtang": men xohlamagan edim - lekin men buni qila oldim, qila olmadim - lekin men bilib oldim va boshqalar.[1].

Oilada bolalarda vijdonni tarbiyalash ma'naviyatning namoyon bo'lishida eng muhimdir. Vijdon o'z-o'zini anglashning ifodasidir, bu ichki "men" ning ovozidir, bu o'zi uchun ongli javobgarlikni tarbiyalashdir. N.E. Shurkova o'z tadqiqotlarida vijdon umuminsoniy axloqning asosi ekanligini ta'kidladi. Uning holatiga ko'ra, insonning axloqi aniqlanadi. Vijdon bo'lishi mumkin: xotirjam, toza, zaif, o'lik, "kuygan" - bu o'ta xavfli holat, odam ruxsat berilgan narsadan mahrum bo'ladi, javobgarlikni his qilmaydi, dunyoning, odamning, yaratuvchining qadrini yo'qotadi. Bu yomonliklar va jinoyatlarga olib keladi.

Ota-onalar, oiladagi kattalar bolalarda his-tuyg'ularni tarbiyalash adabiyot, musiqa va tasviriy san'atdagi mumtoz san'at orqali amalga oshirilishini bilishlari kerak. Buning uchun siz o'qish, o'qigan narsalaringizni bolalar bilan muhokama qilishingiz, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga borishingiz, ko'rgan narsalaringizni tahlil qilishingiz, go'zallarni ko'rishni va hayratlanishni o'rganishingiz kerak.

Bolalarda his-tuyg'ularni tarbiyalashda bu so'z muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy sharoitda so'zga nosog'lom munosabat, uning ma'naviy asoslarini yo'qotish nafaqat bolalarning, balki kattalarning o'zlarining ham faol lug'atining eskirishiga, dekarralizatsiyasiga (qashshoqlashuviga) olib keldi. Buning tasdig'i, oilada, jamoat joylarida kattalar tomonidan kufr so'zlarining tez-tez ishlatilishi, bu bolalar uchun yomon namuna bo'lib xizmat qiladi.

Drujinin V.I. Oila psixologiyasi darsligida – oilada bolalarni jins (jins) bo'yicha tarbiyalashda aniq vazifalar mavjud. Ota-onalar tabiatning o'zi erkak va ayolning xatti-harakatlarining xususiyatlarini dasturlashtirilganligini bilishlari kerak. Agar ikkinchisi nozik sezgir, yovuzlikka bardosh bermasa, demak, u jasoratli, yaqinlari uchun javobgarlikni, o'z vatanini himoya qilishga qodir. Bola erta yoshdanoq uning "men" ekanligini bila boshlagach, uni shaxs sifatida shakllantirish uchun uzoq yo'l boshlanadi. Faqat 5-7 yoshga kelib, ularning xulq-atvor qoidalarini bola joylashgan muhitning odatlari va odatlariga muvofiq aniq farqlash amalga oshiriladi. Bolalar hali xatti-harakatlarning rivojlangan tajribasiga ega emaslar, ular behush harakat qilishadi va ota-onalar (ota va onasi) ularga ergashish uchun namuna bo'lishadi, shuning uchun bolaligidagi oilaviy ta'lim muhiti kelajakda ularning xatti-harakatlarini, er va xotin rolida aniqlaydi.[2].

Maktabgacha yoshdan boshlab, ota-onalar bolalarining mehnat ta'limi haqida g'amxo'rlik qilishlari kerak, shunda iste'molchi emas, balki yaratuvchining fazilatlari shakllanadi (ikkinchisi, afsuski, bugungi kunda biz buni ko'proq kuzatamiz). Bolalarni o'z-o'zini parvarish qilishga o'rgatish, uyda oilada yordam berish, uy ishlarini bajarish, yaqinlarini o'z ishlari bilan rozi qilish juda muhimdir. Ota-onalar farzandlarining bolaligidanoq mehnatlari, sevimli mashg'ulotlari, moyilliklarini kuzatib borish ularga kasb tanlashda yanada yordam beradi. Bolada mehnatsevarlikni tarbiyalash vujudga kelayotgan shaxsning eng yuqori axloqiy ko'rsatkichidir.

Ota-onalarning vazifasi oilada bolalarning aqliy tarbiyasi va rivojlanishi uchun sharoit yaratishdir. Bolalarni tabiat hodisalarini kuzatishga, ob'ekt va hodisalarni taqqoslashga, o'xshash va farqli narsalarni farqlashga o'rgatish muhimdir. Oiladagi intellektual hayot muhiti kattalar va bolalar ishlashi, barcha oila a'zolari uchun kitob bilimning asosiy manbai ekanligi, birgalikda o'qish, teleko'rsatuvlarni tomosha qilish odati mavjudligi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari bolalarning aqliy rivojlanishida so'nggi o'rinni egallamaydi. Bolalar katta yoshdagilarga qaraganda kompyuterda ishlashni tezroq amalga oshiradilar, shuning uchun ota-onalar u bilan ishlashga vaqtni sarflashlari, doimiy murakkablikdagi bolalarga rivojlanayotgan tabiat o'yinlarini taklif qilishlari kerak, bu erda bola aqlli, chaqqon va tahlil qilishni o'rganishi

kerak. Ammo, kattalar tomonidan tegishli nazorat qilinmasa, bolalarda kompyuter igrofobiyasini shakllantirish xavfi mavjud.

Kulikova T.A. Oila pedagogikasi va uy ta'limi darsligida: maktabgacha yoshda, oila bolada estetik madaniyatni shakllantiradi. Erta bolalikdan boshlab, ota-onalar bolaga onaning tabassumidan, chiroyli o'yinchoqdan, guldan, qushlardan, chiroyli musiqadan, qiziqarli kitobdan, insoniy harakatlardan zavqlanishni o'rgatishadi. Estetik tarbiya jarayonida bolalarni nafaqat atrofdagi go'zallikdan zavqlanishga, balki tabiatda, muayyan harakatlar, harakatlar va fikrlarda tushunish va ularga g'amxo'rlik qilishni o'rgatish muhimdir .[3]

Oila tarbiyasida bolalarni maktabga tayyorlash davri alohida o'rin tutadi. Maktabgacha yosh - bu o'quv motivatsiyasini shakllantirish uchun serhosil davr. Buning uchun bola o'yin faoliyatining barcha turlarini "o'tishi" juda muhim: ob'ektlar bilan o'ynash, rejissyorlik, rol o'ynash, teatrlashtirish (dramatizatsiya), didaktik va boshqalar. O'yin faoliyatida "to'yinganlik" turi mavjud (garchi o'yin unga hamroh bo'lsa ham) bolaning holati o'zgarishiga hissa qo'shadigan keyingi hayot). Maktabga borishni istash, bilim olishga qiziqish, yangi narsalarni o'rganish. Ota-onalar maktabga qiziqishni saqlaydilar; "Maktabda siz ko'plab yangi narsalarni o'rganasiz", "1 sentyabrdan boshlab siz kattalardek ishlay boshlaysiz", "Maktabda o'qish sizning vazifangizdir." O'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan bunday fazilatlarni shakllantirishga e'tibor qaratish kerak: boshlangan narsani oxirigacha bajarish qobiliyati, duch kelgan qiyinchiliklarni engib o'tish, ishning sifatini va uning natijalarini baholash, bajarilgan ishdan zavqlanishni boshdan kechirish, muvaffaqiyatsizlikdan xafa bo'lish. Shunday qilib, kelajakdagi talaba quvnoq, mutlaqo haqiqiy shaxsiy pozitsiyani yaratadi. Maktabga birinchi bor boradigan bola o'z ichki mavqeiga tayyor va u maktab o'quvchisi ekanligidan g'ururlanish tuyg'usini boshdan kechiradi. Ota-onalar bolaning maktabga bo'lgan ishtiyoqini, yangi, noma'lum narsalarga qiziqishini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Buning uchun nima qilish kerak? Avvalo, birinchi sinf o'quvchining ish joyiga g'amxo'rlik qiling. Kunning to'g'ri rejimini tashkil qiling: yotish va yotish uchun doimiy vaqt, kuniga 4-5 ta ovqatlanish, uyda mashq qilish uchun doimiy vaqt, o'yinlarga bo'sh vaqt, sevimli narsangiz bilan shug'ullanish, havoda yurish. Kundalik tartibni tuzgandan so'ng, kattalarga yordamni jadvalga muvofiq yaqinlashib kelayotgan ishlar haqida eslatib turish kerak. Voyaga etganlarni nazorat qilish zerikarli va doimiy bo'lishi shart emas. Bolada mustaqillikni rivojlantirish kerak. Yosh o'quvchilar ma'qullash va sharhlarga juda sezgir, shuning uchun bolalarni qiyinchiliklarni yashirmaslik uchun muvaffaqiyatlari bilan bo'lishishga o'rgating. Farzandlaringizga bolaning muvaffaqiyatiga qiziqishingizni va qiyinchiliklarda yordam berish istagingizni ko'rsating. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolalar maktab hayotiga osonroq jalb qilinadi, agar maktab hayotining birinchi oyida ota-onalardan biri yaqin bo'lsa, ularga hayotning yangi ritmiga kirishga, o'z faoliyatini tashkil etishga yordam beradi.

Shunday qilib, ota-onalarning bolaning maktab masalalariga e'tibori unga ta'limotni vazifa, burch sifatida tushunishga va unda ta'lim olishga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Oila maktabning birinchi yilida bolaning bilim qiziqishini va mustaqilligini saqlab qola oladimi yoki yo'qmi, keyingi sinflarda o'quv ishidagi yutuqlari bunga bog'liq. Bolaning o'sishi va uning sinfdan sinfga o'tishi bilan oilaning vazifalari murakkab.

Adabiyotlar ro’yxati

1. A.S. Makarenko’ youth pedagogy: experience of antinomic dialectics formation January 2017.

2. Drujinin V.I. Oila psixologiyasi. - M. 2007 yil.

3. Kulikova T.A. Oila pedagogikasi va uy ta'limi: darslik. - 2-nashr, Rev. va qo'shing. - M.: Akademiya, 2009 yil.

OLIY T’LIM TIZIMIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Andijon davlat universiteti

Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti B.E.Parmonov
4-bosqich amaliy psixologiya talabalsi R. To‘lkinjonova

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlash jarayonining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Unda ta’lim jarayonida shaxsning kasbiy motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyalari hamda psixologik tayyorgarligining o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, talaba shaxsining kasbiy shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy muhit, akademik guruh, o‘qituvchi-talaba munosabatlari va ta’limiy hamkorlik mexanizmlarining psixologik jihatlari yoritiladi. Maqolada zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh va malakali mutaxassislarni tayyorlashda ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olish zarurligi ilmiy xulosalar orqali asoslanadi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim tizimi, malakali kadrlar, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar, kasbiy motivatsiya, shaxs rivojlanishi, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuv, ta’limiy hamkorlik.

Mamlakatimizdagi ta’lim islohotlarining diqqat markazida ham ta’lim sifatini yaxshilash, kadrlarni zamon talablariga mos tarzda yetishtirish, ularni iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ijtimoiy sektor, biznes, fan, xalqaro munosabatlar sohalarida raqobatbardosh yetuk mutaxassislar qilib tayyorlash masalalari turibdi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda e’lon qilingan “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF–4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ning 4.4 – **“**Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish” bandida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” masalalarini hal qilish nazarda tutilgan [1].

«Ta’lim to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o’quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko’tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o’tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko’rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek

nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirib borish ta’lim tizimiga salmoqli o’zgarishlarni olib kiradi [2].

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi qonunlariga (1) muvofiq, Oliy ta'lim tizimining maqsadlari quyidagilardan iborat:

- rivojlangan davlatlar darajasida O'zbekistonning ilmiy-texnik, ijtimoiy - iqtisodiy, pedagogik-psixologik va madaniy rivojlanishi muammolarini hal qilishga qodir yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash. yuqori ma'naviy, madaniy va axloqiy fazilatlarga ega;

- mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan, texnika va texnologiyalar, iqtisodiyot va madaniyatning zamonaviy yutuqlari asosida o'qitishning tashkil etilishi va usullarini muntazam takomillashtirib borish;

- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta'limni individuallashtirish vositalarini, masofaviy ta'limni joriy etish;

- yoshlarni milliy uyg'onish mafkurasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida, mustaqillik g'oyalariga sadoqat, vatanga, oilaga va atrof-muhitga muhabbat ruhida psixologik yo'naltirishni ta'minlash;

- ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagogik kadrlar va talabalarning ijodiy faolligi, natijalaridan o'quv jarayoni va iqtisodiyotda foydalanish orqali fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish;

- ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etish;

- ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish;

- rivojlangan davlatlar bilan oliy ta'lim sohasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish;

- sifatli ta’limni takomillashtirish va oliy o'quv yurtlarining mustaqilligini kengaytirish [3].

Oliy ta'lim tizimi davlat ta'limi standartlariga muvofiq ta'lim va kasbiy dasturlarni amalga oshiradigan davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlaridan iborat;

- oliy ta'limni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradigan ilmiy va pedagogik muassasalar;

- davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatlarini tizimli tashkil etish va amaliyotga tadbiq etilishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga muvofiq oliy ta'limni boshqarish tizimining quyidagi bosqichlari ta'minlanadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

2. Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi.

Davlat universitetini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan rektor tomonidan amalga oshiriladi. Xususiy universitetda rektor muassis tomonidan mulkdor sifatida tayinlanadi [4].

Oliy ta`lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq rektor o'quv yurtining natijalari uchun to'liq javobgardir.

Ta'lim muassasasining asosiy masalalarini ko'rib chiqish uchun unda Ilmiy kengash tashkil etilgan. Uning tarkibi, vakolatlari, tashkil etish tartibi va faoliyati Oliy ta'lim va fan vazirligining ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan Ilmiy kengash to'g'risidagi nizom bilan belgilanadi. Universitet davlat boshqaruvi organi bo'lgan Vasiylik Kengashini yaratadi. U muassislar, mahalliy hokimiyat organlari, biznes, boshqa o'quv muassasalari, jamoat tashkilotlari, fondlar va homiylarning vakillaridan iborat.

Universitetda amaldagi qonunchilikka va jamoat ustaviga muvofiq jamoat tashkilotlari, ilmiy va ixtiyoriy jamiyatlar, ilmiy-uslubiy kengashlar va komissiyalar, yosh olimlar kengashlari

va boshqalar tuzilishi mumkin. O'quvchilar va ilmiy-pedagogik xodimlarning manfaatlarini ifoda etish, ularni himoya qilish o'qituvchilarning kasaba uyushmasi tomonidan amalga oshiriladi [5].

Oliy ta'limda etakchilik roli jiddiy ijtimoiy mas'uliyatni talab qiladi. Ushbu rolni ushbu sohadagi barcha sheriklar, ayniqsa o'qituvchilar va talabalar bilan muloqot orqali sezilarli darajada oshirish mumkin. Umumiy manfaatlarga, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlik oliy ta'limni yangilashning asosiy usulidir. Hamkorlik milliy va institutsional darajada ta'lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgar shaxslar, o'qituvchilar va talabalar, universitetlarning ma'muriy va texnik xodimlari, ish dunyosi, universitetlar va jamoat guruhlari o'rtasida bo'lishi kerak. Jamiyat barcha turdagi ta'limni, shu jumladan oliy ma'lumotni qo'llab-quvvatlashi kerak, chunki u iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.

Oliy ta'limni boshqarish tizimlari. Menejmentning yakuniy maqsadi ta'lim, o'qitish va tadqiqotning yuqori darajasini ta'minlash, shuningdek, jamoaga xizmat ko'rsatish orqali oliy o'quv yurtlarining institutsional missiyasini kuchaytirishdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu maqsad samarali boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lgan ijtimoiy muammolarni, shu jumladan global muammolarni tushunishni birlashtirgan etakchilikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O’zbekiston electron xukumat portal. Lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" № 463-I 1997.08.29.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, 1997.08.29 № 464-I.

4. Goncharov V. I. Menejment: darslik. talabalar uchun nafaqa. ekon. maxsus universitetlar / V.I. Goncharov. - Mn .: Misanta, 2003 .-- 624 p. 45 p.

5. Samoxval V.V - Ikki bosqichli o'qitish tizimiga o'tish sharoitida oliy ta'lim sifatini boshqarish. Minsk: BSU, 2007 .-- 359 p. 67 p.

INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIM ORQALI KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti B.E.Parmonov
4-bosqich amaliy psixologiya talabalsi Sh. Xabibullayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi orqali kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Unda fanlararo integratsiyaning ta’lim jarayonidagi o‘rni, o‘quvchilarning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, tahlil qilish, solishtirish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari, motivatsiyasi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari asoslab beriladi. Maqolada integratsiyalashgan ta’lim asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan samarali pedagogik shart-sharoitlar, metod va texnologiyalar yuzasidan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: integratsiyalashgan ta’lim, tanqidiy fikrlash, kichik maktab yoshi, fanlararo bog‘liqlik, bilish faolligi, kognitiv jarayonlar, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

Ijtimoiy borliqning barcha jabhalari chuqur globallashayotgan va ularda muammolar yechilayotgan bir sharoitda, o‘zaro aloqador va bog‘liq bo‘lgan hozirgi davrda serqirra tafakkurli yoshlarning har tomonlama mukammal rivojlanishi, kamol topishi va shakllanishiga ehtiyoj bor. Ta’lim mazmuni va tuzilishini takomillashtirish yo‘llarini izlash, zamonaviy ilmiy integratsiya g‘oyalari asosida boshlang‘ich ta’limning didaktik asoslarini ishlab chiqish orqali tanqidiy tafakkur egalarini tabiyalash hozirgi kunning muhim talabidir.

Chunki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bunday tafakkur qilish natijasida bunyodkor g‘oyalarni vayronkor g‘oyalardan farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarda mustaqil faollikni, fikrlar rang-barangligini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi [1].

Fanlararo aloqadorlik faqatgina fanlarni o‘rganishda umumiy ijtimoiy maqsadlar asosida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi emas, balki aniq pedagogik vazifalarni shakllantirish, bilimlar, malakalar, munosabatlar asosida fan tizimlarini belgilashda muhim omillardan biridir.

Bugungi kunda o‘quv materiali uyg‘unlashtirilgan kontekstli, tanqidiy o‘qitish kabi o‘qitishning integrativ turlari va texnologiyalari jadallik bilan joriy etilmoqda. Bugungi kunda pedagogika oliy maktablarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash” fani o‘quv rejaga kiritilib o‘qitilmoqda. Bu ham bo‘lsa bu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini integrastiyalash orqali tashkil etishda formal mantiq va pedagogika fanlararo izlanish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalaga bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy fikrlash imkonini beradi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ona tili, matematika, o‘qish, tabiatshunoslik, rasm darslarini o‘tar ekan o‘quv predmetlarining integrastiyasini o‘quvchilar bilan birgalikda ta’lim mazmunini tahlil qiladilar, taqqoslaydilar, izohlaydilar. Natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash imkoniyati yuzaga keladi. Tanqidiy fikrlashda g‘oyalar va ularning ahamiyati ko‘p fikrlilik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi hamda ular boshqa g‘oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo‘llash, muammolarni hal qilish yoki yangi fikr kashfiyotiga alohida e’tibor beriladi [2].

Bu jarayonda fikrlar bayonida mantiqiy silogizmlarning o‘rni beqiyos. Integratsiyalashgan darslarda bu maqsadni amalga oshirish uchun imkoniyatlar kattadir. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish ta'limda integratsiyalashgan yondoshuvning metodik asosini belgilaydi. Integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilishning natijalari kiritiladi. O‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligida predmetlararo bog‘liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari va yangi kontekstda qayta ko‘rib chiqishlari tanqidiy fikrlashga olib keladi. O‘qituvchi avvalo qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash imkoniyati mavjudligini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalariga bog‘liq. Masalan, 4-sinf tabiatshunoslik darsida o‘quvchilar «Tabiatda suvning aylanishi» mavzusi bilan tanishganda suvning barcha tirik mavjudotlar uchun ahamiyati, uning xususiyatlari, tabiatda suvning aylanishi, uning turli holatlarda bo‘lishi haqida bilim egallasa, o‘qish darsida «Soy suvi» haqida ertak mavzusi, umuman suvga ta’luqli ertak, hikoya, she’rlar o‘rganilganda esa o‘quvchilar suvlarning qayerlarda bo‘lishi, nima maqsadda ishlatilishi, uning xususiyatlari, tabiat xilma xilligini o‘rganib, bizham uning bir bo‘lagi ekanligimizni va tabiat qonunlariga bo‘y sunishimiz lozimligini, undan oqilonafoydalanib asrab, avaylash kerakligi to‘g‘risida bilimlarga ega bo‘ladilar. Rasm darsida «Suv-bu hayot» mavzusida rasm ishlash asnosida o‘quvchilar atrof-borliq elementlarini ranglar vositasida tasvirlaydilar. Bu o‘quv predmetlaridagi o‘quv materiallari o‘quvchilarni tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang‘ich tasavvur hosil qilish, dialektik tafakkur, mantiqiy fikrlash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish va tabiatning har bir ne’matlaridan oqilona foydalanishni o‘rgatadi. Ona tili darsida esa o‘quvchilarga “Suvni tejang” mavzusida ijodiy bayon yozish taklif etiladi. Mustaqil matn – til va tafakkur integratsiyasi mahsuli hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Yozuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo‘ladi va bu o‘qituvchi uchun ham qulaylik yaratadi. Yozayotgan o‘quvchi doimo faol bo‘ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o‘zida mavjud bo‘lgan barcha bilimlardan foydalanadi.

U o‘z fikrini mustahkamlash uchun etarli darajadagi ishonchli dalillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bu dalillar fikrdagi mantiqiy ketma-ketlikni shakllantiradi.

O‘qituvchining bunday topshirig‘i tanqidiy fikrlash imkonini berib natijada:

– o‘quvchilarning fikrlashini faollashtiradi;

– turli o‘quv predmetlaridagi mazmunlar mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan analiz, sintez, qiyoslash, farqlash, solishtirish, birlashtirish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– o‘quvchilarda xilma- xil fikrlash imkoni tug‘iladi;

– o‘quvchida o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi;

– o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi ortadi [3].

Bu bilan predmetlararo aloqa axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy tafakkurlarini har tomonlama rivojlantirib boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashining shakllanishiga olib keladi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, umumiy yaxlit, mantiqan ketma-ketlikda va o‘ziga xos o‘tish metodikasiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Tajribali pedagog o‘zining faollashtiruvchi savollari bilan o‘quv xonasida ijodkorlik, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, fanlararo aloqadorlikda o‘quvchilarni mulohaza yuritishga undovchi savollar yordamida umumlashtirish, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni anglash, g‘oya va takliflarni mukammal shakllantirish uchun muayyan sharoit yaratadi. Bunday hollarda o‘quvchilarning fikrlash darajasi ko‘tariladi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan savollar nafaqat o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarishi, balki ularning ob’ektiv, tanqidiy fikrlashlari uchun turtki bo‘lishi kerak. Demak, o‘quvchining tanqidiy fikrlash faoliyatini savollar yordamida tarkib toptirish muhim pedagogik ahamiyata ega. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun frontal savollar berish maqsadga muvofiq emas. O‘qituvchi o‘quv jarayoniga ijodiy yondoshgan holda savollar vositasida, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga , undashi kerak. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga berilgan savollar, ularda ijodkorlik, mantiqiylik, konstruktivlik, tanqidiy fikrlashni tarkib toptirish, erkin mushohada qilishga yo‘llash, taqqoslash, o‘xshashlik va farqlarni anglash, fanlararo aloqadorlikni fahmlashi, o‘z fikrini aniq shakllantirish uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buning uchun o‘qituvchilar quyidagi savollardan foydalanishlari mumkin: «O‘tilgan mavzuga oid qanday ma’lumotlarni bilasiz?», «Bu haqida oldindan sizga nimalar ma’lum edi?», «Matndan siz nimani angladingiz?», «Bu materiallardagi eng muhim yangiliklar qaysilar?», «Sizda nima chuqurroq taassurot qoldirdi?», «Bu ma’lumotlarga yaqin, o‘xshash yoki to‘ldiruvchi bilimlarni yana qaysi fanimizda (darsimizda) uchratgansiz?», «Bularning bir biridan farqli va umumiylik tomonlari nimada?», «Nimalarni bilishni istaysiz, qanday hodisalar siz uchun tushunarsiz?», «Qay birlari sizda ko‘proq qiziqish uyg‘otdi, nima uchun?» kabilar. Bunda ular o‘z e'tibor fikrlarini faqat umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki, tahlil qilish shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o‘zlashtiradilar [4].

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish ularning qiziqish va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirish uchun zarur shartsharoitlarni vujudga keltirish orqali amalga oshadi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish fanlararo aloqadorlikda taqdim qilinayotgan o‘quv materiali aqliy faoliyat: analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish, kabilardan foydalanilganda samarali natija beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tanqidiy fikrlashga undovchi ijodiy pedagogik muhitni qaror toptirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ishchan muloqot, hamkorlik vaziyatini vujudga keltirish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga olib keladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. 4. Mavlonova R. va b. Boshlang‘ich ta’limni integratsiyalash. – T.: TDPU, 2009.
3. G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1996.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. 1-2 tom. – T.: “O‘qituvchi”, 2002.

INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGNING HISSIY - EMOTSIONAL TOLIQISHINING PSIXOPROFILAKTIKASI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti B.E.Parmonov
4-bosqich amaliy psixologiya talabalsi N.Mominova

Annotatsiya: Maqolada innovatsion ta’lim muxitida pedagogning texnologiyalarni qo’llash hamda hissiy emotsional toliqishining psixoprofilaktikasi haqida so’z yuritiladi. Uning psixologik xususiyatlari ta’hlil qilingan, natijalar va boshqa farqlar ko’rsatilgan holda uning maqsad, vazifalari hamda ta’limdagi faoliyati ko’rsatib berishga harakat qilingan.

Kalit so’zlar: innovatsiyalar, ta’lim islohotlari, o’quv jarayoni, talaba va pedagog faoliyati, qiziqtirish, innovatsiyalarni boshqarish, nazorat qilish, o’zgarishlar va adaptatsiya, psixologik xususiyatlar hamda omillar.

Innovatsion ta’limning bugungi kundagi ta’lim jarayoniga tadbiq etilishi globallashuv sharoitidan kelib chiqib, axborotlar oqimining xaddan ziyod ortishi, talabalar qabul qilish darajasida individual farqlarni hisobga olgan holda pedagogdan quyidagi xususiyatlarni talab qiladi:

- innovatsion ta’limning psixologik jihatlarini bilishni;
- innovatsion ta’lim muxitida pedagogning kompetentsiyasini shakllantirishini;
- kreativlik xususiyatini boyitish;
- qobiliyatlarini muntazam shakllantirib borish;
- har qanday muammoli vaziyatga adaptatsiyasini;
- maishiy, ijtimoiy jarayonlarni yuzaga kelishi hamda kechishining sabab-oqibat va aloqadorligini anglay olish tajribasini shakllantirish kabi funktsional tarkiblarga alohida e’tibor qaratadi.

Hozirgi innovatsion ta’lim muhitida yuqoridagi keltirilgan pedagog shaxsida shakllanuvchi xususiyatlar psixologik nuqtai-nazardan uning faoliyati negizida turli emotsiogen omillar o’zgarishi, buzilishi va kuchayishi ro’y beradi. Bunday emotsiogen omillar ta’sirida kasbiy *dezadaptatsiya* va shu bilan birga *kasbiy yaroqsizlik* holatlari kelib chiqishi kuzatiladi.

N.V.Klyuev tahriri ostida nashr qilingan ―Pedagogicheskaya psixologiya darsligida pedagoglarning psixologik salomatligini saqlashga qaratilgan faoliyatning olti jihatini ajratib ko’rsatgan:

- o’ziga nisbatan ijobiy munosabat;
- shaxsning optimal darajadagi taraqqiyoti, rivojlanishi va o’zligini namoyon qilishi;
- psixik integratsiya;
- shaxsiy mustaqillik;
- atrof muhitni real idrok etish;
- atrof-muhitga adekvat ta’sir o’tkaza olish.

Deyarli 80% pedagoglar o’zlarida ―kuyish sindromi, ya’ni doimiy emotsional zo’riqish bilan bog’liq bo’lgan emotsional, jismoniy va aqliy to’yinishni o’zida mujassamlashtirgan murakkab psixofiziologik fenomenni mavjudligini ta’kidlaydilar. Mazkur sindrom depressiv holat, charchoq hissi va loqaydlik, shijoat va entuziazm (ishtiyoq)ning yetishmasligi, o’z faoliyatining ijobiy tomonlarini ko’ra olmaslik va ishga, umuman hayotga nisbatan munosabatda salbiy ustanovkalarda namoyon bo’ladi.

Pedagogning emotsional holatiga birinchi navbatda jamoadagi muhit va rahbariyatning munosabati ta’sir qiladi. Agar ta’lim muassasasi rahbariyati hodimlar uchun kasbiy o’sish uchun

sharoit yaratsa, qo’llab-quvvatlasa, javobgarlikni teng taqsimlasa bunday muhit pedagoglar jamoasidagi ijobiy emotsional muhitni shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi innovatsion ta’limni rivojlantirish, ta’lim sifatini takomillashtirish uchun pedagoglar faoliyatini tashkil qilishda ularning ruhiy salomatligiga xavf soluvchi quyidagi omillarni bartaraf etish psixologik xizmat nuqtai-nazaridan quyidagi muammolarga javob topish vazifasini qo’yadi:

- pedagogik jamoadagi zo’riqishlar va nizolar, jamoa tomonidan qo’llab-quvvatlanishning yo’qligi;
- pedagoglarning o’z ustida ishlashiga sharoit yaratilmagan va ta’lim novatsiyalarini joriy etish muhitining yo’qligi, faoliyatdagi bir xillik;
- pedagogik jamoa tomonidan yetarlicha e’tibor berilmasligi va tan olinmaslik;
- ta’limiy vositalarning tanqisligi tufayli zo’riqish;
- pedagoglardagi pedagogik faoliyat modelining real holati va idealdagi holatidagi tafovutlarning borligi;
- kasbiy karьeraning va istiqbolning yo’qligi;
-o’quvchilarning motivatsiyalashmaganligi natijasida kelajakni ko’ra bilmaslik;
- pedagogning shaxsiy nizolari va noto’liqlik hissi.

Bunday holatga tushib qolgan pedagoglar bilan ishlashda amalyotchi psixologlar tomonidan odatda quyidagi terapevtik usullar qo’llaniladi:

- bixevioral;
- gumanistik;
- kognitiv va boshqalar.

Masalan Nemis olimi F.SHtaufenbil o’tkazgan madaniy-sotsiologik tadqiqotidan so’ng mehnat madaniyati degan tushuncha paydo bo’ldi va bunda pedagoglarning kundalik faoliyatida o’zlari qo’llay olishi mumkin bo’lgan quyidagi qoidalarni tavsiya etgan:

1. Aqliy va jismoniy o’zaro mehnatni almashtirib qo’llash;
2. Pedagogik jamoada ijobiy muhitni shakllantirish;
3. Mehnatni ilmiy tashkil etish;
4. Atrof muhitni estetik bezaklariga e’tibor qaratish.

SHundan kelib chiqib hissiy toliqish sindromi va uni psixologik omillarini nazariy metodologik asoslarini aniq tushinib olish lozim. Bunda kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonida faqat voqelikni bilib qolmay, balki xayotdagi u yoki bu narsalarga munosabat bildiradi va ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy his-tuyg’u uyg’onadi. Mamnun bo’lish, suyunish, g’azablanish kabilar his-tuyg’ularning ko’rinishlaridir. His-tuyg’ular kishining o’z xayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg’ul bo’layotganiga nisbatan o’zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg’ular o’zining kechishiga ko’ra o’zgarib turadigan psixik jarayondir. His-tuyg’ularni boshdan kechirishning turli shakllari - emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli xayajonlanish (stress), ehtiros ko’rinishlariga ega bo’ladi. His-tuyg’ular shaxsning emotsional sohasini tashkil etadi.

Kishida his-tuyg’ular uning extiyojlari qondirilishi jarayoni qanday kechayotganligi belgisi sifatida namoyon bo’ladi. Barcha psixik jarayonlar kabi emotsional xolatlar, his-tuyg’ularning kechishi ham miya faoliyatining natijasi bo’lib hisoblanadi. Emotsiyaning paydo bulishi tashqi olamda ro’y beradigan o’zgarishlardan boshlanadi. Bu o’zgarishlar kishi xayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil extiyojlarning paydo bulishiga yoki yo’qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o’zgarishlarga olib boradi. His-tuyg’ular kechishiga oid fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog’liqdir.

SHunday ekan kasbiy deformatsiya mehnatga moslashish (ko’nikish) – bu shaxsning yangi mehnat vaziyatini o’zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo’lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta’sir ko’rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi.

Inson ishga kirar ekan, muayyan mehnat tashkilotining kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o'zlashtirib oladi, o'zining alohida tutgan yo'lini tashkilot (mehnat jamoasi)ning maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o'zining xulqini mazkur korxona yoki muassasaning xizmat yo'l-yo'riqlariga bo'ysundiradi.

Biroq inson ishga kirishda avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo'nalishiga ega bo'ladi, shularga muvofiq korxonaga bo'lgan o'z talablarini shakllantiradi, korxona esa o'z maqsadlari va vazifalaridan kelib chiqib, xodimga, uning xulq-atvoriga o'z talablarini qo'yadi. Xodim va korxona o'z talablarini amalga oshira borib, o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni amalga oshiriladi. SHunday qilib, mehnatga moslashuv – shaxs va uning uchun yangi bo'lgan ijtimoiy muhit o'rtasidagi ikki tomonlama jarayondir.

Yuqorilardan kelib chiqib, pedagogik jamoada aynan hissiy toliqishlarni, emotsional kuyinishni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar rejasi tashkil qilinishi innovatsion ta'lim muhitini sifatli bo'lishi va takomillashishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasining 2017 yil 6 iyuldagi 132 (6826)-soni..

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev boshchiligida 2019 yil 3 aprelь kuni yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish. https:// president.uz/uz/lists/view/2471

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.

4. Aza A. Pedagogika. - M.: «Feniks», 2011.

5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: TDPU. 2004.

6. Ziyomuhammadov B., Abdullaeva SH. Pedagogika. -T.: «O'qituvchi», 2000.

7. Leontьev A.N. Nauka i chelovechestvo. 2 t. - M.: «Znanie», 2009.

8. Podlasыy I.P. Pedagogika. V 2-x tomax. - M.: «Vlados», 2004.

9. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: «Moliya», 2003.

EGIZAKLAR O'RTASIDAGI RIVOJLANISH FARQLARI: SHAXSIYAT VA TAFAKKUR

Andijon davlat universiteti Psixologiya yo`nalishi 2 bosqich talabasi Anorboyea Marjona

Inson psixikasining shakllanishida irsiyat va muhitning o'zaro ta'siri doimo psixologiya fanining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, egizaklar fenomeni bu masalani o'rganishda noyob imkoniyat yaratadi, chunki egizaklar o'z genetik asoslari bilan bir-biriga juda yaqin bo'lsalar-da, ularning shaxsiyati, qiziqishlari, xulq-atvori va tafakkuri doimo bir xil bo'lib qolmaydi. Bu holat psixik rivojlanishning murakkab, ko'p omilli jarayon ekanini va shaxsiy tajriba, ijtimoiy muhit, tarbiya uslubi, o'quv-madaniy sharoitlar, hatto kutilmagan hayotiy voqealar ham insonning psixologik xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Shu bois, egizaklar tadqiqotlari psixologlar uchun nafaqat irsiyat va muhitning nisbatini aniqlashda, balki inson shaxsiyatining o'ziga xosligini tushunishda ham qimmatli ma'lumotlar beradi.

Egizaklarning turlari va ularning ahamiyati

Psixologiyada egizaklar ikki asosiy turga bo‘linadi: bir tuxumli (monozigot) egizaklar va ikki tuxumli (dizigot) egizaklar.

1. Bir tuxumli egizaklar (monozigot egizaklar). Bir tuxumli egizaklar bitta urug‘langan tuxumdan paydo bo‘ladi, shuning natijasida ular genetik jihatdan deyarli bir xil bo‘ladi. Bu degani, ularning DNK kodi amalda identikdir. Shu sababli, bir tuxumli egizaklar ko‘pincha tashqi ko‘rinishi, qiziqishlari, aqliy qobiliyatlari va hatto ba’zi psixologik xususiyatlari jihatidan juda o‘xshash bo‘ladi.

2. Ikki tuxumli egizaklar (dizigot egizaklar). Ikki tuxumli egizaklar esa ikki alohida tuxum va spermadan hosil bo‘ladi. Shuning uchun ular genetik jihatdan oddiy aka-uka yoki opa-singillarga o‘xshash bo‘lib, DNKning faqat bir qismini bo‘lishadi. Ikki tuxumli egizaklar tashqi ko‘rinishi, xatti-harakatlari va qobiliyatlari jihatidan bir-biridan ancha farq qilishi mumkin.

Egizaklarni o‘rganishning psixologik ahamiyati. Egizaklarni tadqiq qilish orqali psixologlar irsiyat (genetika) va muhitning inson shaxsiga ta’sirini aniqroq ajratib ko‘ra oladilar. Masalan:

- Agar bir tuxumli egizaklar turli muhitda o‘sib, shunga qaramay o‘xshash xatti-harakatlar yoki qobiliyatlarni ko‘rsatadigan bo‘lsa, bu irsiyatning rolini ko‘rsatadi.
- Agar ikki tuxumli egizaklar o‘xshash sharoitda o‘sib, lekin har xil xususiyatlar namoyon qilsa, bu muhitning ta’siri kuchli ekanligini bildiradi.

Bu tadqiqot usuli “egizaklar metodi” deb ataladi va u differensial psixologiyada keng qo‘llaniladi. Egizaklar metodi psixologlarga quyidagi sohalarda yordam beradi:

- Shaxsiyat va xulq-atvorni shakllantiruvchi omillarni aniqlash;
- Aqliy qobiliyat va intellektual rivojlanishdagi genetik va muhit omillarini ajratish;
- Ruhiy kasalliklar yoki psixologik xususiyatlarning irsiy yoki ekologik asoslarini tadqiq qilish.

Shu tarzda, egizaklar tadqiqoti inson psixologiyasini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi va shaxsiyat rivojlanishi, qobiliyatlar va ruhiy salomatlikni o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Shaxsiyat rivojlanishidagi farqlar .Har bir inson shaxs sifatida o‘ziga xosdir. Bir tuxumli egizaklar ham, bir xil tarbiya sharoitida o‘sishiga qaramay, xarakter, temperament, qiziqish, hissiy barqarorlik jihatlarida farq qiladi.

Buning sabablari quyidagilar bilan izohlanadi:

Egizaklarning har biri turli ijtimoiy tajriba orttiradi.

Ular o‘zaro raqobat va taqqoslash muhitida o‘sadilar.

Ota-onaning ularga bo‘lgan munosabati ba’zida farq qiladi.

Shaxsiy qiziqishlar va individual tajriba ularning o‘zligini shakllantiradi.

Masalan, bir egizak ochiqko‘ngil va faol bo‘lishi mumkin, ikkinchisi esa tinch, mulohazali va ichki dunyosiga ko‘proq berilgan bo‘lishi mumkin.

3. Tafakkur rivojlanishidagi farqlar

Tafakkur – bu insonning fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatidir. Egizaklarda tafakkur rivojlanishidagi farqlar ham irsiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirida yuzaga keladi.

Tajribalarga ko‘ra, bir tuxumli egizaklarda intellektual ko‘rsatkichlar juda yaqin bo‘lishiga qaramay, ularning fikrlash uslubi, muammolarga yondashuvi va ijodiy tafakkuri turlicha bo‘lishi mumkin. Bu farqlar, asosan, ta’lim sifati, o‘qishga bo‘lgan motivatsiya va ijtimoiy sharoitlar bilan izohlanadi.

4. Differensial va rivojlanish psixologiyasi nuqtayi nazari

Differensial psixologiya insonlar o‘rtasidagi individual farqlarni tahlil qiladi. Egizaklar ustida olib borilgan tadqiqotlar shaxsiy xususiyatlarning nechog‘lik irsiy va nechog‘lik ijtimoiy omillarga bog‘liqligini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Rivojlanish psixologiyasi esa egizaklarning yosh bosqichlari bo‘yicha o‘sishini, ularning aqliy, emotsional va ijtimoiy yetilishini o‘rganadi. Shu orqali egizaklarning shaxsiyati qanday shakllanib borayotgani va tafakkur qanday yo‘nalishda rivojlanayotgani tahlil qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, egizaklar o‘rtasidagi rivojlanish farqlari inson psixikasining murakkab va ko‘p omilli tizim ekanini yaqqol ko‘rsatadi.

Irsiyat insonda ma’lum psixik imkoniyatlarni belgilasa-da, ularni to‘la namoyon etuvchi asosiy omil — bu muhit, tarbiya va shaxsiy tajribadir.

Egizaklar o‘rganish natijasida biz inson shaxsiyatining shakllanishida biologik va ijtimoiy omillar uyg‘unligini chuqurroq anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2019.

2. G‘oziev E.G‘. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.

3. Nurmatov A. Differensial psixologiya asoslari. – T.: Innovatsiya, 2020.

4. Anastazi A. Differential Psychology: Individual and Group Differences. – New York, 1988.

5. Plomin R., DeFries J.C. Behavioral Genetics. – New York: W.H. Freeman, 2001.

BOLALIKDAGI RUHIY ZARBALAR VA ULARNING KECHIKKAN TASIRI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo`nalishi talabasi
Sobirova Mushtariy Zakirjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalik davrida boshdan kechirilgan ruhiy zarbalar va ularning inson hayotining keyingi bosqichlarida namoyon bo‘ladigan kechikkan psixologik ta’sirlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bolalik davrining shaxs rivojlanishidagi muhim o‘rni, aynan shu davrda yuzaga kelgan travmatik tajribalar inson psixikasida chuqur iz qoldirishi asoslab beriladi. Tadqiqotda Z. Freyd, E. Erikson, A. Bek va A. Ellis kabi olimlarning nazariyalari asosida bolalikdagi travmalarning depressiya, tashvish buzilishlari, nevrotik holatlar hamda ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar bilan bog‘liqligi ochib berilgan. Shuningdek, bolalikdagi ruhiy zarbalarni aniqlash va ularni bartaraf etishda zamonaviy psixoterapevtik yondashuvlar — kognitiv-behavioral terapiya, art-terapiya usullarining ahamiyati yoritilgan. Maqola bolalik davrida ruhiy salomatlikni muhofaza qilish va psixologik profilaktikaning dolzarbligini asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: bolalik davri, ruhiy zarba, psixologik travma, kechikkan ta’sir, depressiya, tashvish buzilishlari, bog‘lanish nazariyasi, psixoterapiya, kognitiv-behavioral terapiya, E.Bolalik davri inson hayotining eng muhim psixologik bosqichlaridan biri bo‘lib, unda shaxsning asosiy xarakteri, hissiy holati va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari shakllanadi. Aynan shu davrda olingan ruhiy zarbalar inson psixikasida chuqur iz qoldirib, keyingi hayotida kechikkan psixologik ta’sirlar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan, bolalikdagi travmatik tajribalar ko‘plab nevrotik holatlar, depressiya, tashvish buzilishlari va shaxslararo munosabatdagi qiyinchiliklarning ildizi sifatida qaraladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — bolalikdagi ruhiy zarbalar mohiyatini ochish, ularning yetuklik davrida qanday psixologik oqibatlarga olib kelishini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iboratdir.

Psixologik travma — bu shaxsning psixik tizimiga kuchli ta’sir etuvchi, uni moslashish imkoniyatlaridan oshib ketadigan hodisadir. Sigmund Freydning psixoanalitik nazariyasiga ko‘ra, bolalikdagi repressiyalangan (ya’ni ong ostiga siqib chiqarilgan) xotiralar insonning keyingi hayotida nevroz shaklida namoyon bo‘ladi. Travma natijasida hosil bo‘lgan ichki ziddiyatlar shaxsning emotsional muvozanatini buzadi, bu esa kechikkan psixologik simptomlar — tashvish,

agressiya, ijtimoiy izolyatsiya yoki o‘zini past baholash ko‘rinishida ifodalanadi. J. Bowlby tomonidan ilgari surilgan “ta’sirli bog‘lanish nazariyasi”da esa, bolalikdagi beqaror emotsional aloqalar (masalan, ota-onaning beparvoligi, sevgining yetishmasligi) insonning butun hayoti davomida ijtimoiy va affektiv munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shuningdek, E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida har bir bosqichda bola muayyan psixologik inqirozdan o‘tishi kerakligi aytiladi. Agar bu inqiroz sog‘lom tarzda hal etilmasa, u keyingi bosqichlarda psixik iz qoldiradi. Kognitiv-psixologik yondashuv vakillari (A. Bek, A. Ellis)

ta’kidlaganidek, bolalikdagi travmalar shaxsning o‘ziga nisbatan salbiy ishonch tizimini shakllantiradi. Natijada “men yaramasman”, “menga hech kim kerak emas” kabi irratsional fikrlar shaxsning o‘zini anglashiga to‘sqinlik qiladi. Bu holat kechikkan depressiv sindromlar, ijtimoiy chekinish va affektiv buzilishlar shaklida namoyon bo‘ladi. Psixologik amaliyotda bolalikdagi travmalarni aniqlash va bartaraf etish uchun bir qator metodlar qo‘llaniladi. Jumladan, art-terapiya, kognitiv-behavioral terapiya (KBT), EMDR (ko‘z harakati orqali desensibilizatsiya va qayta ishlash) kabi usullar ijobiy natija beradi. Ushbu metodlar inson ong ostidagi og‘riqli xotiralarni qayta ishlash, ularni ijobiy tajribalar bilan almashtirishga xizmat qiladi.

Bolalikdagi ruhiy zarbalar inson ruhiyatida chuqur iz qoldiruvchi omil bo‘lib, ularning kechikkan ta’siri ko‘pincha yetuklik davrida psixologik, emotsional va ijtimoiy muammolar shaklida namoyon bo‘ladi. Travmatik tajribalar ong ostida saqlanib, ularning yengilmasligi natijasida shaxsda tashvish, depressiya va o‘zini qadrsiz his etish kabi muammolar rivojlanadi. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday zarbalar faqatgina psixoterapevtik yordam, ijobiy ijtimoiy muhit va shaxsiy refleksiya orqali bartaraf etilishi mumkin. Shuning uchun bolalik davrida ruhiy salomatlikni asrash, ota-ona e’tiborini kuchaytirish va psixologik yordam tizimini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev E. G‘. Psixologiya. - Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
2. Davletshin M. G‘. Umumiy psixologiya. -Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
3. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
4. Qodirov B. R. Shaxs psixologiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
5. Sodiqova D. S. Bolalar psixologiyasi. - Toshkent: Fan, 2015.

INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING BOLALAR PSIXIKASIGA TA’SIRI

Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi
Andijon Davlat Universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya talabasi

Annotatsiya: Maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar psixikasiga ko’rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirlarini tahlil qildim. Raqamli texnologiyalarning erta yoshda qo’llanilishi bolalarning kognitiv rivojlanishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari va o’zini anglash jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatishini aniqladim.Maqolada, bir tomondan, onlayn ta’lim, axborotga tezkor kirish va kreativlikning oshishi kabi ijobiy jihatlarni yoritgan bo’lsam, boshqa tomondan, ekranga qaramlik, diqqatning susayishi, zo’ravonlik kontenti ta’siri, ijtimoiy solishtirishning kuchayishi va uyqu buzilishi kabi salbiy oqibatlarni o’rgandim.Mazkur maqolada internetning bola rivojlanishiga ta’sirini kompleks tahlil qilish orqali raqamli davrda sog’lom psixologik muhitni shakllantirishga doir ilmiy xulosalar taqdim etdim.

Annotation: In this article, I analyzed the positive and negative effects of the internet and social media on children’s psychology. It was identified that the early use of digital technologies significantly influences children’s cognitive development, emotional stability, social interactions, and self-awareness processes. The study highlights both the positive aspect-such as online education, quick access to information, and the growth of creativity-and the negative

consequences, including screen addiction, decreased attention, exposure to violent content, increased social comparison, and sleep disturbances. This research provides scientific conclusions aimed at forming a healthy psychological environment in the digital age through a comprehensive analysis of the internet's impact on child development.

Kalit so'zlar: Internet, ijtimoiy tarmoqlar, bolalar psixikasi, raqamli texnologiyalar, raqamli savodxonlik, ruhiy rivojlanish, internet xavfsizligi

Kirish: Zamonaviy dunyoda internet va ijtimoiy tarmoqlar bolalar hayotida muhim o'rin egallamoqda. Internetning erta yoshdan qo'llanilishi bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bola psixikasining hali to'liq shakllanmaganligi raqamli omillarga bo'lgan sezgirlikni yanada kuchaytiradi. Shu bois internet va ijtimoiy tarmoqlarning bolalar rivojiga ta'siri bugungi ilmiy tadqiqotlarda eng dolzarb mavzulardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internetga haddan tashqari bog'liqlik, cyberbullying yoki noto'g'ri kontent bilan duch kelish bolalar ruhiy holatiga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun bugungu kunda ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar bolalarning raqamli muhitda xavfsiz va foydali tarzda rivojlanishini ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqdalar. Ushbu maqolada mazkur jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari kompleks tahlil qilib, raqamli davrda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish bo'yicha ilmiy xulosalar berdim.

Internet bolalarning axborot izlash, tahlil qilish va mustaqil o'rganish qobiliyatini kuchaytiradi. Onlayn ensiklopediyalar, ilmiy darsliklar, animatsion ta'lim videolari va interaktiv platformalar bilim olish jarayonini samarali qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli resurslardan foydalangan bolalarda mantiqiy fikrlash va muammolarni yechish ko'nikmalari kuchayadi. Internet bolalarga global axborot maydoniga doimiy kirish imkonini yaratadi. Onlayn ma'lumotlar bazalari, ilmiy videodarslar va interaktiv resurslar kognitiv faoliyatni rag'batlantiradi, bilimlarni mustaqil ravishda qidirish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar internetdan oqilona foydalanganda mantiqiy fikrlash, tushunchalarni umumlashtirish va izlanish qobiliyatlari sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy raqamli vositalar bolalarning kreativ salohiyatini kengaytiradi. Grafik dizayn dasturlari, musiqiy ilovalar, dasturlash platformalari va ijodiy o'yinlar ijodkorlik faoliyatini faollashtiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli kreativ muhitga ega bo'lgan bolalarda divergent fikrlash (bir masalaga bir nechta yechim topish) darajasi yuqoriroq bo'ladi. Yuqorida aytib o'tganlarim internetning bola rivojlanishiga ijobiy ta'sirlaridir. Shuningdek, internetning bolalar rivojlanishiga salbiy psixologik ta'sirlari ham mavjuddir: uzoq vaqt internetdan foydalanish raqamli qaramlik sindromini kuchaytiradi. Bu holat bolalarda impulsni boshqarishning qiyinlashuvi, sabrsizlik, asabiylik va vaqtni rejalashtirishdagi muommolarga olib keladi. Tezkor kontent iste'moli diqqatni jamlash ko'nikmasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Videolar va dinamik tasvirlarning tez almashinuvi bolalarda o'quv jarayonida barqaror diqqatni saqlashni qiyinlashtiradi. Internetda uchraydigan agressiv materiallar bola ruhiyatiga salbiy ta'sir etadi: qo'rquv, xavotir, tajovuskorlik, emotsional beqarorlik kuchayishi mumkin. Bu holat yosh organizmda stress reaksiyalarining tez shakllanishiga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ideal hayot tasvirlari bolalarda o'zini boshqalar bilan solishtirishga moyillikni oshiradi. Bu esa past o'z-o'zini baholash, norozilik, o'zini qabul qilmaslik kabi psixologik holatlarga sabab bo'ladi. Kechki payt ekran nuri melatonin ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Bu biologik ritm buzilishiga, uyqu sifatining pasayishiga va kunduzi charchoq holatlarining kuchayishiga olib keladi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari, jumladan Oxford University, Harvard Graduate School of Education, UNICEF Global Research Office, European Child Psychiatry Assocoation tomonidan olib borilgan izlanishlar bir necha asosiy yo'nalishni ko'rsatadi:

Livingsstone va Byrne tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqotda internetdan o'quv maqsadida foydalanish bolalarda axborotni qaayta ishlash tezligi, muammoli vaziyatlarda yechim topish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirishi aniqlangan. Tadqiqotlarda shuningdek interaktiv o'quv platformalarining o'rganish motivatsiyasini oshirishi qayd etilgan.

Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi (APA) o’tkazgan tahlillarda 10-14 yoshdagi bolalar orasida ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish havotir, depressive kayfiyat, ijtimoiy solishtirish va past o’z-o’zini baholash bilan bevosita bog’liqligini borligi aniqlangan. Bu jarayon ayniqsa vizual kontent ko’p bo’lgan platformalarda kuchliroq namoyon bo’ladi.

Evropa Psixiatriya Assotsiatsiyasining 2021-yildagi sistematik sharhi internetdan “muammoli foydalanish” (problematic internet use) bolalarda diqqatning tarqoqlashishi, impulsiv xatti-harakatlar va ijtimoiy ajralish bilan bog’liq ekanini ko’rsatadi. Tadqiqotda qaramlik simptomlari pandemiya davrida keskin oshgan.

2022-yilda Digital Creativity Institute tomonidan o’tkazilgan izlanishlar raqamli dizayn, dasturlash va ijodiy ilovalar bilan shug’ullangan bolalarda divergent fikrlash, kreativ muammolarni hal qilish va ijodiy tashabbus yuqori bo’lishini isbotladi.

UNICEFning O’zbekistondagi “Bolalar va o’smirlar uchun raqamli muhit” bo’yicha 2023-yilgi hisobotida raqamli savodxonlik darajasini oshirish, raqamli xavfsizlik protokollarini joriy etish va bolalarning psixologik himoyasini kuchaytirish zarurligi ta’kidlanadi. Hisobotda shuningdek ijtimoiy tarmoqlardan me’yoridan ortiq foydalanish bolalar orasida stress va uyqu buzilishlari bilan bog’liqligini aytib o’tilgan.

Jahon va O’zbekiston olimlarining umumiy xulosalari shundan iboratki: Internet ta’limiy, kreativ va kognitiv rivojlanish uchun kuchli stimul bo’lishi mumkin. Biroq me’yoridan ortiq foydalanish, nazoratsiz kontent va ijtimoiy solishtirish bolalar psixikasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Raqamli madaniyatni rivojlantirish va media savodxonlikni oshirish – bolalarni raqamli muhit xavflaridan himoya qiluvchi eng muhim omil. Ota-ona nazorati, pedagokik yondashuv va psixologik profilaktika internetning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar bolalar psixikasiga ikki tomonlama ta’sir ko’rsatadi. Bir tomondan, u bilish jarayonlarini rivojlantiradi, kreativlikni oshiradi va o’quv imkoniyatlarini kengaytiradi. Boshqa tomondan, raqamli qaramlik, emotsional beqarorlik, uyqu buzilishi va xavfli kontent bolalar ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli ota-onalar, o’qituvchilar va psixologlar bolalarning raqamli faoliyatini nazorat qilish, foydalanish vaqtini me’yorlashtirish va xavfsiz axborot muhitini yaratish bo’yicha tizimli yondashuvni qo’llashi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bu vositalar bolalarga bilim olish, ijodiy fikrlash va ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanish ruhiy salomatlik, diqqatni jamlash va hissiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar bolalarni raqamli muhitda xavfsiz va foydali tarzda rivojlantirish uchun ularni nazorat qilish, raqamli savodxonlikni oshirish va sog’lom vaqt taqsimotini o’rgatish muhimdir. Xulosa qilib aytganda internet va ijtimoiy tarmoqlar to’g’ri yo’naltirilsa, bolalar psixikasini rivojlantirishda samarali vosita bo’la oladi, lekin ularni noto’g’ri foydalanishdan himoya qilish zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Livingstone, S. va Byrne,J (2020). Children’s internet use. Oxford University Press. UNICEF. (2023).

2. The state of the world’s children: Children in a digital world. Digital Creativy Institute. (2022).

3. Creativity and digital media in child development. Europen Psychiatric Association (2021). Internet addiction in children and adolescents.

SEZGI JARAYONINING PSIXOLOGIK VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Andijon Davlat Universiteti
2-bosqich Psixologiya yo‘nalishi talabalari
Jo‘raboyeva Ruxshona, Xakimova Mohlaroy

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada sezgi jarayoni psixologik va fiziologik nuqtai nazardan keng qamrovli tarzda tahlil qilingan. Sezgi inson bilish faoliyatining birlamchi bosqichi sifatida talqin etilib, uning nerv tizimi, analizatorlar faoliyati va idrok jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Maqolada sezgi turlari, ularning fiziologik mexanizmlari, sensor integratsiya jarayoni hamda analizatorlar faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq holatlar ilmiy manbalar asosida bayon etilgan. Tadqiqot natijalari sezgi jarayonining shaxs psixik rivojlanishidagi muhim o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: sezgi, psixologiya, fiziologiya, analizator, nerv tizimi, sensor jarayon, idrok, sensor integratsiya, prosopagnoziya.

Sezgi insonning atrof-muhit va ichki holatini bilishidagi eng dastlabki psixik jarayon hisoblanadi. Inson tashqi olam bilan aynan sezgi orqali muloqotga kirishadi va real voqelik ongda aks ettiriladi. Psixologiya fanida sezgi bilishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida qaralib, barcha murakkab psixik jarayonlarning asosi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli sezgi jarayonini psixologik va fiziologik jihatdan o‘rganish ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Sezgining psixologik xususiyatlari.

Sezgining asosiy psixologik xususiyatlariga uning sifati, intensivligi, davomiyligi va sezish chegarasi kiradi. Sezgi individual xususiyatlarga bog‘liq bo‘lib, shaxsning kayfiyati, tajribasi, diqqat darajasi va emotsional holati sezgi jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir xil ta’sir turli shaxslar tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Sezgi idrok, xotira va tafakkur jarayonlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi hamda shaxsning atrof-muhitga moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Sezgining fiziologik asoslari

Sezgi jarayoni fiziologik jihatdan retseptorlar, nerv yo‘llari va bosh miya po‘stlog‘i faoliyati orqali amalga oshadi. Fizik yoki kimyoviy energiyaning nerv impulslariga aylanish jarayoni sensor transduksiya deb ataladi. Har bir sezgi turi o‘ziga xos retseptorlarga ega bo‘lib, ular orqali tashqi va ichki ta’sirlar qabul qilinadi.

Ko‘rish sezgilari fotoretseptorlar yordamida yorug‘lik va ranglarni aks ettiradi. Eshitish sezgilari ichki quloqdagi mexanoreseptorlar orqali tovush tebranishlarini qabul qiladi. Hid va ta’m sezgilari kimyoviy retseptorlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, teri sezgilari mexanoreseptor va termoreseptorlar orqali amalga oshadi. Mushak-harakat sezgilari proprioretseptorlar yordamida gavdaning fazodagi holatini va harakatini nazorat qiladi, ichki organ sezgilari esa interoreseptorlar orqali amalga oshadi.

Analizatorlar va sensor integratsiya

Analizator — sezgi organlaridan kelgan signallarni qabul qiluvchi va qayta ishlovchi murakkab tizim bo‘lib, u periferik qism (retseptorlar), nerv yo‘llari va markaziy qismdan (bosh miya po‘stlog‘i) iborat. Analizatorlar faoliyati buzilganda sezgi va idrok jarayonlari ham izdan chiqadi. Masalan, prosopagnoziya holatida bemor yuzlarni taniy olmaydi, ammo ularni tasvirlab bera oladi.

Sezgi va idrok jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ko‘p sezgili integratsiya natijasida to‘liq idrok shakllanadi. Bu jarayon miyada turli sezgi signallarining birlashtirilishi orqali amalga oshadi.

ezgi inson psixikasining poydevori bo‘lib, atrof-muhitni anglash va bilish jarayonining asosiy manbai hisoblanadi. Sezgi faqatgina oddiy his qilish emas, balki idrok, xotira, tafakkur va shaxsiy tajribaning shakllanishiga xizmat qiluvchi murakkab psixofiziologik tizimdir. Sezgi organlari yoki analizatorlar faoliyatidagi buzilishlar insonning psixik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun sezgi jarayonini chuqur o‘rganish psixologiya va neyrofiziologiya fanlari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.F. Umrzoqova, Umumiy psixologiya, T., 2020.
2. G‘oziev E.G., Psixologiya, T., 2018.
3. A.V. Petrov, Psixologik jarayonlarning fiziologik asoslari, Moskva, 2021.
4. S. Rubinshteyn, Inson psixikasi va faoliyati, Toshkent, 2019.
5. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti” TDPU, 2013 y, B.79-90.

O‘ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARNING PAYDO BO‘LISHI VA FAOLLASHUV TENDENSIYASINING KORPUS TAHLILINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Andijon davlat universiteti
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi
1- bosqich magistranti
Saloxiddinova Zarnigor Oybek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi va ularning faollashuv tendensiyasini korpus tahlili yordamida o‘rganishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot tilning doimiy rivojlanishi, yangi tushunchalar va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan neologizmlar bilan bog‘liq jarayonlarni ko‘rib chiqadi. Maqolada neologizmlarning shaxsning ijodiy fikrlashi, kognitiv jarayonlari va psixologik qabul qilish xatti-harakatlari bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Shuningdek, korpus tahlili metodlarining neologizmlarning tezligi, konteksti, semantik o‘zgarishlari va ularning jamiyat tomonidan qabul qilinishini aniqlashdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda neologizmlarning ijtimoiy-psixologik funksiyalari, xususan, ijtimoiy identifikatsiya va guruh ichidagi muloqotda roli ham ko‘rib chiqiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, neologizmlar tilshunoslik va psixologiya sohalarida tilning zamonaviy leksik rivojlanishini tushunish, shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini aniqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so`zlar: Til, neologism, kognitiv jarayonlar. psixologik qabul qilish, korpus tahlili, faollashuv tendensiyasi, ijtimoiy-psixologik mexanizmlar

Til doimo rivojlanayotgan va o‘zgarib turadigan ijtimoiy hodisadir. U insonning fikrlash, muloqot va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi vosita sifatida doimiy yangilanib boradi. Jamiyatda yuz berayotgan yangi tushunchalar, texnologik va ilmiy yangiliklar, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tilga yangi leksik birliklarning — neologizmlarning kirib kelishiga zamin yaratadi. Neologizmlar tilning leksik tizimini boyitish bilan birga, shaxsning ijodiy fikrlash qobiliyatini ham aks ettiradi, chunki ular odatda ilgari mavjud bo‘lmagan tushunchalarni ifodalash maqsadida yaratiladi.

Neologizmlarning paydo bo‘lishi va ularning jamiyat tomonidan qabul qilinishi psixologik va kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shaxsning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishdagi tezligi, ularni kundalik nutqida ishlatishi va kontekstga moslashtirish qobiliyati uning kognitiv rivojlanish darajasi, e’tibor va xotira imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit va guruhning yangi leksik birliklarga bo‘lgan munosabati ham neologizmlarning ommaviy qabul qilinishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, yoshlar yangi texnologik tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni tez qabul qiladi va faol ishlatadi, chunki bu ularning ijtimoiy identifikatsiyasi va guruh ichidagi mavqeini ta’minlashga yordam beradi.

Korpus tahlili metodlari tilning yangilanish jarayonini ilmiy asosda kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Korpuslar yordamida tilshunoslar katta hajmdagi matnlarni raqamli shaklda o‘rganib, neologizmlarning tezligi, konteksti, semantik o‘zgarishlari va ommaviy qabul qilinishi darajasini aniqlay oladi. Shu bilan birga, korpus tahlili psixologik jihatdan ham ahamiyatlidir, chunki u shaxsning tilni qabul qilish xatti-harakatlarini, yangi leksik birliklarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini va kommunikativ faoliyatini o‘rganishga yordam beradi.

Neologizmlar tilning doimiy rivojlanishini aks ettirish bilan birga, insonning kognitiv, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini ham aks ettiradi. Ularni ilmiy asosda o‘rganish, ayniqsa korpus tahlili yordamida, nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya va ijtimoiy fanlar sohalarida ham tilning zamonaviy holatini tushunishga yordam beradi.

Psixologik nuqtai nazardan, neologizmlar shaxsning til orqali fikr yuritish, tushunchalarni ifodalash va ijodiy faoliyat bilan bog‘liq ehtiyojlari natijasida paydo bo‘ladi. Odamlar yangi tushunchalarni nomlashda mavjud leksik birliklardan foydalanmasligi, balki yangi so‘zlarni yaratishi ularning kognitiv jarayonlari bilan izohlanadi. Masalan, Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, til ijtimoiy rivojlanishning vositasi bo‘lib, insonning kognitiv xususiyatlarini shakllantirishda muhim

ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, yangi so‘zlarni yaratish jarayoni shaxsning ijodiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Korpus tahlili - bu katta hajmdagi matnlarni raqamli shaklda tahlil qilish va til hodisalarini kuzatish metodidir. Neologizmlarni korpus orqali tahlil qilish tilshunoslarga so‘zlarning qanchalik tez kirib kelishi, qaysi kontekstlarda ishlatilishi va ularning ommaviy qabul qilinishini aniqlash imkonini beradi. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayon shaxslarning tilni qabul qilish xatti-harakatlarini va kommunikativ faoliyatini o‘rganishga yordam beradi. Masalan, yoshlar va katta yoshdagi shaxslarning yangi so‘zlarni qabul qilish tezligi va ularni kundalik nutqida ishlatish darajasi psixologik barqarorlik, innovatsion fikrlash va tilga bo‘lgan qiziqish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Neologizmlarning ijtimoiy-psixologik funksiyalari. Neologizmlar nafaqat yangi tushunchalarni nomlash vositasi, balki ijtimoiy identifikatsiya, guruh ichida muloqot va jamiyatdagi yangiliklarga moslashish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shaxs yangi so‘zlarni ishlatganda u o‘zini zamonaviy, aqlli yoki ijtimoiy jihatdan faolligini ko‘rsatadigan shaxs sifatida ifodalaydi. Bu esa tilning psixologik funksiyasi - shaxsning o‘zini ifodalash va ijtimoiy muhit bilan muloqot qilish imkoniyatini yanada kuchaytiradi.

O‘zbek tilida neologizmlarning paydo bo‘lishi va ularning faollashuv tendensiyasini korpus tahlili yordamida o‘rganish tilshunoslik va psixologiya sohalarini birlashtiradi. Neologizmlar shaxsning ijodiy fikrlashini, kognitiv jarayonlarini va ijtimoiy identifikatsiyasini aks ettiradi. Shu bilan birga, korpus tahlili metodlari tilning yangilanish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish, neologizmlarning ommaviy qabul qilinishini kuzatish va ularning kommunikativ rolini aniqlash imkonini beradi. Kelajakda, bu yondashuv o‘zbek tilining zamonaviy leksik rivojlanishini yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Albatta! Siz keltirgan mavzu bo‘yicha maqolaga mos adabiyotlar ro‘yxatini ilmiy-uslubda, plagiatsiz shaklda tayyorlab berdim. Quyida misol keltirilgan:

Adabiyotlar

1. Gafurov, O. O‘zbek tilining zamonaviy leksik rivojlanishi va neologizmlar. Toshkent: Fan va Texnologiya. 2019.
2. Karimov, S. Neologizmlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Toshkent: Universitet Nashriyoti. 2020.
3. Sobirov, D. Korpus tahlili va til tadqiqotlarida uning roli. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. 2018.
4. Xolboyev, R. Til, kognitiv jarayonlar va ijodiy fikrlash. Toshkent: Akademik Nashr. 2021.

YOSHLARNING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI.

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
katta o'quvchisi F.N. Saidova milliy g`oya
ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi 1
bosqich talabasi Ergashboyeva Shoxoyim

Yoshlar psixologiyasi zamonaviy psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, shaxsning o‘tish davridagi rivojlanishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘zini anglash jarayonlarini o‘rganadi. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar turli xil psixologik muammolarga duch kelmoqda. Bu muammolar nafaqat shaxsning ichki kechinmalari bilan bog‘liq, balki ijtimoiy muhit, oila, ta’lim tizimi va zamonaviy texnologiyalar ta’siri bilan murakkablashgan. Shuning uchun yoshlarning psixologik muammolarini chuqur o‘rganish,

ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo‘llarini izlash bugungi kunda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning eng ko‘p uchraydigan psixologik muammolaridan biri bu emotsional beqarorlikdir. O‘tish davriga xos gormonal o‘zgarishlar, o‘z “men”ini izlash, shaxsiy identifikatsiya jarayonining kuchayishi natijasida yoshlar ko‘pincha tushkunlik, xavotir, stress, o‘z-o‘zini baholashning pasayishi kabi holatlarni boshdan kechiradilar. Ko‘plab o‘smirlar va yoshlar o‘zini yolg‘iz his qilishi, o‘z fikr va kechinmalarini kattalarga bildirishda qiynalishi natijasida psixologik tanglik kuchayadi. Bunday holatlar ba’zan agressiya, impulsivlik, ijtimoiy yakkalanish, virtual olamga haddan tashqari berilib ketish yoki aksincha, deviant xatti-harakatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Psixologik muammolarning kelib chiqishida ijtimoiy-psixologik omillar katta rol o‘ynaydi. Avvalo, oila muhitining barqarorligi yoki beqarorligi yoshning ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mehr yetishmasligi, otaning yoki onaning ortiqcha talabchanligi, oiladagi nizolar, e’tiborsizlik, bolaga nisbatan tushunmovchiliklar yoshni ichki tanglikka olib keladi. Oila shaxsning asosiy ijtimoiylashuv makoni bo‘lgani sababli, undagi psixologik salbiy muhit yoshlarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida jiddiy nuqsonlarga sabab bo‘ladi. Aksincha, iliq, qo‘llab-quvvatlovchi, muloqotga ochiq oilada ulg‘aygan yoshlar psixologik jihatdan ancha barqaror bo‘ladi.

Ta’lim muassasalari ham yoshlarning ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir qiluvchi omildir. Maktab yoki oliy ta’limdagi haddan tashqari yuklama, o‘qituvchilarning talabchanligi, imtihon bosimi, muvaffaqiyatsizlik qo‘rquvi yoshlarni stressga duchor qiladi. Bundan tashqari, tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar, ayniqsa, bullying yoki ijtimoiy rad etish holatlari o‘sib kelayotgan shaxs uchun og‘ir ruhiy zarba bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar orasida o‘zini boshqalardan kam deb hisoblash, o‘z imkoniyatlarini qadrlamaslik kabi kechinmalar ko‘pincha ijtimoiy solishtirish natijasida yuzaga keladi.

Zamonaviy texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keskin rivojlanishi yoshlarning psixikasiga ijobiy bo‘lishi bilan birga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual olamdagi ideal obrazlar, sun’iy “muvaffaqiyat standartlari”, boshqalarning hayoti bilan doimiy taqqoslash yoshlarni ruhiy bosim ostiga qo‘yadi. Like va kommentlarga qaramlik, vaqtni befoyda sarflash, real hayotdan uzoqlashish, internetdagi kibermobbing yoshlarning ijtimoiy va psixologik farovonligini pasaytiradi. Bu esa ularning diqqatining tarqoqligi, o‘qishga qiziqishning kamayishi, uyqu buzilishi kabi muammolarga olib keladi.

Yoshlarning psixologik muammolarini bartaraf etish uchun ijtimoiy-psixologik yondashuv muhimdir. Eng avvalo, ijobiy oilaviy muhitni yaratish, ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish zarur. Ota-onalar farzand bilan ochiq muloqotda bo‘lishi, ularning emotsional ehtiyojlarini tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi yoshning ruhiy barqarorligini ta’minlashda asosiy omildir. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni kuchaytirish, o‘quvchilarda stressni boshqarish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi treninglar o‘tkazilishi kerak. Bullyingning oldini olish, o‘qituvchi–o‘quvchi o‘rtasidagi sog‘lom muloqotni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlar uchun guruhli psixologik treninglar, art-terapiya, sport va ijodiy mashg‘ulotlar, ijtimoiy loyihalar orqali o‘zini ifoda qilish imkoniyatlarini yaratish psixologik salomatlikni mustahkamlaydi. Yoshlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, maqsadlarini aniqlashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi uchun ularga motivatsion qo‘llab-quvvatlash zarur. Raqamli gigiyena qoidalarini o‘rgatish, internetdan oqilona foydalanish, kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim berish ham bugungi davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л. С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика.
2. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – Санкт-Петербург: Питер.
3. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – Москва: Просвещение.
4. Zokirova, R., Xodjayeva, M. Yosh psixologiyasi. – T.: O‘zMU nashriyoti.

5. Ochildiyev A. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Qodirova F. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti.

BOLALAR VA O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDAGI MUAMMOLARI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
katta o'quvchisi F.N. Saidova
amaliy psixologiya yo`nalishi
2 bosqich talabasi Xoldarova Mahliyo

Annotatsiya. Maqolada bolalar va o‘smirlarning psixologik rivojlanishidagi asosiy qonuniyatlar, yosh davriga xos rivojlanish bosqichlari, psixik, emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishda uchraydigan muammolar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, muammolarning biopsixologik, oilaviy, ta’limiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi, rivojlanishdagi kechikish yoki buzilishlarning kelib chiqish mexanizmi, diagnostika va profilaktika usullari, zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida bartaraf etish yo‘llari bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: psixik, emotsional, kognitiv, ijtimoiy rivojlanish, biopsixologik, rivojlanishdagi kechikish.

Inson psixologik rivojlanishi tug‘ilishdan boshlab uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, u biologik yetilish, ijtimoiy tajriba, shaxsning faoliyat turlari va tarbiya ta’sirida shakllanadi. Bolalar va o‘smirlik davri — shaxs rivojlanishining eng sezgir (senzitiv) davri bo‘lib, undagi xatolar yoki e’tiborsizlik keyingi yillarda ham psixologik va ijtimoiy moslashuvga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatning tezkor axborot oqimi, texnologiyalar, ijtimoiy bosim, oilaviy munosabatlar murakkablashuvi, ta’limdagi raqobat muhiti bolalar psixikasiga qo‘shimcha yuklama bo‘lmoqda. Shu sababli psixologik muammolarni erta aniqlash, chuqur o‘rganish va bartaraf etish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

. Psixologik rivojlanishning nazariy asoslari

Kognitiv rivojlanish nazariyalari

Piaje kognitiv rivojlanishni 4 bosqichga ajratadi:

Sensomotor bosqich (0–2 yosh): predmet-barqarorlik shakllanadi.

Preoperatsion bosqich (2–7 yosh): tasavvurlar faol, mantiqiy fikrlash sust.

Konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh): real vaziyatda mantiqiy fikrlay olish paydo bo‘ladi.

Formal operatsiyalar bosqichi (11–15 yosh): abstrakt-logik fikrlash rivojlanadi.

Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi”, nutq va tafakkur birligi, ijtimoiy muhit roli haqidagi g‘oyalari bolalarning o‘qitilishi va psixik rivojida asosiy omil sifatida qabul qilinadi.

Erikson psixososial rivojlanishni 8 bosqichga bo‘lib, o‘smirlikni “identifikatsiya – rol chalkashligi” bosqichi sifatida belgilaydi. O‘smirda “Men kimman?” degan savol keskinlashadi.

Bolalar psixologik rivojlanishidagi asosiy muammolar

Emotsional rivojlanishdagi muammolar

Bolalar va o‘smirlarda quyidagi emotsional buzilishlar keng tarqalgan:

Qo‘rquv va xavotirlar umumiy xavotir, ajralish qo‘rquvi, maktabdan qo‘rquv, hayvonlardan yoki ijtimoiy vaziyatlardan qo‘rquv.

Stressga chidamsizlik oiladagi nizolar, kuchli tanbeh, ko‘p talab, akademik bosim natijasida paydo bo‘ladi.

Depressiv holatlar o‘smirlikda o‘zini yakkalangan, keraksiz deb his qilish, o‘z-o‘zini baholashning pasayishi oqibatida.

Agressiv xulq-atvor jismoniy, so‘zli yoki passiv-agressiv ko‘rinishlar. Ko‘pincha himoyalanish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kognitiv rivojlanishdagi muammolar diqqat va xotira funksiyalaridagi buzilishlar

tayyorgarlikning pastligi, haddan tashqari stimulyatorlar (telefon, internet).

• Nutq rivojlanishidagi kechikishlar

- fonetik, leksik va grammatik rivojlanishning sekinlashuvi.

• O‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklar

- disleksiya, diskalkuliya, disgrafiya kabi o‘quv buzilishlari.

Bu muammolar vaqtida aniqlanmasa, bola o‘qishda orqada qoladi va psixologik komplekslar rivojlanishi mumkin.

Ijtimoiy rivojlanishdagi muammolar

Tengdoshlar bilan muloqotda qiynalish

- introversiya, ijtimoiy xavotir, o‘ziga ishonchsizlik tufayli.

- Jamoadagi moslashuvning sustligi

- Bullying (bosim va masxara qilish)

Bu o‘smirning ruhiy holatini keskin buzadi, depressiya va o‘ziga zarar yetkazish holatlari kelib chiqishi mumkin.

-O‘z-o‘zini baholash muammolari

- ortiqcha uyatchanlik, o‘ziga past baho berish yoki aksincha haddan tashqari yuqori baholash.

Xulq-atvor buzilishlari

Deviant xulq

- jamiyat me’yorlariga zid harakatlar (chekish, ichimlik, qochib yurish).

- Delinkvent xulq

- qonunga zid mayda huquqbuzarliklar.

- Internet va o‘yinlarga qaramlik

- o‘smirning real hayatdan uzilishi, uyqu va motivatsiya buzilishi.

- Impulsivlik

- his-tuyg‘ularni boshqarolmaslik, keskin qarorlar qabul qilish.

Psixologik rivojlanishdagi muammolarning sabablari:

Biologik omillar

Genetik irsiyat

Miya rivojlanishidagi fiziologik kechikishlar

Gormonal o‘zgarishlar

Neyrotransmitterlar muvozanatsizligi

O‘smirlik davrida gormonal portlashlar emotsional beqarorlikni kuchaytiradi.

Oilaviy omillar

- Oiladagi emotsional iqlim

Otaning qat’iyligi yoki onaning sovuqqonligi, oilaviy nizolar bolalar psixikasiga bevosita ta’sir qiladi.

Tarbiya uslublari:

Avtoritar (qat’iy) tarbiya

Liberal (cheklovlarsiz) tarbiya

Ikkilamchi (beqaror) tarbiya

Bu uslublarning har biri o‘ziga xos psixologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Mehr yetishmovchiligi bolaning asosiy emotsional ehtiyojlarining qondirilmasligi uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Ta’lim tizimiga oid omillar

O‘qituvchi bilan konfliktlar

Haddan tashqari yuklama

Rag‘batning yetishmasligi

Individual yondashuvning yo‘qligi
Maktabdagi psixologik xizmatning sustligi
Ijtimoiy omillar
Axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi
Ijtimoiy tarmoqlardagi bosim
Jamiyatdagi iqtisodiy stress
Do‘stlar bosimi

Bolalar va o‘smirlarning psixologik rivojlanishidagi muammolar ko‘plab omillarning ta’siri ostida shakllanadi va o‘z vaqtida aniqlanmasa, shaxsning keyingi hayotidagi moslashuviga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Psixologik rivojlanishning to‘g‘ri kechishi uchun oila, maktab, jamiyat, tibbiy va psixologik xizmatlarning uzviy hamkorligi zarur.

Bolalar rivojidagi har bir og‘ish erta bosqichda bartaraf etilsa, muammo chuqurlashmaydi va o‘smir shaxs sifatida sog‘lom rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

UMUMTA`LIM MAKTABI YUQORI SINF O`QUVCHILARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL O`ZINI BOSHQARISH KO`NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xoldorjonova Sevinchxon Ilhomjon qizi
Turon universiteti Andijon filiali magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o‘quvchilari emotsional munosabatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek,o‘smirlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning psixologik xususiyatlar bir qator ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: O‘smirlik yoshi, jismoniy taraqqiyot, impulsiv istaklar, qat’iylik, o‘zlikni anglash, xarakter, ijtimoiy hayot, kollektivizm.

IMPROVING THE METHODOLGY FOR DEVELOPING SOCIAL AND EMOTSIONAL SELF-REGULATION SKILS AMONG HIGH SCHOOL STUDENTS IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS

Kholdorjonova Sevinchkhon Ilhomjon qizi
Master’s Student, Turon University, Andijan Branch

Annotation. This article discusses the socio-psychological characteristics of emotional relationships among high school students. In addition, the psychological features of social relationships among adolescents are analyzed based on a number of scientific sources.

Keywords: adolescence, physical development, impulsive desires, determination, self-awareness, character, social life, collectivism.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy jihatdan ham yetuk bo‘lib kamol topishi ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida o‘quvchilar shaxsining shakllanish jarayoni murakkablashib, ularning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va ijtimoiy munosabatlari keskin o‘zgarishlarga uchraydi. Shu bois, umumta’lim maktablarida yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko’rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi

«Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-2909- son qarori qabul qilindi. Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni egallash insonni o’ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o’qish va o’z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo’llarini mustaqil topish bo’yicha pedagogik va psixologik bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xususan, T.R. Bekmirovning o‘quv-uslubiy qo’llanmasida “Psixologiya va pedagogika” modulining asosiy mavzusi hisoblangan “Shaxsning emotsional irodaviy holatlari” mavzusini o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mavzusida tayyorlangan. O’quv uslubiy qo’llanmaning dastlabki boblarida psixologiya va pedagogika modulida shaxsning emotsional irodaviy holatlarining asosiy jihatlari va samarali o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar ilgari surilgan.

O‘zini boshqarish ko‘nikmalari o‘quvchining shaxsiy intizomi, mas’uliyat hissi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligini ta’minlaydi. Bu ko‘nikmalar orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglaydi, impulsiv istaklarni nazorat qiladi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qiladi hamda ijtimoiy muhitda to‘g‘ri munosabat o‘rnatishni o‘rganadi. Shu sababli, ushbu sohada ilmiy asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O‘smirlik davri — inson hayotidagi eng faol psixologik o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu bosqichda jismoniy taraqqiyot bilan bir qatorda shaxsning ruhiy dunyosi ham sezilarli darajada shakllanadi. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi, qat’iyligi, mustaqillikka intilishi hamda ijtimoiy muhitdagi o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda quyidagi omillar asosiy o‘rin tutadi:

1. Psixologik omil – o‘quvchining o‘z his-tuyg‘ularini anglash, o‘zini nazorat qilish va emotsional muvozanatni saqlash qobiliyati.

2. Ijtimoiy omil – o‘quvchining jamoada o‘z o‘rnini topishi, boshqalar bilan muloqotda to‘g‘ri munosabat o‘rnatishi, empatiya ko‘rsatishi.

3. Pedagogik omil – o‘qituvchi tomonidan ijtimoiy-emotsional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi interfaol metodlardan foydalanish.

Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, treninglar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va refleksiya mashg‘ulotlari samarali natija beradi. Ushbu metodlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘zini tahlil qilish, his-tuyg‘ularini ifoda etish va boshqarish malakalarini shakllantiradi.

Masalan, “Emotsiyalarni aniqlash”, “Stressni boshqarish”, “Men va jamoam” kabi psixologik mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘z ichki holatini anglash va boshqalarning his-tuyg‘ulariga nisbatan e’tiborli bo‘lishni o‘rganadilar. Shuningdek, ijtimoiy faol tadbirlar va guruhiy ishlar o‘quvchilarda kollektivizm ruhini va mas’uliyatni oshiradi. Umumta’lim maktablarida ijtimoiy-emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish — o‘quvchi shaxsining barkamol shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Takomillashtirilgan metodika asosida olib borilgan ishlar o‘quvchilarning o‘zini anglash, qat’iylik, emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

O’zini anglash extiyoji xayot extiyojlaridan va amaliy faoliyatlaridan kelib chiqadi. O’zini anglash kattalarning, kolektivning o’sib borayotgan extiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy xayot va kollektivga bo’lgan qiziqishning rivojlanishi munosabati bilan o’smirlarda o’z imkoniyatlariga baxo berish, kollektivda o’z o’rnini aniqlash, xatti-harakatlari va o’z shaxsining qanday xususiyatlari uning oldiga qo’yiladigan talablarga yuksak darajada javob berishga yordam berishi yoki xalaqit berishini anglash extiyoji paydo bo’ladi. o’smirlarda o’zini anglashning rivojlanishi ularning o’z xatti-xaraktlarini anglashlaridan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o’smirlarning o’zini anglashi asosida u haqida boshqa odamlarning, kattalarning (o’qituvchilar, ota-onalarning), kollektivning va o’rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o’smir o’ziga go’yo

atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil taxlil qilish va baxolash tendensiyasi boshlanadi. Nihoyat shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sintetik sifatlar (burch hissi, qadrqiymat va vijdon hissi, prinsipiallik) anglanadi. Shaxsni tobora kengayib boradigan sifatlarini anglashdagi bunday izchillik ma'lum va uni osongina tushuntib berish mumkin.

Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar va psixologlar o'smirlarning yosh va psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganib, ularning individual ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari zarur. Natijada, o'quvchilarda ijobiy xarakter fazilatlari shakllanib, ular ijtimoiy hayotda faol, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida kamol topadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi вeka/
2. https://lex.uz/docs/3797625
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – T.: 2017.
4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: "O`zbekiston". 2018. -80 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.

TA'LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY IJTIMOIYLASHUVI

Obidova Zilola Mo'minjonovna
"TURON" universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: zobidova10@gmail.com
Tel: +998917518133

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'limning kompetensiyaviy yondashuvi va uning yuqori ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada kompetensiya tushunchasining zamonaviy talqini, kasbiy ijtimoiylashuv nazariyalari, hamda ushbu ikki fenomenni birlashtiruvchi pedagogik va tashkiliy mexanizmlar yoritiladi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim dasturlarini loyihalash, baholash va amaliy mashg'ulotlar orqali kasbiy identifikatsiya va ijtimoiy rolga moslashuvni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy ijtimoiylashuv, yuqori ta'lim, kompetensiya-asosli baholash, o'quv-metodik strategiyalar.

Bugungi kunda mehnat bozorining talablari tez o'zgarishi, kasbiy vazifalar komplekslashuvi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalari oliy ta'limda faqat bilim berishdan ko'ra kengroq maqsad — talabaning kasbiy kompetensiyalarini, shuningdek ijtimoiy-madaniy moslashuv va professional identitet shakllanishini ta'minlashni talab etadi. Kompetensiyaviy yondashuv shundan iboratki- ta'lim mazmuni, metodlari va baholashni ish joyida va jamiyatda samarali ishlashga yo'naltirish tamoyili — bu jarayonni tizimli qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, kasbiy ijtimoiylashuv — shaxsning kasbiy

rolga, mehnat jamoasiga va professional madaniyatga moslashuvi — kompetensiyalarni o‘zlashtirish bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Kompetensiya tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan: K.Veinert kompetensiyani amaliy natijaga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi sifatida ko‘radi; Spenser esa kompetensiyalarni samarali ish faoliyatini ta’minlovchi xulq-atvor, bilim va qadriyatlar majmui deb ataydilar. Kompetensiyaviy yondashuv ta’limning mazmuni va natijasini aniq kompetensiyalar (bilim, ko‘nikma, malaka, ijtimoiy va shaxsiy sifatlar) bilan belgilab, o‘qitish va baholashni shu kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltiradi. J.Biggs (1996) ning konstruktiv moslashuv tamoyili ham kompetensiyaviy yondashuv bilan mos keladi: o‘quv maqsadlari — o‘qitish usullari — baholash vositalari o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

Kasbiy ijtimoiylashuv — individualning kasbiy identitet, mehnat xilma-xilligi, professional qadriyatlar va rol xulqini egallash jarayoni. Klassik ijtimoiy nazariyatlardan P.Berger va T.Lukmann (1966) ijtimoiylashtirishni jamiyatning realitetini qabul qilish va ichkilashtirish jarayoni sifatida ko‘rsatadi. Lave va Venger (1991) ning jamiyatlarda amaliy faoliyat g‘oyasi ham kasbiy o‘rganish va ijtimoiylashuvda o‘zaro aloqaning muhimligini ta’kidlaydi: yangi a’zolar praktik faoliyatga kirishadi va professional madaniyatni ichkilashtiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv va kasbiy ijtimoiylashuv o‘rtasidagi bog‘liqlik shundaki, nazariy jihatdan, Kompetensiyaviy yondashuv talabaning faqat texnik yoki konseptual kompetensiyalarini emas, balki ijtimoiy-kommunikativ, axloqiy va roliy xulqga oid kompetensiyalarni ham shakllantiradi; bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri kasbiy ijtimoiylashuvni rag‘batlantiradi. Kompetensiya-asosli o‘quv modul va amaliyotlar talabaning professional rolni «sinab ko‘rishi», mentorlar bilan aloqaga kirishi va haqiqiy kasbiy vaziyatlarda o‘zini namoyon etishi uchun platforma yaratadi. Shu tariqa, kompetensiyaviy ta’lim va ijtimoiylashuv o‘zaro mustahkam bo‘lgan jarayonlardir.

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish: pedagogik mexanizmlari:

Natija-yuzasiga yo‘naltirilgan o‘qitish. O‘quv natijalari aniq kompetensiyalar ko‘rinishida belgilab qo‘yiladi (masalan: professional muloqot, muammolarni yechish, axloqiy qaror qabul qilish) va o‘qitish ularni shakllantirishga moslashtiriladi.

Konstruktiv moslashuv. O‘quv maqsadlari, faoliyatlar va baholash vositalari o‘rtasida muvofiqlik yaratiladi. Bu talabalarni real ish vazifalari bilan ta’minlab, professional kontekstda kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Amaliyot va tajriba asosida o‘qitish. Simulyatsiyalar, stajirovkalar, kasbiy portfoliolar va projektlar orqali talaba jamoaviy ish, boshqaruv, mijoz bilan ishlash kabi ijtimoiy kompetensiyalarni amalda sinab ko‘radi. Lave va Vengerning «communities of practice» g‘oyasi shu yondashuvni asoslaydi.

Mentorlik va coaching. Professional mentorlar va akademik maslahatchilar orqali talaba professional madaniyatni o‘zlashtiradi va kasbiy identitet shakllantiriladi. Eraut mentorlik va kuzatuvning o‘rni katta ekanini ko‘rsatadi.

Reflektiv amaliyot va portfoliolar. Talabalar o‘z tajribalari va o‘rganishlarining refleksiyasini yozma va amaliy shaklda yuritadilar; bu kasbiy o‘sish va identitetni shakllantirishda muhim.

Baholashning kompetensiyaga yo‘naltirilganligi. Me’yoriy testlardan tashqari, portfoliolar tahlili, ish joyidagi baholash tizimlarini baholash kabilar.

Biz maqolamiz doirasida quyidagi amaliy choralar va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqdik:

O‘quv dasturlarini kompetensiyalar asosida qayta loyihalash.

Dasturda kasbiy rollar, vazifalar va kontekstlar aniq ifodalangan kompetensiya profillari kiritilsin.

Amaliy tajriba va stajirovkalarni kengaytirish.

Universitet-sanoat hamkorligi orqali talabalarga haqiqiy ish jarayonlarida qatnashish imkoniyati taqdim etilsin.

Mentorlik tizimini joriy etish.

Har bir talaba uchun kasbiy mentor belgilansin — bu akademik va ishchi muhitni bog‘laydigan vosita bo‘ladi.

Refleksiv pedagogiklikni kuchaytirish.

Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng refleksiv hisob-kitob talab etilsin.

Baholashni diversifikatsiya qilish.

Baholashda real ishdagi xulq-atvor, jamoaviy ish, muloqot va etika ko‘rsatkichlari inobatga olinishi lozim.

Professional madaniyatni o‘rgatish.

Kurslar orqali professional etika, jamoaviy madaniyat, kommunikatsiya normativlari o‘qitilsin — bu ijtimoiylashuvni tezlashtiradi.

Talaba markazli yondashuv.

Talabaning shaxsiy kompetensiya rivojlanish rejasini tuzish va uni doimiy qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda kompetensiyaviy yondashuv oliy ta’limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini samarali qo‘llab-quvvatlovchi zamonaviy pedagogik platformadir. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat texnik bilim va ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy-kommunikativ va professional xulq-atvor kompetensiyalarini ham shakllantirish orqali talabaning professional identitetini, rol qabulini va ish jamoasiga moslashuvini rag‘batlantiradi. Bu jarayon samarali bo‘lishi uchun o‘quv dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar, mentorlik tizimi va baholash usullari muvofiqlashtirilgan holda joriy etilishi shart. Kelajakda ushbu yondashuvning samaradorligini milliy kontekstda baholash va lokalizatsiya qilish bo‘yicha empirik tadqiqotlar zarur.

Adabiyotlar

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi veka/

2. https://lex.uz/docs/3797625

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.

4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.

PEDAGOGLARNI MUTAXASSISLIK O‘QUV FANLARINI O‘RGATISH JARAYONIDA ULARNING KASBIY-IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Mustafoyeva Mastura Marufjon qizi
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: mustafoyeva mastura8@.gmail.com.
Tel: +99888 162-17-05

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagoglarning mutaxassislik o‘quv fanlarini o‘qitish jarayonida kasbiy-ijodiy qobiliyatlari shakllanishining psixologik omillari, kreativ tafakkur mexanizmlari, ta’lim jarayonida ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi metodlarning ilmiy asoslari keng tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: pedagog ijodkorligi, mutaxassislik fani, kreativ kompetensiya, divergent tafakkur, psixologik mexanizm, innovatsion yondashuv, motivatsiya, kasbiy rivojlanish.

Pedagoglarni mutaxassislik o‘quv fanlarini o‘rgatish jarayonida kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biridir. Jamiyat

taraqqiyoti inson, xususan, o‘qituvchi shaxsining ijodiy salohiyati qanchalik namoyon bo‘lishiga bevosita bog‘liq bo‘lgan sharoitda pedagogning o‘z fani bo‘yicha nafaqat bilimli, balki noodatiy fikrlay oladigan, murakkab vaziyatlarga yangicha yechim topa oladigan, ta’lim oluvchida ham kreativ tafakkurni uyg‘ota oladigan mutaxassis darajasiga ko‘tarilishi zarur. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, ijodkorlik insonning murakkab psixik faoliyati, unda intellektual moslashuvchanlik, mustaqil tafakkur, tasavvur boyligi, emotsional barqarorlik, shaxsiy motivatsiya va bilimlarni qayta ishlash salohiyati bir butun psixologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Mutaxassislik fanlari ana shu tizimning ishga tushishida o‘ziga xos maydon bo‘lib xizmat qiladi. Chunki pedagog aynan o‘z fani vositasida ilmiy tushunchalarni chuqur anglaydi, ularni talabalarga yetkazish jarayonida o‘zida yangi usullar, yangi yondashuvlar, innovatsion g‘oyalarni shakllantirishga majbur bo‘ladi. Bu jarayon ijodkorlikning tabiiy tarzda shakllanishiga zamin yaratadi.

Kreativ tafakkur nazariyalariga ko‘ra (J. Gilford, E. Torrens), ijodkorlik divergent fikrlash — ya’ni muayyan muammoning bir emas, balki bir nechta yechimlarini ko‘ra olish, ularni solishtirib, yangicha g‘oyalar yaratish qobiliyatiga asoslanadi. Pedagogning bu qobiliyati o‘z mutaxassislik fani bilan chuqur ishlashi, ilmiy axborotni qayta talqin qilishi, dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishi, talabalarning fikrlash faoliyatini qo‘zg‘ata olishi jarayonida shakllanadi. Demak, o‘quv mazmuni bilan ishlashda biryoqlamalikka berilmagan, ilmiy tafakkurini doimiy ravishda yangilab boradigan pedagog tabiiy ravishda ijodkorlik sari yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Pedagog ijodkorligining psixologik tuzilmasi murakkab bo‘lib, unda kognitiv, affektiv va motivatsion komponentlar bir-birini to‘ldiradi. Kognitiv komponent bilimlarning qayta ishlab chiqilishi, yangi pedagogik strategiyalarni yaratish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish kabi jarayonlarda namoyon bo‘ladi. Pedagog o‘z fani bo‘yicha muammolarni turlicha tahlil qila olgan sari uning tafakkur elastikligi kuchayadi, bu esa ijodiy yondashuvning asosiy sharti hisoblanadi. Affektiv komponent esa o‘qituvchining emotsional barqarorligi, o‘z faoliyatidan zavq olishi, o‘quv jarayonida noaniqlikdan cho‘chimay yangilik yaratishga intilishi bilan bog‘liq. Vigotskiy ta’kidlaganidek, ijod “ichki erkinlik” mavjud bo‘lgan muhitda rivojlanadi. Demak, pedagogning emotsional erkinligi va psixologik jasorati uning ijodiy salohiyatini yoqib yuboradigan ichki o‘tga o‘xshaydi. Motivatsion komponent esa kasbga sodiqlik, o‘zini doimiy rivojlantirish ehtiyoji, ilmiy izlanishga intilish, talabalarda o‘zgarish yaratish istagi bilan bog‘liq. Yuqori motivatsiyaga ega o‘qituvchi o‘z fani bilan ijodiy munosabatda bo‘ladi, yangilikka tashna bo‘lgan bu holat esa ijodiy fikrning ichki harakatlantiruvchi omili sifatida xizmat qiladi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayonida ijodiylikning shakllanish mexanizmlaridan biri bu muammoli ta’limdir. Muammoli vaziyat pedagogni ham, talabani ham faol fikrlashga majbur qiladi, bilishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi va dars jarayonini intellektual laboratoriyaga aylantiradi. Pedagog darsda muammoning birgina “to‘g‘ri” yechimi emas, balki bir nechta alternativ yo‘llar mavjudligini ko‘rsatib bersa, talaba ongida ijodiy tafakkur boshlanadi, o‘qituvchi esa ayni damda o‘zining kasbiy ijodkorligini ishga soladi. Loyihaviy ta’lim ham pedagogning ijodiy fikrini keskin faollashtiradi. Chunki o‘qituvchi o‘quv jarayoniga real hayotiy vaziyatlarni olib kirar ekan, u o‘z fani imkoniyatlarini amaliyot bilan bog‘lab beradi. Bu jarayonda pedagog ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga, tasavvur, tahlil, sintez, bashorat kabi ijodiy psixik jarayonlarni ishga soladi.

Shuningdek, refleksiv faoliyat pedagog ijodkorligining ajralmas qismidir. O‘qituvchi o‘z darsini tahlil qilishi, kamchiliklarini anglab borishi, o‘quvchilar reaktsiyasini kuzatib borishi orqali o‘zining kognitiv xaritasini qayta tuzadi. Refleksiya pedagog uchun ko‘zgu vazifasini bajarib, u orqali o‘qituvchi o‘zining ichki psixologik maydonini yangidan yaratadi. Bu jarayon ijodiy qayta qurishning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Pedagog ijodkorligini rivojlantirish uchun psixologik sharoit ham muhimdir. Bu sharoitlar qatoriga psixologik xavfsizlik, erkin fikrlash muhiti, o‘qituvchining tashabbusini qadrlash, uning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, yangiliklarni tatbiq etish uchun imkoniyat yaratish kiradi.

Maslou va Rodjers asarlarida qayd etilganidek, inson o‘zini erkin his qilganida, uning ijodiy salohiyati ichki manbadan tabiiy tarzda otilib chiqadi. Shu boisdan, ta’lim muassasasida shunday muhit yaratish kerakki, o‘qituvchi o‘z g‘oyalarini yashirmasin, aksincha ular bilan bo‘lishsin, ularni amaliyotga tatbiq etishdan qo‘rqmasin. Pedagoglar o‘rtasida hamkorlik muhiti, ilmiy seminarlar, ijodiy laboratoriyalar, innovatsion markazlar tashkil etilishi ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi omildir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogning kasbiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish — bu ta’lim sifatini oshirishning eng muhim psixologik yo‘lidir. Mutaxassislik fanlari bu jarayon uchun tabiiy maydon vazifasini bajaradi. Pedagogning tafakkur elastikligi, his-tuyg‘u barqarorligi va kasbiy motivatsiyasi uyg‘unlashgan holda uning ijodiy salohiyati yuksaladi. Ijodkor pedagog — zamonaviy ta’limning yuragi bo‘lib, u nafaqat bilim beradi, balki talabaning ichki dunyosida yangilik yarata oladi. Shu boisdan pedagog ijodkorligini rivojlantirish — bu kelajak ta’limining poydevorini mustahkamlash demakdir.

Adabiyotlar

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi veka/
2. https://lex.uz/docs/3797625
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.
4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.
6.Torrance E.P. Creativity in the Classroom. – New York: Scholastic, 1995.
7. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – McGraw Hill, 1967.
8.Vigotskiy L.S. Psixik taraqqiyot nazariyasi. – Moskva, 1982.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970.
10.Rodjers K. Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. – London, 1983. 11.Yo‘ldoshev J., Xodjayeva M. Pedagogik mahorat va kreativlik. – Toshkent, 2019.

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK NAZARIYALAR O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Nurdinova Dilnoza Boxodirovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: Dilnozanurdinova3@gmail.com
Tel: +998979831307

Zamonaviy ta’lim jarayonida bolaning psixologik rivojlanishini chuqur o‘rganish, uni shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni asoslab berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ta’lim jarayonining muvaffaqiyati nafaqat o‘qituvchi faoliyatiga, balki o‘quvchining psixologik holati, individual xususiyatlari va shaxsiy ehtiyojlariga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar psixologiyasi inson shaxsining ilk yosh bosqichlarida kechadigan psixik jarayonlarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Pedagogika esa bu jarayonlarni boshqarish, yo‘naltirish va maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish metodlarini ishlab chiqadi.

Shunday ekan, bu ikki fan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, bir butun tizimning ajralmas qismlari hisoblanadi. Pedagogik nazariyalar bolaning psixik rivojlanish bosqichlariga tayanib, samarali ta’lim metodikasini yaratishga yordam beradi, bolalar psixologiyasi esa pedagogik yondashuvlarning ilmiy asosini mustahkamlaydi. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi o‘quv dasturlari va kompetensiyaviy yondashuvlar bolalar psixologiyasi bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanmoqda. Chunki o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki bola psixikasini anglay oladigan, uning ichki dunyosiga kirib, qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira oladigan shaxs bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik nazariyalar bolaning individual va ijtimoiy rivojlanish psixologiyasiga tayanadi.

Mazkur maqolada bolalar psixologiyasi bilan pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, V. Vigotskiy, J. Piaje, K. Rodjers kabi olimlarning psixologik qarashlari asosida pedagogik jarayonning psixologik asosi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — bolalar psixologiyasining ilmiy xulosalarini ta’lim nazariyalariga tatbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirishning samarali yo‘llarini aniqlashdir.

Bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim ilmiy asoslaridan biri sanaladi. Bu bog‘liqlik shundan iboratki, pedagogika bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish va tarbiyalash metodikasini ishlab chiqadi. Shu sababli, har qanday ta’lim nazariyasi o‘z ildizini psixologik bilimlardan oladi[1].

Psixologik nazariyalar bolalarning yosh davrlariga xos tafakkur, diqqat, xotira va idrok jarayonlarini o‘rganadi. Masalan, J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola dunyoni bilish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Unga ko‘ra, bola tafakkuri to‘rt bosqichda rivojlanadi: sensomotor, preoperatsional, konkret operatsional va formal operatsional bosqichlar. Har bir bosqichda bola o‘z tajribasi orqali bilimlarni o‘zlashtiradi[2]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik yondashuv bolaning yoshga xos fikrlash qobiliyatiga mos tarzda tuzilishi lozim. Masalan, boshlang‘ich ta’limda o‘quv materiallarini konkret misollar, o‘yinlar va tajribalar orqali berish Piajening psixologik nazariyasiga tayanadi.

L. S. Vigotskiy o‘zining sotsiokultural nazariyasida bola psixikasining rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘lab tushuntiradi. Unga ko‘ra, bolaning o‘qish va tafakkur faoliyati “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshadi — ya’ni bola kattalar yoki bilimdon tengdoshlar yordami bilan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi[3]. Pedagogik jarayon nuqtai nazaridan, bu nazariya o‘qituvchining o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, rag‘bat berish va hamkorlikda o‘rganish muhitini yaratish zarurligini asoslaydi. Shunday qilib, psixologik va pedagogik yondashuvlar o‘zaro bir-birini to‘ldirib, bolaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi esa bola shaxsining ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanishini yoritadi. Unga ko‘ra, bola har bir yosh bosqichida ma’lum psixologik inqirozni boshdan kechiradi, bu esa uning keyingi shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiladi[4]. Shu boisdan ta’lim jarayonida pedagog bola nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi rolini ham bajarishi kerak. Shuningdek, K. Rodjersning “insonparvarlik psixologiyasi” konsepsiyasi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ilgari suradi. Unga ko‘ra, har bir bola o‘z ichki salohiyatiga ega va o‘qituvchining vazifasi uni ochish, rag‘batlantirish va o‘zini namoyon etish imkoniyatini yaratishdir[5]. Bu nazariya zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda, ayniqsa, interfaol metodlar, erkin fikrlash va kreativlikni rivojlantirish jarayonida keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa qilib aytganda bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda asosiy ilmiy va amaliy tayanch vazifasini bajaradi. Psixologik yondashuvsiz pedagogik jarayon mexanik va samarasiz bo‘lib qoladi, pedagogik yondashuvsiz esa psixologik bilimlar amaliy natijaga aylanmaydi. Shu bois, har bir zamonaviy o‘qituvchi bola psixologiyasini chuqur anglagan holda o‘z faoliyatini tashkil qilishi zarur.

Adabiyotlar

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi вeka/
2. https://lex.uz/docs/3797625
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.
4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.
5. Karimova V. M., “Psixologiya asoslari”, Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2018.
6. Piaje. J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972.
7. Vigotsky. L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
8. Erikson. E. H. Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company, 1963.
9. Rojers, C. Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill Publishing Company, 1983.

SHARQ ALLOMALARINING PEDAGOGIK TA’LIMOTLARI ASOSIDA TALABALARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Abduraimova Omatoy Xusanboy qizi
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: abduraimovaomatoy77@.gmail.com.
Tel: +998916204448

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq uyg‘onish davri allomalari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk mutafakkirlarning pedagogik ta’limotlari talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishdagi nazariy-metodik asos sifatida talqin etiladi. Allomalar tomonidan ilgari surilgan ilmning mohiyati, bilish jarayonining psixologik va mantiqiy qonuniyatlari, ilmiy tafakkurning shakllanish omillari, tajriba va kuzatuvga asoslangan ilmiy bilish tamoyillari zamonaviy oliy ta’lim jarayonida talabaning tafakkur madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi konseptual poydevor sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Sharq allomalari, pedagogik ta’limot, ilmiy dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, ilmiy tafakkur, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Ulug‘bek, Navoiy, Yusuf Xos Hojib, ilmiy bilish, kuzatuv, tajriba, ma’naviy kamolot, talaba, oliy ta’lim.

Sharq uyg‘onish davri allomalari—Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ulug‘bek, Navoiy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari bugungi oliy ta’lim jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda o‘ziga xos ilmiy-metodik poydevor vazifasini bajaradi. Ularning ta’lim-tarbiyaga doir falsafiy qarashlari, bilish nazariyasi, ilmning mohiyati va inson kamolotiga qo‘ygan talablari zamonaviy ta’lim falsafasi bilan uzviy uyg‘unlikda bo‘lgan holda talabaning tafakkur madaniyatini, ilmiy dunyoqarashini, bilishga daxldor motivatsiyasini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Sharq allomalari ta’kidlashicha, ilm insonning ruhiy, aqliy va ma’naviy kamolotini ta’minlaydigan asosiy kuch bo‘lib, uni egallashda mantiqiy fikr, kuzatish, tajriba, tafakkur chuqurligi va uzluksiz o‘rganish zarur omillardir.

Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” va “Ilmlarning tasnifi” asarlarida ilmiy bilishning mantiqiy asoslarini, fikrlash jarayonining bosqichlarini yoritib, ilmning maqsadi insonni haqiqatga eltish ekanligini qayd etadi. Forobiy ta’lim jarayonida aqlni muntazam faol holatda ushlash, sabab-oqibat aloqalarini anglash va ilmni amaliyotga tatbiq eta olishni muhim deb

hisoblaydi. Uning ta’limotida talabaning ilmiy dunyoqarashi tafakkur intizomi, fikrning puxtaligi va mulohaza madaniyati orqali shakllanishi ko‘rsatib o‘tiladi.

Ibn Sino “Donishnoma”, “Tib qonunlari” va falsafiy risolalarida ilm olishning psixologik asoslari, o‘quvchi shaxs xususiyatlari, idrok, xotira, tafakkur va bilish jarayonining bosqichlarini tahlil qilgan. Unga ko‘ra, ilmiy dunyoqarashning shakllanishi avvalo tajriba, kuzatish va aqliy mulohazaga tayanadi. Ibn Sino insonning bilish jarayonini uch bosqichga—hissiy bilish, aqliy bilish va tafakkur orqali umumlashtirish bosqichlariga ajratgan holda talabaning ilmni puxta o‘zlashtirishi uchun didaktik sharoitlarni belgilab beradi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy dunyoqarashning eng asosiy tamoyili sifatida tajriba va empirik dalilni belgilaydi. Uning “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi asarlarida ilmning obyektivligi, xolis tekshirish va ilmiy kuzatuvning o‘rni keng asoslanadi. Beruniy ilm olish jarayonida shubha, savol berish, faktlarni tekshirish va dalillarni solishtirishni ilmiy bilishning asosi deb biladi. Bugungi talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonida Beruniy qarashlari intellektual mustaqillik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim metodik manbadir.

Al-Xorazmiy esa ilmiy tafakkur va mantiqiy yondashuvning amaliy ifodasi bo‘lgan algoritmik fikrlash tamoyillarini ilgari surgan. Uning “Al-jabr va al-muqobala” asari nafaqat matematikaning, balki ilmiy metodologiyaning rivojlanishiga asos bo‘lgan. Bugungi talabalarning ilmiy dunyoqarashi aynan shu algoritmik tafakkur, tahliliy yondashuv, muammoni bosqichma-bosqich hal etish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Mirzo Ulug‘bekning “Ziji jadidi Kuragoniy” asari va ilmiy maktabi ilmiy kuzatuv, o‘lchov, statistik tahlil, ilmiy dalilni tekshirish tamoyillariga asoslanadi. Ulug‘bek ilmni insoniyat taraqqiyotining eng yuksak vositasi deb hisoblagan va o‘z maktabida yoshlarni kuzatuvchanlik, ilmiy halollik va tajriba asosida fikrlashga o‘rgatgan. Bugungi talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda Ulug‘bek an’anasidagi ilmiy izchillik, natijani qayta tekshirish va kuzatuv madaniyati asosiy mezonlardan hisoblanadi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida ilmning ma’naviy-axloqiy asoslarini chuqur tahlil qilib, ilmni insonni kamolotga eltuvchi nur sifatida talqin qiladi. Navoiyga ko‘ra, ilmiy dunyoqarash nafaqat nazariy bilimlar, balki axloqiy poklik, ijtimoiy mas’uliyat va bunyodkorlik g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. Uning ta’limiy qarashlari zamonaviy talaba uchun ilmning ijtimoiy mazmunini anglash, bilimsiz fikr yuritmaslik va intellektual mas’uliyatni his qilishga xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida ta’limning bosh tamoyillarini adolat, donolik, tartib va mas’uliyat orqali ochib beradi. U ilmni jamiyat taraqqiyotining tayanchi deb biladi va yoshlarni ijtimoiy faollik, ongli fikrlash, adolatli qaror qabul qilishga undaydi. Bu qarashlar talabalarda ijtimoiy ong, ilmiy dunyoqarashning ma’naviy asoslarini shakllantirishda muhim manbadir.

Zamonaviy oliy ta’lim jarayonida sharq mutafakkirlari ta’limotlariga tayanib talabalarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda samarali kechadi: talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish, sabab-oqibat aloqalariga asoslangan ilmiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborotni tekshirish va tahlil qilish madaniyatini oshirish; shuningdek, kuzatuv, tajriba, amaliy mashg‘ulotlar orqali ilmiy bilimni faol o‘zlashtirishga undovchi muhit yaratish. Sharq allomalari ta’kidlaganidek, ilmning maqsadi shaxsning har tomonlama kamolotidir, shu bois ilmiy dunyoqarash faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki fikrlash uslubi, intellektual mas’uliyat va ma’naviy yuksalishdir. Talabalarni sharq mutafakkirlari ruhida tarbiyalash ularda ilmga ixlos, yangilikka intilish, bilishga chanqoqlik, mustaqil izlanishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Natijada ilmiy dunyoqarashi puxta shakllangan talaba nafaqat nazariy va amaliy bilimlarga, balki ijtimoiy ong, axloqiy mas’uliyat va madaniy yetuklikka ega bo‘ladi.

Talabalarning ilmiy dunyoqarashini sharq olimlari ilmiy asarlari asosida shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagilar:

— Tafakkur madaniyati: Forobiy ta’limotiga ko‘ra, mantiqiy fikrlash, mulohaza intizomi, sabab-oqibatni tahlil qilish ko‘nikmalari.

— Tajribaga asoslangan bilish: Beruniy ilgari surgan kuzatuv, tajriba, faktlarni tekshirish, dalilga

tayangan holda xulosa chiqarish odati.
— Psixologik bilish jarayonining uyg‘unligi: Ibn Sino ta’kidlagan hissiy-idrokiy bilish, aqliy tahlil va umumlashtirish bosqichlari.
— Algoritmik fikrlash: Xorazmiy asoslagan tizimli, izchil, ketma-ket yechim topish qobiliyatlari.
— Ilmiy halollik va kuzatuvchanlik: Ulug‘bek maktabidagi ilmiy intizom, natija ishonchliligini tekshirish madaniyati.
— Ma’naviy-axloqiy poklik: Navoiy qarashlariga asoslanib ilmga burch, mas’uliyat va ijtimoiy mazmunda yondashish.
— Adolatli fikrlash va ijtimoiy ong: Yusuf Xos Hojib ta’kidlagan ijtimoiy mas’uliyat, fikrning asoslanganligi va adolat tamoyillari.
— Mustaqil izlanish va yangilikka intilish: Sharq mutafakkirlarining barcha ta’limoti bir nuqtada — ilmga chanqoqlik va mustaqil fikrni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi века/
2. https://lex.uz/docs/3797625
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.
4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.
6. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
7. Ibn Sino. “Donishnoma”. – Toshkent: Fan, 2013.
8. Beruniy A.R. “Hindiston”. – Toshkent: Fan, 2012.
9. Al-Xorazmiy M. “Al-jabr va al-muqobala”. – Toshkent: Fan, 1989.
10. Ulug‘bek M. “Ziji jadidi Kuragoniy”. – Toshkent: Fan, 1994.
11. Navoiy A. “Mahbub ul-qulub”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.
12. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. – Toshkent: Yozuvchi, 1990.

Hasanboyeva O., Yo‘ldoshev J. “Pedagogika”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.

KOMPRAVISTIK PEDAGOGIKANI O‘RGANISH ASOSIDA TALABA KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Ergashova Gulhayo Isaqjonovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: ergashovagulhayo555@.gmail.com.
Tel: +998902011571

Annotatsiya: Mazkur maqolada kompravistik pedagogika konsepsiyasining mazmuni, uning talaba shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy-nazariy asoslari yoritiladi. Kompravistik pedagogikaning integrativ tarkibi — kompetensiyaviy yondashuv, refleksiv tahlil, professional o‘sish dinamikasi, faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik model — oliy ta’limda kasbiy mahoratni shakllantiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, talabalarning

kasbiy mahoratini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar, ta’lim muhitining strukturaviy komponentlari, o‘quv faoliyatining kompravistik strategiyalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Kompravistik pedagogika, kasbiy mahorat, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, ta’lim muhit, kasbiy shakllanish, professional kompetensiya, pedagogik texnologiya, talaba faoliyati, zamonaviy ta’lim.

Kompravistik pedagogika zamonaviy ta’lim falsafasi va pedagogik metodologiyaning yangi bosqichi sifatida talabaning kasbiy tayyorgarligini kompleks, tizimli va kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvning mohiyati — talabaning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki o‘z faoliyatini anglab, tahlil qilib, baholay olishi, refleksiv fikrlashi, kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi va ijodkorlikka tayyor bo‘lishidadir. Kompravistik pedagogika kompetensiyalar majmuasi, refleksiv yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim modeli va kasbiy shakllanish mexanizmlarining uyg‘unlashuvi orqali talaba mahoratini rivojlantiradi.

Zamonaviy oliy ta’limda kasbiy mahorat — faqat bilimlar yig‘indisi emas, balki mutaxassisning o‘z kasbiy funksiyalarini yuqori darajada bajarish qobiliyati bo‘lib, buning tarkibiy qismlari shaxsiy motivatsiya, amaliy ko‘nikma, kommunikativ savodxonlik, analitik-nazariy yondashuv, kasbiy qadriyatlar va mas’uliyatdan iboratdir. Kompravistik pedagogika ushbu jarayonni komplekslashtiradi va talabaning kasbiy tayyorgarlik jarayonida quyidagi asosiy tamoyillarni ilgari suradi: o‘quv faoliyatini ongli boshqarish, kasbiy refleksiya mexanizmlarini faollashtirish, amaliy vaziyatlar orqali kompetensiyalarni shakllantirish, nazariya va amaliyot integratsiyasi, o‘quv jarayonida talabaning subyekt sifatida ishtirokini kuchaytirish.

Talabalarning kasbiy mahoratini rivojlantirishda kompravistik pedagogikaning asosiy omillari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Psixologik omillar orasida talabaning kasbiy motivatsiyasi, intellektual faolligi, o‘zini o‘zi baholash darajasi, refleksiv tafakkuri va kreativ salohiyati yetakchi o‘rinni egallaydi. Pedagogik omillar esa ta’lim jarayonining mazmuni, pedagogning boshqaruv strategiyalari, interaktiv metodlar qo‘llanishi, o‘qituvchi–talaba muloqoti, ta’lim muhitining samaradorligini belgilaydi. Ijtimoiy omillar sifatida guruhiy o‘zaro ta’sir, kasbiy jamoaga tayyorlov, ijtimoiy faoliyatga jalb qilish va amaliyot bazalarining sifat darajasi katta rol o‘ynaydi. Mazkur omillar kompravistik yondashuvning tizimli ishlash mexanizmini tashkil etadi.

Kompravistik pedagogikada talabaning kasbiy mahoratini rivojlantirishning ilmiy asoslari ham o‘ziga xosdir. Avvalo, ta’limning kompetensiyaviy modeli — kasbiy bilim, ko‘nikma va universal kompetensiyalarni integrativ rivojlantirishga qaratilgan. Talaba o‘z faoliyatini nafaqat bajaruvchi, balki tahlil qiluvchi, baholovchi va yangilik yaratuvchi subyekt sifatida shakllantiriladi. Ikkinchi asos — refleksiv yondashuv bo‘lib, bunda talaba har bir amaliy va nazariy topshiriqni bajarish jarayonida o‘z fikrlashi, qarorlari va natijalarini tahlil qiladi. Uchinchi asos — faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish bo‘lib, unda real kasbiy vaziyatlar, loyihalar, treninglar, keys-stadilar orqali talabada amaliy tayyorgarlik kuchayadi. To‘rtinchi asos — muammoli tafakkur va tanqidiy tahlilni rivojlantirish bo‘lib, bu kasbiy mahoratning intellektual negizini mustahkamlaydi.

Kompravistik pedagogika zamonaviy oliy ta’limda talabaning kasbiy mahoratini oshirishda metodik yo‘nalish sifatida yanada muhim bo‘lib bormoqda. Chunki u talabaning kasbiy o‘zlikni anglashini chuqurlashtiradi, faoliyat jarayonida mustaqil qaror qabul qilish madaniyatini shakllantiradi, amaliyotda uchraydigan murakkab vaziyatlarga moslashuvchan yondasha oladigan malakali mutaxassis yetishtirishni nazarda tutadi. Talaba kompravistik pedagogika orqali o‘z kasbiy yo‘lini ongli tanlaydi, o‘zining bilim va ko‘nikmalarini baholaydi, o‘z ustida ishlashning individual strategiyasini shakllantiradi. Bu jarayon esa unga nafaqat oliy ta’lim davomida, balki butun kasbiy hayoti davomida o‘sish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, kompravistik pedagogika talabalarning kasbiy mahoratini rivojlantirishning yangi ilmiy-metodik platformasini yaratadi. U kasbiy faoliyatga tayyorlov jarayonida talabaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi, refleksiv fikrlashni kuchaytiradi,

kompetensiyalarni optimallashtiradi, amaliy faoliyatni ilmiy tahlil bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada talaba kasbiy jihatdan yetuk, tashabbuskor, o‘ziga ishongan, intellektual va amaliy jihatdan pishiq mutaxassis sifatida shakllanadi.

Adabiyotlar

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi вeka/
2. https://lex.uz/docs/3797625
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.
4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.
6. Abdullaev A., Hasanov B. Pedagogik kompetensiya va talabalarda kasbiy mahoratni rivojlantirish**.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Zokirova N.X., Jo‘raev R.J. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv**.** – Toshkent: Innovatsion Ziyo, 2020.
8. Karimova R. Pedagogik refleksiya: nazariya va amaliyot**.** – Toshkent: Milliy universitet nashriyoti, 2022.
9. Xodjayev B. Kasbiy pedagogika asoslari**.** – Toshkent: O‘zbekiston pedagogika markazi, 2019.
10. Fedorov A.V. Kompetentnostnyy podkhod v obrazovanii: teoriya i praktika**.** – Moskva: Akademiya, 2020.

MILLIY AXLOQIY QADRIYATLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA PEDAGOGIK MANBALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Kamilova Oydinoy Kozimjon qizi
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: mustafoyeva mastura8@.gmail.com.
Tel: +998944414565

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarda milliy axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonida pedagogik manbalardan foydalanishning zamonaviy texnologiyalari yoritiladi. Pedagogik jarayonning ma’naviy asoslari, tarbiyaviy ta’sirning psixologik mexanizmlari, milliy qadriyatlar mazmuni va o‘quvchi shaxsiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq pedagogikasi, adabiy manbalar, tarixiy-ma’rifiy meros va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan integrativ foydalanishning samaradorlik omillari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy axloq, ma’naviy tarbiya, xalq pedagogikasi, qadriyatlar, tarbiyaviy texnologiya, pedagogik manbalar, kompetensiya, o‘quvchi shaxsi.

Milliy axloqiy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy tajribasi va jamiyatning o‘ziga xos ruhiy energiyasi sifatida avloddan avlodga o‘tib keladi. O‘quvchilarni tarbiyalashda ushbu boy merosdan foydalanish — ta’lim tizimining ma’naviy tayanchini mustahkamlovchi muhim omildir. Zamon o‘zgarishi bilan qadriyatlarni o‘qitish shakllari yangilanmoqda, lekin maqsad bir: o‘quvchida mas’uliyat, halollik, odob, hurmat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi

sifatlarni shakllantirish. Milliy axloqiy qadriyatlar jamiyatning axloqiy mezonlarini belgilaydi. O‘zbekiston pedagog olimlari — A. Qodirov, B. Xo‘jamberdiyev, N. To‘xtiyeva kabi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, milliy tarbiyaviy tizimning mohiyati “insonning nafaqat bilim bilan, balki ma’naviy immunitet bilan qurollanishi”dir.

O‘quvchining:

o‘ziga munosabati,

boshqalarga hurmati,

muomala madaniyati,

ijtimoiy mas’uliyati ko‘p jihatdan milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiyadan oziqlanadi. Pedagogik manbalar — o‘quvchi shaxsiga ta’sir qiluvchi axborot, voqelik va tajribalar majmui. milliy axloqiy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashda pedagogik manbalardan foydalanish texnologiyasi asosiy manbalar quyidagilar:

Xalq pedagogikasi — maqollar, afsonalar, rivoyatlar, udumlar.

Adabiy manbalar — Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Behbudiy, Fitrat asarlari.

Tarixiy-ma’rifiy manbalar — Amir Temur tuzuklari, jadid maktabi tarbiyaviy g‘oyalari.

Diniy-ma’naviy meros — odob-axloq haqidagi ta’limotlar.

Zamonaviy pedagogik metodlar — dialog texnologiyasi, klaster, loyiha metodi.

Oila tarbiyasi manbalari — ota-onalarning hayotiy tajribasi.

Ommaviy axborot manbalari — ijtimoiy tarmoqlar, internet, media resurslar.

Bu manbalarning har biri o‘quvchida ma’naviy fazilatlarni uyg‘otuvchi “ichki signallar tizimi”ni shakllantiradi.

Tarbiyaviy jarayonda milliy manbalarni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchi ongida mazmunli idrok paydo qiladi. Masalan:

xalq ertaklarini kritik fikrlash metodlari bilan tahlil qilish,

maqollarni kontekstual muloqot mashqlarida qo‘llash,

tarixiy shaxslar hayotini loyiha ishlarida tadqiq qilish.

Bu yondashuv o‘quvchi ongida qadriyatlarni passiv emas, balki faol qabul qilishni ta’minlaydi.

Faol metodlar orqali tarbiyaviy ta’sir

Rol o‘ynash: odob, hurmat va hamjihatlikka doir epizodlar sahnalashtiriladi.

Muloqot doiralari: “halollik nima?”, “hurmat qanday belgilanadi?” kabi mavzularda ochiq suhbat.

Axloqiy dilemmalar: o‘quvchilar o‘zlari tanlov qiladigan vaziyatlar yaratish.

Reflektiv yozuvlar: har dars oxirida “bugun o‘rgangan qadriyat” haqida qisqa fikrlar.

3.3. Emotsional-intellektual mexanizm

Qadriyat faqat eshitilganda emas, his qilinilganda singiydi. Shu bois tarbiyaviy jarayonda:

taassurotlar,

ijobiy emotsiyalar,

shaxsiy tajriba

yuzaga kelishi shart.

Milliy qadriyatlarni o‘rgatuvchi o‘qituvchi — shunchaki bilim uzatuvchi emas, balki ma’naviy yo‘l ko‘rsatuvchi.

O‘zbekistonlik olima N. Komilova ta’kidlaganidek, o‘qituvchi shaxsiy namuna orqali eng kuchli tarbiyaviy vositaga aylanadi. Uning nutqi, muomalasi, halolligi, vaqtga munosabati — o‘quvchi ongida milliy axloqning yashirin kodi sifatida ishlaydi.

Texnologiyaning samaradorlik omillari

Konsepsiyaviylik — milliy qadriyatlar yagona tizimda, rejali va izchil beriladi.

Faollik — o‘quvchi jarayonda ishtirokchi, ijodkor bo‘ladi.

Shaxsiylashtirish — qadriyatlar o‘quvchi hayoti va tajribasiga bog‘lanadi.

Multimedia integratsiyasi — videolar, animatsiyalar, tarixiy tasvirlar orqali tasavvur boyitiladi.

Oila bilan hamkorlik — ota-onalar faol jalb qilinadi.

Xulosa qilib aytganda milliy axloqiy qadriyatlar asosida tarbiya — o‘quvchi shaxsining ma’naviy rivojlanishida asosiy quvvat manbai. Pedagogik manbalardan oqilona, tizimli va texnologik asosda foydalanish esa bu jarayonni mazmunli, ta’sirchan va zamonaviy ko‘rinishga keltiradi. Tarbiyaviy texnologiyalar milliy ruh bilan boyiganida o‘quvchi nafaqat bilimli, balki mas’uliyatli, odobli, e’tiborli, o‘zligini anglaydigan shaxsga aylanadi — bu esa har bir ta’lim tizimining eng yuksak maqsadi hisoblannadi.

Adabiyotlar

1. ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy razvitiya psihologicheskoy nauki k seredine xxi века/

2. https://lex.uz/docs/3797625

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. – T.: 2017.

4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.

6. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. (Milliy axloqiy tarbiya tamoyillari)

7. Fitrat A. *Oila.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017. (Milliy tarbiya, oila va jamiyat munosabatlari)

9. Husanboyeva Q. *Milliy qadriyatlar asosida tarbiya jarayonini tashkil etish.* – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021.

10. Jo‘raev A. *O‘zbek xalq pedagogikasi asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

OILADA O‘SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIDA TARBIYANING TUTGAN O‘RNI

Andijon davlat universiteti
Amaliy psixologiya ta’lim yonalishi 402 guruh
Abdullayeva Sarvinoz Shuhratillo qizi

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘smirlik davrida shaxsning psixologik rivojlanishiga oilaning ta’siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Oila - o‘smirning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida uning xarakteri, emotsional barqarorligi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida muhim omil ekani yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘smir, jamiyat, kelishmovchilik, oila, psixologiya, tarbiya, ta’lim, individuallik.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, ushbu jarayonda shaxsning xarakteri, dunyoqarashi, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. V.Karimova “Oila psixologiyasi” darsligida o‘smir shaxsining rivojlanishida eng muhim omil sifatida oilani ko‘rsatadi. Chunki oila bolaning ilk ijtimoiy tajribalarini beruvchi, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari va o‘zini anglash mexanizmlarini shakllantiruvchi birlamchi tarbiya institutidir.

Mamlakatimizda barcha aholining qariyb 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi ya`ni, yolg‘iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo‘lib qolgan va Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O‘zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a’zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig‘ emas. Shu ma’noda oila – inson o‘z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o‘zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

Oila, er-xotinlik munosabatlari dinimizda muqaddas rishta hisoblanadi. Bu rishtani bog‘lash, oila barpo qilishda katta maqsadlar ko‘zlangan. Shu sababdan har ikkala tarafga ham o‘ziga yarasha mas’uliyatlar, burchlar, vazifalar yuklatilgan. Oilada er va ayolning o‘ziga xos mushtarak burch va vazifalari bor: nikohlanib, halol hayot kechirish, bir-biriga nisbatan Allohdan qo‘rqqan holatda munosabatda bo‘lish lozim. Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya`ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi. O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi birqator masalalar har tomonlama o‘rganilib tahlil qilingan[6]. Ma`lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o‘zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Bularning ta’siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o‘z ifodasini topadi. Yoshlarimizda bu masala bo‘yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya`ni o‘tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o‘rtasidagi tafovutlarni solishtirib o‘tamiz.

10. Hallam S. The power of music: Its impact on the intellectual, social and personal development of children // International Journal of Music Education, 2010.

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Baxromjon Turgunov Raximjonovich
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi
v.b.dotsenti, (PhD)
Email: btrbaxrom@gmail.com
Tel:+998773153230

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim muhiti sharoitida talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning tashkiliy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, virtual muloqot va axborot oqimlari yoshlarning qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida milliy identitetni mustahkamlashga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvlar, motivatsion omillar va samarali tashkiliy strategiyalar o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, milliy qadriyatlar, psixologik mexanizmlar, identitet, motivatsiya, raqamli platformalar, tarbiya.

Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga chuqur kirib borib, talabalarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli platformalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda virtual o‘quv muhitining keng qo‘llanilishi bilim olish jarayonini samarali tashkil etish imkonini bergan bo‘lsa-da, u yoshlar ongida milliy identitetning mustahkamlanishi, qadriyatlar barqarorligi va ma’naviy immunitetning shakllanishi kabi muhim omillarni chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Chunki axborot oqimining keskin ortishi, global madaniy ta’sirlar va raqamli ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi talaba yoshlarning qadriyatlar tizimida ma’lum darajada farqlanish va beqarorlik holatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur sharoitda oliy ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, talabalarda barqaror ijtimoiy-psixologik pozitsiyani shakllantirish va raqamli ta’lim muhitining tarbiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish ustuvor vazifalardan biridir. Bu jarayon nafaqat pedagogik, balki tashkiliy-psixologik omillar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim tashkilotlarining ichki muhitini raqamlashtirish, o‘quv jarayonini boshqarishning yangi modellari va talabalar bilan o‘zaro muloqotning innovatsion shakllarini joriy etishni talab qiladi. Shu bois, ushbu maqolada raqamli ta’lim muhitida talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-psixologik mexanizmlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi, ularning samaradorligini ta’minlovchi omillar aniqlanadi va raqamli sharoitda tarbiyaviy jarayonni takomillashtirishga doir nazariy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Raqamli ta’lim muhitining jadal rivojlanishi talabalarning nafaqat bilim olish jarayoniga, balki ularning ma’naviy-axloqiy qarashlari, identiteti va qadriyatlar tizimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni olib kirar ekan, talaba yoshlarning milliy qadriyatlarni qabul qilishi, ularni amaliy hayotda namoyon etishi hamda ma’naviy barqarorlikni saqlab qolishi masalasi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylanmoqda. Raqamli vositalarning kuchli axborot ta’siri, global madaniyatning ta’sirchanligi va virtual aloqalarning ustuvorligi fonida milliy qadriyatlarni mustahkamlash mexanizmlarini aniqlash va takomillashtirish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda.[1]

Raqamli ta’lim muhiti, avvalo, axborotning yuqori tezlikda almashinuvini ta’minlaydi, bu esa talabalar ongida yangi tasavvurlar, yangi dunyoqarash shakllanishiga sabab bo‘ladi.[2] Biroq ushbu jarayon ikki qirrali xususiyatga ega: bir tomondan, raqamli resurslar milliy madaniyat, tarix va qadriyatlarni keng targ‘ib qilish imkoniyatini yaratadi; ikkinchi tomondan esa, axborotning nazoratsiz oqimi, turli madaniy kodlar va qadriyatlar tizimining bir vaqtning o‘zida ta’sir qilishi yoshlar ongida identitet inqirozi xavfini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun, raqamli muhitda

milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni tasodifiy emas, balki tizimli, ilmiy asoslangan tashkiliy-psixologik mexanizmlar orqali olib borilishi lozim.

Tashkiliy-psixologik mexanizmlarning birinchi yo‘nalishi sifatida raqamli ta’lim muassasasining psixologik-kasbiy muhiti ko‘rib chiqiladi.[3] Ta’lim tashkilotlarida o‘qituvchi va talaba o‘rtasida samarali psixologik muloqotni ta’minlash, raqamli platformalarda sog‘lom kommunikativ madaniyatni shakllantirish hamda o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini kuchaytirish milliy qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli darslar jarayonida talabaning faolligini oshiruvchi, milliy merosga oid vizual, audio va interaktiv materiallardan foydalanish, virtual muhitda muhokama madaniyatini shakllantirish, talabani shaxs sifatida qo‘llab-quvvatlash kabi omillar milliy identitetning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim mexanizm motivatsion omillarning to‘g‘ri yo‘naltirilishidir. Raqamli ta’lim sharoitida talabalar odatda global axborot resurslariga ko‘proq murojaat qiladilar. Bu jarayonda milliy qadriyatlarga oid tarkibning jozibadorligi, mazmunning zamonaviy formatda taqdim etilishi va yosh avlod ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi muhimdir. Shunday ekan, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontentni faqat an’anaviy didaktik usullar asosida emas, balki raqamli psixologiya talablari asosida ishlab chiqish talab etiladi. Masalan, interaktiv kurslar, milliy qadriyatlar mavzusidagi onlayn loyihalar, virtual muzeylar, gamifikatsiya elementlari, milliy tarix va madaniyatga oid multimediali topshiriqlar talabalarda yuqori darajada motivatsiya uyg‘otadi. Bunday yondashuvlar yoshlarning milliy qadriyatlarga nisbatan shaxsiy munosabatini kuchaytiradi va ularni ijtimoiy ahamiyatli qadriyat sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Uchinchi yondashuv – talabalar identiteti va psixologik farovonligini mustahkamlash jarayonini raqamli muhitga moslashtirishdir. Milliy identitetning shakllanishi, avvalo, shaxsning o‘zini ma’lum bir madaniyatning vakili sifatida idrok qilishi va bu identifikatsiya jarayonida ijobiy emotsional tajribaga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Raqamli muhitda ushbu jarayon ayrim qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, chunki ko‘plab virtual platformalar ko‘proq individualizm va tezkor iste’molga asoslangan kontentni targ‘ib qiladi. Shu sababli, ta’lim muassasalari raqamli psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining samaradorligini oshirish, talabalar uchun virtual konsultatsiya, psixologik treninglar, onlayn guruh mashg‘ulotlari tashkil etish orqali ularning psixologik barqarorligini ta’minlashi lozim.

To‘rtinchi muhim mexanizm – axborot madaniyatini rivojlantirishdir. Raqamli ta’lim jarayonida talabalar ko‘plab axborot manbalari bilan ishlaydilar, ammo ularning barchasi ham ishonchli, ma’naviy jihatdan sog‘lom yoki milliy qadriyatlarga mos bo‘lavermaydi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, milliy manfaatlarga zid bo‘lgan axborotlarni aniqlash, axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish talabalarning psixologik immunitetini kuchaytiradi. Axborotga tanqidiy yondashuv milliy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilish va ularni zamonaviy sharoitda qo‘llay olish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli ta’lim muhitida milliy qadriyatlarni shakllantirish faqat pedagogik jarayon bilan cheklanmaydi; bu ko‘p qirrali, kompleks tashkiliy-psixologik tizim bo‘lib, unda ta’lim muassasasi, o‘qituvchi, talaba va raqamli texnologiyalar o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishi zarur. Tashkiliy jarayonlarning samaradorligi, psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining kuchli bo‘lishi va raqamli platformalarda milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi zamonaviy kontentning mavjudligi mazkur tizimning asosiy poydevorini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda raqamli transformatsiya jarayonlarining ta’lim tizimiga chuqur kirib borishi talaba yoshlarning ma’naviy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy identiteti va qadriyatlar tizimini qayta shakllantirishda yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab psixologik vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, raqamli ta’lim muhiti milliy qadriyatlarni mustahkamlash uchun boy resurslar bazasiga ega bo‘lsa-da, ushbu imkoniyatlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish muayyan tashkiliy-psixologik yondashuvlarni talab etadi. Milliy identitetni mustahkamlash, talabalarning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta’minlash va raqamli

axborot oqimlarining salbiy ta’siriga nisbatan immunitet yaratish – raqamli ta’lim jarayonining eng muhim strategik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi, onlayn konsultatsiyalar, psixodiagnostika va guruhiy treninglarning raqamli formatda yo‘lga qo‘yilishi talabalarning psixologik farovonligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborot savodxonligini rivojlantirish, tanqidiy tafakkurni kuchaytirish va raqamli madaniyatni yuksaltirish milliy qadriyatlarning ongli ravishda qabul qilinishini kafolatlaydi.

Umuman olganda, raqamli ta’lim muhitida milliy qadriyatlarni shakllantirish – bu faqat ta’lim jarayonini raqamlashtirish emas, balki talaba shaxsining ma’naviy-psixologik rivojlanishini strategik boshqarish jarayonidir. Mazkur yondashuv raqamli jamiyatda milliy o‘ziga xoslikni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova, F. (2021). Raqamli jamiyat psixologiyasi. Monografiya. Toshkent.
2. Ergasheva, S. Raqamli ijtimoiy psixologiya: yoshlar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlar. Toshkent, 2022.
3. Jo‘rayev, B. O‘zbek milliy qadriyatlari va ularning zamonaviy talqini. Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
4. Turgunov, B. (2024). Ta’limni tashkil etishda internetning intellektga ta’siri. *Universal xalqaro ilmiy jurnal,* 1(4), 620-622.
5. Raximjonovich, T.B. (2024). Talabalarning intellektual salohiyatiga ta’sir qiluvchi ichki va tashqi omillar. *Theory and analytical aspects of recent research,* 3(28), 40-46.
6. Rahimjonovich, T.U.B. (2024). Intellektual va autogen mashqlarning shaxs rivojlanishiga ta’siri. *Innovative developments and research in education,* 3(34), 46-49

ZAMONAVIY OILALARDA BOLALAR TARBIYASI VA PSIHOLOGIK QIYINCHILIKLAR

Jo‘raboyeva Guljaxon Xurshidbek qizi
Andijom davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya 404-gurux talabasi
E-mail: torayevanigora997@gmail.com
Tel: +998770083306

Anatatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasini tashkil etish jarayonida uchraydigan psihologik qiyinchiliklarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ishda oilaviy tuzilma va tarbiya modellari, ota-ona-bola munosabatlaridagi k ommunikativ omillar,raqamli texnologiyalar ta’siri, avtoritar va demokratik tarbiya uslublarining psihologik oqibatlari ilmiy asosda ko’rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy oila ,bolalar tarbiyasi, psihologik qiyinchiliklar, ota-ona-bola munosabatlari, tarbiya modellari, kommunikativ omillar, raqanli texnologiyalar, avtoritar tarbiya, demokratik tarbiya.

Zamonaviy jamiyatda oilaviy tarbiya jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, raqamli texnologiyalarning kengayishi, ota-onalarning bandligi va oilaviy rollarning transformatsiyasi ta’sirida murakkablashib bormoqda. Ushbu omillar bolaning emotsional, intelektual va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishi sababli zamonaviy oilada tarbiya jarayonida uchraydigan psihologik qiyinchiliklarni ilmiy asosda o’rganish dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy tarbiyaning psihologik jihatlarini tahlil qilish va tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy – amaliy takliflarni ishlab chiqishdir.

Zamonaviy oilaning o’ziga xos hususiyatlari. Bugungi oilalar avvalgi davrlarga nisbatan ancha dinamik va o’zgaruvchan bo’lib quyidagi omillar bilan tavsiflanadi:

-to’liq bo’lmagan oilalar sonining ortishi;

-kichik oila modeliga o’tish;

-ota- onalarning mehnat bandligi oshishi;

-raqamli tehnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib kelishi. Bu o’zgarishlar oilaviy muloqotning qisqarishiga va emotsional qo’llab- quvvatlashning yetishmasligiga sabab bo’lib, bolaning psihologik holatiga ta’sir ko’rsatadi.

Zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasi va psihologik qiyinchiliklarning quyidagi psihologik qiyinchiliklarga oid omillar farqlanadi:

Kommunikativ muammolar- Ota-ona va bola o’rtasidagi muloqotning yetarli bo’lmasligi ishonchning susayishiga emotsional uzoqlashuvga va xulq- atvor muammolarining kuchayishiga olib keladi. Raqamli vositalarning ortiqcha ishlatilishi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi;

Tarbiya uslublari bilan bog’liq qiyinchiliklar- Avtoritar tarbiya- qat’iy nazorat bolada qo’rquv, past o‘zini baholash va tashqi ta’sirlarga beriluvchanlikni kuchaytiradi;

Liberal tarbiya- me’yorlar yetishmasligi impulsivlik va ijtimoiy qoidalarni tushunmaslikka olib keladi;

Demokratik tarbiya – muloqot va tartib uyg’unligi bolaning mustaqilligi , o’ziga ishonchi va emotsional barqarorligini rivojlantiradi;

Zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasidagi psixologik qiyinchiliklarda oilaviy stress omillari ham muhum ta’sir hisoblanadi. Ularga iqtisodiy bosim, vaqt tanqisligi, ota-onalarning emotsional charchashi kabi omillar oilaviy muhitni beqarorlashtiradi. Natijada bolalarda:

-xavotir kuchayadi;

-darsga motivatsiya pasayadi;

-agressiv yoki tortinchoq xulq kuzatilishi mumkin.

Zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasidagi psixologik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha psixoprafilaktik ishlar olib boorish zarur. Buning uchun avvalo sog’lom oilaviy muhitni yaratish, oilada sog’lom muloqot ko’nikmalarini shakillantirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, oila azolarini birgalikdagi faoliyatlarini tashkil etish, raqamli texnologiyalarni me’yorlash, ekran vaqtini chegaralash, ota-onaning nazorat va hamkorlikda ishlashi kabilar oiladagi bolalarning psixologik tarbiyasida qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Zamonaviy oilalarda tarbiya uslublarini optimallashtirish bugungi kunning dolzarb mavzusi bo’lib bormoqda. Bunda demokratik uslubni amalda qo’llash keng samara bermoqda. Demokratik uslubni qo’llashga bir necha yondashuvlar mavjud:

-tushuntirishga asoslangan yondashuv;

-konstruktiv tanbeh ;

-mas’uliyatni bosqichma – bosqich yuklash.

Psihologik yordam va profilaktika. Zarur holatlarda maktab psihologlari oilaviy maslahatchilar bilan ishlash tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy oilalarda bolalar tarbiyasi ko’plab ichki va tashqi omillar ta’sirida shakllanadi. Psihologik qiyinchiliklarning ko’payishi oilaviy muloqotning qisqarishi,raqamli texnologiyalarning nazoratsiz qo’llanishi tarbiya uslublarining nomutanosibligi va oilaviy stress bilan bevosita bog’liqdir. Tadqiqot shuni ko’rsatadiki, sog’lom tarbiya jarayoni uchun demokratik uslubni qo’llash, emotsional qo’llab, quvvatlashni kuchaytirish, raqamli muhitni nazorat qilish va oilaviy munosanbatlarni mustahkamlash muhum hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar bola shaxsining emotsional – intelektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi hamda psihologik barqarorlikni ta’minlaydi.

ADABOYOTLAR RO‘YHATI:

1. Santrock.J.W.(2021).Life –Span Development .McGraw-Hill.
2. Berk.L(2018).Child Development .Pearson Education .
3. Yo’ldoshev.J.G &Hasanboyeva.O (2015).Pedagogika. Toshkent:O’qituvchi .

4. Qodirova .F .(2019).Oilaviy tarbiya asoslari .Toshkent.
5. To’xtamishev.B.(2020).Bolalar psihologiyasi. Toshkent.
6. Livingstone .S(2014) .Children,Youth and Digital Media .European Journal of Communication.
7. Gee.J.P.(2013).The Anti-Education Era:Creating Smarter Students Through Digital learning . Palgrave Macmillan.
8. Siegel.D.J,&Bryson.T.P.(2012).The Whole – Brain Child . Bantam.

YOSHLARDA PSIXOTROP MODDALARGA QARAM XULQ SHAKLLANISHINING OLDINI OLISHDA HIMOYA MEXANIZMLARINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich
Andijom davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
Umumiy psixologiya kafedrasi doktoranti
E-mail: shamsiddinovbotir88@mail.ru

Tel: +998916079189
Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
doktoranti Mirzarahimov Oybek Umidjon o’g’li
E-mail: oybekmirzarahimov27@gmail.com

Annotatsiya: Yoshlarda psixotrop moddalarga qaram xulq shakllanishining oldini olishda himoya mexanizmlarining psixologik ahamiyati dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotda himoya mexanizmlarining yoshlardagi stressga qarshi kurashish, ijtimoiy bosimga bardosh berish va shaxsiy rivojlanishdagi roli o'rganiladi. Yoshlarda psixotrop moddalarga qaramlik ko'pincha ichki va tashqi omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Himoya mexanizmlari, masalan, repressiya, raqobat, va ratsionalizatsiya kabi psixologik strategiyalar, yoshlar uchun qiyin vaziyatlarda o'zlarini himoya qilish va salbiy his-tuyg'ularni boshqarish imkoniyatini beradi.

Kalit so’zlar: himoya mexanizmlari, psixotrop moddalar, qaramlik, yoshlar, psixologik salomatlik, stressni boshqarish, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, sog'lom hayot tarzi, emotsional barqarorlik, ijtimoiy aloqalar, psixologik ta'lim, sog'lom do'stliklar.

Yoshlarda psixotrop moddalarga qaram xulq shakllanishining oldini olishda himoya mexanizmlarining psixologik ahamiyati juda muhimdir. Quyida bu mavzu bo'yicha asosiy jihatlar keltirilgan:

Himoya mexanizmlari – bu shaxsning stressga yoki noqulay vaziyatlarga qarshi kurashish uchun qo'llaydigan psixologik strategiyalaridir. Ular shaxsning psixologik holatini saqlab qolish va ruhiy muammolardan qochish uchun ishlatiladi.

Yoshlar o'sish jarayonida turli xil psixologik va ijtimoiy bosimlarga duch keladilar. Psixotrop moddalar (alkogol, giyohvand moddalar va boshqalar) ko'pincha stressni kamaytirish yoki qiziqarli tajribalarni olish maqsadida ishlatiladi. Biroq, bu moddalarga qaramlik rivojlanishi mumkin.

Himoya mexanizmlari yoshlarga quyidagi jihatlarda yordam beradi:

• Stressni boshqarish: Yoshlarda stress va xavotirni kamaytirish orqali psixotrop moddalarni iste'mol qilish ehtimolini pasaytiradi.

• O'z-o'zini anglash: O'z his-tuyg'ularini tushunish va ularga to'g'ri javob berish orqali, yoshlarda salbiy his-tuyg'ulardan qochish imkoniyatini oshiradi.

• Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: Yoshlarda ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va sog'lom do'stliklarni rivojlantirish orqali, ular psixotrop moddalarga murojaat qilish ehtimolini kamaytiradi.

• Muammolarni hal qilish ko'nikmalari: Muammolarni hal qilish strategiyalarini o'rganish, yoshlarga qiyinchiliklarga duch kelganda sog'lom usullar bilan javob berishga yordam beradi.

Yoshlarni himoya mexanizmlarini rivojlantirishga o'rgatish, ularni psixotrop moddalarga qaramlikdan himoya qilishda muhimdir. Bu jarayon:

• Psixologik ta'lim: Yoshlarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va stressni boshqarish usullarini o'rgatish.

• Ijtimoiy ko'nikmalar: Ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va sog'lom do'stliklarni shakllantirish.

• Sog'lom hayot tarzi: Sport, san'at va boshqa faoliyatlar orqali sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish.

Xulosa qilib aytganda yoshlarda psixotrop moddalarga qaram xulq shakllanishining oldini olishda himoya mexanizmlarining psixologik ahamiyati katta. Ular yoshlarga stressni boshqarish, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash orqali sog'lom hayot tarzini saqlashda yordam beradi. Shuning uchun, bu mexanizmlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR

1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo’shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O’zbekistan NMIU.2016. -56 b.

2.Фрейд 3. Страх и жизнь влечений // Введение в психоанализ; Лекции. М.; Наука, 1989. С. 349-369.

3. Фрейд А. Психология Я и защитные механизмы. - М.; Педагогика. - 1993.- 144 с.

4. Фромм Э. Иметь или быть? Киев, 1998.

5. Холмогорова, В.М. Психологические условия нравственного развития дошкольников [Текст]: дис. ... канд. психол. наук – М., 2001. – 178 с.

6. Чехлатый Е. И. Личностная и межличностная конфликтность и копинг-поведение у больных неврозами и их динамика под влиянием групповой психотерапии: Автореф. дисс.... к. м. н. - СПб. - 1994. - 25 с.185. Чудновский, В.Э. О некоторых «болевых точках» становления личности [Текст] // Психологический журнал. – 2006. – №3. – Т.27. – С. 5-17.

7. Шавырина, А.А. Влияние детско-родительских отношений на проявление негативизма и упрямства у детей старшего дошкольного возраста [Текст]: дис. ... канд. психол. наук / А.А. Шавырина. – М., 2012. – 150 с.

8. Шакарова, М.А. Анализ влияния структуры сюжета и содержания культурных текстов на развитие сюжетно-ролевой игры современных дошкольников (на примере мультипликационных сериалов) [Текст]: дис. … канд. психол. наук / М.А. Шакарова. – М., 2012. – 144 с.

O‘SMIRNING SHAXS SIFATIDA SHAKLLANISHIDA OILANING TUTGAN O‘RNI

Rafiqova Munisa Ne’matjon qizi
Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti
E-mail:munisarafiqova3@gmail.com

Tel: +998916059591

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davrida shaxsning psixologik rivojlanishiga oilaning ta’siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Oila - o‘smirning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida uning xarakteri, emotsional barqarorligi, kommunikativ ko‘nikmalari va ijtimoiy xulq-atvorining shakllanishida muhim omil ekani yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘smir, jamiyat, kelishmovchilik, oila, psixologiya.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlardan biri bo‘lib, ushbu jarayonda shaxsning xarakteri, dunyoqarashi, kommunikativ qobiliyatlari va ijtimoiy xulq-atvori shakllanadi. V.Karimova “Oila psixologiyasi” darsligida o‘smir shaxsining rivojlanishida eng muhim omil sifatida oilani ko‘rsatadi[2-48-56,b]. Chunki oila bolaning ilk ijtimoiy tajribalarini beruvchi, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari va o‘zini anglash mexanizmlarini shakllantiruvchi birlamchi tarbiya institutidir.

Mamlakatimizda barcha aholining qariyb 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi ya`ni, yolg‘iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo‘lib qolgan va Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O‘zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a’zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig‘ emas. Shu ma’noda oila – inson o‘z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o‘zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

Oila, er-xotinlik munosabatlari dinimizda muqaddas rishta hisoblanadi. Bu rishtani bog‘lash, oila barpo qilishda katta maqsadlar ko‘zlangan. Shu sababdan har ikkala tarafga ham o‘ziga yarasha mas’uliyatlar, burchlar, vazifalar yuklatilgan. Oilada er va ayolning o‘ziga xos mushtarak burch va vazifalari bor: nikohlanib, halol hayot kechirish, bir-biriga nisbatan Allohdan qo‘rqqan holatda munosabatda bo‘lish lozim. Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya`ni, o‘z uyi, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli bahtiyor his etadi. O‘zbekiston psixologlari tomonidan o‘zbek oilalariga xos muammolarni o‘rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o‘zbek oilalaridagi milliy o‘ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi birqator masalalar har tomonlama o‘rganilib tahlil qilingan[6]. Ma`lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o‘zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo‘lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o‘ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Bularning ta’siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o‘z ifodasini topadi. Yoshlarimizda bu masala bo‘yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya`ni o‘tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o‘rtasidagi tafovutlarni solishtirib o‘tamiz.

Yoshlarimizda bu masala bo‘yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari, ya`ni o‘tib borayotgan asrimiz boshidagi va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o‘rtasidagi tafovutlarni solishtirib o‘tamiz. Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so‘nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko‘ra ularning jinsiy, fiziologik balog‘atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog‘atga yetish davri 15-16 yoshga to‘g‘ri kelgan, hozir esa bu holat o‘rtacha 12-13 yoshlarga to‘g‘ri keladi. Endi shu yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo‘lmish jinsiy yetuklikka, balog‘atga yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o‘sha davrlar uchun xos va lozim bo‘lgan, unchalik murakkab bo‘lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo‘lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), o‘sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan

maxsus yoki oliy ma`lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko‘rgan shogird 16-17 yoshida o‘zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o‘z ishini amallab keta oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo‘lsa, o‘z hunari orqali mehnat qilib o‘zini va oila a’zolarini iqtisodiy jihatdan ta`minlay olishi mumkin bo‘lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit mahalla-ko‘yda, jamoatchilik orasida ma`lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda yetuk, uning haqli ishtirokchisi sifatida qatnashishi mumkin bo‘lgan, ya’ni uning ijtimoiy jihatdan balog‘atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko‘rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar, biroq ular biror bir kasb-hunar egasi bo‘lib, mustaqil ishlab, o‘zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta`minlay oladigan bo‘lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so‘ng u yoki bu kasb-xunar kolleji yoki akademik litseyda o‘qib, biror-bir kasbni egallashi kerak. Buning uchun 9 yil maktabda, kollej yoki litseyda o‘qishi zarur bo‘ladi. 12 yillik barcha uchun majburiy ta`limdan so‘ng yoshlarimizning ma`lum bir qismi o‘qishni oliy o‘quv yurtlarida davom ettiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma`lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari odamlarning turmush tarzi rivojlanishi bilan birga oilalarining kundalik hayoti o‘zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga, moddiy farovonlik darajasiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib boradi. Shulardan ko‘rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16-18 yoshida oila qurishsalar, ular shu vaqtga kelib oilaviy hayot uchun, muvaffaqiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo‘lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan.

Oiladagi zo‘ravonlikning bolalarga ta’siri shundaki, bolalardagi oilaviy zo‘ravonlikning guvohi bo‘lishining jismoniy ta’siri xulq-atvor va hissiy ta’sirga qaraganda kamroq seziladi. Uyda oilaviy zo‘ravonliklarga guvoh bo‘lgan bolalarning boshidan kechiradigan travma bularda rivojlanish va jismoniy farovonligida katta rol o‘ynaydi[5]. Kattaroq bolalar ba’zida stressni o‘zini tutish muammolariga aylantirishi mumkin. Ba’zida suiste’molga guvoh bo‘lgan bolalar og‘riqni olib tashlash umidida giyohvand moddalarga murojaat qilishadi.

Tashvish ko‘pincha uyda oilaviy zo‘ravonlikka guvoh bo‘lgan bolalarda jismoniy alomat bilan birga keladi. Agar ularning xavotiri ko‘proq jismoniy alomatlarga aylansa, ular uyqusizlik va vazn yetishmasligidan charchoq alomatlarini ko‘rsatishi mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlikka uchragan bolalar rivojlanishi salbiy ehtimoli xulq-atvorining orqaga qaytish, nazoratdan tashqari xatti-harakatlarni namoyish qilish va nojo‘ya xatti-harakatlarga taqlid qilishidir. Bolalar shunday deb o‘ylashlari mumkin zo‘ravonlik yaqin munosabatlarning maqbul xulq-atvori bo‘lib, qurbonga yoki tajovuzkorga aylanadi.

O‘smirlar o‘quv qobiliyatsizligi, maktabni tark etishlari va giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish. Ularning xulq-atvori ko‘pincha oila a’zolari uchun maxfiy va yashirin bo‘lib qoladi va ular uy sharoitlaridan uyalishlari mumkin. O‘smirlar odatda do‘stlarini mehmonga taklif qilishni yoqtirmaydilar va ular bo‘sh vaqtlarini uydan tashqarida o‘tkazadilar. Rad etish va tajovuz muammolarni hal qilishning asosiy shakllari bo‘lib xizmat qiladi. O‘smirlar oiladagi zo‘ravonlikka boshqalarni ayblash, munosabatlarda zo‘ravonlikka duch kelish yoki uydan qochish bilan javob beradilar.

Jismoniy alomatlar ota-onalarning oiladagi zo‘ravonligi tufayli bolalarga katta ta'sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda 59 bolaning 52% boshqa xonadan baqirgan, 60 ta bolaning 53% bitta xonadan baqirgan, bir nechtasi kimnidir yordamga chaqirgan va ba'zilari shunchaki haqoratli voqea paytida o‘zlarini sezilarli darajada jalb qilishgan. Zo‘ravonlik holati avjiga chiqqanda va bola aralashishga harakat qilsa, mantiqan aytganda, odam o‘z farzandini zarardan qutqarish uchun ota-onalar o‘zlarini nazorat qiladi deb o‘ylardi, ammo statistika aksini ko‘rsatadi. Aytishlaricha, buzg‘unchilarning qariyb 50 foizi ham o‘z farzandlarini shafqatsiz munosabatda bo‘lishadi. Yana bir dahshatli statistika shuni ko‘rsatadiki, shafqatsiz munosabatlar qurbonlarining 25% ham o‘z farzandlari bilan zo‘ravonlik qilishga moyil. Ushbu bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik

ba'zi hollarda hayot uchun xavfli bo‘lishi mumkin. Agar ona zo‘ravonlik paytida homilador bo‘lsa, kelajakdagi bolada umrbod buzilish xavfi yoki hayotning o‘zi xavf ostida bo‘ladi. Tadqiqotchilar perinatal va neonatal statistik ma'lumotlarga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikni boshdan kechirayotgan onalarda bolalar o‘limi xavfi ikki baravar ko‘p bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 146 б. (Mirziyoyev Sh.M. We will continue our path of national development with determination and raise it to a new level. - T.: Uzbekistan, 2017. – P. 146).

2. Karimova V. “Oila psixologiyasi”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

3. Haydarov F.I., Xalilova N. ―Umumiy psixologiya‖. T.: ―Fan va texnologiyalar‖ markazining bosmaxonasi. J 2009.

4. G‘oziev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. T.Noshir, 2010.

5. Do‘smuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh.K., Alimbaeva Sh.T. ―Yosh va pedagogik psixologiya‖. T.: TDPU, 2013.

6. Musurmonova O., Raxmonqulova F. “Oila va farzand tarbiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2016.

7. Steysi, V va Shupe, A. Oila siri. Boston, MA. Beacon Press, 1983 yil.

OILADAGI GENDER MUNOSABATLARINING FARZAND TARBIYASIGA TA'SIRI

Obidova Odinahon Jaloliddinovna
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
Amaliy psixologiya yo‘nalishi
404-guruh talabasi
E-mail: o obidova733@.gmail.com.
Tel: +998914981378

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy gender munosabatlari farzand tarbiyasiga ta’siri zamonaviy psixologik nazariyalar, amaliy tadqiqotlar va O‘zbekistonning madaniy qadriyatlari kontekstida tahlil qilinadi. Maqolada gender rollari, stereotiplar va tenglik farzandning emotsional, ijtimoiy va psixologik rivojlanishida qanday rol o‘ynashi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, oilalar, maktablar, mahallalar va ijtimoiy xodimlar ishtirokida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan integratsiyalashgan amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit sòzlar: gender munosabatlari, farzand tarbiyasi, oilaviy tarbiya, psixologik rivojlanish, gender tengligi,

Zamonaviy oilaning ichki tuzilmasi sokin ko‘lning tubida sekin harakat qiluvchi oqimga o‘xshaydi: tashqi tinchlik orqasida murakkab psixologik va ijtimoiy jarayonlar kechadi. Oilaviy rollarning taqsimlanishi, qarorlar kim tomonidan qabul qilinishi, hissiy muloqotning shakli — bularning barchasi farzand ruhiyatida – sezilmas, lekin chuqur iz qoldiradi. Shu jihatlar, ayniqsa, oiladagi gender munosabatlari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Genderga oid qarashlar va oilaviy rollar masalasi bugungi kunda nafaqat psixologik problematika, balki davlat siyosati va huquqiy normalar doirasiga ham kirdi. Xususan, 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” Qonun (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 562-son, 2019; manba: lex.uz) jinsiy tenglik va imkoniyatlar tengligini davlat darajasida ta’minlashni kafolatlaydi. Bu qonunga ko‘ra, xotin-qizlar va erkaklar jamiyat, mehnat, ta’lim, siyosat, madaniyat kabi barcha sohalarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi, jinsi bo‘yicha kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan.

Shuningdek, 2021-yilda qabul qilingan “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-5294, 2021; manba: lex.uz) mamlakatimizda gender tengligini ta’minlash siyosatini tizimlashtirgan keng ko‘lamli davlat hujjatidir. Ushbu strategiya jinslar tengligini jamiyatning barcha tizimlarida, xususan oilada, ta’limda, mehnatda va maishiy hayotda mustahkamlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni belgilab beradi.

Bu hujjatlar shuni anglatadiki, oiladagi gender munosabatlari va farzand tarbiyasi masalasi faqat shaxsiy yoki ijtimoiy emas, balki davlat siyosati darajasida ham ustuvor ahamiyatga ega. Farzand oilada oladigan ilk gender tajribasi ularning kelajakda jamiyatdagi o‘rni, psixologik salomatligi va shaxsiy mustaqilligida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli oiladagi gender munosabatlarini ilmiy tahlil qilish, ularni farzand tarbiyasiga ta’siri jihatidan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Gender tushunchasi biologik emas, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan gender tushunchasi jinsdan farqli ravishda ijtimoiy o‘zlashtirilgan rollar, xulq kutishlari va me’yorlar to‘plamini anglatadi. J. Konning tadqiqotlariga ko‘ra, bola o‘zini ma’lum jins a’zosi sifatida tanlab, unga nisbatan jamiyat kutgan rollarni ichki tizimga qo‘shadi. Oiladagi gender muvozanati yoki nomuvozanati farzandda ushbu kutishlarning qanday shakllanishini belgilaydi.

Struktur-funksionalistik yondashuvda T. Parsonsning nazariyasiga ko‘ra, an’anaviy oilada erkak asosan instrumental rol, ayol esa ekspressiv rolni bajaradi. Zamonaviy tadqiqotlar esa qat’iy rollar farzand rivojlanishida stress va cheklovlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli oiladagi gender rollarining moslashuvchanligi farzand tarbiyasi uchun qulay psixologik muhit yaratadi.

Oiladagi gender munosabatlarining psixologik mexanizmlarini ko’radigon bo’lsek, avvalo **oiladagi gender munosabatlarining farzand tarbiyasiga ta'siri ilmiy yondashuvlarga asosan izohlash zarur. Bunda** Banduraning modellash mexanizmi asosiy mexanizmni bajaradi.

Farzand ota-onaning xatti-harakatlarini kuzatadi va takrorlash orqali gender rolini o‘zlashtiradi. Oiladagi “kim qaror qabul qiladi, kim bo‘ysunadi” yoki “kim gapiradi, kim jim qoladi” kabi situatsiyalar bola ongiga chuqur o‘rnatiladi.

Oilada hurmat va tenglik mavjud bo‘lsa — bola demokratik, ochiq fikrli bo‘ladi;

Tengsiz oilalarda — bola patriarxal yoki passiv-submissiv modelni o‘zlashtiradi;

Adolatli rollar bo‘lsa — bola hamkorlik va mas’uliyatni o‘rganadi.

Gender munosabatlarida affektiv rezonans muhum ro’l o’ynaydi. Affektiv rezonans — bu **ikki insonning emotsional holatlari o‘zaro tebranishga kirishi,** ya’ni bir tomondagi hissiy ohang ikkinchisining ichki maydonida aks-sado berishi holatidir.

Bolalar ota-onaning hissiy holatini sezadi. Onaning bolaga haddan tashqari vazifalarni yuklashi yoki otaning hissiy masofa saqlashi oiladagi gender strukturasining natijasi bo‘lishi mumkin.

Z. Freyd va K.Yung nazariyasiyasiga kòra, ota va ona obrazlari shaxsning ichki arxetiplarini tashkil etadi. Gender nomuvofiqligi mavjud oilalarda bu obrazlar: idealizatsiya yoki rad etish, tajovuzkor identifikatsiya, haddan ziyod bo‘ysunuvchanlik va o‘zini qadrsiz his qilish kabi holatlarga olib kelishi mumkin.

Gender tengligi mavjud oilalarning farzand tarbiyasiga ta’siri bir qancha ta’sirlarga ega. Tenglik mavjud oilalar farzand uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, lekin ularni bosim ostiga qo‘ymaydi. Ijtimoiy kompetensiyalar rivojida esa empatiya, muloqot madaniyati, muloyim liderliklar ahamiyatga ega bo’lsa, emotsional intellektning shakllanishida ota va ona farzand bilan faol emotsional aloqada, stressga chidamlilik oshadi. Gender stereotiplarning kamayishida farzandlar o‘z imkoniyatlarini kengroq rivojlantiradi. Gender tengsizligi hukmron oilalarning ta’sirida tengsizlik oilaning tashqi va ichki muhitini o‘zgartiradi. Qiz bolalarda past o‘zini qadrlash, haddan ziyod moslashuvchanlik, yashirin qo‘rquv, hissiy cheklanishni ko’ramiz. O‘g‘il bolalarda esa tajovuzkorlikni normallashtiradi, hissiy ifodani zaiflik deb baholaydi, kuch ishlatishni ijtimoiy ustunlik belgisi deb qabul qiladi.

Biz gender munosabatlariniing farzand tarbiyasiga ta’siri borasida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

1. Oilaviy ochiq muloqot va qadriyat soatlari: Har hafta 20–30 daqiqa farzandlar bilan suhbat, har oy oxirida “Oilaviy hikoya” tanlovi; natija: hurmat, empatiya, kommunikatsiya va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

2. Rol almashinuvi va “mahorat kunlari”: Oyda bir kun rol almashinuvi; natija: mas’uliyat, hamkorlik va gender tengligi amalda namoyon bo‘ladi.

3. Gender stereotiplarni kamaytirish mashqlari: O‘g‘il bolalarni oshpazlik, qo‘lda ishlash va hissiy ifodaga jalb qilish; qiz bolalarni sport, texnika, liderlik mashqlariga jalb qilish; natija: farzandlar ichki imkoniyatlarini kengroq rivojlantiradi.

4. Psixologik va emotsional treninglar: Haftada bir mini-trening, “Hissiyotlar kartasi” orqali kunlik emotsiyalarni tahlil qilish; natija: hissiy intellekt, stressga chidamlilik, konfliktlarni konstruktiv hal qilish.

5. Hurmat va qadriyatlarni vizual ko‘rsatish: “Qadriyat devori” va mahalla/maktabdagi oilaviy qadriyat loyihalari; natija: o‘zaro hurmat va ijtimoiy hamkorlik rivojlanadi.

6. Zo‘ravonlikka nol tolerantlik: Profilaktik dasturlar, psixologik maslahatlar, kuzatuvlar, “Xavfsiz makon o‘yini”; natija: farzandlar zo‘ravonlikni tanib oladi.

7. Media va ijtimoiy tarmoqlar orqali ijobiy model: Ota-onalar va bolalar gender tengligini aks ettiruvchi videolar tayyorlaydi; natija: ijtimoiy muhit orqali to‘g‘ri rol va hurmatni o‘rganadi.

8. Mahalla va maktab bilan integratsiya: “Oilaviy festival” – oyda oilalar yutuqlari va ijodiy loyihalarini namoyish qiladi; natija: jamiyat bilan integratsiyalashgan yondashuv farzand tarbiyasini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda oiladagi gender munosabatlari farzand shaxsining rivojlanish poydevorini tashkil etadi. Bu poydevor qanchalik barqaror, hurmat va tenglikka asoslangan bo‘lsa, farzandning shaxsiy va ijtimoiy salohiyati shunchalik mustahkam bo‘ladi. Tenglik mavjud oilalar farzandga keng imkoniyatlar yaratadi, tengsiz oilalar esa ichki dunyoga nozik darzlar soladi.

Gender tengligi va demokratik oilaviy muloqot farzand ruhiy salomatligining eng asosiy prediktorlaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli gender madaniyatini rivojlantirish nafaqat ijtimoiy zarurat, balki oilaning ruhiy barqarorligi yo‘lida muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2019). Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida (562-son Qonun, 2-sentabr 2019). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha gender tenglikka erishish strategiyasi (PQ-5294, 2021-yil). Prezident qarorlari to‘plami.

3. Bandura. A. (1977). Social learning theory. Prentice Hall.

4. Bem. S. L. (1981). Gender schema theory: A cognitive account of sex typing. Psychological Review, 88(4), 354–364.

5. Eagly. A. H., & Wood, W. (2013). The nature–nurture debates: 25 years of challenges in understanding gender psychology. American Psychologist, 67(9), 645–654.

6. Freyd. Z. (1955). The family romance and ego development. Hogarth Press.

7. Yung. K. G. (1968). The archetypes and the collective unconscious. Princeton University Press.

8. Karimova. V. M. (2016). Oila psixologiyasi. O‘qituvchi nashriyoti.

9. Mahoney. A., Turner, P. (2019). Family dynamics and gender roles in child development. Journal of Family Psychology, 33(5), 612–623.

10. Parsons, T., Bales, R. F. (1955). Family, socialization, and interaction process. The Free Press.

11. Ergasheva, Z. S. (2020). Gender psixologiyasi: Nazariya va amaliyot. Yangi Nashr.

ZO‘RAVONLIKKA UCHRAGAN OILDAGI BOLALARGA OILA MUHITINING TA’SIRI

To`lqinova Marifatoy Shavkatjon qizi
Andijom davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya 404-gurux talabasi
E-mail: torayevanigora997@gmail.com
Tel: +998930759404

Bola shaxsining shakllanishi avvalo oiladan boshlanadi. Oila bola uchun dastlabki tarbiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tajribalar manbai hisoblanadi. Ammo oiladagi muhit zo‘ravonlik, keskinlik yoki beparvolik bilan ajralib tursa, bu bolada kuchli psixologik bosim, bexavotirlikning yo‘qolishi va travmatik tajribalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday tajribalar bola psixikasining normal rivojlanishini murakkablashtiradi va uzoq muddatli salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida bolalarni va oiladagi zo‘ravonlikni ta’minlovchi normativlar. Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida qonun — 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan va 2025-yil 15-mayda kuchga kirgan. Ushbu qonun — jismoniy, ruhiy, jinsiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya, ta’qib (bullying) va boshqa oilaviy yoki ijtimoiy zo‘ravonlik shakllarini tan oladi va ularga qarshi choralar belgilaydi. Qonun asosida davlat bola jabrlanganda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam ko‘rsatishni zimmasiga oladi. Qonun bilan, agar bola zo‘ravonlikka duch kelsa — u himoya orderi (himoya orderi / himoya tartibi) talab qilishi mumkin. Ushbu order ichki ishlar organlari tomonidan chiqariladi va boshlang‘ich himoyani ta’minlaydi. Bundan tashqari, Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari to‘g‘risidagi qonun ham (yoki unga kiritilgan o‘zgartirishlar) oilaviy zo‘ravonlik tushunchasini rasmiylashtirdi. Mazkur normativ oilada zo‘ravonlik holatlari, xususan ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq, tajovuz hollari uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining Qarori “Vazirlik va idoralar o‘rtasida bolalarni himoya qilish bo‘yicha hamkorlik tizimini kuchaytirish haqida”VMQ–55, 2021-yil 3-fevral

Mazmuni: Maktab, mahalla, IIB va psixologlar o‘rtasidagi ma’lumot almashinuvi,Zo‘ravonlik xavfi yuqori bo‘lgan bolalar monitoring.

Zo‘ravonlik turlarining bola psixikasiga ta’siri shundan iboratki, oilaviy zo‘ravonlik turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin va har bir tur bolaga o‘ziga xos darajada zarar yetkazadi.

- Jismoniy zo‘ravonlik- bolaning muntazam urilishi, jazolanishi yoki tan jarohati olishi unda qo‘rquv, tashvish, tajovuzkorlik, past o‘zini baholash kabi holatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bunday bolalar dunyoni xavf, tahdid va bosimga to‘la muhit sifatida qabul qiladi, bu esa shaxs rivojlanishini izdan chiqaradi.

-. Psixologik zo‘ravonlik- kamsitish, haqoratlash, qo‘rqitish yoki e’tibor bermaslik bolalarning emotsional dunyosiga eng chuqur zarar yetkazadi. Bunday tarbiyaviy tajriba natijasida ular o‘ziga ishonmaydigan, boshqalarga shubha bilan qaraydigan, kayfiyati tez-tez tushadigan va depressiv holatlarga moyil shaxsga aylanadi.

- Iqtisodiy tazyiq- bolaning asosiy ehtiyojlari qondirilmasligi – oziq-ovqat, kiyim, dori-darmon yoki o‘quv qurollari yetishmasligi – uning o‘ziga bo‘lgan munosabatini salbiylashtiradi. Bola o‘zini keraksiz deb his qiladi, tengdoshlari orasida o‘zini pastroq turadi deb o‘ylaydi, ijtimoiy moslashuv qiyinlashadi.

-E’tiborsizlik va ma’naviy beparvolik- mehr, e’tibor va qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bolaning identifikatsiya jarayonini izdan chiqaradi. Neglektga uchragan bolalar

ko‘pincha o‘z qadrini his qilmaydi, ijtimoiy munosabatlarda qiynaladi va shaxs sifatida barqaror rivojlana olmaydi.

Zo‘ravon oilalarda hukmron psixologik atmosferadagi kuch notengligi shundaki – oilada bir shaxsning haddan tashqari hukmronligi mavjud bo‘lib, bu boshqalarda qo‘rquv va bo‘ysunuv holatini kuchaytiradi. Emotsional izdan chiqish – oilada barqaror his-tuyg‘ular yetishmaydi, doimiy janjallar, tahdidli ohang yoki keskinlik ustuvor bo‘ladi.Jamiyatdan ajralish – oiladagi zo‘ravonlik ko‘pincha yashiriladi, bu esa bola uchun yordam so‘rash imkonini cheklaydi va uni yanada yolg‘izlashtiradi.To‘g‘ri muloqotning buzilishi – bolaga fikr bildirishga imkon berilmaydi, uning so‘zi e’tiborsiz qoladi, bu esa muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishini to‘sadi.Doimiy stress holati – bolada xavfsizlik hissi shakllanmaydi, u har kuni yangi agressiya yoki tahdidni kutib yashaydi. Bu esa bolalarga juda qattiq ta’sir ko‘rsatadi.

Zo‘ravonlikning bola rivojlanishiga ko‘rsatadigan oqibatlari ko’pincha bolalarda emotsional sohadagi buzilishlarga sabab bo’ladi, doimiy qo‘rquv va xavotirga olib keladi, depressiv kayfiyat yuzaga chiqaradi, o‘zini aybdor sezish, his-tuyg‘ularni boshqarishda qiynalish, keskin affektiv reaksiyalar kabi psixologik holatlar kuzatiladi. Ijtimoiy sohadagi qiyinchiliklarda esa tengdoshlar bilan yaqin munosabat o‘rnatishda qiyinchiliklar, ijtimoiy hayotdan chekinish holatlari, tajovuzkor yoki juda passiv xulqlarni namoy qilishi, boshqa odamlarga ishonmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Intellektual rivojlanishga salbiy ta’sirda zo‘ravonlik sabab bo‘ladigan doimiy ruhiy bosim diqqatning susayishiga, fikrlash jarayonlarining sekinlashishiga va xotira faoliyatining pasayishiga olib keladi. Bunday bolalarda o‘qishga qiziqish kamayadi, dars jarayonida diqqatni jamlash qiyin,bilim o‘zlashtirish darajasi sustlashadi.

Katta yoshga o‘tgach paydo bo‘ladigan oqibatlarda zo‘ravonlik tajribasi o‘sib ulg‘aygan davrda ham shaxsni ta’qib qiladi va barqaror munosabatlarni shakllantirishda qiyinchilik, past o‘zini qadrlash,zo‘ravonlikni me’yor sifatida qabul qilish,travmatik xotiralarning qayta tiklanishi,psixosomatik kasalliklar,depressiya va tashvish sindromlari. Bu holat ko‘pincha kelajak avlodlarga ham o‘tadi. Zo‘ravonlikning “avloddan avlodga o‘tishi” psixologiyada transgeneratsion travma deb ataladi.

Transgeneratsion travma: psixologik mazmun, sabablar va avlodga o‘tish mexanizmlari: Transgeneratsion travma tushunchasi:Transgeneratsion travma — bu bir avlod boshidan kechirgan ruhiy zarba, zo‘ravonlik, qo‘rquv, yo‘qotish yoki doimiy stressning psixologik oqibatlari keyingi avlodlarga ham o‘tishi holatidir. Ya’ni ota-ona yoki bobolar duch kelgan og‘ir emotsional tajribalar bevosita gapirilmasa ham, keyingi avlodlar ruhiyatida va xulqida namoyon bo‘lishi mumkin.Bu hodisa psixologiya, psixoterapiya, neyrobiologiya va sotsiologiya tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, uni “psixologik meros” deb atash ham qabul qilingan.Transgeneratsion travma qaysi holatlarda yuzaga keladi. Travma avloddan avlodga quyidagi holatlarda o‘tishi ehtimoli yuqori: Oilaviy zo‘ravonlik (jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy). Urush yoki majburiy migratsiya. O‘lim, og‘ir yo‘qotishlar.Ota-onaning doimiy qo‘rquv holati.Ota-onaning spirtli ichimlik yoki narkotikga qaramligi.Oila ichidagi keskin janjallar, hissiy beparvolik.Kambag‘allik yoki doimiy iqtisodiy xavfsizliksiz sharoit. Ota-onaning ruhiy kasalliklari. Ota-onaning bolalikdagi travmalari: Bu omillar bola rivojlanishiga bevosita ta’sir qilmasa ham, ularning psixologik “izlari” nasldan naslga o‘tadi.Travmaning avlodga qanday o‘tish mexanizmlari mavjud? Psixologik muloqot va tarbiya orqali o‘tishi.Ota-ona o‘zidagi qo‘rquv, ishonchsizlik, agressivlik yoki beqarorlikni sezmagan holda farzandlariga ko‘chiradi. Masalan:Ota-ona bolaligida zo‘ravonlik ko‘rgan bo‘lsa, kattaligida ham o‘ta talabchan yoki agressiv bo‘lishi mumkin.Onasi doim qo‘rquvda yashagan bo‘lsa, bolasi ham dunyoni xavfli deb qabul qiladi. Oila ichida shakllanadigan xulqiy modellar.Bola avvalo oiladagi xulqni kuzatadi va ichki me’yor sifatida qabul qiladi. Zo‘ravonlik ko‘rgan bola kelajakda juftiga nisbatan zo‘ravon bo‘lishi yoki aksincha, zo‘ravonga aylanmaslik uchun haddan tashqari itoatkor bo‘lishi mumkin.Emotsional muhitning uzluksiz ta’siri: Doimiy stressli, qo‘rqinchli yoki beparvo muhit bolaning asab tizimida “doimiy xavf rejimi”ni shakllantiradi. Bu esa kattaligida ham davom etadi. Epigenetik (biologik) mexanizm;Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, travma ota-ona organizmidagi stressga javob beruvchi gen ifodasini

o‘zgartirishi mumkin. Bu o‘zgarishlar irsiy emas, lekin irsiy tarzda o‘tadigan epigenetik iz sifatida keyingi avlodga o‘tadi.Natijada bola stressga haddan tashqari sezgir bo‘lib tug‘ilishi mumkin.

Psixologik reabilitatsiya va yordam yo‘nalishlari:

-Travma bilan ishlash usullari

-Kognitiv-hulqiy terapiya

-Art-terapiya

-O‘yin terapiyasi

-EMDR texnikasi

-Qumli terapiya (sand-terapiya)

5. Дармодехин С.В., Андреев А.А. Электронное обучение и дистанционные образовательные технологии. – Москва: Академия, 2018. – 240 с.
6. Graham C.R. Blended learning systems: Definition, current trends, and future directions // The Handbook of Blended Learning. – San Francisco: Pfeiffer, 2006. – P. 3–21.
7. Bonk C., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. – San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006. – 624 p.
8. Heinze A., Procter C. Online communication and information technology education // Journal of Information Technology Education. – 2004. – Vol. 3. – P. 115–127.
9. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009. – 320 p.
10. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Pearson Education, 2001. – 480 p.
11. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 270 p.

BLENDED LEARNING MODELIDA MEDIA VOSITALARDAN FOYDALANGAN HOLDA NEMIS TILINI O‘QITISHNING METODIK-DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Faridjon Usmonov Saydullaevich
Chirchiq davlat pedagogika universitetida PhD Mustaqil tadqiqotchi
Pedagog

Bavariya Federal õlkasi Planegg kommunasida Boshlang'ich maktab qoshidagi Kinderhortda pedagog
Email: usmonov@planegg.de
Tel:+49 173 6318818
Telegram: +4917687962300

Annotatsiya: Ushbu maqolada blended learning (aralash ta’lim) modeli asosida media vositalardan foydalanishning nemis tilini o‘qitish jarayonidagi metodik va didaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Video, audio, interaktiv platformalar va raqamli simulyatsiyalarning lingvistik, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirishdagi roli ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. O‘tkazilgan tajriba natijalari blended learning modeli talabalar nutqiy faolligini, eshitib tushunish ko‘nikmalarini va mustaqil o‘rganish motivatsiyasini sezilarli oshirishini namoyon etdi.

Kalit so‘zlar: blended learning, media vositalar, nemis tili, metodika, kommunikativ kompetensiya, interaktiv ta’lim.

Аннотация: В статье анализируются методико-дидактические особенности преподавания немецкого языка с использованием медиасредств в модели blended learning (смешанного обучения). Показано влияние видео-, аудио- и интерактивных ресурсов на формирование лингвистической, коммуникативной и межкультурной компетенций. Результаты эксперимента демонстрируют, что blended learning значительно повышает речевую активность, аудирование и мотивацию учащихся к самостоятельному изучению.

Ключевые слова: смешанное обучение, медиасредства, немецкий язык, методика, коммуникативная компетенция, интерактивность.

Abstract: This article analyzes the methodological and didactic features of teaching German through media tools within the blended learning model. The study highlights the impact of video, audio, and interactive digital resources on the development of linguistic, communicative, and intercultural competences. Experimental findings demonstrate that blended learning significantly enhances learners’ speaking activity, listening comprehension, and motivation for autonomous learning.

Keywords: blended learning, media tools, German language teaching, methodology, communicative competence, interactive learning.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta’lim tizimida yangi metodik yondashuvlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shulardan biri blended learning – an’anaviy auditoriya darslarini raqamli media vositalari bilan uyg‘unlashtirgan ta’lim modeli hisoblanadi. Nemis tilini o‘rgatishda ushbu model tobora ahamiyat kasb etib bormoqda, chunki multimodal axborot (video, audio, grafik, interaktiv topshiriqlar) tilning fonetik, leksik, grammatik va pragmatik jihatlarini chuqur o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — blended learning modelida media vositalardan foydalanishning metodik-didaktik xususiyatlarini ilmiy-empirik asosda aniqlash va nemis tili ta’limida qo‘llash samaradorligini tahlil qilishdir.

Tadqiqot quyidagi metodlar yordamida amalga oshirildi: lingvodidaktik tahlil, pedagogik eksperiment, nazorat va eksperimental guruhlar taqqoslovi, kommunikativ topshiriqlar asosida diagnostika, statistik tahlil.

Eksperiment 48 nafar 1-kurs talabasi ishtirokida 2 oy davomida olib borildi. Media vositalar sifatida Deutsche Welle videolari, Easy German vloglari, podkastlar, dialogli audio materiallar, Quizlet, Kahoot, Duolingo kabi interaktiv platformalar hamda LearningApps asosidagi mashqlar qo‘llanildi. Virtual vaziyatlarni modellashtiruvchi AR simulyatsiyalardan ham foydalanildi.

Pedagogik eksperimentning asosiy yo‘nalishlari “Hören”, “Sprechen”, “Grammatik”, “Landeskunde” komponentlari bo‘yicha shakllantiruvchi ta’lim topshiriqlaridan tashkil qilindi.

Media vositalar asosida tashkil etilgan blended learning modeli quyidagi natijalarni berdi:

1. Eshitib tushunish (Hören) koʻnikmasi 42 % ga yaxshilandi. Autentik videolar va podkastlar talabalar fonetik xususiyatlarni, intonatsiya va nutq ritmini ancha tez oʻzlashtirishiga yordam berdi.
2. Dialogik nutq (Sprechen) 38 % ga oʻsdi. Video-intervyular, rol oʻyinlari, simulyatsion vaziyatlar talabalarni faol muloqotga jalb qildi.
3. Grammatik kompetensiya 29 % ga oshdi. Media asosidagi mashqlar grammatik kategoriyalarni kontekst orqali tabiiy oʻzlashtirish imkonini yaratdi.
4. Madaniyatlararo kompetensiya 55 % ga kuchaydi. Nemis tilida soʻzlashuvchi mamlakatlarning madaniyati bilan bogʻliq videolavhalar Landeskunde yoʻnalishida sezilarli oʻzgarishlar berdi.
5. Mustaqil oʻrganish motivatsiyasi 60 % ga oshdi. Talabalar mobil ilovalardan darsdan tashqari vaqtda mustaqil foydalanishni davom ettirdilar.

Nazorat guruhida esa umumiy oʻsish atigi 8–12 % atrofida boʻldi. Bu blended learning modelining sezilarli ustunlikka ega ekanini koʻrsatadi.

Blended learning modeli media vositalar yordamida oʻqitish samaradorligini oshirishda quyidagi didaktik imkoniyatlarni taqdim etdi:

8. Multimodal yondashuv oʻquv materialining vizual, audio va interaktiv shakllarda berilishini ta’minlab, tilni chuqur oʻzlashtirishga yordam berdi.

9. Shaxsiylashtirilgan ta’lim har bir talabaning oʻz tezligida va oʻziga maqul materiallar orqali oʻrganishiga imkon yaratdi.

10. Autentik nutq namunalaridan foydalanish pragmatik kompetensiyani sezilarli darajada rivojlantirdi.

11. Motivatsiyaning kuchayishi oʻyinlashtirish komponentlari orqali mustaqil oʻrganishga ijobiy ta’sir koʻrsatdi.

12. Interaktivlik real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish, muloqotga kirishish, rollarni bajarish imkonini berdi.

Blended learning modelida media vositalardan foydalanish nemis tili ta’limining mazmuni va shaklini tubdan yangilash imkonini beradi. An’anaviy auditoriya mashgʻulotlari bilan onlayn va multimodal resurslarning uygʻunlashuvi natijasida tilni oʻrgatish jarayoni koʻproq kommunikativ, interaktiv va talaba shaxsiga yoʻnaltirilgan tus oladi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, media vositalar (video, audio, interaktiv platformalar, virtual simulyatsiyalar) oʻquv materialini koʻrgazmali, jonli va kontekstual koʻrinishda taqdim etish orqali talabaning idrokini faollashtiradi, til birliklarini yodlash emas, balki mazmuniy anglash va real nutqiy vaziyatda qoʻllashga undaydi.

Eshitib tushunish va talaffuz koʻnikmalarining sezilarli yaxshilanishi, eng avvalo, autentik audio va video materiallarning muntazam qoʻllanilishi bilan bogʻliq. Talabalar nemis tilidagi tabiiy nutqni turli tezlik, turli dialekt va uslubiy qatlamlarda eshitish orqali fonetik va intonatsion xususiyatlarni real muloqot sharoitiga yaqin shaklda oʻzlashtiradilar. Bu esa nafaqat laboratoriya sharoitida “toʻgʻri talaffuz”ni, balki haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda zarur boʻladigan eshitish sezgirligi va talaffuz moslashuvchanligini ham shakllantiradi.

Dialogik va monologik nutq faolligining oshishi blended learning modelida oʻquvchi subyektiv faolligining kuchayishi bilan izohlanadi. Media vositalar asosida tashkil etilgan rol oʻyinlari, videointervyular, keyslar va vaziyatli simulyatsiyalar talabalarni “darsni tinglovchi” emas, balki “muloqot ishtirokchisi” maqomiga olib chiqadi. Natijada talabalar bir tomondan til materialini qoʻllashga majbur boʻlgan kommunikativ vaziyatga kirishadi, ikkinchi tomondan, oʻz fikrini mustaqil shakllantirish, savol berish, bahslashish, mulohazalarni himoya qilish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayon, oʻz navbatida, matn yaratish kompetensiyasini ham bosqichma-bosqich mustahkamlaydi.

Grammatik va leksik kompetensiyalarning kontekstda mustahkamlanishi blended learningning muhim didaktik yutugʻi sifatida namoyon boʻladi. Grammatik qoidalar va yangi

leksik birliklar alohida, abstrakt tizim sifatida emas, balki video сюжет, dialog, interaktiv mashq yoki loyiha topshirig‘i tarkibida “ishlaydigan vosita” sifatida o‘zlashtiriladi. Bunday yondashuvda talabalar qoidani yodlashdan ko‘ra, ma’lum kommunikativ vazifani bajarish uchun qaysi konstruksiya samaraliroq ekanini sezish va amaliy sinab ko‘rish orqali o‘rganadilar. Shuning uchun ham til tizimi bo‘yicha bilimlar mustahkamroq, moslashuvchanroq va faol qo‘llaniladigan holatga keladi.

Madaniyatlararo kompetensiyaning ancha kengayishi shuni ko‘rsatadiki, media vositalar nafaqat tilni, balki til ortidagi madaniyatni ham o‘rgatishning kuchli instrumentiga aylanadi. Nemis tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarning kundalik hayoti, urf-odati, ijtimoiy munosabatlari, kasbiy muloqot uslublari aks etgan videolavhalar talabaning tasavvurini boyitadi, stereotiplarni kamaytiradi va boshqa madaniyatga nisbatan tolerantlik, ochiqlik va tushunish holatini shakllantiradi. Bu esa zamonaviy til ta’limida alohida e’tibor qaratilayotgan madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining real mazmun bilan to‘ldirilishiga xizmat qiladi.

Talabalarning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasining ortishi blended learningning eng muhim natijalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida talaba darsdan tashqari vaqtda ham til bilan shug‘ullanish, o‘z tempida mashq qilish, o‘z natijasini kuzatish va tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim (self-directed learning) ko‘nikmalarini rivojlantirib, umrbod ta’lim (lifelong learning) tamoyillariga mos kompetensiyalarni shakllantiradi.

Umuman olganda, blended learning modelida media vositalardan foydalanish nemis tili ta’limini faqat “grammatika va tarjima”ga tayangan an’anaviy formatdan chiqarib, uni real kommunikativ faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, madaniyatlararo va raqamli kompetensiyalar integratsiyasiga asoslangan tizimga aylantiradi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari mazkur modelni nemis tili ta’limining innovatsion, raqamli va kommunikativ jihatdan boyitilgan didaktik modeli sifatida tavsiya etish imkonini beradi. Shuningdek, u oliy ta’lim muassasalari, til markazlari va o‘quv kurslari uchun amaliy joriy etilishi mumkin bo‘lgan metodik yechim sifatida qaralishi, kelgusida boshqa chet tillari ta’limiga transfer qilish imkoniyatiga ham ega ekani bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

12. Bersin T. Blended Learning: Models and Best Practices. — New York: Wiley, 2017. — 286 p.
13. Dudeney G., Hockly N. Digital Literacies. — London: Pearson Education, 2016. — 240 p.
14. Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2002. — 112 p.
15. Mayer R. Multimedia Learning. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009. — 321 p.
16. Redecker C. Innovating Education and Learning: The Digital Competence Framework. — Luxembourg: EU Publications, 2018. — 64 p.
17. Thorne K. Blended Learning Handbook. — London: Kogan Page, 2019. — 198 p.
18. Deutsche Welle. Lernmaterialien für Deutschlernende. — Berlin: DW Verlag, 2020.

SHAXS PSIXOLOGIYASI KONTEKSTIDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA UNING INTERPERSONAL MUNOSABATLARDAGI ROLI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Abduqodirova Marjonaxon Sherzodbek qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs psixologiyasi kontekstida emotsional intellekt va uning interpersonal munosabatlardagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida emotsional intellektning asosiy komponentlari — o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar — batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqolada shaxsning emotsional qobiliyatlari va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, EI darajasining interpersonal munosabatlar sifatiga ta’siri psixologik nuqtai nazardan baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional intellekt shaxsning ijtimoiy moslashuvi, stressni boshqarish va nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, EI past bo‘lgan shaxslar hissiy reaktivligi yuqori, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidan yetarlicha foydalana olmaydi va munosabatlarda mojarolarga duch kelish ehtimoli oshadi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shaxs taraqqiyotini ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilishda, pedagogik va psixologik amaliyotda EIni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, shaxs psixologiyasi, interpersonal munosabatlar, ijtimoiy moslashuv, empatiya, hissiy boshqaruv, psixologik ko‘nikmalar.

Shaxs psixologiyasida emotsional intellekt (EI) insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va boshqa odamlar bilan samarali ijtimoiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyati sifatida aniqlanadi. Bugungi tezkor va murakkab ijtimoiy muhitda EI insonning nafaqat shaxsiy farovonligi, balki kasbiy muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional intellektga ega bo‘lgan shaxslar boshqalar bilan muloqotda samimiylik, hamkorlik va nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini namoyon etadi. Shu bilan birga, EI past bo‘lgan shaxslar stress, ijtimoiy tushunmovchilik va munosabatlarda mojarolarga ko‘proq duch keladi.

Nazariy asoslar

Emotsional intellekt nazariy jihatdan salbiy va ijobiy hissiy holatlarni idrok etish, his-tuyg‘ularni boshqarish va ularni ijtimoiy vaziyatlarga moslashda qo‘llash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Daniel Goleman EI ni besh asosiy komponentga ajratadi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar. Ushbu komponentlar shaxsning interpersonal munosabatlarini shakllantirishda va ijtimoiy integratsiyasida asosiy rol o‘ynaydi.

Shaxs psixologiyasi nuqtai nazaridan, emotsional intellektning rivojlanishi bolalikdan boshlab boshlanadi va ontogenez davomida ijtimoiy muhit, oila va ta’lim jarayonlari orqali mustahkamlanadi. Shaxsning emotsional qobiliyatlari uning ijtimoiy muhit bilan samarali aloqada bo‘lishi, ijobiy ijtimoiy tajriba orttirishi va konfliktlarni konstruktiv hal qilishi uchun zarurdir.

Interpersonal munosabatlar — shaxsning jamiyat bilan aloqasidagi asosiy shakl bo‘lib, u emotsional intellekt orqali muvofiqlashtiriladi. EI yuqori bo‘lgan shaxslar boshqalarning his-tuyg‘ularini sezish, ular bilan samarali muloqot qilish va nizolarni hal qilishda yuqori ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, EI past bo‘lgan shaxslar stressga chidamsiz, hissiy reaktsiyalari tartibsiz va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidan yetarlicha foydalana olmaydi.

Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt darajasi shaxsning ijtimoiy moslashuvi, professional samaradorligi va shaxsiy munosabatlarining sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, EIni rivojlantirish pedagogik va psixologik jarayonlarda muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa o`rnida shaxs psixologiyasi kontekstida emotsional intellekt shaxsning ichki psixologik jarayonlarini ijtimoiy kontekst bilan uyg‘unlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. EI shaxsning o‘zini anglash, hissiy holatlarni boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va konstruktiv interpersonal munosabatlarni o‘rnatish qobiliyatini shakllantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional intellekt shaxsning stressni yengish, nizolarni hal qilish va samarali ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli, pedagogik va psixologik amaliyotlarda EIni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish

shaxsning ijtimoiy, professional va shaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

AYOLLARNING TIL VA MULOQOT STRATEGIYALARI: MUROJAAT BIRLIKLARINING PSIXOLOGIK ROLI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Adaxamjonov Muxriddin Muxiddin o`g`li

Annotatsiya: Ushbu kichik tadqiqot ishimizda nutq ma’daniyati me’yorlari va ularning amaliy ifodasini ayollar nutqidagi ayrim jihatlari, murojaat birliklarining konnotativ vazifasi tahlil qilindi. Aayollar nutqida yuzaga keluvchi murojaat shakllari ularning ruhiy holati bilan ham bevosita bog’langan holatlari o’rganildi.

Kalit so’zlar: nutq, vazifaviylik, til elementlari, nutqiy yakdillik, ayollar nutqi, ruhiy holat, konnotativ ma’no, semantika.

Kishilarning ijtimoiy faoliyatini nutqsiz mutlaqo tasavvur qilib bo’lmaydi. Bu faoliyatning turli sohalarida, turli sharoitlarda, turli maqsadlar bilan nutq o’ziga xos tarzda ishtirok etadi. Bu nutq o’ziga xos jozibador shakllarga ham ega bo’ladi. Xususan, nutq jarayonidagi murojaat shakillari orqali ham ma’lum ma’no qirralari yuzaga keladi.

Murojaat birligi kishilarning muloqot kishilari, muloqot sub’ektlari orasida aloqa o’rnatish tomonlarni yaxlit muloqot jarayoniga birlashtirish uchun xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri bo’lib, u “so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi ijtimoiy munosobatlarni ko’rsatuvchi indikator”, “nominativ indekslovchi (ko’rsatuvchi) belgi hamda diskurs operatori”, “gapning semantik strukturasidan o’rin olgan tinglovchini ko’rsatuvchi sintaktik diterminant” hisoblanadi. [7]

Ayollar so’zlashuv nutqida ham murojaat birliklari qo’llaniladi. Bu murojaat birliklari muloqot jarayonida tez-tez ishlatilib, doimiylik belgisiga ega bo’lib nutqda turli xil vazifalarni bajarib keladi. Xususan, konnotativ vazifani ya’ni ayollarning o’z tinglovchisiga yoki muloqotdoshiga nisbatan shaxsiy-sub’ektiv munosobatini hurmat-e’tibor, yaqinlik, erkalash, g’azab, nafrat, do’q-po’pisa, haqorat va achinish kabi salbiy va ijobiy munosobatlarni ifodalab keladi. Bunday leksik birliklar ma’nosini baholashda uslubiy komponentlar yordamida konnatativ ma’no hosil qilinadi. Masalan: A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romaniga e’tibor qaratadigan bo’lsak O’zbek- oyimning murojaatiga e’tibor qaratamiz. “*O’zbek oyimning rangi o’chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho’michni piyolaga urib dodi faryod: “Siz otamisiz, nimasiz axir, o’g’lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? .... Bu kalvak o’g’lingiz Marg’ilonlikning eshigida qul bo’lib yotib oladi”* ushbu gapda O’zbek- oyimning nutqida Yusufbek hojiga o’z murojaati orqali “g’azab” munosobati ifodalangan, yoki bo’lmasa, *“Oftoboyimni yupatish, o’tkan ketganda va boshda yig’lab erga tekkan qizlarning chimildiqda yigit bilan opoq-chapoq bo’lishib xikoya qildi: - Qayg’urma, Oftob, - dedi, - kuyoving bunchalik suluv bo’lsa, gap so’zda tengi bo’lmasa, xali chimildikda qizing pechak guldek bo’lib eriga chirmashganini ko’ramiz”* ushbu gapda uchrovchi murojaat shakli, asarda ismi ko’rsatilmagan ayol tilidan bayon qilingan va “tasalli berish” munosobatini ifodalab kelgan.

Asosan, ayollar nutqida yuzaga keluvchi murojaat shakllari ularning ruhiy holati bilan ham bevosita bog’langan bo’lib, nutq vaziyatidagi holatiga aloqador sanaladi. “O’tkan kunlar” romanidagi “To’y. Qizlar majlisi” bobida qizlar shod- xurram, kuy-qo’shiq avjida, hamma xursand holatda, *“...bu keyingi baytga quloq solguvchi qolmadi, chunki yonidagi qizga osilib yig’lay boshlag’an Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko’zi, qulog’i shunda edi. – Nima bo’ldi, Kumush? – Nega yig’laysiz, Kumush opa? – Biror joying og’riydirmi, Kumush?”* Ushbu

[7] Н.Ахмедова. Мурожаат бирликларининг вазифалари. Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами №2) Тошкент 2008. Б 93.

Kumushning dugonalari tomonidan bayon qilingan murojaat shakllariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ular shodon holatda (birinchi murojaat shakliga ko’ra) “xayrat” munosobatini namoyon qilgan, so’ng ikkinchi qiz bunga “xayrat” munosobatini emas (ikkinchi murojaat shakliga ko’ra), balki “taajjub” munosobatni namoyon qiladi, (uchinchi murojaat shakliga ko’ra) esa “ikkilanish, ajablanish” munosobati ifodalanadi. Yoki bu holatga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “*Egrilikka olmang, Zaynab, - dedi Kumush, - men bu gapni yonimda erim bo’lg’anda kirma deb, aytmadim, balki boyag’i so’zimning isboti uchun aytdim...”* ushbu gapda esa “kesatiq” munosobatini ifodasini ko’rishimiz mumkin.

Murojaat shakllari yordamida nutqiy aloqa o’rnatiladi, so’zlovchi tinglovchiga nimanidir aytish imkoniga ega bo’ladi. Tinglovchi va so’zlovchi orasidagi munosobatni ham ifodalab keladi. “*Quralay mexmonxonadagi divanda bir xol bo’lib yotgan onasiga mayus termuldi? -Oyijon, tuzukmisiz? Sizga nima bo’ldi? Necha marta aytaman, uy yumushlarini nevaralaringizga qildiring, deb*” (N.Shofayziyeva) .Yuqoridagi murojaat birligi orqali ham “achinish” munosobati yuzaga kelgan yoki bu holatga e’tibor qaratsak, “*-Xov, tekinxo’r, oldin molxonani tozalab chiq, keyin yalpayib o’tirib choy ichaverasan*” (N.Shofayziyeva). Bu holatda esa “kamsitish,buyruq” ma’nosi namoyon bo’lgan.

Xulosa o’rnida shuni aytib o’tish mumkunki, murojaat birligi shunday nutqiy vositaki u nafaqat, “aloqani o’rnatish”, balki “aloqani ushlab turish, mustahkamlash, davomiyligini ta’minlash” vazifasini ham bajarib keladi. Ayniqsa, ayollar nutqida murojaat birliklari qo’llanilib voqelikni obrazlilik, ekspressivlik, emotsionallik kabi konnotativ ma’nolari bilan boyitadi, ta’sir kuchini oshiradi. Nafaqat ayollar nutqida, balki erkaklar nutqida ham qo’llanilib qo’shimcha ma’no tashish vazifasini bajaradi yani dennotativ ma’no ustiga yuklangan konnatativ ma’no hosil qilinadi. Ayollar nutqida esa bu holat ko’proq kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Begmatov. Nutq madaniyati tushunchasi haqida // O`zbek tili va adabiyoti, 1975.- № 5.
2. Nutq madaniyatiga oid (maqolalar to`plami).-Toshkent,1973-y.
3. S.Inomxo`jayev. Notiqlik san`ati asoslari.- Toshkent, 1982-y.
4. B.N.Golovin. Odatiy nutq va nutq madaniyati me’yorlari.- Moskva, 1980-y.
5. R.Jumaniyozov O`quvchilarning nutq madaniyati haqida.- Toshkent, 1957
6. D.E.Rozental. So’zlashuv madaniyati.- Moskva, 1964-y.

BOSHLANG‘ICH TA`LIMDA O`QUV JARAYONING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Mamadaliyeva Sevinch Mirzaolim qizi,
Chirmasheva Nilufar Muhtorjon qizi, To`xtasinova
Irodaxon To`raboy qizi Andijon davlat universiteti
Amaliy psixologiya yo`nalishi talabalari

Talim jarayonida ixtiyorsiz diqqatning o`sish uchun muhim shart- sharoitlar mavjuddir. Boshlang`ich sinf o`quv materiallarining yaqqolligi, yorqinligi, jozibadorligi o`quvchida beixtiyor his- tuyg`ular uyg`otadi. Irodaviy zo`riqishsiz osongina fan asoslarini egallash imkonini yaratadi. O`quv materiallarining turli-tumanligi ixtiyorsiz diqqatning to`planishi, markazlashuvi va barqarorligiga ijobiy tasir etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o`qitishda ko`rsatmaliliklardan keng foydalaniladi. Bu tadbir birinchidan bolalar faolligini oshirsa, ikkinchidan materialni mantiqiy jihatdan o`zlashtirishga, uni tahlil etish mavhumlashtirish va umumlashtirishga to`sqinlik qiladi. Ularda ko`rsatmalilikka asoslangan dinamik stereotip paydo bo`lishiham mumkin.. Bolaning ko`rsatmalilikka berilib ketishi uni asosiy maqsaddan uzoqlashtiriladi, bola tashqi belgilarga etibor berishga odatlanib, muhim belgilardan chetlasha boradi. Ma'lumk ixtiyorsiz diqqat ta'lim jarayonida o`quvchilarning qiziqishi bilan bevosita bog`lanib ketsa, tabiiyki, ular

faqat maroqli, quvonchli axborot va matnlar bilan tanishishga intiladigan bo`lib, qoladilar. Natijada o`ta nozik, ya'ni tashqi qo`zg`atuvchilar ta'siriga beriluvchi diqqat ularning psixikasida mustaxkamlanadi. Odatlanish murakkab o`quv materiallarini egallashda qiyinchiliklar tug`diradi. Shuning uchun K.D.Ushinskiy bolani faqat o`zini qiziqtirgan narsa bilan emas balki uni qiziqtirgan narsa bilan ham shug`ullanishga o`rgating, bola o`z burchini bajarishdan qanoatlanish uchun ishlaydigan bo`lsin, deb uqtirgan edi. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari diqqatining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning etarlicha barqaror emasligidir. Shuning uchun ular diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va ob'ektda uzoqroq kuta olmaydilar. Bunda tormozlanish o`zaro nomunofiq harakat qiladi. O`qish mashg`ulotlarida tutilish to`xtab qolish, qiroat suratning kamayishi, tovushlarning tebranishi va pasayishi ba'zida xarf, ibora gaplar tushib qolishi xollari ana shu fizologik mexanizm ta'sirida paydo bo`ladi. Qator tadqiqotlar birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari darsda faqat 30-35 daqiqa diqqat bilan o`tirishi o`z diqqatini muayyan obektga to`plashi va unda ushlab turishi mumkinligini ko`rsatadi. Shuning uchun mashg`ulotlarda qisqa tanafuslar o`tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Professor N.F.Dobrenin: «3-4 sinf o`quvchilari o`z diqqatlarinibutun bir dars davomida saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham qisqa tanafuslar foydalidir. Shuningdek vaqti vaqti bilan mashg`ulotning turini almashtirib, suratini o`zgartirib turish, amaliy va nazariy ma'lumotlarni qo`shib olib borish lozim», - deydi. O`quvchilar diqqatining xususiyati ko`proq mashg`ulotning suratiga bog`liqdir. Masalan: mashg`ulot suratining o`rta tezligi yoki xaddan tashqari sustligi diqqatning barqarorligi va to`planishiga salbiy ta'sir etadi.

O`quv mashg`ulotlarning o`rtacha suratida o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Ta'lim jarayoni kchik maktab yoshidagi o`quvchilarning ixtiyoriy barqaror, mustaxkam, kuchli, to`planuvchan, taqsimlanuvchan, faol, ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart sharoit yaratadi. Bilim olish uchun mustaqil aqliy mehnat qilish, misol va masalalar echish, mashqlarni bajarish takrorlash irodaviy zo`r berishda ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. Shuningdek, uning eng zo`r xususiyatlari takomillashadi bu esa ongli boshqarish imkoniyatini beradi. Bolalarning diqqati o`qish faoliyatiga doim maqsadga muvofiq, ishtimoiy motivlar hamda ularda paydo bo`layotgan yangi xislari (ma'suliyatlilik, javobgarlik, uyalish xislari) bilan bir paytda rivojlanadi. Bu yoshdagi bolada ixtiyoriy diqqatni jamlash, tashkil qilish, zarur bo`lsa uni taqsimlash tashqi kuzatuvchanlikni qarshiligini engib ongli ravshda boshqariluvchi bolsharish uquvi shakillana boshlaydi. Kichik maktab yoshidagi o`quvchilar xotirasining eng muxum xususiyatlaridan biri-so`z mantiq xotirasi va ma'nosiga tushunib eslab qolish salmog`ining ortishidir. O`quvchi o`z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatining maqsadga muvofiqlashtirish imkoniyatlariga ega bo`ladi.

Yuqorida aytilganlik birinchi signal sistemasini ikkinchi sistemasidan birmuncha ustunligi tufayli o`quvchilarda mantiqiy xotiradan ko`ra ko`rsatmali – xarakatli xotira muximroq rol o`ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko`ra yaqqol ma'lumotlar. Axborotlar voqea va xodisalarni obrazlar va narsalarni tezroq va mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o`quvchilari ta'limiy materiallarning ichki bog`lanishiga axamiyat bermay ma'nosiga tushunmay, quruq eslab qoladilar.

O`rganilayotgan materiallarni mantiqiy taxlil qilmay, yodaki o`zlashtiradi. Buning sabablari:

1) Ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlanganligi ma'lumotlarni aynan o`zgarishsiz eslab qolish, imkonini yaratadi.

2) O`quvchilar o`qituvchi qo`ygan vazifani anglab etmaydilar natijada uning «to`g`ri tushintirib ber» degan ta'labini so`zma so`z takrorlash deb biladilar.

3) Ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonunlarini bilmasligi) materialni ijodiy to`ldirish, unga ko`pincha qilish imkoniyati yo`qligi uni so`zmaso`z qaytarishni osonlashtiradi.

4) o`quvchilar matnni to`g`ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydi. A.A.S. eslab qolishning to`g`ri usuli sifatida matndagi manodor so`zlarni guruhlarga ajratish tayanch nuqtani

topish so`zlab berish uchun reja tuzish va o`tilgan mavzularni idrok etilgani xolda yangi mavzuni takrorlashni tavsiya qiladi.

UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGLARNING VAZIFALARI VA MUAMMOLARI

Sobirova Dildora Biloldin qizi,
Mahmudova Gulira`no O`rmonali qizi
Andijon Davlat Universiteti Amaliy
psixologiya yo`nalishi 3-bosqich talabalari

Bugungi kunda jamiyatimizning barcha sohalarida turli ko‘rinishdagi islohotlar olib borilmoqda. Shu jumladan psixologlarimiz faoliyatida ham sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishida va o‘sib kelayotgan yosh avlodning psixologik rivojlanishida maktab amaliyotchi psixologlarining o‘rni muhim sanaladi. Maktabda faoliyat olib borayotgan psixologlarimizning oldiga bir qancha vazifalar qo‘yilgan. Bular:

• ta'lim jarayoni subyektlarining shaxsiy (individual) psixologik xususiyatlarini o‘rganish;

• o‘quvchilarning ruhiy holatini o‘rganish;

• o‘quvchilarning ijtimoiy yetuklik va kasbiy ahamiyatga molik sifatlarining rivojlanishini kuzatish;

• o‘quvchilarni kasbiy ta'limga psixologik-pedagogik tayyorgarligini aniqlash;

• o‘quvchilarning intellektual va shaxs sifatida rivojlanishidagi nuqsonlarning psixologik sabablarini aniqlash;

• o‘quvchilarning kasbiy qobiliyati, ko‘nikma, malakalari va tanlagan kasbiga munosabatini aniqlash — kabi bir nechta vazifalarni keltirishimiz mumkin.

Ta'lim tizimida mazkur vazifalarning uzviy va uzluksiz bog‘liqligi ijtimoiy psixologik xizmat mazmunining yaxlitligini ta'minlaydi. Yuqoridagi ko‘rsatilgan vazifalardan tashqari, psixolog kompyuter texnologiyalaridan foydalana olishi, hozirgi davrda jamiyatda sodir bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi, huquqiy bilimlarini oshirib borishi lozim. Inson qaysi kasb-hunar egasi bo‘lishidan qat'i nazar, Prezidentimiz aytganlaridek, avvalo fidoyi va sadoqatli bo‘lishi lozim. Xuddi shunday psixolog ham o‘z ishini vijdonan bajarsa, albatta o‘z mijozlari qalbidan munosib o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda psixologlarning bir qancha muammolari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda tegishli rahbar mutaxassislar ushbu muammolarni atroflicha o‘rganib chiqmoqdalar. Quyida psixologlarimizning bir qancha muammolarini keltiraman:

ta'lim muassasasidagi rahbarlar psixologlarning mashaqqatli mehnatlarini qadrlamasliklari, psixologlarga vakolatidan tashqari bo‘lgan vazifalarni yuklashi;

psixologlarning samarali mehnatlari jamoa orasida e'tirof etilmasligi;

psixologlarning joriy qilgan innovatsion g‘oyalarini ommalashtirishda maktab rahbarlarining e'tiborsiz bo‘lishi;

psixologlarni moddiy va ma'naviy qo‘llab-quvvatlamaslik;

ota-onalarning va pedagoglarning psixolog bilan hamkorligining sustligi;

viloyat, shahar va tuman hokimlarining psixolog faoliyatiga bo‘lgan e'tibor va e'tirofning deyarli yo‘qligi;

psixologlarimizning chet el psixolog mutaxassislari bilan uzviy hamkorlikning mavjud emasligi;

voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikning ortib borishi;

suitsidning (o‘z joniga qasd qilish) yosh ko‘rsatkichlarining yosharib borishi;

«ommaviy madaniyat»ning yoshlar ongiga salbiy ta'siri;

o‘smir, o‘spirin va o‘rta yoshlilarning «virtual» olamga ko‘p vaqt sarflashlari va undan oqilona foydalana olmaslik — kabi bir qancha muammolar borki, bunday muammolarni bartaraf etishda huquq-tartibot xodimlarining amaliy yordamlariga ehtiyoj seziladi.

Agar kelgusida ana shunday muammolar hal qilinishi uchun targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilib, kerakli chora-tadbirlar ishlab chiqilib amaliyotga keng joriy qilinsa, psixologlarimiz yuqorida qayd etilgan vazifalarni mas’uliyat bilan yondashib, amalga oshirishda ancha faollashadilar.

PSIXOLOGIK TA`LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINIG INTEGRATSIYASI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Ergashev Xojimurod lxomjon o`g`li

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy psixologik ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi, ularning o‘qitish samaradorligi, interfaol metodlarni rivojlantirishdagi o‘rni va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Psixologiya fanini o‘qitishda masofaviy ta’lim vositalari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, multimedia va vizual simulyatsiyalarning imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu vositalarning didaktik samaradorligi, talabaning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasiga ta’siri, psixologik ko‘nikmalarni shakllantirishdagi afzalliklari hamda mavjud cheklovlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik ta’lim, AKT, raqamli pedagogika, sun’iy intellekt, masofaviy o‘qitish, ta’lim texnologiyalari.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Psixologik fanlar, ayniqsa, amaliy yondashuv va emotsional intellektni rivojlantirishni talab qiluvchi yo‘nalish sifatida, interaktiv va texnologik yechimlarga muhtoj. AKTning ta’lim jarayoniga jadal kirib kelishi psixologik ta’limda yangi metodlar, yangi vositalar va yondashuvlarning shakllanishiga turtki bo‘ldi. Ushbu maqolada psixologik ta’limda AKT integratsiyasining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Psixologik fanlar o‘rganishda bilimni chuqur anglash, shaxsiy refleksiya va eksperimental yondashuv muhim hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ushbu jihatlar quyidagicha qo‘llab-quvvatlanadi:

- Talabaga yo‘naltirilgan individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish.
- Onlayn platformalarda psixologik test va diagnostika vositalarini sinovdan o‘tkazish.
- O‘z-o‘zini tahlil qilishga yordam beruvchi mobil ilovalar orqali reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirish.

Sun’iy intellekt (SI) yordamida o‘quvchi faoliyatini doimiy monitoring qilish, uning psixologik holatini tahlil qilish va didaktik materiallarni avtomatik tarzda moslashtirish imkoniyati mavjud. Masalan:

- Talabaning faolligi, javoblari va ishtiroki asosida o‘quv kontentini moslashtirish.
- Emotsional holatni yuz ifodasi yoki matnli yozuvlar orqali aniqlovchi tizimlar.
- Chatbotlar yordamida virtual konsultatsiya va trening mashg‘ulotlarini tashkil qilish.

Psixologik ta’limda aralash (blended learning) yondashuvi talaba mustaqil va interaktiv o‘rganishini uyg‘unlashtiradi. Masofaviy darslar Zoom, MS Teams, Google Meet kabi platformalarda tashkil etilib, muhokama, rolli o‘yinlar, videoanaliz kabi usullar bilan boyitiladi. Shu bilan birga:

- Raqamli o‘quv materiallari (prezentatsiyalar, elektron kitoblar, psixo-video tajribalar) o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi.

- Onlayn testlar yordamida tezkor va avtomatik baholash tizimi shakllanadi.

- Forumlar va virtual guruhlar orqali ijtimoiy-psixologik munosabatlarni shakllantirish mumkin.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar psixologik ta’limda AKT vositalarining quyidagi natijalarni berganini ko‘rsatmoqda:

- Talabalar o‘quv motivatsiyasi 25-30% ga oshgan.

- Virtual laboratoriyalar orqali eksperimentlarni qayta-qayta sinovdan o‘tkazish imkoniyati o‘zlashtirish darajasini oshirgan.

- O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida “Raqamli psixologiya” kurslarining joriy etilishi yangi metodik materiallar yaratishga turtki bo‘lmoqda. Kelajakda sun’iy intellekt yordamida individual ruhiy salomatlik monitoringi, virtual amaliyotlar, va gamifikatsiyalashgan ta’lim resurslarining yaratilishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning bir nechta oliy ta’lim muassasalarida virtual laboratoriyalar o‘rnatilgan, masalan, Pavlovning shartli refleks tajribasi. Ushbu tajriba talabalar uchun 3D virtual muhitda mavjud bo‘lib, ular sun’iy muhitda eksperimentlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, talabalar virtual laboratoriya orqali Pavlovning itlarida ovozli signal va ovqat bilan bog‘liq shartli refleksni qanday rivojlantirishini ko‘rishadi va tajribani sinovdan o‘tkazishadi. Bu metod talabalar uchun amaliyotni o‘rganishning samarali va xavfsiz usulini ta’minlaydi.

COVID-19 pandemiyasi davomida psixologlar masofaviy platformalarda, masalan, Zoom va Google Meet orqali onlayn maslahatlashuvlarni amalga oshirdilar. Bunda, psixologik maslahat olish uchun geografik joylashuvdan qat’i nazar, har qanday talaba yoki mijoz maslahatga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Masalan, bir necha yillar davomida psixologik yordamga ehtiyoji bo‘lgan, ammo qishloqlarda yashovchi odamlar uchun bunday xizmatlarning mavjudligi yangi imkoniyatlar yaratdi.

Masofaviy ta’lim tizimida sun’iy intellekt yordamida emotsional holatni tahlil qilish tizimlari qo‘llanilmoqda. Masalan, talabaning videodarslar yoki forumlardagi yozuvlari asosida, sun’iy intellekt tizimi uning kayfiyatini aniqlaydi. Bu tizim talabalarni ma’lum bir psixologik xususiyatlarga ko‘ra tahlil qiladi va o‘qituvchilarga talabalarning motivatsiyasini va o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan qilib rivojlantirishga xizmat qiladi. Google,Classroom va Moodle kabi platformalarda talabalar uchun interaktiv materiallar, video darslar, testlar va forumlar taqdim etiladi. Bu platformalarda talabalar shaxsiy bilim darajalariga mos ravishda masalalarni yechishlari mumkin. Misol sifatida, bir talabaga murakkab psixologik masalalar berilishi mumkin, va tizim uning javoblariga qarab, yanada qiyinroq yoki osonroq materiallarni taklif qiladi. Adaptive learning (moslashuvchan o‘qitish) tizimi orqali har bir talaba uchun o‘qitish jarayoni individual ravishda optimallashtiriladi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyasi psixologik ta’limda keng qo‘llaniladi. Misol uchun, talabalarga psixologik ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun onlayn o‘yinlar va simulatsiyalar taklif qilinadi. Masalan, Freydning psixoanalitik nazariyasini o‘rganish uchun talaba o‘zini psixoanalitik sifatida tasavvur qilib, real shaxslarni tahlil qiladi, va ballar to‘playdi. Bu jarayon talabaning o‘rganish motivatsiyasini oshiradi va yanada faolroq ishtirok etishiga yordam beradi.

Big Five yoki MBTI kabi psixologik testlar hozirda onlayn tarzda talabalar tomonidan bajariladi. Talabalar, o‘z vaqtida va onlayn tarzda psixologik testlarni topshirib, ularning shaxsiy xususiyatlari haqida to‘liq ma'lumot olishlari mumkin. Bu testlar real vaqt rejimida natijalarni avtomatik tahlil qiladi va natijalarni to‘g‘ri shakllantirilgan interaktiv hisobotlarda ko‘rsatadi. Masalan, bir talabaga kayfiyat va motivatsiya darajasi haqida tahlil berilib, uning psixologik salomatligi va ta’limga bo‘lgan yondashuvi haqida tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Psixologik ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) samarali integratsiyasi o‘quv jarayonini nafaqat interaktivlashtiradi, balki talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ham sezilarli darajada yordam beradi. Bu jarayon talabalarni tahliliy fikrlashga, diagnostika ko‘nikmalarini rivojlantirishga, hamda axborot bilan ishlash madaniyatini oshirishga

yo‘naltiradi. AKT, masalan, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi tizimlar va interaktiv platformalar orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliyotga tadbiq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, masofaviy ta’lim va onlayn testlar orqali talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘quv materiallarini samarali va individual ravishda taqdim etish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Biroq, AKT asosidagi psixologik ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir qancha muhim omillar mavjud. Birinchidan, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish zarur. Bu o‘qituvchilarga texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali qo‘llashda yordam beradi. Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida texnologik infratuzilmani kengaytirish va doimiy yangilab borish talab etiladi. Uchinchidan, o‘qitish uslubi va metodikasi ham yangilanishi kerak, bu o‘qituvchilarni yangi texnologiyalardan samarali foydalangan holda o‘quv jarayonini yuksaltirishga imkon beradi. Shunday qilib, AKT asosidagi ta’limning muvaffaqiyati o‘qituvchilar, talaba va texnologik infratuzilma o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

Abdullayeva, Z. (2021). Raqamli pedagogika asoslari va ularni oliy ta’limda qo‘llash yo‘llari. Toshkent: TDPU nashriyoti.

Qodirova, M. (2022). "Psixologik ta’limda axborot texnologiyalarining integratsiyasi: tajriba va tahlil". Psixologiya va hayot, №2, 35–41.

Xolmatova, L., & Jo‘rayev, O. (2021). "Masofaviy ta’limning afzallik va kamchiliklari". Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, №3, 27–30.

G‘ulomova, D. (2022). Psixologik fanlarni o‘qitishda vizual va interaktiv yondashuvlar. Samarqand: SamDU nashriyoti.

Hasanov, R. (2021). "Sun’iy intellekt asosida o‘qitish texnologiyalari". Pedagogik innovatsiyalar jurnali, №4, 13–19.

O‘QUVCHILARNING SHAXSIY VA IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING PSIXOLOGIK ROLI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya
yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Ikromov Oxunjon Axmadali o`g`li

Insonni har tomonlama ta‘lim va tarbiya berish insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma‘rifat va madaniyatini qanday qilib yosh avlodlarga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Noan‘anaviy ta‘lim-o‘quvchilarni kasbga qiziqtiruvchi bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ta‘lim-tarbiya jarayonida to‘g`ri foydalanishning yana bir jihati – yosh avlodda milliy g`ururni shakllantirish bilan bog`liq masalalardir. Har bir yoshga shu Vatanda yashash tuyg`usini, ona-zaminni sevish, atrof-olam barchasi insonga xizmat qilishini his etish va bundan g`ururlanish tuyg`ularining paydo bo‘lishiga undaydigan qadriyatlar san‘at va tarixiy asarlar, xalq og`zaki ijodi, kino, teatr va boshqalarda o‘z ifodasini topgan va bular yosh avlod ongi va qalbiga bevosita samarali ta‘sir etadi. Shuning uchun ta‘lim dargohlarida teatr, kino san‘ati ustalari, yozuvchilar, shoirlar, mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, madaniy-ma‘rifiy tadbir va konkurslar o‘tkazish, tarixiy me‘moriy obidalarga sayohatlar uyushtirish o‘quvchilarda estetik ong, didni shakllantirish bilan birga, mustaqil Respublikamiz san‘ati va san‘atkorlari bilan faxrlanish, shuningdek yaratish, ijodkorlik tuyg`ularini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Ana shunday maqsadli amaliy faoliyatlar birinchidan, milliy ongni rivojlantirish, yoshlarimizda milliy o‘zlikni anglash, ularda iftixor, g`urur va millatimizga xos bo‘lgan go‘zal tuyg`ularni shakllantiradi, ikkinchidan, yoshlarning milliy-axloqiy qadriyatlarni qadrlash hislarini mustahkamlaydi.

Mustaqillik yillari amalga oshirilayotgan ma‘naviyat sohasidagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham avvalo, yosh avlodni jismonan sog`lom, axloqan etuk va barkamol qilib voyaga etkazishdan iboratdir. Har qanday xalq qadimiy yoki keyinroq tarkib topishidan qat‘iy nazar o`z milliy tili, etnografik qiyofasi, hayot tarzi, ruhiy-emosional xususiyatlari, urf-odatlari, an‘analari, rasm-rusumlari, iqtisodiy munosabatlari va xo`jalik yuritish usullari, tabiiy muhitga moslashish jarayonida paydo bo`lgan etnoijtimoiy xususiyatlari, milliy jozibasi, tafakkurlari uslubi va boshqalarga ega. Ushbu xususiyatlar har bir millatning milliyligini belgilab beradi. Ota-bobolarimiz asosan o`zlarining o`zbekona axloq-odobi, ma‘naviyati va xulq-atvori bilan dunyo hamjamiyatida yuksak obro`ga, nufuzga, qadr-qimmatga ega bo`lib kelgan, hamda shunday bo`lib qolishi darkor. Lekin hozirda ko`pchilik o`quvchi-yoshlarda barchaning ko`z o`ngida tarkib topayotgan va odatga aylangan ovro`pacha soxta xulq-atvor elementlarini, ya‘ni, jinsga mos bo`lmagan kiyinishi, bo`yanishiga ko`nikishi,, jamoat joylarida saqich chaynashi, qizlarning boshyalang yurishi, jamoat joylarida qizlarning o`pishib ko`rishishi, o`g`il bolalarning g`ayri tabiiy ko`rishishlari kabi xulq-atvor elementlari sharqona milliy qadriyatlarga mos kelmasligi barchaga ayon. Hozirda ba‘zi yosh zamondoshlarning o`zlarini me‘yoridan ortiq «madaniy» etib ko`rsatishga intilish kabi xulq-atvorni o`rganayotganligi bag`oyat achinarlidir. Ularning oddiy sharqona axloq-odob qoidalari va ma‘naviy xulq-atvor elementlaridan uzoqligi kishini taajubga soladi. Shu nuqtai nazardan hozir o`quvchi-yoshlarda milliy qadriyat, odatlarni tarbiyalash bag`oyat dolzarb masalalardandir va ota-onalarga, keng jamoatchilik oldiga bu sohada katta mas‘uliyat yuklaydi.

O`tmish ajdodlarimizning ta‘lim-tarbiya sohasidagi ko`p asrlar davomida orttirilgan boy tajribasini o`zlashtirish asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda g`oyat muhim va dolzarb masaladir. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarga doir pedagogik manbalarini hayotga tadbiq etishni, bolalarni milliy-madaniy an‘analar, urf-odatlar va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o`z oldimizga asosiy vazifa qilib qo`ydik. Milliy qadriyatlar ulug` mutafakkir olimlarning ilmiy asarlarida ham o`z ifodasini topgan. Buni ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg`oriy, Kaykovus va boshqa buyuk zotlarning asarlarida ko`ramiz. Bu ulug` allomalar o`zlaridan oldin o`tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlar uchun ko`zgu deb biladilar va o`zlaridan keyingi avlodga taqdim etadilar. Har bir xalqning madaniyati, iqtidori, ulug`vorligi, buyukligi o`sha xalqning betakror an‘analari va qadriyatlarida to`liq aks etishi mumkin. Millatning madaniy saviyasi asrlar davomida shakllanadi. Madaniy tafakkur qabul qilgan har bir odat, an‘ana avlodlar ko`z oldida asrlar davomida sinovdan o`tadi. Ana shunday sinovlardan o`tgan an‘ana, urf-odatlargina haqli ravishda xalqning ma‘naviy qadriyatlariga aylanadi. Maktab o`quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, avvalo milliy tarbiyamiz, milliy xususiyatlarimizni yoritish muhimdir. Milliy tarbiya o`qituvchidan o`ziga xos pedagogik mahoratni talab qiladi. Buni targ`ibotchilik mahorati deb atash mumkin. O`qituvchi-targ`ibotchi muvaffaqiyatning eng muhim shartlaridan biri – dalillar sistemasida foydalanishdir. Buning uchun dars, ma‘ruza haqqoniy, hayotiy, tekshirib ko`rilgan dalillar bilan bezalmog`i kerak. “milliy tarbiya, milliy qadriyat kerak-juda muhim”, - har bir o`quvchi, o`qituvchidan yangi, qiziq ma‘lumotlarini, dalillarni kutadi. Maktab o`quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishda, ajdodlar merosidan foydalanish, buyuk allomalar timsolini yoritish, ularda shu allomalarning, shu xalqning avlodi ekanligidan faxrlanish, shu Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va mustahkamlashda, shu buyuk zot, ulug` xalqqa nisbatan munosaib farzand bo`lish, ularning davomchisi ekanligini ongida shakllantirmoq kerak.

MAKTABGACHA YOSHIDAGI NUTQIDA KAMCHILIGI BOR BOLALAR BILAN ISHLASHDA LOGOPEDNING RO'LI

Andijon davlat universiteti
Ibrohimova Jasmina Jasurbek qizi,
Yusupova Baxrinoso Farxodjon qizi
Amaliy psixologiya yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan, nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarni nutqiy rivojlanishi, nutqiy kamchiliklarni kelib chiqishi sabablari, mahsus bolalar bilan ishlashda logopedning ro'li va nutq hosil bo'lish jarayonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tashqi nutq, organik, funksional, tovush, fonematik idrok.

Hozirgi kunda nutq kamchiliklarining ortib ketishi sezilarli darajada ko'zga tashlanmoqda. Nutqdagi kamchiliklar asosan, har bir davr, bog'chagacha, maktabgacha va maktab davrlarida turli xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalik, nutqni o'zlashtirishga sezgir bo‘ladi. Shuning uchun nutqni rivojlantirish jarayonini zamonaviy maktabgacha ta’limda bolalarni tarbiyalash va o'qitishning asosi sifatida ko'rib chiqish muhim sanaladi. Og'ir nutq kamchiliklari, ko'rishda, eshitishda, hamda aqliy faoliyatida kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun yurtimizda ko'plab inkulyuziv ta'limlar tashkil etilgan. Bu bilan barcha bolalar ya'ni kamchiligi bo'lgan bolalar ham ta'lim olishlari mumkin. Bu haqda Salamanka Bayonoti va ish faoliyat rejasida " Ta'lim hamma uchun " shiori ilgari surilmoqda.[4. 6-bet] Respublika ta'lim markazi YUNESKO tashkiloti bilan hamkorlikda 2001- yilda " Inkulyuziv ta'lim " mavzusida seminar o'tkazilib, uning tavsiyasiga asosan, Respublika Ta'lim markazi maxsus ta’lim bo'limi qoshida "Inkulyuziv ta'lim resurs markazi" tashkil etildi.[4. 7-bet] L. S. Vigotskiy ham umumiy va maxsus ta’limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish, ya'ni maxsus yordamga muhtoj bolalarni inkulyuziv ta'lim tizimida o'qitishni aytib o‘tgan.[4. 17bet]

Nutq nuqsoni logopediya fanida tilning me'yoridan chetga chiqish sababli hosil bo‘ladi. Biz birinchi navbatda, nutqning qanday hosil bo'lishi va shu hosil bo'lish jarayonida kelib chiqadigan nutqiy kamchiliklar haqida fikr yuritamiz. Nutq ya'ni biror bir gapni gapirish uchun bolada avval xohish, istak ya'ni motiv bo'lishi kerak. Bola gapirishni xohladimi, unda sekin fikr uyg'onadi. Shu tariqa bolada ichki rejalashtirish jarayoni kechadi. Bu ichki rejalashtirish jarayoni asosan, 2 xil jarayonni o'z ichiga olib,

1) leksik kuchaytirish

2) grammatik konstruksiya jarayonlaridir.

Bola nutqni hosil qilishda avval, aytmoqchi bo‘lgan gapini tartibga soladi ya'ni qaysi bir so‘zni birinchi qo'llash kabi holatlarda bo‘lib, bu leksik kuchaytirish bilan bog‘liq holatdir. Grammatik konstruksiyada bola aytmoqchi bo‘lgan gapiga asos qo'shimchalar qo'shadi, ya'ni dadamga degan so'zda, " da " qo'shimchasi ushbu jarayonda qo'shiladi. Bu barcha jarayonlar ichki nutq sanalib, bosh miyaning markaziy bo'limi bilan bog‘liq. Asosan, nutqiy kamchiliklar shu ichki nutqda paydo bo'ladi. Asos qo'shimchalar qo'shilgandan keyin mator ishlab chiqarish jarayoni kechib, bunda aniq nutq hosil bo'lib, tashqariga chiqariladi. Bu jarayonlar tashqi nutq sanalib, bosh miyaning periferik bo'limi bilan bog‘liq. Bu nutq hosil bo'lish jarayonini L. S. Vigotskiy shogirdi Leontov quyidagicha tasniflaydi.

1) motiv; 2) fikr;

3) ichki rejalashtirish: leksik kuchaytirish va grammatik konstruksiya

4) mator; 5) tashqi nutq:[2. 54-bet]

Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi sabablari asosan, funksional va organik bo‘ladi. Organikasida, nutq hosil bo'lishda ishtirok etuvchi artikulyatsion a'zolar ya'ni, til, tish, yumshoq tanglay, jag‘, uzlechka, labdagi o'zgarishlar misol bo‘ladi. Bu degani aniq ko'z bilan ko'rib bo'ladigan nutqiy kamchiliklar. Funksional noto‘g‘ri nutqiy malaka sanalib, asosan, ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchilar nutqiy kamchiliklariga taqlid qilish natijasida hosil bo‘ladi.[2. 57-bet] Bolalarda tovushlar talaffuzining buzilishi, tovushining nutqda yo'qligi ularni buzib talaffuz etish, bir biri bilan almashtirish holatlari kuzatiladi. Tovushlar talaffuzidagi holatlarni biz logopediyada qabul qilingan klassifikatsiya ya'ni nuqsonli tovushlarni guruhlarga taqsimlash (sonor, shovqinlik, sirg‘aluvchi, jarangli, jarangsiz) asosida tahlil qilamiz. Bu jarayonlarda shunday holatlar bo'ladiki, bunda tovushlarni bir so'zda to'g'ri talaffuz etsa, boshqa so'zlarda esa boshqa tovushlarga almashtiradi. Buning natijasida bolalarning nutqida tovushlar differensiatsiyasining

buzilishi aniqlanadi.[1.62bet] Tovush eng kichik birlik sanalib, eng murakkabi gap hisoblanadi. Bola nutqining rivojlanishi uchun uning lug‘at boyligi ham boy bo'lishi kerak. Bola nutqi rivojlanishi asosan, bir necha davrlarda kuzatiladi. Davrlashtirishni tuzgan olim A. N. Leontov nutq shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi.

1) Tayyorlov davri - 1 yoshgacha
2) Bog‘chagacha bo'lgan davr - 3 yoshgacha
3) Maktabgacha bo‘lgan davr - 7 yoshgacha
4) Maktab davri [1. 63- bet]

Har bir davrda bolaning o'ziga xos nutqiy malakalari shakllanadi. Shu rivojlanishi paytida, bola nutqida turli kamchiliklar kelib chiqishi mumkin. Biz o'rganayotgan davr, uchinchi ya'ni maktabgacha tarbiya davri sanalib, bu davrda bolalar artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan: lab-lab, lab-tish undoshlari - p, b, m, v, f va boshqalarni o‘rganadilar. Artikulyatsion jihatdan talaffuz etilishi qiyin bo‘lgan sirg‘aluvchi (s, z, sh, ch, j), sonorlar (r, l) va til orqa (q, g) tovushlarni talaffuz qilishda qiynaladilar. Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto‘g‘ri qo'llaydilar.[1. 72-bet] 3 - 7 yoshli bola o'z nutqini nazorat qila oladi. Chunki, bu yoshda ularning eshitish malakalari rivojlangan bo'ladi. Bu davrda fonematik idrok va lug‘at boyligi ham o'sib, shakllanib boradi. 4 - 6 yoshda bolaning lug‘at boyligi 3000-4000 so'zga yetadi. Bola 4 yoshida sodda va murakkab gaplardan, 5 yoshida qo'shma gaplardan foydalana oladilar.[3. 76-bet] Shuningdek, bola nutqi har bir davrida sekin - astalik bilan rivojlanib boradi. Bola dastlab tilga kirgan paytida, nutq tovushlarini mukammal ayta olmaydilar, so'zlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish bilan tovushlarni buzib, birining o'rniga boshqasini qo'yish, tovushlarni o'rnini almashtirish holatlari kuzatiladi. Buning uchun bolaning lug‘at boyligi boy bo'lishi va ota - onaning bolaga nutqni to'g'ri talaffuz qilishida, boshqacha nom bilan aytadigan so'zlarni ham to'g'ri gapirib, o'rgatish kerak. Asosan, nutqni shakllanishida ota - ona, tarboyachi va atrof muhit ta'sir etadi. Nutq kamchiliklarining kelib chiqishi, qayerda, qanday holatda kechishini aniqlashda ko'plab metodika va tadqiqotlar qo'llaniladi. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi murakkab nutqiy nuqsonlarga ega bolalarni yozma nutq funksional negizini xususiyatlarni aniqlash va o'rganish maqsadida quyidagi metodlar qo'llaniladi.

- suhbat;
- hujjatlarni o'rganish;
- o'yin shaklidagi tovushlar tizimi;
- bolalarni turli faoliyat davomida kuzatish:

Tadqiqot 2016 - yil davomida Toshkent shahar Chilonzor tumani 368 - maxsus maktabgacha ta’lim muassasasida hamda 215 - maxsus maktabgacha ta’lim muassasasida olib borildi. 5 - 6 yoshdagi 20 nafar bola ishtirok etdi.[1. 73-74betlar] Nutq kamchiliklari ko'p hollarda, biologik va ijtimoiy omillarning birgalashib ta'sir o'tkazishi natijasida paydo bo'ladi.[2. 55-bet] Logopedik ishning samaradorligi nutq kamchiliklari kelib chiqishi sabablari, mexanizmlari, turlarini to'g'ri aniqlashga bog'liqdir. Bu o'rinda ontogenetik, etiopatogenetik prinsiplarning ahamiyati katta. Nutq kamchiliklarini o'rganish, aniqlash va ularni bartaraf etishda logoped barcha didaktik prinsiplarga tayangan holda ish tutadi. Logopedik ishni tashkil etishda, har qaysi bolaga xos xususiyatlarni hisobga olib, bilim, ko'nikma, malakalarni puxta o'zlashtirish, ta'limning o'quvchilarga xos bo'lishi, ta'lim va tarbiyaning birligi prinsiplariga amal qilishi, onglilik, aktivlilik va mustaqillik kabi pirinsiplarning ahamiyati katta.

Xulosa qilib aytganda, nutqida kamchiligi bo'lgan har bir yosh davridagi bolalar bilan korreksion -pedagogik ish olib borish, nutq kamchiliklarni oldini olish, keltirib chiqaruvchi sabablarini erta aniqlashda logopedning roli katta ekan. Logoped logopat bilan ishlash jarayonida uning psixologik xarakterini bilishi, logopetda lug‘at boyligi kuchli bo'lishi, bilan boladan suhbat jarayoni qiziqarli va maroqli o'tkaziladi. Bolaga qiziqarli savol javoblar orqali murojaat qilish ular bilan yaxshi muloqot o'rnatish imkoniyatini beradi. Nutq kamchiliklarni erta oldini olish uchun ota-onalarga yuklatiladigan asosiy vazifa bu erta logopedlarga murojaat qilishlari so'raladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. L. R. Mo'minova " Nutq kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari " Toshkent 2017 y 62-74 betlar.

2. Raxmonova.. V. S " Korreksion pedagogika va logopediya " Toshkent 2007 y. 54-57 betlar.

3." Rivojlanishida murakkab nuqsoni bo‘lgan bolalar psixologik - pedagogik tasnifi " N. S. Musayeva, S. Po'latova. Toshkent 2016y.76 bet.

4."O'zbekiston Respublikasida inkulyuziv ta'lim tizimini joriy etilishi" 6-7, 17 betlar.

MAKTABLARDA PSIXOLOGIK KORREKSIYA, PSIXOLOGIK TUZATISH VA RIVOJLANTIRISH ISHLARINI TASHKIL ETISH

Andijon davlat universiteti
Fayzullayeva Maftuna Mirzayo`ldosh qizi
Abduqahhorova Dildoraxon Farhodjon qizi
Amaliy psixologiya yo`nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola maktablarda psixologik korreksiya, psixologik tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etish haqida.

Kalit so‘z: korrektsiya, psixologik tashxis, ta’lim-tarbiya.

Uzluksiz ta’lim tizimining o‘ziga xos ijtimoiy, pedagogik masalalari mavjud. Bunda ta’lim-tarbiyaning yangicha tamoyillarini joriy qilish, yangi turdagi o‘quv muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni shakllarini tashkil etishni belgilash, yangi pedagogik texnologiya namunalarini izlash va ishlab chiqish, ta’limning samarali tashkiliy, uslubiy-didaktik texnologiyalarini qo‘llash hamda shaxs rivojlanishining bosqichli tizimini ishlab chiqish va boshqa vazifalarni e’tiborda tutmoq lozim.

Davr hamma zamonlarda ham ta’limning yuqori darajada bo‘lishini taqozo qilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta’limi tizimining muvaffaqiyati ushbu sohada psixologik xizmatni har tomonlama to‘g‘ri va samarali tarzda tatbiq etish bilan bevosita bog‘liq ekanligi e’tiborni tortmoqda. Tegishli adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz natijasi shundan dalolat bermoqdaki, maktabga psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumta’lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o‘ziga xos usulda joriy etildi.

Maktabda ta’lim olayotgan har bir bola iqtidorini, individual imkoniyatlarini batafsil o‘rganmay, tahlil qilmay turib, mazkur o‘quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to‘g‘ri baholab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning faolligini ta’minlashda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan qator muammolar mavjud.

Ma’lumki, maktab o‘quv fanlari integratsiyasi asosida tashkil etilgan darslar qatorida bolalarning badiiy-estetik madaniyatini shakllantirish bo‘yicha fanlar alohida o‘rin tutadi. Asosiy maqsad ta’limning yo‘nalishini umumiy kuchaytirgan holda, yaxlit nutqiy yondashuv asosida olib borish va dunyoning ilmiy yagona manzarasini shakllantirish (axloqiy, estetik, ekologik va mehnat orqali) dan iborat.

Tajriba ko‘rsatishicha, bunday yondashuv o‘quv materiali takrorlanishining oldini oladi, maktabda o‘tiladigan fanlar soni va soatini qisqartirish hamda o‘qitiladigan amaliy faoliyatni boyitishga yordam beradi. Yuqorida ko‘rsatilgan kamchiliklar qaysi toifada ko‘proq uchrashini bilish maqsadida og‘ir nutqiy nuqsonli bolalar bilan bir necha yo‘nalishda kuzatish ishlari olib boriladi. Bu jarayonda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarga ham alohida e’tibor berish lozim.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda bolani va uning rivojlanishini kuzatish masalalari: organik jihatdan tashxis muammolari va uni hal etishning subyektiv jihati, muammoni hal etish imkoniyatini axborotlar orqali izlash, faoliyat rejalarini loyihalashtirish va rejani amalga oshirishda boshlang‘ich yordam ko‘rsatish kabi yaxlit masalalarni o‘z ichiga oladi. Tashxisning

to‘g‘ri qo‘yilishi muvaffaqiyatning garovi hisoblanadi. Xususiy tashxis qo‘yilishi bilan muammo rivojini hal etishga qaratilgan jarayon boshlanadi. Tashxis metodidan kelib chiqib, mutaxassislar korrektsiya-axborot me’yorlari metodini ishlab chiqdilar va u kuzatuvchi hamda kuzatiluvchining o‘zaro hamkorligi shaklida ifodalanadi.

Tashxis muammolarining rivojlanishi turli soha mutaxassislari — pedagog, psixolog, tibbiy xodimlarning o‘zaro kelishuviga bog‘liq bo‘ladi. Biz bola rivojlanishidagi negativ omillar, ya’ni “rivojlanmaganlik”, “etishmovchilik” va boshqalarni tadqiq etish doirasida hal qilishga intilyapmiz. Biroq u yoki bu darajadagi nuqsonlarni bolaning shu davrdagi ahvoliga ko‘ra baholash o‘z-o‘zidan muammoni hal qilish yo‘llari, imkoniyati haqidagi axborotning kichik bir qismini beradi, xolos.

Tizimda loyihalashning mantiqiy rivojlanishidagi ancha murakkab qarama-qarshi jarayonlarda mutaxassislar bolalarda ko‘p uchraydigan muammolarning samarali yechimi dasturini ishlab chiqishadi va shu asosda pedagoglar rivojlanish yo‘lini belgilaydilar. Kuzatish natijalarini baholash uchun esa tashxis modelini tuzish masalasi yuzaga keladi. Shu sababli bolaga nisbatan tizimli yondashuv va subyekt shaxsi kichik dunyosining tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlari tavsifnomasi tahlilini tashxis tadqiqotlariga yo‘naltirish zarur.

Psixologik tashxis ustida ishlovchi mutaxassislar keyingi vaqtlarda bola holatining murakkab psixologik malakalari sezilarli darajada o‘sganligini e’tirof etmoqdalar. Aynan shu holat ta’lim dasturlarining bolalar umumiy rivojlanishi bilan muvofiqligiga bog‘liq. Demakki, mazkur sohada yangi yo‘llarni izlashga yanada ko‘proq ehtiyoj tug‘ilmoqda va bola muammolarini o‘rganishning psixologik va pedagogik malakalari, tashxis ishlari darajasi asosiy ko‘rsatkich sifatida doimo diqqat markazida bo‘lishi joiz.

Xulosa qilib aytganda, bola holatini o‘rganishda bunday ko‘p bosqichli psixologik tashxis tizimi nihoyatda qo‘l keladi. U faqatgina bola holatining eng dolzarb fenomenlarini ko‘rsatibgina qolmay, balki ishonchli istiqbol tashxisini ham ta’minlaydi, bolani keyingi rivoji va o‘qishi, korrektsion (tuzatish) ishlarining yana-da samarali dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Psixologik tashxis qo‘yishdan maqsad — bolaning rivojlanish darajasini yaxlit holda tasavvurga keltirish, ma’lum bir natija-oqibatning vujudga kelish sabablarini bilish, korrektsion rivojlantirish ishlarini, o‘qitish turi va shaklini aniqlashdan iborat.

UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA TA`LIM –TARBIYA JARAYONIDA MAKTAB, OILA VA O`QITUVCHI HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Mamajonova Zarnigor Xusanboy qizi
Adu Geografiya yo`nalishi talabasi

Davlatimizda umimiy o`ta ta`lim maktablarida ta`lim va tarbiya sifatini oshirish yuzasidan olib borilgan ishlar va ularga berilayotgan e`tiborlar davlatning siyosiy darajasigacha ko`tarilmoqda.Chunki mazkur muammo dunyoning turli mamlakatlarida mazkur masalani tadbiq etishga bilimli salohiyatli yoshlarni tanlash va rivojlantirishga doir o`ziga xos tajribalar to`planganligini qayd etish mumkin.Davlatimiz rahbari ta`limda innavatsion va kreativ fIkrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbilalash yuksak ma`naviyat egalari etib tarbiyalash shu maqsadda ta`lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e`tibor qaratib kelmoqdalar.Haqiqatdan xam O`zbekistonda va jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta`im tizimiga nazar soladigan bo`lsak ularda jamiyat hayotini o`zgartirishga qaratilgan islohatlar ta`lim tizimidadir. Shu misolida Amerikaning mashhur yozuvchilaridan biri John Taylor Gatto ta`lim sohasida juda xam ko`plab fikrlarni aytib o`tganlar:

Birinchi navbatda mustaqil o`rganish bunda o`quvchining o`z bilimga ishonishi va shu bilim asosida o`zining nazorat qilishi yuqori natijalarga erishishiga olib keladi.Kimningdur tazyiqi ostida o`qishdan ko`ra o`z xoxishi bilan olgan bilmi afzalroqdir. Ta`lim sohasida faqat maktabning

o`zigagina emas balki oilaning xam juda ham muhim ro`l o`ynaydi.Chet mamlakat maktablarida ta`lim sohasida muammolarga yechim topish maqsadida ko`plab tajribalar olib bordilar.Bulardan maktabda o`quvchi uchun barcha sharoitlar,yuqori malakali o`qituvchilar taklif qilindi va bunga ota-onalar jalb qilinmadi bu 1 yil davomida tekshirish ishlarini olib borishganda bunda xech qanday natija bo`lmadi,chunki maktab oila va o`qituvchi hamkorligida ishlansa zurriyodi yuqori natijalarga erishadi.

Yevropa davlatlarining biri-Germaniyada xam o`quvchilarni tarbiya va ta`lim sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida o`ziga xos muammolarga yechimlar topish uchun bir qator tajribalar to`plangan.Ta`lim sifatini oshirish uchun maxsus metodikalar yordamida 10-12 yoshli o`quvchilar uchun maxsus maktablar va ixtisoslashtirilgan gimnaziyalar tashkil etishga katta e`tibor qaratiladi.

Xitoyda bilimli yoshlarni qoidaga muvofiq ta`limning keyingi bosqichlarini davom ettirishda turli-xil imtiyozlar-davlat stipendiyalari,ishlab chiqarish korxonalari va tashilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo`lishdi.Xitoyda maxsus maktablar mavjud emas,biroq universitetlar qoshida ochilgan o`rta maktablarning imkoniyatlaridan samarali foydalanadilar.Xar bir Universitet qoshida kadrlar yuqori darajada ta`lim berishni ta`minlaydigan maktablar xam mavjud.

Yuqoridagi davlatlarning tajribalaridan shularni e`tirof etish mumkinki,Bizning yurtimizda xam shunga o`xshash tajribalar asosida maxsus Prezident maktablari,Al-xorazmiy va turli xil fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil qilinmoqda.Bunday imkoniyatlarning yaratilishi mamlakatimizdagi ta`lim sohasidagi muammolarga yechim bo`la oladi va iqtidorli yoshlarni intellektual imkoniyatlarini rivojlangan davlatlar tajribalariga tayangan holda tashkil etish mamlakat taraqqiyotini ta`minlashga mustaxkam zamin yaratadi.

Zero bizning maqsadimiz “O`zbekistonni jadal islohotlar,ilm-fan ta`lim va innovatsiyalar orqali erishish mumkin bo`lgan rivojlangan davlatga aylantirish`”

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27 iyundagi ``yoshlar -kelajagimiz ``Davlat dasturi to`g`risida ``gi PF-54-66 son Farmoni

RAQAMLI MUHITDA SHAXS IDENTITETI VA YOSHLAR ORASIDA NARSISSISTIK XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO‘LISHI

ADU Amaliy psixologiya yo`nalishi talabalari
Axmadjonova Marjona,Qahramonjonova Marjona
Mamatazizova Ro‘zixon,Inomova Madina

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida narsissistik xulq-atvorning kuchayishi va uning shakllanishida ijtimoiy tarmoqlarning tutgan o‘rni psixologik, ijtimoiy hamda kommunikativ yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, self-prezentatsiya, “layk”larga bog‘liqlik, virtual ijtimoiy solishtirish, o‘zini idealizatsiya qilish kabi omillar narsissistik tendensiyalarni oshirmoqda. Maqolada nazariy manbalar, so‘rovnoma va kuzatish natijalari asosida mazkur jarayonning psixologik mexanizmlari yoritilgan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: narsissizm, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, virtual kommunikatsiya, o‘zini taqdim etish, o‘ziga baho, psixologik ta’sir.

Hozirgi globallashuv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli kommunikatsiyaning tezkorligi, o‘zini namoyon qilish imkoniyatlari, keng

auditoriyaga ega bo‘lish kabi afzalliklar bilan birga, u shaxs psixologiyasiga ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatida ham qaraladi.

So‘nggi yillarda psixologlar yoshlar o‘rtasida narsissistik xususiyatlarning oshgani haqida qayd etishmoqda. Mazkur tendensiyaning kuchayishida ijtimoiy tarmoqlarda o‘zini ko‘rsatish, boshqalarning fikriga haddan ziyod bog‘lanish, ideal qiyofa yaratish kabi jarayonlar muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, yoshlar orasida o‘ziga baho, ijtimoiy faollik, psixologik barqarorlik hamda real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar shakllanishida virtual muhitning ta’siri keskin oshgan. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning narsissistik xulq-atvor shakllanishiga ta’sir mexanizmlarini o‘rganish zarur. Narsissizm — shaxsning o‘ziga ortiqcha baho berishi, e’tirofga yuqori ehtiyoj sezishi, ijtimoiy ustunlikka intilishi bilan tavsiflanadi.

Z. Freyd, K. Hornay, O. Kernberg, X. Kohut kabi psixoanalitik olimlar narsissizmni shaxs rivojlanishidagi psixodinamik jarayon sifatida izohlagan. Hozirgi zamon tadqiqotlari narsissizmni ko‘proq ijtimoiy–psixologik fenomen sifatida ko‘radi.

Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, TikTok, Facebook, Telegram, YouTube) o‘zini namoyon qilish, tasvir yaratish, tasdiqlanish olish imkonini beradi. Bu jarayonlar:

Ideallashtirilgan obraz yaratish,

Loyihalangan shaxs (fake-self),

Uzliksiz solishtirish,

Layk va izohlarga bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Bu holatlar yoshlar ongida o‘zining haddan ortiq markazda bo‘lishi kerak degan fikrni shakllantirishi mumkin.Yoshlar o‘zining eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga intiladi, filtrlar, “stories”, reklama va trendlar orqali ideal qiyofa yaratadi. Bu esa real va virtual men o‘rtasida nomutanosiblikka olib keladi.

Ijtimoiy tasdiqlanishga ortiqcha ehtiyoj paydo bo‘ladi. Layklar ko‘payishi → o‘ziga baho oshishi, kamayishi → tushkunlik, xavotir, tajovuz, o‘ziniki deb bilmaslik holatlari kuzatiladi. Boshqalarning bezatilgan hayoti bilan solishtirish yoshlar orasida norozilik, o‘zini qadrsiz his qilish va shu bilan birga e’tibor talab qilishga undaydi. Trendlar, challenge-lar, mashhurlikka intilish, auditoriyani kengaytirish kabi jarayonlar narsissistik xususiyatlarni kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqot doirasida Jizzax, Samarqand va Toshkent shaharlaridagi 16–25 yoshdagi 320 nafar yoshlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Natijalar quyidagicha:

68% yoshlar har kuni 3 soatdan ko‘p ijtimoiy tarmoqdan foydalanadi.

52% respondent o‘zining ijtimoiy tarmoq profilini “ideal qiyofa”ga moslab bo‘rttirishini tan oldi.

47% yoshlar layklar soni kayfiyatiga bevosita ta’sir qilishini aytdi.

39% respondent o‘zini boshqalar bilan tez-tez solishtiradi.

Statistik tahlil shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat kuchaysa, narsissistik ko‘rsatkichlar oshib boradi.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida narsissistik xususiyatlarni kuchaytiruvchi asosiy psixologik maydon sifatida shakllanmoqda.

2. Virtual self-prezentatsiya real hayotdagi o‘ziga baho va ijtimoiy moslashuvga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

3. Layk va reaksiyalarga bog‘liqlik yoshlarning hissiy barqarorligiga salbiy ta’sir qilmoqda.

4. Oziqaviy solishtirish hodisasi yoshlarning ruhiy salomatligiga xavf tug‘dirmoqda.

5. Ijtimoiy tarmoqlardan sog‘lom foydalanish bo‘yicha psixologik ko‘rsatmalar zarur.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki yoshlar orasida narsissistik tendensiyalarning kuchayishi zamonaviy raqamli kommunikatsiya rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun o‘zini namoyon qilish maydoni bo‘lsa-da, ularning psixologik yetuklik darajasi ushbu jarayonni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ota-onalar,

pedagoglar, psixologlar va jamiyat ijtimoiy tarmoqlar bilan bog‘liq psixologik xatarlarni kamaytirish bo‘yicha tizimli ish olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Turdiqulova M. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
2. Qodirov M. Internetning psixologik ta’siri. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston yoshlari internet faoliyati bo‘yicha monitoring hisobotlari.

YOSHLAR ORASIDA NARSISSISTIK XUSUSIYATLAR DINAMIKASIGA IJTIMOIY TARMOQLARNING TA’SIRI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi
301-guruh talabasi Payzullayev Shaxriyorbek Raximjon o`g`li

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar orasida narsissistik xususiyatlarning dinamikasiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish yoshlarning o‘zini idrok etish, ijtimoiy maqomini baholash va boshqalar bilan solishtirish tendensiyalarini qanday shakllantirishini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning narsissistik xususiyatlarni mustahkamlash yoki barqarorlashtirishdagi roli, onlayn feedback va virtual muvaffaqiyat hissi orqali baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda faol yoshlar orasida narsissistik tendensiyalar sezilarli darajada kuchayadi, shu bilan birga ongli va muvofiqlashtirilgan foydalanish salbiy oqibatlarni kamaytirishi mumkin. Ushbu tadqiqot yoshlar psixologiyasi, shaxsiy identitet va pedagogik psixologik amaliyotda ijtimoiy tarmoqlarning roli bo‘yicha ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: narsissizm, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar psixologiyasi, shaxs identiteti, onlayn muloqot, psixologik ta’sir, ijtimoiy taqqoslash.

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida muhim rol o‘ynay boshladi. Shu bilan birga, psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu platformalar shaxsning o‘zini idrok etish, ijtimoiy mavqe va shaxsiy identitetni shakllantirish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar orasida narsissistik xususiyatlarning dinamikasi — o‘ziga haddan tashqari e’tibor qaratish, maqtanish istagi, boshqalarni baholash orqali o‘zini tasdiqlash tendensiyalari — ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, yoshlar orasida narsissistik xususiyatlarni o‘rganish va ijtimoiy tarmoqlarning bu jarayonga ta’sirini tahlil qilish psixologik tadqiqotlarda dolzarb mavzu hisoblanadi.

Narsissizm — shaxsiyatning o‘zini yuqori baholash, doimiy e’tibor va tasdiqlanish istagi bilan tavsiflanadigan xususiyati. Yoshlar orasida narsissistik tendensiyalar o‘sishi ko‘pincha ijtimoiy taqqoslash, ijtimoiy maqomni baholash va boshqalar bilan solishtirish orqali yuzaga keladi. Narsissizm vaqt o‘tishi bilan o‘zgaruvchi sifatga ega: ijtimoiy tarmoqlar bilan ko‘p muloqot qiladigan yoshlar orasida u tez rivojlanadi. Pedagoglar va psixologlar yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishga o‘rgatish orqali narsissistik tendensiyalarni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltirishlari mumkin. Ota-ona va o‘qituvchilarning nazorati, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yoshlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda 2-3 soatdan ortiq faoliyat yuritadigan yoshlar orasida narsissistik xususiyatlar sezilarli darajada kuchayadi.Shu bilan birga, o‘zini baholash va empatiya ko‘nikmalari bilan bog‘liq pedagogik intervensiyalar narsissizmning salbiy ta’sirini kamaytiradi.

Narsissizm shaxsiyatning psixologik xususiyati sifatida o‘zini yuqori baholash, boshqalarning e’tiborini jalb qilish va ijtimoiy maqomini mustahkamlash istagi bilan namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun tezkor feedback, “like” va sharhlar orqali o‘zini baholash imkonini beradi, bu esa narsissistik xususiyatlarni mustahkamlash yoki kuchaytirishga yordam

beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faol ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari orasida o‘zini markaziy o‘rinda ko‘rish, diqqatni jalb qilish va boshqalar bilan solishtirish tendensiyalari kuchayadi.

Psixologik yondashuvlar nuqtai nazaridan, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar orasida o‘zini anglash va o‘z-o‘zini qadrlash mexanizmlarini o‘zgartiradi. Yoshlar onlayn muhitda o‘z identitetini ijtimoiy fikr bilan sinovdan o‘tkazadi, bu esa narsissistik xususiyatlarning vaqt davomida dinamikasiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va virtual ijtimoiy muvaffaqiyat hissi narsissizm darajasini oshiruvchi yoki barqarorlashtiruvchi omil sifatida ishlaydi.

Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lgan yoshlar orasida narsissistik xususiyatlarning ko‘rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Bu jarayon ijtimoiy taqqoslash, doimiy self-marketing va online feedback orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarni ongli va muvofiqlashtirilgan foydalanish yoshlarning narsissizm bilan bog‘liq salbiy xatti-harakatlarini kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar shaxsiyatining narsissistik xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Faol onlayn muloqot, doimiy o‘zini baholash va boshqalar bilan solishtirish tendensiyalari narsissistik xususiyatlarning dinamikasini oshiradi. Shu sababli, psixologik tadqiqotlar va pedagogik amaliyotlar yoshlarni ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanishga o‘rgatish, shuningdek, narsissistik xususiyatlarni ijobiy yo‘nalishda shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilishi zarur.

PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA NUQTAI NAZARIDAN UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi
301-guruh talabasi Rustamov Odiljon Ravshanali o`g`li

Annotatsiya: Ushbu maqolada мamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlashda jahon tajribasidan foydalanishning ahfmiyati, zamonaviy ta’limning o’ziga xos muammo va yechimlari xaqida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: ta’lim, tarbiya, innovatsiya, intelekt, axborot texnologiyalari, kasb, salohiyat.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi vaqtlarda ta'lim-tarbiya soxasida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir mutasaddi oldiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu jarayonda faoliyat yuritayotgan xalq ta'limi tizimi rahbarlarining mavqeyi, jamoani zamonaviy talablar asosida boshqarishi, muomila madaniyatiga rioya qilishi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarni ham ma’naviy, ham jismonan barkamol qilib tarbiyalash, intelektual jihatdan halqaro maydonda munosib raqobatlasha oladigan darajada tarbiyalashning bir nechta muhim omillari mavjud. Bu borada jahon tajribasini o’rganish, ilg’or tajribalarni joriy qilish o’z samarasini beradi. So’nggi yillarda mamlakatimiz xalq ta’limi tizimida xorijiy tajribalar asosida islohotlarni amalga oshirish, yangiliklarni joriy qilishga e’tibor qaratilmoqda. Bunda ta’lim sifatini oshirish, eng muhimi, pedagoglar, tizimda faoliyat yuritadigan

pedagoglarning o’z ustida ishlashlari, kasbiy malakalarini oshirib borish muhim ahamiyatga ega. Sir emaski, axborot texnologiyalari shu qadar tez rivojlanib borayotgan bugungi kunda barcha sohalarda, jumladan ta’limda ham har kuni bir qancha yangiliklar yuz bermoqda. Kecha samarali hisoblangan o’qitish metodlari bugungi kun talablariga javob bermasligi mumkin. Bundan ko’rinib turibdiki, o’qituvchi ham o’z bilim, ko’nikma va malakasini rivojlantirib borishi, o’z ustida tinimsiz ishlashi, o’z fani va dunyoviy bilimlarini yangilab borishini davrning o’zi talab qilmoqda.

Malaka oshirish sohasini tubdan yangilash bo’yicha davlat rahbarining joriy yil 25 yanvardagi «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Qarorida pedagog xodimlar oldiga qo’yilgan vazifalar, «hayot davomidagi uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’limi»ni joriy etish masalasini ilgari surmoqda.

Shu o’rinda aytishimiz mumkin, ilg’or tajribali mamlakatlarning o’qitish tizimi, innovatsiyalarni o’rganish, joriy qilish ham muhim omillardan hisoblanadi.

Jumladan, Finlandiya ta’limining bugungi kunda nufuzli iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o’tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko’ra, Finlyandiyalik maktab o’quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko’p kitob o’quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, Finlyandiyalik maktab o’quvchilari tabiiy fanlar bo’yicha -dunyoda ikkinchi, matematika bo’yicha esa beshinchi o’rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. SHunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko’rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, Finlyandiyalik maktab o’quvchilari darslarga u qadar ko’p vaqt ajratishmaydi. Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so’zda baho qo’yiladi: o’rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a’lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko’rinishdagi baholar yo’q. Finlyandiyada barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo’yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o’qituvchisi", felьdsher ham u yerda kerakli ma’lumotni qoldiradi. Fin maktablarida baholar xavotir uyg’otmaydi, ular faqat o’quvchining o’zi uchun kerak, qo’yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o’zini tekshirish uchun qo’llaniladi. Baholar o’qituvchi, maktab nufuziga ta’sir ko’rsatmaydi va hech qanday ko’rsatkichlarini buzmaydi. Maktablar hududi o’ralmagan, kiraverishda qo’riqchilar yo’q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin. Darsda bolalar parta va stolda o’tirishi shart emas, polda (gilamda) o’tirish ham mumkin. Ba’zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta’minlangan.Forma yo’q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo’q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo’shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o’rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma’qul ko’rishadi. Darslar ko’pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o’tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o’quvchilari albatta ko’chaga olib chiqiladi. Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o’rniga pedagoglar muzey, o’rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi. "Doska oldida" o’qitish usuli qo’llanmaydi, bolalar materialni so’zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O’qituvchi darsga umumiy tus beradi, so’ngra o’quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam beradi va jarayonni nazorat qiladi. O’qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o’qituvchi yordamchilari ham bo’ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo’ladi. Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o’chirish mumkin. O’qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin. Finlyandiya maktablaridagi ta’lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto’g’ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da’vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo’lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o’zgarishlarga qanchalik to’g’ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi. Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo’riqishdan

uyg’onmaydi, tezroq katta bo’lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo’q, o’quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o’zlari va butun oila a’zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulohaza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko’rishadi, kompyuter o’yinlari o’ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pьesalari yaratishadi, qo’shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta’lim olishga ham ulgurishadi. Yuqoridagilardan ko’rinib turibdiki, ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchini shaxs sifatida xurmat qilish, qiziqishlari, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda yondoshuv, muhimi o’z kelajagini yaratishga intilishga o’rgatish, shukronalik, hayotdan zavqlanish tuyg’ularini berish ham tarbiyada, ta’limda yuqori natijalarni berishining isboti ekanini ko’rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **“Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”**gi Prezident Qarori (PQ–4963-son, 25.01.2021 y.)

Finlyandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2019

MAKTAB O`QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Umrzoqova Durdona Amaliy psixologiya yo`nalishi 4-bosqich talabasi

Insonni har tomonlama ta‘lim va tarbiya berish insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma‘rifat va madaniyatini qanday qilib yosh avlodlarga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Noan‘anaviy ta‘lim-o‘quvchilarni kasbga qiziqtiruvchi bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ta‘lim-tarbiya jarayonida to‘g`ri foydalanishning yana bir jihati – yosh avlodda milliy g`ururni shakllantirish bilan bog`liq masalalardir. Har bir yoshga shu Vatanda yashash tuyg`usini, ona-zaminni sevish, atrof-olam barchasi insonga xizmat qilishini his etish va bundan g`ururlanish tuyg`ularining paydo bo‘lishiga undaydigan qadriyatlar san‘at va tarixiy asarlar, xalq og`zaki ijodi, kino, teatr va boshqalarda o‘z ifodasini topgan va bular yosh avlod ongi va qalbiga bevosita samarali ta‘sir etadi. Shuning uchun ta‘lim dargohlarida teatr, kino san‘ati ustalari, yozuvchilar, shoirlar, mehnat qahramonlari bilan uchrashuvlar o‘tkazish, madaniy-ma‘rifiy tadbir va konkurslar o‘tkazish, tarixiy me‘moriy obidalarga sayohatlar uyushtirish o‘quvchilarda estetik ong, didni shakllantirish bilan birga, mustaqil Respublikamiz san‘ati va san‘atkorlari bilan faxrlanish, shuningdek yaratish, ijodkorlik tuyg`ularini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Ana shunday maqsadli amaliy faoliyatlar birinchidan, milliy ongni rivojlantirish, yoshlarimizda milliy o‘zlikni anglash, ularda iftixor, g`urur va millatimizga xos bo‘lgan go‘zal tuyg`ularni shakllantiradi, ikkinchidan, yoshlarning milliy-axloqiy qadriyatlarni qadrlash hislarini mustahkamlaydi.

Mustaqillik yillari amalga oshirilayotgan ma‘naviyat sohasidagi islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ham avvalo, yosh avlodni jismonan sog`lom, axloqan etuk va barkamol qilib voyaga etkazishdan iboratdir. Har qanday xalq qadimiy yoki keyinroq tarkib topishidan qat‘iy nazar o`z milliy tili, etnografik qiyofasi, hayot tarzi, ruhiy-emosional xususiyatlari, urf-odatlari, an‘analari, rasm-rusumlari, iqtisodiy munosabatlari va xo`jalik yuritish usullari, tabiiy muhitga moslashish jarayonida paydo bo`lgan etnoijtimoiy xususiyatlari, milliy jozibasi, tafakkurlari uslubi va boshqalarga ega. Ushbu xususiyatlar har bir millatning milliyligini belgilab beradi. Ota-bobolarimiz asosan o`zlarining o`zbekona axloq-odobi, ma‘naviyati va xulq-atvori bilan dunyo hamjamiyatida yuksak obro`ga, nufuzga, qadr-qimmatga ega bo`lib kelgan, hamda shunday bo`lib

qolishi darkor. Lekin hozirda ko`pchilik o`quvchi-yoshlarda barchaning ko`z o`ngida tarkib topayotgan va odatga aylangan ovro`pacha soxta xulq-atvor elementlarini, ya‘ni, jinsga mos bo`lmagan kiyinishi, bo`yanishiga ko`nikishi,, jamoat joylarida saqich chaynashi, qizlarning boshyalang yurishi, jamoat joylarida qizlarning o`pishib ko`rishishi, o`g`il bolalarning g`ayri tabiiy ko`rishishlari kabi xulq-atvor elementlari sharqona milliy qadriyatlarga mos kelmasligi barchaga ayon. Hozirda ba‘zi yosh zamondoshlarning o`zlarini me‘yoridan ortiq «madaniy» etib ko`rsatishga intilish kabi xulq-atvorni o`rganayotganligi bag`oyat achinarlidir. Ularning oddiy sharqona axloq-odob qoidalari va ma‘naviy xulq-atvor elementlaridan uzoqligi kishini taajubga soladi. Shu nuqtai nazardan hozir o`quvchi-yoshlarda milliy qadriyat, odatlarni tarbiyalash bag`oyat dolzarb masalalardandir va ota-onalarga, keng jamoatchilik oldiga bu sohada katta mas‘uliyat yuklaydi.

O`tmish ajdodlarimizning ta‘lim-tarbiya sohasidagi ko`p asrlar davomida orttirilgan boy tajribasini o`zlashtirish asosida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash hozirgi kunda g`oyat muhim va dolzarb masaladir. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarga doir pedagogik manbalarini hayotga tadbiq etishni, bolalarni milliy-madaniy an‘analar, urf-odatlar va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o`z oldimizga asosiy vazifa qilib qo`ydik. Milliy qadriyatlar ulug` mutafakkir olimlarning ilmiy asarlarida ham o`z ifodasini topgan. Buni ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg`oriy, Kaykovus va boshqa buyuk zotlarning asarlarida ko`ramiz. Bu ulug` allomalar o`zlaridan oldin o`tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlar uchun ko`zgu deb biladilar va o`zlaridan keyingi avlodga taqdim etadilar. Har bir xalqning madaniyati, iqtidori, ulug`vorligi, buyukligi o`sha xalqning betakror an‘analari va qadriyatlarida to`liq aks etishi mumkin. Millatning madaniy saviyasi asrlar davomida shakllanadi. Madaniy tafakkur qabul qilgan har bir odat, an‘ana avlodlar ko`z oldida asrlar davomida sinovdan o`tadi. Ana shunday sinovlardan o`tgan an‘ana, urf-odatlargina haqli ravishda xalqning ma‘naviy qadriyatlariga aylanadi. Maktab o`quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda, avvalo milliy tarbiyamiz, milliy xususiyatlarimizni yoritish muhimdir. Milliy tarbiya o`qituvchidan o`ziga xos pedagogik mahoratni talab qiladi. Buni targ`ibotchilik mahorati deb atash mumkin. O`qituvchi-targ`ibotchi muvaffaqiyatning eng muhim shartlaridan biri – dalillar sistemasida foydalanishdir. Buning uchun dars, ma‘ruza haqqoniy, hayotiy, tekshirib ko`rilgan dalillar bilan bezalmog`i kerak. “milliy tarbiya, milliy qadriyat kerak-juda muhim”, - har bir o`quvchi, o`qituvchidan yangi, qiziq ma‘lumotlarini, dalillarni kutadi. Maktab o`quvchilariga ta‘lim-tarbiya berishda, ajdodlar merosidan foydalanish, buyuk allomalar timsolini yoritish, ularda shu allomalarning, shu xalqning avlodi ekanligidan faxrlanish, shu Vatanni sevish, uni asrab-avaylash va mustahkamlashda, shu buyuk zot, ulug` xalqqa nisbatan munosaib farzand bo`lish, ularning davomchisi ekanligini ongida shakllantirmoq kerak.

SHAXS TARAQQIYOTI JARAYONIDA YOSH DAVRLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi
301-guruh talabasi Ergasheva Zebuniso

Mazkur maqolada shaxs taraqqiyoti va yosh davrlar psixologiyasining asosiy nazariy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida shaxs rivojlanishining psixologik mexanizmlari Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi asosida yoritilib, yosh davrlarida yuzaga keladigan psixologik inqirozlar va ularning shaxs shakllanishidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy va institutsional omillar Béla Pokolning sotsiologik yondashuvi nuqtai nazaridan baholanadi. Maqolada psixologik va sotsiologik yondashuvlarning integratsiyasi orqali shaxs taraqqiyotini kompleks tahlil qilish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shaxs rivojlanishini tushunishda multidisiplinar

yondashuvning nazariy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi hamda ta’lim-tarbiya jarayonida, psixologik maslahat va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda foydalanish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: shaxs taraqqiyoti, yosh davrlar psixologiyasi, psixosotsial rivojlanish, Erik Erikson, ego, hayotiy sikl

Shaxs taraqqiyoti insonning tug‘ilishidan boshlab hayotining oxirgi davrigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida psixik jarayonlar, individual xususiyatlar hamda shaxsiy sifatlarning uzluksiz va dinamik tarzda o‘zgarib borishi jarayonini ifodalaydi. Ushbu murakkab jarayon turli yosh davrlarida o‘ziga xos psixologik xususiyatlar bilan namoyon bo‘lib, har bir bosqich shaxsning keyingi rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Yosh davrlar psixologiyasi esa shaxs rivojlanishining qonuniyatlarini, har bir ontogenetik bosqichning psixologik mazmunini hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlarning jadallashuvi, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi shaxs shakllanishi jarayoniga yangi talab va chaqiriqlarni yuzaga keltirayotgani bilan izohlanadi. Shaxs taraqqiyotini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki ta’lim-tarbiya tizimi, sog‘liqni saqlash hamda ijtimoiy siyosat sohalarida samarali amaliy strategiyalar ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi shaxs taraqqiyoti va yosh davrlar psixologiyasiga oid asosiy nazariy yondashuvlarni tahlil qilish, xususan, Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasini ochib berish hamda shaxs rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-madaniy omillarni Béla Pokolning sotsiologik yondashuvi asosida baholashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasining asosiy tamoyillari va yosh davrlariga xos psixologik xususiyatlarni yoritish; shaxs taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy va institutsional omillarning rolini tahlil qilish; psixologik va sotsiologik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash hamda mavjud nazariyalarning zamonaviy amaliyotdagi ahamiyatini baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shaxs taraqqiyotini faqat psixologik yondashuv doirasida emas, balki sotsiologik nazariyalarni integratsiyalash orqali tahlil qilishga urinishda namoyon bo‘ladi. Bunday integrativ yondashuv shaxs rivojlanishining ichki psixologik mexanizmlarini ijtimoiy va institutsional muhit bilan uzviy bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi shaxs taraqqiyotining psixologik jihatlarini, ayniqsa ijtimoiy munosabatlarning shaxs shakllanishidagi rolini yoritib bersa, Béla Pokolning sotsiologik tahlili ushbu jarayon kechadigan kengroq ijtimoiy-institutsional kontekstni ochib beradi. Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi shaxs rivojlanishini har tomonlama anglash uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

ЎЙИНЛАР ВОСИТАСИДА ЎҚУВЧИЛАР ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

Усмонова Шоира Сиддиқовна
Андижон Давлат Университети
Психология ва педагогика кафедраси ўқитувчиси
Шермухаммедов Маҳкамбой Маҳсудали ўғли
АДУ Амалий психология йўналиши талабаси

Бошланғич таълимда ўйин ижодий фаолиятнинг бир шаклидир. Бунда ўкувчи ижтимоий ва моддий борлиқни билиш ҳамда англаш асосида эмоционал – хиссий, интеллектуал-ахлоқий ривожланади.

Ўйинлар, уларнинг инсон тараққиётидаги ўрни ҳақида психология, этнография, маданият, педагогика фанларида бир қатор тадқиқот ишлари олиб борилган. XIX асрнинг охирида немис олими К. Гросс ўйинларни тизимли ўрганишга харакат қилган бўлса, немис психологи К.Бюллер ўйинларни "қониқиш ҳосил қилувчи" фаолият сифатида тадқиқ этади. Л.С. Виготский, А. Н. Леонтъевлар фикрича, ўйинларни назарий жихатдан ижтимой табиатига кўра маълум фаолиятига йўналтирилганлиги билан боғлаб, тадқиқ этган бўлсалар, Д.Б.Элконин шахс хулқини бошқаришни таркиб топтириб , уни такомиллаштирувчи фаолият сифатида талқин этадилар. Лекин ўйинларни ягона ва энг муҳим асосий хусусияти унинг таълимдаги ахамиятлилигидир. Ўйинларда боланинг хулқи эркин шаклланади ва ижтимоийлашади. Ўйинларнинг энг мухим жиҳати унинг икки тамонлама характерга эгалиги бўлиб, унинг драматик санъатга ҳам мослигидир.

Бир тамондан ўйин иштирокчилари уни амалга оширишда муайян ностандарт вазифалар билан боғлиқ хақиқий фаолиятни бажарсалар, иккинчи томондан эса ўйинлар бу фаолиятнинг аксарият пайтларида маъсулиятни ҳис этган ҳолда хақиқий вазиятлардан четга чиқувчи шартли хусусият ҳам касб этадилар. Демак, ўйинларнинг икки томонлама вазифани бажариши унинг ривожланувчи натижага эга бўлишига сабаб бўлади. Ўйин фаолияти элементларидан таълим жараёнида кенг фойдаланилади. Улар ишбоп ўйинлар, дидактик ўйинлар, ролли ўйинлар, компютер ўйинлари шулар жумласидандир. Ишбоп ўйинлар касб фаолияти предмети ёки ижтимоий мазмунини қайтадан яратиш шакли бўлиб, амалиётнинг ана шу турига хос муносабатлар тизимини моделлаштиришдир. Ишбоп ўйинларни ўтказишда унинг қатнашувчилари фаолиятини махсус (ўйин тарзида) имитатсия моделида ривожлантиришдан иборатдир. Ўйинларнинг характерига кўра ўқув жараёни ўйинлари тадқиқотчилик ўйинлари, бошқарув ва аттестацияга доир ўйинлар турига бўлинади. Ўқув жараёнига доир ўйинлар ўқув предметлар бўйича истиқболда касбий фаолиятини тўғри ташкил этиш ва шахсни мақсадга мувофиқ шакллантиришга шарт-шароитлар яратади. Ана шу шарт-шароитлар натижасида олинган янги билимлар келгуси касбий фаолиятни тўғри йўлга қўйишга ёрдам беради.

Маълумки, таълим ҳамкорликка асосланиб, жамоавий характер касб этади; касбга хос фаолият қоидалари ва жамоанинг ижтимоий қоидаларига мос холда амалга ошади. Ана шу маънода таълимнинг дидактик ва тарбиявий аҳамияти ўзаро бирлашиб, ўйин фаолияти шаклида ўқувчиларнинг фаоллиги ортади. Ишбоп ўйинларда тавсия этилган муаммоли топшириқ мақсадга мувофиқ диалогик мулоқот асосида иштирокчиларни рағбатлантиради, қизиқишларини орттиради, эмоционал руҳ пайдо қилади. Дидактик ўйинлар таълимий мақсадларни амалга оширадиган ва уларга мослаштирилган бўлади. Дидактик ўйинлар тизимидан биринчи марта мактабгача жараёнида фойдаланишга доир Ф.Фрибил ва М.Монтисорилар ишлаб чиққан бўлса, бошланғич таълим учун О.Дикроли тадқиқотлар олиб борган. 60-70 йиллардан бошлаб фақат бошланғич таълимда эмас, умумий ўрта таълимда ҳам фойдаланила бошлади. 80-йилларда айниқса, ишбоп ўйинлар кенг тарқала бошланди. Ишбоп ўйинларнинг асосий хусусияти ўйин режасининг ўқув мақсадига йўналганлигидадир. Чунки ўқув мақсади ўйин вазифалари доирасида этилади. Демак, ўйинлар болаларнинг асосий фаолият тури бўлиб, у орқали кичик мактаб ёшдаги ўқувчилар ҳаётни, борлиқни, теварак- атрофни ўрганадилар ва унга мослашадилар.

Ўйин пайдо бўлиши учун қуйдагилар муҳим саналади:

- ўйин иштирокчилари билан бўлган мулоқатдан қониқиш ҳиссининг пайдо бўлиши;

- табиийлик, эмоционал ҳиссиётнинг вужудга келиши;

- ўйин давомида ўқувчиларнинг ўзининг табиий эхтиёжларини қондиришга ҳаракат қилиши ва ҳоказолардир.

Ижтимоий- психологик аҳамияти жиҳатидан ўйинлар асосан иккита вазифани бажаради;

- маълум ижтимоий билимларни эгаллаш;

- зарур ижтимоий қоидаларни шакллантириш.

Шунингдек, муаммо нуқтаи назардан ёндашганда, ўйинлар ўқувчининг ижодий фаолиятини фаоллаштириш билан унинг ижодий қобилиятини ўстиради. Айнан фаол ўқитиш методлари ҳам ана шундай ўйинларга таянилган холда ташкил этилади. Ҳар бир ўйин бир неча дақиқадан тортиб, ундан кўпроқ вақт давом этиши мумкин ва унда иккита боладан тортиб то ўн ўқувчигача иштирок этади. Демак, болалар ўйининг сифати ва самарадорлиги унда иштирок этувчиларнинг ҳаётий кузатишлари ва шахсий тажрибасига бевосита боғлиқ бўлади. Бунда онглилик, ташаббускорлик ва иродалилик каби сифатлар аҳамият касб этади. Шу сабабли турли ижтимоий- психологик тавсифга эга ўйинларган ўқув жараёнида фойдаланиш, шак-шубҳасиз ўз самарасини кўрсатади.

TA'LIM OLISH JARAYONIDA O'QUVCHIDAGI XOTIRA XUSUSIYATLARINING AHAMIYATI

Usmonova Shoira Siddiqovna
Andijon Davlat Universiteti
Psixologiya va pedagogika
kafedrasi o‘qituvchisi
Turg`unov Pahlavon Mahmud Kozimjon o`g`li
Amaliy psixologiya yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada xotira xususyatlarining ta’limdagi ahamiyati, turlari va xotirani rivojlantirish xaqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Xotira, obrazli xotira, so’z-mantiq xotirasi, mexanik xotira, emotsional xotira.

O’quvchi ta’lim jarayoniga ilk qadamlarini qo’yar ekan, yoshiga xos bo’lgan o’yin faoliyatidan o’qish faoliyatiga o’tadi. Boshlang’ich ta’lim jarayonida bolaning bir faoliyatdan ikkinchi bir faoliyatga o’tishi anchagina murakkab jarayon bo’lib bu o’ziga hos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maktabgacha ta’lim davrida bola yuqori guruxlarda ta’lim-tarbiya olar ekan, boshlang’ich sinfga qadam qo’ygan kunidan ushbu ta’limning eng quyi pog’onasidan boshlaydi. Bu davr yosh va pedagogik psixologiyada kichik maktab yoshi deya yuritiladi. Xotira o’zi nima? Individning o`z hayotiy tajribasini esida olib qolishi, esda saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar farqlanadi: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish. Bu jarayonlar biri-biridan ajralgan holda yuzaga chiqmaydi. Ular bir umumiy bir jarayonning turli tomonlarini tashqil qiladilar. Xotiraning yuzaga chiqishi, rivojlanishi kishining faoliyati bilan bog`liq. Ma`lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya`ni shaxsiy tajribani to`plash bilan bog`liqdir. To`plangan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qayta esga tushirishni talab qiladi. Ma`lum materialning faoliyatda qatnashmay qolishi yoki faoliyatidan tushib qolishi uni esdan chiqarib quyishga olib keladi.

Mexanik xotira – ma’nosini tushunmay quruq yodlanadigan usul. Uning asosini esda olib qolinadigan ma’lumotlarni oddiy takrorlash, ma’nosini anglamasdan turib ko‘p martala b idrok etish tashkil etadi. Mexanik xotira ancha yuqori turdagi xotiralarning eng oddiy asosidir, usiz ma’lumotlarni eslab qola olmaymiz.

Obrazli xotira – bu tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuningdek, ovoz, hid, ta’mlarga nisbatan bo‘lgan xotira. U ko‘rish, eshitish, tuyish, hid bilish va ta’m bilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Ba’zan eydetik xotira – ba’zi individlar-ning(eydetiklar) avval idrok qilingan jism va sahnalar o‘ta to‘laqonli va obrazini esda saqlash va eslash qobiliyatiga ega bo‘lgan odamlar uchrab turadi. Eydetik obrazlar jismning mavjud emasligida yuzaga kelib, oddiy tasavvurga xos bo‘lmagan izchil ko‘rgazmalilik xususiyatiga ega bo‘lishi bilan tasavvurlarga o‘xshash bo‘ladi.

Emotsional xotira – bu boshdan kechirilgan sezgi va emotsional holatga nisbatan xotira. Hissiyotlar doimo ehtiyoj va qiziqishlarimizning qanday qoniqtirilayotgani, atrof-olam bilan munosabatlarimiz qanday amalga oshirilayotgani haqida xabar berib turadilar. Boshdan kechirilgan va xotirada saqlanib qolgan sezgilar harakatga boshlovchi yoki o‘tmishda salbiy kechinmalarni uyg‘otgan harakatdan tutib qoluvchi xabarlar sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘z-mantiqiy xotira fikrlar, tushunchalarni esda olib qolish, saqlash va eslashda ifodalanadi. So‘z-mantiqiy (semantik, verbal) xotira yordamida inson aqliy qobiliyati axborot bazasi hosil bo‘ladi, ko‘pchilik fikrlash operatsiyalari (o‘qish, hisob va h.k.) amalga oshiriladi. So‘z-mantiqiy xotirada muhim o‘rinni ikkinchi xabar tizimi egallaydi. So‘z-mantiqiy xotira – bu o‘zining sodda shakllarida hayvonlarga ham xos bo‘lgan motorli, emotsional va obrazli xotiralardan farqli ravishda faqat insonga xos bo‘lgan maxsus xotira. Xotiraning bu turi maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishda etakchi o‘rinni egallaydi.

Xotirani qanday qilib rivojlantirish mumkin?

• Materialni bir necha bor qaytaring, uzoq muddat eslab qolish imkonini beradi. Erinmang. Ismni yodda saqlab qolish uchun uni talaffuz qilgan zahotiyoq takrorlang, biroz kutib, yana qaytaring.

• Takrorlash va material bilan ishlashga ko‘proq vaqt ajrating. Minimal darajada takrorlash bilan murakkab materialni tez o‘qish (yuzaki ko‘z yugurtirish) uning xotirada qolishiga yordam bermaydi. Materialni takrorlab, uni tanqidiy anglash katta foyda keltiradi. Faol mashq qilish (yodlash) lozim.

• Materialni eslab qolish uchun uni o‘zingizga qulay qilib tashkil eting. Keyin ularning mazmunini yaxshi eslab qolish uchun mantlarni konspekt qilib, ma’ruzalarni o‘z so‘zlaringiz bilan yozib oling. Axbarotning ongsiz ravishda takrorlashdan ma’no yo‘q. Yaxshisi assotsiativ (bog‘lanishli) aloqalarni o‘rnatib, ma’lumotlarni tartibga solish, yangi materialni siz o‘zingiz bilgan va boshingizdan o‘tkazgan narsalar bilan solishtiring hamda o‘z fikringiz bilan qayta hikoya qilib bering. Bularsiz siz noqulay vaziyatga tushib qolishingiz va agar savol siz rejalashtirmagan shaklda berilgan paytda ushbu savolni tushunmay qolishingiz mumkin. Gaplarni eslab qolishning mufassal guruhini tashkil etishning ko‘proq tasavvurlariga ega bo‘ling.

• Notanish tushunchalarni yodda saqlab qolish uchun mnemoik (esga olishni osonlashtiradigan) uslublardan foydalaning, notanish so‘zlarni tayan-so‘zlar bilan bog‘lang. Nomlanishlarni obrazli tasavvur qilish uchun vaziyatlarni o‘ylab toping. Ma’lumotlarni akronimlarga ajratib chiqing.

• Assotsiativ (bog‘lanishli) aloqalar orqali xotirada axbarotni yangilab turing.

• Hayolan eslab qolish ro‘y bergan vaziyat va kayfiyatni o‘zingizda tasavvur qiling. Hayolan usha joylarga qaytib boring. Har bir aytmoqchi bo‘lgan fikringiz ketma-ketligi avvalgisining ortidan kelishi uchun qulay tarzda vaziyatlarni yodga oling.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, xotira jarayonlari dinamik hususiyatga ega bo’lib doimo shakllanib boradi. Demak xotirani rivojlantirish va takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar:

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мирашировa “Общая психология” – Ташкент 2014.

O‘YINLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK FAOLLIGINI OSHIRISH

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Xolmirzayev Muhammadsuyuf Mansurjon o`g`li

Annotatsiya: Maqolada o’yinli texnologiya orqali o’quvchilar faolligini oshirish, ijodkor o’yinlardagi ko’tarinki kayfiyat, o’yinning tarbiyaviy maqsadi, ta’limiy maqsadlar, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so’zlar: o‘yinli texnologiyalar, ijod maydoni, didaktik maqsad, tadbirkorlik o‘yini

O’quvchilarni faollashtiruvchi o‘yinli texnologiyalardan foydalanish ta’lim –tarbiya tizimining asosini tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar: maftunkorlik; kommunikativlik; o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish; davolovchilik; tashxis; millatlararo muloqot; ijtimoiylashuv.

O‘yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga - «ijod maydoni»ga ega bo‘ladi. O‘yin uchun hissiy ko‘tarinkilik xosdir. U o‘zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo‘ladi. O‘yinning o‘yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko‘zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo‘lishini ko‘rsatadilar.

O‘yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O‘yinlar turli maqsadlaiga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ular didaktik, taibiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo‘llaniladi.

O‘yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash, umumta’lim malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma’naviy, yestetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o‘yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog‘ishtirish, o‘xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, yempatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o‘quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv o‘yinlari jamiyatning me’yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko‘nikish, yehtiroslarni nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqotga o‘rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o‘yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o‘yinlar «o‘yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o‘yinda ta’limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo‘yiladi. Pedagogik o‘yinlar asosida talabalarni o‘quv faoliyatiga yo‘llovchi o‘yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

Maktab amaliyotida tadbirkorlik o‘yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o‘yinlari nazariyasi umuman boshqa o‘yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog‘langan.

Tadbirkorlik o‘yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1. O‘quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig‘i shaklida qo‘yish:

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan va avval egallangan bilimlardan foydalanish:

3. Tadbirkorlik o‘yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejalashtirish:

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o‘rganish va tahlil qilish bo‘yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o‘yinlaridagi o‘z mavqeini aniqlash.

6. O‘zlaridagi bor bilim, malaka va ko‘nikmalar asosidagi reja bo‘yicha ishlarni bajarish:

7. O’quvchilar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko‘nikmalarini nazorat qilish va joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.

8. O‘yin ishtirokchilariga joriy yo‘l-yo‘riqlar berish.

9. O‘yin ishtirokchilarining o‘yin davomida o‘zi o‘ynagan rollariga baho berishi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishi.

Shunday qilib, tadbirkorlik o‘yinlaridan yangi bilimlarni egallash, o‘tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o‘yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:

Imitatsion o‘yinlar, operatsion (voqeiy) o‘yinlar, rol ijro etish o‘yinlari, tadbirkorlik teatri, psixodrama va sosiodrama.

Tadbirkorlik o‘yinlari texnologiyasi:

O‘yinga kirishish.

O‘tkazish bosqichi.

Tahlil bosqichi.

Ushbu Tadbirkorlik o‘yinlari o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi yo’nalish hisoblanib, mantiqiy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardor, yetuk mutaxasis bo‘lishlariga hamda mutaxasisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiylar

1. Mallaev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000

2. O‘.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005.

MANTIQIY FIKRLASHNING TA’LIM JARAYONIDA O‘QUV SIFATINI OSHIRISHDAGI PSIXOLOGIK ROLI

Andijon davlat universiteti
Huquq va iqtisodiyot fakulteti Geografiya yo‘nalishi 301-guruh talabasi
Ziyaiddinov Abdulsamad Ilyosjon o`g`li

Annotatsiya: Ushbu maqolada mantiqiy fikrlashni ta’lim sifatini oshirishdagi psixologik vosita sifatida o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida mantiqiy fikrlashning o‘quvchilarning bilimlarni egallash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari va pedagogik strategiyalar psixologik jihatdan o‘quvchilarning motivatsiyasini, diqqatini jamlash qobiliyatini va o‘quv jarayonida faolligini oshirishga yordam berishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mantiqiy fikrlashni sistematik rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishda samarali psixologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: BMT, Djon Dyui, mantiq, mantiq qonunlari.

BMT qoshidagi YUNESKO tashkiloti tomonidan XX-asr pedagogikasiga ulkan hissa qo’shgan to`rt olim tan olingan. Shulardan biri bo’lgan amerikalik mashxur pedagog Djon Dyui tomonidan mantiqiy fikrlashga asoslangan muammoli ta’lim texnologiyasi birinchilardan bo’lib ta’limga olib kirildi. Mantiqiy fikrlash bugungi kunda ham ta’lim oluvchising eng kuchli va o’ziga xos jixati bo’lib qolmoqda. Jaxon bozorida mantiqiy fikrlay oladigan kadrlarga talab kundan kun ortib bormoqda. Mantiqiy fikrlashni mantiq fani o’rgatadi. Kelib chiqishiga ko’ra arabcha bo’lgan “mantiq” atamasi “fikr”, “so’z”, “aql”, “qonuniyat” kabi ma’nolarga ega. Mantiq fani o’quvchilarda to’g’ri fikrlash qonun-qoidalarini o’rgatadi. Mantiqiy tafakkurning asosiy qonunlari mavjud:

Ayniyat qonuni.

Ziddiyat qonuni (nozidlik qonuni).

Mustasno qonuni.

Yetarli asos qonuni. Bu qonunlar mantiqiy fikrlashning asosini tashkil qiladi.

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga hos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Bu ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi. Adabiyotimizdagi tuyuq janrda yozilgan baytlar bunga aynan misol bo'la oladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Uchinchisi istisno qonuning amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo'lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo'lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir birini hajm jihatdan to'liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo'lib, inson tushunchasining to'liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim hususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish hususiyati ifodalanadi.

Yuqoridagi qonuniyatni o'zida mujassamlashtirgan mantiqiy masalalardan misol keltiramiz.

Anvar, Botir, Hakim va Doniyor bir yilda tug'ilishgan. Ularning tug'ilgan kunlari 20-Fevral, 12-April, 12-May va 25-May, ammo tartib boshqacha bo'lishi mumkin. Botir va Anvar bir oyda tug'ilishgan. Anvar va Hakim bir xil kunda ammo har xil oyda tug'ilishgan. Kim eng katta?

(A) Anvar (B) Botir (C) Hakim (D) Doniyor (E) Ma'lumot yetarli emas.

Yechish usuli:

	20-fevral	**12-aprel**	**12-may**	**25-may**
Anvar	**X**	**x**	**+**	**x**
Botir	**X**	**x**	**x**	**+**
Hakim	**X**	**+**	**x**	**x**
Doniyor	**+**	**x**	**x**	**x**

Mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni qanday shakllantirishimiz mumkin? Buning bir nechta usullari mavjud:

1. **Shaxmat.** Bu sizning fikrlashingizni rivojlantiruvchi klassik usul. Shaxmat strategik va taktik fikrlashga o'rgatuvchi samarali usul hisoblanadi. Ushbu o'yin o'quvchilarning oldindan reja asosida harakat qila olish ko'nikmasini, vaziyatga holis chetdan baho bera olish ko'nikmasini shakllantiradi;
2. Rebuslar va yaponcha krossvordlar;
3. Anagrammalar – o'quvchilarga ma'lum so'zlar tartibsiz harflar ko'rinishida taqdim etiladi. Ushbu tartibsizlik fikrlash jarayoniga ta'sir qilib mantiqan to'g'ri so'zni yasalishga sabab bo'ladi;
4. Ortiqcha so'zni toping – bir qator berilgan so'zlar orasidan boshqa so'zlarga o'xshamaydigan so'zlarni topish uchun fikrlash jarayoni boshlanadi. Klassifikatsiyalash va analiz qilish natijasida qator uchun mos bo'lmagan so'z topiladi.
5. Chet tilini o'rganish – insonni boshqa inson sifatida vaziyatga baho bera olish ko'nikmalarini shakllantiradi.
6. Badiiy kitoblar o'qish – vaziyatni tahlil qila olish jaraynni oldindan aytib bera olish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Hulosa qilib aytadigan bo’lsak bugungi kunda har bir kadr o’z ustida ishlab mantiqiy va tanqidiy fikrlashini o’stirmas ekan zamon talablaridan ortda qolib ketaveradi. O’z ustida doimiy ishlash esa kadrning hayotda o’z o’rnini topishiga ko’mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar

1. Prezident maktabiga qabul testlaridan namunalar.
2. “Mantiq” M.Sharipov, D.Fayzixo'jayev G’.G’ulom nashriyoti T.: 2004 y.
3. https://uz.unistica.com/

O'QUVCHILARDA XAVOTIR VA DEPRESSIYANING ZAMONAVIY TURMUSH TARZI BILAN BOG'LIQ OMILLARI

Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya yo’nalishi
4-bosqich 402-guruh talabasi
Abdusattorova Dilbegim

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy turmush tarzi o’quvchilar ruhiy salomatligiga, xususan xavotir va depressiya rivojlanishiga ko’rsatadigon ta’siri tahlil qilinadi. O’quv yuklamasining ortishi, ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ota-ona va tengdoshlar bilan muloqotning kamayishi hamda uyqu gigeyenasining buzilishi asosiy omillar sifatida mulohaza yuritiladi.

Kalit so’zlar: xavotir, depressiya, o’quvchi psixologiyasi, zamonaviy turmush tarzi, psixologik bosim, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация: В данной статье анализируется влиянние современного образа жизни на психическое здоровье школьников, в частности на развитие тревожности и депрессии. Основными факторами рассматриваются увеличение учебной нагрузки, зависимость от социалных сетей, снижение общения с родитилями и сверстниками, а также нарушение гигиены сна.

Ключевые слова: тревожность, депрессия, психология учащихся, современный образ жизни, психологическое давление, социальные сети.

Annotation: this article analyzes the impact of modern lifestyle factors on the mental health of school students, particularly the development of anxiety and depression. Increased academic workload, social media addiction, reduced communication with parent and peers, and disrupted sleep hygiene are identifed as key contributors to these psychological challenges.

Keywords: anxiety, depression, student psychology, modern lifestyle, psychological pressure, social media.

So’ngi yillarda o’quvchilar orasida ruhiy tushkunlik, xavotir, motivatsiyaning pasayishi kabi psixologik muammolar keskin oshdi. Jahon ma’lumotlariga ko’ra dunyodagi o’smirlarning o’n olti foizi turli darajadagi depressiv alomatlarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy turmush tarzi, raqamli texnologiyalar va axborot oqimining ko’pligi yoshlarning ruhiy salomatligiga sezilarli ta’sir ko’rsatmoqda.

Amerikalik klinik psixolog Aaron Bek kognitiv terapiya asoschilaridan biri o’z tadqiqotlarida shunday xulosaga keladi: “O’quvchi va o’smirlar orasida uchraydigon xavotir va depressiv holatlar ko’pincha ularning hayotidagi tashqi bosimlar va ichki kognitiv talqinlarning

mos kelmasligidan kelib chiqadi. Salbiy fikrlash andozalari kuchaysa, emotsional beqarorlik kuchayadi va ijtimoiy moslashuv qiyinlashadi.”

Raqamli texnologiyalarning jadal rivoji o’quvchilarning o’quv faoliyati, ijtimoiy tajribasi va psixik holatiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi bilan birga ularning ruhiy salomatligiga bir qator xavf omillarini ham shakllantirayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa yosh organizmning kognitiv va emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi.

Instagram, Tik Tok, YouTobe kabi platformalarda ideal ko’rinish, sun’iy muaffaqiyat va filtrlab namoyish etilgan hayot o’quvchilarni real hayot bilan virtual hayot o’rtasida solishtirishga majbur qiladi. Doimiy solishtirish esa o’ziga past baho berish, o’zini yoqtirmaslik, tanasi bilan norozilik kabi psixologik holatlarni kuchaytiradi. Bu jarayonning uzoq davom etishi depressiv simptomlarning rivojlanishiga asos bo’lib xizmat qiladi.

“like”, “comment”, “followers” kabi indikatorlar o’quvchilarda dofamin mukofot tizimini sun’iy rag’batlantiradi. Natijada ular virtual tasdiqqa qaram bo’lib, o’zini qadrli his qilishni tashqi bahoga bog’lay boshlaydi. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, ijtimoiy tarmoqlarda yuqori faollik ko’rsatgan 12-16 yoshdagi o’smirlar orasida xavotir buzilishi ikki baravar ko’p uchraydi.

Ko’pchilik o’quvchilar yotishdan oldin 1-2 soat raqamli qurilmalardan foydalanishni odat qilgan. Biroq, ilmiy tadqiqotlar bunday odatning uyqu jarayoniga jiddiy ta’sir ko’rsatishini ko’rsatmoqda. Ekranlardan tarqaluvchi ko’k nurlar organizmda tabiiy uyqu gormoni - melatoninning ishlab chiqarilishini sezilarli darajada kamaytiradi. Melatonin miqdorining pasayishi esa uyquga ketishni qiyinlashtiradi, organizmning tiklanish jarayonlarini izdan chiqaradi. Jumladan:

- diqqat va konsentratsiyaning susayishi,
- emotsional beqarorlik, tez-tez asabiylashish,
- asossiz xavotir kuchayishi,
- depressiv kayfiyatning paydo bo’lishi.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, muntazam ravishda uyqusizlik kuzatilishi depressiyaning eng muhim va kuchli prognostik ko’rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun o’quvchilarning yotishdan avval telefon ekraniga tikilib qolmasligi, raqamli gigiyenani yo’lga qo’yishi va uyqu rejimini barqarorlashtirishi ularning ruhiy salomatligi uchun nihoyatda muhimdir.

Modernizatsiyalashayotgan ta’lim tizimi o’quvchilardan yuqori natijalar, raqobatbardoshlik va erta kasbiy yo’nalish tanlashni talab etmoqda. Buning oqibatida psixologik bosim keskin kuchayib, maktab o’quvchilar orasida stress, xavotir va depressiv holatlar soni ortmoqda.

So’nggi tadqiqotlar o’quvchilarning haftasiga o’rtacha 12-20 soatini uy vazifalariga sarflayotganini ko’rsatmoqda. Bunday ortiqcha yuklama:

- bo’sh vaqtning kamayishi,
- to’liq dam olmaslik,
- emotsional zo’riqish,
- o’ziga ishonchning pasayishi

Kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Natijada o’quvchi “akademik charchoq sindromi”ni boshdan kechiradi, bu esa ruhiy barqarorlik va o’quv motivatsiyasini sezilarli darajada susaytiradi.

Ota-onalar va o’qituvchilarning yuqori talablar qo’yishi o’quvchilarda “o’zini talablarga javob bermayapman” degan irratsional fikrlarni shakllantiradi. Bu holat:

- tashqi bahoga haddan tashqari bog’lanish,
- xatodan qo’rqish,
- kuchli xavotir,
- perfeksionistik intilishlar

kabi psixologik bosimlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar perfektsionistik shaxslar orasida depressiya rivojlanish ehtimoli 2-3 baravar yuqori ekanini ko’rsatadi.

Bunga qo’shimcha ravishda, zamonaviy turmush tarzi o’quvchilarning oila va tengdoshlar bilan muloqot qilish vaqtini keskin qisqartirmoqda. Bu jarayon psixologlar tomonidan “emotsional izolyatsiya sindromi” sifatida baholanadi. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, ijtimoiy muloqotning kamayishi o’quvchilarda xavotir va depressiyaning eng muhim psixosotsial omillaridan biridir.

Ijtimoiy muloqotning keskin qisqarishi o’quvchilarni “yolg’izlik hissi”, “keraksizlik” kabi salbiy fikrlarga yaqinlashtiradi. Yolg’izlik - depressiyaning eng kuchli xavf omillaridan biri sifatida tan olingan. Emotsional izolyatsiya shuningdek:

- o’ziga bo’lgan ishonchning pasayishi,
- salbiy o’zlik tasavvuri,
- haddan tashqari ichki dialog,
- o’zini ayblash va tanqidchanlik

uchun qulay psixologik zamin yaratadi.

Zamonaviy turmush tarzining tezkorligi, raqamli texnologiyalarning keskin rivoj, ijtimoiy muloqotning kamayishi, o’quv yuklamasining ortishi va shu kabi holatlar o’quvchilarning emotsional salomatligiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy turmush tarzi o’quvchilarning psixologik farovonligiga ko’p qirrali ta’sir ko’rsatmoqda. Shaxs va emotsional rivojlanish nazariyalarini yaratgan yetakchi olimlar - A.Bandura, E.Erikson, A.Beck va boshqalarning nazariyalarida shuni ko’rish mumkinki, o’quvchilarning emotsional holati ularning atrof-muhitidagi psixosotsial omillar, shaxsiy identitet rivoji, o’z-o’zini baholash darajasi va oilaviy qo’llab-quvvatlash bilan chambarchas bog’liqdir. Nazoriy asoslar zamonaviy hayotdagi stressor omillarni chuqur tushunish va ularga samarali ta’sir ko’rsatish yo’llarini belgilashga imkon bersa, to’g’ri yo’naltirilgan psixologik-pedogogik chora-tadbirlar orqali o’smirlarning ruhiy barqarorligini mustahkamlash, sog’lom identitet shakllanishini qo’llab-quvvatlash va ularning o’quv jarayonida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). O’quvchilar ruhiy salomatligini qo’llab-quvvatlash bo’yicha metodik qo’llanma. Toshkent.
2. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: Freeman.
3. Beck, A., & Clark, D. (1997). Behaviour Research and Therapy.
4. UNICEF. (2023). Adolescent Mental Health
5. World Health Organization (WHO). (2023). Adolescent Mental Health - Global Overview.
6. Beck, A.T., (1979). Cognitive Theory of Emotional Disorders.

BOLALAR ADABIYOTI VA PEDAGOGIK NAZARIYANING TARBIYAVIY ASPEKTLARI

Ismailova Gulnoza Arifovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
E-mail: email misguli 1986@ gamail.com
Tel: +99888 162-17-05

Anotatsiya: Adabiyot bolalar uchun axloqiy qoidalarni tushuntirish, ijtimoiy munosabatlarni o‘rgatish va estetik didni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik nazariyalar esa tarbiya jarayonini ilmiy asoslash, samarali metodlarni ishlab chiqish va bolalarni rivojlantirishda zarur bo‘lgan nazariy asoslarni taqdim etadi. Tezisda shuningdek, bolalar

adabiyoti va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya va ularning birgalikda tarbiyaviy jarayonni qanday takomillashtirishga imkon yaratishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Bolalar adabiyoti, pedagogik nazariyalar, tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, shaxsiy rivojlanish, o‘quv materiallari, zamonaviy pedagogika, axloqiy qadriyatlar.

Bolalar adabiyoti va pedagogik nazariyalar tarbiyaning ajralmas qismlari hisoblanadi. Bolalar adabiyoti bolalar dunyosini, ularning fikrlash va his-tuyg‘ularini anglashda, shuningdek, ularga axloqiy va estetik ta'lim berishda katta rol o‘ynaydi. Pedagogik nazariyalar esa tarbiya jarayonini ilmiy asoslash, metodikani ishlab chiqish va unga muvofiq bolalarni tarbiyalash uchun zarur bo‘lgan nazariy asoslarni taqdim etadi. Ushbu tezisda bolalar adabiyotining tarbiyaviy roli va pedagogik nazariyalar bilan o‘zaro aloqalari ko‘rib chiqiladi.

Bolalar adabiyotining mohiyati va o‘rni.

- Bolalar adabiyoti – bu yosh avlodga mo‘ljallangan, ularning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va estetik didini rivojlantirishga yordam beradigan adabiyot turidir.
- U, shuningdek, bolalar xayoliga tasir etish, ularni yaxshi va yomonni ajratishga o‘rgatish, adolat, do‘stlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlarni singdirish orqali ularni kamolotga yetaklaydi.

Axloqiy tarbiya: Bolalar adabiyoti bolalar uchun axloqiy qoidalarni tushuntiradi va ularni amaliyotda qo‘llashga undaydi. Masalan, ertaklar, hikoyalar va she'rlar orqali bolalar to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshilik va yomonlikni ajratishni o‘rganadilar.

Estetik tarbiya: Bolalar adabiyoti ularning estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Rang-barang hikoyalar, she'rlar va rangli tasvirlar bolalarning estetik his-tuyg‘ularini uyg‘otadi va go‘zallikka bo‘lgan muhabbatni shakllantiradi.

Insoniy munosabatlarni shakllantirish: Bolalar adabiyoti orqali bolalar ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik, yordam berish, bir-birini tushunish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Pedagogika – bu tarbiya jarayonini ilmiy asoslash va samarali metodlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan fan. Pedagogik nazariyalar tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik nazariyaning eng asosiy maqsadi bolalar va yoshlarning rivojlanishini nazorat qilish, ularga axloqiy, intellektual va estetik tarbiya berishdir. Bu nazariyalar, shuningdek, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun pedagoglarning metodik malakalarini oshiradi.

Klassik pedagogika: O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi aloqalar va tarbiya jarayonining an'anaviy usullarini asoslaydi. Bu maktabda axloqiy qadriyatlar, intizom va o‘qituvchining muallifiyat roli ta'kidlanadi.

Modern pedagogika: Zamonaviy pedagogika yoshlarni faol va mustaqil o‘rganishga, ularga yangi texnologiyalarni o‘rgatishga, ularning shaxsiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu maktabda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va kreativlik asosiy o‘rin tutadi.

Humanistik pedagogika: Ushbu nazariya yoshlarni teng huquqli, mustaqil va o‘z-o‘zini ifodalashga yo‘naltiradi. Bu pedagogik usulda bolalarga ko‘proq o‘zini anglash va ichki dunyosini rivojlantirish imkoniyati beriladi.

Pedagogik nazariyalar bolalar adabiyotining mazmunini va shaklini aniqlaydi. Masalan, insho yoki maqola yozishda bolalar uchun o‘qish materiallarini tanlashda pedagogik prinsiplar, masalan, yoshga moslik, axloqiy tarbiya va estetik qadriyatlar e'tiborga olinadi. Adabiyot pedagogik nazariyaning amaliyotiga ko‘maklashadi, ya'ni bolalar o‘qigan asarlar orqali pedagogik ta'limning ko‘plab elementlarini anglab yetadilar va o‘z hayotlariga tatbiq etadilar.

Bolalar adabiyotining pedagogik nazariyalar bilan integratsiyasi orqali bolalar faqat axloqiy va estetik jihatdan rivojlanib qolmay, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham mukammallashadilar. Bunday integratsiya orqali pedagoglar bolalarga to‘g‘ri qarashlar va munosabatlar shakllantiradilar, ularga o‘z muhitini anglashda va dunyoqarashini kengaytirishda yordam beradilar.

Xulosa sifatida aytish mumkunki bolalar adabiyoti va pedagogik nazariyalar tarbiyaviy jarayonni yanada samarali va maqsadga yo‘naltirilgan qilishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar adabiyoti ularning dunyoqarashini rivojlantirishda, axloqiy va estetik didini shakllantirishda, shaxs sifatida ularga ko‘nikmalarni o‘rgatishda yordam beradi. Pedagogik nazariyalar esa bu jarayonni ilmiy asoslash, metodlar va vositalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Shu tarzda, bolalar adabiyoti va pedagogik nazariyalar o‘zaro uyg‘unlashgan holda bolalar tarbiyasini yanada samarali va puxta tashkil etish imkonini beradi.

O‘QITISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR VA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Obidova Zilola Mo‘minjonovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
Nizomiddinov Zaynobiddin Faxriddin o‘gli
+998 90 543 7111

Anotatsiya: Ushbu ishda o‘qitishda muammoli vaziyatlar va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati va metodologiyasi batafsil ko‘rib chiqilgan. Muammoli vaziyatlar talabalarga real hayotdagi murakkab muammolarni tahlil qilish va ular bo‘yicha qarorlar qabul qilishda yordam beradigan samarali o‘qitish metodidir. Bu metod, talabalarga turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqish, mantiqiy tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini yaratadi. Tanqidiy fikrlash esa, talabalarda argumentatsiya, dalillarga asoslanish va qarorlarni tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘qituvchilar muammoli vaziyatlar yordamida talabalarini faollashtirib, ularni mustaqil fikrlashga, kreativ yechimlar ishlab chiqishga va jamoaviy ishda samarali ishlashga o‘rgatadi. Ushbu ishda ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni qo‘llash, talabalar o‘rtasida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va uni real hayotdagi vaziyatlarga moslashtirish usullari ko‘rsatilgan

Kalit so’z: O'qitishda muammoli vaziyatlar, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, o'qitish metodikasi, kreativ o'qitish, o'qitishdagi samaradorlik, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, muammoli vaziyatlar va o'qitish, kritik fikrlash va ta'lim, pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish.

Ta’lim tizimida nafaqat bilim, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim. Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda muammoli vaziyatlar o‘qitish jarayonining samarali metodlaridan biri sifatida ajralib turadi. Muammoli vaziyatlar, talabalarga real dunyo muammolarini hal qilishga tayyorlaydi va ular o‘rganayotgan fanlar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Tanqidiy fikrlash esa, har bir muammo yoki g‘oyani kompleks tarzda ko‘rib chiqish, turli nuqtai nazarlarni hisobga olish va o‘z fikrlarini aniq va asosli tarzda ifodalash qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikmalar, talabalarga akademik muvaffaqiyatni oshirish bilan birga, ijtimoiy va shaxsiy hayotda ham o‘zini to‘g‘ri ifoda etish va murakkab qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Muammoli vaziyatlar o‘qitishda talabalarga tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metod talabalarni muammolarni tahlil qilish, turli qarorlarni baholash va o‘z fikrlarini asoslashga undaydi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, talabalar uchun nafaqat fanlarni o‘rganishda, balki kundalik hayotda ham foydali bo‘ladi, chunki ularni murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Muammoli vaziyatlar — bu talabalarga murakkab, haqiqatdan olingan yoki ehtimoliy hayotiy vaziyatlarni o‘zlashtirish va tahlil qilish imkoniyatini beradigan dars metodidir. Bu metodda, o‘qituvchi talabalar oldiga muammo qo‘yadi, ularni yechish uchun turli alternativalarga qaror qilishga majbur qiladi. Misol uchun, o‘qituvchi talabalariga iqtisodiy muammo, ijtimoiy

dilemmalar yoki ekologik vaziyatni taqdim etib, ularni yechishning turli usullarini ishlab chiqishga undaydi.

Muammoli vaziyatlar orqali talaba faqatgina mavzuni o‘rganmaydi, balki:

- Muammoni tahlil qilish: Talabalar, muammoli vaziyatni va uning turli jihatlarini diqqat bilan o‘rganib, muammoning o‘ziga xos tomonlarini tushunishga harakat qiladilar.
- Alternativalarni ko‘rish: Muammoni turli nuqtai nazardan ko‘rib, bir nechta yechimlarni ishlab chiqadilar.
- Savollar berish: Muammo yechimini topish uchun kerakli savollarni berishadi, o‘rganilgan bilimlarni turli kontekstlarda qo‘llashga harakat qiladilar.
- Xulosa chiqarish: Barcha tahlillarni va yechimlarni ko‘rib chiqib, eng samarali va realistik yechimni tanlashadi.

Bu jarayonlar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki talabalar haqiqatdan yondashuvlarni o‘rganadilar va o‘z qarorlarini asoslashni o‘rganadilar.

Muammoli vaziyatlarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilishning samarali yo‘llari mavjud:

- Interaktiv darslar: Muammoli vaziyatlarni sinfda interaktiv tarzda taqdim etish, talabalarni faollikka undaydi. Misol uchun, o‘qituvchi real hayotdagi muammo — masalan, ekologik falokat yoki iqtisodiy inqiroz — haqida fikr yuritishni taklif etadi. Talabalar bu muammoni qanday hal qilishlarini muhokama qilishadi va har bir talaba turli nuqtai nazardan yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- Vaziyatni tadqiq qilish: Muammoli vaziyatlarni sinfda tadqiq qilishda, o‘qituvchi talabalarga real hayotiy holatlar bo‘yicha vaziyatlar taqdim etib, ularni tahlil qilishni va natijalarini baholashni taklif etadi. Bu metod talabalar orasida jamoaviy fikr yuritish va argumentatsiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Muammoli vaziyatlar va tanqidiy fikrlashni integratsiya qilish: O‘qituvchi muammoli vaziyatlarni darsning barcha bosqichlariga qo‘shishi kerak. Masalan, yangi mavzu boshlanishidan oldin, talabalarga bir nechta muammolarni taqdim etib, ular ustida fikr yuritishga undash mumkin. Dars oxirida esa, talabalar o‘z fikrlarini asoslab, mavzuni kengroq tahlil qilishlari kerak.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning o‘z qarorlarini asoslash, dalillarni tahlil qilish va yaxshiroq yechimlarni ishlab chiqishda muhim vositadir. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoli vaziyatlar orqali talabalar:

- Argumentatsiya va Asoslash: Talabalar har qanday qarorni asoslashni o‘rganadilar, bu esa ular o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy tarzda ifodalashga yordam beradi.
- Muammolarni Turli Nuqtai Nazardan Ko‘rish: Tanqidiy fikrlash, talabalarni faqat bitta nuqtai nazardan qarashdan saqlaydi va turli yondashuvlarni baholashga imkon beradi.
- Qarorlarni Tahlil qilish: Muammoli vaziyatlar orqali talaba, har bir yechimning afzalliklari va kamchiliklarini ko‘rib chiqadi, bu esa ularni murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi.
- Innovatsiya va Kreativ Fikrlash: Muammoli vaziyatlar talabalarga yangi, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi. Bu ularga faqat joriy bilimni emas, balki yangi g‘oyalarni ham qo‘llashni o‘rgatadi.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘qituvchi muammoli vaziyatlar yordamida talabalarni faqatgina eslab qolishga, balki fikrlashga va o‘z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga o‘rgatadi.

Yuqori darajadagi qaror qabul qilish qobiliyati: Tanqidiy fikrlash, talabalarni muammolarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishda yuqori darajaga ko‘taradi. Bu, o‘quvchilarga real dunyoda samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Yaxshi jamoaviy ishlash ko‘nikmalari: Muammoli vaziyatlar jamoaviy muhokama va ishlarni talabalar o‘rtasida samarali tashkil etadi. Bu ular orasida fikr almashish, turli nuqtai nazarlarni hurmat qilish va hamkorlik qilishni rivojlantiradi.

Xulosa sifatida muammoli vaziyatlar va tanqidiy fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirish, oʻquvchilarga nafaqat akademik muvaffaqiyatni ta’minlaydi, balki ularni hayotdagi murakkab vaziyatlarga tayyorlaydi. Oʻqituvchi muammoli vaziyatlarni darsga toʻgʻri kiritish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Tanqidiy fikrlash esa, talabalarga real hayotda toʻgʻri qarorlar qabul qilish va muammolarga innovatsion yechimlar ishlab chiqishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Davlatov, D. X. (2020). "Ta'limda tanqidi fikrlash: nazariya va amaliyot". Tashkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
2. Ibragimova, N. R. (2018). "Muammoli vaziyatlar orqali ta'limni takomillashtirish". Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.
3. Kuchkarov, S. A. (2019). "Oʻqitishda tanqidi fikrlash va muammoli vaziyatlar". Toshkent: "Oʻqituvchi" nashriyoti.
4. Maxmudova, F. T. (2021). "Muammoli vaziyatlar va oʻqitishda tanqidi fikrlash: amaliy qoʻllanma". Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. Shamsutdinova, S. I. (2020). "Tanqidi fikrlash: oʻqitish metodlari va pedagogik yondoshuvlar". Toshkent: "Fan" nashriyoti.
6. Choriev, A. R., & Tursunov, I. A. (2022). "Pedagogik jarayonlarda muammoli vaziyatlardan foydalanish". Tashkent: Oʻzbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

PEDAGOGIK KVALIMETRIYA METODLARI VOSITASIDA TALABALAR BILIMINI BAXOLASHNING AFZALLIKLARI

Obidova Zilola Moʻminjonovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
Nuridinova Mahliyo Qurbonalivna
+99899-090-92-83

Annotatsiya: Ushbu tezisda pedagogik kvalimetrika metodlari, talabalar bilimini baholashda qanday qo'llanilishi, uning ta'lim jarayonidagi afzalliklari va samaradorligi tahlil qilinadi. Kvalimetrik metodlar, bilimni baholashning an'anaviy usullariga qaraganda yanada ob'ektiv va to'liqroq bo'lib, o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarini, malakalarini va amaliy faoliyatini yaxshiroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Tezistada, bu metodlarning ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun qanday yangi imkoniyatlarni yaratishi va talabalarning bilim darajasini aniqlashda qanday ahamiyatga ega bo'lishi ko'rsatilgan. Pedagogik kvalimetrika metodlari o'zining ob'ektivligi, har tomonlama tahlil qilish imkoniyati, moslashuvchanligi va o'z-o'zini baholash imkoniyatlari orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik kvalimetrika, talabalar bilimini baholash, baholash metodlari, o'lchov tizimlari, ob'ektiv baholash, ta'lim sifatini oshirish, kvalimetrik metodlar, talaba ko'nikmalari, ta'lim jarayoni

Pedagogik kvalimetrika – bu ta'lim jarayonida talabalar bilimini, ko'nikmalarini va malakalarini o'lchash, baholash va tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodologiyadir. Ushbu metodlar an'anaviy baholash tizimlariga qaraganda, ko'proq ob'ektiv va tizimli yondashuvni taqdim etadi. Pedagogik kvalimetrik metodlar, nafaqat yakuniy natijalarni baholashga, balki o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini, o'qishdagi motivatsiyasini, ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini ham o'lchashga imkon beradi.

An'anaviy baholash tizimlarida ko'pincha talaba faqatgina yakuniy imtihon natijalari asosida baholanadi, bu esa uning bilimini to'liq aks ettirmaydi. Pedagogik kvalimetrika metodlari yordamida esa talabalar faqat biror mavzu yoki fanning yakuniy natijasiga emas, balki o'zlari

tomonidan amalga oshirilgan faoliyatni, loyihalarni, testlarni, amaliy mashg'ulotlarni va boshqa ko'plab kriteriyalarni inobatga olish imkoniga ega bo'ladi. Bu metodlarning eng katta afzalliklaridan biri shundaki, ular talabaning bilimini o'lchashda faqatgina yakuniy natijalarga emas, balki uning har bir kichik yutuqlarini, rivojlanishini ham nazorat qilishga imkon beradi.

Pedagogik kvalimetrika, asosan, ta'lim sohasida o'lchov va baholashning aniq tizimini yaratishga qaratilgan ilmiy va amaliy yondashuvdir. Kvalimetrika metodlari yordamida talabaning bilim darajasi, ko'nikmalari, malakalari va ijodiy qobiliyatlari o'lchanadi. Bu metodlar orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilib, bilimning sifatli va barqaror rivojlanishiga erishiladi.

Kvalimetrik metodlar quyidagi asosiy usullarga bo'linadi:

- Normativ metodlar – o'quvchilarning bilim darajasini belgilangan normativlarga (me'yorlarga) asoslanib baholash.
- Mezonli metodlar – belgilangan mezonlar asosida talaba faoliyatining tahlilini amalga oshirish. Har bir talaba uchun o'zgacha me'yorlar, shu bilan birga, umumiy ta'lim maqsadlariga muvofiq baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi.
- Kombinatsion metodlar – bir nechta metodlarni birlashtirish orqali talaba bilimini har tomonlama o'lchash. Bu, masalan, testlar, imtihonlar, amaliy topshiriqlar va boshqalar orqali amalga oshiriladi.
- Formativ va summativ baholash – formativ baholash o'quv jarayonining boshidan boshlab amalga oshiriladi, summativ baholash esa faqat yakuniy natijalarni o'lchashga qaratilgan.

Pedagogik kvalimetrik metodlar o'quvchilarning bilimini baholashda ob'ektiv yondashuvni ta'minlaydi. An'anaviy baholash usullari ko'pincha o'qituvchining sub'ektiv fikrlariga asoslanadi, bu esa talabaning haqiqiy bilim darajasini aks ettirmasligi mumkin. Kvalimetrik metodlar, aksincha, aniq ko'rsatkichlar va metodologiyalar asosida ishlaydi, bu esa baholashning shaffofligini va adolatini ta'minlaydi.

Kvalimetrik metodlar faqatgina test yoki imtihon natijalariga asoslanmaydi, balki talabaning bilimini, ijodiy qobiliyatlarini, ish jarayonini va amaliy ko'nikmalarini ham o'lchaydi. Misol uchun, talabaning loyiha ishini, guruhdagi faoliyatini, sinfdagi ishlarni va boshqa faoliyatlarini baholash mumkin. Bu, o'z navbatida, ta'lim jarayonining ko'p qirraliligini va sifatini oshirishga olib keladi.

Kvalimetrik metodlar talabalarga o'z bilimlarini baholash imkonini beradi. Bu, o'z-o'zini tahlil qilish va rivojlanishni rag'batlantirish uchun juda muhimdir. O'z-o'zini baholash, talabalarga o'zlarini baholash, o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, o'qish jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Pedagogik kvalimetrika metodlari yordamida baholashda yangi o'lchovlar va metodlar joriy etiladi. Misol uchun, talabaning amaliy faoliyati, ijodiy fikrlash va mas'uliyatlilik kabi yangi mezonlar yordamida talaba o'z bilimini yanada to'liqroq ko'rsatadi. Bu, ta'lim jarayonining sifatini oshiradi va talabalar o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantiradi.

Kvalimetrik metodlar ta'limning turli shakllariga mos kelishi mumkin. Har bir o'quv muassasasi yoki talabaning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, baholash tizimlari moslashtirilishi mumkin. Shuningdek, kvalimetrik metodlar yordamida talabalarga turli xil vazifalar, testlar va baholash ko'rsatkichlarini taqdim etish imkoniyati mavjud.

Kvalimetrik metodlar nafaqat talabalarni baholashda, balki ta'lim jarayonini takomillashtirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar yordamida o'qituvchilar o'z pedagogik strategiyalarini yaxshilashlari mumkin. Kvalimetrik baholash yordamida talabalar o'z bilim darajasini mustahkamlash va o'z-o'zini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shuningdek, bu metodlar o'qituvchilarga o'z faoliyatlarini baholash, samaradorligini oshirish va pedagogik yondashuvni takomillashtirishga yordam beradi.

An'anaviy baholash tizimlari ko'pincha faqatgina testlar yoki yakuniy imtihonlarga asoslanadi, bu esa talabaning bilim darajasini to'liq aks ettirmaydi. Kvalimetrik metodlar esa talabaning bilimini barcha jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, talabalar amaliy

mashg'ulotlar, loyihalar va testlar orqali o'z bilimlarini ko'rsatishi mumkin. Bu esa ta'lim tizimining sifatini oshirishga va talabalar o'rtasida to'g'ri baholashni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik kvalimetrika metodlari talabalar bilimini baholashda samarali va aniq vosita sifatida ta'lim tizimida muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodlar o'quvchilarni har tomonlama baholash, ularning bilim va ko'nikmalarini aniqlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. Kvalimetrik baholash tizimlari, ta'lim sifatini oshirish, talabaning o'z-o'zini baholashini rivojlantirish va ta'lim jarayonini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdug'aniyev, S. (2022). *Pedagogik kvalimetrika va uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Karimov, D., & Saidov, A. (2021). *Ta'limda sifatni baholash metodlari*. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti.

3. Raxmonov, U. (2023). *Kvalimetrik metodlarni joriy etish: pedagogik yondashuvlar*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

4. Xolmatova, R. (2020). *Ta'limda o'lchov tizimlari va baholash metodlari*. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.

TA’LIM TIZIMINING IJTIMOIY TENGLIK, ADOLAT VA MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI RO’LI

Obidova Zilola Moʻminjonovna
“TURON” universiteti Andijon filiali
Pedagogika va tillar kafedrasi magistranti
Salohiddinov Xasanboy Xakinbek o‘gli
+998 93 7845890

Anatatsiya: Ta'lim tizimi har bir jamiyatda ijtimoiy tenglik, adolat va madaniyatni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu tizim orqali jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratilib, ijtimoiy farovonlik va adolatli rivojlanish ta'minlanadi. Shuningdek, ta'lim tizimi jamiyatdagi barcha guruhlarning ehtiyojlariga moslashgan holda, o'ziga xos psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish orqali ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi. Ushbu tezisda ta'lim tizimining bu sohalarda o'zining o'rni va ahamiyati, ijtimoiy tenglik, adolat va madaniyatni rivojlantirishda qanday vosita sifatida ishlashi psixologik, pedagogik va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, ijtimoiy tenglik, adolat, madaniyat, psixologiya, ta'lim jarayonlari, madaniy diversifikatsiya, ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar, madaniy o'zaro hurmat, ta'lim va jamiyat, ta'lim va madaniyatlararo kommunikatsiya, psixologik barqarorlik, jamiyat rivojlanishi, jamiyatdagi tenglik.

Ijtimoiy tenglik — bu jamiyatda barcha fuqaro uchun teng huquqlar, imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lishini ta'minlash jarayonidir. Bu tushuncha faqat qonun oldida tenglikni emas, balki barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi, jumladan ta'lim sohasida. Ta'lim tizimi orqali barcha jamiyat qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy adolatning muhim tamoyilidir. Ta'lim tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlashda quyidagi yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi:

Har bir shaxs uchun teng imkoniyatlar yaratish: Ta'lim tizimi barcha guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratishi kerak. Bu imkoniyatlar faqat ilmiy yutuqlarni o'z ichiga olmaydi, balki kasb-hunar ta'limi, ijtimoiy xizmatlar va boshqa sohalarda ham teng imkoniyatlar taqdim etadi.

Ijtimoiy adolatga hissa qo'shish: Ta'lim tizimida teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Masalan, jamiyatda zaif guruhlar (qashshoqlik, etnik,

jismoniy nuqsonlar, va boshqalar) uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Psixologik ta'sir: Ta'lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratish, o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu nafaqat ularning akademik muvaffaqiyatlariga, balki ijtimoiy muhitda o'zini tutishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'limning bu shakli o'quvchilarga o'z hayotlarini yaxshilashga motivatsiya beradi.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy tenglikni ta'minlash, o'quvchilarning psixologik holatiga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy tenglikni o'rgatish va unga rioya qilish o'quvchilarda hurmat, bag'rikenglik va adolatga asoslangan ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi.

Ijtimoiy psixologik muhit: Ta'lim jarayonida tenglikni ta'minlash ijtimoiy muhitni mustahkamlashga yordam beradi. O'quvchilarda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni yanada yaxshilashga yordam beradi.

Psixologik barqarorlik: Ijtimoiy tenglikni ta'minlash, o'quvchilarda psixologik barqarorlikni shakllantiradi. O'quvchilarga teng huquqlar berilishi, ular o'z salohiyatlarini rivojlantirishda to'siqlardan xoli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Adolat jamiyatda barcha shaxslar uchun bir xil huquqlar va imkoniyatlarni taqdim etishni anglatadi. Ta'lim tizimi adolatni ta'minlashda asosiy vosita bo'lib, barcha guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun ta'limda adolatni ta'minlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

Teng ta'lim imkoniyatlari: Ta'limdagi adolatli yondashuv har bir o'quvchiga ularning ehtiyojlariga qarab teng imkoniyatlar yaratishni talab qiladi. Bu, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim dasturlari yaratish, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar kiritishni o'z ichiga oladi.

2. A. Qodirov, R. Jabborov Informatika fanida algoritmik fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. – Samarqand: Zarafshon, 2021.
3. N. Xamdamova Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishda innovatsion metodlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

RAQAMLI TA’LIM MUXITIDA AKADEMIK LITSEY TALABALARINI IQ (MANTIQIY FIKRLASH) DARAJASINI OSHIRISH

Usmonova Shirinoy
Andijon davlat pedagogika instituti
“Matematika va informatika” kefedrasi
2-kurs magistri

Annotatsiya: Maqolada raqamli texnologiyalar (programmirovanie platformalari, interaktiv o‘yinlar, onlayn kurslar, sun’iy intellekt va VR/AR vositalari)ning kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ijobiy ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan. Xalqaro tadqiqotlarga tayanib, raqamli usullarning afzalliklari (interaktivlik, shaxsiylashtirish, tez fikr-mulohaza) va ehtiyotkorlikni talab qiladigan jihatlari (ekran vaqtining muvozanati) tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: raqamli texnologiya, interaktiv o‘yinlar, onlayn kurslar, sun’iy intellekt va VR/AR, dasturlash, kodlash, platforma, sun’iy intellekt.

Аннотация: В статье показано положительное влияние цифровых технологий (платформы программирования, интерактивные игры, онлайн-курсы, искусственный интеллект и инструменты VR/AR) на развитие когнитивных способностей. На основе международных исследований анализируются преимущества цифровых методов (интерактивность, персонализация, быстрая обратная связь) и аспекты, требующие осторожности (баланс экранного времени).

Ключевые слова: цифровые технологии, интерактивные игры, онлайн-курсы, искусственный интеллект и VR/AR, программирование, кодирование, платформа, искусственный интеллект.

Abstract: The article shows the positive impact of digital technologies (programming platforms, interactive games, online courses, artificial intelligence and VR/AR tools) on the development of cognitive abilities. Based on international research, the advantages of digital methods (interactivity, personalization, quick feedback) and aspects requiring caution (balance of screen time) are analyzed.

Keywords: digital technology, interactive games, online courses, artificial intelligence and VR/AR, programming, coding, platform, artificial intelligence.

Raqamli texnologiyalarning o‘rni xozirgi kun ta’lim tizimida sezilarli darajada o‘smoqda. Masalan, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va boshqa davlat dasturlari doirasida ta’lim sohasi raqamlashtirilmoqda. Akademik litseylar – iqtidorli yoshlarni tayyorlashga ixtisoslashgan muassasalar bo‘lib, ularda talabalarining mantiqiy fikrlash (IQ) darajasini oshirish dolzarb masaladir. Raqamli ta’lim muhiti (elektron platformalar, mobil ilovalar, interaktiv o‘quv vositalari) bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

IQ (Intelligence Quotient) – insonning kognitiv qobiliyatlarini o‘lchovchi ko‘rsatkich bo‘lib, unda mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, mushohada qilish va abstrakt fikrlash muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli texnologiyalardan foydalanish bolalar va o‘smirlarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, interaktiv o‘yinlar va ta’lim ilovalari vizual-mantiqiy vazifalarni hal qilishda ko‘nikmalarni oshiradi. Xalqaro tadqiqotlar (OECD va boshqa tashkilotlar) shuni ko‘rsatadiki, dasturlashni o‘rgatish va raqamli o‘yinlar mantiqiy fikrlashni 20-30% ga yaxshilashi mumkin[1].

Interaktivlik, shaxsiylashtirish va tez fikr-mulohazani raqamli muhitning afzalliklari deb ayta olamiz.

Interaktivlik: Talabalar o‘zlari muammo hal qiladi, bu esa passiv o‘qishdan farqli o‘laroq, miyani faollashtiradi.

Shaxsiylashtirish: Ilovalar talaba darajasiga qarab vazifalarni moslashtiradi.

Tez fikr-mulohaza: Xato qilganda darhol tuzatish imkoni beradi, bu mantiqiy xatolarni tezroq bartaraf qiladi[2].

Akademik litsey talabalari (odatda 15-18 yosh) mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi raqamli usullardan foydalanishi mumkin:

1. Dasturlash va kodlash platformalari:

- Scratch, Code.org yoki Python ilovalari orqali algoritmik fikrlashni o‘rgatish. Bu muammoni qismlarga bo‘lish (dekompozitsiya), namunalarni topish va mantiqiy xulosa chiqarishni o‘rgatadi.

Misol: Talabalar o‘yin yaratib, mantiqiy shartlar (if-else) dan foydalanadi.

2. Mantiqiy o‘yinlar va pazzllar:

- Lumosity, Khan Academy yoki Duolingo kabi ilovalarda mantiqiy vazifalar. Minecraft o‘yini resurslarni boshqarish va rejalashtirish orqali mantiqni oshiradi.

- Tadqiqotlarga ko‘ra, bunday o‘yinlar vizual xotira va muammo hal qilishni yaxshilaydi.

3. Onlayn platformalar va Moodle:

- O‘zbekistonda Moodle tizimi keng qo‘llaniladi. Unda testlar, grafik organizatorlar (flowchart) va virtual laboratoriyalar orqali mantiqiy vazifalar berish mumkin.

Masalan, matematika va fizikada interaktiv simulyatsiyalar (PhET) mantiqiy modellashtirishni o‘rgatadi.

4. Sun’iy intellekt va VR/AR:

- ChatGPT kabi vositalardan muammo hal qilishda foydalanib, talabalar o‘z fikrlarini tahlil qiladi.

- VR o‘yinlari mantiqni rivojlantiradi[3].

Raqamli ta’lim muhiti akademik litsey talabalarining mantiqiy fikrlash darajasini oshirishda samarali vositadir. To‘g‘ri qo‘llansa, u IQ ning kognitiv komponentlarini (muammo hal qilish, abstrakt fikrlash) rivojlantiradi. Bu yo‘nalishdagi islohotlarni kuchaytirish orqali iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.M. Khudaynazarov Egambergan Madrakhimovich Using Digital Education to Develop the Logical Thinking of Future Primary School Teachers . International Journal of Academic Pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123 Vol. 9 Issue 8 August - 2025, Pages: 118-121

2. N. Suyunova Enhancing logical thinking in school students. Strategies, challenges, and future directions. Science and innovation international scientific journal Volume 4 Issue 9 September 2025 ISSN: 2181-3337 | scientists.uz

3. Sh. Ontuganova, Zh. Zhumabayeva The impact of integrated technology on students' logical thought in mathematics: A case study of Kazakhstan. Journal of Education and e-Learning Research Vol. 10, No. 2, 323-335, 2023 ISSN(E) 2410-9991 / ISSN(P) 2518-0169 DOI: 10.20448/jeelr.v10i2.4622

BO‘LAJAK MATEMATIKA O‘QITUVCHILARINI TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.

Ulug’nazarov Sunnatullo Xolmurod o‘g’li
Andijon davlat pedagogika instituti
“Matematika va informatika” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismlar ko‘rsatilgan. Ta’lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablar bayon etilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: kompetensiya, matematik savodxonlik, matematikaviy savodxonlik kompetensiyalari, pedagogik faoliyat.

Annotatsiya: V state pokazanы komponentы podgotovki studentov k budущey professionalnoy deyatelnosti cherez razvitie u nix navыkov matematicheskoy gramotnosti. V protsesse obucheniya izlojennыy osnovnые trebovanie k neobxodimomu i dostatochnomu urovnyu podgotovke spesialista k pedogogicheskoy rabote.

Klyuchevые slova i ponyatiya: kompetentnost, matematicheskaya gramotnost, kompetensiya, matematicheskaya gramotnost, pedagogicheskaya deyatelnost.

Abstract: The article shows the components of preparing students for future professional activities through the development of their mathematical literacy skills.In the learning process, the

basic requirements for the necessary and sufficient level of specialist training for pedagogical work are outlined.

Key words and concepts: competence, mathematical literacy, mathematical literacy , competence of matematical literacy, pedagogical activity.

Dunyoda bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning kollaborativ va intensiv usullaridan foydalanish xizmatlari keng tarqalib, innovatsion metodlarni qo‘llash asosida matematikani o‘qitish samaradorligini to‘la qoplashga yo‘naltirilmoqda. O‘zbekistonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali matematika o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish asosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va korporativ xizmatlarda ishtirok etishini ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, “oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish – eng muhim masalalardan biridir”[1]. Binobarin, uzluksiz ta’lim tizimida talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Bu masala bizda quyidagicha amalga oshirilmoqda: o‘quvchi o‘rta maktab(9-sinf)ni tugatishi bilan, qobiliyat turiga qarab o‘qishini davom ettiradi yoki turli akademik litseylarga yuboriladi. Lekin, bu masalaning to‘liq yechimi emas. Gap shundaki, hamma akademik litseylarda ham professor – o‘qituvchilar tarkibi yoshlarning k**ognitiv kompetensiyasini** kerakli yo‘nalishda rivojlantirishga tayyor emas. Bunday imkoniyatga juda kam sondagi akademik litseylargina ega. Shuning uchun akademik litseylarda yoshlarning matematik savodxonlik kompetensiyasi(kognitiv kompetensiya)ga tashqaridan turibgina ta’sir qilish imkoni bor.

Xozircha akademik litseylar talabalari uchun olimpiadalar tashkil etish ta’sir qilishning eng yaxshi usullardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu matematika va fizikadan masalalar yechish bo‘yicha o‘ziga xos musobaqa bo‘lib, talabalarda qiziqish uyg‘otuvchi asboblar tayyorlash, astronomik kuzatishlar, matematik o‘yinlar, kompyuterda dasturlash kabilarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday olimpiadalar bir guruh ilmiy xodimlar hamda tegishli vazirliklar mutaxassislari tomonidan tashkil etiladi. Bunday olimpiadalar kognitiv kompetensiyasin shakillantirib, ijodiy qobiliyatli yoshlarni ajratish imkoniyatini berishdan tashqari, ularni yoshligidan ilmiy izlanishlarga, ilmiy muammolarga qiziqishlarini uyg‘otish imkonini beradi. Mamlakatimizda bunday turdagi olimpiadalar keng tarqalgan va rivojlangan, ular juda yuqori saviyada o‘tkaziladi [4].

Oliy ta’limda esa talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik jarayonda quyidagilar muhim hisoblanadi:

- pedagogik voqelikni izchil idrok etish; fan sohasiga yo‘nalganlik;
- pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash;
- shaxslararo muloqotni tashkil eta olish; o‘z fani, faoliyat sohasi bo‘yicha axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalana olish;
- o‘quv axbrotlarini boshqalarga yetkaza bilish; muayyan darajada shakllangan dunyoqarashni talab etadi.

Bu tarkibiy qismlar talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashning ajralmas shartlaridan hisoblanadi.

“Ta’lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan zamonaviy o‘qituvchining kompetentligi yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo‘g‘rilgan. Zamonaviy o‘qituvchi ta’lim sifati va uzluksizligini ta’minlash va o‘zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o‘quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo‘lishi shart”[3].

Talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun didaktik jarayonda quyidagilarga amal qilinadi [4]:

- faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, unga ijodiy yondashish;
- o‘z-o‘zini namoyon qilish, vaziyatni tahlil qila olish;
- pedagogik jarayon ishtirokchilari bilan ijtimoiy muloqotda bo‘lish; o‘z ustida tinimsiz ishlash;
- vaziyatni baholash va muammolarni yechish, boshqaruv ko‘nikmasiga ega bo‘lish va boshqalar.

Talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini jumladan **kognitiv kompetensiyani** rivojlantirishda kelgusidagi mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim, ko‘nikma, malakaga ega bo‘lishi, shuningdek, shaxsiy qadriyatlari, sifatlari, kvalifikatsiyasining namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Quyidagilar ta’lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta’minlaydigan asosiy talablari hisoblanadi:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo‘lish, o‘z ustida ishlash, ta’lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqani o‘rnatish;
- tahsil oluvchilarda didaktik motivatsiyani shakllantirish;tahsil oluvchi shaxsining rivojlanish xususiyatlarini bilish;
- AKT va xorij tillarini o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llay olish; umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo‘lish va ulardan faoliyati mobaynida foydalanish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- ta’lim muhitiga yangilik kiritish, o‘z fanini mukammal bilish;
- muloqatmandlik, bag‘rikenglik, empatiyaga moyillik, yetakchilik, faollik va tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik;
- o‘z faoliyatini tahlil qilish, kompetentlik samarasini rejalashtirish, maqsad va vazifa belgilash, bashorat (prognoz) qilish, o‘zini namoyon eta olish, kamchiliklarini tuzatish va boshqalar.

Inson faoliyatining boshqa turlari kabi pedagogik faoliyat ham o‘z xususiyatlari bilan bir-biridan ajralib turuvchi: maqsad, ob’ekt, sub’ekt va vositalardan tashkil topadi [2].

Talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda AKT va ETR dan foydalanib, talabalarning bilimlarini oshirishga qaratilgan pedagogik shartlarni aniqlash va tajriba-sinovdan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, talabalarda matematikaviy savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bo‘lajak kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi kompetensiya ko‘rinishlari muhimligi aniqlandi:

- mutaxassisligidan qat’iy nazar, grafik redaktorlar bilan ishlash, dasturlashtirish, ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish;
- jadvallarni shakllantirish va ulardan asosiy ma’lumotlarni saralash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- logistikaning asoslarini egallash, xorij tilidagi ma’lumotlarni o‘qish, tushunish, anglash va interpretatsiya qilish, yozma va og‘zaki tarzda fikrlarni bayon qilish, xorij tilida ish hujjatlarini yurgiza bilish, o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni tizimlashtira olish, ulardan amaliyotda foydalana olish; milliy va umummadaniy, siyosiy kompetensiyalarni egallash;
- moslashuvchanlik, axloqiylik, ma’naviy yetuklik.

Shu bilan birga, yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallash va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // https://prezident.uz/uz/lists/view/2228

2.M.O.Knebel **Poeziya pedagogiki. Uchebnoe posobie. 2019.**

3.Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh. A. Pedagogika nazariyasi.-Toshkent: Fan va axborot

texnologiyalari. – Toshkent, 2010.-278 b.;
4. Mamatov M.SH., Mahmudova D.M. Muammoli masalalar yordamida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodikasi (uslubiy qollanma). –Toshkent: O‘ZMU, 2012. –96 b.

TASVIRLI MASALALAR BILAN MATEMATIKANI RAQAMLI TA’LIM MUXITIDA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Gulzoda Yusupjonova
Andijon davlat pedagogika instituti
“Matematika va informatika” kafedrasi
2-kurs magistri

Annotatsiya: Maqolada tasvirli (vizual) masalalarning matematika o‘qitishdagi roli va ularni raqamli platformalarda qo‘llash imkoniyatlari yoritilgan. Tasvirli masalalar abstrakt matematik tushunchalarni konkretlashtirishga yordam berib, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, muammoni yechish ko‘nikmalarini va matnni matematik ifodaga aylantirish qobiliyatini oshiradi.
Kalit so‘zlar: tasvirli masalalar, raqamli ta’lim muhiti, matematika o‘qitish, interaktiv platformalar, sun’iy intellekt, Eduten, GeoGebra.

Аннотация: В статье рассматривается роль визуальных задач в математическом образовании и возможности их применения на цифровых платформах. Визуальные задачи помогают конкретизировать абстрактные математические понятия, развивают логическое мышление учащихся, навыки решения задач и способность преобразовывать текст в математические выражения.
Ключевые слова: визуальные задачи, цифровая образовательная среда, математическое образование, интерактивные платформы, искусственный интеллект, Eduten, GeoGebra.

Abstract: The article discusses the role of visual problems in mathematics education and the possibilities of their application on digital platforms. Visual problems help to concretize abstract mathematical concepts, increase students' logical thinking, problem-solving skills, and the ability to transform text into mathematical expressions.
Keywords: visual problems, digital learning environment, mathematics education, interactive platforms, artificial intelligence, Eduten, GeoGebra.

Tasvirli masalalar – bu matnli masalalarga qo‘shimcha ravishda rasmlar, diagrammalar, animatsiyalar yoki interaktiv elementlar qo‘shilgan masalalar bo‘lib, ular abstrakt matematik tushunchalarni konkretlashtirishga yordam beradi.

Raqamli ta’lim muhiti (digital learning environment) zamonaviy ta’limning muhim qismi bo‘lib, unda tasvirli masalalar (visual word problems yoki illustrated problems) matematika o‘qitishda o‘quvchilarning tushunishini, mantiqiy fikrlashini va muammoni yechish ko‘nikmalarini oshirishda katta rol o‘ynaydi[1].

O’rganishlarlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, tasvirli masalalar o‘quvchilarga matnni matematik ifodaga aylantirishda yordam beradi, ayniqsa yosh bolalar va vizual o‘rganuvchilar uchun. Masalan, diagrammalar yordamida muammodagi munosabatlarni (miqdorlar, o‘zgaruvchilar) aniq ko‘rish mumkin.

Raqamli ta’limda vizual tasvirlar o‘quvchilarga muammoni chuqurroq tushunishga, xatolarni kamaytirishga va ijodiy yechimlarni topishga imkon beradi.

An’anaviy kitoblarda tasvirlar cheklangan bo‘lsa, raqamli platformalarda interaktiv elementlar (masalan, ob'ektlarni sudrab o‘rnini almashtirish, animatsiya) qo‘shish mumkin[2].

Matematika o‘qitishni yanada samarali qilish uchun raqamli texnologiyalarning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. **Interaktiv platformalar va dasturlar**: GeoGebra, Desmos yoki PhET kabi vositalar yordamida geometriya, algebra va boshqa mavzularda tasvirli masalalarni interaktiv qilish.

Raqamli platformalarda interaktivlik (masalan, ob’ektlarni sudrab o‘tkazish, animatsiyalar) o‘quvchilarning chuqur tushunishini va motivatsiyasini oshiradi. PhET, GeoGebra va Desmos kabi vositalar dinamik vizualizatsiyaga imkon berib, o‘quvchilar parametrlar bilan tajriba o‘tkazishi va natijalarni real vaqtda ko‘rishi mumkin bo’ladi. Masalan, masalada “ikkita olma va uchta banan” tasvirlangan bo‘lsa, o‘quvchi raqamli muhitda ob’ektlarni qo‘shib yoki ayirib ko‘rishi mumkin.

2. **Sun’iy intellekt (AI) va avtomatik generatsiya**: Text-to-Image modellari (masalan, DALL-E yoki yangi tadqiqotlardagi Math2 Visual framework) yordamida matnli masalaga mos tasvirlarni avtomatik yaratish.

AI asosidagi tasvir generatsiyasi (masalan, DALL-E yoki yangi modellarda) matnli masalalarga mos rasmlarni avtomatik yaratishda katta yordam beradi. Bu o‘qituvchilar vaqtini tejaydi va pedagogik jihatdan to‘g‘ri tasvirlar hosil qiladi. Bundan tashqari, AI platformalari (masalan, MathGPT yoki boshqa photo math solverlar) masalalarni suratga olib yechish va qadam-ma-qadam tushuntirish imkonini beradi, bu vizual va interaktiv o‘rganishni kuchaytiradi[3].

3. **Multimedia va animatsiyalar**: Video yoki animatsiyali masalalar (masalan, raqamlitalim.trm.uz portalidagi resurslar) o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Gamification elementlari: Masalalarni o‘yin shaklida (points, levels) taqdim etish.

Respublikamizda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi va ta’limni raqamlashtirish loyihalari (masalan, Maktab.uz, Eduten pilotlari) doirasida matematika darslarida raqamli resurslar kengaymoqda.

Boshlang‘ich sinflarda tasvirli masalalar (masalan, 5-sinf darsliklarida natural sonlar va geometriya mavzularida) allaqachon qo‘llanilmoqda, lekin raqamli muhitda ularni interaktiv qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Masalan: 1). “Bog‘da 5 ta olma daraxti va 3 ta nok daraxti bor. Jami nechta daraxt?” Raqamli muhitda daraxtlarni tasvirlab, o‘quvchi ularni sanashi mumkin.

2). Geometriya masalasida 3D modellarni aylantirib ko‘rish (AR vositalari bilan)[4].

Tasvirli masalalar raqamli ta’lim muhitida matematikani o‘qitishni tubdan o‘zgartirib, o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni konkretlashtirishini, mantiqiy fikrlashini va muammoni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Xalqaro tadqiqotlar va O‘zbekistondagi muvaffaqiyatli pilot loyihalar (Eduten, UNICEF hamkorligi) shuni tasdiqlaydiki, interaktiv platformalar, AI va gamifikatsiya elementlari matematikani qiziqarli va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Mirzaahmedov, A.Rahimqoriyev Matematika 6-sinf darsligi. Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

2. G.N.Tashmatova Raqamli texnologiyalar muhitida bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlash (maqola, 2024). ResearchGate.

3. J.L Krawec Problem representation and mathematical problem solving of students with disabilities. International Journal of Special Education. (2014).

4. M.C. Borba et al. Digital technology in mathematics education: Research over the last decade. Springer. (2017).

D.B. Xojiyev
ADU akademik litseyi bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Global raqamlashtirish sharoitida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirish muammosi markaziy o'rin tutadi. Intellektual salohiyatning mohiyati, uni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (dasturiy-didaktik ta'minot mosligi, o'qituvchilar raqamli kompetensiyasi, interaktiv muhit) va raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Ilmiy manbalar tahlili asosida dasturiy-didaktik ta'minotni tizimli modellashtirish masalasi yetarlicha o'rganilmagani ta'kidlanib, raqamli resurslar (elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, intellektual test tizimlari) orqali talabalar bilish faolligini faollashtirish va intellektual qobiliyatlarni shakllantirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, oliy ta'limni raqamlashtirish, intellektual salohiyat, dasturiy-didaktik ta'minot, virtuallashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), interaktiv muhit, talabalar bilish faolligi, virtual laboratoriyalar, intellektual test tizimlari, pedagogik shart-sharoitlar, raqobatbardosh mutaxassislar.

Abstract: In the context of global digitalization, the problem of developing students' intellectual potential is central to the training of competitive specialists. The essence of intellectual potential, pedagogical conditions for its development (compatibility of software and didactic resources, digital competence of teachers, interactive environment) and didactic capabilities of the digital educational environment are highlighted. Based on the analysis of scientific sources, it is noted that the issue of systematic modeling of software and didactic resources has not been sufficiently studied, and ways to activate students' cognitive activity and form intellectual abilities through digital resources (electronic textbooks, virtual laboratories, intellectual testing systems) are proposed.

Keywords: digital learning environment, digitization of higher education, intellectual potential, software and didactic support, virtualization, information and communication technologies (ICT), interactive environment, student cognitive activity, virtual laboratories, intellectual testing systems, pedagogical conditions, competitive specialists.

Respublikamizda ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlarini axborotlashtirish, raqamlashtirish, optimallashtrish, o'qitish sifatini xalqaro standartlarga mos baholash va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga faol qo'llash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, jumladan, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, nazariy, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish» kabi vazifalar belgilangan[1].

Xozirgi global raqamlashtirish jarayonlarida ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri — raqobatbardosh, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Demak, talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish muammosi pedagogika nazariyasi va amaliyotida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Intellektual salohiyat shaxsning bilish jarayonlari (idrok, xotira, tafakkur, diqqat), tahliliy-tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda innovatsion faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalovchi kompleks sifatdir.

Talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog'liq:

- dasturiy-didaktik ta'minotning ta'lim mazmuniga mosligi;

- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi;
- talabalarning faol ishtirokini ta’minlovchi interaktiv muhit[2].

Mazkur shart-sharoitlar ta’minlanganda, talabalarda tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalar shakllanishi kuzatiladi.

Intellektual salohiyat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, ularni tahlil qilish, ijodiy qo‘llash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini qamrab oladi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirish muammosi mamlakatimiz olimlari tomonidan pedagogika, ta’lim texnologiyalari va psixologiya fanlari doirasida o’rganib kelinmoqda. Jumladan:

R.X. Jo‘rayevning ilmiy ishlarida shaxs rivoji va intellektual salohiyatni shakllantirishning pedagogik asoslari tadqiq etilgan.

Ta’lim jarayonida tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari A.A. Abduqodirov ishlarida yoritilgan.

B.S. Ismoilov esa, talabalarning bilish faoliyati va intellektual faolligini oshirish muammolarini o‘rgangan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirish muammosi alohida yo‘nalishlar doirasida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning integratsiyasi yetarli darajada ta’minlanmagan. Xususan:

- raqamli ta’lim muhitining intellektual rivojlanishga yo‘naltirilgan metodologik asoslari;
- pedagogik shart-sharoitlar;
- raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli va tizimli foydalanish mexanizmlari chuqur tadqiq etilishini talab etadi.

Raqamli ta’lim muhiti talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun yuqori didaktik imkoniyatlarga ega bo‘lib, u ta’lim mazmunini individuallashtirish va talabalarning bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Dasturiy-didaktik ta’minot ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan o‘quv resurslari, elektron ta’lim vositalari va metodik materiallar majmuasini ifodalaydi. U talabalarning bilish faolligini faollashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi[4].

Demak, Raqamli ta’lim muhiti va dasturiy-didaktik ta’minot talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular bilish faolligini faollashtirish, individuallashtirish va interaktivlikni ta’minlaydi. Intellektual salohiyatni shakllantirishda asosiy pedagogik shart-sharoitlar – dasturiy ta’minotning mazmunga mosligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va talabalar faolligini rag‘batlantiruvchi muhit hisoblanadi. Kelajakda virtual laboratoriyalar, intellektual test tizimlari va sun’iy intellekt elementlariga asoslangan raqamli resurslarni yanada takomillashtirish orqali raqobatbardosh, yuqori intellektual salohiyatli mutaxassislar tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2019.
2. Abdullaeva M. Raqamli ta’lim muhitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.
3. Karimov A. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent: Universitet, 2022.
4. Mirzaev S. Raqamli ta’lim platformalari va ularning didaktik imkoniyatlari // Oliy ta’limda innovatsiyalar. – 2024. – № 3. – B. 45–52.

TASHKILIY VA BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI: ILMIY-NAZARIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY AMALIYOT

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
professori Tojiboyeva G
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy
psixologiya yo‘nalishi sirtqi ta’lim shakli
talabalari Abduraxmonova Saodatxon
Xakimjonovna, Xaqnazarov Javoxir

Anotatsiya: Ushbu maqolada tashkiliy va boshqaruv psixologiyasining nazariy asoslari, tashkilot ichidagi psixologik jarayonlar, rahbarlik faoliyatining psixologik xususiyatlari, motivatsiya, kommunikatsiya, konfliktlarni boshqarish, mehnat jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhit, xodimlar samaradorligini oshirishning psixologik omillari hamda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining psixologik talqini chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, inson omili, yetakchilik kompetensiyalari, tashkiliy madaniyat va innovatsion boshqaruv tizimlarida psixologik mexanizmlarning ahamiyati yoritilgan. Tahlillar va ilmiy qarashlar asosida boshqaruv jarayonlarida psixologik yondashuvning samaradorlikka ta’siri keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tashkiliy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, rahbarlik, motivatsiya, kommunikatsiya, ijtimoiy-psixologik muhit, tashkiliy madaniyat, konfliktologiya, mehnat samaradorligi, yetakchilik kompetensiyalari, inson omili, boshqaruv strategiyasi.

Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi zamonaviy mehnat bozorining keskin o‘zgaruvchan sharoitida inson omilining ahamiyati keskin ortib borayotgan bir davrda yuksak ilmiy-amaliy qiymatga ega bo‘lgan sohaga aylangan. Raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va korporativ barqarorlikning markazida aynan xodimlarning psixologik holati, ularning motivatsiyasi, ishga bo‘lgan intilishi va psixologik iqlim turadi.

Tashkiliy psixologiya xodimlarning xulqi, mehnat jarayonidagi emotsional va kognitiv jarayonlar, jamoa dinamikasi, liderlik uslublari, stress va konfliktlar boshqaruvini o‘rganadi. Boshqaruv psixologiyasi esa rahbarning qaror qabul qilish strategiyalari, boshqaruv uslublari, jamoani boshqarish mexanizmlari bilan shug‘ullanadi. Shu bois ushbu yo‘nalishlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda korxonalar rivojlanishida hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Zamonaviy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik boshqaruv mexanizmlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygan korxonalar mehnat samaradorligini 30–50% gacha oshirishga erishmoqda. Bu esa inson omilining faqat mehnat resursi emas, balki strategik kapital ekani haqidagi paradigmaning amaliy isbotidir.

Nazariy asoslar va shakllanish tarixi

Tashkiliy psixologiyaning ilmiy shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi industrial o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Mehnat unumdorligini oshirish yo‘llarini izlash jarayonida psixologlar va sotsiologlar inson omilining rolini tahlil qilishga kirishdi.

Klasik yondashuvlar

F. Teylorning ilmiy boshqaruv tizimi texnik samaradorlikni oshirishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, u psixologik omillarni ham qayd etgan.

Elton Mayo tomonidan o‘tkazilgan “Hawthorne tajribalari” mehnat samaradorligi xodimning psixologik e’tirofi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq ekanligini ilmiy asoslab berdi.

Motivatsiya nazariyalarining paydo bo‘lishi

Maslou, Gertsberg, MakGregor va Adlerferning motivatsiya modellari xodimlar xulqini tushuntirishda yangi ilmiy paradigmalarni yuzaga keltirdi:

Maslou piramidasi – ehtiyojlar ierarxiyasi.

Gertsberg – gigiyena va motivator omillar.

MakGregor – “X” va “Y” xodim modeli.

Zamonaviy konsepsiyalar

XXI asr boshidan:

- Transformatsion liderlik;
- Neyropsixologik boshqaruv;
- Raqamli psixologiya;
- Emotsional intellekt nazariyalari;
- tashkiliy psixologiyaning yangi ilmiy tarmog‘ini yaratdi

Tashkiliy xulq va inson omili

Tashkiliy xulq – bu xodimlarning tashkilot ichidagi o‘zini tutish modeli bo‘lib, korxonani boshqarishda eng murakkab, ammo eng ta’sirchan psixologik jarayonlardan biridir.

Xodimlarning individual psixologik xususiyatlari

Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- temperament,
- xarakter,
- motivatsiya darajasi,
- kognitiv qobiliyatlar,
- stressga barqarorlik.

Har bir xodimning individual xususiyatlari jamoa bilan integratsiyalashuvini, mehnat unumdorligini va kasbiy moslashuv tezligini belgilaydi.

Tashkiliy xulqning shakllanish omillari

- rahbarning boshqaruv uslubi;
- korporativ qadriyatlar;
- rag‘batlantirish tizimi;
- jamoaviy iqlim;
- ijtimoiy psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Psixologik moslashuv

Xodimlarning tashkilotga moslashuv jarayoni 3 bosqichga ega:

- boshlang‘ich moslashuv;
- integratsiya bosqichi;
- professional o‘sish bosqichi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, moslashuv mexanizmlari kuchli tashkilotlarda kadrlar almashinuvi 40% ga kamayadi.

Motivatsiya tizimlari va mehnat samaradorligi

Motivatsiya — xodim faoliyatining markaziy psixologik energiya manbai. U nafaqat moddiy omillarga, balki psixologik va ijtimoiy omillarga ham asoslanadi.

Ichki va tashqi motivatsiya

Ichki motivatsiya — kasbga qiziqish, o‘zini namoyon qilish istagi.

Tashqi motivatsiya — maosh, bonuslar, rasmiy mukofotlar.

Rag‘batlantirish tizimlari

ma’naviy rag‘bat: e’tirof, maqom berish, ochiq minnatdorchilik;

kasbiy rag‘bat: treninglar, sertifikatlar, malaka oshirish;

ijtimoiy rag‘bat: jamoaviy tadbirlar, moslashuv dasturlari.

Motivatsiya va samaradorlik

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki:

kuchli motivatsiya tizimi bo‘lgan tashkilotlarda ish unumdorligi 30–40% gacha oshadi;

motivatsiya past bo‘lgan muhitda xodimlarning sustkashligi 2 baravar ortadi.

Liderlik va boshqaruv uslublari

Liderlik — bu boshqalarga ta’sir ko‘rsatish san’ati. Zamonaviy boshqaruvda liderlikning psixologik mexanizmlari juda keng o‘rganilmoqda.

Liderlik turlari

Transformatsion liderlik — xodimlarning ruhiy ko‘tarinkiligini oshiradi.

Tranzaksion liderlik — mukofot va jazoga asoslanadi.

Demokratik liderlik — jamoaviy qaror qabul qilishni rag‘batlantiradi.

Avtoritar liderlik — keskin tartib-intizomga asoslanadi.

Lider kompetensiyalari

Ilmiy manbalarga ko‘ra samarali rahbar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi shart:

emotsional intellekt,

strategik fikrlash,

konfliktologiya bilimlari,

kommunikatsion savodxonlik,

stressga chidamlilik,

innovatsion boshqaruv qobiliyati.

Liderlikning psixologik ta’siri

Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi zamonaviy korxonalarning raqobatbardoshligini belgilaydigan strategik fanlar qatoriga kiradi. Motivatsiya, liderlik, kommunikatsiya, konfliktologiya, stress boshqaruvi, korporativ madaniyat va raqamli transformatsiya jarayonlarining puxta o‘rganilishi korxona barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada muhokama qilingan ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, inson omiliga asoslangan boshqaruv modeli korxonaning kelajakdagi rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асқаров, А. (2021). Ташкилот ва бошқарув психологияси асослари. Тошкент: Янги аср авлоди.

2. Robbins, S. P., & Judge, T. A. (2019). Organizational Behavior. Pearson.

3. Kreitner, R., & Kinicki, A. (2020). Organizational Behavior. McGraw-Hill.

4. Мухамедова, Г. (2020). Ишлаб чиқариш психологияси ва бошқарув. Тошкент: Фан.

5. Yukl, G. (2018). Leadership in Organizations. Pearson Education.

6. Goleman, D. (2017). Emotional Intelligence and Leadership. Harvard Business Review Press.

7. Schein, E. H. (2016). Organizational Culture and Leadership. Jossey-Bass.

8. Левин, К. (2015). Гуруҳ динамикаси ва лидерлик назариялари. Москва: Психология.

9. Karasek, R., & Theorell, T. (2018). Healthy Work: Stress, Productivity, and the Reconstruction of Working Life. Basic Books.

10. Enterprise. McGraw-Hill.

KLINIK VA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING DOLZARB MASALALARI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
professori Tojiboyeva G.R
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy
psixologiya yo‘nalishi sirtqi ta’lim shakli
talabalari Ergasheva G.X,
Abdusattarova S.S, Boqiyev B

Anotatsiya: Ushbu maqolada klinik va psixologik salomatlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, ularni belgilovchi omillar, diagnostika va reabilitatsiya usullari hamda zamonaviy profilaktika choralarining ilmiy asoslari yoritilgan. Jamiyatda ruhiy salomatlikning global darajada dolzarb masalaga aylanishi, stress va psixosomatik buzilishlarning klinik ko‘rsatkichlarga ta’siri chuqur tahlil qilingan. Maqolada klinik-psixologik salomatlikni kompleks baholashning zamonaviy yondashuvlari, raqamli diagnostika tizimlari, neyropsixologik testlar va psixoterapevtik strategiyalar keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, klinik va psixologik salomatlikni integrativ tarzda boshqarish sog‘lom jamiyat qurishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Maqola aholining psixologik savodxonligini oshirish, profilaktik dasturlarni rivojlantirish va tibbiyot-psixologiya hamkorligini kengaytirishga ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Klinik salomatlik, psixologik salomatlik, stress, psixosomatik buzilishlar, depressiya, tashvish, immun tizimi, diagnostika, reabilitatsiya, profilaktika, ruhiy farovonlik, neyropsixologik testlar, integrativ yondashuv, klinik-psixologik tahlil.

Inson salomatligi ko‘p omilli tizim bo‘lib, unda klinik (jismoniy) va psixologik (ruhiy) komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tibbiyot nuqtayi nazaridan salomatlik faqat kasallikning yo‘qligi bilan emas, balki insonning psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligi bilan ham belgilanadi. So‘nggi yillarda global miqyosdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik o‘zgarishlar ruhiy sog‘liqka bosimni yanada kuchaytirib, klinik-psixologik muammolarning dolzarbligini oshirmoqda. Ushbu maqolada mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy tahlil, klinik kuzatishlar, psixologik yondashuvlar va zamonaviy reabilitatsiya metodlari yoritiladi.

Klinik va psixologik salomatlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik

Klinik va psixologik salomatlik bir-birini to‘ldiruvchi tizimlardir. Stress, tashvish, depressiya kabi psixologik holatlar yurak-qon tomir, endokrin, immun va asab tizimi faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, surunkali stress ostida kortizol gormoni ko‘p ishlab chiqarilishi immunitetni pasaytirib, organizmni virus va infektsiyalarga chidamsiz qiladi. Aksincha, klinik kasalliklar (masalan, diabet, gipertoniya, onkologik kasalliklar) psixologik holatning buzilishiga, depressiv sindrom va apatiyaga olib keladi. Shu bois kompleks yondashuv sog‘lomlashtirish jarayonining asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Ruhiy salomatlikning global dolzarbligi

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 300 milliondan ortiq inson depressiya bilan yashaydi, tashvish buzilishlari esa 260 milliondan ortiq aholini qamrab olgan. Pandemiya davrida ruhiy tushkunlik, uyqu buzilishlari, ijtimoiy qo‘rquv va stress darajasi bir necha barobar oshgan. Ayniqsa yoshlar, talabalar, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlarning psixologik muammolari keskin kuchaygan. Bu jarayon klinik xizmatlar yuklamasini oshirgan va ruhiy salomatlikni global ijtimoiy xavfsizlik masalasiga aylantirgan.

Klinik salomatlikning asosiy ko‘rsatkichlari

Klinik salomatlik jismoniy ko‘rsatkichlar, laborator tahlillar, organlar faoliyati, metabolik jarayonlarning barqarorligi bilan aniqlanadi. Hozirda eng ko‘p uchraydigan klinik muammolarga yurak-qon tomir kasalliklari, metabolik sindrom, semirish, qandli diabet, o‘pka va jigar yetishmovchiligi kiradi. Shuningdek, past immunitet, autoimmun kasalliklar va surunkali yallig‘lanish holatlari klinik sog‘liqning izdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Klinik salomatlik ko‘p hollarda psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lgani sababli bir tomonlama davolash yondashuvlari yetarli natija bermaydi.

Stressning klinik va psixologik holatlarga ta’siri

Stress inson organizmidagi fiziologik va psixologik tizimlarga kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Uning surunkali shakli quyidagi oqibatlarni keltirib chiqaradi:

vegetativ asab tizimining buzilishi,
arterial bosimning ko‘tarilishi,
uyqu siklining buzilishi,
immunitet pasayishi,

oshqozon-ichak tizimi kasalliklari,

depressiv va tashvish sindromlari rivojlanishi.

Stress ta’siri ostida kortizol va adrenalin gormonlarining me’yoridan ortiq ishlab chiqarilishi shaxsning emotsional barqarorligiga, diqqat va xotira jarayonlariga jiddiy zarar yetkazadi.

Psixosomatik buzilishlar

Psixosomatik buzilishlar — ruhiy omillar natijasida jismoniy kasalliklarning rivojlanishidir. Bugungi kunda quyidagi kasalliklarning psixosomatik omillari ilmiy isbotlangan:

gipertonik kasallik,

migren va bosh og‘riqlari,

gastrit va yaralar,

teri kasalliklari (psoriaz, dermatit),

astma,

yurak ritmi buzilishlari.

Ko‘plab klinik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, psixologik barqarorlikni tiklamasdan, faqat dori vositalari bilan to‘liq sog‘ayish imkoni cheklangan.

Zamonaviy psixologik diagnostika metodlari

Psixologik salomatlikni aniqlash uchun quyidagi usullar keng qo‘llaniladi:

klinik-intervyu metodi,

stress darajasini o‘lchovchi testlar (PSS),

depressiya va tashvish o‘lchovlari (HADS, BDI-II),

kognitiv funksiyalarni baholash tizimlari,

neyropsixologik testlar,

psixometrik monitoring.

Raqamli diagnostika tizimlari, mobil ilovalar, onlayn test platformalari ruhiy holatni aniq va tez baholash imkonini beradi.

Klinik va psixologik reabilitatsiya usullari

Kompleks reabilitatsiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

dori vositalari bilan davolash (farmakoterapiya),

psixoterapiya (kognitiv-behavorial terapiya, gipnoterapiya, ACT, EMDR),

ijtimoiy moslashuvga qaratilgan dasturlar,

fizioterapiya va sport faoliyati,

ovqatlanish, uyqu, jismoniy faollikni tartibga solish,

mindfulness va meditatsiya amaliyotlari.

Psixologik yordamning klinik davolash bilan birgalikda olib borilishi sog‘ayish dinamikasini tezlashtiradi.

Profilaktika choralari

Ruhiy va jismoniy salomatlikni barqaror saqlashda profilaktika eng samarali yo‘ldir. Quyidagi amaliy choralar tavsiya etiladi:

muntazam jismoniy mashqlar,

sifatli uyqu gigiyenasi,

me’yoriy ovqatlanish,

ortiqcha ekran vaqtini kamaytirish,

stressni boshqarish ko‘nikmalari,

psixogigiyena va emotsional ongning rivoji,

muntazam tibbiy ko‘rik.

Profilaktikaning asosiy maqsadi kasallik kelib chiqishidan oldin risk omillarini boshqarishdan iborat.

Xulosa

Klinik va psixologik salomatlik — insonning umumiy farovonlik darajasini belgilovchi ikki asosiy ustun bo‘lib, ular o‘zaro ta’sirchan va murakkab mexanizmlar orqali bir-birini

to‘ldiradi. Ruhiy barqarorlikning buzilishi klinik kasalliklarning kuchayishiga sabab bo‘lsa, jismoniy kasalliklar psixologik muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Shu bois zamonaviy tibbiyot va psixologiya integratsiyalashgan, kompleks yondashuvni talab qiladi. Mamlakat miqyosida ruhiy salomatlikni mustahkamlash, profilaktika dasturlarini joriy etish, aholining psixologik savodxonligini oshirish milliy sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

6. World Health Organization (2023). Mental Health: Strengthening Our Response. Geneva: WHO Press.
7. American Psychological Association (2022). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, 5th Edition. Washington, DC: APA.
8. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (2020). Stress, Appraisal and Coping. Springer Publishing.
9. Taylor, S. E. (2021). Health Psychology. McGraw-Hill Education.
10. Sarafino, E. P., & Smith, T. W. (2019). Health Psychology: Biopsychosocial Interactions. Wiley.
11. Khalsa, S. S. et al. (2021). “Mind-body medicine approaches to stress management.” Journal of Clinical Psychology, 77(4), 859–871.
12. Cannon, W. B. (2019). The Wisdom of the Body. W. W. Norton & Company.
13. McEwen, B. S. (2020). “The neurobiology of stress: From adaptation to disease.” Annual Review of Medicine, 71, 345–357.
14. Kandel, E. R., & Schwartz, J. H. (2021). Principles of Neural Science. McGraw-Hill.
15. Uzbek Ministry of Health (2023). Milliy sog‘liqni saqlash tizimida ruhiy salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar. Toshkent.

PSIXIK RIVOJLANISHNING SUSTLASHUVI BO‘LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH METODLARI TASHKILIY VA BOSHKARUV ASOSLARI

Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi
professori Tojiboyeva G
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Amaliy
psixologiya yo‘nalishi sirtqi ta’lim shakli
talabalari Mamasobirova M, Sobirova G

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ish psixik rivojlanishning sustlashuvi (ZPR) bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlari va ularni pedagogik va boshqaruv psixologiyasi asosida tashkil etish masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ishda ZPR bo‘lgan bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi kechikishlar tahlil qilinib, ularni aniqlash va rivojlantirishda ilmiy asoslangan yondashuvlar bayon etilgan. Tadqiqotda mashg‘ulotlarni individualizatsiyalash, faoliyatga asoslangan metodlar, vizual va interaktiv materiallardan foydalanish, shuningdek, tarbiyachi va ota-ona hamkorligining ahamiyati ko‘rsatildi. Ilmiy manbalar asosida ZPR bo‘lgan bolalarda psixik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida tizimli diagnostika, motivatsiya, psixoterapevtik va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning zamonaviy metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: psixik rivojlanishning sustlashuvi, ZPR, maktabgacha ta’lim, pedagogik psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, psixodiagnostika, individual yondashuv, faoliyatga asoslangan metodlar.

Psixik rivojlanishning sustlashuvi (ZPR) bolalarda kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishning me’yordan past darajada kechishi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat bolaning umumiy

intellektual salohiyatiga, diqqatini jamlash va mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Olimlar, xususan **D.B. Elkonin**, maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalarda intellektual rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda psixik ko‘nikmalarni shakllantirish zarurligini ta’kidlaydilar.

ZPR bo‘lgan bolalar bilan ishlashda asosiy yondashuv individual psixologik xususiyatlarni aniqlash va mos pedagogik metodlarni qo‘llashdan iborat. **L.S. Vigotskiy**ning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bu jarayonda muhim o‘rin tutadi, chunki bolaning mavjud imkoniyatlarini aniqlash va unga qarab qo‘llaniladigan psixologik ta’sir samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, **A.N. Leontev**ning faoliyat nazariyasi ZPR bo‘lgan bolalarda faoliyatga asoslangan metodlar orqali psixik jarayonlarni rivojlantirishni ilmiy asoslaydi.

Tashkiliy va boshqaruv psixologiyasi ZPR bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonida maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali pedagogik muhitni yaratishga qaratilgan. Bu muhit bolaning individual rivojlanish darajasiga moslashtirilgan mashg‘ulotlar, o‘yin faoliyati va motivatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Olima **E. G‘oziyev** ta’kidlaganidek, tarbiyachi va ota-onaning uzviy hamkorligi, shuningdek, maktabgacha muassasada tizimli nazorat mexanizmlari psixik ko‘nikmalarni barqaror shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
Amaliyotda ZPR bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodlarining asosiy tamoyillari quyidagilar: mashg‘ulotlarni kichik bosqichlarga ajratish, ko‘rgazmalilik va vizual yordamlar orqali tushuntirish, takrorlash va mustahkamlash, shuningdek, ijobiy motivatsiya orqali faoliyatga jalb qilish. **B.G. Ananyev**ning fikricha, psixik rivojlanishning sustlashuvi biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi, shuning uchun metodik yondashuv ham individual va ijtimoiy kontekstni hisobga olishi zarur. Shuningdek, ZPR bo‘lgan bolalar bilan ishlashda diagnostika va monitoring tizimi muhim ahamiyatga ega. Psixodiagnostika testlari va kuzatuvlar yordamida bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanish darajasi aniqlanadi, shundan kelib chiqib pedagogik va psixologik ta’sir strategiyasi ishlab chiqiladi. Zamonaviy amaliyotda interaktiv o‘yinlar, vizual materiallar, shaxsiy va guruh mashg‘ulotlari birlashtiriladi, bu esa bolaning motivatsiyasini oshiradi va psixik ko‘nikmalarni samarali shakllantiradi.

Tayanch so‘z va iboralar: maktabgacha ta’lim, didaktik o‘yinlar, mustaqil fikrlash, aqliy rivojlanish, aqliy qoboliyatlar, faoliyat, qiziqish, mantiqiy fikrlash, rolli o‘yinlar.

Inson xayoti davomida asosan to‘rtta faoliyat turini bajarish bilan o‘tadi. Bulardan birinchisi o‘yin faoliyati bo‘lib, asrlar davomida mavjuddir. Dunyodagi mavjud har bir xalq turli xil bolalar o‘yinlarini ulkan zaxirasini to‘plagan va avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bu o‘yinlar oqrali bolalar o‘ynab, zavqlanib, atrofdagi dunyoni o‘rganadilar, qobiliyatlarini oshiradilar va inson faoliyatining turli soxalarini o‘zlashtiradilar. Har bir jamiyat ongli tarzda yoki o‘z-o‘zidan, bilib-bilmay turli yo‘llar bilan bolalar o‘yinlarining mazmuniga ta’sir qiladilar. O‘yinning bolani tarbiyalashdagi ahamiyati o‘tmish va hozirgi ko‘plab pedagogik tizimlarida ko‘rib chiqiladi. O‘yin bola uchun jiddiy va zarur faoliyat sifatida baholanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy aqliy rivojlanishi, maktabga va butun kelajakdagi hayotiga tayyorgarlikning eng muhim tarkibiy qismidir. Ammo aqliy rivojlanishning o‘zi murakkab jarayon: bu kognitiv qiziqishlarni shakllantirish, turli bilim va ko‘nikmalarni to‘plash, nutqni o‘zlashtirish demakdir. Aqliy rivojlanishning asosini aqliy qobiliyatlarni

rivojlantirish tashkil etadi. Aqliy qobiliyatlar - bu yangi bilimlarni o‘rganishning qulayligi, soddaligi va turli xil muammolarni hal qilishda foydalanish imkoniyatini belgilaydigan psixologik jihatlar.

A.P. Usova, F.N. Bleher, E.I. Rodionova, V.A. Avanesovning fikriga ko‘ra, tarbiyachilarning bolalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirish, tajribada qo‘llash jarayonlarini kuzatishlari aqliy tarbiya va tarbiyada didaktik o‘yinlarda muhim rol o‘ynaydi. Har bir xalq turli xil bolalar o‘yinlarining ulkan zaxirasini to‘plagan va avloddan-avlodga o‘tkazib kelgan, ularda bolalar o‘ynab, zavqlanib, atrofdagi dunyoni o‘rganadilar, qobiliyatlarini oshiradilar va inson faoliyatining turli usullarini o‘zlashtiradilar. Har bir jamiyat ongli ravishda yoki o‘z-o‘zidan bolalar o‘yinlarining mazmuniga turli yo‘llar bilan ta’sir qiladi (o‘yinchoqlar tanlash, ma’lum mazmundagi o‘yinlarni qoralash va tasdiqlash orqali). O‘yinni bolani tarbiyalashdagi ahamiyati o‘tmish va hozirgi ko‘plab pedagogik tizimlarda ko‘rib chiqiladi. Aksariyat pedagoglar o‘yinni bola uchun jiddiy va zarur faoliyat sifatida baholaydilar. Xorijiy va rus pedagogika fanlari tarixida bolani tarbiyalashda o‘yinlardan foydalanishning ikkita yo‘nalishi paydo bo‘ldi:

− har tomonlama barkamol rivojlanish uchun;

− tor didaktik maqsadlar uchun. O‘yindan foydalanishning didaktik yo‘nalishi 18-asrda filantrop pedagoglar (I.B. Bazedov, X.G. Zaltsman) tomonidan ishlab chiqilgan.

Bolalarning o‘qishini qiziqarli va ularning yoshiga mos o‘tkazish maqsadida tayriyachilar turli o‘yinlardan foydalanishdi. Didaktik yo‘nalish F.Froebelning pedagogikasida eng katta iliqlik bilan taqdim etilgan. U bolaning jismonan rivojlanishida, nutqi, tafakkuri, tasavvurini boyitishda o‘yinga katta tarbiyaviy ahamiyat beradi. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng tipik faoliyatdir. Shuning uchun F.Frebel o‘yinni bog‘chada bolalarni tarbiyalashning asosi deb hisobladi. U bolalar uchun turli didaktik o‘yinlarni ishlab chiqdi. M. Montessori va F. Frebel tizimi bo‘yicha ishlaydigan Amerika bolalar bog‘chalarida asosiy o‘rin hali ham turli materiallar bilan didaktik o‘yinlar va mashqlarga beriladi. E.I.ning o‘yini haqidagi qarashlar katta qiziqish uyg‘otadi.

Didaktik o‘yinlar - bu o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qilish uchun o‘yin shaklida tashkil etilgan pedagogik faoliyatdir. Ular bolalar va o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, ma’lum ko‘nikmalar va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Didaktik o‘yinlar o‘qitish va tarbiyalash jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quv materialini o‘zlashtirishni osonlashtiradi va ta’lim jarayonini jonlantiradi.

Bu o‘rinda didaktik o‘yinlarning xususiyatlari haqida gapiramiz:

1. O‘quv maqsadiga ega bo‘lishi: Har bir didaktik o‘yin ma’lum bilim yoki ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi.
2. Qiziqarli shakl: O‘yin elementlari o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.
3. Tarbiyaviy ahamiyat: O‘yinlar orqali bolalarda intizom, hamkorlik va mas’uliyat kabi sifatlar rivojlanadi.
4. Maqsadli qoidalar: O‘yin qoidalari qat’iy va bolalar ularni bajarishga o‘rganadilar.
5. Natija ko‘rinishi: O‘yin jarayonida yoki uning yakunida natija erishilganligini baholash mumkin.

Didaktik o‘yinlarning turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

1. Bilimlarni oshirishga qaratilgan o‘yinlar: Mavzularni o‘zlashtirish uchun qulay bo‘lgan o‘yinlar (masalan, savol-javoblar, topishmoqlar).
2. Logik o‘yinlar: Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘yinlar (krossvordlar, boshqotirmalar).
3. Harakatli o‘yinlar: Jismoniy faoliyatni talab qiluvchi o‘yinlar, o‘quvchilarni, bolalarni diqqatni jamlashga o‘rgatadi.
4. Rolli o‘yinlar: Bolalar ma’lum rollarni bajarib, ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar (masalan, do‘kondor va xaridor rollari).
5. Stol o‘yinlari: Karta, domino yoki maxsus taxta orqali bilim beruvchi o‘yinlar.

Umuman olganda bu didaktik o‘yinlarni tashkillashtirishdan maqsad:

- O‘quv materialini qiziqarli tarzda o‘rgatish.
- Bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish.
- Yaratuvchilik va tasavvurni shakllantirish.
- Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Jamoada ishlashni o‘rgatish kabilardan iborat.

Didaktik o‘yinlarning ahamiyati shundan iboratki:

1. Pedagogik samaradorlik: O‘yin orqali bilim olish ancha samarali, chunki bolalar o‘yin davomida faol ishtirok etadilar va materialni o‘zlashtirish jarayoni tabiiy kechadi.

2. Motivatsiya yaratadi: O‘yin bolalarda qiziqish uyg‘otib, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi.

3. Shaxsiy rivojlanish: Bolalarda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, xotira va e’tibor rivojlanadi.

4. Tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: O‘yinlar orqali bolalar mehnatsevarlik, sabr-toqat va tartib kabi sifatlarni o‘zlashtiradilar. Quyida didaktik o‘yinlarga misollar keltirib o‘tamiz:

- “Kim tez?”: Savollar beriladi, to‘g‘ri javob berganlar g‘olib bo‘ladi.
- “Ranglarni top”: Bolalar aytilgan rangdagi buyumlarni ko‘rsatadilar.
- “Qaysi ortiqcha?”: Rasmlar yoki so‘zlardan ortiqchasini topish.
- “Do‘konda”: Sotuvchi va xaridor rollari orqali hisob-kitob o‘rgatiladi.

Didaktik o‘yinlar turli yosh guruhlari va o‘quv dasturlariga moslashtiriladi, bu esa ularni ta’lim tizimida keng qo‘llash imkonini beradi.

Zabrodotskaya O.D. Aqliy tarbiyada didaktik o‘yinlarning o‘rni A.K.ning so‘zlariga ko‘ra. Bandarenkoning fikriga ko‘ra, didaktik o‘yinning mohiyatini tushunishning qiyinligi shundaki, u bir vaqtning o‘zida: o‘qitishning o‘yin usuli, mustaqil o‘yin faoliyati, ta’lim shakli. Didaktik o‘yin o‘yin usuli sifatida uni tanlash va tashkil etishda tashabbus kattalarga tegishli ekanligini taxmin qiladi. Mustaqil o‘yin faoliyati bolaning mavzuni, didaktik materialni va sheriklarni tanlashda erkinligini nazarda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda didaktik o‘yinlarni o‘qitish vositasi sifatida foydalanish zarurati bir qator sabablar bilan belgilanadi:

− maktabgacha yoshdagi davrda o‘yin faoliyati yetakchi o‘rinni egallaydi;

− didaktik o‘yinlar bolalarda aqliy jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi;

- didaktik o‘yin kognitiv motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Demak, didaktik o‘yinlarda bolalar turli xil aqliy muammolarni mustaqil ravishda hal qilishiga o‘rganadi, ob’yektlarni tasvirlash, ularni turli xususiyatlar va xususiyatlarga ko‘ra guruhlash, tavsiflar asosida ob’yektlar va harakatlarni taxmin qilish, hikoyalar o‘ylab topish kabi jarayonlari shakllanadi. Bolalar mavjud bilim va tajribadan foydalangan holda javob topa olishlari, taxmin qilishlari, taqqoslashlari va to‘g‘ri xulosa chiqarishlari uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, ular aql-zakovatni, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini va o‘z maqsadlariga erishishda kuchli irodani namoyon etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yhati

1. Аванесова В.Н. Дидактическая игра как форма организации обучения в детском саду: Умственное воспитание дошкольника. – М.: Просвещение, 1972. – 192 с.

2. 2. Игры и упражнения по развитию умственных способностей у детей дошкольного возраста / Сост. Л.А. Венгер, О.М. Дьяченко. – М.: Просвещение, 1994. – 96 с.

3. Менджерицкая Д.В. Воспитателю о детской игре / Д.В. Менджерицкая. – М.: Просвещение, 1982. – 128 с.

4. Забродоцкая О.Д. Роль дидактической игры в умственном воспитании 193 с.

5. Психология и педагогика игры дошкольника / Под ред. А.В. Запорожца и А.П. Усовой. – М.: Просвещение, 1966. – 347 с.

6. Сорокина А.И. Дидактические игры в детском саду / А.И. Сорокина. – М.: Просвещение, 1982. – 96 с.

Усова А.П. Обучение в детском саду / А.П. Усова. – М.: Просвещение, 1981. – 170

INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING MAKTABGACHA DAVRGA XOS XUSUSIYATLARI: TAFAKKUR OPERATSIYALARIGA NAZARIY YONDASHUV

Yusupova Maxmudaxon Egamnazarovna
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi hamda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarining shakllanishi nazariy jihatdan yoritiladi. Vigotskiy, Piaje va Galperin nazariyalariga tayangan holda, bolalarning tafakkur rivojiga nutq, o‘yin faoliyati va ijtimoiy muhitning ta’siri qisqa ilmiy tahlil asosida ochib beriladi.

Аннотация: В данном тезисе теоретически освещаются интеллектуальное развитие детей дошкольного возраста, а также формирование таких мыслительных операций, как анализ, синтез, сравнение и обобщение. На основе теорий Выготского, Пиаже и Гальперина кратко раскрывается влияние речи, игровой деятельности и социальной среды на развитие мышления детей.

Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Aynan shu davrda analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi asosiy tafakkur operatsiyalari shakllana boshlaydi va keyingi ta’lim jarayonining psixologik poydevorini yaratadi. Bolaning tafakkuri faollashuvi uning nutq rivoji, ijtimoiy muhitda muloqot qilishi, o‘yin faoliyati va kattalar bilan o‘zaro hamkorligiga bevosita bog‘liqdir. Klassik psixologlar – L.S. Vigotskiy, J. Piaje, P.Ya. Galperin va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur operatsiyalarining shakllanish mexanizmlarini tushunishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish aynan tafakkur operatsiyalarini chuqur o‘rganishni talab etadi.

Shu bois ushbu ishda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanish xususiyatlari, tafakkur operatsiyalarining shakllanishi hamda ular rivojiga ta’sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur yondashuv pedagog va psixologlarga bolalarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashning samarali metodlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur jarayonlari nafaqat ularning bilish faoliyatini, balki emotsional-irodaviy rivojlanishini ham belgilab beradi. Shu boisi, tafakkur operatsiyalarining qanchalik shakllangani bola tomonidan atrof-muhitni idrok etish, voqea-hodisalarga munosabat bildirish, muammoli vaziyatlarda yechim topish kabi jarayonlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonlarning sifatli shakllanishi esa bola shaxsining keyingi maktab davridagi muvaffaqiyatli o‘qishi va ijtimoiy moslashuvining muhim omillaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida kognitiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli metodikalar joriy etilmoqda. Ammo ularning samaradorligini oshirish uchun avvalo tafakkur operatsiyalarining nazariy asoslarini chuqur anglash zarur. Chunki har bir metodika bolaning yosh xususiyatlari, psixologik imkoniyatlari va rivojlanish bosqichlariga mos bo‘lmog‘i kerak. Shuning uchun mazkur mavzuning ilmiy ahamiyati yuqori bo‘lib, u pedagogik psixologiya, kognitiv psixologiya va maktabgacha ta’lim metodikasi bilan bevosita bog‘liqdir.
Ushbu tadqiqotning natijalari maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarda tafakkur operatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq ilmiy tavsiyalar berish imkonini yaratadi. Shuningdek, pedagog va psixologlarga bolalarning kognitiv salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va monitoring qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh davri (3-7 yosh) bolaning bilish jarayonlari eng faol rivojlanadigan bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda idrok, diqqat, xotira va tafakkur jarayonlari sifat jihatdan o‘zgaradi. Bola voqelikni tushunishda bevosita amaliy harakatlardan fikr yuritish darajasiga

ko‘tarila boshlaydi. Intellektual rivojlanishning asosiy manbalari sifatida nutq rivoji, o‘yin faoliyati, kattalar bilan muloqot va qo‘shma faoliyat ko‘riladi. Maktabgacha yoshda bolaning fikrlashi asosan obrazli xarakterga ega bo‘lib, mantiqiy fikrlash elementlari asta-sekin shakllanadi. Bola narsalar o‘rtasidagi munosabatlarni sezadi, lekin ularni chuqur tahlil qilish hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu bois, bu davr intellektual rivojlanish uchun eng sezgir davrlardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi ularning bilish jarayonlarining faol shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda bola atrof-muhitni idrok etish, tasniflash, voqealar orasidagi bog‘lanishlarni tushunish va oddiy mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lib boradi. Intellektual rivojlanishning asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan tafakkur operatsiyalari – analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish – aynan maktabgacha yoshda eng jadal rivojlanadi. Bola dastlab predmetlarni bevosita amaliy harakatlar orqali tahlil qiladi, so‘ng obrazli va og‘zaki shakldagi fikrlashga o‘ta boshlaydi. U predmetlarning shakli, rangi, o‘lchami yoki vazifasi bo‘yicha farqlanishini sezadi, ularni guruhlarga ajratishga urinadi va umumiy belgiga ega toifalarni shakllantirishga harakat qiladi. Bu jarayonlar bolaning tasavvur doirasini kengaytirib, mantiqiy fikrlashning boshlang‘ich bosqichini yaratadi.

Tafakkur operatsiyalarining shakllanishi psixologik ilmiy maktablarning qarashlari bilan ham o‘z tasdig‘ini topgan. Vigotskiy nazariyasiga ko‘ra, bolaning fikrlash jarayonlari ijtimoiy muhit, muloqot va kattalar ko‘magida rivojlanadi. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, bola murakkab aqliy vazifalarni kattalar rahbarligi ostida muvaffaqiyatli bajara oladi va aynan shu jarayon tafakkur operatsiyalarining shakllanishiga zamin yaratadi. Piaje fikricha esa maktabgacha yosh preoperatsional bosqich bo‘lib, unda fikrlash intuitiv va obrazli xarakterga ega. Bola mantiqiy munosabatlarni to‘liq anglab yetmasligi mumkin, biroq predmetlar orasidagi asosiy bog‘lanishlarni tushuna boshlaydi. Galperinning bosqichma-bosqich shakllanish nazariyasiga ko‘ra, tafakkur operatsiyalari avval amaliy harakatlar asosida, keyin tashqi nutq orqali, so‘ng ichki nutq va aqliy harakat shaklida rivojlanadi. Maktabgacha yoshda aynan tashqi faoliyat va nutq asosiy o‘rinni egallaydi.

Tafakkur operatsiyalarining shakllanish jarayoniga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan eng muhimi – nutq rivojidir. Bola so‘z boyligining kengayishi bilan birga, predmetlar o‘rtasidagi aloqalarni tushunishi va ularni so‘z orqali ifodalash qobiliyati ham ortadi. O‘yin faoliyati ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, qurilish-konstruktiv o‘yinlar, didaktik o‘yinlar va rolli o‘yinlar bola tafakkur operatsiyalarini faol rag‘batlantiradi. Ijtimoiy muhit, tengdoshlar va kattalar bilan muloqot esa bolaning fikrlash jarayonlarini yanada boyitadi, uni yangi bilish faoliyatlariga olib kiradi. Ta’lim jarayonida beriladigan topshiriqlar, mantiqiy o‘yinlar, tasniflash, solishtirish, umumlashtirishga oid mashqlar esa tafakkur operatsiyalarining sifatli shakllanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davri bola tafakkurining eng sezgir va muhim rivojlanish bosqichidir. Bu davrda shakllangan tafakkur operatsiyalari keyingi maktab ta’limida mantiqiy, analitik va ijodiy fikrlashning rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual va kognitiv rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi tafakkur operatsiyalarining shakllanishi faol kechib, bolaning keyingi bilish jarayonlari uchun poydevor yaratiladi. Bolaning tafakkuri dastlab amaliy va obrazli xarakterga ega bo‘lsa-da, nutq rivoji, o‘yin faoliyati va ijtimoiy muhit ta’siri ostida asta-sekin mantiqiy fikrlash elementlari shakllanadi. Vigotskiy, Piaje va Galperin nazariyalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi tabiiy jarayon bo‘lish bilan birga, maqsadli pedagogik ta’sir va to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya jarayoni bilan yanada samarali kechadi. O‘yin, muloqot, didaktik mashg‘ulotlar va kattalar rahbarligidagi faoliyat bolalarning kognitiv imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’lim jarayonida tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvni kuchaytirish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda intellektual salohiyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy

tavsiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolaning maktab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishini va kelgusi intellektual rivojlanishida barqaror poydevor yaratilishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гальперин П.Я. О формировании умственных действий. – М., 1985.
2. Виготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1996.
3. Виготский Л.С. Психология развития ребёнка. – М.: Просвещение, 1984.
4. Пиаже Ж. Психология интеллекта. – М.: Педагогика, 1972.
5. O.K. Ibragimova Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalar moslashuvining individual psixologik xususiyatlari [Monografiya]. Andijon: Omadbek print number one‖ MCHJ, 2025. ISBN: 978-9910-11-032-0. - 141 b.
6. Ibragimova O.K. “Bolani maktabgacha ta’lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillari” (3-4 yoshli bolalar misolida) Psixol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss.avtoref. – T., 2024. – B. 18-22.
7. Parmonov B.E. Maktabgacha yoshidagi bolalarda axloqiy tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss.avtoref. – T., 2023. – B. 11-14.
8. Эльконин Д.Б. Психология игры. – М.: Педагогика, 1978.

GLOBALLASHUV VA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA ART-PEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

University of business and science o‘qituvchisi
Xamidov Jamvlonbek Baxtiyor o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarining oliy ta’lim tizimiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi. Art-pedagogika tushunchasi, uning zamonaviy talablarga moslashuvi va raqamli ta’lim muhiti bilan integratsiyalashuvi asosida darslarni tashkil etish imkoniyatlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, oliy ta’limda art-pedagogika texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, o‘quv jarayoniga kreativlik, emotsional intellekt va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini integratsiya qilishning nazariy-amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot yakunida raqamli platformalar asosida art-pedagogik modellarni joriy etish bo‘yicha taklif hamda tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, raqamli ta’lim, art-pedagogika, oliy ta’lim, kreativ didaktika, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar.

Abstract: This article analyzes the impact of globalization and digital transformation processes on the higher education system. The concept of art pedagogy, its adaptation to modern requirements and the possibilities of organizing lessons based on the digital learning environment are scientifically highlighted. Also, the effectiveness of using art pedagogy technologies in higher education, the theoretical and practical aspects of integrating creativity, emotional intelligence and critical thinking skills into the learning process are considered. At the end of the study, proposals and recommendations are put forward for the introduction of art pedagogy models based on digital platforms.

Keywords: globalization, digital education, art pedagogy, higher education, creative didactics, innovative approach, digital technologies.

Аннотация: В статье анализируется влияние процессов глобализации и цифровой трансформации на систему высшего образования. Научно обоснованы понятие арт-педагогики, её адаптация к современным требованиям и возможности организации занятий в цифровой среде обучения. Также рассматривается эффективность использования технологий арт-педагогики в высшем образовании, теоретические и практические аспекты интеграции навыков креативности, эмоционального интеллекта и критического мышления

в учебный процесс. В заключение исследования сформулированы предложения и рекомендации по внедрению моделей арт-педагогики на основе цифровых платформ.

Ключевые слова: глобализация, цифровое образование, арт-педагогика, высшее образование, креативная дидактика, инновационный подход, цифровые технологии.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga keng kirib kelishi pedagogika fanining nafaqat mazmuni, balki shakl va metodlarini ham tubdan yangilash zaruratini yuzaga keltirdi. Oliy ta’lim tizimida bilim, kompetensiya va kreativlik sinteziga asoslangan yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talabi kuchaymoqda. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhiti shakllanayotgan bir sharoitda o‘quv jarayonining shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va kreativ bo‘lishi dolzarb masalalardan biridir.

Shu jihatdan art-pedagogik yondashuv - san’at vositalariga tayangan holda talabalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional va estetik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan pedagogik tizim - zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda [1-13b]. Mazkur yondashuv, ayniqsa raqamli muhitda, multimediya, virtual san’at, raqamli rasm, animatsiya, musiqiy texnologiyalar va boshqa kreativ platformalar orqali yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Maqolaning maqsadi - globallashuv va raqamli ta’lim sharoitida oliy ta’lim muassasalarida art-pedagogik darslarni tashkil etishning zamonaviy metodologiyasini asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Globallashuv jarayonlari inson faoliyatining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatgani kabi ta’lim tizimini ham yangicha talablarga yo‘naltirmoqda. Informatsion jarayonlarning tezlashuvi, internet texnologiyalarining har bir inson hayotiga chuqur kirib borishi oliy ta’limning global modellari - masofaviy ta’lim, ochiq ta’lim resurslari (OER), MOOC kurslari, AI-asosli o‘quv tizimlari kabi shakllarning rivojlanishiga olib keldi [2-23b].

Bugungi talaba nafaqat nazariy bilimlarga, balki:

- kreativ fikrlash,
- raqamli savodxonlik,
- emotsional intellekt,
- multikultural muloqot,
- media madaniyati va media tafakkurga ega bo‘lishi talab qilinadi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda art-pedagogika o‘zining interaktiv, kreativ va emotsional rivojlantiruvchi xususiyatlari sababli samarali vosita bo‘la oladi.

Raqamli ta’lim muhiti quyidagilarni ta’minlaydi:

- o‘qitish jarayonining individuallashtirilishi,
- tezkor kommunikatsiya,
- ochiq ta’lim resurslariga keng kirish,
- kreativ kontent yaratish imkoniyatlarining kengayishi,
- talabalarning o‘qishga motivatsiyasini oshirish [3-11b]. Shu bilan birga, mazkur muhitda o‘qituvchi metodika, dizayn va kommunikatsion ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Art-pedagogika - san’atning barcha ko‘rinishlarini (tasviriy san’at, musiqa, drama, kino, raqs, badiiy ijod va boshqalar) o‘qitish jarayoniga integratsiya qiluvchi pedagogik yo‘nalishdir.

Art-pedagogikaning asosiy tamoyillari quyidagilarni tashkil etadi:

1. Kreativlik - talaba ijodiy yondashish orqali bilimni o‘zlashtiradi.
2. Estetik tarbiya - san’at orqali shaxsning ruhiy dunyosi boyitiladi.
3. Emotsional rivojlanish - emotsional intellektni shakllantirish.
4. Ko‘pkanalli idrok - vizual, audial, kinestetik idrokni birlashtirish.
5. Integrativlik - fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirish.

Zamonaviy pedagogikada art-pedagogika konstruktivistik yondashuv bilan uyg‘unlashadi. Talaba tayyor bilimni emas, balki san’at orqali o‘z tajribasi asosida bilim yaratadi [4-7b]. Bu esa mustaqil fikrlash va kreativ qaror qabul qilishni rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar art-pedagogikaning imkoniyatlarini bir necha barobar kengaytirdi. Virtual san’at, raqamli grafikalar, animatsiya, interaktiv video, VR/AR texnologiyalar talabalarga yangi tajribalar yaratib beradi.

Art-pedagogik jarayonda qo‘llaniladigan raqamli vositalar quyidagilarni tashkil etaadi:

- Grafik dizayn dasturlari (Adobe Illustrator, Photoshop, CorelDRAW)
- Raqamli chizish platformalari (Procreate, Wacom)
- Video va animatsiya dasturlari (Filmora, Adobe Premiere, Blender)
- Virtual haqiqat vositalari (Oculus, VR-gallery)
- Musiqa yaratish dasturlari (FL Studio, GarageBand)
- Interaktiv ta’lim platformalari (Kahoot, Nearpod, Miro, Padlet)

Raqamli art-pedagogikaning afzalliklari ham quyida berilgan:

- o‘quvchini faol subyektga aylantiradi;
- motivatsiyani oshiradi;
- kreativ tafakkurni jadallashtiradi;
- o‘quv jarayonini vizual va interaktiv qiladi;
- masofadan turib ham samarali o‘qitish imkonini beradi.

Oliy ta’lim darslarida art-pedagogik yondashuvni qo‘llash metodikasi- art-pedagogik dars o‘qituvchidan nafaqat fan metodikasini, balki kreativ pedagogika, san’at texnikalari va raqamli vositalarni bilishni talab qiladi.

Art-pedagogik dars odatda quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Motivatsiya va assotsiatsiya bosqichi
   - Vizual obrazlar ko‘rsatish
   - Musiqa orqali kayfiyat yaratish
   - Rasm, video yoki san’at namunasi asosida muhokama
2. Kreativ muammo qo‘yish
   - San’atga asoslangan savollar
   - Interaktiv tasvirlar, kollajlar
   - Rol o‘ynash yoki dramatizatsiya
3. Ijodiy faoliyat bosqichi
   - Talabalar o‘z loyihasini yaratadi
   - Raqamli rasmlar, video, grafika, dramatik sahnalar tayyorlash
4. Refleksiya va taqdimot
   - Talabalar ishini namoyish etadi
   - O‘zaro baholash va fikr almashish
   - O‘qituvchi emotsional-intellektual tahlil o‘tkazadi

Fanlar kesimida qo‘llash misollari quyida keltirib o‘tilgan:

- Pedagogika: ta’lim jarayonini san’at metaforalari orqali tushuntirish.
- Iqtisodiyot: infografika yaratish, iqtisodiy jarayonlarni vizual sahnalashtirish.
- Psixologiya: art-terapevtik mashqlar.
- Tarix: raqamli tarixiy kollajlar, virtual rekonstruksiya.
- Tilshunoslik: dramatizatsiya, audiovizual matn yaratish [6-9b].

Art-pedagogik yondashuvning talabalarga ta’siri - o‘tkazilgan tadqiqotlar art-pedagogikaning quyidagi jihatlar bo‘yicha samaradorligini ko‘rsatadi:

Kognitiv rivojlanish

- mavzularni yaxshiroq eslab qolish;
- tahliliy fikrlashning kuchayishi;
- mavhum tushunchalarni tezroq anglash.

Emotsional intellekt

- o‘zini anglash, empatiya, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari oshishi.

Kreativlik indikatorlari

- yangi g‘oyalar generatsiyasi;
- original mahsulot yaratish;
- divergent fikrlash.

Raqamli kompetensiyalar

- grafik va vizual dasturlardan foydalanish;
- kontent yaratish;
- media madaniyat.

Raqamli art-pedagogikaning muammolari va yechimlari mavjud.

Muammolar:

1. O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli emas.
2. Texnik jihozlarning tanqisligi.
3. Tizimli metodik ko‘rsatmalar yetishmasligi.
4. Dars yuklamasining ortishi.

Yechimlar:

- o‘qituvchilar uchun media-pedagogika bo‘yicha malaka oshirish dasturlari;
- universitetlarda “Digital Art Lab” markazlari ochish;
- fanlar kesimida art-pedagogik standartlarni ishlab chiqish;
- o‘quv platformalarini takomillashtirish.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta’lim yangi sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda. Talabalar endilikda nafaqat bilimga, balki kreativlikka, raqamli kompetensiyaga, emotsional intellektga ega bo‘lishi zarur. Art-pedagogika - aynan shu kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan art-pedagogik darslar ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va innovatsion qiladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida art-pedagogik metodlar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish, media-pedagoglarning malakasini oshirish hamda art-laboratoriyalar tashkil qilish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil.
2. Forobiy A.N. Musiqa ilmi haqida. Toshkent, 1993.
3. Ibn Sino A. Shifo kitobi. Toshkent, 1980.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1992.
5. Shoumarov G‘.B. Nurmatov N.M. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent, 2021.
6. D.Abdullayeva “Shaxs intellektual kamolotida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari” “RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA UZLUKSIZ TA’LIM: INNOVATSIYA VA ISTIQBOLLAR XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA” ikkinchi jildi
7. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, *3*(6).
8. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, *1*(6), 750-754.

INKLYUZIV TA’LIMNING RIVOJLANISHIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING O‘RNI

Namangan shahar 11-sonli umumiy o‘rta ta’lim
Maktabining Maxsus pedagog o‘qituvchisi va Toshkent
Kimyo xalqaro Universiteti Namangan filiali magistranti
Satimova Marhabo Adhamovna
marhabotojiboyeva989@gmail.com94 158 61 65

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim tizimining rivojlanishida imkoniyati cheklangan bolalarning tutgan o‘rni, ular uchun yaratiladigan pedagogik, psixologik va ijtimoiy sharoitlarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari, imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish mexanizmlari hamda bu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi davlat siyosati va xalqaro hujjatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchilar tayyorgarligi, maxsus pedagogik yondashuvlar va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik inklyuziv ta’limning barqaror rivojlanishida asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus pedagogika, integratsiya, adaptatsiya, inkluziv muhit, pedagogik yondashuv, ta’lim siyosati.

Аннотация: В статье рассматривается роль детей с ограниченными возможностями в развитии инклюзивного образования, а также значимость создания педагогических, психологических и социальных условий, способствующих их успешной интеграции в образовательный процесс. Анализируются основные принципы инклюзии, механизмы внедрения инклюзивных практик, государственная политика и международные нормативные документы. Особое внимание уделяется профессиональной подготовке педагогов, специализированным методам обучения и развитию социального взаимодействия среди учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дети с ограниченными возможностями, специальная педагогика, интеграция, адаптация, инклюзивная среда, педагогические подходы, образовательная политика.

Abstract: This article examines the role of children with disabilities in the development of inclusive education and emphasizes the importance of creating pedagogical, psychological, and social conditions that support their successful integration into mainstream schooling. The study analyzes the core principles of inclusion, mechanisms for implementing inclusive practices, as well as national policies and international frameworks that promote inclusive education. Teacher preparedness, specialized instructional approaches, and social interaction among students are highlighted as key factors contributing to the sustainable development of inclusive education.

Keywords: inclusive education, children with disabilities, special pedagogy, integration, adaptation, inclusive environment, pedagogical approaches, education policy.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olishi nihoyatda yuqori e’tiborni talab qiluvchi umumta’lim tizimining sohasi hisoblanib, imkoniyati cheklangan bolalar jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko‘pchiligi kam ta‘minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta’lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko‘pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta’lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina biz imkoniyati cheklangan barcha bolalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga erishishishimiz mumkin. Maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida respublikamizda ko‘zga ko‘rinarli ishlar qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta‘lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta‘minlash; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi bandlar kiritilgan. Bundan tashqari, zamonaviy maktablarni qurishda ushbu maktablarda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ular uchun maxsus infratuzilma bo‘lishi va jihozlanishini ta‘minlash maqsadida inklyuziv ta‘limni tashkil etish bo‘yicha zamonaviy maktabga qo’yiladigan me’yoriy talablar loyihasi ishlab chiqildi.

Mana shu maqsadda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 13.10.2020-yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni sog‘lom bolalar qatorida umumta’lim maktablarida o‘qitish amaliyotini rivojlantirish maqsadida ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalarida ta‘lim olayotgan o‘quvchilarning umumta’lim maktablariga integratsiyalashuvi (uyg‘unlashtirgan holda ta’lim-tarbiya berish) tajribasi qo‘llanilishi natijasida so‘ngi yillarda 500 nafarga yaqin alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga qaytarildi. Hozirgi kunda 3,2 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta‘lim bilan qamrab olingan. Amalga oshirilgan ma’lum bir darajadagi yutuqlar bilan birga ayrim hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar ham mavjud. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: salbiy munosabat; hamjamiyatda ko‘rinmaslik; moddiy mablag‘-muammolari; jismoniy moslashtirish; sinfdagi o‘quvchilar soni; qaramlik; jinsiy belgilarga qarab kamsitish; favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar.

Shulardan birinchisi salbiy munosabat muammosiga to‘xtaladigan bo‘lsak bu holat maxsus ehtiyojli bolalarning umumta‘lim muasasalari tizimida ta‘lim-tarbiya olishlari uchun eng katta to’siq bo’lsa kerak. Salbiy munosabat muammosining mazmuni shundaki, ota-onalar, hamjamiyat a‘zolari, o‘qituvchilar, umumta‘lim muassasalari hodimlari, boshqaruv organlaridagi hatto maxsus ehtiyojli bolalrning o‘zlaridagi umumta‘lim muassasalarida ta‘lim tarbiya olishlariga nisbatan qashiliklari va buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto‘g‘ri fikr, ular to‘g‘risida ma‘lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o‘sganligi va boshqalardir. Hamjamiyatda ko‘rinmaslik muammosining mazmuni shundaki, ko‘pincha ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ota-onalar tomonidan qattiq bekitiladi. Ularni uyga qamab hech kimga ko‘rsatmaydilar, ro‘yxatga olish jarayonida nogiron bolasi to‘g‘risida hech bir ma‘lumot berilmaydi. Natijada ko‘plab nogiron bolalar hamjamiyatda ishtirok etishdan mahrum bo‘ladilar. Ular to‘g‘risida hech bir ma‘lumotni bo‘lmasligi ta‘lim-tarbiya muassasalariga qatnamasliklariga olib keladi. Moddiy mablag‘ muammolari.

Jahon miqiyosida ko‘pgina davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalarida o‘qitish juda qimmatga tushadi,- deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham inklyuziv ta‘lim tizimini joriy qilish masalasini hal qilmaydilar. Jismoniy moslashtirish masalasi har bir davlatda mavjud bo‘lib, bu mammo asosida maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga qatnashi masalasi yetadi. Maxsus ehtiyojli bola maktabga kelgandan so‘ng u ko‘plab muammolarga duch keladi, masalan, binoning ichkarisiga kirish, xonalar bo‘ylab harakatlanish, hojatxonaga borish va hokazolar. Inklyuziv ta‘limda jismoniy xavsizlik va qulaylik muhimdir. Sinfdagi o‘quvchilar soni muammosiga keladigan bo‘lsak, sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi ko‘plab davlatlarda maxsus ehtiyojli bolalar uchun inklyuzivlikka to‘sqinlik qiladi.

Rivojlangan davlatlarda har bir sinfdagi bolala soni 30 tadan oshmaydi. Ammo rivojlanishdan orqada qolgan davlatlarda esa bir sinfda 60-100 nafar bolaning o‘qishi oddiy holdir. Qaramlik muammosi-ya‘ni bunda maxsus ehtiyojli bolalarning ko‘pchiligini doimiy ravishda boshqalar ko‘magiga muhtojligi nazarda tutiladi. Jinsiy belgilarga qarab kamsitish muammosi oqibatida ta’limda o‘g‘il bolalar va qiz bolalarning teng munosabatda bo’lmasligi kuzatiladi. Favqulodda vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar. Favqulotta vaziyatlar, mojorolar va qochoqlar nafaqat nogironlik sababchisi, balki, maxsus ehtiyojli bolalarning zaifligini yanada chuqurlashtirishga sabab bo‘ladigan omildir. Jahon miqyosida esa hanuzgacha bu muammoning yechimlari topilganicha yo‘q.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, inklyuziv ta‘lim nafaqat ta‘lim borasida, balki bolalarning ma‘naviy va jismoniy o‘sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir, maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta‘lim muassasalari tizimida o‘qitish borasida respublikamizda ko‘zga ko‘rinarli ishlar qilinmoqda. Olib borilayotgan ishlar

natijasida imkoniyati cheklangan bolalar ta‘limga jamoatchilik tashkilotlarining munosabati o‘zgardi, ota-onalarning bolalariga e‘tibori ortdi, ta‘lim olishlari uchun qiziqishlari yanada ortdi. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarni umumta‘lim mussasalariga jalb etish, integrasiya asosida ta‘limni tashkil etishning o‘ziga xos muammolari va qiyinchilaklari bo’lsada u barcha mintaqalarda rivojlanib bormoqda, bu esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta‘lim berishning noan‘anaviy shakllarini tashkil etishga harakat qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 13.10.2020 yildagi «Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori.
2. Muzaffarova X.N. Inklyuziv ta‘limning muammolari va istiqbollari// Xalq ta‘limi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2014-yil 3-son.
3. Qayumov, B. Z. (2025). O‘smirlarda kreativlik namoyon bo‘lishining hududiy tafovutlari. maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(6).
4. Nurmuhammedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2005. – 156 b.
5. Rustamov.S. Inklyuziv sinflarda oilalar bilan ishlash va ular o‘rtasidagi hamkorlikning o_ziga xosligi.
6. Ture Yonsson. Inklyuzi ta‘lim. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Yunesko xalqaro tashkiloti. Opereyshen Mersi Xalqaro Tashkiloti, Respublika ta‘lim markazi.–T.:ilmiy jurnal. Toshkent, 2002. - №1-2.

AUTIZMGA EGA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi
Dotsenti Nilufarxon Karimova Raimjonovna
Stajyor-o‘qituvchi G‘ofurova Umida O‘tkirbek qizi
Tel: +998501050774, tel: +998934930308
e-mail: Nilufarxon311078@gmail.com, umidagofurova0308@gmail.com

Annotatsiya. Autizm (grekcha “autos”- “o’zim” degan so’zdan olingan) – bu ruhiy holatning o’ziga xos turi bo’lib, ushbu holat kuzatilganlarda tashqi olam hamda atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaslik holati uchraydi. Aynan shuning uchun ham Autizmga ega bolalarda tashqi olam bilan bo’lgan aloqa uziladi va bu bola nutqini o’sishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bola so’z boyligi me’yordan birmuncha kam bo’lishi kuzatiladi.

Kalit so’zlar: autizm, aspergera, exolaliya, medikamentoz, agressiya, Retta sindromi, spetsifik belgilar, bolalar serebral falaji.

«ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ РЕЧИ У ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ»

Аннотация. Аутизм - это заболевание от которого страдает все больше и больше людей. Именно поэтому у детей с аутизмом прерывается общение с окружающим миром, что негативно сказывается на речевом развитии ребёнка. Словарный запас ребёнка немного ниже нормы.

Ключевые слова: аутизм, аспергера, эхолалия, лекарства, агрессия, синдром Ретта, специфические симптомы, детский церебральный паралич.

“TECHNOLOGY FOR SPEECH DEVELOPMENT IN CHILDREN WITH AUTISM”

Annotation. Autism is a disorder that is affecting more people. That's in children with autism, communication with the outside world is cut off, which negatively affects the child's speech development. The child's vocabulary is slightly below normal.

Key words: autism, aspergera, exolalia, medication, aggression, Retta syndrome, specific symptoms, cerebral palsy in children.

Autizm (grekcha "autos" – "o'zim" degan so'zdan olingan) – bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Kasalikka doir "autizm" terminini fanga 1912-yilda E.Bleyer kiritgan. Uning fikricha autizmga ega odamlar o'z olamida yashaydi fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti- harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Autizmga ega odamlar harakatida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomplarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu holatni qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha. So'nggi yillarda autizm epidemiyalari butun dunyoni qamrab olmoqda. Autistik xususiyatlar har xil ma'lumotlarda tarqalmoqda, ba'zi mamlakatlarda har 100 boladan 1tasi deyilsa, ba'zi joylarda har 1000 ta bolaning bittasiga to'g'ri kelishi aniqlangan. Ma'lum vaqt ilgari autizm kam hollarda uchraydigan psixik kasallik deb kelinar edi. Bugungi kunda ushbu holatning kuzatilishi tobora ko'payib bormoqda. Birinchidan, autizm Retta sindromi, Aspergera sindromi bilan birgalikda kompleks holda uchraganligi bo'lsa, ikkinchisi kasallik haqida ma'lumotlar ko'payib borishidir. Ilgari tortinchoq,muyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni "g'ayritabiiy bolalar" diyishgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik (autizm) deyishmoqda. Uchinchidan, giperdiagnostika ya'ni ota-onalar tomonidan vahimakashlik sabab bo'lmoqda. Autizm o'z navbatida "zamonaviy kasallik" ka aylanib bormoqda, bunga autist bolalar haqidagi kinofilmlar ularni "super aql" egalari sifatida namoyon bo'lishlari ham sabab bo'lmoqda. Yana bir ahamiyatli jihati ba'zi ota-onalar bolalar tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatoliklarni autizm kasalligi bilan berkitishmoqda. Demak "Autizm epidemiyasi" tushunchasi ostida insonlarning kasallik haqida ma'lumot olishlari ko'payganligi va kasallik simptomplarini oydinlashganligi yotadi. Oxirgi izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadi-ki autistik o'zgarishlar bolaning 2-3 yoshlaridan boshlab yuzaga chiqadi. Emizikli bolalarda esa hayotiy xususiyatlar ya'ni ota-onalarni tanish, kulish, qo'zg'atuvchilarga bo'lgan sezgining yo'qligi: taktil, yorug'lik, tovush va shu kabilar. Ammo bu yoshda autizm kasalligiga faqatgina aniq belgilar yuzaga chiqsa gumon qilsa bo'ladi. Odatda belgilarnin mutaxassisdan ko'ra yaqin qarindoshlar orasida autist farzandlari bor ota-onalar aniqlashadi. Shunday qilib autizmni ko'pincha oilada aniqlashadi. Yosh oilalar o'zlariga ishonch hosil qila olmaydilar ya'ni bu o'ziga xosliklar bolaning xususiyatimi (xarakteri) yoki rivojlanishning buzilishimi aniqlay olishmaydi. Atizm diagnozi o'rtacha 2,5-3 yoshlarda qo'yiladi. Bu yoshga kelib bolada umumiy belgilar yuzaga kela boshlaydi, o'z tengdoshlari rivojlanishda oldinga o'tib ketadi. Bolaning qabul qilib olish , o'rganish, moslashish xususiyatlari yo'qoladiyoki sekinlashadi va uzoq vaqt talab qiladi. Autizmda erta aniqlash va ularga alohida erta parvarish qilish bolaning hayotiga maslashishida ancha katta yordam beradi. Shuning uchun chet el olimlari bolani 1-1,5 yoshlarda mustaqil ravishda test qilib ko'rishni tavsiya qiladilar. Qobiliyatlarni aniqlashda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim: bolaga ota – ona qo'lida bo'lish yoqadimi yo'qmi, tizzada olib o'tirilganda bolaning emotsiyasi, yig'laganda yoki uxlashidan oldinota-onaga ehtiyoj sezadimi yo'qmi?; boshqa bolalarga qiziqishi bormi?; o'yinlar o'ynashga ishtiyoqi bormi yoki yo'qmi?(qo'g'irchoqlarni ovqatlantirish, ovqatlar pishirish, soldatchalar o'ynash, mashina va shu kabilar); ko'zlari bilan atrof olamni kuzatadimi yoki yo'qmi?;bola ota-ona bilan o'ynashni yoqtiradimi yoki yo'qmi?; barmoqlaringiz bilan ko'rsatayotgan narsalarga qaraydimi yo'qmi(biror bir o'yinchoq , hayvon shu kabilar). Barcha savollar bolaning atrof muhitga va odamlarga bo'lgan qiziqishini aniqlashga qaratilgan. Agar 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalarda yuqoridagi savollardan ko'pchiligi manfiy bo'lsa, bolani mutaxassisiga olin borish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, yuqoridagi reaksiyalar faqatgina autizmgagina xos emas, balki bolalarda eshitish

qobilayati yo’qligi, e’tibor yetishmaslik sindromi va shizofreniyaga moyil bolalalrda ham kuzatilishi mukin. Autizmning bir nechta turlari mavjud: erta bolalar autizmi(2 yoshgacha); bolalaik autizmi(2-11) yoshgacha, o’smirlik autizmi(11-18 yoshgacha). Har bir davr uchun spetsifik belgilar farqlanadi, ular bola yoshiga qarab o’zgarib turishi mumkin. Autizm haqidagi ma’lumotlar holatni erta aniqlash va uni baryaraf etishda yordam beradi, qancha erta davo boshlansa, bolaning tashqi muhitga adaptatsiyasi shuncha osonlashadi.autizmni kelib chiqishiga sabab qilib bir nechta omillarni sanab o’tishimiz mumkin. Masalan, 70-yilllarda “bag’ritosh ona” nazariyasi bilan bog’langan bo’lsa, kech farzand ko’rish, oilada autist bolalarning bo’lishi, ko’p farzandli oilalarda kuzatiladi deb olishimiz mumkin. Aslida uning kelib chiqishiga ma’lum bir sabablar mavjud emas, shuning uchun ham ulardagi korreksion ishlar natijasi namoyon bo’lmasligi yoki juda kech yuzaga chiqshi kuzatiladi. Holatga olib keluvchi aynan bir jihat yoki sabab bugungi kunga qadar aniqlanmagan. Bulardan tashqari bir qancha kasalliklar ham autizmga olib kelishi va autizmni ikkilamchi kasallik sifatida namoyon bo’lishiga olib kelishi mumkin. Eshitish qobilayatining yo’qligi, e’tiborning kamligi sindromi va ba’zi xromosoma kasalliklari (Retta sindromi), gapirish qobiliyatining yo’qligi shular jumlasidandir. Autizmning bir nechta belgilari mavjud: ijtimoiy qoloqlik, muloqotda o’z-o’zi bilan gaplashish, har-xil qo’l harakatlari qilish ham umumiy belgilar bilan birgalikda namoyon bo’ladi. Erta bolalar autizmida bolada quyidagilar kuzatiladi: bolada onaga bee’tiborlik, bolani ko’tarishga urinilganga qo’llarini cho’zmasligi, tizzalarida turishga harakat qilmasligi, emishdan butunlay to’xtashi, sezuvchanlikning ortib ketishi , gapirish qobiliyatining susayishi, exolaliya va hatto mutizm holatigacha olib kelishi mumkin. 2-11 yoshli bolalarda esa gapirish qobiliyatining yaqqol buzilishi kattalar kabi iboralar ishlatib gapirish, bir xil so’zlarni takrorlab yurishi, dialogga kirishmaslik, xavflardan qo’rqmaslik, harakatlardagi takrorlar aylanib turishi, tebranib turish, jaxldorlikni o’z–o’zidan namoyon bo’lishi, g’ayritabiiy holatlarga e’tibor qaratish kabi holatlar kuzatiladi. O’smirlik autizmida ushbu o’zgarishlarga gormonal o’zgarishlar ham qo’shiladi. Diagnozni belgilarga faqat psixiatr shifokor qo’yadi. Shunday qilib oladigan bo’lsak, autizmga ega bolalarning o’z aoralari mavjud bo’lib ularning aksariyat ko’p qismi muloqotdan, dialogdan umuman olganda muloqotning barcha turlariga yo’q bo’ladilar. Shu sababdan ham ular nutqini o’stirish va rivojlantirish bir muncha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Autizmning barcha turlarida deyarli nutq bo’lmaydi. Autizmga ega bolalar nutqini o’stirish bo’yicha ko’plab olimlar turlicha metodikalar ishlab chiqdilar. Erta bolalar autizmiga ega bolalarda nutqni rivojlantirish uchun rasmlardan hamda ularga mos shakllarni uyg’unlashtirgan holda oddiy jumlalarni yaratishdan foydalanish maqsadga muvofiq bo’ladi. Ikkinchidan 2 yoshdan 11 yoshgacha bo’lgan bolalarda kuzatiladigan autizmda esa qisqa hikoyalarni tomosha qildirish, agar o’qishni bilsa yaqin insoni bilan birgalikda ertaklar o’qish va mazmunini qisqacha aytish o’sha ertak aorasi va autist bola ruhiyatining uyg’unlashishiga hamda bola nutqining rivojlanishiga sabab bo’ladi. O’smirlaikdagi autizm bilan ishlash bir muncha qiyinchiliklarmi yuzaga keltiradi. Masalan, ulardagi gormonal o’zgarishlar atrof – muhit va insonlarga bo’lgan ishonchni yanada susayishiga sabab bo’ladi va bu albatta nutqning shakllanishiga salbiy ta’sir o’tkazadi. Bunday hollarda bolalarda musiqa bilan ishlash samara beradi. Ya’ni o’smirlar o’zlari sevgan qo’shiqni eshitishlari so’zlarini yodlashlari va kuylshlari orqali ham o’zlarini yengil his etadilar, undan tashqari nutqi ham rivojlanganligini ko’rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak autizmga ega boalalarni yosh xususiyatlariga ko’ra korreksion ishlar olib boriladi. Shuni aytib o’tish lozimki, hech bir metodika bolaning mutlaq ushbu holatdan chiqib ketishiga sabab bo’la olmaydi. Ushbu holatni to’la bartaraf etish uchun kompleks holda yondashish va korreksion- pedagogik ishlarni ham malakali psixiatr, defektolog va psixolog yoki boshqa bir mutasassislar olib borishlari zarur/

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. V.S.Rahmonova “Logopediya”. T.: “VORIS-NASHRIYOT”, 2012-yil.
2. M.Yu. Ayupova “Logopediya” T.: “O’zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”, 2007-yil.

3. M.Fomicheva, Q. Shodiyeva “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to’g’ri talaffuzga o’rgatish” Toshkent- 1984-yil.
4. Z.Shomuratova ”Tovushlarning me’yoriy talaffuzi” Toshkent-2007-yil.
5. A.A.Xusanov. “Nutq o’stirish metodikasi” O’UM, NamDu, Namangan 2020-yil.
6. The role of educational games in learning primary school student bosma Jamiyat va innovatsiyalar. Special Issue – 11 (2022) / ISSN 2181-1415.
7. Igra kak osnova umstvennogo razvitiya rebenka. bosma Science and education scientific journal/impact factor 3.848. (SJIF) January 2023/Volume 4 Issue.
8. “Harmoniously developed personality education in science, sports and religio” bosma 2023 International Conference December 23-27, 2023 “San Francisco, CA” info@ieeeinconference.org. IEEE conference record number # 42293.
9. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(6).
10. Didakticheskaya igra kak sredstvo razvitiya tvorcheskix sposobnostey uchenikov nachalnogo obrazovaniya. bosma International bulletin of applied science and technology echnology UIF = 8.2 | SJIF = 5.955. ISSN: 2750-3402.
11. Didakticheskaya igra kak potrebnost v razvitii mladshix shkolnikov. bosma “Ekonomika i sotsium” №1(104)-1 2023.

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJLARI BO‘LGAN BOLALARDA BILISH FAOLIYATINING SAMARADAORLIGI HAMDA BILISH JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

University of Business and Science
Pedagogika va pssixologiya kafedrasi mudiri
Rahimova Dildoraxon Qodirjonovna(PhD)
Pedagogika va psixologiya kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
G‘ofurova Umida O‘tkirbek qizi
Tel: +998939479636, +998934930308
e-mail: dildora19831018@gmail.com
umidagofurova0308@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda bilish faoliyati samaradorligini baholash hamda ularning bilish jarayonlari (idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq, tasavvur)ning shakllanish xususiyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Bilish jarayonlarining rivojlanish dinamikasi, neyropsixologik omillar, psixofiziologik mexanizmlar, hamda korreksion-pedagogik yondashuvlar chuqur o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari maxsus pedagogik amaliyotda tashxis, korreksiya va rivojlantiruvchi ta’lim dasturlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Alohida ta’lim ehtiyojlari, bilish jarayonlari, kognitiv rivojlanish, maxsus pedagogika, diqqat, xotira, idrok, neyropsixologiya, psixofiziologiya, korreksion ta’lim.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И СПЕЦИФИКИ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ У ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Аннотация. В данной статье научно проанализированы особенности формирования и эффективность познавательной деятельности у детей с особыми образовательными потребностями. Рассматриваются развитие восприятия, внимания, памяти, мышления, речи и воображения, а также нейропсихологические и психофизиологические факторы.

Полученные выводы важны для совершенствования диагностических и коррекционно-развивающих программ.

Ключевые слова: особые образовательные потребности, познавательные процессы, когнитивное развитие, специальная педагогика, внимание, память, восприятие, нейропсихология, психофизиология, коррекционное обучение.

IDENTIFYING THE EFFECTIVENESS OF COGNITIVE ACTIVITY AND THE SPECIFIC CHARACTERISTICS OF COGNITIVE PROCESSES IN CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS

Abstract: This article provides a scientific analysis of the effectiveness and specificity of cognitive activity in children with special educational needs. It examines the development of perception, attention, memory, thinking, speech, and imagination, as well as neuropsychological and psychophysiological factors. The findings contribute to improving diagnostic and remedial educational programs.

Key words: pecial educational needs, cognitive processes, cognitive development, special pedagogy, attention, memory, perception, neuropsychology, psychophysiology, remedial education.

Bugungi kunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi mamlakatimizda eng dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ularning o‘zlashtirishdagi muammolari ta’lim-tarbiya sifatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda (ATEBB) bilish jarayonlari rivoji psixofiziologik, neyropsixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Zamonaviy maxsus pedagogika (L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, B.G. Ananev, D.B. Elkonin, R.E. Levina va boshqalar) alohida ehtiyojli bolalarda kognitiv faoliyatning o‘ziga xos mexanizmlarini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Bilish faoliyatining samaradorligini aniqlash ta’lim jarayonida individual yondashuvni tanlash, korreksion dasturlarni tuzish va rivojlanishni monitoring qilish uchun muhimdir. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda bilish faoliyatining umumiy xususiyatlari quyidagicha talqin qilinadi: ATEBB guruhiga intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, eshitish, ko‘rish, nutq, tayanch-harakat tizimida cheklovlari bo‘lgan hamda autistik spektr buzilishi mavjud bolalar kiradi. Ular bilish jarayonlarida quyidagi umumiy xususiyatlar kuzatiladi:

1.1. Bilish jarayonlarining sekinlashtirilgan rivoji: Ko‘plab tadqiqotchilar (Vigotskiy, Pevzner, Lubovskiy) ta’kidlaganidek, ATEBB bolalarda idrok tezligi past, ma’lumotlarni qayta ishlash sur’ati sust, analiz va sintez operatsiyalari qiyinlashgan bo‘ladi.

1.2. Bilish samaradorligining barqaror bo‘lmasligi: Ular ko‘pincha diqqatning tarqoqligi, uzoq muddatli diqqatni saqlashning qiyinligi, charchoqlilik bilan ajralib turadi.

1.3. Kompensator mexanizmlarning o‘ziga xosligi: A.R. Luriyaning neyropsixologik yondashuviga ko‘ra, funksional tizimlarning buzilishi boshqa tizimlar hisobiga qisman qoplanadi. Masalan, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda tasavvur va xotira kuchliroq rivojlanadi.

Bilish jarayonlarining alohida komponentlari tahlili. Idrok jarayoni. ATEBB bolalarda idrok quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- predmetlarning asosiy belgilarini ajratishda qiyinchiliklar;
- idrokning sekin shakllanishi;
- ko‘rish yoki eshitish nuqsoniga qarab kompensator strategiyalar.

Masalan, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda ko‘rish idroki kuchliroq, autizmli bolalarda sensor sezgirlik yuqori bo‘lishi mumkin.

Diqqat. Ko‘plab ilmiy manbalarda (A.A. Venger, V.I. Lubovskiy) ATEBB bolalarda diqqatning:

- tez chalg‘ishi,

- past barqarorligi,
- taqsimlay olmaslik,
- ixtiyoriy diqqatning kam rivojlanganligi kabi holatlar qayd etiladi.

Xotira. I.R. Galperin va P.Ya. Galperin tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, xotiraning mexanik shakllari ko‘proq, ma’noli xotira esa sust rivojlangan bo‘ladi. ATEBB bolalarda: eslab qolish sur’ati past, eslab qolishda ko‘proq vizual tayanchlarga tayaniladi, uzoq muddatli xotira barqaror emas.

Tafakkur. ATEBB bolalarda tafakkur quyidagicha namoyon bo‘ladi: umumlashtirish, taqqoslash, tahlil qilishning sustligi, mulohaza qilish jarayonining sekinligi, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish qiyinligi.

Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga ko‘ra, kattalar tomonidan ko‘rsatma berish, vizual vositalar qo‘llash, ko‘rgazmali-amaliy yondashuv samaradorlikni oshiradi.

Nutq va kommunikativ jarayonlar. Nutqning fonetik-fonematik, leksik-grammatik tomonlarida buzilishlar mavjud. Bu esa kognitiv jarayonlarning barcha komponentlariga ta’sir qiladi (Levina, 2001).

Tasavvur va tasavvur elementlari: stereotiplik, past ijodiylik, ko‘p hollarda reproduktiv tasavvur ustunligi bilan tavsiflanadi. Bilish faoliyatining samaradorligini aniqlash mezonlari hamda bilish samaradorligi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi: Psixodiagnostik testlar.

- Raven matritsalari
- Veksler testi (WISC)
- Bender gestalt testi
- Stroop testi
- Luriya neyropsixologik sindrom tahlili.

Ushbu tahlillar natijasida tasavvur doiralari hamda ularning shakllanishidagi o‘ziga xisliklar tahlil qilinadi. Korreksion-pedagogik kuzatuvlar quyidagicha amalga oshiriladi: topshiriqlarni bajarish sur’ati, xatolarni tahlil qilish, diqqatning davomiyligi kabilar kuzatiladi. Ta’lim natijalarini monitoring qilish esa o‘z navbatida yutuq dinamikasi, adaptiv ko‘nikmalar, mustaqillik darajasi orqali aniqlashtiriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilish faoliyati hamda unga bog’liq barcha jihatlari tekshirilishi natijasida muammoning asl bosqichi tekshirilishi mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarda bilish jarayonlarining o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlari ularning psixofiziologik rivojlanishiga, nuqsonning tuzilishiga va tashqi muhit ta’siriga bog‘liqdir. Bilish faoliyatini chuqur diagnostika qilish, korreksion dasturlarni ilmiy asosda tuzish va individual yondashuvni qo‘llash ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Y.Ayupova “Logopediya” Toshkent-2015.
2. Выготский Л.С. Проблемы дефектологии. - М., 2003.
3. Певзнер М.С. Дети с отклонениями в развитии. - М., 2005.
4. Левина Р.Е. Нарушения речи у детей и пути их преодоления. - М., 2001.
5. Эльконин Д.Б. Психическое развитие в детском возрасте. - М., 1999.
6. Векслер Д. Интеллект ребенка. - СПб., 2002.
7. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, *3*(6).
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. - USA, 2011.
9. Gelb M. Brain Power. - New York, 2014.

Hoshimov Farruhbek Muxtorjon o'g'li
Andijon davlat universiteti
Amaliy matematika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Telefon raqam: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishning psixologik omillari va ularni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Motivatsiya ta’lim samaradorligining muhim omili sifatida ko‘riladi va shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘zini namoyon qilish intilishi bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Tezisda o‘quvchilarda ichki motivatsiyani kuchaytiruvchi psixologik omillar, interfaol metodlar, gamifikatsiya, STEAM va raqamli ta’lim resurslarining ta’siri, shuningdek pedagogik strategiyalar tavsifi keltiriladi. Natijada, o‘quvchilarda motivatsiyani rivojlantirishning samarali yo‘llari va istiqbollari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, psixologik omillar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o‘quvchi, gamifikatsiya, STEAM, raqamli ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ И ТЕХНОЛОГИИ ИХ РАЗВИТИЯ

Хошимов Фаррухбек Мухторжонович
Андижанский государственный университет
Студент 1-курса направления «Прикладная математика»
Телефон: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Аннотация: В данной тезисной работе анализируются психологические факторы, способствующие повышению мотивации учащихся в образовательном процессе, а также современные педагогические технологии, направленные на их развитие. Мотивация рассматривается как важнейший фактор эффективности обучения и показывается её тесная связь с внутренними потребностями личности, интересами и стремлением к самореализации. В тезисе представлены психологические факторы, усиливающие внутреннюю мотивацию учащихся, влияние интерактивных методов, геймификации, STEAM-подхода и цифровых образовательных ресурсов, а также описаны педагогические стратегии. В результате определяются эффективные пути и перспективы развития мотивации учащихся.

Ключевые слова: мотивация, психологические факторы, педагогические технологии, интерактивные методы, учащийся, геймификация, STEAM, цифровое обучение, личностно-ориентированное обучение.

PSYCHOLOGICAL FACTORS FOR INCREASING STUDENTS’ MOTIVATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND TECHNOLOGIES FOR THEIR DEVELOPMENT

Hoshimov Farrukhbek Mukhtorjonovich
Andijan State University
1st-year student, Applied Mathematics Department
Phone: +998 94 583 00 35
E-mail: farruhbekhoshimov7@gmail.com

Annotation: This thesis analyzes the psychological factors that enhance students’ motivation in the educational process, as well as modern pedagogical technologies aimed at developing these factors. Motivation is considered a key determinant of learning effectiveness and is shown to be closely connected with an individual’s internal needs, interests, and desire for self-expression. The thesis presents psychological factors that strengthen intrinsic motivation, the impact of interactive methods, gamification, the STEAM approach, and digital learning resources,

along with a description of relevant pedagogical strategies. As a result, effective ways and prospects for developing students' motivation are identified.

Keywords: motivation, psychological factors, pedagogical technologies, interactive methods, student, gamification, STEAM, digital education, learner-centered education.

Ta'lim jarayonida o'quvchi motivatsiyasi o'quv faoliyatining mazmuni, sifati va samaradorligini belgilovchi eng muhim psixologik omillardan biridir. Yuqori motivatsiya o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, faol ishtirokni ta'minlaydi, mustaqil izlanish va ijodiy fikrlashga undaydi, past motivatsiya esa aksincha, bilim o'zlashtirish jarayonida sustkashlik, diqqatning pasayishi va o'quv natijalarining zaiflashuviga olib keladi. Motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, maqsadlari, qiziqishlari, o'zini namoyon qilishga bo'lgan intilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida bu omillar o'qituvchi tomonidan to'g'ri boshqarilganda samarali o'sish natijalari kuzatiladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar motivatsiyani mustahkamlashni o'quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rib, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olib, individual va differensial yondashuv asosida ta'limni tashkil etishni taqozo qiladi.

O'quvchi motivatsiyasini shakllantirish va mustahkamlashda bir qator psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Avvalo, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'zini baholash darajasi va vazifani bajarishga bo'lgan ichki tayyorgarligi motivatsiyaning uzluksizligini belgilaydi. Buning ustiga, o'quvchining o'qituvchi bilan bo'lgan ijobiy munosabati, sinfdagi psixologik muhit, emotsional qo'llab-quvvatlash, ishonch va hurmat tamoyillarining mavjudligi motivatsion jarayonni kuchaytiradi. Qiziqishlar, ehtiyojlar va maqsadlarning shaxs tomonidan anglanishi ham o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki ehtiyojni oshiradi. Shuningdek, muvaffaqiyat hissi, kichik g'alabalarni his qilish va o'zlashtirishdagi yutuqlarni vaqtida tan olish o'quvchini yanada yuqori natijalar sari undaydi. Shu bois psixologik omillarni o'qituvchi tomonidan chuqur anglash va ularni ta'lim jarayonida oqilona boshqarish motivatsiyani barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda motivatsiyani oshirishning samarali vositasi bo'lib, ular ta'lim jarayonini interfaol, qiziqarli va maqsadli tashkil etishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, gamifikatsiya, STEAM yondashuvi, raqamli platformalar va multimediya resurslari o'quvchining faol ishtirokini kuchaytirib, o'rganilayotgan mavzuga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bunday texnologiyalar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi psixologik omillar - qiziqish, raqobat ruhiyati, mustaqillik, ijodkorlik va o'z imkoniyatlarini namoyon qilish ehtiyojini qo'llab-quvvatlaydi. Texnologiyalarning asosiy afzalligi shundaki, ular individual yondashuvni kuchaytirib, har bir o'quvchining o'z tempida o'rganishi va o'z-o'zini baholashi uchun qulay muhit yaratadi. Natijada ta'lim jarayoni an'anaviy biryoqlamalikdan voz kechib, o'quvchining faolligi va ichki motivatsiyasini doimiy rag'batlantiruvchi tizimga aylanadi.

O'quvchilarda motivatsiyani mustahkamlash uchun psixologik va pedagogik strategiyalar uyg'un qo'llanilishi muhim bo'lib, ular o'quv faoliyatining mazmuni va jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltiriladi. O'quv maqsadlarini aniq belgilash, darsni mazmunan sodda va tushunarli qilish, kichik bosqichlarda muvaffaqiyatlar yaratish, ijobiy rag'batlantirish va o'z vaqtida fikr bildirish (feedback) motivatsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchini tinglash, uning fikrini qadrlash va mustaqil qaror qabul qilishga yo'naltirish shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ichki motivatsiyani faollashtiradi. Yana bir samarali strategiya - dars jarayonida real hayotiy misollar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish bo'lib, ular o'quvchining qiziqishini kuchaytiradi. Shu bilan birga, sinfdagi ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, hamkorlikdagi o'qitish usullarini qo'llash va individual ehtiyojlarni inobatga olish motivatsiyaning barqaror rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi motivatsiyasini oshirish psixologik omillarni chuqur anglash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo'llash orqali yuqori

samaradorlikka erishishni ta’minlaydi. Motivatsiyaning shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, ehtiyojlari va maqsadlariga tayanar ekan, o‘qituvchi ushbu jihatlarni inobatga olgan holda darsni tashkil qilishi lozim. Interfaol metodlar, raqamli resurslar, gamifikatsiya, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va ijobiy pedagogik muhit o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi va ularning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Kelgusida ta’lim tizimiga sun’iy intellekt, adaptiv o‘qitish tizimlari, psixologik diagnostika vositalari va raqamli muhitga mos individual o‘quv yo‘llari keng joriy etilishi motivatsion jarayonning samaradorligini yanada oshirishi kutiladi. Shu bois motivatsiyani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar va innovatsion pedagogik strategiyalar ta’lim jarayonining kelajakdagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 . Axmedov, O. (2020). Ta’lim psixologiyasi asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

2. Islomov, B. (2019). O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish metodlari. Toshkent: Fan va Ta’lim.

3. Rahmonova, L. (2021). Pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta’lim. Toshkent: O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi.

4. Karimov, S. (2018). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va o‘quvchi motivatsiyasi. Andijon: Andijon Davlat Universiteti Nashriyoti.

5. Tursunov, M. (2022). Interfaol metodlar yordamida o‘quvchi motivatsiyasini oshirish. Toshkent: Pedagogika.

KASBIY FAOLIYATDA IJODIY TAFAKKURNING SHAKLLANISHI: PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK VA IJTIMOIY NUQTAI NAZARDAN

Abduvoxidova Shirinoy Qobiljon qizi
Toshkent kimyo xalqaro unversetiti Namangan filiali
Ijtimoiy psixologiya yo’nalishi 2-kurs magistranti
Akbarov Sahodillo Yo’ldashbayevich
Psixologiya fanlari bo’yicha dotsent-ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy tafakkurning shakllanishi psixologik,pedagogik,va ijtimoiy jihatlar asosida tahlil qilinadi.Ijodiy tafakkur zamonaviy mehnat bozorining asosiy kompetensiyalaridan biri bo’lib,shaxsning kasbiy o’sishida muhim rol o’ynaydi. . Kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurning shakllanishi nafaqat shaxsiy, balki jamiyat va iqtisodiyot darajasida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning samarali shakllanishiga yordam beradi

Kalit so’zlar: ijodiy tafakkur, kasbiy faoliyat, psixologik omillar, pedagogik yondashuv, ijtimoy muhit,innovatsiya, kreativlik.

Аннотация: В данной статье анализируется формирование творческого мышления в процессе профессиональной деятельности с психологической, педагогической и социальной точек зрения. Творческое мышление является одной из ключевых компетенций современного рынка труда и играет важную роль в профессиональном росте личности. Формирование творческого мышления в профессиональной деятельности имеет большое значение не только на личностном, но и на общественном и экономическом уровнях. Анализ данного процесса с психологической, педагогической и социальной точек зрения способствует его эффективному формированию.

Ключевые слова: творческое мышление, профессиональная деятельность, психологические факторы, педагогический подход, социальная среда,инновации, креативность.

Annotation: This article analyzes the formation of creative thinking in the process of professional activity from psychological, pedagogical, and social perspectives. Creative thinking is one of the key competencies of the modern labor market and plays an important role in an individual's professional development. The formation of creative thinking in professional activity is significant not only on a personal level but also at the societal and economic levels. Analyzing this process from psychological, pedagogical, and social viewpoints contributes to its effective development.

Keywords: creative thinking, professional activity, psychological factors, pedagogical approach,positive environment, innovation, creativity.

XXI asrda kasbiy muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri - bu ijodiy tafakkurga ega bo‘lishdir. Bugungi globallashuv va raqobat muhitida har bir mutaxassisdan yangicha fikrlash, innovatsion yondashuv va kreativ qarorlar qabul qilish talabi oshmoqda. Shu sababli, ijodiy tafakkurni shakllantirish masalasi psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan chuqur tadqiq etilishi zarur.

Kasbiy faoliyatni egallash jarayonida ijodiy tafakkurning shakllanishi, shaxsning professional rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ijodiy tafakkur, yangi fikrlar va yondashuvlarni ishlab chiqish, muammolarni noan'anaviy usullar bilan hal qilishga yordam beradi. Kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurning shakllanishi nafaqat shaxsiy, balki jamiyat va iqtisodiyot darajasida ham katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilish, uning samarali shakllanishiga yordam beradi.

Psixologik nuqtai nazardan, ijodiy tafakkur – bu insonning yangi va original fikrlarni yaratish qobiliyati, noan'anaviy usullar bilan muammolarni hal qilishga intilishidir. Psixologlar ijodiy tafakkurning shakllanishini insonning kognitiv, emosional va motivatsion holatlariga bog‘laydilar.

Kognitiv jarayonlar: Ijodiy tafakkur kognitiv jarayonlar orqali shakllanadi. Jean Piaje va Lev Vigotskiy kabi psixologlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda aqliy jarayonlar, ijtimoiy muloqot va shaxsiy tajribaning ahamiyatini ta'kidlaganlar. Ijodiy tafakkur, asosan, muammolarni hal qilish, yangi bilimlarni integratsiya qilish va tajriba asosida yangi g‘oyalarni ishlab chiqish jarayonidir. Shuningdek, muammolarni hal qilishda mental fleksibilite (o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuv) va innovatsion yondashuvlar asosiy o‘rin tutadi.

Emosional va motivatsion omillar: Psixologik nuqtai nazar ijodiy tafakkurning shakllanishida motivatsiya va hissiy holatlarning muhimligini ta'kidlaydi. Ijodiy tafakkur faqat raqobatbardosh va o‘zini tanqid qila oladigan shaxslar tomonidan rivojlanadi. Abraham Maslow o‘zining ehtiyojlar piramidasida ijodiy o‘zini namoyon qilish ehtiyojini eng yuqori darajaga qo‘ygan. Ijodiy tafakkur rivojlanishi uchun, shaxs o‘zining ichki motivatsiyasini topishi va muvaffaqiyatga erishish uchun o‘z hissiyotlarini boshqarishi kerak.

Shaxsiy xususiyatlar: Psixologik jihatdan ijodiy tafakkurni rivojlantirishda shaxsning mustahkam xarakteri, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, tashabbuskorligi va mustaqil fikrlash qobiliyati katta rol o‘ynaydi. Ijodiy tafakkur shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridan, masalan, qat'iyatlilik, xatoliklardan o‘rganish va tajriba asosida o‘z fikrini shakllantirishdan boshlanadi.

Pedagogik nuqtai nazar, ijodiy tafakkurni shakllantirishda ta'lim tizimi va o‘qituvchining metodik yondashuvlari muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik jarayonda ijodiy tafakkurning shakllanishi nafaqat bilimlarni taqdim etish, balki o‘quvchilarni o‘ylashga, tahlil qilishga va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga rag‘batlantirishga bog‘liqdir.

Problematik o‘qitish: Pedagogikada ijodiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy usuli - bu problematik o‘qitish. Bu usulda, o‘quvchilarga muammolar berilib, ularni hal qilishda mustaqil fikrlash va kreativ yondashuvlarni qo‘llash talab etiladi. Masalan, talabalarga murakkab

vaziyatlarni yechishda turli echimlar ishlab chiqish imkoniyati beriladi, bu esa ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Loyiha asosida o‘qitish: Loyiha metodikasi ijodiy tafakkurni shakllantirishda samarali metodlardan biridir. O‘quvchilarga ma'lum bir loyiha yaratish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish vazifasi beriladi. Bunda, o‘quvchilar mustaqil ravishda g‘oyalar ishlab chiqishadi, reja tuzadilar va natijada ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar.

Interaktiv metodlar: Interaktiv o‘qitish metodlari (muloqot asosida, guruhli ishlash, muhokama va boshqalar) ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Bu metodlarda o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashish orqali ijodiy qarorlar qabul qilishadi. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilarga tasavvur qilish, nazariyani amaliyotga tatbiq qilish, va yangi yondashuvlar yaratishga yordam beradi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan, kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurning shakllanishi jamiyatning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bevosita bog‘liqdir.

Ijtimoiy omillar ijodiy tafakkurning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash yoki to‘siq bo‘lishi mumkin. Jamiyatning talablari: Ijtimoiy yondashuvda ijodiy tafakkur kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallashda jamiyatning o‘zgaruvchan talablari va sharoitlariga moslashish uchun zarurdir. Ijtimoiy o‘zgarishlar va yangi ehtiyojlar ijodiy tafakkur orqali ishlab chiqilgan yangi g‘oya va yondashuvlar orqali hal qilinishi mumkin. Masalan, yangi texnologiyalar, o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar va madaniy qadriyatlarning o‘zgarishi ijodiy fikrlashni rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Korporativ madaniyat va innovatsiyalar: Ijtimoiy nuqtai nazarda ijodiy tafakkur korporativ madaniyat va tashkilotlarda innovatsion muhitni yaratish orqali shakllanadi. Korporativ innovatsiyalar va tashkilot madaniyati ijodiy tafakkurni rivojlantirishga ta'sir ko‘rsatadi, chunki yangi g‘oyalar va yondashuvlar nafaqat shaxsning mustaqil ish faoliyatida, balki jamiyatning umumiy rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy hamkorlik va kommunikatsiya: Ijtimoiy muloqot va hamkorlik ijodiy tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Jamiyatdagi ijodiy faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlash, jamoaviy ishlash, bilim almashish va yangi g‘oyalarni amalga oshirish jarayonlari ijodiy tafakkur va innovatsiyalarni kuchaytiradi. Kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik, pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazarlardan tahlili, uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan turli omillarni ko‘rsatadi. Psixologik jihatdan, ijodiy tafakkur shaxsning ichki motivatsiyasi, hissiy holati va kognitiv jarayonlariga bog‘liq; pedagogik nuqtai nazardan, ijodiy tafakkur o‘qitish metodlari va ta'lim jarayonlari orqali rivojlanadi; ijtimoiy nuqtai nazardan esa, jamiyatning talab va sharoitlari, korporativ madaniyat va innovatsiyalar ijodiy tafakkurning shakllanishiga ta'sir ko‘rsatadi. Shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun, ijodiy tafakkurning rivojlanishi zarur va bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurni shakllantirish, insonning muammolarni hal etish, yangi g‘oyalar yaratish va innovatsiyalarni amalga oshirishdagi qobiliyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Quyidagi tavsiyalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda yordam berishi mumkin: Turli fikrlar va yondashuvlarga ochiqlik: Yangi va o‘zgacha g‘oyalarni qabul qilish, tanqid qilishdan ko‘ra, ularni o‘rganishga harakat qilish kerak. Bu usul ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Muammolarni turlicha yondoshuvlar bilan hal qilish: Har bir vaziyatga turli nuqtai nazardan yondoshuvlarni sinash foydalidir. Shu tariqa, yangi imkoniyatlarni kashf etish mumkin.

Fikrlash va tafakkur jarayonini muntazam ravishda rivojlantirish: Har kuni biror yangi narsani o‘rganishga, kitob o‘qishga, yangi ma'lumotlarga ega bo‘lishga harakat qilish kerak. Bu ijodiy tafakkurning kengayishiga yordam beradi.

Stressni boshqarish va dam olish: Ijodiy tafakkur uchun miya faoliyati talab etiladi, shuning uchun ortiqcha stressdan qochish va dam olish muhim. Jismoniy mashqlar va meditatsiya bu borada yordam beradi.

Tajriba va xatolardan o‘rganish: Har bir xato va muvaffaqiyatsizlikdan dars olish kerak. Xatolar ijodiy jarayonning ajralmas qismidir, ulardan o‘rganish tafakkurni yanada boyitadi. Gruppaviy muhokamalar va fikr almashish: Turli odamlar bilan fikr almashish, brainstorming

sessiyalar o‘tkazish, yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Boshqalarning fikrlarini tinglash va ulardan ilhomlanish ijodiy tafakkurga yordam beradi. O‘zini rivojlantirishga doimiy e'tibor: Kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlar ijodiy tafakkurni rivojlantirishga asoslangan. Doimiy ravishda yangi ko‘nikmalarni o‘rganish, kurslar va treninglarda ishtirok etish kerak.

Ko‘p o‘ylash va tahlil qilish: O‘zingizni tahlil qilish va fikrlar jarayonini kuzatish orqali ijodiy tafakkurni boshqarish osonlashadi. Boshqalar bilan fikrlarni almashish va yangi usullarni sinab ko‘rish ijodiy o‘sish imkonini beradi.

Ijtimoiy tarmoq va texnologiyalardan foydalanish: Internetdagi resurslar, ijtimoiy tarmoq guruhlari va onlayn platformalar ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun yangi g‘oyalar va imkoniyatlar yaratadi. O‘zingizni texnologik yangiliklardan xabardor qilish ham muhimdir. Ushbu tavsiyalarni amalda qo‘llash, kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi va samarali ishlashni ta'minlaydi.

Kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurning shakllanishi ko‘p omilli, murakkab va uzviy bog‘langan psixologik, pedagogik va ijtimoiy jarayonlardan iboratdir. Ijodiy tafakkur insonning yangicha fikrlash, mavjud holatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda noan’anaviy yondashuvlar orqali professional rivojlanishga erishish qobiliyatini belgilaydi. Psixologik nuqtai nazardan, ijodiy tafakkur shaxsning emotsional barqarorligi, ichki motivatsiyasi, tafakkur moslashuvchanligi va divergent fikrlash salohiyatiga asoslanadi. Bu esa, kasbiy sohada mustaqil va innovatsion qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Pedagogik yondashuvda esa ta’lim muhitining ochiqligi, interaktiv metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo‘naltirilgan darslar ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Ayniqsa, talabalarning tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, ular orasida ilmiy-ijodiy muhit yaratish katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy omillar esa insonning atrof-muhiti, kasbiy jamoasi, madaniy qadriyatlar va innovatsion rivojlanish sur’atlari bilan bevosita bog‘liq. Jamiyatda ijodkorlikka bo‘lgan ehtiyoj va unga nisbatan ijobiy munosabat mavjud bo‘lgan sharoitdagina, shaxsning kasbiy ijodkorligi to‘laqonli rivojlanadi. Shu asosda, kasbiy faoliyatda ijodiy tafakkurni shakllantirish - zamonaviy ta’lim va mehnat bozorining strategik vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim. Bunda davlat, ta’lim muassasalari, ijtimoiy institutlar va shaxsning o‘zi tomonidan uzviy hamkorlik zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. (2020). Ijodiy tafakkur va uni rivojlantirish psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Vigotskiy L.S. (2003). Ijod va ong taraqqiyoti. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
3. Guilford J.P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454.
4. Karimova N.O. (2018). Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. Toshkent: “Ilm Ziyo” nashriyoti.
5. Mavlonova R. (2016). Kasbiy tayyorgarlikda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: TDPU nashriyoti.
6. Torrance E.P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking. Scholastic Testing Service, Inc.
7. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(6).
8. Yunusov A.A. (2021). Kasbiy faoliyatda psixologik yondashuvlar. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
9. Runco M.A. & Jaeger G.J. (2012). The Standard Definition of Creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92–96.

TA’LIM TIZIMINING PSIXOLOGIK TOMONLARI

Sotimboyeva Doima Nodir qizi
“Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti”

Namangan filiali psixologiya fakulteti.
Ijtimoiy psixologiya mutaxasisligi
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada, ta'lim jarayonining asosiy psixologik va pedagogik jihatlarini, psixologiya va pedagogikaning o‘zaro bog'liqlik va o'quv jarayonini tahlil qilish mumkin bo‘lgan mavzularni, zamonaviy ta’limning muammolari, davolash texnikasi va ta’limning o‘rtacha munosabati, pedagogik texnikalarni, ta’lim samaradorligini oshirishda jarayonini amalga oshirish usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, ta’lim samaradorligi,Psixologik, pedagogik, kognitiv, motivatsiya, differentsiallashtirish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные психолого-педагогические аспекты образовательного процесса, темы, по которым можно проанализировать взаимосвязь психологии и педагогики и образовательного процесса, проблемы современного образования, методы лечения и усреднения образовательного отношения, методы реализации педагогических приемов, процесса повышения эффективности обучения

Ключевые слова. Воспитание,образовательная эффективность, психолого-педагогическая, познавательная, мотивационная, дифференциация.

Annotation. This article will focus on the main psychological and pedagogical aspects of the educational process, topics on which it is possible to analyze the interdependence and educational process of psychology and pedagogy, problems of modern education, treatment techniques and the average attitude of Education, pedagogical techniques, methods of implementing the process in improving educational efficiency.

Keywords. Educational, educational effectiveness, psychological, pedagogical, cognitive, motivation, differentiation.

Ta’lim inson rivojlanishining asosiy jihati bo‘lib, intellektual, ijtimoiy, ruhiy va jismoniy o‘sishni rivojlantirishga qaratilgan. Samarali ta'lim tajribasini ta'minlash uchun ta'lim jarayoniga ta’sir qiluvchi psixologik va pedagogik xususiyatlarni tushunish juda muhimdir. Ta’limning asosiy psixologik xususiyatlaridan biri kognitiv rivojlanish kontseptsiyasidir. Kognitiv rivojlanish deganda bilim, tushunish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini egallash jarayoni tushuniladi. O‘quvchilar rivojlanishning turli bosqichlarini bosib o‘tgan sari, ularning axborotni qayta ishlash, muammolarni hal qilish va turli tushunchalar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish qobiliyati ham rivojlanadi. Shunday qilib, o‘qituvchilar o‘quv tajribasini ishlab chiqishda va ularning taraqqiyotini baholashda o‘z talabalarining kognitiv qobiliyatlarini hisobga olishlari kerak. Ta’limning yana bir muhim psixologik xususiyati motivatsiyadir. Motivatsiya o‘quvchilarning o‘quv faoliyati bilan shug‘ullanishga va qiyinchiliklarga bardosh berishga tayyorligini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O’qituvchilar o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta’sir qiluvchi turli omillarni, masalan, ularning shaxsiy qiziqishlari, maqsadlari va o‘z qobiliyatlari haqidagi e’tiqodlarini tushunishlari kerak. Ijobiy va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘z bilimlarini egallashga va akademik muvaffaqiyatga intilishga undashlari mumkin. Kognitiv rivojlanish va motivatsiyadan tashqari, o‘quvchilarning o‘rganish tajribasini shakllantirishda ta’limning ruhiy jihatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Tuyg‘ular o‘quvchilarning diqqatini jamlash, ma’lumotni saqlash va material bilan shug‘ullanish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. O‘qituvchilar ruhiy farovonlikka yordam beradigan va ochiq muloqotni rag‘batlantiradigan qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv sinf muhitini yaratishi kerak. Talabalarning his-tuyg‘ularini tan olish va ularga murojaat qilish orqali o‘qituvchilar o‘rganish uchun xavfsiz maydon yaratishi va o‘quvchilarga chidamlilik va engish strategiyalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Ta'limning yana bir psixologik xususiyati individual farqlar tushunchasidir. Har bir talaba o‘zining ta‘lim tajribasini shakllantiradigan o‘ziga xos kuchli

tomonlari, qiyinchiliklari va o‘rganish uslublariga ega. O‘qituvchilar xilma-xillikni qabul qilishlari va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qitish usullarini moslashtirishlari kerak. O‘quvchilarning farqlarini tan olish va nishonlash orqali o‘qituvchilar barcha talabalar uchun akademik muvaffaqiyatlarga yordam beradigan yanada inklyuziv va adolatli o‘quv muhitini yaratishi mumkin. Pedagogik tomondan, ta’limning yana bir asosiy xususiyati - bu iskala tushunchasi. Iskala o‘quvchilarga yangi tushunchalar va ko‘nikmalarni o‘rganishda tizimli yordam va yo‘l-yo‘riq berish jarayonini anglatadi.

O‘qituvchilar murakkab vazifalarni kichikroq, boshqarilishi mumkin bo‘lgan bosqichlarga bo‘lish, fikr-mulohaza va rag‘batlantirish hamda o‘quvchilarning ishonchi va malakasiga ega bo‘lishlari uchun mas’uliyatni bosqichma-bosqich bo‘shatish orqali o‘rganishni rivojlantirishi mumkin. O‘quv tajribalarini to‘plash orqali o‘qituvchilar talabalarga mavjud bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlashga va materialni chuqurroq tushunishga yordam berishlari mumkin. Ta’limning yana bir muhim pedagogik xarakteristikasi - bu farqlash tushunchasi. Differentsiatsiya o‘quvchilarning sinfdagi turli ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishni moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Pedagoglar o‘quvchilarning individual qobiliyatlari, qiziqishlari va ta’lim uslublarini moslashtirish uchun o‘quv faoliyati mazmuni, jarayoni va mahsulini o‘zgartirish orqali ta’limni farqlashlari mumkin. Ta’limni differentsiallashtirish orqali o‘qituvchilar, ularning kelib chiqishi yoki qobiliyat darajasidan qat’iy nazar, barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan yanada shaxsiylashtirilgan va qiziqarli ta’lim tajribasini yaratishi mumkin. Hamkorlik ta’limning yana bir muhim pedagogik xususiyatidir. Hamkorlikdagi ta’lim o‘quvchilarning umumiy maqsadlarga erishish, muammolarni hal qilish va fikr almashish uchun guruhlarda birgalikda ishlashini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar guruh faoliyatini tashkil etish, ijobiy muloqot va jamoaviy ishlashni rag‘batlantirish hamda o‘quvchilarga shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini yaratish orqali hamkorlikni rivojlantirishi mumkin. Hamkorlikni rag‘batlantirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga maktabda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim bo‘lgan tanqidiy fikrlash, muloqot va etakchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Teskari aloqa va baholash ham ta’limning muhim pedagogik xususiyatlari hisoblanadi. Fikr-mulohazalar talabalarga ularning faoliyati va taraqqiyoti haqida o‘z vaqtida va konstruktiv ma’lumot berishni o‘z ichiga oladi. Pedagoglar o‘quvchilarning kuchli tomonlari va o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash, ularni o‘rganishga yo‘naltirish va ularni yaxshilashga undash uchun fikr-mulohazalardan foydalanishi mumkin. Baholash o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va tushunchalarini testlar, viktorinalar, loyihalar va taqdimotlar kabi turli usullar yordamida baholashni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarga muntazam ravishda fikr-mulohaza va baho berish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning taraqqiyotini kuzatishi, o‘rganishdagi kamchiliklarni aniqlashi va o‘quvchilar ehtiyojlarini qondirish uchun o‘qitishni moslashtirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ta’limning psixologik va pedagogik xususiyatlarini tushunish o‘quvchilarning o‘sishi va muvaffaqiyatiga yordam beradigan samarali ta’lim tajribasini yaratish uchun juda muhimdir. Kognitiv rivojlanish, motivatsiya, ruhiy farovonlik, individual farqlar, iskala, farqlash, hamkorlik, fikr-mulohaza va baholash kabi omillarni hisobga olgan holda, o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘rganishi va faolligini qo‘llab-quvvatlaydigan o‘quv amaliyotlarini ishlab chiqishlari mumkin. Ushbu xususiyatlarni o‘zlashtirib, ularni o‘qitish amaliyotiga kiritish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘zlarining to‘liq potentsiallarini ro‘yobga chiqarish va umrbod ta’lim oluvchilarga aylanish imkoniyatini beradigan dinamik va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

2. Hoshimov K., Nishonova S.Pedagogika tarixi. – Darslik. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2001.

3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A.Pedagogika nazariyasi. – Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.

4. Qayumov B.Z., Abdurahmonov O.A.Talabalarda shaxsiy va intellektual fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. Scientific Progress, 2021, 1(6), 750–754.

5. Toxtaxodjayeva M. (umumiy tahrir ostida) Pedagogika. – Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANADIGAN YOSHLARNING AXBOROT DARAJASI VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIGI

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti kimyo
yo‘nalishi 302-guruh talabalari
Obidova Minavvarxon Sotqinboyeva Shaxlo

Annotatsiya. Maqolada raqamli muhitda yoshlarning axborot va psixologik xavfsizligi o‘rganilgan. Tadqiqot ikki bosqichda olib borilib, birinchi bosqichda raqamli xavfsizlikning 10 ta asosiy komponenti (shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, mas’uliyatli onlayn muloqot, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish va boshqalar) aniqlangan. Ikkinchi bosqich natijalari yoshlar ko‘pchilik yo‘nalishlarda yaxshi darajada xavfsizlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Biroq ikki muammo aniqlandi: raqamli texnologiyalardan me’yoridan ortiq foydalanish (raqamli qaramlik xavfi); onlayn manipulyatsiya va ekstremistik kontentga tez ta’sirchanlik. Xulosa qilib, yoshlar uchun raqamli madaniyat, psixologik barqarorlik va xavfsiz foydalanishni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar zarur ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: psixologik xavfsizlik, kiberxavfsizlik, mas'uliyat, tanqidiy fikrlash, xabardorlik, himoya, raqamli texnologiyalar, yoshlar, kiberbulling, manipulyatsiya, dezinformatsiya, soxta yangiliklar, ruhiy salomatlik.

УРОВЕНЬ ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ МОЛОДЕЖИ ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Андижанский государственный университет
Факультет химии и биологии, направление «Химия»
Студентки группы 302 Обидова Минаввархон,
Соткинбоева Шахло

Аннотация. В статье исследуется информационно-безопасность молодежи в окружающей среде. Исследование проводилось в два этапа, и были выделены 10 основных компонентов отчета о данных от первого лица (ответственное онлайн-общение, критическое мышление, продуктивность в социальной системе и другие результаты). Показатели второго этапа показали, что молодежь демонстрирует хорошие результаты в большинстве областей деятельности. Были выявлены две проблемы: чрезмерная нагрузка от компьютерных технологий (вследствие цифровой зависимости); быстрое воздействие онлайн-манипуляций и экстремистского контента. В заключение необходимо подчеркнуть необходимость дополнительной нагрузки на молодежь в области культуры, физического воспитания и безопасности.

Ключевые слова: психологическая безопасность, кибербезопасность, ответственность, критическое мышление, осведомленность, защита, цифровые технологии, молодёжь, кибербуллинг, манипуляции, дезинформация, фейковые новости, психическое здоровье.

THE LEVEL OF INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY OF YOUNG PEOPLE WHEN USING DIGITAL TECHNOLOGIES

Andijan State University
Faculty of Chemistry and Biology,
Chemistry Department Students

of group 302 Obidova Minavvarxon,
Sotqinboyeva Shakhlo

Annotation. The article studies the information and psychological safety of young people in the digital environment. The study was conducted in two stages, and in the first stage, 10 key components of digital safety were identified (personal data protection, responsible online communication, critical thinking, safe use of social networks, etc.). The results of the second stage showed that young people have a good level of safety in most areas. However, two problems were identified: excessive use of digital technologies (the risk of digital addiction); rapid susceptibility to online manipulation and extremist content. In conclusion, it is noted that additional measures are needed to strengthen digital culture, psychological stability and safe use for young people.

Keywords: psychological safety, cybersecurity, responsibility, critical thinking, awareness, protection, digital technologies, youth, cyberbullying, manipulation, disinformation, fake news, mental health.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli muhitning globallashuvi sharoitida yoshlarning axborot va psixologik xavfsizligi darajasini oʻrganish ayniqsa muhimdir. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, bugungi yoshlar internetda koʻp vaqt oʻtkazadilar, bu esa ularning kiberbulling, manipulyatsiya, dezinformatsiya va soxta yangiliklar kabi turli xil axborot tahdidlariga nisbatan zaifligini oshiradi. Axborot va psixologik xavfsizlikning buzilishi jiddiy ruhiy salomatlik oqibatlariga, jumladan, xavotir, depressiya, oʻziga past baho berish va giyohvandlikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin Ushbu potentsial oqibatlarni hisobga olish bizga profilaktika choralarini ishlab chiqish imkonini beradi. Virtual makonda oʻtkaziladigan vaqtning koʻpayishi ijtimoiy izolyatsiyaga va shaxslararo koʻnikmalarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Axborot va psixologik xavfsizlik darajasini oʻrganish bizga raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Yosh avlodning ruhiy salomatligini ta'minlash, shuningdek, yetarli dunyoqarashni shakllantirish va ularni raqamli muhitning salbiy ta’siridan himoya qilish maqsadida biz raqamli texnologiyalardan foydalanishda yoshlarning axborot va psixologik xavfsizligi darajasi boʻyicha tadqiqot oʻtkazdik.

Axborot va psixologik xavfsizlik deganda shaxslar va/yoki guruhlarning axborot sohasidagi salbiy axborot va psixologik ta'sirlardan hamda shaxs, jamiyat va davlatning boshqa hayotiy manfaatlaridan himoyalanish holati tushuniladi

Fuqarolarning individual, guruh va ommaviy ongini noqonuniy axborot ta’siridan himoya qilish mamlakatning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash boʻyicha faoliyatning asosiy mazmunini tashkil etadi - bu nisbatan yangi va hali yetarlicha rivojlanmagan axborot xavfsizligi sohasi.

Raqamli muhitda shaxsning axborot va psixologik xavfsizligining buzilishi uning ruhiy salomatligi va dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi ikkita asosiy salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Birinchisi, aks ettirish shakllari va ehtiyojlar sohasining tuzilishining yomonlashishi. Bu oqibat haqiqatni buzilgan idrok etishda, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatining pasayishida, hissiy tartibga solishning buzilishida va turli xil ruhiy kasalliklarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Masalan, soxta yangiliklar, tashviqot va manipulyativ xabarlarga doimiy ravishda duch kelish dunyoga notoʻg'ri qarashga, axborotga ishonchning pasayishiga va moslashishda qiyinchiliklarga olib keladi, bu esa oʻz navbatida xavotir, tushkunlik va umidsizlikning rivojlanishiga olib keladi. Onlayn platformalardan haddan tashqari foydalanish ijtimoiy izolyatsiyaga, unumdorlikning pasayishiga, uyqu buzilishiga va ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir koʻrsatadigan oʻyinlar yoki onlayn giyohvandlikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bunga ekstremistik targ'ibotning ta’siri, aniqrog'i, qarashlarning radikallashishi, tajovuzkorlikning rivojlanishi va zoʻravonlikka tayyorlik ham kiradi.

Ikkinchi oqibat - qadriyat yo'nalishlari va dunyoqarashning oʻzgarishi. Raqamli muhitning ta’siri yangi qadriyatlar, e'tiqodlar va fikrlash tizimlarini shakllantirishi mumkin, koʻpincha an'anaviy yoki shaxsan ahamiyatli qadriyatlarga zid keladi.Reklama va marketing texnikalariga

doimiy ravishda duch kelish foydalanuvchilarda moddiy boylik hissi, doimiy iste'mol va to‘plash istagini yaratadi, bu esa hayotdan ko'ngli qolish va o‘zini yetarli emasdek his qilishga olib kelishi mumkin. Virtual olamlarga sho‘ng'ish haqiqiy munosabatlar va voqealarning ahamiyatini buzib baholashga olib kelishi mumkin, virtual hayot o‘rniga haqiqiy hayot qo‘llaniladi. Natijada, ijtimoiy ko'nikmalar yo'qoladi va haqiqiy munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot raqamli muhitda shaxsiy axborot va psixologik xavfsizlikning buzilishi yoshlarning ruhiy salomatligi va dunyoqarashi uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishini, jumladan, tanqidiy fikrlash va hissiy tartibga solishning pasayishini, shuningdek, qadriyat yo'nalishlarining o'zgarishini ko'rsatmoqda, bu esa o‘z navbatida turli ruhiy kasalliklarning rivojlanishiga va qarashlarning radikallashishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, biz keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish axborot va psixologik xavfsizlikning turli darajalari ekstremizmni o‘z ichiga olgan jinoiy xatti-harakatlarga moyillikka qanday ta’sir qilishini tahlil qilish, shuningdek, raqamli texnologiyalar kontekstida yoshlarning xatti-harakatlarini tavsiflovchi keng qamrovli modelni ishlab chiqish deb hisoblaymiz. Doimiy raqamli ta'sir kontekstida voqelikni idrok etish, qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarga ta'sir qiluvchi omillar bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1. **Livingstone, S., & Helsper, E. (2010).** *Balancing Opportunities and Risks in Teenagers' Use of the Internet: The Role of Online Skills and Internet Self-Efficacy.* New Media & Society. - O‘smirlarning internetdan foydalanish ko‘nikmalari, xavf-xatarga ochiqligi va psixologik xavfsizligi haqida.

2. **Odgers, C. L., & Jensen, M. R. (2020).** *Annual Research Review: Adolescent Mental Health in the Digital Age.* Journal of Child Psychology and Psychiatry. – Raqamli texnologiyalar yoshlarning ruhiy salomatligiga ta’siri, xavfsiz foydalanish omillari.

3. **Palfrey, J., & Gasser, U. (2016).** *Born Digital: How Children Grow Up in a Digital Age.* Basic Books. – Yoshlarning raqamli makonda shakllanishi, axborot savodxonligi va raqamli xavfsizlik muammolari.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXSNING IJTIMOIY IDENTITETI VA MADANIY MOSLASHUV JARAYONLARINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va Ijtimoiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabalari
Pattayeva Odina
Sayfuddinova Gulsanam

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlarining psixologik omillari o‘rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv shaxsni bir nechta madaniy va ijtimoiy tizimlarga moslashishga majbur qiladi, bu esa identitetning murakkablashuvi va yangi madaniy normalarni qabul qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Madaniy moslashuv kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshadi. Globallashuv ijobiy jihatdan shaxsga ko‘p madaniyatli tajriba va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, salbiy jihatlari esa identitet ziddiyatlari, madaniy stress va ijtimoiy ajralish xavfi bilan bog‘liq. Maqola psixologik barqarorlikni oshirish va ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish nuqtai nazaridan muhimdir.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ijtimoiy identitet, madaniy moslashuv, psixologik omillar, kognitiv moslashuv, emotsional moslashuv, ijtimoiy integratsiya.

ИНТЕГРАЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И КУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Андижанский государственный университет
Факультет истории и социальных наук
Студентка направления «Социальная работа»
Паттаева Одина
Sayfuddinova Gulsanam

Аннотация: В статье изучаются психологические факторы социального идентичности и процессов культурной адаптации личности в условиях глобализации. Исследования показывают, что глобализация вынуждает личность адаптироваться к нескольким культурным и социальным системам, что приводит к усложнению идентичности и необходимости усвоения новых культурных норм. Культурная адаптация осуществляется через когнитивные, эмоциональные и социальные механизмы. Глобализация положительно влияет на развитие мультикультурного опыта и социальных навыков личности, в то время как негативные аспекты включают конфликты идентичности, культурный стресс и риск социальной изоляции. Статья имеет важное значение с точки зрения повышения психологической устойчивости и содействия социальной интеграции.

INTEGRATION OF PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SOCIAL IDENTITY AND CULTURAL ADAPTATION OF INDIVIDUALS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Andijan State University
Faculty of History and Social Sciences
Student of the Social Work Program
Pattayeva Odina
Sayfuddinova Gulsanam

Ключевые слова: глобализация, социальная идентичность, культурная адаптация, психологические факторы, когнитивная адаптация, эмоциональная адаптация, социальная интеграция.

Abstract: The article examines the psychological factors of social identity and cultural adaptation processes of individuals in the context of globalization. Research shows that globalization forces individuals to adapt to multiple cultural and social systems, leading to the complication of identity and the need to adopt new cultural norms. Cultural adaptation occurs through cognitive, emotional, and social mechanisms. Globalization positively contributes to the development of multicultural experience and social skills, while its negative aspects include identity conflicts, cultural stress, and the risk of social isolation. The article is significant for enhancing psychological resilience and promoting social integration.

Keywords: globalization, social identity, cultural adaptation, psychological factors, cognitive adaptation, emotional adaptation, social integration.

Globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlari psixologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Globallashuv dunyo mamlakatlari va xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning ortishi bilan tavsiflanadi, bu esa shaxsning bir nechta madaniy va ijtimoiy kontekstlarda o‘zini anglashini talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv ijtimoiy identitetning murakkablashuviga, madaniy qarama-qarshiliklar va identitet ziddiyatlariga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy identitet nazariyasi (Tajfel va Turner, 1979) bo‘yicha shaxs o‘zini guruhlar bilan bog‘lab anglaydi, globallashuv sharoitida esa shaxs bir nechta guruh va madaniy kontekstlarga integratsiyalanadi. Shaxsning ijtimoiy identiteti guruhga oid bo‘lish hissi, madaniy qadriyatlar va normalarni qabul qilish, ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyati hamda

kognitiv moslashuv va madaniy adaptatsiyaga bog‘liq. Madaniy moslashuv shaxsning boshqa madaniyat muhitida ijtimoiy va emotsional barqarorligini saqlash jarayonini ifodalaydi. Psixologik mexanizmlar sifatida kognitiv moslashuv – yangi madaniyat normalarini tushunish va qabul qilish, emotsional moslashuv – stressni boshqarish va madaniy qarama-qarshiliklarga bardosh berish, ijtimoiy moslashuv esa yangi guruhlar bilan samarali o‘zaro aloqalarni tashkil etish orqali amalga oshadi. Berry (1997) modeli shuni ko‘rsatadiki, shaxs madaniy integratsiyaga, assimilyatsiyaga, segregatsiyaga yoki marginalizatsiyaga yo‘naltirilishi mumkin. Globallashuvning ijobiy oqibatlari sifatida madaniy ko‘p qirrali tajriba, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va kognitiv hamda emotsional moslashuv qobiliyatining oshishi qayd etiladi, salbiy oqibatlar esa ijtimoiy identitet ziddiyatlari, madaniy stress, qarama-qarshiliklar va ijtimoiy ajralish xavfi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida ijtimoiy identitet va madaniy moslashuv jarayonlarini o‘rganish shaxsning psixologik barqarorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Psixologik yondashuvlar madaniy qarama-qarshiliklarni yengish va shaxsning ko‘p madaniyatli muhitda samarali faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlarini chuqur o‘rganish ijtimoiy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs bir nechta madaniy va ijtimoiy tizimlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lganida, uning identiteti murakkablashadi va yangi madaniy normalarni qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj ortadi. Ijtimoiy identitet shaxsning guruhga oidlik hissi, qadriyatlarni qabul qilishi, ijtimoiy rollarni bajarish va madaniy moslashuv qobiliyati orqali shakllanadi. Madaniy moslashuv jarayonida shaxs emotsional, kognitiv va ijtimoiy mexanizmlardan foydalanadi. Kognitiv moslashuv yangi madaniyat normalarini tushunish va o‘zlashtirish, emotsional moslashuv stressni boshqarish va qarama-qarshiliklarga bardosh berish, ijtimoiy moslashuv esa guruhlar bilan samarali aloqalarni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Berry (1997) modeli shuni ko‘rsatadiki, shaxs madaniy integratsiyaga, assimilyatsiyaga, segregatsiyaga yoki marginalizatsiyaga yo‘naltirilishi mumkin. Globallashuvning ijobiy oqibatlari shaxsga madaniy ko‘p qirrali tajriba va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, salbiy oqibatlari esa identitet ziddiyatlari, madaniy stress va ijtimoiy ajralish xavfi bilan bog‘liq. Shu sababli, globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlarini o‘rganish nafaqat shaxsning psixologik barqarorligini oshirish, balki ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik yondashuvlar shaxsning ko‘p madaniyatli muhitda samarali faoliyat yuritishini ta’minlash va madaniy qarama-qarshiliklarni yengishga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlari psixologik tadqiqotlarda dolzarb masala hisoblanadi. Globallashuv shaxsni bir nechta madaniy va ijtimoiy tizimlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishga majbur qiladi, bu esa identitetning murakkablashuvi va yangi madaniy normalarni qabul qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy identitet shaxsning guruhga oidlik hissi, qadriyatlar va normalarni qabul qilishi, ijtimoiy rollarni bajarish hamda kognitiv va madaniy moslashuv qobiliyatlari orqali shakllanadi. Madaniy moslashuv jarayoni emotsional, kognitiv va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshadi: kognitiv moslashuv yangi madaniyat normalarini tushunish va qabul qilishni, emotsional moslashuv stressni boshqarish va qarama-qarshiliklarga bardosh berishni, ijtimoiy moslashuv esa guruhlar bilan samarali o‘zaro aloqalarni ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs madaniy integratsiyaga, assimilyatsiyaga, segregatsiyaga yoki marginalizatsiyaga yo‘naltirilishi mumkin (Berry, 1997). Globallashuv ijobiy jihatdan shaxsga madaniy ko‘p qirrali tajriba va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, salbiy jihatlari esa identitet ziddiyatlari, madaniy stress va ijtimoiy ajralish xavfi bilan bog‘liq. Shu sababli globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlarini o‘rganish shaxsning psixologik barqarorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv sharoitida shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlari psixologik tadqiqotlarda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv shaxsni bir nechta madaniy va ijtimoiy tizimlarga moslashishga majbur qiladi, bu esa identitetning murakkablashuvi va yangi madaniy normalarni qabul qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Madaniy moslashuv jarayoni kognitiv, emotsional va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshadi, shaxs madaniy integratsiyaga, assimilyatsiyaga, segregatsiyaga yoki marginalizatsiyaga yo‘naltirilishi mumkin. Globallashuv ijobiy jihatdan shaxsga ko‘p madaniyatli tajriba va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi, salbiy jihatlari esa identitet ziddiyatlari, madaniy stress va ijtimoiy ajralish xavfi bilan bog‘liq. Shu sababli shaxsning ijtimoiy identiteti va madaniy moslashuv jarayonlarini o‘rganish psixologik barqarorlikni oshirish, ijtimoiy integratsiyani rag‘batlantirish va pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berry, J. W. (2005). Acculturation: Living successfully in two cultures. International Journal of Intercultural Relations, 29(6), 697-712.
– Madaniy moslashuv, akkulturatsiya strategiyalari va shaxsning psixologik moslashuviga oid asosiy nazariy manba.

2. Breakwell, G. M. (2014). Identity Process Theory: Identity, Social Action and Social Change. Cambridge University Press.
– Ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari va global o‘zgarishlar sharoitida shaxsning moslashuvi haqida nazariy asos.

3. Hogg, M. A., & Vaughan, G. M. (2018). Social Psychology. Pearson Education.
– Ijtimoiy identitet, guruhga mansublik va madaniy o‘zgarishlarning psixologik mexanizmlari haqida keng qamrovli darslik.

4. Sam, D. L., & Berry, J. W. (Eds.). (2016). The Cambridge Handbook of Acculturation Psychology. Cambridge University Press.

YETUKLIK DAVRIDAGI INQIROZLAR

Andijon Davlat Universiteti
Kimyo biologiya fakulteti Kimyo yo’nalishi
301-guruh talabasi Xosilova Madina

Annotatsiya: Ushbu ishda yetuklik davridagi inqirozlarning psixologik xususiyatlari, kelib chiqish sabablari, dinamikasi va shaxs rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. 20-60 yosh oralig’idagi kritik davrlar hamda Levinson, Yung, Shixi, Erikson va Pek nazariyalari qisqacha tahlil qilinadi. Inqirozlarning shakllanishida sog’liq, ijtimoiy sharoit, rivojlanish vazifalari va motivatsiya o’zgarishi asosiy omillar sifatida ko’rsatiladi. Shuningdek, yetuklikda bilish jarayonlari, intellekt va psixofiziologik funksiyalardagi o’zgarishlar bayon etiladi. Tadqiqot yetuklik davri inqirozlarini to’g’ri anglash va samarali yengib o’tishning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so’zlar: Yetuklik davri, psixologik inqiroz, o’rta yosh inqirozi, o’zini anglash, o’z-o’zini baholash, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, stress omillari, kasbiy charchash, oilaviy munosabatlar, ekzistensial inqiroz, motivatsiya pasayishi, emotsional zo’riqish, hayot mazmuni.

Аннотация: В данной работе раскрываются психологические особенности кризисов периода зрелости, причины их возникновения, динамика и влияние на развитие личности. Кратко анализируются критические периоды в возрасте от 20 до 60 лет, а также теоретические концепции Левинсона, Юнга, Шихи, Эриксона и Пека. Отмечается, что основными факторами формирования кризисов являются состояние здоровья, социальные

условия, задачи развития и изменения мотивации. Кроме того, описываются особенности когнитивных процессов, интеллекта и психофизиологических функций в период зрелости. Исследование подчеркивает важность правильного понимания кризисов зрелого возраста и эффективного их преодоления.

Ключевые слова: зрелый возраст, психологический кризис, кризис среднего возраста, самосознание, самооценка, личностное развитие, социальная адаптация, стрессовые факторы, профессиональное выгорание, семейные отношения, экзистенциальный кризис, снижение мотивации, эмоциональное напряжение, смысл жизни.

Annotation: This paper explores the psychological characteristics of crises during adulthood, their causes, dynamics, and their impact on personality development. It provides a brief analysis of the critical periods between the ages of 20 and 60, as well as the theoretical concepts proposed by Levinson, Jung, Sheehy, Erikson, and Peck. The study identifies health status, social conditions, developmental tasks, and changes in motivation as the main factors contributing to the emergence of crises. Additionally, it describes the features of cognitive processes, intelligence, and psychophysiological functions in adulthood. The research emphasizes the importance of understanding adult developmental crises correctly and overcoming them effectively.

Keywords: adulthood, psychological crisis, midlife crisis, self-awareness, self-esteem, personal development, social adaptation, stress factors, professional burnout, family relationships, existential crisis, decreased motivation, emotional tension, meaning of life.

G'arb psixologiyasida yetuklik davridagi inqirozlarni o'rganish bu yosh davridagi rivojlanishni tahlil qilishning asosiy yondashuvlaridan biridir. Ko'proq shaxsiy o'sishlar ro'y beradigan yosh davrlarini ajratish mumkin: 20 yoshlar atrofida, 30 yoshlar atrofida (28-34), 40-45, 55-60 yoshlarda va nihoyat keksalik davrida. Yetuklik davrida inqirozlarning kechishi, davomiyligi shaxsiy hayotdagi sharoitlarga bog'liqdir. Bu yosh davrida rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi o'sishga va o'z-o'zini takomillashtirishga ichki intilish hisoblanadi. Inqirozni keskinlashtiradigan sharoitlar sirasiga sog'liqning to'satdan o'zgarishi (kutilmagan kasallik, uzoq kasallanish, garmonal o'zgarishlar), ijtimoiy va siyosiy hodisalar, talablarning, sharoitning va ijtimoiy kutilmalarning o'zgarishi va b.) kirishi mumkin. Kritik davrning kechishi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu davrning «inqirozliligi» haqidagi tasavvurga barcha taaqiqotchilar ham qo'shilmaydilar.

Inson hayotining «ikkinchi yarmiga» K.Yung ham juda qiziqqan. Hayotning o'rtasini u «ruhning chuqur va qiziqarli o'zgarishlari» ro'y beradigan kritik davr sifatida qaragan. Yetuklik davrida inson ichki o'z-o'zini anglashi, K.Yungning ta'biri bilan aytganda «individualizatsiyani» amalga oshirishi zarur. Hayotining ikkinchi yarmida inson shaxs turli elementlarining muvozanati va integratsiyasi yordamida o'z shaxsining yuksak rivojlanishiga erishishi mumkin. K.Yungning fikricha, shaxsining yuksak darajasiga hamma ham erishmaydi.

D. Levinsonning kattalar hayotini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari qiziqish uyg'otadi. U 35-45 yoshdagi 40 nafar amerikalik erkaklarni o'rgangan, ularning nar biri bilan 15 soatlik biografik intervyu o'tkazgan hamda mashhur shaxslarning biografiyalarini o'rgangan. Natijada erkaklarning hayot siklida har bir 20 yil davom etadigan uch asosiy eralarni aniqlagan. Har bir era davomida individuum hayot strukturasini qayta quradi. Levinson quyidagi o'tish davrlarini ajratgan:

— ilk yetuklik – 17-22 yosh;
— 30 yoshlarga o'tish – 28-33 yosh;
— o'rta yetuklik – 40-45 yosh;
— 50 yoshlarga o'tish -50-55 yosh:
— kechki yetuklikka o'tish – 60-65 yosh;
— yetuklik davriga kirishning boshlanishi – 17-33 yoshlarga to'g'ri keladi. To'liq yetuk bo'lish uchun yosh erkak rivojlanish jarayonida vujudga keladigan 4 vazifani uddalashi kerak:

1) orzuga erishish va reallik haqida o'ylab ko'rish: asossiz fantaziyalar va umuman erishib bo'lmaydigan maqsadlar, shuningdek, orzuning umuman yo'qligi o'sishga imkon bermaydi;

2) ota-ona bola munosabatlaridan yetuk tengdoshlar dunyosi munosabatiga o'tishni amalga oshirish

uchun ustoz topish;

3) o'zining karyerasini qurish;

4) «o'ziga xos ayol» bilan intim aloqalarni o'rnatish, bu ayol unga kattalar dunyosiga kirishga yordamlashadi, uning umidlarini oqlaydi, uning bog'liq xulq-atvori va boshqa kamchiliklariga chidaydi, orzulari amalga oshishida uni qahramon deb qabul qiladi.

Levinsonning fikricha, o'tish davrlarida inson stresslarni boshdan kechiradi, chunki bu davrda maqsadlar, qadriyatlar, hayot tarzi qayta quriladi va qayta baholanadi.

Amerikalik olima G.Shixi, Levinsonning tadqiotlaridan ilhomlanib, shunday izlanishlarni ayollarda o'tkazadi. Uning tadqiqotlari ham Levinson natijalarini tasdiqladi.

Dastlabki inqiroz ilk yetuklikka o'tishda, 20-22 yoshda namoyon bo'lib, «ota-ona ildizlaridan bo'linish» inqirozi deb ataladi. Yoshlikning asosiy vazifalari va muammolari: hayotiy rejalarni aniqlashtirish va ularni amalga oshirishga kirishish; o'zligini topish individuallikni ishlab chiqish; o'zining huquq va majburiyatlarini bilgan yetuk inson deb anglash; turmush o'rtoq tanlash va o'z oilasini qurish; kasbiy faoliyatda ixtisoslashish va mahoratni egallash.

30 yoshlar - o'rta yetuklik, «oltin yoshga» o'tish yuqori darajada ishchanlik davri. 30 yosh inqirozi - to'plangan tajriba asosida hayotiy rejalarni korreksiya qilish vazifalari bilan bog'liq, kasbiy faoliyat va oilada tartibli va oqilona hayot strukturasini yaratish bilan bogMiqdir. Yoqimsiz hislarni bartaraf etishga intilgan inson ilgarigi tanlovlari - turmush o'rtoq, karyera, hayotiy maqsadlarini qayta baholaydi. Ko'pincha hayot tarzini tubdan o'zgartirish kuzatiladi; erta qurilgan oilaning buzilishi; kasbiy qayta yo'llash.

30 yoshdan keyin - «ildizlar va kengayish» - moddiy va yashash muammolarini hal qilish bilan bog'liq, xizmat pog'onasida ko'tarilish, ijtimoiy aloqalarning kengayishi, o'z kelib chiqishini tahlil qilish, ilgari rad etilgan o'z Menini asta-sekin qabul qilish.

40 yosh inqirozi - hayot o'rtasining inqirozi bo'lib, keng tarqalgandir. Bu yosh davridagi inqirozning dastlabki belgilari ichki dunyoning o'zgarishi - ilgari muhim, qiziqarli deb hisoblangan narsalarga befarq munosabat namoyon bo'ladi. Identiklik inqirozi - o'ziga o'xshamaslik, boshqacha bo'lib qolganini his qilishda ko'rinadi. Inqiroz jismoniy kuchlari va yoqimtoyligining kamayayotganini his qilish bilan bog'liqdir. Hayotiy kuchlarining kamayayotganligini anglash - o'z-o'zini baholashga va Men konsepsiyasiga qattiq ta'sir qiladi. Ayniqsa bu yoshdagi inqiroz ijod bilan shug'ullanuvchi kasb egalarida qiyin kechadi.

40 yosh inqirozi xavfli va katta imkoniyatlar davri sifatida anglanadi. Yoshligi tugaganini anglash, jismoniy quvvatining kamayganligi, rollar va kutilmalarning o'zgarishi, xavotirlanish, chuqur o'z-o'zini tahlil qilish, kayfiyatning keskin tushishi bilan kechadi. Hayotini to'g'ri yashaganiga shubhalanish bu yosh davridagi

yetakchi muammodir. Bundan tashqari G.Spixi ayollardagi yosh inqirozlarining erkaklardan farqlarini ko'rsatib bergan. Ayollarning hayot yo'li bosqichlari ko'proq oilaviy sikl hodisalari bilan bog'liq: turmush qurish, farzandlar tug'ilishi, bolalarning ulg'ayishi, «bo'sh uya» (ulg'aygan bolalar ota-ona uyini tark etishi).

Inson inqirozli kechinmalarni muvaffaqiyatli bartaraf etish uchun o'zida emotsional egiluvchanlikni, o'sayotgan bolalar va keksayayotgan ota-onalarga nisbatan hissiy barqarorlikni rivojlantirishi zarur. O'rta yosh inqirozini hal qilish - hayotiy maqsadlami qayta ko'rib chiqish, insonga berilgan umming qisqaligini anglash, hayot sharoitlarini tuzatish, yangi Men obrazini ishlab chiqish, turmush o'rtog'iga, do'stlariga, farzandlariga ko'proq e'tibor qaratish, yangi holatini to'g'ri idrok etish yangi barqaror davrga olib keladi. Inqirozlarni muaffaqiyatli bartaraf etgan insonlarda 50-60 dan keyin kundalik muammolar chetga chiqadi, yanada mahsuldor ishlash uchun sharoit yaratiladi. Hayotiy tajribani umumlashtirish asosida ikkilamchi ijodiy cho'qqilarga erishish mumkinligi, o'z tajribasini tizimlashtirish, ishxonadagi yoshlarga o'rgatish shaxsga quvonch bag'ishlaydi.

Yetuklik davridagi inqirozlar inson hayotining eng murakkab, ammo eng sermazmun bosqichlaridan biri bo'lib, ular shaxsning ichki o'sishi, maqsadlarini qayta ko'rib chiqishi va hayotiy yo'lini yangicha anglash jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, 20 yoshdan boshlab 60 yoshgacha bo'lgan davrda turli xil ruhiy o'zgarishlar, qayta baholashlar, shubhalar va izlanishlar inson hayotining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

ADABIYOTLAR

1. Arnett, J. Emerging Adulthood: The Winding Road from the Late Teens hrough the Twenties. Oxford University Press, 2015. – Yetuklikka o‘tish davridagi (18-29 yosh) inqirozlar, identitet va kasbiy tanlovdagi qiyinchiliklar.
2. Bauer, J. The Complexity of Self: Neuropsychology of Adult Development. Cambridge University Press, 2018. – Neyropsixologik o‘zgarishlar va yetuklik davrida stress va inqirozlar.
3. Bianchi, E. Life Crises and Adult Transitions. Routledge, 2020. – 30, 40 va 50 yoshdagi krizislar, shaxsning moslashuv mexanizmlari.
4. Fiori, K. & Huxhold, O.Social Relationships and Well-being in Midlife. Springer, 2019. – O‘rta yoshdagi krizislar, psixologik farovonlik va ijtimoiy aloqalarning roli.
5. Galatzer-Levy, I.Resilience and Life Span Adaptation. American Psychological Association (APA), 2021. – Inqiroz va bosimlar davrida yetuk shaxsning moslashuv strategiyalari.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA YOSHLARDA DIQQATNING O‘ZGARISH DINAMIKASI

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti kimyo yo‘nalishi
302-guruh talabasi Ismoilova Muxlisa

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning diqqat jarayonlarida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, ularning psixologik xususiyatlari, diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi va ko‘chishi kabi komponentlaridagi dinamik tendensiyalar ilmiy tahlil qilinadi. Smartfonlar, ijtimoiy tarmoqlar, o‘yinlar va multimediali axborot oqimining kuchayishi yosh ongida diqqatning tez chalg‘ishi, ko‘p vazifalilikka intilish, vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar kabi jarayonlarni yuzaga keltirayotgani bayon etiladi. Shuningdek, diqqatni rivojlantirishga yordam beruvchi psixologik metodlar, kognitiv mashqlar va o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan texnologik yondashuvlarning samaradorligi tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, diqqat dinamikasi, kognitiv jarayonlar, yoshlar psixologiyasi, multitasking, chalg‘ish, axborot oqimi.

ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЯ ВНИМАНИЯ У МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Андижанский государственный университет
Факультет химии и биологии, направление «Химия»
Студентка группы 302 - Исмоилова Мухлиса.

Аннотация: В тезисе рассматривается влияние стремительного развития цифровых технологий на динамику внимания у молодежи. Анализируются изменения в таких компонентах внимания, как устойчивость, распределение, переключение и концентрация. Возрастающий поток мультимедийной информации, смартфоны, социальные сети и цифровые игры приводят к снижению устойчивости внимания, повышению отвлекаемости и развитию тенденции к многозадачности. Также представлены психологические методы, когнитивные упражнения и педагогические технологии, способствующие развитию внимания у современных студентов.

Ключевые слова: цифровые технологии, динамика внимания, когнитивные процессы, молодежь, отвлекаемость, мультимедийная среда.

DYNAMICS OF ATTENTION CHANGES IN YOUTH IN THE CONTEXT OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Andijan State University
Faculty of Chemistry and Biology, Chemistry Department
Student of group 302: Ismoilova Muxlisa.

Abstract: This thesis analyzes how the rapid expansion of digital technologies influences attention dynamics among young people. Changes in key components of attention-such as stability, distribution, switching, and concentration-are examined in detail. The increasing flow of multimedia information, smartphones, social networks, and digital gaming contributes to reduced attention stability, greater distractibility, and the rise of multitasking tendencies. Psychological strategies, cognitive training techniques, and effective educational technologies for improving attention among youth are also discussed.

Keywords: digital technologies, attention dynamics, cognitive processes, youth psychology, multitasking, distractibility.

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib kelayotgani yoshlarning psixologik jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, diqqat kabi muhim kognitiv funksiyaning o‘zgarish dinamikasi zamonaviy psixologiya va pedagogika uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Raqamli muhitdagi axborotning haddan tashqari ko‘pligi, tezkor almashuvi va multimodalligi diqqatning barqarorligi, aniqligi va davomiyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda

Bugungi yoshlar avvalgidan ko‘ra ko‘proq vizual, tezkor, interaktiv stimullarga bog‘lanib bormoqda. Bu esa diqqatning murakkab mexanizmlarini yangicha shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday ekan, raqamli texnologiyalar sharoitida diqqat dinamikasini chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Diqqat – psixikaning tanlab faoliyat yuritishini ta’minlovchi asosiy mexanizm bo‘lib, uning barqarorligi, taqsimlanishi, ko‘chishi va ixtiyoriylik darajasi shaxsning o‘quv, mehnat va kundalik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar esa ushbu komponentlarning tabiiy rivojlanishiga yangi bosqich qo‘shmoqda.

Smartfonlar orqali kelayotgan tezkor xabarlar, “push-notification”lar, reklama bannerlari, bir vaqtning o‘zida ochiq turadigan bir nechta ilovalar miyada tez-tez e’tiborni almashtirish refleksini shakllantiradi. Nevropsixologlar fikriga ko‘ra, bu holat miya prefrontal korteksida “tez javob – qisqa diqqat” mexanizmini faollashtiradi.

Raqamli avlod ko‘p vazifalilikka o‘rganib bormoqda. Musiqa tinglab dars qilish, videoni ko‘rib turib yozish, ijtimoiy tarmoqdan xabar kutish – bularning barchasi diqqat resurslarini parchalaydi. Ilmiy tadqiqotlar multitasking samaradorlikni 40% gacha pasaytirishini isbotlagan.

TikTok, Instagram Reels, YouTube Shorts kabi qisqa, kuchli vizual stimullar diqqatning chuqur qayta ishlash jarayonini cheklaydi. Yoshlarning aksariyati 20-30 soniyadan ortiq monoton vazifaga diqqatini jamlay olmaydi.

“Axborot ortig‘i sindromi” yoshlarning xotirasi va diqqatiga bosim o‘tkazadi. Har kuni iste’mol qilinadigan ma’lumot miqdori inson miyasi qayta ishlash quvvatidan 5-7 barobar ko‘p.

Tadqiqotchilar diqqatning quyidagi dinamik o‘zgarishlarini ajratmoqda:

- Barqarorlikning pasayishi – uzoq muddat bir vazifaga e’tibor qaratish qiyinlashadi.
- Tez ko‘chish – miya yangi stimullarga tez o‘tadi.
- Taqsimlanish qobiliyatining kuchayishi – bir necha axborot kanalini bir vaqtning o‘zida kuzatish osonlashadi.
- Ixtiyorsiz diqqatning faollashuvi – yarq etuvchi, tezkor, ovozli stimullar diqqatni kuchli jalb qiladi.

Bu o‘zgarishlarning aksariyati neyrobiologik darajada ham tasdiqlangan bo‘lib, dopamin mukofot tizimi kuchayishi bilan bog‘liq.

1. Mindfulness mashqlari – nafasni nazorat qilish, meditatsiya, diqqatni bir nuqtaga jamlash mashqlari.
2. Kognitiv treninglar – “Stroop testi”, “Schulte jadvallari”, raqamli krossvordlar.
3. Digital-detoks – kunning muayyan vaqtida gadjetlardan foydalanmaslik.

4. O‘yinlashtirilgan ta’lim – motivatsiyani oshirib, diqqatni faol tutadi.
5. Pomodoro usuli – 25 daqiqa ish + 5 daqiqa tanaffus diqqatni optimal ushlab turadi.

Raqamli texnologiyalar yoshlarning diqqat tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Diqqatning barqarorligi susayishi, chalg‘ishning kuchayishi va multitaskingning ortishi zamonaviy psixologiyada yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, to‘g‘ri yondashuvlar, psixologik mashqlar va raqamli gigiyena qoidalariga rioya qilish diqqatni tiklash va rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli avlod vakillarida diqqat jarayonini boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish kelajak ta’limining eng muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson J. Cognitive Psychology and Its Implications. – New York, 2021.
2. Mayer R. Multimedia Learning Theory. – Oxford University Press, 2020.
3. Rosen L. The Distracted Mind: Ancient Brains in a High-Tech World. – MIT Press, 2019.
4. Kazakov S. V. Psixologiya vnimaniya v tsifrovuyu epokhu. – Moskva, 2022.
5. Uzboyeva Z. Raqamli ta’lim va psixologik jarayonlar. – Toshkent, 2021.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ BUZILISHLARINI ERTA PSIXODIAGNOSTIKA QILISHNING PSIXOLOGIK MODELI

Ibragimova Odina Kamoldinovna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xakimova Sarvinoz Zuxriddin qizi
Andijon davlat universiteti
Psixologiya va pedagogika kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini erta aniqlashga qaratilgan psixologik model ishlab chiqilgan. Unda nutq rivojlanishining kognitiv, senzomotor va ijtimoiy omillari tahlil qilinib, fonematik idrok, lug‘at boyligi, grammatik tuzilma va artikulyatsiya faoliyati asosiy diagnostik mezonlar sifatida belgilangan. Taklif etilgan model skrining, chuqurlashtirilgan baholash va rivojlanish profilini tuzish bosqichlaridan iborat bo‘lib, nutq buzilishlarining dastlabki belgilarini samarali aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari MTTlarda nutq rivojlanishini monitoring qilish va individual korreksion dasturlar tuzishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: nutq buzilishlari, erta psixodiagnostika, maktabgacha yosh, psixologik model, fonematik idrok, nutq rivojlanishi, psixologik diagnostika, umumiy nutq rivojlanmay qolishi, skrining, senzomotor rivojlanish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАННЕЙ ПСИХОДИАГНОСТИКИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Ибрагимова Одина Камолдиновна
Кандидат наук по психологии (PhD)
Хакимова Сарвиноз Зухриддин кизи
Магистрант кафедры психологии и педагогики
Андижанского государственного университета

Аннотация: В данной статье разработана психологическая модель ранней диагностики речевых нарушений у детей дошкольного возраста. В ней проанализированы когнитивные, сенсомоторные и социальные факторы речевого развития, а фонематическое восприятие, словарный запас, грамматическая структура и артикуляционная деятельность

определены как основные диагностические критерии. Предложенная модель включает этапы скрининга, углублённой оценки и формирования профиля развития, что обеспечивает эффективное выявление ранних признаков речевых нарушений. Результаты исследования имеют важное практическое значение для мониторинга речевого развития в дошкольных образовательных учреждениях и разработки индивидуальных коррекционных программ.

Ключевые слова: речевые нарушения, ранняя психодиагностика, дошкольный возраст, психологическая модель, фонематическое восприятие, речевое развитие, психологическая диагностика, общее недоразвитие речи, скрининг, сенсомоторное развитие.

PSYCHOLOGICAL MODEL OF EARLY PSYCHODIAGNOSTICS OF SPEECH DISORDERS IN PRESCHOOL CHILDREN

Ibragimova Odina Kamoldinovna
PhD in Psychology
Khakimova Sarvinoz Zukhriddin qizi
Master's Student, Department of Psychology and Pedagogy
Andijan State University

Abstract: This article presents a psychological model for the early diagnosis of speech disorders in preschool children. It analyzes the cognitive, sensorimotor, and social factors of speech development, identifying phonemic perception, vocabulary, grammatical structure, and articulatory performance as key diagnostic criteria. The proposed model includes the stages of screening, in-depth assessment, and the formation of a developmental profile, ensuring effective detection of early signs of speech disorders. The research findings have significant practical value for monitoring speech development in preschool educational institutions and for designing individualized corrective programs.

Keywords: speech disorders, early psychodiagnostics, preschool age, psychological model, phonematic perception, speech development, psychological.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixofiziologik rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan ushbu davrda nutq funksiyalarining shakllanishi, fonematik eshituvning differensiallashuvi, lug‘at boyligining kengayishi hamda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi jadal sur’atlarda kechadi. Nutq bolaning nafaqat muloqot vositasi, balki uning tafakkuri, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi va emotsional-irodaviy jarayonlarining integratsiyalashuvini ta’minlovchi markaziy psixologik mexanizmdir. Shu bois nutq rivojlanishidagi har qanday og‘ishlar bolaning umumiy psixik rivojlanish sur’atlariga, ijtimoiylashuviga va maktab ta’limiga tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Erta psixodiagnostika bolaning nutq rivojlanishidagi nozik og‘ishlarni 3 yoshdan boshlab aniqlash imkonini beruvchi eng samarali mexanizm hisoblanadi. Ushbu jarayon fonematik idrokni, artikulyatsion apparat holatini, lug‘at boyligi va grammatik qurilmani, shuningdek, senzomotor va kognitiv rivojlanishning nutqqa ta’sir etuvchi komponentlarini birgalikda baholashni talab qiladi. Ammo amaliyotda ushbu mezonlarni yagona tizimli model asosida birlashtiruvchi kompleks psixodiagnostik mexanizm yetarli darajada ishlab chiqilmagan.Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini erta aniqlashga mo‘ljallangan psixologik modelni yaratish, uning tarkibiy bosqichlarini aniqlash, diagnostik mezon va indikatorlarini belgilash, shuningdek, amaliy samaradorligini baholash bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi psixik faoliyatning barcha tarkibiy qismlarini – idrok, xotira, tafakkur, emotsional-irodaviy jarayonlar hamda ijtimoiy muloqotni integratsiyalashgan holda shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois nutqning

kechikishi yoki undagi buzilishlar bolaning umumiy psixologik rivojlanishiga, tengdoshlari bilan muloqotiga, o‘quv faoliyatiga tayyorgarlik darajasiga hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarida umumiy nutq rivojlanmay qolishi (OHR), fonetik-fonematik yetishmovchilik, dizartriya va alaliya kabi nutq buzilishlari bilan murojaat qiluvchi bolalar sonining ko‘payishi ushbu muammoning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Amaliyotda nutq buzilishlarining ko‘pchilik holatlari erta aniqlanmasligi, aksariyat diagnostik jarayonlarning kechikib – 5-6 yoshda amalga oshirilishi natijasida korreksion ishlarning samaradorligi pasaymoqda. Ayniqsa fonematik idrokni, artikulyatsion apparat holatini, kognitiv jarayonlar va senzomotor rivojlanishning nutq shakllanishiga ta’sirini bir butun tizimda baholaydigan psixologik modelning yetishmasligi sezilmoqda [4].

Nutq va rivojlanish psixologiyasining klassik kontseptsiyalari L.S. Vigotskiy va A.R. Luriya ishlarida aniq ifodalangan. Ularning qarashlari nutqning kognitiv va ijtimoiy funksiyalarini bog‘lash hamda rivojlanishdagi disfunktsiyalarni tizimli neuropsixologik nuqtai nazardan talqin qilishda poydevor vazifasini o‘taydi – bu kontseptlar bugungi kunda ham erta diagnostika va koreksion yondashuvlar uchun nazariy ramka beradi [1].

So‘nggi o‘n yilliklarda G‘arb olimlari rivojlanishiy til buzilishi (DLD)ning kognitiv va neyrobiologik asoslarini hamda erta identifikatsiya va aralashuvning samaradorligini keng o‘rgandilar. Shu qatorda DLD bolaning fonologik xotirasi, til fonemalarini idrok etish va ishlov berishdagi buzilishlar bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan hamda erta intervensiyalar (Skrining – erta skrining va maqsadli yordam) bolaning til va xulq rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum qilingan.[2]

Xorijiy tadqiqotchilar va amaliyotchilar onlayn ekspert-sistemalar, standartlashtirilgan skrining instrumentlari va komp’yuterlashtirilgan testlar yaratish orqali erta aniqlashning imkoniyatini kengaytirmoqda. Masalan, bolalar nutq va til faoliyatini baholashga mo‘ljallangan onlayn ekspert-sistemalar misolida bir qator tadqiqotlar va prototiplar taqdim etilgan. Bu ishlarda skrining va chuqur diagnostika bosqichlarini birlashtirish orqali diagnostika tezligi va aniqligi yaxshilanishi ta’kidlangan.[3]

O‘zbek olimlari va pedagogika-tadqiqotchilari maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishi, nutq buzilishlarining sabab va profilaktikasi, shuningdek maktabgacha ta’lim muassasalarida skrining va korreksion ishlarni tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan maqolalar va konferensiya hisobotlarini nashr qildilar. Bu ishlarda mahalliy kontekst (til muhitining roli, ota-ona va oilaviy omillar, maktabgacha ta’lim tizimidagi amaliy imkoniyatlar) ustuvor o‘ringa qo‘yilgan [5].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini erta psixodiagnostika qilishning psixologik modeli yaratish zamonaviy psixologiya va pedagogika sohasida dolzarb va muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. G‘arb olimlarining nutq buzilishlarini kognitiv va neyrobiologik asoslari, erta intervensiya usullari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari hamda Rossiya va O‘zbekiston olimlarining milliy xususiyatlarni hisobga olgan yondashuvlari asosida ilg‘or diagnostik va koreksion mexanizmlar ishlab chiqilishi mumkinligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan psixologik model uch bosqichli yondashuvni – skrining diagnostikasi, chuqurlashtirilgan baholash va psixologik rivojlanish profilini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yondashuv nutq buzilishlarining dastlabki belgilari va og‘ishlarini erta aniqlash, shuningdek, individual korreksion dasturlarni samarali rejalashtirish imkonini beradi. Modelning asosiy afzalliklaridan biri uning integrativligi bo‘lib, u fonematik idrok, lug‘at boyligi, grammatik tuzilma, artikulyatsion apparat holati hamda senzomotor va kognitiv rivojlanish komponentlarini bir tizimda baholashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdukarimova, S. R. (2019). Early diagnostics of speech disorders in preschool age children: National context and challenges. Andijan State University Bulletin, 1(34), 112–117.

2. Bishop, D. V. M. (2014). Ten questions about terminology for children with unexplained language problems. International Journal of Language & Communication Disorders, 49(4), 381–415. https://doi.org/10.1111/1460-6984.12102

3. Karimova, N. S., & Tashpulatova, D. M. (2017). Features of speech development in preschool children in Uzbekistan. Uzbek Journal of Psychology, 3(12), 55–61.

4. O.K. Ibragimova Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalar moslashuvining individual psixologik xususiyatlari [Monografiya]. Andijon: Omadbek print number one‖ MCHJ, 2025. ISBN: 978-9910-11-032-0. - 141 b.

5. Ibragimova O.K. "Bolani maktabgacha ta'lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillari" (3-4 yoshli bolalar misolida) Psixol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss.avtoref. – T., 2024. – B. 27-31.

ONTOGENEZNI GO‘DAKLIK DAVRINING ILK BOSQICHLARIDA INSON PSIXIK RIVOJLANISHINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Andijon davlat universiteti
Kimyo biologiya fakulteti kimyo yo‘nalishi
301-guruh talabasi Sobirjonova Zebuniso

Annotatsiya: Go‘daklik davrida bolaning psixikasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Sensorimotor rivojlanish kuchayib, bola sezgi organlari orqali dunyoni idrok eta boshlaydi va harakatlarini muvofiqlashtiradi. Rang, shakl, hajm kabi idrok elementlari shakllanib, u narsalarni farqlay oladi. Hissiy rivojlanish jarayonida quvonch, g‘azab, qo‘rquv kabi asosiy emotsiyalar namoyon bo‘ladi, onaga bog‘lanish va ishonch hissi shakllanadi. Muloqot yig‘lash, kulish, imo-ishoralardan boshlanib, asta-sekin birinchi so‘zlarga o‘tadi. Shu davrda shaxsiyatning dastlabki elementlari - o‘ziga ishonch, mustaqillik va ijtimoiy ko‘nikmalar poydevori shakllanadi. Bu jarayonlar keyingi psixik rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Go‘daklik davri, sensorimotor rivojlanish, idrok, hissiy rivojlanish, muloqot, bog‘lanish, shaxsiyat shakllanishi, psixologik xususiyatlar.

ОСНОВНЫЕ КАЧЕСТВА ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕКА НА РАННИХ ЭТАПАХ ОНТОГЕНЕЗА (МЛАДЕНЧЕСКИЙ ПЕРИОД)

Андижанский государственный университет
Факультет химии и биологии, направление «Химия»
Студентка 301-группы Собиржонова Зебунисо

Аннотация: В период младенчества в психике ребёнка происходят важные изменения. Усиливается сенсомоторное развитие: ребёнок начинает воспринимать мир через органы чувств и координировать свои движения. Формируются элементы восприятия - цвет, форма, размер, благодаря которым он учится различать предметы и их свойства. В эмоциональном развитии проявляются базовые эмоции, такие как радость, гнев и страх, а также формируется привязанность и чувство доверия к матери. Общение начинается с плача, улыбки и жестов, постепенно переходя к первым словам. В этот период закладываются основы личности - уверенность в себе, самостоятельность и социальные навыки.

Ключевые слова: младенчество, сенсомоторное развитие, восприятие, эмоциональное развитие, коммуникация, привязанность, формирование личности, психологические особенности.

KEY QUALITIES OF HUMAN PSYCHIC DEVELOPMENT IN THE EARLY STAGES OF ONTOGENESIS (INFANCY PERIOD)

Andijan State University
Faculty of Chemistry and Biology, Chemistry Department
Student of Group 301 – Sobirjonova Zebuniso

Annotation: During infancy, significant psychological changes occur in the child. Sensorimotor development intensifies as the infant begins to perceive the world through sensory organs and coordinate movements. Elements of perception-such as color, shape, and size-start to form, enabling the child to distinguish objects and their properties. In emotional development, basic emotions like joy, anger, and fear emerge, while attachment and a sense of trust toward the mother are established. Communication begins with crying, smiling, and gestures, gradually transitioning to the first words. During this period, the foundations of personality-self-confidence, independence, and social skills-are laid. These processes serve as an essential basis for subsequent psychological development.

Keywords: infancy, sensorimotor development, perception, emotional development, communication, attachment, personality formation, psychological characteristics.

Go‘daklik davri inson hayotining eng muhim va tezkor rivojlanish davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bola tashqi dunyoga moslashadi, asosiy psixologik va fiziologik funktsiyalarni o‘zlashtiradi. Ontogenez nuqtai nazaridan, bu davr shaxsiyatning shakllanishi, ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi va keyingi hayot uchun poydevor yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosiy psixologik xususiyatlar va rivojlanish bosqichlari:

1. Sensorimotor rivojlanish: Sezgi organlari: Go‘dakning sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teginish) faol rivojlanadi. Bola atrof-muhitni sezgi organlari orqali o‘rganadi. Piaje nazariyasi: Jan Piaje Go‘daklik davrini “sensorimotor bosqich” deb atagan. Bu bosqichda bola atrof-muhitni harakatlar va sezgilar orqali o‘rganadi.

Reflekslar: Tug‘ma reflekslar (so'rish, ushlash, Moro refleksi) Go‘dakning dastlabki harakatlarini tashkil qiladi. Asta-sekin bu reflekslar ongli harakatlarga aylanadi. Harakat koordinatsiyasi: Go‘dak qo‘llarini, oyoqlarini va butun tanasini boshqarishni o‘rganadi. Boshini ushlab turish, ag‘darilish, o‘tirish, emaklash va yurish kabi harakatlar muhim bosqichlar hisoblanadi.

Idrokning rivojlanishi:

Ko‘rish: Go‘dakning ko‘rish qobiliyati asta-sekin takomillashadi. Ranglarni ajratish, narsalarning shaklini va hajmini idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Eshitish: Go‘dak tovushlarni ajratishni, ovozning manbaini aniqlashni va nutqni idrok etishni o‘rganadi.

Tegish: Go‘dak teginish orqali turli xil materiallarni, haroratni va og‘riqni his qiladi. Bu sezgi uning atrof-muhit haqidagi bilimini boyitadi. Harakat koordinatsiyasi: Dastlabki reflekslar (so'rish, ushlash) asta-sekin ongli harakatlarga aylanadi. Bola boshini ushlab turishni, ag‘darilishni, o‘tirishni va keyinroq emaklashni o‘rganadi.

Idrokning shakllanishi: Rang, shakl, hajm kabi asosiy idroklar shakllana boshlaydi. Bola narsalarni ajrata olishni va ularning xususiyatlarini tushunishni boshlaydi.

2. Hissiy rivojlanish:

Hissiy reaksiyalar: Go‘dak turli xil hissiy reaksiyalarni namoyon eta boshlaydi: quvonch, g‘azab, qo‘rquv. Bu hissiy reaksiyalar uning ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik bilan bog‘liq.

Mehr va ishonch: Ona (yoki asosiy g‘amxo‘r) bilan yaqin munosabatlar o‘rnatiladi. Bu munosabatlar mehr va ishonch tuyg‘ularini shakllantiradi, bu esa kelajakda shaxsiyatning sog‘lom rivojlanishi uchun muhimdir.

Asosiy his-tuyg‘ular: Go‘dak asosiy his-tuyg‘ularni (quvonch, g‘azab, qo‘rquv, qayg‘u) namoyon eta boshlaydi. Bu his-tuyg‘ular uning ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik bilan bog‘liq.

Bog‘lanish nazariyasi (Bowlby): Jon Boulbi bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, Go‘dak va ona (yoki asosiy g‘amxo‘r) o‘rtasidagi munosabatlar uning kelajakdagi hissiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Xavfsiz bog‘lanish Go‘dakning o‘ziga ishonchi, mustaqilligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Hissiy regulyatsiya: Go‘dak o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadi. Kattalar yordami bilan u g‘azabini, qo‘rquvini va qayg‘usini nazorat qilishni o‘rganadi.

3. Muloqotning rivojlanishi: Yig‘lash va kulish: Yig‘lash Go‘dakning asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. U ochlik, og‘riq, noqulaylik kabi ehtiyojlarini bildiradi. Kulish esa qoniqish va xursandchilikni ifodalaydi. Imo-ishoralar va tovushlar: Go‘dak asta-sekin imo-ishoralar va tovushlar orqali muloqot qilishni boshlaydi. “Ag‘u”lash, so‘zlarning bo‘laklarini takrorlash kabi harakatlar til rivojlanishining boshlanishi hisoblanadi.

4. Shaxsiyatning shakllanishi: O‘zini anglash: Go‘dak o‘z tanasini va atrof-muhitni o‘rganish orqali o‘zini anglashni boshlaydi. O‘zining harakatlari va ularning oqibatlarini tushunish shaxsiyatning shakllanishiga asos bo‘ladi. Ijtimoiy ko‘nikmalar: Go‘dak kattalar bilan muloqot qilish, ularning harakatlariga javob berish orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi.

5. Atrof-muhitga moslashish: Adaptatsiya: Go‘dak yangi sharoitlarga moslashishga harakat qiladi. Bu jarayon uning fiziologik va psixologik resurslarini rivojlantiradi. O‘rganish: Go‘dak atrof-muhitdan o‘rganadi, yangi narsalarni kashf etadi va o‘z tajribasini boyitadi. Keyingi rivojlanish uchun ahamiyati: Go‘daklik davrida olingan tajriba va ko‘nikmalar keyingi rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Agar Go‘dak yetarli darajada mehr, g‘amxo‘rlik va stimulatsiya olmasa, bu uning kelajakdagi psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Go‘daklik davri - bu shunchaki o'tkinchi davr emas, balki butun umrga ta’sir etuvchi muhim bosqichdir. Bu davrda shakllangan neyron tarmoqlari, hissiy bog‘lanishlar va ijtimoiy ko‘nikmalar kelajakda shaxsning o‘ziga ishonchi, stressga chidamliligi, muloqot qobiliyati va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan muhim xususiyatlarni belgilaydi.

Go‘dakning miyasi juda moslashuvchan bo‘lganligi sababli, bu davrda olingan har bir tajriba uning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun, Go‘dakning atrof-muhiti uning uchun boyitilgan, xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lishi kerak. Kattalar Go‘dak bilan ko‘p muloqotda bo‘lishlari, unga kitob o‘qib berishlari, qo‘shiq aytishlari va turli xil o‘yinlar o‘ynashlari kerak. Bu uning til rivojlanishini, kognitiv qobiliyatlarini va hissiy salomatligini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Go‘dakning jismoniy salomatligiga ham e’tibor berish kerak. To‘g‘ri ovqatlanish, yetarli uyqu va muntazam jismoniy mashqlar uning jismoniy rivojlanishi uchun zarurdir. Go‘dakni kasalliklardan himoya qilish va uning sog‘lig‘ini muntazam ravishda tekshirib turish ham muhimdir.

Go‘daklik davri - bu ota-onalar va g‘amxo‘rlar uchun ham qiyin, ham quvonchli davrdir. Go‘dakning rivojlanishiga sarmoya kiritish - bu kelajakka sarmoya kiritishdir. Go‘daklik davrida olingan to‘g‘ri tarbiya va g‘amxo‘rlik kelajakda sog'lom, baxtli va muvaffaqiyatli insonni voyaga yetkazishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Berk, L. E. (2013). *Child Development.* Pearson Education.
2. Papalia, D. E., Olds, S. W., & Feldman, R. D. (2010). *Human Development.* McGraw-Hill.
3. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children.* International Universities Press.
4. O.K.Ibragimova “Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkiloti muhitiga moslashtirishning psixologik asoslari” Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnal № 4, 2025 ISSN 3030-3710 (P) ISSN 3030-3095 (E) 81-85 b.

5. Ibragimova O.K. “Bolani maktabgacha ta’lim muhitiga moslashtirishning psixologik omillari” (3-4 yoshli bolalar misolida) Psixol. fan. b. fal. dokt. (PhD) ... diss.avtoref. – T., 2024. – B. 13-17.
6. Santrock, J. W. (2019). *Life-Span Development.* McGraw-Hill Education.

ATTENTION TO THE FIELD OF SOCIAL WORK IN UZBEKISTAN

Andijan State University
Faculty of History, field of professional
work 2st stage student
Soyibjonova Dilnoza Shukhratbek qizi

Abstract: After the independence of the Republic of Uzbekistan, the attention to the social sphere, including the social sphere, increased. Social work is an activity aimed at solving social problems, supporting the population and improving their quality of life. This area is an integral part of the state policy, and it is implemented in order to provide social assistance to all layers of society, their social protection and increase their standard of living.

Key words: social work, society, state, politics, experts, reforms, problems.

There are a number of main factors for the development of the business sector in Uzbekistan. First of all, social policies and programs adopted by the head of state, as well as cooperation with international organizations, have a great impact on the development of the social work sector. The government of Uzbekistan is implementing a number of reforms in order to ensure social justice, improve the social protection system and expand the provision of social services. The main goal of social work is to solve social problems and support the population. Specialists working in this field, that is, social workers, are engaged in identifying social problems arising in society, analyzing them and looking for ways to solve them.They also try to ensure social stability by working directly with the population, understanding their needs and providing them with the support they need. The reforms implemented in the field of employment in Uzbekistan have led to many positive changes. For example, financial and other resources are allocated by the state to provide assistance to low-income families, disabled people and other groups in need of social protection within the framework of social protection programs. Through such programs, social protection of the population is ensured and their standard of living is improved. Also, in Uzbekistan, special attention is paid to the training of qualified specialists in the field of social work and to increase their knowledge and skills. Educational programs on social work have been developed and are being implemented in higher education institutions. This helps to make the process of training social workers more effective. Specialists working in the field of social work in Uzbekistan have the opportunity to improve their knowledge and skills by studying international experiences and applying them in their practice. Organizations and public organizations operating in the field of social work also play an important role. They help state bodies in solving social problems, working with the population and providing social services. Public organizations operating in different regions of Uzbekistan implement various projects in order to ensure social justice in the field of social work, meet the needs of the population and improve their quality of life.[1]

Diversification of social services in the field of employment is also important in Uzbekistan. Social services are offered in different directions according to the needs of the population. These areas include psychological support, health, education, labor and employment, social protection and other services. Cooperation between the state and public sectors in the provision of social services is important, as it helps to respond more effectively to the needs of the population. Reforms and programs implemented in the field of employment in Uzbekistan play an important role in solving social problems, improving the life of the population and ensuring social stability. However, there are still many problems to be solved in this field. For example, it is

necessary to increase the number of social workers, improve their qualifications, further expand social services and improve their quality.[2]

It is also important to introduce innovative approaches and new technologies in the field of social work. With the help of modern technologies, it is possible to simplify the process of providing social services and increase efficiency. For example, providing social services through online platforms allows to strengthen communication with the population and quickly identify their needs.[3]

In Uzbekistan, attention to the field of work is aimed at ensuring the social stability of the society and increasing the well-being of the population. Cooperation between social workers, state bodies and public organizations is important in solving social problems and meeting the needs of the population. At the same time, it is necessary to improve the quality of social services in Uzbekistan and expand them further by introducing innovations in the field of social work and training qualified specialists.[4]

Innovative approaches in the field of social work are important because they create new opportunities for improving the quality of social services, effectively responding to the needs of the population, and solving social problems. With the help of innovative approaches, the processes of providing social services are simplified and accelerated. Through new technologies and digital platforms, it is possible to facilitate communication with the population, provide services quickly and efficiently. This will ease the work of social workers and organizations. New methodologies and research methods are used to identify the needs and problems of the population with the help of innovative approaches. This allows social workers to develop more specific and targeted approaches to working with the population. Innovative technologies such as data analytics and artificial intelligence can improve decision-making processes in social work. It helps to develop effective strategies for solving social problems. Also, with the help of innovative approaches, new directions and services can be developed in the field of social services. This will create more opportunities for the population and help provide services tailored to their needs. Innovative approaches help strengthen cooperation between public authorities, public organizations and the private sector. More effective results can be achieved by combining the resources of public organizations and the private sector in solving social problems. In addition, through innovative approaches, justice and equity can be ensured in the process of providing social services. This is important in the development and support of special programs for disadvantaged and vulnerable groups. Innovative approaches allow to quickly adapt to changing conditions in the field of social work. For example, in situations such as a pandemic or an economic crisis, it is possible to quickly respond to the needs of the population by introducing new services and methods of assistance. Innovative approaches also play an important role in education and training. They help introduce new educational methods in the training of social workers and improving their skills. For example, through online courses and interactive training, social workers have the opportunity to improve their knowledge and skills. In general, innovative approaches in the field of social work play an important role in improving the well-being of the population, effectively solving social problems, and ensuring social justice. All this serves the development of the field of social work and ensuring the stability of society.[5]

In Uzbekistan, attention to the field of work is important in ensuring the well-being of the population and maintaining social stability. Reforms and programs implemented in this area help to achieve effective results in solving social problems and meeting the needs of the population. In the future, Uzbekistan needs to further develop in the field of social work and continue to introduce new approaches aimed at improving the lives of the population.

References

1. Mamatkulov, A. (2021). "Social work and its development prospects". Tashkent: Center of Social Work and Social Services of the Republic of Uzbekistan.

2. Kadyrov, R. (2022). "Social services and their importance". Tashkent: National University of Uzbekistan.
3. Abdurakhmanov, D. (2023). "Innovative Approaches in Social Work". Tashkent: Ministry of Social Work and Social Services of the Republic of Uzbekistan.
4. Karimova, N. (2022). "Social Justice and Social Work: Theory and Practice." Tashkent: Uzbekistan State University of Journalism and Mass Communications.
5. Tashkent, M. (2023). "Modern problems in the field of social work and ways to solve them". Tashkent: Center of Social Work and Social Services of the Republic of Uzbekistan.
6. Nurmatov, S. (2021). "Application of innovative technologies in social work". Tashkent: Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan.
7. Khudoyberdiyev, U. (2023). "Social services and their development: experience of Uzbekistan". Tashkent: Ministry of Social Work and Social Services of the Republic of Uzbekistan.

TA’LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

Andijon Davlat Universiteti
Tarix va Ijtimoiy fanlar fakulteti
Ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi
Qaxramonova Dilafruz

Maqolada ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish masalalari yoritiladi. Konstruktivizm, faoliyatga asoslangan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va motivatsiya nazariyalarining o‘quv jarayoniga tatbiqi tahlil qilinadi. Interfaol metodlar, raqamli platformalar, STEAM va multimediaga asoslangan darslarning psixologik asoslari ko‘rsatilib, integratsiyalashgan yondashuvning o‘quvchi faolligi va ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli asoslanadi.

Kalit so’zlar: psixologiya, pedagogika, integratsiya, motivatsiya, kognitiv, interfaol, raqamli ta’lim, samaradorlik.

ИНТЕГРАЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Андижанский государственный университет
Факультет истории и социальных наук
Студентка направления «Социальная работа»
Кахрамонова Дилафруз

Аннотация: В статье рассматривается интеграция психологических подходов с современными педагогическими технологиями в образовательном процессе. Анализируется применение конструктивизма, деятельностного обучения, компетентностного подхода и мотивационных теорий в учебной практике. Показаны психологические основы интерактивных методов, цифровых платформ, STEAM-образования и мультимедийных моделей занятий. Обоснована роль интегрированного подхода в повышении активности учащихся и эффективности обучения.

Ключевые слова: психология, педагогика, интеграция, мотивация, когнитивность, интерактивность, цифровое обучение, эффективность.

INTEGRATION OF PSYCHOLOGICAL APPROACHES AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Andijan State University
Faculty of History and Social Sciences
Student of the Social Work Program
Qakhromonova Dilafruz

Abstract: The article examines the integration of psychological approaches with modern pedagogical technologies in the educational process. It analyzes the application of constructivism, activity-based learning, the competency-based approach, and motivational theories in teaching practice. The psychological foundations of interactive methods, digital platforms, STEAM education, and multimedia-based lesson models are presented. The role of an integrated approach in enhancing student engagement and improving learning efficiency is substantiated.

Keywords: psychology, pedagogy, integration, motivation, cognitive, interactive, digital learning, efficiency.

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishni, uning psixologik ehtiyojlari, kognitiv rivojlanish darajasi va o‘quv motivatsiyasini chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ta’lim sifati o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgandagina yuqori samaraga erishiladi. Shu sababli psixologik yondashuvlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bugungi ta’lim jarayonining asosiy zaruratlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Konstruktivizm, faoliyatga asoslangan ta’lim, kognitiv rivojlanish bosqichlari va motivatsiya nazariyalari kabi psixologik konsepsiyalar o‘quvchi faoliyatini chuqur tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va o‘zlashtirish jarayonida ishtirok etishga undaydi. Shu bilan birga, interfaol metodlar, raqamli platformalar, multimedia resurslari va kompetensiyaviy yondashuv kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ushbu psixologik jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda dars jarayonida psixologik mexanizmlar bilan texnologik imkoniyatlarning uyg‘unlashuvi o‘quv jarayonini yanada moslashuvchan, dinamik va natijaga yo‘naltirilgan shaklga keltirmoqda. Mazkur integratsiya o‘quvchilarning emotsional barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga sharoit yaratadi va ijtimoiy-ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, pedagogning darsni loyihalash jarayonida psixologik yondashuvlarga tayangan holda texnologiyalarni to‘g‘ri tanlashi ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada psixologik yondashuvlar bilan pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi mazmuni, ularning o‘quvchi faolligi va ta’lim samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri, shuningdek amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni birlashtirish masalasini o‘rganishda qo‘llanilgan adabiyotlar asosan psixologiya va pedagogikaning asosiy ilmiy yo‘nalishlarini qamrab oladi. Bu manbalarda, avvalo, o‘quvchining shaxsiy va psixologik rivojlanishiga oid nazariy qarashlar keng yoritilgan. J. Piajening yoshga doir bilish bosqichlari haqidagi tadqiqotlari ta’lim jarayonini bolaning tafakkur darajasiga mos tashkil etish zarurligini ko‘rsatib beradi. L. S. Vigotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa o‘quvchining rivojida muloqot, hamkorlik va o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli qanchalik muhim ekanini ilmiy asoslaydi. Ushbu adabiyotlar ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyatini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Motivatsiya nazariyalariga oid ilmiy manbalar ham o‘quv faoliyatining samaradorligini tushuntirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Maslou, MakKlelland va boshqa tadqiqotchilar tomonidan keltirilgan motivatsiya modellarida o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va ichki rag‘batining ta’limdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu adabiyotlar ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish motivatsiyani kuchaytirishi, o‘quvchini faolroq bo‘lishga undashi mumkinligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha yaratilgan metodik qo‘llanmalar va ilmiy tadqiqotlar esa ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan interfaol usullar, raqamli platformalar, multimedia vositalari va integrasiyalashgan o‘qitish modellarining mohiyatini yoritadi. STEAM, blended learning, loyiha asosida o‘qitish kabi yondashuvlar ko‘plab tadqiqotlarda o‘quvchining mustaqil fikrlashi,

hamkorlikda ishlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlangan. Bunday adabiyotlar psixologik yondashuvlar bilan zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirishning amaliy imkoniyatlarini ochib beradi. Bu yondashuvlar bugungi o‘quv jarayonini nafaqat texnik, balki psixologik jihatdan ham samarali tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, ushbu mavzu bo‘yicha foydalanilgan adabiyotlar psixologik nazariyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, motivatsiya, kognitiv rivojlanish va raqamli o‘qitishning ilmiy asoslarini keng qamrab oladi. Manbalar ta’lim jarayonini har tomonlama, ya’ni psixologik va texnologik yondashuvlar uyg‘unligida tushuntirishga xizmat qiladi hamda integratsion ta’lim yondashuvining nazariy va amaliy jihatlarini ochib beradi.

Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uyg‘un qo‘llanishi o‘quvchi rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik yondashuvlar – shaxsga yo‘naltirilgan, motivatsion, kognitiv va konstruktivistik qarashlar – o‘quvchining individual ehtiyojlari va bilish jarayonlarini inobatga olishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar esa dars jarayonini interfaol, tizimli va samarali qilish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik asoslangan interfaol metodlar qo‘llanganda o‘quvchilar faolligi 40 % dan 65 % gacha oshadi, bilimlarni eslab qolish darajasi esa multimedialar yordamida 20-22 % yuqorilaydi. Individual yondashuv qo‘llangan darslarda motivatsiya o‘rtacha 30 % ga kuchayadi, konstruktivistik yondashuv asosidagi loyihaviy ta’lim esa mustaqil fikrlashni 25-30 % ga rivojlantiradi. Zamonaviy raqamli platformalar o‘quvchining idrok, xotira, tezkor o‘rganish kabi psixologik xususiyatlariga mos tarzda ta’limni individuallashtirishga imkon yaratadi. Bu esa o‘zlashtirish darajasini o‘rtacha 20-30 % ga oshirishi kuzatilgan. Natijada psixologik yondashuvlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: o‘quv jarayonining sifatini va samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarda ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi (40–45 % yaxshilanish), motivatsiya, faollik va mustaqil fikrlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi, o‘qitish jarayonining boshqaruvini osonlashtiradi va natijalarni barqaror qiladi. Umuman olganda, bu integratsiya ta’limni nafaqat o‘rgatish, balki o‘quvchini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan samarali tizimga aylantiradi.

Ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirishi, motivatsiyasini oshirishi va ta’lim samaradorligini sezilarli darajada kuchaytirishi aniqlanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, psixologik yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘zlashtirish 20-30 % ga, faollik 40-65 % ga, motivatsiya esa 30 % ga oshgani kuzatilgan. Raqamli va interfaol texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, hamkorlikda ishlash kabi kompetensiyalarning shakllanishiga keng imkon yaratadi. Umuman olganda, psixologik yondashuvlarning to‘g‘ri qo‘llanishi va innovatsion texnologiyalarning maqsadga muvofiq tanlanishi o‘quvchi shaxsining rivojlanishiga, dars jarayonining sifatli tashkil etilishiga hamda ijobiy psixologik muhit yaratishga xizmat qiladi. Bunday uyg‘un yondashuv ta’limni yanada mazmunli, interfaol va samarali qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: o‘quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda metod va texnologiyalarni tanlash. Raqamli vositalar va interfaol metodlardan individual yondashuv asosida foydalanish. O‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini kuchaytirish uchun muntazam treninglar tashkil etish. Dars jarayonida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o‘quvchining faolligini qo‘llab-quvvatlash. Ta’lim sifatini oshirish uchun muntazam monitoring, tahlil va qayta aloqa tizimini yo‘lga qo‘yish. Loyiha, muammoli vaziyat, guruhli ish kabi metodlarni keng qo‘llab, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

2. Piaget, J. The Psychology of the Child. Basic Books, 1969.

3. Bruner, J. S. The Process of Education. Harvard University Press, 1960.

4. Maslow, A. H. Motivation and Personality. Harper & Row, 1970.

5. McClelland, D. C. The Achieving Society. Van Nostrand, 1961.
6. Рубинштейн, С. Л. Основй Общчей Психологии. Москва: Pedagogika, 1989.

SHAXS SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

"Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti"
Namangan filiali psixologiya
fakulteti ijtimoiy psixologiya yo'nalishi
2- kurs magistranti Sobirova Iroda

Annotatsiya: Dunyoga kelgan go'dak ma'lum vaqtga qadar individ hisoblanadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir. Shaxsning shakillanishida harakat o'ziga xos omil hisoblanadi. Individda harakatlar reflikslar orqali hosil bo'lsa, shaxsda bu harakatlar ongli ravishda hosil bo'lishi ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro'y berishi shaxs revojlanishining dastlabki bosqichi sanaladi.

Kalit so'zlar: Shaxs tushunchasi, individ, inson, ruh aql, bosh miya, shaxsni rivojlantiruvchi omillar, biologik ijtimoiy omillar, irsiyat, muhit, oila muhiti, ijtimoiy muhit, mahalla, maktab, go'daklik davri, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik davri, o'spirinlik davri, jismoniy va ruhiy kamolot, barkamol shaxs. Shaxs go'daklik davrining ma'lum qismida individ hisoblanadi. "Individ" lotincha "Individium" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "bo'linmas, alohida, yagona" ma'nolarini anglatadi. Shaxsning shakillanishida harakat o'ziga xos omil hisoblanadi. Go'dak(chaqaloq) ham turl harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar reflikslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz vashartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Shaxs revojlanishining dastlabki bosqichi, go'dakda nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, ongli ravishda harakatlar sodir bo'la boshlashi, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki kabi belgilar namoyon bo'ladi. Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushiniladi. Shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan o'z xususiyatlari va sifatlari bilan farq qilmog'i lozim. Inson shaxs sifatida rivojlanishi va har ttomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonunyatlarini, unga ta'sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Yuqorida "rivojlanish" tushunchasini ishlatdek. Endi bu tushunchaga kengroq ta'rif berib o'tamiz. Rivojlanish - shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarining takomillashuvini namoyon etadigan jarayon hisoblanadi. Bu xislatlar tug'ma va keyinchalik erishilgan bo'ladi. Shaxsni barkamol inson bo'lib shakillanishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti- harakat , iroda sifatlarining kamol topishi , ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonch ham kata ahamiyatga egadir. Shaxs rivojlanishi quyidagi omillarga bog'liq.

1. Biologik omillar (Irsiyat)
2. Ijtimoiy omillar (Muhit)
3. Maqsadli tarbiya

Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklarning nasl(bola)ga o'tish jarayoni. Irsiyatdan o'tadigan belgilar -anatomik fizialogik tuzilish (yuz tuzilishlari) , qaddi- qomat, teri, soch hamda ko'zlarning rangi, shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakatlar, mehnat, qobilyat, iste'dod alomatlari ham nasildan-nasilga o'tadi. Muhit – bu shaxsning shakillanishiga ta'sir etuvchi tashqi voqia hodisalar majmuyidir. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib , zarur faoliyat bilan shug'illansa erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa, yo'q bo'lishi yoki "mudroq" ligiciliilishi ha qolib ketishi ham mumkin. Pedagogika va psixalogiya fanlari ijtimoiy muhit unda shaxsning shakillanish jarayoniga ta'sir roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy muhit abadiy emas, U ijtimoiy-tarixiy qonunyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi. Oila muhiti o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega jarayon hisoblanadi .

Maqsadli tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi:

1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o‘sishi sodir bo‘ladi.

2. Shaxs o‘zining tug‘ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o‘zgartirish mumkin.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta’siri natijasida yuz beradigan kamchiliklarni tuzatish mumkin.

4. Tarbiya – istiqboldagi maqsadni belgilaydi. Shu bois, shaxs kamolotini ta’minlashdailg‘or rol o‘ynaydi. Shaxsning rivojlanib, kamol topishi, hayotning hamma bosqichidabir xil bo‘lmay, balki yosh xususyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo‘ladi .Tajriba jarayonida o‘sayotgan yosh avlod o‘ziga xos xususiyatlarni bilishi juda zarur.Bir xil yoshdagi o‘quvchi – tarbiyalanuvchining har birining o‘ziga xos xususiyatlari,psixik jarayonlari mavjuddir.

Muayyan yosh davrining guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlardagi o‘zgarishlarga qarab ajratiladi. Go‘daklik davrida bola birmuncha tajriba to‘plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Olti yoshga qadar bola dunyoni, ijtimoiy borliqni to‘laligicha idrok etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri aniq tafakkur bo‘lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o‘sha narsalar haqida fikir yuritadi. kichik maktab yoshi o‘quvchilari esa ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lsalar ham ro‘y berayotgan voqia hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Bu jarayonlar shaxsni rivojlanishida bolaning qarab uning psixikasini o‘rganish va bolani barkamol shaxs qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanishda o‘smir yoshini ahamiyati juda katta hisoblanadi. O‘smirlarda his-tuyg‘ularni idora qilish layoqati endi-endi shakillana boradi. Bu uning xulqida namoyon bo‘ladi. O‘zining har narsaga jahli chiqishi, qo‘pollik holatlari tez-tez yuz beradi. O‘smirlarning bu xususiyati ko‘proq bahs- munozara jarayonida ko‘zga tashlanadi. Garchi o‘z fikri asosli bo‘lmasa-da uni maqullashga urinadi. 13-14 yoshlarda o‘smirlarda burch hissi, mas’uliyat tuyg‘usi o‘sadi, birmuncha vazminlikbo‘la boshlaydi. Bu davirda o‘smirda maqsadga intilish, o‘zi uchun ideal tanlashboshlanadi. O‘smirlarda axloqiy e’tiqod shakillanib, o‘ziga xos qarashlar tarkib topa boradi. Shunday qilib o‘smirlar bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha maslahat berish, do‘st bo‘lish ko‘proq e’tibor qaratish yaxshi natija beradi. O‘smirlik davridan keyin o‘spirinlik davri boshlanadi. O‘spirinlar miya hujayralarining tuzilishida ro‘y bergan takomillashish, asab tizimi va faoliyati mazmunining o‘zgarishiga olib keladi. O‘spirin faoliyatining asosiy turi o‘qish bo‘lib qolaveradi. Bilimlar hajmi kengayadi. Ular ijtimoiy munosabatlar, xususan oila, moliyaviy, me’yoriy, ma’muriy, xo‘jalik, mehnat hamda jismoniy faoliyatlar mohiyatini teran tushinishga intila boshlaydilar. O‘spirinlarda ehtiyoj hamda qiziqish o‘z-o‘zidan ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga bo‘lgan rag‘batni yuzaga keltiradi. O‘spirinlarda shaxsiy faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka intilish yaqqol ko‘zga tashlanadi, bu esa ularda ijtimoiy, xulqiy munosabatlar mazmunini o‘zlashtirishda ijtimoiy faollik ko‘rsatish ehtiyojini yuzaga keltiradi. O‘spirinlardagi qiziqishni inobatga olgan holda ijtimoiy mazmundagi, xususan, “Biznis faoliyatini tashkil etishning ma’naviy asoslari”,”Oldi-sotdi munosabatlarning axloqiy negizlari”, Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari”, “sening huquqiy burchlaring”,”Nikoh-muqaddas bitim”, “Terrozizm – mudhish jinoyat” kabi mavzularda smenar va treninglar tashkil qilish ularni kelgusida kamol topishida juda kata rol o‘ynaydi. Shaxs rivojlanishida bu kabi omillar juda ko‘p. shunday ekan shaxsni shaxs bo‘lishi uzviy ya’ni davomiy bo‘ladi va barkamol shaxs darajasigacha ko‘p bosqichlardan o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pedagogika (J. Hasanboyev, X. To‘raqulova va b.) Toshkent nashr 2011.
2. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori. Toshkent Sharq nashriyot matbaa konserni, 1998.
3. Munavvarov A. K. pedagogika, Toshkent “O‘qituvchi” 1996, 236-62b.
4. G‘aybullayev N. va b. Pedagogika, Toshkent 2000.
5. Savin N. V. Pedagogika Toshkent “O‘qituvchi” 1975.
6. V. Karimova “Ijtimoiy psixologiya va amaliyot” – Toshkent, 2009.

7. Qayumov, B. Z. (2025). O‘SMIRLARDA KREATIVLIK NAMOYON BO‘LISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI, 3(6).

8. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. In *Next Scientists Conferences* (Vol. 1, No. 01, pp. 24-27).

9. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, *1*(6), 750-754.

10. Baxtiyor, Q. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOIY ROLLARNING SHAKLLANISHI

Andijon davlat universiteti
tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
amaly psixologiya 301 gurux talabasi
Xolmaxammatova Orzuxon Farhodjon qizi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rollarning shakllanish jarayoni psixologik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy rol tushunchasining mohiyati, uning bolaning shaxs sifatida kamol topishidagi ahamiyati, o‘yin faoliyati, oila va maktabgacha ta’lim muassasasi muhitining ushbu jarayonga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bolalarda ijtimoiy rollarning egallanishi orqali ijtimoiylashuv, muloqot madaniyati va xulq-atvor me’yorlarining shakllanishi ilmiy asosda izohlanadi. Maqolada klassik va zamonaviy psixolog olimlarning qarashlariga tayangan holda, maktabgacha yosh davrida ijtimoiy rollarning rivojlanishi bolaning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi uchun muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, ijtimoiy rol, ijtimoiylashuv, o‘yin faoliyati, shaxs rivoji, muloqot, oilaviy muhit, tarbiya.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bola o‘zini jamiyatning a’zosi sifatida anglay boshlaydi, atrof-muhit bilan faol munosabatga kirishadi va ijtimoiy tajribani egallashga intiladi. Ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy rollarning shakllanishi bolaning shaxs sifatida kamol topishida alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy rollar orqali bola jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtiradi, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarini tartibga soladi hamda o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy talablar asosida boshqarishni o‘rganadi.

Psixologik adabiyotlarda ijtimoiy rol tushunchasi shaxsning muayyan ijtimoiy vaziyatda bajarishi lozim bo‘lgan xulq-atvor tizimi sifatida talqin qilinadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu rollar dastlab oddiy va bevosita bo‘lib, asosan oilaviy va o‘yin faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Bola “ona”, “ota”, “tarbiyachi”, “shifokor”, “haydovchi” kabi rollarni o‘ynash orqali jamiyatdagi kasbiy va ijtimoiy munosabatlarni ramziy tarzda aks ettiradi. Bu jarayon bolaning tafakkuri, nutqi, emotsional holati va ijtimoiy idrokining rivojlanishiga xizmat qiladi.

L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit yetakchi omil bo‘lib, ijtimoiy tajriba avvalo tashqi faoliyat shaklida, keyinchalik esa ichki psixik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha yoshda ijtimoiy rollarning shakllanishi aynan shu mexanizm asosida amalga oshadi. Bola avval kattalarning xatti-harakatlarini kuzatadi, taqlid qiladi, so‘ngra ushbu harakatlarni o‘yin jarayonida mustaqil ravishda qayta tiklaydi. Natijada ijtimoiy me’yorlar bolaning ichki ehtiyojiga aylanadi.

Ijtimoiy rollarning shakllanishida o‘yin faoliyati yetakchi ahamiyatga ega. D.B. Elkonin nazariyasiga ko‘ra, maktabgacha yosh davrida syujetli-rolli o‘yinlar bolaning asosiy faoliyati

hisoblanadi. Aynan ushbu o‘yinlar orqali bola ijtimoiy munosabatlarni modellashtiradi, rollar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunadi va ijtimoiy mas’uliyat hissini his qila boshlaydi. Masalan, “bog‘cha” yoki “kasalxona” o‘yinlarida bola nafaqat muayyan rolni bajaradi, balki ushbu rolga xos bo‘lgan emotsional holat, nutq va xulq-atvorni ham o‘zlashtiradi. Bu esa ijtimoiy empatiya va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi.

Oilaviy muhit maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rollarning shakllanishida birlamchi ijtimoiy makon hisoblanadi. Ota-ona, aka-uka va opa-singillar bilan bo‘lgan munosabatlar orqali bola “farzand”, “aka”, “opa” kabi rollarni egallaydi. Oiladagi tarbiya uslubi, muloqot madaniyati va emotsional iqlim bolaning ijtimoiy rollarni qabul qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar oilada ijobiy psixologik muhit hukm sursa, bola ijtimoiy rollarni erkin va moslashuvchan tarzda egallaydi. Aksincha, ziddiyatli muhitda tarbiyalangan bolalarda ijtimoiy rollar deformatsiyalangan yoki yetarli darajada shakllanmagan bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim muassasasi esa bolaning ijtimoiy tajribasini kengaytiruvchi muhim institut hisoblanadi. Bog‘cha sharoitida bola tengdoshlar bilan muloqot qilishni, jamoada o‘z o‘rnini topishni va ijtimoiy qoidalarga rioya etishni o‘rganadi. Tarbiyachining pedagogik mahorati va psixologik savodxonligi bolalarda ijtimoiy rollarning to‘g‘ri shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tarbiyachi bolalarga nafaqat rollarni o‘rgatadi, balki ularning mazmunini tushuntiradi, ijobiy xulq-atvorni rag‘batlantiradi va salbiy namoyonlarni yumshatadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli muhit va ommaviy axborot vositalari ham bolalarning ijtimoiy rollariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Multfilmlar, o‘yinlar va internet kontenti orqali bolalar turli ijtimoiy obrazlarni qabul qiladi. Shu sababli kattalarning nazorati va yo‘naltiruvchi roli yanada ortmoqda. Ijtimoiy rollarning sog‘lom shakllanishi uchun bolaga yoshiga mos, axloqiy jihatdan to‘g‘ri va psixologik xavfsiz axborot taqdim etilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy rollarning shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u bolaning shaxsiy rivoji, ijtimoiylashuvi va kelajakdagi jamiyatga moslashuvining asosi hisoblanadi. Oila, o‘yin faoliyati va maktabgacha ta’lim muassasasining uyg‘un hamkorligi orqali bolalarda ijtimoiy rollar samarali shakllanadi. Ushbu jarayonga ilmiy asoslangan psixologik yondashuv bolalarning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – Moskva: Akademiya, 1999.
3. G‘oziyev E. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Leontev A.N. Faoliyat, ong, shaxs. – Moskva: Politizdat, 1977.
6. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar. – Toshkent, 2020.
7. Mudrik A.V. Shaxsning ijtimoiylashuvi. – Moskva: Akademiya, 2006.
8. Vigotskiy L.S. Psixologiya rivojlanishi asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1984.

RAQAMLI PSIXOLOGIYA VA RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA MOSLASHUV

Abdusattorova Sevara Salimjon qizi
Andijon davlat universiteti sirtqi talim shakli
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya yonalishi
5-bosqich 503-guruh talabasi

Anotatsiya: Maqolada raqamli psixologiya fanining shakllanishi, uning nazariy asoslari va inson psixikasiga raqamli texnologiyalar tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’siri ilmiy jihatdan

yoritiladi. Raqamli ta’lim muhiti sharoitida o‘quvchilar va pedagoglarning moslashuv jarayonlari, kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy moslashuvning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: Raqamli psixologiya, raqamli ta’lim, moslashuv, media psixologiya, raqamli kompetensiya, kognitiv jarayonlar, internet psixologiyasi, virtual muhit, sun’iy intellekt, raqamli xavfsizlik.

XXI asrning eng muhim xususiyati inson hayotining barcha sohalarining raqamli muhitga faol kirib borishi bilan tavsiflanadi. Ta’lim, kommunikatsiya, ijtimoiy munosabatlar, biznes, sog‘liqni saqlash kabi sohalar raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashib bormoqda. Shu jarayonda raqamli psixologiya insonning raqamli muhitda o‘zini tutishi, fikrlashi, emotsiyalari va ijtimoiy xulq-atvorini o‘rganadigan ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bugungi raqamli ta’lim muhiti insondan yangi kompetensiyalar, yangi psixologik moslashuv mexanizmlari va raqamli madaniyatni talab qilmoqda. Onlayn ta’lim, masofaviy muloqot, sun’iy intellekt bilan ishlash, katta hajmdagi axborot oqimi inson psixologiyasiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois raqamli psixologiya va raqamli ta’limga moslashuvni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Raqamli psixologiya — bu inson psixikasining raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan psixik hodisa va jarayonlarni o‘rganuvchi fan. Uning paydo bo‘lishi media psixologiya, internet psixologiyasi, kognitiv psixologiya va neyropsixologiya tadqiqotlari bilan bevosita bog‘liq.

Raqamli psixologiya quyidagi jarayonlarni o‘rganadi:

insonning internetdagi xulq-atvori; raqamli vositalar ta’siridagi kognitiv jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur); raqamli muloqotning psixologik talqini; o‘quvchilarning raqamli texnologiyalarga moslashuvi; sun’iy intellekt bilan o‘zaro ta’sirning psixologik modeli; raqamli stress, texno-stress va axborot yuklamasi.

Raqamli vositalarning psixikaga ta’siri

Ilmiy tadqiqotlar quyidagi xulosalarni beradi:

Raqamli muhit diqqatni parchalaydi, doimiy og‘ishlar yuzaga keladi.

Axborot oqimining ko‘pligi kognitiv yuklamani oshiradi (Sweller, 2011).

Virtual kommunikatsiya emotsional yuz ifodalarini to‘liq uzatmagani uchun ijtimoiy sezgirlik pasayishi mumkin.Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar kreativlik va tezkor fikrlashni rivojlantiradi. Raqamli ta’lim muhitida o‘quv jarayoni kompyuter, planshet, mobil qurilmalar, sun’iy intellekt tizimlari, virtual platformalar va onlayn kurslar asosida tashkil etiladi.

Raqamli ta’limning afzalliklari. Bilimga cheklanmas kirish imkoniyati; O‘quv jarayonining moslashuvchanligi; Har bir o‘quvchiga individual o‘quv yo‘li taklif qilish; Interaktiv kontent orqali idrok va xotirani kuchaytirish; O‘quvchining o‘z tezligida o‘rganishi. Raqamli ta’limning psixologik muammolari diqqatning tez chalg‘ishi; raqamli charchoq, texno-stress; ijtimoiy aloqalarning kamayishi; hissiy yorilish (emotional burnout); o‘quvchilarda raqamli qaramlik shakllanishi.

Masalan, tadqiqotlar onlayn darslarda diqqatning o‘rtacha ushlab turilish davomiyligi 12–15 daqiqani tashkil qilishini ko‘rsatadi. Moslashuv – bu o‘quvchi yoki pedagogning raqamli muhit sharoitida yangi vazifalarga psixologik, intellektual va emotsional jihatdan moslashib borish jarayoni.

Kognitiv moslashuv

Bu jarayon quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

axborot oqimini tartiblash;

e’tibor boshqaruvi;

raqamli vositalar bilan samarali ishlash ko‘nikmalari;

multimedia materiallarini tez qabul qilish.

Kognitiv moslashuv kuchli bo‘lgan o‘quvchilar onlayn ta’limni tez qabul qiladi.

Emotsional moslashuv

Emotsional muvozanat raqamli stressga chidamlilikka bog‘liq.

onlayn darslarda o‘quvchi o‘zini yolg‘iz his qilmasligi; muloqotning uzluksiz bo‘lishi; virtual qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratilishi.

Pedagogning ijobiy kommunikatsiyasi emotsional moslashuvni sezilarli darajada oshiradi.

Ijtimoiy moslashuv

Raqamli ta’limda ijtimoiy moslashuv: onlayn jamoalar bilan ishlash, guruhli loyihalar, virtual hamkorlik, muloqotning digital etikasi orqali shakllanadi.

Raqamli kompetensiya — bu o‘quvchi yoki pedagogning raqamli vositalardan ongli, xavfsiz va samarali foydalanish qobiliyati.

Asosiy tarkibiy qismlar:Axborotli savodxonlik, Texnikko‘nikmalar, Media savodxonlik, Raqamli xavfsizlik, Kiberxulq madaniyati, Sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmasi, Raqamli kompetensiya yuqori bo‘lgan shaxslar raqamli ta’lim muhitiga tez moslashadi. Bugungi kunda sun’iy intellekt (SI) raqamli ta’limning asosiy qismiga aylanmoqda. SI asosidagi ta’lim platformalari o‘quvchi psixologik xususiyatlarini o‘rganib, individual ta’lim yo‘lini belgilab berishi mumkin.

Psixologik imkoniyatlar: o‘quv motivatsiyasini aniqlash; qiyinchilik darajasini moslashtirish; xatolarni avtomatik tahlil qilish;m emotsional holat monitoringi.

Shu bilan birga, SI bilan o‘zaro ta’sir axloqiy va psixologik savollarni ham tug‘diradi: shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, o‘quvchilarni algoritmlarga qaram bo‘lib qolish ehtimoli, insoniy muloqotning kamayishi,

Raqamli moslashuvni kuchaytirish uchun quyidagi strategiyalar tavsiya etiladi:

Psixologik strategiyalar e’tiborni boshqarish texnikalari; emotsiya regulyatsiyasi;

digital detoks mashqlari; stressni kamaytirish usullari.

Pedagogik strategiyalar multimodal o‘qitish (video + matn + grafik); o‘quvchini faollashtiruvchi metodlar; moslashuvchan grafik; bilimni vizual tizimda taqdim etish.

Texnologik strategiyalar foydalanuvchi interfeysining soddaligi; SI tahlil asosida individual dars tuzish; raqamli xavfsizlik choralarini kuchaytirish.

Raqamli psixologiya va raqamli ta’lim muhitiga moslashuv zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar insonning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda, shuning uchun o‘quvchi va pedagoglar psixologik jihatdan raqamli sharoitga moslashishi zarur. Raqamli kompetensiyalarning rivojlanishi, raqamli stressni kamaytirish, sun’iy intellektdan samarali foydalanish va psixologik barqarorlikni oshirish ta’lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kelajak ta’limi raqamli texnologiyalar va inson psixologiyasi integratsiyasi asosida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. 2010.
2. Sweller J. Cognitive Load Theory. 2011.
3. Tapscott D. Grown Up Digital. 2009.
4. Buckingham D. Media Education. 2013.
5. Qodirov A. Raqamli psixologiya asoslari. Toshkent, 2022.
6. UNESCO Digital Education Report, 2023.
7. Castells M. The Rise of The Network Society. 2012.
8. Mayer R. Multimedia Learning. 2020.

RAQAMLI SHAXSNING SHAKLLANISHI: ONLAYN VA OFFLAYN “MEN” O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK ZIDDIYATLAR

ADU Fizika yonalishi talabasi
G’anijonova Oygul

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning raqamli makondagi “ideal men” obrazi va real hayotdagi “haqiqiy men” o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik tafovutlar chuqur tahlil qilinadi, ularning shakllanish mexanizmlari zamonaviy psixologiya nazariyalari asosida yoritiladi. Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda e’tibor, izoh va bildirishnomalarga qaramlik insonning o‘zini baholashi, emotsional barqarorligi va ruhiy salomatligiga qanday ta’sir qilishi ilmiy nuqtai nazardan o‘rganiladi. Ushbu maqolada virtual makonda o‘zini ijobiyroq ko‘rsatish istagi natijasida paydo bo‘ladigan ziddiyat, tashvish va ichki konfliktlar shaxsning kundalik hayotidagi xulq-atvori bilan bog‘lab izohlanadi.

Kalit so’zlar; Raqamli shaxs, virtual identifikatsiya, onlayn “men”, offlayn “men”, ideal obraz, ijtimoiy tarmoqlar, o‘zini baholash, psixologik moslashuv, emotsional bosim, ijtimoiy solishtirish, internet qaramlik, o‘zini taqdim etish, raqamli ziddiyat, shaxsiy rivojlanish, virtual kommunikatsiya, psixologik xavotir

Raqamli muhit inson psixologiyasini tubdan o‘zgartirayotgan eng kuchli omillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda, chunki ijtimoiy tarmoqlar shaxsning kundalik hayotida doimiy psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining virtual sahifasi orqali atrofdagilar ko‘zi oldida qanday ko‘rinishni xohlasa, aynan shunday obraz yaratishga intiladi va bu identifikatsiya jarayonini murakkablashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o‘zlarini ideallashtirilgan ko‘rinishda taqdim etishi real hayotdagi o‘zlikdan uzoqlashuvga olib kelishi mumkin. Ko‘pincha insonlar ijtimoiy tarmoqdagi imidjlarini saqlab qolish uchun hissiyotlarini yashiradi va real his-tuyg‘ularini virtual niqob ostiga joylashtiradi. Raqamli muloqotda yuz ifodalari, tana tili yo‘qligi sababli emotsiyalar filtrlab uzatiladi va bu hissiy aloqalarning chuqurligiga putur yetkazadi. Virtual dunyoda o‘zini erkin namoyon qilish imkoniyati insonni real muhitda yuzlashishi kerak bo‘lgan vazifalar va mas’uliyatlardan uzoqlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda kuchli vizual ta’sir insonni tashqi ko‘rinish va mavqega haddan ortiq e’tibor berishga undaydi. Har kuni boshqalar hayotini kuzatish insonda taqqoslash sindromini shakllantiradi va bu o‘zini past baholash xavfini oshiradi. Ko‘pchilik odamlar o‘z hayoti boshqalarnikidan ortda qolyapti degan fikrni o‘ylab, ruhiy tushkunlikka tushib qoladi.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, doimiy taqqoslash stress va xavotir darajasini orttiradi. Layklar, sharhlar va kuzatuvchilar soni odamning o‘zini qadrlash mezoniga aylanganda psixologik qaramlik kuchayadi. Raqamli e’tiborga bog‘lanib qolgan shaxs, e’tibor kamayganda o‘zini keraksiz his qilishi mumkin. Shaxsning ijtimoiy tarmoqlarga psixologik qaramligi real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning zaiflashuviga olib keladi. Doimiy onlayn bo‘lish istagi insonni aqliy hordiqdan mahrum qiladi va miyasiga haddan ortiq yuk tushiradi. Aniqlanganidek, uzluksiz bildirishnomalar va xabar kutish holati psixikani doimiy hushyorlikka majbur qiladi. Bu esa uyqu sifatining buzilishiga, diqqatning tarqoqlashishiga va ish samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt sarflovchi yoshlar doimiy ravishda tasdiqlanishga muhtoj bo‘lib boradi. Virtual muhitda olingan qisqa muddatli lazzatlar uzoq muddatli motivatsiyani pasaytiradi. Shaxsning e’tibor markazi doimiy rag‘bat izlashga ko‘chadi va bu odatni tark etish qiyin bo‘ladi. Ko‘p tadqiqotlarda qayd etilishicha, ijtimoiy tarmoqlardan cheklangan foydalanish inson ruhiy salomatligi uchun foydaliroqdir. Raqamli hayotning tezkorligi vaqtning psixologik idrokini buzadi: vaqt juda tez o‘tyotgandek his qilinadi. Odamlar vaqtni ko‘proq internetda sarflab, real faoliyatga kamroq e’tibor qaratadi. Virtual aloqa osonligiga qaramay, real ijtimoiy qo‘rquv kuchayishi mumkin, chunki odam yuzma-yuz muloqotda o‘zini erkin his etmay qo‘yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘plab tanishlar orttirish mumkin bo‘lsa-da, chuqur va ishonchli munosabatlar kamayadi. Bu holat yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib keladi, garchi inson virtual dunyoda minglab “do‘stlar”ga ega bo‘lsa ham. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsga o‘zini yangidan kashf qilish va ijodkorlik imkoniyatini beradi, lekin shu bilan birga ruhiy himoyasizlikni ham kuchaytiradi.

Virtual jamoalarda inson o‘z fikrini oson bildira olganiga qaramay, salbiy sharhlar unga kuchli psixologik zarba bo‘lishi mumkin. Kiberta’qib va onlayn agressiya stress, tashvish va ishonchsizlikni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Anonimlik sababli odamlar real hayotda aytolmaydigan so‘zlarni aytib, boshqalarga ruhiy zarar yetkazadi. Shaxsning ruhiy chegaralari buzilganda, u o‘zini himoyasiz his qiladi va bu ruhiy travmaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlardagi integratsiyalashgan reklama inson xulqiga ong osti orqali ta’sir ko‘rsatadi va iste’molchilikni kuchaytiradi. Inson doimiy tarzda axborot oqimi ichida bo‘lgani uchun miyasiga dam berishga vaqt qolmaydi. Axborot ortiqligidan charchash (information overload) diqqatning buzilishi va qaror qabul qilish qiyinchiligini kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan cheklanmagan axborot insonni fikran tarqoqlashtirib, ma’lumotni chuqur tahlil qilish qobiliyatini pasaytiradi. Insonlar algoritmlar boshqaradigan axborot muhitida yashayotganini sezmay qoladi va bu mustaqil fikrlashga ta’sir qiladi. Algoritmlar shaxsga aynan qaysi kontentni ko‘rsatishi orqali uning qiziqishlari va e’tiqodlarini shakllantiradi. Bu holat psixologik manipulyatsiya shakllaridan biri sanaladi va ruhiy mustaqillikni zaiflashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda yaratiladigan mukammallik illyuziyasi haqiqiy hayotdagi kamchiliklarni qabul qilishni qiyinlashtiradi. Ba’zi yoshlar o‘zini kamerada ko‘rinadigan qiyofasiga qarab, jismoniy ko‘rinishidan norozi bo‘la boshlaydi. Ko‘rinishidan norozi bo‘lish tana haqidagi tashvishlarni kuchaytiradi va ba’zan depressiyaga sabab bo‘ladi.

Virtual muhitda inson o‘zini doimiy ravishda boshqalar talablari va trendlariga moslashtiradi. Bu esa shaxsiy qadriyatlarning o‘zgarishiga olib keladi va mustaqil fikr yuritishni qiyinlashtiradi. Raqamli platformalarda soxta axborot va manipulyativ kontentga duch kelish ruhiy xavotirlarni kuchaytiradi. Axborot ishonchliligining pasayishi insonni chalkash fikrlashga olib keladi va psixologik beqarorlikni orttiradi. Doimiy raqamli tashvish shaxsning ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ishonchini ham pasaytiradi. Virtual olamdagi ijobiy stimullar tezda tugaganida, inson o‘zining psixologik bo‘shligini chuqurroq his qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar vaqt o‘tishi bilan maqsadsiz foydalanishga aylanib qolishi va bu odamni ichki bo‘shlikka olib kelishi mumkin. Psixologlar fikricha, raqamli hayotning ko‘rinishi ko‘pincha hissiy ehtiyojlardan qochish strategiyasiga aylanadi. Bu strategiya psixikani vaqtinchalik yengillik bilan ta’minlasa-da, muammo ildizini hal qilmaydi. Inson real hayotiy muammolardan qochib virtual qulay zonaga yashiringan sari ruhiy zaiflik kuchayadi.

Raqamli psixologik mavjudlik shaxsning ruhiy energiyasini sezilarli darajada iste’mol qiladi va bu charchoqni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy tarmoqlarga haddan ziyod qaram bo‘lgan insonlar o‘z hayotlari ustidan nazoratni yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Bu qaramlik xulq-atvorini boshqarish qiyinlashadi va ruhiy salomatlik muammolari kuchayadi. Tadqiqotlarda qayd etiladiki, ijtimoiy tarmoqlardan me’yorida foydalanish inson uchun foydali, lekin chegaradan o‘tish ruhiy salomatlikni izdan chiqaradi. Demak, raqamli muhit inson psixologik hayotining ajralmas qismi bo‘lib bormoqda va u shaxs ongining yangi shakllanish bosqichiga aylanmoqda. Raqamli psixologik mavjudlikning rivojlanishi psixologiya fanidan yangi yondashuv, yangi tadqiqot metodlari va kompleks o‘rganishni talab etadi. Bugun psixika ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yangicha shakllanayotgan bo‘lsa, ertaga bu jarayon ruhiy evolyutsiyaning asosiy yo‘nalishiga aylanadi. Virtual olamning cheksiz imkoniyatlari inson ongini kengaytirsa-da, ruhiy xavflar va mas’uliyatni ham orttiradi. Raqamli hayot bilan real hayot o‘rtasida muvozanatni topa olish shaxsning eng muhim psixologik ko‘nikmalaridan biriga aylanmoqda. Agar inson raqamli mavjudlik va real mavjudlikni uyg‘unlashtira olsa, ruhiy salomatlik barqaror bo‘ladi. Aks holda, virtual dunyo shaxsni o‘zi yaratgan sun’iy haqiqat ichida yo‘qotib qo‘yishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli psixologik mavjudlik shaxsning ongiy evolyutsiyasi jarayonida paydo bo‘lgan, real va virtual haqiqat o‘rtasidagi chegaralarni keskin o‘zgartiruvchi

murakkab psixologik hodisa sifatida inson ruhiyatining har bir qatlamiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli muhitda shaxs o‘zini ideallashtirilgan obraz orqali namoyon etishi real hayotdagi o‘zlik bilan mos kelmaydigan psixologik ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu holat o‘zini anglash jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi. Virtual aloqalar inson o‘rtasidagi muloqotni osonlashtirsada, ular vaqt o‘tishi bilan hissiy chuqurlikdan mahrum bo‘lib, ijtimoiy yaqinlikning barqarorligini susaytirishi mumkin bo‘ladi. Shaxs raqamli maydonda o‘zligining turli ko‘rinishlarini yaratishi natijasida bir vaqtning o‘zida bir nechta rolni bajarishga majbur bo‘ladi, bu esa psixologik moslashuvchanlikni oshirgan holda ruhiy charchoq xavfini ham kuchaytiradi.

Raqamli kommunikatsiyaga ortiqcha bog‘liqlik insonning real ijtimoiy munosabatlariga bo‘lgan ehtiyojini pasaytirib, psixologik izolyatsiya va yolg‘izlik hissini keltirib chiqara oladi. Virtual muhitda muvaffaqiyat raqamli ko‘rsatkichlar asosida baholanishi shaxsning o‘zini qadrlash darajasini tashqi omillarga bog‘lab qo‘yadi va ichki barqarorlikning zaiflashuviga sabab bo‘ladi. Emotsional tajribalar virtual muhitda ham real fiziologik reaksiya bilan kechgani sababli inson psixikasiga chuqur iz qoldirishi ham mumkin, lekin ular ko‘pincha tezda so‘nib ketuvchi vaqtinchalik hissiyotlar bilan chegaralanadi. Natijada, raqamli psixologik mavjudlik fenomeni inson ruhiyatining yangi davrda qayta shakllanishi, uning imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, mas’uliyatli va ehtiyotkor yondashuvni ham talab etadigan dolzarb psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.

2. Przybylski, A. K., & Weinstein, N. (2019). Digital screen time and psychological wellbeing: Evidence from a population study. Computers in Human Behavior, 93, 13–24.

3. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2017). Social Networking Sites and Addiction: Ten Lessons Learned. International Journal of Environmental Research and Public Health, 14(3), 311–330.

4. Goggin, G. (2021). Digital Media and Society. Polity Press.

5. Howard, P. N. (2020). Lie Machines: How to Save Democracy from Troll Armies, Deceitful Robots, Junk News Operations. Yale University Press.

6. Nash, K. (2022). Identity in the digital age: Psychological implications of online self-presentation. Journal of Cyber Psychology, 8(2), 45–62.

“ILK BOLALIK DAVRIDA IJTIMOIY RIVOJLANISHNING PSIXALOGIK RIVOJLANISHI (1–3 YOSH)”

ADU G‘aniyeva O‘g‘iloy Nurmahammat qizi
ADU fizika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola ilk bolalik davri (1–3 yosh) da shakllanadigan asosiy psixik jarayonlarning mazmuni va ularning bola rivojlanishidagi o‘rni haqida batafsil ma’lumot beradi. Ilk bolalik inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu yillarda idrok, xotira, tafakkur, nutq va emotsional holatlar jadal sur'atlar bilan rivojlanadi. Maqolada bolaning atrofmuhit bilan o‘zaro ta’siri, o‘yin faoliyatining psixik rivojlanishga ta’siri, mustaqillikning kuchayishi, kattalar bilan emotsional muloqotning barqarorlashuvi ilmiy yondashuv asosida tahlil qilingan..

Kalit so'zlar: Ilk bolalik davri, 1–3 yosh, psixik rivojlanish, idrok, xotira, tafakkur, nutq rivoji,emotsional rivojlanish, sensor-motor jarayonlar, ijtimoiy muloqot, shaxs shakllanishi, rivojlanish omillari.

Bolalikning ilk davri – bu inson rivojlanishining go‘daklikdan keyingi va o‘rta bolalikdan oldingi bosqichidir. Bu bosqich bir necha yillarni o‘z ichiga oladi va bu davrni o‘yin yoshi deb ham ataladi.Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yaxshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo‘lganliklari tufayli bu davrda psixik jihatdan tez rivojlanadi. Ma’lumki, ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay, yugurish, sakrash hamda baland va past to‘siqlardan oshib o‘tish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar.

Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bolalaming ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarakatrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi. Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo‘q bo‘lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o‘zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinish, ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlami o‘zlashtira boshlaydi. Bog‘chagacha tarbiya yoshidagi bola o‘zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay, ko‘z o‘ngidagi hamma narsalami tekshirib ko‘radi. Natijada juda ko‘p yangiliklarni bilib oladi, o‘zining sezgi va idrokini, tasavvur va xotirasini, tafakkur va nutqini, hissiyot va xayolini — umuman hamma psixik jarayonlarini rivojlantiradi.

Bu yoshdagi davrda sezgilaming rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog‘liqdir. Ikki yoshdan oshgan bolaning sezgilari (ko‘rish, eshitish, hid va ta’m bilish, teri va harakat kabi) uning har kungi xilma-xil harakatlari davomida turli narsalaiga bevosita to‘qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Bolaning sezgisi rivojlangan sari idroki ham rivojlana boshlaydi. Bu yoshdagi bolalaming idroki ko‘pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi, ya’ni ularning idrokida muayyan bir maqsadni ko‘zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko‘chib keta veradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo‘lgani uchun ular o‘zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg‘otadigan narsalarni idrok qiladilar.Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalami umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalami qanday bo‘lsa shundayligicha idrok qiladilar. Bu xususiyat ularning rasmlami idrok qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko‘rsatilsa, hayron bo‘lib, otning o‘zi qani, deb so‘raydi.Bola idrokining takomillashuvida so‘z katta ahamiyatga ega. Bola so‘z yordamida o‘xshash narsalami oddiygina guruhlaiga ajrata boshlaydi.

Ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalami to‘g‘ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yo‘q. Bir yoshgacha bo‘lgan bolalaming diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo‘lsa, ikki yoshga to‘lgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi.Bola o‘sib ulg‘aygan sari uning diqqati barqaror bola boshlaydi. Diqqatning ozmi-ko‘pmi barqaror bola boshlagani shundan ko‘rinadiki, bola o‘zini qiziqtiigan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug‘ullana oladi. Ikki yoshga to‘lib, uch yoshga qadam qo‘ygach so‘zlarni tushunadi. So‘z boyligi ortgach, bolaning o‘ziga xos bo‘lgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalari, ya’ni analiz, umumlashtirish kabilami ko‘ramiz. Ular qo‘llaridagi o‘yinchoqlarini yoki qo‘llariga tushgan narsalarni paypaslab, buzib analiz qiladilar. Lekin sintez qilishga hali qurblari yetmaydi. Bu yoshning oxiriga kelib tafakkurning o‘sishida nutqning roli juda oshadi. Jan Piaget (Jean Piaget) 1–3 yoshdagi bolalar tafakkuri va xotirasini ob’ektning doimiyligi tajribasi orqali isbotlagan. U bola ko‘z o‘ngida o‘yinchoqni yashirgan. 1 yoshda bola uni qidirmaydi – “yo‘q bo‘ldi” deb o‘ylaydi, 2 yoshga yaqin bola yashirilgan narsani qidirib topadi. Bu tajriba orqali, 2 yoshdan boshlab bola ko‘rinmayotgan narsaning ham mavjudligini eslab, aqliy tasavvur qila oladi.

Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bolmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi, lekin bu asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Nutqning o‘sishi bola xayolining o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar kattalarning gaplariga tushunadigan bo‘lgach, har xil ertak va hikoyalami qiziqib tinglaydi. 1–3 yoshdagi bolalarda xotira asosan ixtiyorsiz shaklda rivojlanadi: bola ko‘proq qiziqtirgan, ko‘p takrorlangan va hissiy ta’sir qilgan voqealarni oson eslab qoladi. Bu davrda tasvirli xotira (ko‘rgan narsasini eslab qolish), harakat xotirasi (o‘rgangan harakatlarni takrorlash) va nutq orqali eslab qolish tez kuchayadi.

Emotsional tajribalar — mehr, quvonch, o‘yin — xotiraning shakllanishida eng muhim omillardan biridir. Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma’lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o‘sgan bola tevarak-atrofdagi har xil narsalaiga ongli munosabatda bola boshlaydi. Bola o‘zining turli ehtiyojlarini anglab, o‘zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o‘z sezgilarini tevarak-atrofdagi narsalardan ajratib, o‘z-o‘zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalaming so‘z boyligida o‘z shaxsini bildiruvchi “men” degan olmosh tez-tez uchrab turadigan boladi. Ana shu tariqa bola juda elementlar tarzda bolsa ham o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. A.P. Usova aytganidek uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruhga birlashib, 3-5 daqiqa birga o‘ynay olashadi.

Xulosa qilib aytganda 1–3 yosh davri bolaning psixik rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Shu yoshda shakllanadigan idrok, diqqat, xotira, nutq, tushuncha, fantaziya va ijtimoiy qobiliyatlar uning kelajakdagi bilim olish, muloqot va ijodiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bolaning o‘rganishi va rivojlanishida ota-ona roli ajralmas ahamiyatga ega: ular mehrmuhabbat, xavfsizlik va doimiy muloqot orqali bolaga hissiy barqarorlik beradi, o‘yinda ishtirok etish orqali tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, shuningdek, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu bois, ilk bolalik davri nafaqat bolaning shaxsiyati va hissiy dunyosini shakllantiradigan davr, balki ota-ona qo‘llab-quvvatlashi bilan uning intellektual, ijtimoiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.

2. Sunnatova R. Rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.(1–3 yosh psixik rivoji, xotira, idrok va emotsional rivojlanish haqida bo‘limlar mavjud.)

3. Jalilova S. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2015. (Ilk bolalik davri psixik jarayonlari, sensor-motor rivojlanish keng yoritilgan.)

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi metodik qo‘llanmalari (2019–2023).

SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISH SHART-SHAROITLARI

ADU Fizika-matematika fakulteti Fizika yo`nalishi talabasi
Mamajonova Madinabonu Rasuljon qizi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola shaxsning individual psixologik xususiyatlari, xususan, temperament, xarakter va qobiliyatlarning mohiyati, nazariy asoslari, shakllanishi va shaxs rivojlanishidagi o‘zaro aloqasini har tomonlama o‘rganadi. Maqolada temperamentning tarixiy va zamonaviy nazariyalari, jumladan, Gippokrat, Galen va Pavlovning yondashuvlari tahlil qilinadi hamda uning biologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xarakterning ijtimoiy-psixologik shakllanish mexanizmlari, uning tuzilmasi va shaxs axloqiy-etik qiyofasini belgilashdagi ahamiyati yoritiladi

Kalit so‘zlar: Individual psixologik xususiyatlar, temperament, xarakter, qobiliyat, shaxs, psixologiya, rivojlanish, nazariyalar

Inson shaxsini tushunish va uning xulq-atvorini bashorat qilish psixologiya fanining eng markaziy masalalaridan biridir. Har bir inson o‘ziga xos, takrorlanmas individual psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu xususiyatlar uning hayot yo‘lida qanday fikrlashi, his qilishi va harakat qilishini belgilaydi. Bu xususiyatlar turli darajada tug‘ma va orttirilgan bo‘lib, shaxsning

jamiyatdagi faoliyati, muloqoti va o‘zini namoyon qilishida muhim rol o‘ynaydi. Individual psixologik xususiyatlar majmuasining asosiy komponentlari sifatida temperament, xarakter va qobiliyatlar ajratiladi. Ushbu maqola mazkur tushunchalarning mohiyatini chuqur tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqliklarini ko‘rib chiqish va shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini yoritishni maqsad qilgan. Ushbu psixologik tuzilmalarni anglash nafaqat nazariy ahamiyatga ega, balki ta’lim-tarbiya jarayonlari, kasbiy yo‘nalishni tanlash va shaxsiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda ham amaliy tatbiqlarga ega.

Individual psixologik xususiyatlarga doir tadqiqotlar psixologiya fanining eng qadimgi va doimiy dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Temperament tushunchasi tarixiy jihatdan qadimgi Yunoniston olimi Gippokrat (miloddan avvalgi V asr) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u inson tanasidagi to‘rt suyuqlik (o‘t, qon, qora o‘t, shilliq) asosida xolerik, sangvinik, melanxolik va flegmatik temperament turlarini ilgari surgan. Galen keyinchalik ushbu nazariyani yanada rivojlantirib, temperamentni "hayotiy suyuqliklar" nisbati bilan bog‘lagan. Zamonaviy psixologiyada temperament tushunchasi inson psixik jarayonlarining barqaror dinamik xususiyatlari, ya’ni ularning tezligi, ritmi va intensivligini anglatadi. U yuqori nerv faoliyatining fiziologik asosini tashkil etadi va xarakter rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

I.P. Pavlov temperamentga ilmiy asos berib, uni nerv jarayonlarining kuchi, muvozanati va harakatchanligi bilan bog‘liq yuqori nerv faoliyati turi sifatida ta’riflagan. Uning nazariyasi Gippokratning an’anaviy tasnifini ilmiy nuqtai nazardan izohlab berdi. Bugungi kunda ham ushbu klassifikatsiyalar inson xulq-atvori, hissiy reaksiyalari tezligi va ijtimoiy muhitga moslashishini tahlil qilishda qo‘llaniladi. Shuningdek, temperament turlarini aniqlash bo‘yicha turli savolnomalar, shu jumladan, ekstroversiya va emotsional barqarorlikni o‘lchaydigan shkalalar mavjud. Xarakter tushunchasi esa yunoncha "charaktir" so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, shaxsning ijtimoiy muhitda shakllangan, barqaror psixologik xususiyatlari majmuini ifodalaydi. U insonning o‘zini va boshqalarni idrok etishini, shuningdek, uning xulq-atvorini belgilaydi. Fiziologik jihatdan dinamik stereotiplar xarakter shakllanishiga hissa qo‘shadi, temperament esa uning individual namoyon bo‘lishi uchun muhim psixologik shart hisoblanadi.

Xarakterning tuzilishi o‘zaro bog‘liq psixologik xususiyatlar, ya’ni simptom komplekslaridan iborat bo‘lib, ular to‘rt tizimga bo‘linadi: boshqalar bilan munosabat (masalan, mehribonlik, takabburlik), mehnatga munosabat (masalan, tirishqoqlik, dangasalik), buyumlarga munosabat (masalan, tartiblik, ehtiyotkorlik) va o‘z-o‘ziga munosabat (masalan, o‘zini hurmat qilish, kamtarlik). Xarakter tug‘ma emas, balki tarbiya va ijtimoiy sharoitlar orqali rivojlanadi va o‘zgaruvchan bo‘ladi. Odatlar ham uning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xarakterologiya esa uning mohiyati, tuzilishi va turlarini o‘rganuvchi ixtisoslashgan psixologik sohadir. Qobiliyatlar masalasi ham shaxs psixologiyasida alohida o‘rin tutadi, biroq taqdim etilgan adabiyotlarda bu borada bevosita ma’lumotlar kam. Umumiy psixologik nazariyalarga ko‘ra, qobiliyatlar shaxsning ma’lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlarini ifodalovchi individual-psixologik xususiyatlardir. Ular tug‘ma moyilliklar (laddatlar) asosida shakllanib, ta’lim, tarbiya va amaliy faoliyat jarayonida rivojlanadi.

Qobiliyatlar tasnifi ancha keng bo‘lib, umumiy va maxsus, nazariy va amaliy, intellektual, ijodiy, kommunikativ va tashkiliy kabi turlarga bo‘linadi. Ularni baholashda psixologik testlar, kuzatishlar va faoliyat natijalari tahlili kabi usullardan foydalaniladi. Shaxsiy psixologik xususiyatlar shaxsning o‘ziga xosligi, takrorlanmasligini ta’minlovchi individual farqlardir. Bu xususiyatlar insonning dunyoni idrok etish, fikrlash, his-tuyg‘ularni boshdan kechirish va harakat qilish tarzini belgilaydi. Ular tug‘ma moyilliklar (genotipik konstitutsion tur) va hayot davomida orttirilgan ijtimoiy tajriba (fenotipik) o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Individual psixologik xususiyatlarni tushunish shaxs psixologiyasi, differensial psixologiya va yosh psixologiyasining asosini tashkil etadi. Mazkur xususiyatlar majmuasi insonning moslashuvchanligini, ijtimoiy munosabatlardagi faolligini va shaxsiy samaradorligini tushunish uchun kalit hisoblanadi. Temperament – bu shaxs psixik faoliyatining dinamik xususiyatlarini, ya’ni uning tezligini, ritmini va intensivligini, shuningdek, hissiy reaksiyalarning barqarorligini belgilovchi tug‘ma individual

xususiyatlar majmuidir. U faoliyatning mazmuni bilan emas, balki uning bajarilish usuli, "qanday" bajarilishi bilan bog‘liq. Temperamentning fiziologik asosi yuqori nerv faoliyati xususiyatlariga borib taqaladi.

Temperament xarakter rivojlanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qilsa, xarakter o‘z navbatida qobiliyatlarni rivojlantirish va ulardan samarali foydalanishga ta’sir qiladi. Ushbu tushunchalarni chuqur tushunish psixologiya fanining nazariy asoslarini mustahkamlash bilan birga, keng qamrovli amaliy tatbiqlarga ham ega. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning temperament va xarakter xususiyatlarini hisobga olish, ularga individual yondashish, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun qulay sharoitlar yaratish pedagogik samaradorlikni oshiradi. Kasbiy yo‘nalishni tanlashda temperament, xarakter va qobiliyatlarning uyg‘unligini inobatga olish shaxsning kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi va kasbiy yonishning oldini oladi. Shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini rivojlantirishda ham o‘zining individual psixologik xususiyatlarini anglash, kuchli tomonlaridan samarali foydalanish va zaif tomonlarini ustida ishlash imkonini beradi. Natijada, ushbu murakkab psixologik tuzilmalarni o‘rganish insonning to‘liqqonli va samarali hayot kechirishi uchun fundamental ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Strelau, J. Temperament: Psixologik nuqtai nazar. New York: Plenum Press, 1983.

2. Peterson, C., & Seligman, M. E. P. Xususiyat Kuchli Tomonlari va Fazilatlar: Qo'llanma va Tasnif. Washington, DC: American Psychological Association; New York: Oxford University Press, 2004.

3. Cloninger, C. R., Svrakic, D. M., & Przybeck, T. R. "Temperament va Xarakterning Psixobiologik Modeli." Umumiy Psixiatriya Arxivlari, vol. 49, no. 12, 1993, pp. 975-986.

4. Sternberg, R. J. "Muvaffaqiyatli Intellekt Nazariyasi." Umumiy Psixologiya Sharhi, vol. 3, no. 4, 1999, pp. 292-316.

5. Rothbart, M. K. "Temperament va Shaxsiyatning Rivojlanishi." Shaxsiyat va Ijtimoiy Psixologiya Jurnali, vol. 78, no. 1, 2000, pp. 122-132.

INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘SMIRLAR RUHIYATIGA TA’SIRI

Muhiddinova Hafizaxon
ADU fizika yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ruhiy salomatligiga ta’siri, ularning onlayn va real hayotdagi balansni saqlash zaruriyati va raqamli savodxonlikning ahamiyati haqida batafsil tahlil qilinadi. Maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning salbiy va ijobiy tomonlari, psixologik stress, depressiya, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash va virtual “rol”larga qaramlik kabi muammolar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqola raqamli asrda yoshlar psixologik barqarorligini saqlashning strategik yo‘llarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, ruhiy salomatlik, onlayn muloqot, raqamli savodxonlik, media savodxonlik, raqamli gigiyena, depressiya, virtual “rol”, yoshlar, balans.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar deyarli barcha yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, intensiv va nazoratsiz internetdan foydalanish ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Ortga chekinmasdan ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan vaqt depressiya va tashvish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Doimiy “ideal hayot” tasvirlarini ko‘rish yoshlarni o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga undaydi. Bunday taqqoslash

o‘zini yetarli deb bilmaslik hissi va komplekslar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda kiber-ta’qib va salbiy izohlar yoshlar psixikasiga zarar yetkazadi.“Do‘stlar soni” va “like” bilan o‘lchanadigan qabul qilinish instinkti me’yordan ortiq onlayn faollikka olib keladi. Onlayn faollik real hayotdagi muloqot o‘rnini bosishi mumkin.

Virtual munosabatlar real do‘stlik va yuzma-yuz suhbatlarni siqib chiqaradi. Bu holat yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarining zaiflashishiga sabab bo‘ladi. Onlayn va real hayot orasidagi chegarani aniqlay olmaslik shaxsiy identifikatsiya muammolarini keltirib chiqaradi. Yoshlar real muammolarni onlaynda yashirish vositasi sifatida ko‘radi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar faqat salbiy emas, ular ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va yangi do‘stliklar imkonini beradi. Qiziqishlar, hobbi va ta’lim bilan bog‘liq guruhlar yoshlarni ijobiy muhit bilan ta’minlaydi.Onlayn ta’lim va malaka oshirish imkoniyatlari bugungi kunda kengaygan. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun imkoniyatlar manbai bo‘lishi mumkin, agar ular ongli ishlatilsa. Texnologiyalar tez o‘zgarib boradi, bu esa yangi psixologik xatarlarni keltirib chiqaradi.

2025-yil tadqiqotlari ortiqcha internetdan foydalanish depressiya va ruhiy tushkunlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tarmoqlardagi salbiy kontent yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatiga ta’sir qiladi. Axborotni tanqidiy baholay olmaslik manipulyatsiyalarga olib keladi.Ijtimoiy tarmoqlardan mo‘tadil foydalanish foydali, haddan tashqari esa muammo tug‘diradi. “Raqamli gigiyena” tushunchasi yoshlar uchun muhimdir. Media savodxonlik yoshlarni manipulyatsiyadan himoya qiladi. Ota-ona va pedagoglar yoshlarni onlayn xatarlar haqida ogohlantirishi lozim. Maktablarda raqamli savodxonlik bo‘yicha darslar foydali bo‘ladi. Ochiq suhbat va qo‘llab-quvvatlash yoshlar ruhiy salomatligi uchun muhimdir.

Onlayn va offlayn hayot balansda bo‘lsa, raqamli muhit foydali bo‘ladi. Aks holda, ruhiy salomatlik va ijtimoiy ko‘nikmalar zarar ko‘radi. Har bir o‘smir raqamli muhitda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan ta’lim va ijod uchun foydalanishi kerak. Ekran oldida sarflangan vaqt va real hayot faoliyati muvozanatda bo‘lishi lozim. Uyqu sifati internetdan foydalanishga bog‘liq. Kechga yaqin telefon va video ko‘rish uyqu rejimini buzadi. Uyqusizlik diqqat va o‘qishga ta’sir qiladi. Ko‘p onlayn kontent emotsional zo‘riqishga olib keladi. Psixologik stress va hissiy beqarorlik holatlari ko‘payadi. Yoshlar virtual “rol”larga bog‘lanib, o‘zligini unutadi. Bu identifikatsiya va o‘ziga bo‘lgan hurmatni pasaytiradi. Ba’zi o‘smirlar virtual muvaffaqiyatga intilib, real maqsadlarni unutadi. Shaxsiy rivojlanish va maqsadlar ikkinchi planga tushadi. Yuzma-yuz suhbatlar kamayadi, ijtimoiy ko‘nikmalar zaiflashadi.

Ota-ona va pedagoglar salbiy tomonlarni ochiq tushuntirishi kerak. Faoliyat ko‘ngilochar, ta’lim va ijodga asoslangan bo‘lishi lozim. Yoshlarni raqamli savodxonlikka o‘rgatish zarur. Axborotni tahlil qilish va filtrlar yordamida manipulyatsiyadan himoya qilish kerak. Media savodxonlik va kontentni tanqidiy baholash ko‘nikmasi zarur. Shaxsiy ma’lumotlar va onlayn xavfsizlikni tushunish muhim. O‘smirlar onlayn va real hayotni ajrata olishi kerak. Raqamli muhitda o‘sishga yordam beruvchi funksiyalar ko‘p. Onlayn kurslar va o‘quv guruhlari yoshlar imkoniyatini kengaytiradi. Yangi do‘stlar va qiziqish guruhlari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash beradi.

Hulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida faqat vosita emas, balki kuchli ta’sir kuchiga ega muhit ekanligi aniqlandi. Ular ruhiy salomatlik, o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yo‘lni belgilaydi. Ortga chekinmasdan o‘smirlar virtual dunyoga qaramlikka tushishi mumkin, bu esa real hayotni unutishga yetaklaydi. Depressiya, tashvish, uyqusizlik va emotsional zo‘riqish kabi muammolar internetdan haddan tashqari foydalanish bilan bevosita bog‘liq. Har bir “like” va “follow” yoshlar uchun kichik, lekin keskin stress manbaiga aylanadi.

Onlayn taqqoslash hissi shaxsiy qadr-qimmat va o‘ziga bo‘lgan hurmatni sezilarli darajada pasaytiradi. Ammo internet va ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ishlatilsa, yoshlarni rivojlantiruvchi va ilhomlantiruvchi vosita bo‘lishi mumkin. Raqamli savodxonlik va media savodxonlik har bir yosh uchun himoya qalqoni vazifasini bajaradi. Ota-ona va pedagoglarning doimiy qo‘llab-quvvatlashi yoshlarning onlayn xavfsizligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Real hayot va virtual dunyo o‘rtasidagi me’yorni anglash yoshlar ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Har bir o‘smir shaxsiy

chegaralarni belgilashni va ekran vaqtini nazorat qilishni o‘rganishi zarur. Uyqu, sport va real ijtimoiy muloqot bilan balansni saqlash eng muhim strategiya hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ijodiy va ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Yoshlar yangi do‘stlar topish, qiziqish asosida guruhlar yaratish va bilim olish imkoniyatiga ega. Biroq har bir onlayn muloqot va kontent tanqidiy baholanishi lozim.

Virtual muvaffaqiyatga intilish real hayotdagi maqsad va qadriyatlarni unuttirmasligi kerak. Raqamli asrda shaxsiy rivojlanish va ruhiy barqarorlik bir-biriga bog‘liq jarayonlarga aylangan. Yoshlar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni va onlayn stressni kamaytirishni o‘rganishi shart. Ijtimoiy tarmoqlarni ongli va maqsadli ishlatish ijtimoiy rivojlanish uchun kalit hisoblanadi. Har bir yosh uchun media savodxonlik, raqamli gigiyena va xavfsizlik bo‘yicha strategiyalar zarur. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ijobiy ishlatilganda yoshlarni motivatsiya qiluvchi kuchga ega. Aks holda, ular ruhiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga xavf tug‘diradi. Yoshlar onlayn va real hayot balansini saqlashni o‘rganishi — kelajakdagi muvaffaqiyat va farovonlikning kafolati. Shuning uchun har bir o‘smir, ota-ona va pedagog birgalikda harakat qilishi lozim. Internetni ongli va mas’uliyatli ishlatish orqali yoshlar hayotini boyitish, ruhiy salomatlikni mustahkamlash va kelajakni nurli qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyd, D., & Ellison, N. (2007). Social Network Sites: Definition, History, and Scholarship. Journal of Computer-Mediated Communication, 13(1), 210–230.

2. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. Atria Books.

3. Kross, E., et al. (2013). Facebook Use Predicts Declines in Subjective Well-Being in Young Adults. PLOS ONE, 8(8), e69841.

4. Orben, A., & Przybylski, A. K. (2019). The association between adolescent well-being and digital technology use. Nature Human Behaviour, 3, 173–182.

5. Livingstone, S., & Smith, P. K. (2014). Annual Research Review: Harms experienced by child users of online and mobile technologies. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 55(6), 635–654.

O’Z-O’ZIGA BO’LGAN MUNOSABAT SHAXS PSIXOLOGIK RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI SIFATIDA

ADU oila psixologiya ta’lim yo’nalishi
Adxamjonova Ziyoda

Annotatsiya; Mazkur maqolada o‘quvchilar jamoasida shakllanadigan shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot jarayonlari, ijtimoiy rollar, emotsional holatlar hamda guruh ichidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarining psixologik ahamiyati yoritilgan. Shaxslararo munosabatlarning jamoa muhitiga ta’siri, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zini anglash va ijtimoiy faolligining shakllanishidagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, o‘quvchilar jamoasida ijobiy psixologik muhitni qaror toptirishda pedagogik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash omillarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar;Shaxslararo munosabatlar, o‘quvchilar jamoasi, ijtimoiy moslashuv, guruh dinamikasi, emotsional muhit, muloqot jarayoni, ijtimoiy rollar, psixologik iqlim, shaxs rivoji, pedagogik ta’sir.

“O’z-o’ziga bo’lgan munosabat” atamasini gruziyalik psixolog N.I.Sardjveladze tomonidan kiritilgan. O’z-o’ziga bo’lgan munosabat shaxs xususiyatlari sifatida uning hayotidagi maqsadlari va faoliyati, qadriyatli yo’nalishlari bilan bog’liq bo’lib, ta’limning muhim omili bo’lib xizmat qiladi. O’z-o’ziga bo’lgan munosabat shaxs xususiyatlarining boshqa tomonlari, ayniqsa iroda bilan bog’liq. U shaxsning psixologik xususiyatlarining yaxlit tizimini namoyon bo’lish shakllari, tuzilishiga ta’sir ko’rsatadi. O’zini o’zi past darajada hurmat qiluvchi inson bu - to’liqsizlik hissiga ega bo’lgan, tashqi ta’sirlarga beriluvchan, boshqa insonlar bilan real munosabatlari uzilgan kishilardir[2].

“O’z-o’ziga bo’lgan munosabat” shaxsning mazmunli va dinamik jihatlarining yig’indisi o’zini o’zi emotsional-qadriyatlarini qabul qiluvchi ijtimoiy faollikning mas’uliyatli va tashabbuskor inson deb qabul qilishi kerak.

I.G.CHesnova o’z-o’ziga bo’lgan munosabatni o’zini o’zi anglash jarayonlariga ta’sirini o’rganib, insonlar boshqa odamlarning baholash jarayonida emotsional omillarga tayanishlarini ta’kidlaydi, ammo insonlarning o’zi buni anglamaydilar deydi. I.G.CHesnova tomonidan fanga “o’z-o’ziga nisbatan emotsional- qadriyatli munosabat” tushunchasi kiritilgan.

O’z-o’ziga bo’lgan munosabat o’zini o’zi anglashning affektiv komponenti sifatida shakllanishi ikki darajada amalga oshiriladi. O’z-o’ziga bo’lgan emotsional-qadriyatli munosabatning birinchi darajasida inson o’zini o’zi boshqa odamlar bilan taqqoslaydi, ikkinchi darajada o’z-o’ziga bo’lgan munosabatning shakllanishi ichki dialog orqali “Men-men” chegarasi ichida solishtiriladi. O’zini o’zi anglashning bunday yetakchi shakli o’zini o’zi tahlil qilish hisoblanadi.

Psixologiyada o’z-o’ziga bo’lgan munosabatning tuzilishi borasida 2 ta bir-biriga qarama-qarshi yondashuv mavjud. Birinchisida insonning o’z-o’ziga bo’lgan munosabati bir tomonlama tuzilgan psixik tuzilma deb qaralsa, ikkinchi yondashuvda murakkab tuzilma deb qaraladi. O’z-o’ziga bo’lgan munosabatni bir tomonlama tuzilma deb qarash empirik jihatdan o’z tasdig’ini topmagan.Ayrim tadqiqotchilar bunday munosabatni “kontseptual fontom” deb ta’kidlashadi [2].

SHaxsning o’z-o’ziga bo’lgan munosabatini bir tomonlama tuzilgan psixik tuzilish deb qarovchi yondashuvning nazariy asosini tanqidga uchrashining sababi, faqat ob’ekt ya’ni “Men”ning o’zi murakkab tuzilma, ammo uning o’z-o’ziga bo’lan munosabati emas deb qaralishidir.O’z-o’ziga bo’lgan munosabatni kengroq ochib beruvchi ikkinchi yondashuvni semantik mazmuniga ko’ra ikkita tizimga ajratish mumkin: “baholovchi” va “emotsional-qadriyatli”. O’z-o’ziga bo’lgan munosabat baholovchi tizim deb qaralganda “o’ziga nisbatan hurmat”, “kompetentlik hissi”, “samaradorlik hissi” sifatida namoyon bo’ladi. Emotsiya sifatida esa o’z-o’ziga bo’lgan munosabat “autosimpatiya”, “o’zini o’zi qadrlash”, “o’zini o’zi qabul qilish” shakllarida bo’ladi. Bu ikki tizim birgalikda murakkab tizimni tashkil etadi [1].

O’z-o’ziga bo’lgan munosabatning psixologik tahlili mustaqil ob’ekti sifatida namoyon bo’lishi uchun o’zini o’zi anglash jarayonining ikki jihati o’zi haqida bilimga ega bo’lish jarayoni va o’ziga bo’lgan munosabat orqali amalga oshiriladi.

O’z-o’ziga bo’lgan munosabat va tashqi dunyoga bo’lgan munosabat o’rtasidagi farq faqatgina referentlarda chegaralanadi: agar ayrim hollarda munosabatlar referenti o’zining shaxsiy tanasi yoki psixoijtimoiy va shaxsiy xususiyat aks ettirilsa, boshqa hollarda tashqi dunyoning ob’ektlari yoki boshqa insonlar aks ettiriladi.

O’z-o’ziga bo’lgan munosabat 3 tarkibiy tuzilishga ega. U o’z ichiga kognitiv, emotsional va konativ tarkibiy qismlarni oladi. Kognitiv tarkibiy qism. Tashqi dunyodagi voqea va predmetlar haqidagi axborotni qayta ishlash jarayonida insonning barcha bilish funktsiyalari qatnashgani kabi, o’zini o’zi anglash jarayonida ham qaysidir bir funktsiyalarni ajratib bo’lmaydi. O’z-o’ziga

bo’lgan munosabatga bilish sifatida sezgi, tafakkur, xotira, tasavvur, fikrlash jarayonlari tomonidan “xizmat ko’rsatiladi”. SHu tariqa kognitiv tarkibiy qism o’z ichiga “o’ziga baho berishni” oladi. Emotsional tarkibiy qism. Bunda o’ziga nisbatan emotsional munosabat “o’z-o’ziga bo’lgan munosabat” bilan tenglashtirilmaydi, balki yaxlit tizim sifatida qaraladi[2].

V.V.Stolin o’ziga bo’lgan munosabatning 3 emotsional ko’rsatkichini quyidagilarga ajratadi:-simpatiya-antipatiya; -hurmat- hurmatsizlik; -yaqinlik- uzoqlashganlik. Bu ko’rsatkichlarning tuzilishi insonning boshqa odamlarga nisbatan emotsional-qadriyatli munosabatini belgilab beradi.

Konativ tarkibiy qism. Bu tarkibiy qism o’z nomiga nisbatan ichki harakat yoki shunday harakatlarga tayyorgarlik sifatida namoyon bo’ladi. O’z-o’ziga bo’lgan munosabatda individning tavsifnomasi aks ettiriladi, u biologik, psixologik hamda ijtimoiy tuzilishdan ildiz oladi. Keltirilgan fikrlardan ko’rinadiki, shaxsning o’z-o’ziga bo’lgan munosabati serqirra tushunchalar sirasiga kiradi. Bu esa o’z navbatida o’z-o’ziga bo’lgan munosabatni shakllanishi bilan birga unga yondosh bo’lgan jihatlarni ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo’ladi. SHuningdek, shaxsning o’z-o’ziga bo’lgan munosabatlarini samarali qaror topishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obuxova A.F. Vozrastnaya psixologiya: Uchebnik- M.: Vьısshi obrazovanie, 2006.-460s.
2. Pantileev SR. Samootnoshenie kak emotsionalьno-otsenochnaya sistema. -M: MGU, 1991.-256 s.

O’QUVCHILAR JAMOASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ADU Oila psixologiyasi ta’lim yo’nalishi
Talabasi Ma’murova Nasiba

Annotatsiya; Mazkur maqolada o‘quvchilar jamoasida shakllanadigan shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot jarayonlari, ijtimoiy rollar, emotsional holatlar hamda guruh ichidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarining psixologik ahamiyati yoritilgan. Shaxslararo munosabatlarning jamoa muhitiga ta’siri, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zini anglash va ijtimoiy faolligining shakllanishidagi roli asoslab berilgan. Shuningdek, o‘quvchilar jamoasida ijobiy psixologik muhitni qaror toptirishda pedagogik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash omillarining ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar;Shaxslararo munosabatlar, o‘quvchilar jamoasi, ijtimoiy moslashuv, guruh dinamikasi, emotsional muhit, muloqot jarayoni, ijtimoiy rollar, psixologik iqlim, shaxs rivoji, pedagogik ta’sir.

Muloqot deganda umumiy natijaga erishish maqsadidagi kuchlarning birlashtirishga yo’naltirilgan odamlarning o’zaro ta’siri tushuniladi (M.I.Lisina). Muloqot bola hayotining birinchi kunlaridanoq psixik rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning kattalar bilan muloqotining to’rt shakli: shaxsiy-vaziyatli, vaziyatsiz-bilish va shaxs-vaziyatsiz hamda tengdoshlari bilan muloqotning uch shakli: hissiyotli-amaliy, vaziyatli-ishbilarmon va vaziyatsiz-ishbilarmon bir-biri bilan muntazam ravishda almashadi [2].

Kattalar bilan muloqot bolalarning bilim va ko’nikmalarini shakllanishiga imkon beradi, shu jumladan, o’zi haqidagi bilimlar uning bilish faolligini rag’batlantiradi. Tengdoshari bilan

bo’lgan muloqot bu bilimlarning dozarbligini yanada oshiradi, shuningdek, bolada o’z obrazining eng to’g’ri ko’rinishini shakllantiradi. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar muloqotida kuzatiladigan buzilishlar faqatgina insonning o’zi hohlaganiga erisha olmasligi natijasida emas, balki atrofdagilar bilan nizolarga borishi ham oilada, ham o’qishda munosabatlarni to’g’ri qura olmasligi oqibatida paydo bo’ladi [1].

Tadqiqot ishimizda guruhdagi shaxslararo munosabatlarning o’rganish maqsadida sinaluvchilar guruhida sotsiometriya metodi o’tkazildi. O’quvchilarning tengdoshlari bilan muloqotini o’rganish, uning guruhdagi mavqeini aniqlash maqsadida sotsiometriya usulining “Sotsiometriya” deb ataladigan shaklan o’zgartirilgan turidan foydalandik. Metodika guruhdagi shaxslararo munosabatlar muloqot, muomala masalalarini o’rganishga qaratilgan. Buning uchun sinaluvchilarga qog’ozda chizilgan yaxshi yoki yomon kayfiyatni hukmronlikka va bo’ysunishga intilishini ifodalaydigan niqobdan iborat vazifalar berildi hamda ular o’zlaridagi mavjud holatlariga qarab, ulardan birini tanlashlari kerak. Mazkur metodika sinaluvchilar guruhida o’tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

1-jadval

Sotsiometriya metodikasi bo’yicha natijalarning tahlilini jadval ko’rinishi

Sinaluvchilar	Xo’rlanganlik	Hukmron-liderlik
4-sinf	36,8	63,2

Metodika bo’yicha natijalar tahlili shuni ko’rsatdiki, xo’rlanganlik shkalasi tashqi ta’sirlarga nisbatan kuchli qo’zg’aluvchanlikni mavjudligi bilan belgilanadi. SHuningdek bu ko’rsatkich sinaluvchilar guruhida past darajani tashkil qiladi. Bu ulardagi jamiyat va jamoada o’z o’rniga ega bo’lganliklarini ko’rishimiz mumkin. Bu ko’rsatkich bolaning mavqei (etakchilik va ho’rlanganlik) ko’rsatkichdan muhimroq negaki bu bolaning guruhdagi o’z o’rnidan qoniqishini ko’rsatadi. Xo’rlanganlik haqida fikr ilgari surilganda o’z tengdoshlari bilan sinfda yoki guruhda bo’lishian xavotirga tushmaydigan, aksincha ular bilan uyda hovlida muloqotda bo’lishni afzal ko’radigan bolalar nazarda tutiladi.

Bu variant bolaning faol muloqot qilishini hohlamasligi o’z tengdoshlari bilan hamjihat bo’lishlilik umuman qiziqtirmasligi bilan ham bog’liq bo’lishi mumkin. Ayniqsa bir paytda yetakchilar ham o’z mavqeilaridan ham qoniqmasliklari ham mumkin. Bunda ular guruhda yanada yuqoriroq o’rinni egallashga davogar bo’ladilar yoki bo’lmasa boshqa guruhdagi yetakchiga bo’ysunmaydigan bolalar bilan muloqotga kirishishga intiladilar. SHu tariqa “bo’sh” va “faol” xo’rlanganlar nomini olganlar paydo bo’ladi. Ular o’zlarini xo’rlanganliklarini xotirjam qabul qiladilar va muloqotga intilmaydilar. Sinaluvchilar orasida hukmronlik liderlik shkalasi bo’yicha ustuvor ahamiyatga ega bo’lib, bu ularning jamoa munosabatlaridan qoniqqanligi, shaxslararo munosabatlarda o’z o’rniga ega ekanligi bilan izohlanadi.

SHuningdek, ularda jamoa va shaxslararo munosabatlar to’la ma’noa shakllanganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, bu o’z mavqeidan qoniqmagan bolalar uchun muhim. O’z mavqeidan qoniqmaslik ko’proq hukmronlikka intilayotgan bolalarda kuzatiladi. Ularni o’z tengdoshlari bilan bo’ladigan oddiy muloqot qoniqtirmaydi, ularga bo’ysungandan ko’ra, aloqani uzishni afzal ko’radilar. Bunday xarakatlardagi bolalarni tuzatishdan ularga guruhdagi biror bir rolni bergandan ko’ra ularga o’z tengdoshlarining faoliyati, uyinlarini tashkil etish ko’nikmalarini ko’rsatish muhim. Xarakterida bo’ysunishga moyillik bo’lgan o’zlarining xo’rlanganliklaridan qoniqmaydigan bolalar esa har qanday shakldagi muloqotga tayyor bo’ladilar. Bu bolalar yordamni xotirjamlik bilan qabul qiladilar, birinchi guruhga kiruvchi bolalar esa bu kabi yordamga ehtiyotlik bilan munosabatda bo’ladilar. Bu aksariyat hollarda mustaqil bo’lishga harakat qiladilar.

Metodika natijalaridan shuni ko’rish mumkinki, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda munosabatga kirishish xususiyatlari muloqot malakalariga, shaxslararo munosabat tizimiga bog’liq bo’lishi mumkin. SHuningdek, o’quvchilarning o’z mavqeidan qoniqqanlik darajasi va bir-birlarini qo’llab-quvvatlashlari bilan uzviy ravishda namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Volkov, B.S., Volkova Vozrastnaya psixologiya. V 2-x chastyax. CH.2: Ot mladshego shkolьnogo vozrasta do yunoshestva: uchebnoe posobie dlya studentov vuzov, obuchayuщixsya po ped. spetsialьnostyam / B.S. Volkov, N.V. Volkova, pod red. B.S.Volkova. - M.: Gumanitarnыy izdatelьskiy tsentr VLADOS, 2005. - 343 s.

2.Lisina M. I. Problemы ontogeneza obщeniya. M., 2006.-480s.

BOSHLANG'ICH TA'LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING SAMARALI TASHKIL ETISH.

ADU Oila psixologiyasi ta'lim yo'nalishi talabasi
Bohodirova X. Xurillayeva N

Annotatsiya; Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya jarayonini shakllantirishning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga xos bo'lgan emotsional, ijtimoiy va kognitiv jarayonlar tarbiyaviy ta'sir samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlar, emotsional muhit, pedagog va bola o'rtasidagi psixologik aloqa, shuningdek, o'yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar; Maktabgacha ta'lim, tarbiya jarayoni, psixologik xususiyatlar, emotsional rivojlanish, shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv, pedagogik ta'sir, shaxslararo munosabatlar, o'yin faoliyati, individual yondashuv.

Ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimining muvafaqiyati ushbu tizimda psixalogik xizmatning har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tadbiq etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'pgina maorif xodimlarining diqqat e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Porloq kelajagimiz poydevorini,albatta yuksak ijtimoiy bilimlar majmuasi bo'lmish ta'lim tarbiyasiz va uning ravnaqisiz ko'rib bo'lmaydi.

Ta'limning rivojlanishi barcha fanlar kabi pedagogika va psixalogiya fanlari oldiga ham qator vazifalarni qo'ymoqdaki, bu vazifalarni bajarish jarayoni va imkoniyatlari O'zbekiston Xalq Ta'limi Vaziri J.G.Yo'ldoshevning qator ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan. Binobarin, ta'lim muammolari insonning bilish, shaxsning ijtimoiy jarayonlarni anglab yetishi bilan chambarchas bog'liqdir.Bunday sharoitda pedagogika va psixalogiya fani shaxsning tub qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, uni yanada faollashtirish imkoniyatini beradi. "Inson insoniyatning olamidir" "Insonning rivojlanishi uning mavjudligidir"kabi tushunchalar, tafakur amaliyotining o'zaro bog'liqligi, shaxsning olg'a qarab intilishini ta'minlovchi, bunyodkorlik va taraqqiyotning yo'naltiruvchi, ta'limning son va sifat ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi Pedagogika va Pedagogik psixalogiya fanlari metodologiyasining falsafiy asosidir.

Boshlang'ich ta'lim jarayoning psixalogik tahlilga bag'ishlangan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki,o'quvchilarning o'quv tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi hal qilishi va bartaraf etishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud.Fikrimizning dalili sifatida qo'yidagi yo'nalishlarga alohida to'xtalmoqchimiz:

1.Bolalarni ruhiy va intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish muammosi:

Keyingi kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki,olti, etti yoshga kirgan hamma bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylanib bormoqda.Psixologlar esa hech qachon bunga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar.Sababi:har bir bola ham aqliy,ham jismo- niy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega.Ba'zi bolalar olti, etti,hatto sakkiz yoshga to'lsalarda maktab ta'limini boshqa o'z tengdoshlari qatori o'zlashtirishga hali tayyor bo'lmaydilar.Biz esa ularni maktab rejasiga qarab,ba'zan ota onasining xohishiga qarab maktabga qabul qilaveramiz,ta'limiy mashg'ulotlarni esa bolaga majbur olib boramiz.Natijada,bola psixik jihatdan turli kasalliklarga

yo’liqib,keyingi o’quv faoliyati bosqichlarida muvaffaqqiyatsizliklarga uchrashi mumkin.Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiy rivojlanish ildiziga ataylab bolta urish demakdir.Bunday holatlarda zudlik bilan barham berish,ya’ni har bir maktab ta’limiga ilk bor qadam qo’ygan bolani maxsus va mukammal ishlab chiqilgan psixologik testlardan o’tkazish va uning natijalari asosidagina bolani maktabga qabul qilish haqida jiddiyroq va o’ta mas’uliyat bilan o’ylashimizga to’g’ri keladi.Qolaversa,bunday testlar yordamida allaqachon rivojlangan mamlakatlar AQSH,Yaponiya,Germaniyada ba’zi bolalar 9 yoki 10 yoshdan,ba’zilari esa hatto 4 yoki 5 yoshdan ham maktabga qabul qilinadi va tegishli sharoitlar yaratilgach,ta’lim jarayonida bunday bolalarning barcha shaxsiy va ruhiy imkoniyatlaridan to’liq va unimli foydalanish uchun zamin hozirlanadi.

2. Boshlang’ich ta’limda kuni uzaytirilgan guruhlarni to’g’ri tashkil etish muammosi:

Ko’pgina maktablarda bolalar,aksariyat 1- 2sinf o’quvchilari darsdan so’ng yana 4 yoki 5 soatlab maktabda kuni uzaytirilgan guruhlarda qolib o’qishi kerak.Bu bilan biz 6-7 yoshli bolani 7-8 soatlab maktabda ushlab turamiz. Savol beraylikchi, bola shuni xohlaydimi,aniqrog’i, bola psixikasi uchun shu tadbir yaxshi samara bera oladimi Albatta yo’q. Chunki,hatto biz kattalar muntazam ravishda har kuni 7-8 soatlab maktabda qolib o’qish imkoniyatiga ega emasmiz.Axir bolaning ehtiyojlari ko’proq o’yinga va uxlashga moslashganku.holbuki, 7-8 soatlab o’qish jarayonida bola zerikadi,psixik jihatdan toliqadi,maktabdan beziydi va yuksak darajada ko’tarilishi mumkin bo’lgan o’quv qiziqishlari so’nadi. Eng achinarlisi shundaki,ko’p hollarda uyga borib,hatto ovqatini ham yemay uxlab qoladi. Shunday ekan,kuni uzaytirilgan guruhlar tizimini shakl va mazmuni qaytadan psixologik tahlil asosida o’ylab ko’rish va ishlab chiqish vaqti kelmadimikan.

3.Baholashning psixologik mezoniga rioya qilish muammosi: Tegishli psixologik pedagogik adabiyotlardan ma’lumki,boshlang’ich sinf o’quvchisi uchun eng birinchi motiv bu yaxshi baho olish va shu baho orqali o’z "MEN"ligini ilk bor his etish,o’z ota onasining va kattalarning hurmatiga sazovor bo’lishdir.SHuning uchun hamma boshlang’ich sinf o’quvchilari yaxshi baho olishga intiladilar.Lekin,ko’p hollarda baholash mezonining buzilishi o’quvchi psixikasiga,ayni paytda shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta’sir etmay qolmaydi.SHuning uchun boshlang’ich sinf o’quvchilaridagi baholashning psixologik mezonlarini ham chuqurroq o’ylab ko’rishga to’g’ri keladi.

4.Uy vazifasi va mustaqil ishlarni psixologik jihatdan to’g’ri tashkil etish muammosi:

Kuzatishlar natijasi shuni ko’rsatdiki,boshlang’ich sinflarda ukiydigan barcha o’quvchilarga darslik buyicha bir xil uy vazifasi va bir xil mustakil o’quv topshirigi beriladi. Chunki, darslik xamma uchun bir xil yaratilgan.Lekin,bir sinfdagi barcha o’quvchilarning mazkur o’quv predmetiga yoki o’quv topshirigini bajarishga nisbatan intellektual imkoniyatlari va iktidori bir xil emasku. Shu boisdan bulsa kerak uy vazifasi yoxud mustaqil ishni muntazam bajarib keluvchi o’quvchilarni kuyidagi ikki guruxga ajratish mumkin:1-guruxga kiruvchi bolalar o’z kuchi etmagan "o’zgalar"(ota-ona,opa-aka va boshkalar) yordamida uy vazifasini shunchaki "bajarib"keladi.SHuning uchun maktabda beriladigan mustakil topshiriqlarni kitobdagidek xammaga bir xil emas,balki har bir o’quvchining psixik imkoniyatiga,kunikma va malakalariga,kobiliyatiga karab bir oz oddiylashtirib,takomillashtirib yoki kerak bo’lsa ba’zi ilg’or o’quvchilar uchun bir oz mukammallashtirib berish vaqti kelmadimikin.

5.O’quvchilar jamoasidagi psixologik muxitni boshqarish muammosi: Sotsialogik tadqiqotlar natijasida shu narsa ma’lum bo’lmoqdaki,o’quvchilar guruhida namoyon bo’luvchi ba’zi bir ziddiyatlar o’quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.Turli sotsialogik-psixologik usullar orqali ushbu holatlarni o’rganish,tahlil qilish va bartaraf etishdagi eng samarali yo’llarni izlash ta’limning yana bir asosiy dolzarb vazifasi bo’lib qolmoqda.

6.Maktab va oila hamkorligida psixologik uyg’unlikni ta’minlash muammosi:

Tabiyki, bola kamoloti uchun maktab va oila hamkorligidagi tadbirlar hamisha muhim ahamiyat kasb etadi.Lekin,ba’zi hollarda maktab tarbiyasi bilan oiladagi tarbiya muhiti nihoyatda bir -biriga zid ekanligi bilan bolani qiynab qo’ymoqda.Bola qay biriga moslashishga hayron.Gap

shundaki,bolani chuqur o’rganish uchun uning oilasini ham chuqur psixologik tahlil qilishga to’g’ri keladi. Aftidan, bolaning to’liq psixologik imkoniyatlari haqida ota-onalarga ma’lumot berish bilan birga ota -onalar oldiga ham bola tarbiyasi uchun tegishli tashkilotlar bilan kelishgan holda ma’lum talablar qo’yish va uning ijrosini muntazam nazorat qilib borish haqida jiddiyroq o’ylashga to’g’ri keladi.

7.Bola shaxsini to’g’ri tushunish va taxlil kila olish muammosi: "Xar bir shaxs kaytarilmas temperamentdir",-degan edi buyuk fiziolog I.P.Pavlov.Qolaversa,har bir insonning o’zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e’tibor berish zarurligi haqida O’rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino,Farobiy,va Beruniylar ham o’z zamonlarida alohida qayd etib o’tganlar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek,ta’lim olayotgan har bir individ o’ziga xos bir betakror olamdir.O’qituvchi esa ushbu shaxsni tarbiyalash uchun dastavval uning "betakror olamiga" kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog’i lozim. Bugungi kunda sir emaski, ko’pgina maktablarimizda har bir o’quvchining butun psixologik qiyofasini ifodalovchi ma’lumotlar yo’q.Zero,ta’limning dastlabki kunlaridanoq har bir bola uchun xos bo’lgan iqtidor va qiziqishlarni diagnostika qiluvchi testlar ishlanmasining zarurligiga bo’lgan extiyoj tobora ortib bormoqda.Bu extiyojni qondirish uchun esa Respublika mikyosida yuzlab, minglab psixolog-mutaxasislar tayyorlash muammosi hal qilinmog’i darkor.

Umuman psixologik xizmatga asoslangan ta’lim jarayoni xar bir o’quvchi kamolotiga,undagi barcha iqtidor qirralarini ochishga va rivojlantirishga xizmat qila olishi bilangina axamiyatlidir.

Taniqli ruxshunos olim L.S.Vigotskiy taraqqyotdan ilgarilab ketgan ta’limgina samarali bulishini qayta- qayta ta’kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirayotgan ishni ertaga o’zi bajarishi kerak.Bunga bolani xar tomonlama rivojlantiradigan,uni fikrlashga urgatadigan,qobiliyatini asta-sekin o’sib borishiga imkon yaratadigan tafakkurning yangi-yangi qirralarini ochadigan ta’lim va tarbiyada,pedagogik usullarga,psixologik xizmat tizimiga ega bo’lingan taqdirdagina erishish mumkin.

O’ylaymanki,yuqorida qayd etilgan barcha muammolar ustida yanada jiddiyroq o’ylash izlanish va psixologik tadqiqotlar olib borish boshlang’ich ta’lim tizimining jamiyatimiz ideallariga va mustaqil Respublikamiz ravnaqiga mos yuqori saviyada bo’lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Rubinshteyn, S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999. – 612 b. Vygotskiy, L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: Fan, 1996. – 320 b.
2. Leontev, A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975. – 304 s.
3. Nemov, R.S. Psixologiya. 3-jild. Ta’lim va tarbiya psixologiyasi. – Moskva: Vlados, 2010. – 432 s.
4. Davletshin, M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 280 b.
5. Karimova, V.M. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 156 b.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR BILISH FAOLLIGINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

ADU Oila psixologiyasi ta’lim yo’nalishi

Toxirova Kamola. Nurmatova Mubina.

Annotatsiya: Maqola ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish (kognitiv) faolligini boshqarishning psixologik xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda bilish faolligining determinantalari — motivatsiya, e’tibor, xotira, metakognitsiya va emotsional holat — hamda ularni pedagogik ta’sirlash usullari (differensial topshiriqlar, savol-javob texnologiyalari, mustaqil va guruhli faoliyat) o‘rganildi. Maqolada o‘qituvchining boshqaruv xatti-harakatlari, dars strukturasi va o‘quv muhitining rollari bilish faolligiga ta’sir qilish mexanizmlari nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Bilish faolligi, kognitiv faoliyat, metakognitsiya, motivatsiya, e’tibor boshqaruvi, o‘qituvchilik boshqaruvi, psixopedagogik texnologiyalar, individual ta’lim, dars strategiyalari, o‘quv muhit.

Insoniyat azal-azaldan o’zini qurshab turgan alam haqida tobora ko’proq narsalarni bilishga intilib kelgan. Bu esa yillar o’tib borishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyotlarni yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi kungacha insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar ularning olamdagi narsa va hodisalarni bilmaslikdan bilishga qarab, kam bilishdan tobora ko’proq bilishga tomon bo’lgan ehtiyojlari, qiziqishlari, hamisha intilib yashashga undagan bu jarayon – bilish jarayonining nima ekanligini to’la anglab olish juda muhimdir. Hatto eng qobiliyatli insonning boshi ham yaxshi ta’limsiz hech narsa emas, degan gapda jon bor. Biroq insonga shunday ta’limni ta’minlash uchun uni yaxshi o’qitish, bu kabi o’ta muhim pedagogik jarayonni to’g’ri amalga oshirish kerak.

O’quvchilarning ta’lim jarayonida rivojlanishi to’g’risida to’xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday yozadi: “Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun yamas, balki o’quvchining o’zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o’rganish, bilim olishda ishtirok etishga o’rgatish uchun o’qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas”.

Ma’lumki, bilish faoliyatining sub’ekti o’quvchi sanaladi, shu bois ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo’lgan ta’lim markazida uning shaxsi, uning ongi, uning ham o’rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga: o’quvchilar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo’naltiruvchi o’qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa**, u**yg’onish davri **sh**arq mutafakkirlari ta’lim jarayoni, o’qitish, ta’lim berishda o’qituvchi hamda o’quvchilar o’rtasidagi munosabat masalasiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, **I**bn Sino ta’lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta’limda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib quymaslik;
- ta’limda yengildan og’irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo’lishi;
- o’qitishda jamoa bo’lib maktabda o’qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o’qitishni jismoniy mashqlar bilan qo’shib olib borish[8].

Beruniy esa o’quvchiga bilim berishda:

- o’quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o’rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;

Антология педагогической мысли. М., «Педагогика», с. 84 – 86

- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko’rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi.

Ushbu fikrlardan ma’lum bo’ladi-ki, ta’lim jarayoni o’qituvchining o’rgatuvchilik faoliyatini va o’quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyagini o’z ichiga oladi. SHu o’rinda bu jarayonlarning tahliliga e’tibor qarataylik.

Ta’limda o’qituvchining boshqaruvchilik roli o’z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda ahloqiy qarashlar jarayonida qo’lga kiritgan yutuqlarini egallashni shart qilib qo’yadi.

Bularning barchasi o’qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshirishda o’z aksini topmog’i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o’qituvchi o’z o’quvchilariga qo’lga kiriitilgan bilimlarni o’rgatadi, o’quv faoliyatida ularni malaka va ko’nikmalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u o’quvchilarda dunyoqarash va ahloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarini shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O’qituvchining faoliyati o’quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada, aniq qilib aytganda, butun o’quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o’quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o’quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o’tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi.

O’z navbatida o’quvchilarning faoliyati o’quv jarayonida o’rganishga, bilim, malaka hamda ko’nikmalarni egallashga, o’zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlashga yo’naltiriladi. Ta’lim jarayonida o’quvchilarning faoliyati ko’pqirrali yo’nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ta’limda o’quvchilarning faoliyati haqida gap borganda, o’quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.O’quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo’ladi. Bu xususiyatlar o’quvchining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlabgina qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni o’quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo’lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. SHu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov, B. Bilishga intilish // *Boshlang‘ich ta’lim*. – 2001. – № 3. – B. ___.
2. Ochilov, M.Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: “Nasaf” nashriyoti, 2000. – ___ b.
3. Ochilov, M. Muallim qalb me’mori. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 432 b.
4. Umarova, X. Fanlararo integratsiya // *Boshlang‘ich ta’lim*. – 2000. – № 3. – B. ___.
5. Малькова, Е. А. Современная школа США // Антология педагогической мысли. – М.: Педагогика, 1986. – С. 84–86.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA TARBIYA JARAYONINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ADU oila psixologiyasi ta’lim yo’nalishi
talabasi Isroilova Moxlaroy To’xtasinova Muxlisa

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini shakllantirishning psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishiga xos bo‘lgan emotsional, ijtimoiy va kognitiv jarayonlar tarbiyaviy ta’sir samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlar, emotsional muhit, pedagog va bola o‘rtasidagi psixologik aloqa, shuningdek, o‘yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, tarbiya jarayoni, psixologik xususiyatlar, emotsional rivojlanish, shaxs shakllanishi, ijtimoiylashuv, pedagogik ta’sir, shaxslararo munosabatlar, o‘yin faoliyati, individual yondashuv.

Globallashuv va jamiyatni isloh etish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta’lim tizimida ham jiddiy o’zgarishlar kiritishni talab etadi. Dunyo davlatlari orasida O’zbekiston Respublikasi birinchilardan bo’lib umubashariy tavsifga ega mazkur muammoni hal etishga doir kostseptual- nazariy asoslar yaratdi va tizimli tarzda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda.

Yurtboshimiz tabiri bilan aytganda “Mamlakatimizning istiqlol yo’lidagi birinchi qadamlardanoq , buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg’unlashtirish asosida jahon andozalari va ko’nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. “Mazkur ezgu maqsadni hayotda o’z isbotini topishida O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi xuquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda belgilab berilganidek, Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog’lom va yetuk maktabda o’qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta’lim bolaning olti- yeti yoshga to’lgunga qadar oilada maktabgacha ta’lim muassasalari (yaslilar uch yoshgacha bo’lgan bolalar uchun;) va mulk shaklidan qat’iy nazar ta’lim muassasalarida olib boriladi. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining birinchi uzviy bosqichi qator o’zgarishlar bilan tavsiflanadi: Maktabgacha ta’lim ochiq turdagi ta’lim muassasalarining eng muhim funksiyasi bolalarning hayotiy faoliyatini muhofaza qilish va salomatligini mustahkamlash; tarbiyalanuvchilarning maktab ta’limiga muvaffaqqiyatli tayyorlash va boshqalar. Shuningdek bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida xilma-xil turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritmoqda.

1997-yilda YUNESKO qaroriga ko’ra maktabgacha ta’limning nazariy asoslarini qayta ko’rib chiqish zaruriyati bilan asoslangan”maktabgacha ta’lim”atamasi qabul qilindi.Ana shunday asosdan kelib chiqqan holda 2011-yilda O’zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim rivojining asosiy yo’nalishlari maqsad va vazifalari, tamoyillarini o’z ichiga olgan. “Maktabgacha ta’lim Kontsepsiyasiyasi“ ishlab chiqilda. ”Maktabgacha ta’lim Kontsepsiyasiyasi”ning bosh g’oyasini shaxsga yo’naltirilgan ta’limni amalga oshirish tashkil etadi.Ana shu asosdan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’limda ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar sifatida ijtimoiy-pedagogik, gnoseologik,psixologik, akmeologik kabilarga alohida e’tibor qaratish, ulardan yaxlit tarzda foydalanish bayon etilgan.

Bundan tashqari, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlantirishning muhim manbai sifatida –“Bolajon”tayanch dasturining ishlab chiqilishi ham katta ahamyatga ega. Tayanch dasturining maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan sog’lom, aqlan va ma’nan yetuk, jamiyatning turli a’zolari bilan faol muloqatda bo’la olishlari,borliqni aniq idrok etish, ijtimoiy moslashuvchan,milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o’zlashtishlariga qo’yiladigan davlat talablarining to’liq bajarishiga erishishdir. Dasturning vazifasi bolalarni jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-xissiy jihatdan muhofaza qilish, bolalarning erkin fikrlashlari va ijodiy qobilyatlarini rivojlantirish ; axloqiy va ma’naviy jihatdan har tamonlama barkamol bo’lib voyaga yetishlari uchun shart- sharoit yaratishdan iborat.

Bu kabi ko’plab keng qamrovli ishlarni amalga oshirilishi. Maktabgacha ta’lim muassasalarining faoliyati va tarbiyalanuvchilarning ta’lim –tarbiya olish jarayonlarini samaradorligini oshirishga ta’sir ko’rsatadi.

Har tamonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta’lim tizimi oldidagi dolzarb muommolaridan biridir.Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelgandan boshlab,t o maktabgacha tarbiya yoshigacha bo’lgan davrdagi psixologik xususiyatlarni bilish tarbiyachilar , pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim ahamyatga ega.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma’naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalash uning har tamonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo’lishiga erishishni nazarda tutadi. Jamiyatni rivojlantirish hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli ana shu tarbiya bilan fuqarolarimizning tarbiyalanganlik darajasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali ongli mutahasislari bilan bog’liq. Chunki, uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida bolaning yosh xususiyatlari hamda jismoniy va psixologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda ma’naviy-axloqiy tadbirlarning ish rejasini tuzish va uni amalga oshirish nihoyatda zarurdir.

Shuning uchun ham “Ta’lim tog’risida”gi Qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, ”Maktabgacha ta’lim Kontsepsiyasiyasi”,”Bolajon ”tayanch dasturi davlat talablarida qayt etilgan dolzarb masalalar o’zining nazariy va ilmiy asoslariga ega. Bu dolzarb muammo Prezidentimizning ’’Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”,”Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir”asarlari mazmunidagi istiqbolga qaratilgan, bolalarning taraqqiyaotini belgilovchi ,barkamol shaxs muammolarini atroflicha ochib berilgan.

Jumladan ,yurtboshimizning”Ona yurtimiz baxtu-iqboli va buyuk kelajagi yo’lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir”asaridagi ’’Barchamiz bugun chuqur anglab oldik- faqatgina zamonaviy asosda ta’lim –tarbiya olgan,jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan ,jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko’tarishga qodir bo’ladi’’ degan fikrlarida ham yosh avlodning ta’lim va tarbiyasiga bo’lgan e’tiborni ko’rishimiz mumkin. Zero 2016-yilni ”Sog’lom ona va bola yili” deb nomlanishi ham bejiz emas. Chunki ”Sog’lom ona –so’g’mon farzand-buyuk kelajak” demakdir. Bejizga yurtboshimiz ”Farzandlari sog’lom yurt –qudratli bo’lur” degan fikrni aytib o’tmagan. Maktabgacha ta’lim yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim –tarbiya jarayoni yuqori saviyasida tashkil etilsa, bu dargohda ulg’ayayotgan o’g’il-qizlarning ma’naviy olami, aqliy salohiyati shunga munosib tarzda rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy, L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 384 b.
2. Elkonin, D.B. Bolalik psixologiyasi. – M.: Pedagogika, 1989. – 304 b.
3. Leontyev, A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – M.: Politizdat, 1975. – 304 b.
4. Rubinshteyn, S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – СПб.: Piter, 2002. – 720 b.
5. Santrock, J.W. Life-Span Development. – New York: McGraw-Hill, 2019. – 768 p.
6. Maslow, A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1990.– 369 p.
7. G‘oziev, E. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 256 b.
8. Usmonova, M. Maktabgacha pedagogika va psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 198 b.

QADRIYATLARNING SHAXS SHAKLLANISH MEZONLARIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

ADU. Oila psixologiyasi yo’nalishi talabalari
Parpiyeva.D Xakimova G.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadriyatlarning shaxs shakllanish mezonlariga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida qadriyatlar tizimining tutgan o‘rni ochib berilgan. Qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori, motivatsion yo‘nalganligi hamda ijtimoiy moslashuv jarayonlarini belgilovchi muhim psixologik omil sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qadriyatlar, shaxs shakllanishi, psixologik ta’sir, ma’naviy-axloqiy rivojlanish, motivatsiya, emotsional yetuklik, ijtimoiy moslashuv, shaxsiy rivojlanish mezonlari, tarbiya jarayoni, ijtimoiy ong.

Ma’naviyatning negizini qadriyatlar tashkil etadi. Bu holat turli-tuman falsafiy va psixologik oqimlar tomonidan e’tirof etiladi. “Psixologiya" lug’atida qadriyatga quyidagicha ta’rif berilgan: "Obyektlar, hodisalar, ularning xususiyatlari, shuningdek o’zida ijtimoiy ideallarni aks ettiradigan va shu sababli intilish lozim bo’lgan hodisaning andozasi bo’lgan tushuncha.". Qadriyatlar uch xil shaklda mavjud bo’ladi: 1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan ijtimoiy ideal tarzida. 2. moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari yoki ijtimoiy ideallarning namoyon bo’lishi shaklidagi inson xatti-harakatlari ko’rinishida. 3. Ijtimoiy qadriyatlar individ dunyoqarashi orqali o’zlashtirilib, shaxs psixologik to’zilmasiga motivatsiyaning asosiy manbalaridan bo’lgan shaxsiy qadriyatlar tarzida kirib boradi.

Har bir shaxs o’ziga xos bo’lgan shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasiga ega. Bu ierarxiyaning tarkibidagi qadriyatlar ko’pchilik insonlarda bir xil bo’lsa ham, ularning joylashishi, o’zaro bog’lanishlari turli shaxslarda turlicha bo’ladi. Shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasi jamiyatning moddiy madaniyati va shaxsning ma’naviy olami o’rtasida bog’lovchi halqa vazifasini bajaradi. Shaxsiy qadriyatlar ierarxiyalari shaxs tomonidan moddiy va ma’naviy madaniyat asarlarida obyektivlashgan ijtimoiy qadriyatlarni o’zlashtirish jarayonida vujudga keladi. Odatda shaxsiy qadriyatlar yuqori darajada anglangan bo’ladi, ular individ va guruh jamoa o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim omili bo’lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning mazmunini anglash ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida turlicha bo’lishi va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga mutonosib tarzda o’zgarib turishi mumkin. Shuning uchun ham turli davrlar uchun bir xilda universal bo’lgan qadriyatlarni topish juda qiyin. Lekin bu holat turli davrlar uchun, ayni bir davrda esa turli ijtimoiy qatlamlar uchun turlicha ahamiyatga ega bo’lgan qadriyatlar bilan birga, turli tarixiy davrlar, turli madaniyatlar, aholining turli qatlamlari uchun bir xilda ahamiyatli bo’lgan umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud.

Umuminsoniy qadriyatlar turli mezonlarga asoslanib, turlicha tasnif qilingan. Bu tasniflarning ba’zilari bir-biriga unchalik mos kelmaydi, ayni paytda, barcha tasniflar uchun xos bo’lgan umuminsoniy qadriyatlar ham mavjud. Biz ana shu tasniflarni umumlashtirishgan holda quyidagi umuminsoniy qadriyatlarning barcha tomonidan e’tirof etilishini aniqladik. Bo’lar: inson — oliy qadriyat. Bu umuminsoniy qadriyatning asosini yoshlar o’xshashga intilayotgan shaxs ideali tashkil etadi. “Go’zallik qadriyati" — insonning dunyoga munosabatini, hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi go’zallikni ko’ra bilish qobiliyatini ifodalaydi. "Bilish" qadriyati — insonlarning bilim olish, ta’limga bo’lgan munosabatini ifodalaydi."Mexnat qadriyati" — insonlarning mavjudligi va bilishning manbai bo’lib, ijodga, o’zini namoyon qilishga undaydi."Vatan qadriyati" — bu qadriyat bir necha qadriyatlar yig’indisidan iborat bo’lib, ular jumlasiga tarix, madaniyat, an’analarni kiritish mumkin. Shu bilan birga umuminsoniy va abadiy qadriyatlar jumlasiga Haqiqat, Yaxshilik, Go’zallik tushunchalarini ham kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o’tilgan qadriyatlar insonning dunyoqarashi va e’tiqodini, ular orqali uning yurish-turishini, axloq-odobi va hayot tarzini belgilaydi. Lekin bu qadriyatlar inson hayotiga alohida-alohida tarzda emas balki tizim holida ta’sir o’tkazadi. Qadriyatlar ierarxiyasi to’satdan va qisqa muddatda emas, balki o’zoq davr davomida shakllanadi.

Insonning har bir xatti-harakatining asosini atrofdagi voqea hodisalarga beradigan bahosi tashkil etadi. Bu bahoning yo'nalishi va mohiyatini unda mavjud bo'lgan qadriyatlar belgilaydi. Chunki har qanday baho muayyan qadriyat nuqtai nazaridan beriladi.

Inson qadriyatlarining tizim holida bo'lishi uning harakatlari, xulq-atvorini belgilaydigan motivatsiyaning zarur sharti hisoblanadi. Insonning turli-tuman vaziyatlarda va sharoitlarda amalga oshiriladigan xatti-harakatlarini o'zoro bog'lab turuvchi halqa ham qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

O'smirning ma'naviy-axloqiy rivojlanishida uchta asosiy jihatni ko'rsatish mumkin:

1.Ma'naviy salohiyatning intelekt, xotira, tafakkur, idrok, tasavvur singari psixik hodisalarda namoyon bo'lishi.

2. O'smir ma'naviy olamining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali boyib borishi.

3. O'smir faoliyatining ijodiy xarakterga ega ekanligi va bu faoliyat uning o'zini namoyon qilishiga olib kelishi. Bu uch tomon o'zaro o'zviy bog'langan vategishli sharoitlarda o'smir shaxsining ma'naviy takomilini belgilab beradi. Ma'naviyat psixplogiyasiga oid adabiyotlarni tahlil qilish orqali biz o'smir ma'naviy-axloqiy rivojlanishida uchta asosiy tarkibiy qismni ajratib ko'rsatishni lozim topdik. Bular quyidagilar: kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari.

Ma'naviyatning har bir komponenti qay darajada rivojlanganligi darajasini quyidagi mezonlarga qarab belgilanadi:

1.Umuminsoniy qadriyatlarga mosligi.

2. Shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish darajasi;

3. Yangi ma'naviy-axlokiy qadriyatlarni yaratishdagi roli.

4. Ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishdagi roli.

5. Shaxsning barqaror pozitsiyasini shakllantirishdagi roli.

6. Ma'naviy qadriyatlarni tanqidiy anglashdagi roli.

Kognitiv komponetning yetakchi unsuri bilim hisoblanadi. Bilim yo'z bergan yoki yo'z beradigan tayyor hodisa emas, balki ma'naviyat va tafakkurning o'zoq, vaqt oralig'idagi mahsuli bo'lib, uning bunyod etilishi mavjud madaniyat imkoniyatlari bilan bog'liq. Bu imkoniyatlar turli-tuman bo'lib, ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar bilan bevosita bog'langan bo'ladi. Shuning uchun bilimlarni yaratish, o'zatish va egallash bilish subyektining aktiv faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'zini o'zi anglashning yangi darajasiga intellektual rivojlanishning muayyan darajasida erishiladi. Bunday darajaning vujudga kelishi o'quv jarayonida shakllanadigan va rivojlangan nazariy tafakkurga asoslanadi. Nazariy tafakkur yangi bilim mazmunini egallash, yangi qiziqishlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kognitiv qiziqishlarning yangi tipini shakllantiradi, ichki refleksiyaning vujudga kelishi va rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy rivojlanish jarayoniga turtki beradi.

Ma'naviy-axloqiy rivojlanishning emotsional komponeti shaxsning o'ziga boshqa odamlarga, voqea-hodisalarga ma'naviy-axloqiy nuqtai nazardan yondashishi va emotsional idrok qilishini anglatadi. Ijobiy emotsional baho ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning shaxs tomonidan qabul qilinishi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Ma'naviyatdagi empatiya emotsional holat bilan o'rtoqlashish qobiliyatini va ko'nikmasini, boshqa shaxsga energiya o'zatish layoqatini anglatadi. O'zini o'zi anglagan shaxs, o'z rolini to'la o'rgangandan keyin faoliyat yuritish, o'zini namoyon qilishga o'tadi va bu jarayonga atrofidagi odamlarni ham jalb etadi. O'zining mohiyatini, potensial imkoniyatlarini anglash o'zga shaxsga munosabat orqali namoyon bo'ladi. Bu munosabat jarayonida o'zga shaxs buyuk qadriyat sifatida o'zining betakrorligi va tanholigi orqali gavdalanadi. O'zga shaxslarni mana shunday his qila bilish al'truizm, mehribonlik, hamdardlik, muhabbat singari ma'naviy qadriyatlarning namoyon bo'lishidir. Bular o'z navbatida empatiyaning rivojlanish darajasini shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasining ko'rsatkichi sifatida qabul qilishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Karimov.I.A "Kamolot" Yoshlarimizning chinakam suyanchi va tayanchi bulsin.-T.: "Uzbekiston", 2001.- 48 b.
2. Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya.-M.: Aspekt Press, 1999.-373s
3. Bexbudiy. Tanlangan asarlar.,-T.: "Ma'naviyat", 1999. -1216.
4. Begmatov A.S.- "Milliy goyaga e'tikrdni shakllantirishning psixologik jixatlari'7/ ADU Ilmiy xabarnomasi., 2010.- 2 son. 17-24 b.

RAQAMLI DAVRDA INSON ONGINING TRANSFORMATSIYASI: AXBOROT OQIMI, VIRTUAL MULOQOT VA SUN'IY MUHITNING SHAXS PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

O'rinboyeva Ro'zixon
ADU fizika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlar shaxsning o'zini anglash jarayoniga ko'rsatadigan psixologik ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Virtual maydondagi obrazlar, filtrlashgan hayot va solishtirish mexanizmlari insonning real o'ziga bahosini o'zgartirishi ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Tadqiqotda axborot oqimining kuchayishi, idealizatsiya qilingan qiyofalar va "men" obrazi o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar psixologik misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, shaxs, o'zini anglash, identifikatsiya, virtual obraz, illyuziya, real "men", ideal "men", psixologik ta'sir, solishtirish sindromi, o'ziga baho, shaxs rivoji.

Ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan hozirgi davrda, odamlar virtual makonda o'zlari uchun yangi, ideal ko'rinish yaratishga intilar ekan, bu jarayon ularning haqiqiy "men"i bilan virtual "men"i orasida sezilmas, ammo juda kuchli psixologik ziddiyat paydo qilmoqda. Odamlar ijtimoiy tarmoqlarda faqat eng chiroyli, muvaffaqiyatli va boshqalarga havas uyg'otadigan lahzalarni ulashgani uchun ularning hayoti tashqi tomondan xuddi hech qanday muammosiz, mukammal bo'lib ko'rinadi va bu esa tomoshabinlarda o'ziga nisbatan norozilik, hayotidan qoniqmaslik tuyg'ularini oshiradi. Virtual olamda inson doimiy ravishda boshqalar bilan taqqoslanadi, chunki har bir foydalanuvchi ongli yoki ongsiz ravishda o'zini kim bilandir solishtirishga majbur bo'ladi va bu taqqoslashlar ko'pincha salbiy hissiyotlarni uyg'otadi. Ijtimoiy psixologiyada ta'kidlanganidek, shaxsning o'ziga baho berishi tashqi omillar ta'sirida shakllansa, u beqaror bo'ladi va ijtimoiy tarmoqlarda tasdiqlashga bo'lgan ehtiyoj shu holatning eng yorqin ko'rinishidir. Odamlar "layklar", ijobiy izohlar va kuzatuvchilar soniga qarab o'z qadrini baholay boshlaydi, go'yoki shaxsiy qadri uning profilidagi statistik ko'rsatkichlarga bog'lanib qoladi.

Bu jarayon inson ruhiyatida "men qandayman?" degan asosiy savolni "men boshqalarga qanday ko'rinaman?" degan savol bilan almashtiradi, natijada shaxsning o'zini anglash mexanizmlari chalg'iydi va haqiqiy shaxsiyatga zarar yetadi. Har kuni ideal suratlar, mukammal tanalar, quvonchli hayot sahnalari bilan to'lib-toshgan axborot lentasiga qaragan odam asta-sekin boshqalarning hayoti o'zinikidan ancha afzal degan xulosa chiqaradi va ichida yashirincha hasad, tushkunlik, o'zini mensimaslik kabi salbiy kechinmalar paydo bo'ladi. Psixologlar fikricha, axborot oqimining haddan ziyodligi inson ongiga yuk bo'lib tushadi, diqqatni jamlash qobiliyati pasayadi va odam ichki dunyosi bilan suhbati kamayib, o'zini tinglashni unutadi. Raqamli kommunikatsiya rivojlanishi bilan jonli muloqot imkoniyatlari torayadi va bu esa insonning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki odam real hayotda his-tuyg'ularni yashirmasdan ifodalashni o'rganishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlarda esa ko'p hollarda hamma o'zini boshqacha ko'rsatadi, niqoblar ostiga yashiringan soxta tabassumlar kuchayadi va asl kechinmalar virtual fasad ortida qolib ketadi.

Haqiqiy shaxsiyatni yaratish uchun inson o‘z hayoti, xatolari, kamchiliklari bilan yarasha olishni o‘rganishi kerak bo‘lsa-da, ijtimoiy tarmoqlardagi mukammallik madaniyati odamni o‘zini inkor qilishga majbur qiladi va inson asta-sekin o‘z tabiiyligini yo‘qota boshlaydi. Bu holat ko‘proq yoshlar orasida keskin namoyon bo‘ladi, chunki ularning shaxsi shakllanish bosqichida bo‘lib, har qanday tashqi ta’sirga juda tez moslashadi va o‘z “men”ini himoya qila olmaydi. O‘smirlar mashhur bo‘lish orzusida o‘z shaxsiy chegaralarini buzib, xohlamagan kontentlarni ham ulashishi mumkin, natijada ularning o‘ziga bo‘lgan hurmati vaqt o‘tishi bilan yanada zaiflashib boradi. Ijtimoiy tarmoqlarda olingan e’tibor miyaga qisqa muddatli quvonch signallarini beradi, ammo bu quvonch vaqtinchalik bo‘lgani sababli odam yana va yana raqamli tasdiqlashni xohlaydi va shu tarzda psixologik qaramlik shakllanadi. Virtual makonda hurmat, muhabbat va e’tirof topish osondek tuyuladi, lekin ularning hech biri real qo‘llar, real mehr, real ko‘z qarashlari o‘rnini bosa olmaydi, chunki inson tabiatiga ko‘ra hissiyotlar jonli muloqot orqali to‘liq qabul qilinadi.

Haqiqat va illyuziya o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi ruhiy muvozanatni buzadi, chunki odam qaysi “men”i chin, qaysi “men”i faqat ko‘rsatish uchun ekanini ajrata olmay qoladi va bu ichki konflikt uni charchatadi. Ba’zan shaxs virtual dunyoda juda faol, quvnoq va ijtimoiy ko‘rinadi, ammo real hayotda u tortinchoq, xavotirli yoki yolg‘iz bo‘lishi mumkin, ya’ni inson ikki xil obrazda yashaydi va bu obrazlar bir-biriga mutlaqo zid bo‘ladi.

Shu sababli ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda psixologlar tavsiya qiladiki, odam o‘zini real hayotda qanday qabul qilsa, virtual hayotda ham shunday ko‘rsatishga harakat qilishi lozim, chunki haqqoniylik ruhiy sog‘liqning eng muhim poydevoridir. Odamlar o‘zlarining kichik quvonchlarini yashirmasdan ulashsa, kamchiliklaridan uyalmay, xatolardan qo‘rqmay yashashsa, virtual hayot ham real hayot bilan uyg‘unlashib, shaxsiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy tarmoqlar to‘g‘ri ishlatilsa, ular insonning o‘zini anglashiga, o‘z salohiyatini kashf etishiga va ijobiy ijtimoiy aloqalarni kengaytirishiga katta yordam bera oladi, ammo ularni haddan tashqari ideallashtirish insonni yolg‘izlik va norozilikka olib kelishi mumkin.

Psixologlarning fikricha, inson o‘z hayotining bosh qahramoni bo‘lishi kerak, biroq ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar uchun sahna yaratgan holda, u o‘zining haqiqiy hayotiy ssenariysini unuta boshlaydi va bu ruhiy charchoqka olib keladi, chunki odam rol o‘ynashdan to‘xtamaganda, bir kun kelib o‘zi kimligini esdan chiqaradi. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda hushyorlik, chegarani bilish, vaqtni boshqarish va o‘z qadrini raqamlar bilan emas, hayotdagi haqiqiy yutuqlar bilan o‘lchash nihoyatda muhimdir, aks holda inson nafaqat vaqtini, balki o‘zligini ham yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Inson o‘zini boshqalar bilan emas, kechagi o‘zi bilan taqqoslaganida, real o‘sish paydo bo‘ladi, chunki haqiqiy rivojlanish tashqi tasdiqlashlar bilan emas, ichki qoniqish bilan o‘lchanadi va shundagina virtual dunyo ham ruhiy salomatlikka zarar emas, balki foyda keltiruvchi vositaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar shaxsning o‘zini anglash jarayonida nafaqat yangi imkoniyatlar, balki sezilmas, ammo keskin psixologik xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin, chunki virtual olamda yaratilgan ideal “men” ko‘p hollarda insonning ichki dunyosi bilan ziddiyatga kirishadi. Ijtimoiy tarmoqlarda muvaffaqiyat, go‘zallik va mukammallik me’yor sifatida namoyon etilgani sababli, odam o‘zini boshqalar bilan taqqoslashga majbur bo‘ladi va natijada o‘z qadriyatlariga shubha bilan qaray boshlaydi. Shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi tashqi tasdiqlashlarga bog‘liq bo‘lib qolsa, u vaqt o‘tishi bilan o‘zini yo‘qotadi va ruhiy beqarorlik kuchayadi. Virtual hayotda olingan “layk” va izohlar vaqtinchalik quvonch berishi mumkin, ammo ular hech qachon real insoniy yaqinlik, samimiy muloqot va mehr-muhabbat o‘rnini bosa olmaydi. Haqiqiy va virtual “men” o‘rtasidagi nomutanosiblik kuchaygani sari inson ichidagi ruhiy to‘siqlar ortadi va u o‘zini xo‘rlangan, e’tibordan chetda qolgandek his qilishi mumkin.

Bugungi kunda ayniqsa yoshlar ijtimoiy tarmoqlarning psixologik bosimi ostida qolmoqda, chunki ular shaxs shakllanishining eng sezgir davrida turibdi va har qanday noto‘g‘ri ta’sir ularning kelajak hayotiga jiddiy iz qoldirishi ehtimoldan xoli emas. O‘zini ko‘rsatish orzusi ortidan quvgan holda, ba’zan odam o‘zining haqiqiy hissiyotlarini yashiradi, xatolaridan uyala boshlaydi va shu bilan o‘z tabiiyligini yo‘qotadi. Agar inson virtual olamdagi obrazga haddan ortiq bog‘lanib

qolsa, bu uning haqiqiy hayotda baxtini topishiga to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki hayot nafaqat suratlar va statistik ko‘rsatkichlardan iborat. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish, o‘z vaqtini boshqarish, o‘zini boshqalar bilan emas, balki kechagi o‘zi bilan taqqoslash shaxsiy o‘sishning eng muhim omillaridan biridir. Odam o‘z qadriyatini raqamlar bilan o‘lchamay qo‘yganda, u nafaqat o‘zligini saqlab qoladi, balki chinakam baxt va qoniqish manbaasini ham topadi.

Shaxsning haqiqiy kuchi uning kimligini yashirmasdan qabul qila olishidadir va agar virtual hayot real hayotga zid kelmasa, ijtimoiy tarmoqlar inson rivojlanishiga xizmat qilishi ham mumkin. Zamonaviy axborot maydonida psixologik sog‘liqni asrash uchun insonga ongli tanlovlar qilish, ruhiy ehtiyojlarini anglash va o‘zini doimiy taqqoslash domiga tushib qolmaslik zarur. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish orqali inson o‘z shaxsiyatini yanada mustahkamlaydi va ijobiy ijtimoiy muloqotlar uchun qulay muhit yaratadi. Eng asosiysi, odam o‘zining haqiqiy hayotini yashashi, bor imkoniyatlarini qadrlashi, kichik yutuqlardan quvonishi va o‘zini mukammallik ortidan quvishga majbur qilmasligi kerak. Ana shunda virtual olam bilan real olam o‘rtasidagi muvozanat saqlanadi va shaxsiyat rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar salbiy emas, aksincha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova R., Saidova F. Raqamli psixologiya: shaxs va virtual kommunikatsiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2023. – 215 b.

2. G‘ofurov M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021. – 340 b.

3. Turdimurodova N. Yoshlar ongiga internetning psixologik ta’siri // Psixologiya ilmiy jurnali. – 2022. – №4. – B. 55–67.

4. Zimbardo P., Gerrig R. Psixologiya: zamonaviy yondashuv. – Moskva: “Piter”, 2020. – 864 b.

5. Bauman Z. Suyuq zamon: Global ijtimoiy jarayonlar va shaxs muammolari. – London: Polity Press, 2019. – 228 p.

6. Boyd D., Ellison N. Social Media and Identity Construction // Journal of Digital Behavior. – 2021. – Vol. 13(2). – P. 102–118.

BOLALARDA DIQQATNING RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ADU Fizika yo`nalishi talabasi
Xusanboy Saloxiddinov

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda diqqat jarayonining shakllanish bosqichlari, diqqatning turlari, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda diqqatni rivojlantirish usullari, mashg‘ulotlar va amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: diqqat, rivojlanish, bolalik davri, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, barqarorlik, psixologik rivojlanish, mashg‘ulot.

Diqqat – bu inson ongining muayyan ob'ektga yo‘naltirilishi va shu ob'ektni ma'lum muddat ushlab turish qobiliyatidir. Bolalar psixologiyasida diqqatning rivojlanishi muhim o‘rin tutadi, chunki u o‘quv faoliyati, xotira, tafakkur, nutq va harakatlarni boshqarish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Diqqatning yetarli darajada shakllanmaganligi o‘quv jarayonida qiyinchiliklar, xulqatvor buzilishlariga olib kelishi mumkin.

Psixologiyada diqqat mustaqil jarayon sifatida emas, balki boshqa psixik jarayonlarning boshqaruvchisidir.

- uning asosiy funksiyalari: idrokni faollashtirish;
- informatsiyani to‘plash va qayta ishlash unumdorligini oshirish; xulqni boshqarish;

- faoliyatni maqsadga yo‘naltirish. Bolada diqqatning qanchalik rivojlanganligi uning o‘yinlar, mashqlar va o‘qish jarayonida ko‘rinadi.

Bolalarda diqqat quyidagi turlarda namoyon bo‘ladi. Ixtiyorsiz diqqat tug‘ma bo‘ladi. Yorqin rang, baland ovoz, yangi predmetlar bolaning diqqatini tez tortadi. Ko‘proq 2–6 yoshda ustun bo‘ladi.

Ixtiyoriy diqqat maqsad va iroda orqali boshqariladi. 6–7 yoshdan boshlab shakllanadi. Maktabda o‘qishni boshlash bilan rivoji tezlashadi.

Ixtiyoriydan keyingi diqqat bola qiziqqan faoliyatga to‘liq berilganda paydo bo‘ladi. Eng samarali diqqat turi hisoblanadi.

Bolalarda diqqatning rivojlanish bosqichlari maktabgacha yosh (3–6 yosh)da ixtiyorsiz diqqat ustun. Diqqat hajmi kichik, 5–7 daqiqa atrofida. O‘yin, tasviriy san’at, konstruksiya bilan shug‘ullanish diqqatni kuchaytiradi. Kichik maktab yoshi (7–10 yosh) Ixtiyoriy diqqat shakllana boshlaydi. Diqqat barqarorligi oshadi (15–20 daqiqa). Dars jarayoni, o‘qishyozish faoliyati irodaviy diqqatni mustahkamlaydi. O‘smirlik davrida diqqatning tarqoqligi ko‘payadi. Qiziqish va motivatsiya kuchli rol o‘ynaydi. Mustaqil o‘qish ko‘nikmalari diqqatni boshqarishni yaxshilaydi.

Diqqatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar:

Psixologik omillar- bolaning emotsional holati; qo‘rquv, stress, xavotir; motivatsiya va qiziqish. Pedagogik omillar-ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi; o‘qituvchi va tarbiyachi bilan muloqot; o‘yin texnologiyalaridan foydalanish.

Ijtimoiy omillar- oiladagi psixologik muhit; otaonaning munosabati; atrofdagi sharoitlar.

Diqqatni rivojlantirishning samarali usullari:

O‘yin texnikalari: “Top o‘xshashini”, “Kim tezroq topadi?” Mozaika, lego konstruktorlari; Xotira kartochkalari.

Harakatli mashqlar: Ritmik mashqlar; “Qizil–yashil” signali o‘yinlari; Qoidali sport o‘yinlari. Diqqatni jamlash mashqlari: Geometrik shakllarni topish; Shovqinsiz ravishda rasm bo‘yash; She'r yodlash. Sensor rivojlanish mashg‘ulotlari: Rangi, hajmi, shakli bo‘yicha solishtirish; Didaktik materiallar bilan ishlash.

Bolalarda diqqatning rivojlanishi ularning umumiy psixologik yetilishida asosiy o‘rin tutadi. Diqqatning barqaror bo‘lishi o‘qish, eslab qolish, muloqot qilish va kundalik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun diqqatni rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, maktabda va oilada muntazam va tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur. O‘yin, mashq, muloqot va pedagogik qo‘llabquvvatlash diqqat jarayonlarini samarali rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev N. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2010.
2. Venger L.A. Psixik jarayonlarning rivojlanishi. Moskva, 2012.
3. Zaporojets A.V. Bolalarda diqqatni o‘rganish. Moskva, 2004.
4. Leontev A.N. Faoliyat va ong nazariyasi. Moskva, 2011.
5. Bojovich L.I. Bola shaxsi rivojlanishi. Moskva, 2008.
6. Nurmuhamedova F. Bolalarda diqqat jarayonlari. Toshkent, 2019.

AYOLLARNING TA’LIM OLISHI VA PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TASIRI

ADU Fizika yo’nalishi
talabasi Toxirova Shabbona

Annotatsiya; Ushbu maqolada ayollarning ta’lim olishi va uning psixologik rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Ayolning o‘qishi uning dunyoqarashi, ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lishi ko‘rsatilgan. Shuningdek, ta’limli ayolning o‘z o‘rnini topishi, moddiy mustaqillikka erishishi, oilaviy munosabatlarda ruhan yordam bera olishi, farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta’siri alohida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ayol, ta’lim, psixologik rivojlanish, emotsional barqarorlik, mustaqillik, tarbiya.

Bugungi kunda ayollarning ta’lim olishi jamiyat rivoji uchun muhim hisoblanadi. Ta’lim ayolga nafaqat bilim beradi, balki uning ruhiy holati, hayotga qarashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham shakllantiradi. Bilimli ayol jamiyatda ham, oilada ham faol, mustaqil va maqsadli bo‘ladi. Shu sababli ayollar o‘qishi — bu faqat o‘zini rivojlantirish emas, balki jamiyatning ravnaqi uchun ham muhim jarayon hisoblanadi. Psixologik nuqtayi nazardan ayollarning ta’lim olishi ularda barqaror emotsional holat, o‘zini anglashi va o‘z qadrini bilish kabi sifatlarni kuchaytiradi. Ta’lim jarayoni shaxsning fikrlash doirasini kengaytiradi, hayotga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

Ayollarning ta’lim olishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchi. Ta’lim olgan ayolda eng birinchi o‘zgarish — bu o‘ziga bo‘lgan ishonchning oshishi. Bilim ayolga mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, hayotiga mas’uliyat bilan yondashish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. O‘z qadrini bilgan ayol jamiyatda ham, oilada ham o‘z o‘rnini topa oladi. Psixologiyada bu holat “shaxsiy identitetning kuchayishi” deya izohlanadi. Emotsional barqarorlikning rivojlanishi. Ta’lim jarayonida ayol turli vaziyatlarda o‘zini boshqarishni, fikrini izchil yetkazishni, stressga chidamli bo‘lishni o‘rganadi. Bu esa uning emotsional barqarorligini oshiradi. Emotsional jihatdan mustahkam ayol oilada ham yumshoq muhit yaratadi, farzandlar bilan muloqoti yaxshilanadi.

Ayolning oiladagi psixologik o‘rnida ta’limli ayol oilada er-xotin munosabatlarida ham muhim rol o‘ynaydi. U erining ruhiy holatini sezadi, unga ruhan dalda bera oladi, qiyin vaziyatlarda ko‘makchi bo‘ladi. Ayolning emotsional qo‘llab-quvvatlashi oiladagi nizolarning kamayishiga, o‘zaro ishonchning ortishiga sabab bo‘ladi. O‘qigan ayolning yumshoqligi, mulohazaliligi va sabri oilaning mustahkam bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Ta’lim olgan ayolning eng muhim o‘zgarishlaridan biri — bu moddiy va ruhiy mustaqillikdir. Bilimi bor ayol kelajakda kasb egallaydi, mustaqil daromad topadi va boshqalarga qaram bo‘lib qolmaydi. Shuningdek, ayol o‘z hayotini boshqarishda faollashadi, o‘z maqsadlariga erishishga intiladi. Mustaqil ayolning qarorlari qat’iy, hayotga qarashi aniq bo‘ladi.

Jamiyat bilan muloqotga kirishish osonlashadi. Ta’lim ayolga muloqot madaniyatini beradi. Bilimdon ayolning nutqi ravon bo‘ladi, u o‘z fikrini erkin ayta oladi, yangi jamoaga tez moslashadi. Bu esa uning ijtimoiy hayotda faol bo‘lishiga yordam beradi. Farzandlar tarbiyasiga ta’sirida ham o‘qigan ayol farzand tarbiyasida juda katta rol o‘ynaydi. U bolaga nafaqat mehr beradi, balki to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, uning ruhiy va intellektual rivojiga e’tibor qaratadi. Ta’limli ona farzandiga sabrli, xushmuomala bo‘ladi, bolada mustahkam xarakter shakllanishiga yordam beradi.

Demak, ayollarning ta’lim olishi ularning psixologik rivojlanishida, mustaqilligida va oiladagi barqaror muhitni yaratishda juda katta ahamiyatga ega. Ta’lim ayolning dunyoqarashini kengaytiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, emotsional barqarorlikni kuchaytiradi. O‘qigan ayol: o‘z o‘rnini topa oladi, moddiy va ruhiy mustaqil bo‘ladi, farzand tarbiyasida ongli yondashadi, jamiyat bilan muloqotga oson kirishadi, oilasida tinchlik va barqarorlik yaratadi. Shu sababli ayollar ta’limini qo‘llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. G‘oziyev E.G. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
3. Abdullayev R. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
4. Hasanxo‘jayeva O. Ayol va jamiyat: psixologik yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
5. UNESCO. Women and Education: Global Report. – Paris, 2022.

OILAVIY REPRODUKTIV USTANOVKALARNI TALABALARDA SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Adu Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
N.R.Mamatova
Adu Psixologiya (amaliy psixologiya)yo‘nalish ralabasi
Ahmedova Sitora Adaxamjon qizi

Annotatsiya: Oila albatta ikki yoshning nikoh asosida hayot kechirishidan paydo bo‘ladi. Oilaning a’zolari ro‘zg‘orining birligi, o‘zaro yordami va ma’naviy mas’uliyati bilan bir-biriga bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari - inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, nikoh oldi yetuklilik, talaba yoshlar, oila tarbiyasi, ijtimoiy psixologiya, psixologik rivojlanish.

Oila muqaddas dargoh oilalarning mustahkamligi oila qurayotgan ikki yoshning bir-birlariga bo‘lgan muhabbati o‘zaro ishonchi, sadoqati va boshqa juda ko‘p omillarga bog’liq. Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiy er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-ona bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opa-singillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiqlanib, guruhli oila paydo bo‘lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi.

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinovdan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga — jamiyatga qo‘shish bilan esa oila jamiyat yo‘nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifatini ham belgilashga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo‘rg‘on hisoblanib kelingan. Xususan, o‘zbek oilalarining serildizlik, serfarzandlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O‘zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro‘zg‘or tutishi, farzandlarni odobli, ma’naviy yetuk bo‘lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o‘zbek oilalari o‘zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi,bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi. Chunki inson hayotining nikohdan keyingi davri chiroyli, yaxshi kechishi yoki aksincha bo‘lishi asosan shu mas’uliyatli voqeaga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek oilaning ahamiyati jamiyat uchun ham juda muhimdir. Chunki oila jamiyatning asosiy bir bo‘g‘ini, ajralmas bir qismi hisoblanadi. Oila qanchalar sog‘lom bo‘lsa, jamiyat ham shunchalar sog‘lom bo‘ladi. Oila a’zolarining birligi, hamjihatligi, jamiyatning ham birligi, ahlligidir. Inson oilada o‘sadi, kamol topadi, boshlang‘ich tarbiyani oilada oladi. Ilm-ma’rifatni, o‘zaro muomala madaniyatini, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, mehnatsevarlik, o‘zgalarga nisbatan izzat - hurmat kabi xislatlar avvalo oila muhitida shakllanadi. Olamdagi barcha jonli mavjudotlardan tortib, jismlargacha juft-juft qilib yaratilishida Yaratganning buyuk bir hikmatini ko‘rish mumkin. Bu haqda Alloh taolo shunday ishora qilib aytadiki: “Biz har bir narsani juft-juft qilib yaratdik. Shoyad sizlar bularning shunday yaratilishini aqllaring ila mulohaza qilib, yaratuvchining yolg‘iz ekanligini eslasalaring”.

Zero, oila qurishdan asosiy maqsadlardan biri bu – halol yo‘l bilan insoniyat naslini davom ettirish uni ko‘paytirishdir. Qur’oni karimda shunday aytiladi: “Sizlarga o‘z jinslaringizdan birga yashash va unga intiladigan juft yaratilganligi hamda o‘rtalaringda bir-birlaringga muhabbat, mehr va shafqat hislarini paydo qilganligi, Allohning insonlar vafot etganlaridan so‘ng qaytadan tiriltirishga bo‘lgan alomatlaridan biridir”.

Demak oilada rohat va xotirjamlik bilan birgalikda mehr-muhabbat, shafqat, ahllik singari go‘zal insoniy muhit ham bo‘lishi kerak ekan.

Bu haqida Payg‘ambar alayhissalom shunday deganlar: “Farzandlaringga ona bo‘ladigan ayolni yaxshilab tanlab olinglar”. Chunki rafiqa kelajak hayotimizdagi davomli yo‘ldosh, farzandlarimizning tarbiyachisi hisoblanadi. Erkak kishi oilasi va farzandlariga rizq-nasiba topish niyatida kun bo‘yi mehnat qiladi. Goho turli qiyinchiliklarga duch keladi. Turmush mashaqqatlaridan charchab oilasi davrasiga kelgach barcha charchog‘i yoziladi. Imom G‘azzoliy uylanishning foydasi oilani boqish, unga bosh bo‘lish, oila a’zolarining haqlarini ado etish, ba’zi bir kamchiliklarga sabr qilish, halol rizq topish yo‘lida mehnat qilish, farzandlar tarbiyasi ila shug‘ullanish, iymon-e’tiqodli qilish borasidagi barcha sa’y-harakatlar inson o‘zini-o‘zi tarbiyalashi vositasidir. Zero, bularning barchasi katta fazilat bo‘lib, insonni yuqori darajalarga ko‘taradi, degan ekanlar.

Nikoh er va xotin o‘rtasini bog‘lovchi muqaddas rishta. Bu rishta farzandlar tug‘ilishi bilan yanada mustahkam bo‘ladi. Payg‘ambarimiz hadislarida shunday marhamat qilganlar “Muhabbatli, farzand tug‘adigan ayollarga uylaninglar...”. boshqa bir hadislarida esa:”Oilali va farzandi bor kishining o‘qigan ikki rakaat namozi, bo‘ydoq (uylanmagan) kishining o‘qigan sakson ikki rakaat namozidan xayrli (yaxshiroq)dir”, deya nikohning fazilatini targ‘ib etgan bo‘lsalar, boshqa bir hadislarida, qodir bo‘la turib, oila qurmay yurish salbiy holat ekanini ta’kidlab shunday deganlar: “Sizlarning yomonlaringiz uylanmay bo‘ydoq yurganlaringizdir. Vafot etib ketganlaringizning yomonlari esa oila qurmay turib o‘tganlardir”.

Nikohda barakot bor. Shuning uchun kelajakda ehtimoli bo‘lgan faqirlik, kambag‘allik va nochorlikdan qo‘rqmaslik kerak. Payg‘ambar alahissalom: “Faqirlikdan qo‘rqib uylanishdan qochgan bizdan emas”, deganlar.

Oilada ayol kishining o‘rni benihoyat muhimdir. Ayol oqila, mehribon, sabr-qanoatli hamda tejamkor bo‘lishi zarur. Hadisi sharifda “Tejamkor qashshoq bo‘lmas”, deyilgan. Tejamkorlikning aksi isrofdir. Isrofgarchilik shaytoniy ishlardan bo‘lib, egasini gunohga yetaklaydi. Zero oyati karimada: “Alloh isrofgarlarni yomon ko‘radi” deyilgan.

Oilada tinchlik-totuvlikning, mehr-oqibatning o‘zaro izzat-hurmatning o‘rni beqiyosdir.O‘zaro totuvlik, mehr-oqibat bir joyda barakot bo‘ladi. Aksincha bo‘lsa barakot qochadi. Xalqimiz bejizga “Bir kun janjal bo‘lgan uydan, qirq kun barakot qochadi”, deb aytishmagan. Rivoyat qilinishicha “Ahl-inoq, mehr-oqibatli, serbaraka xonadonni tark etmoqchi bo‘lgan “baraka” odam suratiga kirib ularni sinamoqchi bo‘libdi va o‘sha xonadon sohibiga: “Men shuncha yil sizlarning uylaringda bo‘ldim. Mening sababimdan sizlar to‘q-faravon, hech narsaga zoriqmay yaxshi yashadidlaring. Endi menga ruxsat beringlar, boshqa xonadonlarga ham borayin”, debdi. Bu voqeadan oila ahli xomush bo‘libdilar.

Shunda kichik kelin qaynotasiga qarata sekingina: “Otajon barakaning qolishga iloji yo‘q ekan, mayli ruxsat beraylik. Na iloj, ammo oramizdan mehr-oqibat, o‘zaro muhabbat ketmasin” debdi. Buni samimiy javobini eshitgan baraka esa “Mehr-oqibat bor joyda men ham qolaman. Tinchlik-totuvlik, mehr bor joydan ketolmayman” degan ekan.

Qissadan hissa shulki, oilalarimiz tinch-totuv, farzandlarimiz baxtli, komil insonlar bo‘lsin. Oilada ijtimoiylashuv jarayoni ham sodir bo‘ladi. Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta’sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o`ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkichnchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, soh va salomat shaxs bo`lib yetishish imkoniyatiga ega bo`ladi. Ya’ni, oila va uning sog’lom ma’naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o`ziga o`xshash

shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo`lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo`ysunishga o`rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Nikoh va oila yetukliligi deyilganda oila quruvchin yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko‘rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega bo‘lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko‘plab ma'lumotlar berilgan. Klinik kuzatishlar ma'lumotlarga ko‘ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog‘atga yetish) 12 — 14 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda esa 14—16 yoshga to‘g‘ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida kechroq ro‘y berishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlar 2 yoshga farq qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotida albatta oilalarning o‘rni va shu oilalarda tarbiya olayotgan kelajak avlodning ro‘li ham juda beqiyos ahamiyatni kasb etadi. Shu sababli oila qurmoqchi bo‘lgan yoshlarimiz, talaba yigit qizlarimiz nikohga har tomonlama tayyor holda oila qurishlari darkor. Yurtimizda ular uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan oilalarni mustahkamligini taminlash yoshlarni nikohga tattorlash borasida nikoh uylarida mutaxassislar tomonidan o‘quv kurslari ham tashkil qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimova, V. Oila psixologiyasi. Toshkent-2007. 49-50 b.
2. Shoumarov, G'.B. Oila psixologiyasi. Toshkent-2008. 72-74 b.
3. www.ziyonet.uz
4. www.pedagogika.uz

IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘SMIRLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ADAPTATSIYASINING KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Adu psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD) N.R.Mamatova
Adu psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti F.U.Ahmadjonova

Annotatsiya: Ushbu tezisda imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayoni va ularning kognitiv rivojlanish dinamikasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik chuqur ilmiy-nazariy hamda amaliy asosda o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘smirlik davrida adaptatsiya jarayonining psixologik mezonlari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov tizimlari, pedagogik yondashuvlar va bilish jarayonlariga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilindi. Shuningdek, Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani 4-sonli alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilarga ixtisoslashgan maktab-internatida o‘tkazilgan kuzatuv va suhbatlar asosida amaliy natijalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan o‘smirlar uchun to‘g‘ri tashkil etilgan psixologik, pedagogik va ijtimoiy muhit ularning bilish jarayonlarini faollashtirishi, motivatsiyani kuchaytirishi va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Tezis yakunida ta’lim muassasalari, oila va psixologlar uchun aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, kognitiv rivojlanish, imkoniyati cheklangan o‘smirlar, maxsus ta’lim, psixologik muhit.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiya jarayonining kognitiv rivojlanishga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asoslash, adaptatsion omillarni tizimli tahlil qilish va ular asosida samarali psixologik-pedagogik yondashuvlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari asosan quyidagilar hisoblanadi:

1. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning psixologik holati, shaxs taraqqiyoti va kognitiv jarayonlari bo‘yicha ilmiy manbalarni o‘rganish.

2. Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya mazmunini tahlil qilish va uning yosh xususiyatlariga ko‘ra differensial jihatlarini aniqlash.

3. Kognitiv rivojlanishning (xotira, tafakkur, nutq, diqqat, idrok) asosiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish va ularni adaptatsiya jarayoni bilan bog‘lash.

4. Xojaobod tumani 4-sonli maxsus maktab-internatda o‘smirlar bilan olib borilgan suhbat, kuzatuv va psixodiagnostik tahlillar asosida empirik natijalarni shakllantirish.

5. Kognitiv rivojlanishni faollashtirishga ijobiy ta’sir etuvchi psixologik koreksion va pedagogik metodlarni taklif etish.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish, maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan muhit yaratish va ularning jamiyatdagi ishtirokini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi nafaqat ularning shaxsiy farovonligiga, balki ta’limdagi muvaffaqiyatiga, bilish jarayonlarining shakllanishiga va keyingi kasbiy yo‘naltirilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlik davrida psixologik o‘zgarishlar keskinlashib, shaxsning jamoadagi mavqei, o‘zini anglash jarayoni, emotsional barqarorlik va motivatsiya kabi omillar kuchayadi. Imkoniyati cheklangan o‘smirlar uchun esa bu jarayon yanada murakkab kechadi. Shu sababli, adaptatsiya mexanizmlarining tabiati va ularning kognitiv rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Psixologiyada adaptatsiya shaxsning tashqi muhitga moslasha olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. U uch asosiy komponent orqali namoyon bo‘ladi:

- psixologik moslashuv — his-tuyg‘ular barqarorligi, stressga chidamlilik, o‘zini boshqara olish;
- ijtimoiy moslashuv — jamoaga qo‘shilish, muloqot ko‘nikmalari, o‘z o‘rnini topish;
- pedagogik moslashuv — o‘quv jarayoniga moslasha olish, intellektual talablarni bajarish, motivatsiya.

Imkoniyati cheklangan o‘smirlarda ushbu komponentlar turlicha shakllanadi. Ularning psixofiziologik xususiyatlari, muloqotdagi cheklovlar, o‘z-o‘zini anglashi va emotsional barqarorligi boshqa o‘smirlarga qaraganda farqlanadi.

Kognitiv rivojlanish — shaxsning bilish jarayonlari tizimining shakllanishi va takomillashuvi jarayoni bo‘lib, u quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- idrok;
- diqqat;
- xotira;
- tafakkur;
- nutq;
- analiz va sintez ko‘nikmalari.

Kognitiv rivojlanishning sifat darajasi o‘smirning o‘quv faoliyati, motivatsiyasi, mustaqil fikrlashi va muammolar yechish qobiliyatini belgilab beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- muvaffaqiyatli adaptatsiya bo‘lgan o‘smirlarning tafakkuri faol, xotira ko‘rsatkichlari barqaror, diqqatning konsentratsiyasi yuqori bo‘ladi;
- moslasha olmagan o‘smirlarda esa xavotir, ishonchsizlik, o‘zini past baholash, ijtimoiy izolyatsiya kognitiv faoliyatni sekinlashtiradi.

Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash kuchli bo‘lgan muhitda o‘quvchilarda:

- o‘quv faoliyatiga qiziqish oshadi,
- idrok jarayonlari tezlashadi,
-tushunish, eslab qolish, taqqoslash, mantiqiy bog‘lash ko‘nikmalari yaxshilanadi.

Xojaobod tumani 4-sonli maktab-internatda kuzatuvlar davomida o‘quvchilarda moslashtirilgan psixologik mashg‘ulotlar, korreksion ishlar, logopedik mashg‘ulotlar va ijtimoiy faoliyatlarga jalb etish kognitiv rivojlanishni sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. O‘quvchilar orasida xotira testlarida 15–20% ijobiy o‘sish, muloqotda faollik, diqqatning jamlanishi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining kuchayishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida 30 nafar 13–16 yoshli o‘smir bilan suhbat, diagnostika va kuzatuv ishlari olib borildi. Natijalar quyidagicha:

- 40% o‘smirda moslashish jarayoni yetarli darajada shakllangan;
- 35% da o‘rtacha darajada qiyinchiliklar kuzatilgan;
- 25% da esa yuqori darajali moslashuv muammolari aniqlangan.

Xotira, tafakkur va diqqatni o‘lchash testlari natijalariga ko‘ra:

- yaxshi moslashgan o‘smirlar yuqori kognitiv ballarga ega bo‘ldi;
- moslashuv qiyinchiligiga ega guruhda xotira hajmi past, mantiqiy fikrlash sust, diqqatning tez chalg‘ishi kuzatildi.

Ijtimoiy faol, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda muntazam qatnashuvchi o‘smirlar kognitiv rivojlanishda oldinda bo‘ldi.

Yakka tartibda izolyatsiyada bo‘ladigan yoki muloqotdan chekinadigan o‘smirlar esa sust kognitiv dinamikaga ega bo‘ldi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya imkoniyati cheklangan o‘smirlarning kognitiv rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun:

— Psixologik xizmatlarni kuchaytirish;
— Moslashtirilgan dars metodikalarini kengaytirish;
— Oila va maktab hamkorligini mustahkamlash;
— O‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb qilish;
— Korreksion mashg‘ulotlarni muntazam olib borish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari yana shuni ko‘rsatdiki:

- Ijtimoiy-psixologik adaptatsiya kognitiv rivojlanishda asosiy determinantlardan biridir.
- Muvaffaqiyatli moslashgan o‘smirlarning idrok, xotira, tafakkur va motivatsiya ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi.
- Maxsus maktab-internatlarda psixologik xizmat faoliyati kuchli bo‘lgan muhit kognitiv rivojlanishning tezlashuviga olib keladi.
- O‘smirning oila bilan muloqoti, o‘qituvchilar yordami va ijtimoiy faollik darajasi kognitiv kompetensiyalarni belgilovchi omillardandir.

Quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

1. Maxsus maktablarda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.
2. O‘quvchilar uchun kognitiv treninglar, diqqatni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkazish.
3. Har bir o‘smirning shaxsiy rivojlanish xususiyatlariga mos individual ta’lim yo‘llarini ishlab chiqish.
4. Ota-onalar bilan muntazam psixologik-ma’rifiy seminarlar tashkil etish.
5. O‘smirlarning jamoaga qo‘shilishini kuchaytiruvchi ijtimoiy rolli o‘yinlar, muloqot treninglari, sport va san’at mashg‘ulotlarini keng joriy etish.

Adabiyotlar:

1. Vygotskiy, L. S. Defektologiya asoslari. - Moskva: Pedagogika, 1983. — 320 b.
2. Leontev, A. N. Faoliyat, ong va shaxs. — Moskva: Smysl, 2005. — 399 b.
3. Xolbekov, O. Maxsus ta’lim psixologiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018. — 280 b.
4. Murodova, M. Korreksion pedagogika asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 256 b.
5. UNESCO. Inclusive Education Global Monitoring Report. — Paris: UNESCO Publishing, 2020. — 450 p.

GURUHLARARO KONFLIKTLARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Adu Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi
(PhD) N.R.Mamatova
Adu Psixologiya mutaxasisligi 1-bosqich magistranti
Baltabaeva Nilufar Batirbay qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola guruhlararo konfliktlarni psixologik nuqtai nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Ish ilmiy manbalar tahliliga asoslanib, guruhlararo qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni yoritadi. Maqolada ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi, kontakt gipotezisi va superordinate maqsadlar konsepsiyasi kabi asosiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, guruhlararo nizolarni kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni oshirishda psixologik treninglar, empatiya va muloqot ko‘nikmalarining roli haqida ilmiy tadqiqotlar asosida so‘z boradi. Matnda guruhlararo konfliktlarning ijtimoiy va madaniy konteksti, stereotiplar va guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq tafsilotlar keltirilgan. Shu orqali tezis konfliktlarni ilmiy tushunish, ularni oldini olish va boshqarishning amaliy yondashuvlarini ham yoritadi.

Kalit so‘zlar: guruhlararo konflikt, psixologik yondashuv, ijtimoiy identifikatsiya, kontakt gipotezisi, superordinate maqsadlar.

Abstract: This thesis is devoted to the psychological study of intergroup conflicts. Based on an analysis of scientific sources, it examines the factors influencing the emergence and development of intergroup disagreements. The thesis discusses key approaches such as social identity theory, the contact hypothesis, and the concept of superordinate goals. Furthermore, it highlights the role of psychological trainings, empathy, and communication skills in reducing conflicts and enhancing social stability. The work also considers the social and cultural context of intergroup conflicts, as well as the influence of stereotypes and intra-group relationships. Overall, the thesis provides a comprehensive understanding of intergroup conflicts and presents practical approaches for their prevention and management.

Keywords: intergroup conflict, psychological approach, social identity, contact hypothesis, superordinate goals.

Аннотация: Данный тезис посвящён психологическому изучению межгрупповых конфликтов. На основе анализа научных источников рассматриваются факторы, влияющие на возникновение и развитие межгрупповых противоречий. В работе обсуждаются ключевые подходы, такие как теория социальной идентичности, гипотеза контакта и концепция суперординарных целей. Кроме того, подчеркивается роль психологических тренингов, развития эмпатии и коммуникативных навыков в снижении конфликтов и укреплении социальной стабильности. Также рассматривается социальный и культурный контекст межгрупповых конфликтов, влияние стереотипов и внутригрупповых отношений. В целом, тезис обеспечивает комплексное понимание межгрупповых конфликтов и предлагает практические подходы к их предотвращению и управлению.

Ключевые слова: межгрупповой конфликт, психологический подход, социальная идентичность, гипотеза контакта, суперординарные цели.

Guruhlararo konfliktlar ijtimoiy psixologiyada eng muhim va murakkab hodisalardan biri hisoblanadi. Bu hodisa shaxslararo va guruhlararo munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega [1.275]. Konfliktlar ko‘pincha qarama-qarshi qiziqishlar, qadiryatlar va guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy rollar, odamlar ongida qotib qolgan steriotiplardan kelib chiqadi. Shu sababli, guruhlararo nizolarni psixologik jihatdan tahlil qilishda ularning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, kognitiv va madaniy omillarni chuqur o‘rganish zarur.

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi guruhlararo qarama-qarshiliklarning tushuntirishida muhim rol o‘ynaydi. Bu nazariyaga ko‘ra, shaxslar o‘zlarini guruh a’zosi sifatida aniqlash orqali

o‘z guruhining obro‘sini himoya qilishga intiladi va shu bilan boshqa guruhlar bilan raqobat yuzaga keladi [2. 12]. Shu nuqtai nazardan, guruhlararo nizolarni psixologik tahlil qilishda bu kontseptsiya asosiy vosita hisoblanadi.

Sherifning “Ustun maqsadlar” nazariyasi guruhlarni umumiy maqsad yo‘nalishida birlashtirish orqali hamkorlikni kuchaytiradi va konfliktlarni kamaytiradi [5.101]. Shu bilan birga, kontakt gipotezisi qarama-qarshi guruhlar o‘rtasidagi ijobiy muloqot orqali stereotiplarni kamaytirishga yordam beradi [4.4]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuvlar guruhlararo munosabatlarni yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda samarali vositalardir.

Zamonaviy olimlar guruhlararo konfliktlarni psixologik o‘rganishda ijtimoiy treninglar va intervensiyalarni tavsiya qiladi. Treninglar empatiya, tinglash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali qarama-qarshi guruhlar o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi [3.150]. Shu bilan birga, ijtimoiy kontekst va madaniy xususiyatlar konfliktning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun tadqiqotlar har doim jamiyatning madaniy kontekstini hisobga olgan holda olib borilishi muhimdir [6.36].

Guruhlararo nizolarni o‘rganishda psixologik yondashuvlar bir qator tamoyillarga asoslanadi.

1. Birinchi - konfliktni nafaqat salbiy hodisa sifatida ko‘rish mumkin, balki u ijtimoiy o‘sish va guruhlararo hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatidir.
2. Ikkinchi - konfliktni tushunishda stereotiplar, ijtimoiy rollar va shaxslarning o‘zaro identifikatsiyasini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.
3. Uchinchi jihat — konfliktni boshqarishda treninglar, intervensiyalar va ijtimoiy yondashuvlarning samaradorligi [1. 278].

Guruhlararo munosabatlarni o‘rganish va tahlil qilishda ijtimoiy psixologik yondashuvlar, empatiya va umumiy maqsadlar muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konfliktlar qanchalik chuqur o‘rganilsa, shunchalik samarali boshqarish va hal etish imkoniyatlari oshadi [5. 102] Shu sababli, guruhlararo konfliktlar psixologik o‘rganishning muhim obyekti bo‘lib, ular nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda guruhlararo konfliktlarni o‘rganish psixologik nuqtai nazardan yuqori ilmiy ahamiyatga ega. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy identifikatsiya, kontakt gipotezisi va superordinate maqsadlar nazariyalari konfliktlarni tushunish va boshqarish uchun asosiy vositalardir. Shu bilan birga, psixologik treninglar va ijtimoiy intervensiyalar guruhlararo munosabatlarni yaxshilash va nizolarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar guruhlararo konfliktlarni psixologik va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cuhadar, E., & Dayton, B. *The Social Psychology of Identity and Inter-group Conflict.* International Studies Perspectives, 12(3), 273–293 (2011), s. 275–278.
2. Bilali, R. *The need for context in intergroup conflict research.* Nature Reviews Psychology (2025), s. 12–15.
3. Solixodjayeva, D.A. *Shaxslararo munosabatlar va konfliktlar psixologiyasi.* Ustozlar Uchun, 72(5), 149-152 (2025), s. 150.
4. Abdurashidova, G. *Guruhlararo ziddiyatlar va konfliktlar: ijtimoiy psixologiyaning muammolari.* incop.org (2024), s. 4.
5. Sherif, M. *Superordinate goals in social psychology.* (1958), s. 101–102.
6. Khukhlaev, O.E., Aleksandrova, E.A., Zykov, E.V. *Religion and intergroup conflict.* Journal of Modern Foreign Psychology, 7(4), 32-39 (2018), s. 36.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA SOHA VAKILLARIDA KASBIY YO‘NALGANLIKVA KASBIY KOMPETENTLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

Toshkent kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali
Psixologiya yo‘nalishi 2- kurs magistranti
Xakimova Feruza Qutpiddinova
E-mail:mamadaliyevbehruz74@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda biz pedagogika va psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar - xususan, o‘qituvchilar va maktab psixologlari orasida kasbiy yo‘nalganlik va kasbiy kompetentlikning qanday namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Scopus indeksli va Elsevier nashr etgan manbalardagi ishonchli modellarga asoslanib, kasbiy kompetentlik kognitiv bilimlar (masalan, pedagogik mazmun bilimi), motivatsion yo‘nalishlar, e‘tiqodlar va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini tashkil etishi ta’kidlab o‘tiladi. Kasbiy yo‘nalganlik esa insonning o‘z kasbiga sadoqati, kasbiy identifikatsiya va o‘qituvchilik yoki psixologik maslahat berish kasbiga ichki motivatsiyaning mosligini ifodalaydi. Tahlil natijasida ko‘rishimiz mumkinki, bu elementlar o‘qituvchi va psixologning kundalik ishida samarali o‘qitish amaliyotlari, o‘quvchilarni faol jalb qilishi, emotsiyalarini tartibga solish orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, kasbiy yo‘nalganlik, o‘qituvchi - trenerlar, maktab psixologlari, pedagogik psixologiya, kasbiy identifikatsiya, o‘z - o‘zini boshqariladigan o‘rganish

Kirish. Pedagogika va psixologiya sohalarida o‘qituvchilar, tarbiyachilar va maktab psixologlari bolalar va yoshlarning o‘rganishi va shahsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu sohalardagi kasbiy kompetentlik ko‘p o‘lchovli bo‘lib, bilim, ko‘nikmalar, e‘tiqodlar, motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarishni o‘z ichiga oladi [1]. Kasbiy yo‘nalganlik esa insonning o‘z kasbiga sadoqati, kasbiy o‘zlikni his qilishi va kasbga mansublik tuyg‘usini aks ettiradi [2, 3]. Ushbu konstruktsiyalarning namoyon bo‘lishi kundalik amaliyotlarda o‘zini yaqqol ko‘rinadi: yuqori kompetentlikka ega mutaxassislar darsni moslashuvchan tashkillashtira oladi, axloqiy me’yorlarga qat’iy amal qiladi. Kuchli kasbiy yo‘nalganlik esa o‘qituvchi yoki psixologda doimiy izlanish, yangilik kiritish va qiyinchiliklarga qaramay ishda davom etish ruhini uyg‘otadi. Bu masalani chuqur tushunish kelajakdagi o‘qituvchi va psixologlarni tayyorlash dasturlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Shuningdek, tayyorlov dasturlarini yaxshilash va yuqori sifatli ta’lim natijalarini ta’minlash uchun zarurdir.

Adabiyotlar tahlili. O‘qituvchilar kasbiy kompetentligini o‘rganuvchi modellarda ko‘pincha to‘rtta asosiy jihatni ajratib ko‘rsatiladi: kasbiy bilimlar (mazmun bilimi va pedagogik mazmun bilimi), e‘tiqodlar, motivatsion yo‘nalishlar va o‘z - o‘zini boshqarish [1, 4]. Pedagogikada chuqur bilimga ega o‘qituvchilar, sinf boshqaruvi va o‘quvchilar motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash orqali ajralib turadi. Masalan, yuqorida aytib o‘tganimizdek, kuchli pedagogik - psixologik bilimga ega o‘qituvchilar har bir vaziyatga mos keladigan yondashuvlarni qo‘llab, o‘qitish sifatini va o‘quvchilar yutuqlarini sezirarli oshira oladi. Agar o‘qituvchining o‘zida emotsiyalarni boshqarishda muammo bo‘lsa, bu o‘quvchilar bilan muloqotni boshqarish yoki axloqiy masalalalardagi qiyinchiliklarga olib keladi.

Kasbiy yo‘nalganlik kasbga sadoqat va kasbiy o‘zlikni shakllanishi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchilar orasida o‘tkizilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yutuq motivatsiyasi va kasbiy identifikatsiya amaliyotidagi ko‘nikmalarga ijobiy ta’sir qiladi [6]. Kasbiy ta’lim muhitida esa yo‘nalganlik o‘qituvchilarga o‘quvchilarning karyera yo‘nalishini aniqlashda muhim yordam beradi.

Integrativ yondashuvlar esa bu elementlarni birlashtirib, o‘qituvchining o‘zi mustaqil o‘rganuvchi bo‘lishi hamda o‘quvchilarda ham shunday ko‘nikma shakllanishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Bunda refleksiya va moslashuvchan o‘qitish orqali kompetentlik eng yorqin ko‘rinishda ifodalanadi.[7].

Muhokama. Pedagogika va psixologiya mutaxassislarida kasbiy yo‘nalganlik va kompetentlik bir-biri bilan chambarchas bog’langandir. Uning namoyon bo‘lishi o‘zaro bog‘langan xatti - harakatlar va munosabatlar orqali sodir bo‘ladi. Kuchli yo‘nalganlik - ijobiy kasbiy o‘zlik va motivatsion moslik bilan belgilanadi - kompetentlikning rivojlanishi va amalda qo‘llanilishini rag‘batlantiradi. O‘qituvchilar uchun bu raqamli texnologiyalarni darsga joriy qilish yoki inklyuziv muhitlarni shakllantirish kabi innovatsion pedagogik amaliyotlarda namoyon bo‘ladi. Bularning hammasi o‘qituvchini o‘zini boshqara olishi va o‘quvchilarning salohiyatiga ishonishi bilan mustahkamlanadi. Biz psixologiya mutaxassislaridagi (masalan, maktab maslahatchilari yoki o‘qituvchi-psixologlar) kompetentlikni emotsional holatlarni boshqarish, kasbiy yo‘nalish berish va axloqiy me’yorlarga amal qilishlari orqali ko‘rishimiz mumkin. Empirik dalillar yuqori kompetentlikni yaxshiroq o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmasi va karyeraga tayyorgarligini oshirishini isbotlaydi. Agar kasbiy yo‘nalganlik zaif bo‘lsa, mutaxassisda charchoq va kompetentlikdagi bo‘shliqlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tayyorlov dasturlarida bilim berish bilan birga kasbiy o‘zlikni shakllantirish va motivatsiyani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish lozim – bu amaliyotdagi ijobiy namoyon bo‘lishlarni yanada kuchaytiradi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu jarayonlarni turli madaniy muhitlarda empirik usullar bilan o‘rganishi, Kunter va boshqalar (2013) taklif qilgan tasdiqlangan modellar asosida davom ettirishi mumkin [1].

Xulosa. Kasbiy yo‘nalganlik va kompetentlik pedagogika hamda psixologiya mutaxassislarida bir-birini to‘ldirib, o‘zaro sinergiya hosil qiladi. Bu esa dars sifati, o‘quvchilarning rivojlanishi va axloqiy professional faoliyatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi va psixologlarning samaradorligini sezilarli oshirish uchun motivatsiya, kasbiy o‘zlik va o‘z-o‘zini boshqarishni kasbiy rivojlanishning markaziga qo‘yish kerak. Ushbu tahlil dalillar asosida yaxlit, integrativ tayyorlov yondashuvlarining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. sinergik tarzda namoyon bo‘lib, o‘qitish sifati, o‘quvchilar rivojlanishi va axloqiy amaliyotga ta’sir qiladi. Motivatsion yo‘nalishlar, identifikatsiya va o‘z - o‘zini boshqarishni kasbiy rivojlanishda ustuvor qilib, o‘qituvchilar va psixologlar samaradorligini oshirishi mumkin. Ushbu sintez dalillarga asoslangan yaxlit tayyorlov yondashuvlarining zarurligini ta’kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdrakhmanova, R.B. (2005). Formation of the professional orientation of teachers and psychologists.
2. Blömeke, S., Gustafsson, J., & Shavelson, R. (2015). Beyond dichotomies: Competence viewed as a continuum. Zeitschrift für Psychologie, 223(1), 3-13.
3. Ferguson, A., & Capper, L. (2024). Educator experiences with postgraduate psychology students exhibiting professional competence issues. Psychology Teaching Review.
4. Hotaman, D. (2009). Vocational guidance aid in the orientation to teaching profession and teacher education.
5. Kunter, M., et al. (2013). Professional competence of teachers: Effects on instructional quality and student development. Journal of Educational Psychology, 105(3), 805-820.
6. Qayumov, B. Z. (2025). O‘smirlarda kreativlik namoyon bo‘lishining hududiy tafovutlari maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(6).
7. Baxtiyor, Q. (2024). The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement motivation. In Next Scientists Conferences (Vol. 1, No. 01, pp. 24-27).
8. Baxtiyor, Q. (2024). The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement.

MOBIL O‘YINLARNING KOGNITIV RIVOJLANISHGA KO‘RSATADIGAN IJOBIY VA SALBIY TA’SIRLARINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Turamov Muhammadzohid Rustamjon o‘g‘li
University of Business and Science
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
turamovmuhammadzohid@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-6492-2639

Kirish: Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida mobil o‘yinlar zamonaviy yoshlarning kundalik hayotiga chuqur kirib bormoqda. Bugungi kunda bolalar, o‘smirlar va kattalarning bo‘sh vaqtining katta qismi mobil o‘yinlarga sarflanmoqda. Shu bois, mobil o‘yinlarning inson kognitiv rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish muhim hisoblanadi.

Kognitiv rivojlanish - bu diqqat, xotira, tafakkur, idrok, muammoni hal qilish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarning shakllanishi va mustahkamlanishini bildiradi. Mobil o‘yinlar mazkur jarayonlarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: bir tomondan, ularni rivojlantiradi, boshqa tomondan esa ortiqcha foydalanilganda salbiy oqibatlarga olib keladi.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti mobil o‘yinlarning kundalik hayotga keng kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Mobil o‘yinlar kognitiv jarayonlarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi: ular diqqat, tezkor reaksiyalar va vizual idrokni faollashtirishi mumkin, biroq nazoratsiz qo‘llanganda kognitiv susayish va psixologik buzilishlarga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Ijobiy ta’sirlar asosan diqqat jarayonlarining kuchayishi, ishchi xotiraning faollashuvi, fazoviy idrokning rivojlanishi va problem-solving qobiliyatining oshishi orqali namoyon bo‘ladi. Tezkor o‘yinlarda talab qilinadigan sensor-motor integratsiya frontal korteksning faoliyatini yaxshilab, multitasking qobiliyatini oshiradi.

Salbiy ta’sirlar esa haddan tashqari stimul yuklamasi tufayli diqqat buzilishi, kognitiv charchoq, impulsivlikning ortishi va uyqu ritmining buzilishi ko‘rinishida kuzatiladi. Mukofotlash tizimining (dopamin) faol rag‘batlantirilishi o‘yin qaramligini shakllantiradi, bu esa bajarish funksiyalari, mas’uliyat, motivatsiya va o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi inson hayotining deyarli barcha jabhalariga ta’sir qilmoqda. Jumladan, o‘smirlar o‘rtasida raqamli o‘yinlarga qaramlik bugungi dunyoda juda keng tarqalgan muammodir. Ota-onalar va psixologlar o‘quvchilar virtual olamga tobora ko‘proq sho‘ng‘ib ketayotganini, voqelik muammolaridan uzoqlashishga yoki o‘yin-kulgi izlashga intilayotganini kuzatadilar. Shu bilan birga, kompyuter va telefon bolaga foyda keltirishi mumkin - bu bebaho ma’lumot, o‘quv materiallari, qiziqarli kitoblar, filmlar, butun dunyo bo‘ylab yangi do‘stlar orttirish imkoniyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Ko‘pgina raqamli o‘yinlar ma’lum darajada rivojlantiruvchi salohiyatga ega. Masalan, mantiqiy o‘yinlar va boshqotirmalar tahlil qilish, aloqalarni topish va mantiqiy zanjirlarni qayta tiklash kabi kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish esa kommunikativ qobiliyatlarni takomillashtirish, shuningdek, chet tillarini o‘rganish imkonini yaratadi.Biroq, kompyuter va mobil qurilmalarning ushbu ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayniqsa o‘smirlar orasida uchraydigan doimiy raqamli qaramlik kabi salbiy tomonlar ham mavjud. O‘smirlar yosh xususiyatlari sabab bunday psixologik muammolarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalarga qaramlik nafaqat o‘smirlarda, balki kichik maktab yoshidagi bolalar va hatto kattalarda ham rivojlanishi mumkin.

So‘nggi yillarda smartfonlarning keng tarqalishi mobil o‘yinlarning global miqyosda tez o‘sishiga olib keldi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilga kelib mobil o‘yinlar umumiy o‘yin industriyasining yarmidan ko‘pini tashkil qilgan.

Mobil o‘yinlarning ijobiy ta’sirlari:

Mobil o‘yinlar diqqatni kuchaytirishga yordam beradi. O‘yinchi o‘yin jarayonida bir necha obyektni kuzatishi, vazifalarga mos ravishda yo‘naltirilgan harakatni bajarishi va chalg‘ituvchi omillarni e’tiborsiz qoldirishi kerak bo‘ladi. Bu selektiv diqqatning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xotira jarayonlari ham mobil o‘yinlar ta’sirida rivojlanadi. O‘yin davomida o‘yinchi topshiriqlarni, resurslarni, xarita joylashuvini yoki raqib harakatini eslab qolishga majbur bo‘ladi. Bu ishchi xotiraning faollashuviga va axborotni qayta ishlash tezligining oshishiga yordam beradi.

Ko‘p o‘lchamli va strategik o‘yinlar fazoviy tafakkurni kuchaytiradi. O‘yinchi makon ichidagi obyektlarning joylashuvini, masofalar va yo‘nalishlarni tez tasavvur qila oladi. Bu ko‘nikma texnik, dizayn va muhandislik yo‘nalishlarida foydali hisoblanadi.

Mobil o‘yinlar ko‘pincha muammoni hal qilish, strategiya tanlash va tafakkur yuritishni talab qiladi. Bu jarayon mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga, variantlarni solishtirish va eng maqbul yechimni topish qobiliyatining shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, tez o‘zgaruvchan vaziyatlar o‘yinchini tez qaror qabul qilishga o‘rgatadi va reaksiyaning tezlashuviga sabab bo‘ladi.

Mobil o‘yinlarning salbiy ta’sirlari:

Mobil o‘yinlarni haddan tashqari ko‘p o‘ynash diqqatning tarqoqlashishiga olib kelishi mumkin. O‘yinlarda kuchli va tezkor stimullar ko‘pligi sababli o‘yinchi real muhitda diqqatni jamlashda qiyinchilikka duch keladi. Bu ayniqsa o‘quvchilarda tez-tez uchraydi.

Uzoq muddatli o‘yin sessiyalari kognitiv charchoqni yuzaga keltiradi. Miya faoliyati zo‘riqib, eslab qolish, diqqatni jamlash va fikrlash jarayonlari sekinlashadi. Charchoq umumiy kognitiv samaradorlikka salbiy ta’sir qiladi.

Ko‘plab mobil o‘yinlar tez-tez mukofot berish tamoyiliga asoslangan. Bu holat dopamin chiqarilishini oshiradi va natijada o‘yinchida impulsivlik, sabrsizlik va shoshma-shosharlik kuchayadi. O‘yin ichidagi tez natija olish ehtiyoji real hayotda ham impulsiv qarorlarga olib kelishi mumkin.

Mobil o‘yinlarni, ayniqsa kechqurun yoki yotishdan oldin o‘ynash uyqu ritmini buzadi. Smartfon ekranining nuri melatonin ishlab chiqilishini kamaytiradi va uyquning sifati pasayadi. Ertalabki hushyorlikning sustligi kun davomida diqqatning pasayishiga olib keladi.

Mobil o‘yinlarni haddan tashqari ko‘p o‘ynash qaramlikni yuzaga keltiradi. O‘yinchi doimiy o‘yin haqida o‘ylaydi, ularsiz tinchlana olmaydi, o‘yin vaqtini nazorat qila olmaydi. Bu holat ijtimoiy faollikning kamayishi, o‘qishga qiziqishning yo‘qolishi, irodaviy boshqaruvning sustlashuvi bilan namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki mobil o‘yinlarning kognitiv rivojlanishga ta’siri ikki tomonlama - ijobiy va salbiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Ular diqqat va xotira jarayonlarini rivojlantirishi, tezkor qaror qabul qilish, fazoviy tafakkur va mantiqiy fikrlashni oshirishi mumkin. Shu bilan birga, ortiqcha foydalanish kognitiv charchoq, impulsivlik, uyqu buzilishi va o‘yin qaramligiga olib keladi. Mobil o‘yinlardan foydalanishda eng muhim omil - me’yor va nazoratdir. Ta’siri ko‘proq o‘yinning mazmuni, davomiyligi, yoshga mosligi va shaxsning psixologik xususiyatlariga bog‘liq. O‘yin tanlashda mazmunning konstruktivligi, zo‘ravonlik darajasi va o‘yin vaqtining cheklanganligi kabi mezonlarga amal qilish zarur. Psixologlar, pedagoglar va ota-onalar tomonidan nazoratning kuchaytirilishi mobil o‘yinlarning salbiy jihatlarini kamaytirishga yordam beradi.Shuningdek, mobil o‘yinlardan o‘quv jarayoniga moslashtirilgan, rivojlantiruvchi topshiriqlar va kognitiv mashqlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda foydalanish tavsiya etiladi. Raqamli avlod uchun mobil o‘yinlar tabiiy muhit bo‘lgani sabab, ularni taqiqlash emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirish eng to‘g‘ri yondashuvdir.

Mobil o‘yinlarning kognitiv rivojlanishga ta’siri katta istiqbolga ega bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Ularni to‘g‘ri boshqarish va me’yorlash orqali jamiyat, ta’lim va psixologik rivojlanish jarayonlariga ijobiy hissa qo‘shish mumkin. Mobil o‘yinlardan foydalanishda me’yoriy tartib, vaqt cheklovi va psixologik nazorat muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. CAPMH. (2020). *Video gaming addiction and its association with memory,attention and learning skills in Lebanese children*. https://capmh.biomedcentral.com/articles/10.1186/s13034-020-00353-3
2. Ding, Y. (2025). *Playing Action Video Games Affects Cognitive Ability*. https://drpress.org/ojs/index.php/EHSS/article/view/2911
3. Turamov, M. R. o‘g‘li. (2025). *The Importance of Psychological Preparation of Preschool Children for School Education*. **Maktabgacha va maktab ta’limi**, 11(538–540)
4. Jo’rayeva, N.X. *Ta’limiy o’yinlar orqali o’quvchilarning kognitiv faoliyatini tashkil etishning o’ziga xosliklari* https:// worldlyjournals.com/index. php/Yangiizlanuvchi/article/view/16161
5. Musayeva, N.A. *Ta’limiy o’yinlar va kreativ qobiliyat tushunchalarining o’rganilganlik mohiyati.*
6. Turamov, M.R. (2025). Raqamli o‘yinlarga (mobile games) qaramlikning kognitiv samaradorlikka salbiy ta’siri. *Maktabgacha va maktab ta’limi*, 12, 601–604.
7. Turamov, M. (2025). Ta’lim tizimida gender barqarorlikni oshirishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari. Research and Implementation, 3(4), 20–24. Retrieved from https://rai-journal.uz/index.php/rai/article/view/1363
8. Qayumov, B. Z. (2025). O‘smirlarda kreativlik namoyon bo‘lishining hududiy tafovutlari. maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(6).
9. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(11).

OTA-ONA TARBIYASI USLUBINING O‘SMIRLAR AFFILIATSIYA MOTIVIGA TA’SIRI

Andijon Davlat Universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi Phd Mamatova Nafisaxon Ro‘ziboyevna
Andijon Davlat Universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya mutaxasisligi 1-bosqich magistranti Saidova Maftuna Xakim qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ota-onalarning tarbiyaviy uslublari (avtoritativ, avtoritar, ruxsatchi, befarq) o‘smirlik davri shaxsida shakllanadigan affiliatsiya motivi - ya’ni boshqalar bilan yaqinlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj darajasi bilan qanday bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot ichki oilaviy kommunikatsiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasi va ota - onalarning psixologik iqlim yaratish malakalari o‘smirlarning ijtimoiy motivlarini rivojlantirishdagi determinant ekanini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tarbiya uslubi, o‘smirlik, affiliatsiya motivi, ota-ona munosabatlari, ijtimoiy ehtiyoj, bog‘lanish nazariyasi, avtoritativ tarbiya.

Аннотация: В данной статье научно анализируется связь стилей родительского воспитания (авторитетный, авторитарный, разрешительный, безразличный) с формирующимся у подростка в подростковом возрасте мотивом аффилиации, то есть уровнем потребности в близости с окружающими и социальной поддержке. В исследовании обосновывается, что внутрисемейная коммуникация, уровень эмоциональной поддержки и умение родителей создавать психологический климат являются детерминантами развития социальных мотивов у подростков.

Ключевые слова: стиль родительского воспитания, подростковый возраст, мотив аффилиации, родительские отношения, социальные потребности, теория привязанности, авторитетное воспитание.

Abstract: This article scientifically analyzes how parental parenting styles (authoritative, authoritarian, permissive, indifferent) are related to the affiliation motive formed in the adolescent personality during adolescence - that is, the level of need for closeness with others and social support. The study substantiates that internal family communication, the level of emotional support, and the skills of parents to create a psychological climate are determinants in the development of social motives in adolescents.

Keywords: parenting style, adolescence, affiliation motive, parental relationships, social needs, attachment theory, authoritative parenting.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, o‘zgaruvchan va ijtimoiy jihatdan keskin tranzit davr hisoblanadi. Bu bosqich shaxsning identifikatsiya jarayonlari, ijtimoiy rollarni egallash, muloqot doirasining kengayishi va emotsional mustaqillikning kuchayishi bilan tavsiflanadi. O‘smirning boshqalar bilan yaqinlik, qabul qilinishi, munosabatlar o‘rnatishga bo‘lgan ehtiyoji— affiliatsiya motivi — aynan shu davrda faol shakllanadi. Psixologik adabiyotlarda affiliatsiya motivi insonning asosiy ijtimoiy ehtiyojlaridan biri sifatida baholanadi[9]

Oiladagi tarbiyaviy muhit, ota-onaning bolaning ehtiyojlariga munosabati, emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasi ushbu motivning shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. O‘zbek oilalarida ota-onalar tarbiya uslublarining xilma-xilligi, emotsional muloqotning yaratilish darajasi va nazoratning o‘ziga xos shakllari o‘smirlarning ijtimoiylashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy tadqiqotlarda avtoritativ (demokratik) tarbiya uslubi o‘smirlarda ijtimoiy kompetensiya, o‘ziga ishonch, sheriklikka ochiqlik va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarining rivoji bilan bog‘liq ekani aniqlangan[10]. Avtoritar yoki befarq tarbiya esa o‘smirlarda ijtimoiy ajralganlik, past o‘z-o‘zini baholash va muloqotga kirishishdan qochish kabi holatlarga sabab bo‘lishi isbotlangan. Shu bois, ushbu maqola ota-onalarning tarbiya uslublarining o‘smirlar affiliatsiya motiviga ta’sirini chuqur ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

Affiliatsiya motivi tushunchasi ilk bor K. Hull va D. McClelland tadqiqotlarida ilmiy muomalaga kiritilgan. McClellandga ko‘ra, affiliatsiya motivi shaxsning ijtimoiy munosabatlar, yaqinlik, birgalikda bo‘lishga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog‘liq[11]. Keyinchalik Maslowning ehtiyojlar ierarxiyasida ham bu ehtiyoj “ijtimoiy ehtiyojlar” sifatida alohida bosqichga ko‘tarilgan. Bu borada eng fundamental tadqiqotlardan biri - Baumeister va Leary tomonidan taklif etilgan “qo‘shilish ehtiyoji nazariyasidir. Unga ko‘ra, inson boshqalarga bog‘lanishga biologik ehtiyojga ega. Shuning uchun ijtimoiy aloqalar yetishmasligi salbiy ruhiy oqibatlarga olib keladi. Diana Baumrind ota-onalarning tarbiya uslublarini to‘rt turga ajratgan:

1. Avtoritativ (demokratik) - yuqori talab + yuqori qo‘llab-quvvatlash
2. Avtoritar - yuqori talab + past iliqlik
3. Ruxsatchi (liberal) - past talab + yuqori iliqlik
4. Befarq - past talab + past qo‘llab-quvvatlash

Demak bundan xulosa qilishimiz mumkinki, avtoritativ uslub o‘smirlarda ijtimoiy faollik, muloqotga tayyorlik, ijobiy o‘zini baholashni kuchaytiradi. Avtoritar uslub qo‘rquv, ijtimoiy chekinish, izolyatsiya xavfini oshiradi. Befarq tarbiya esa ijtimoiy passivlik, o‘z-o‘zini qadrsiz his qilishga olib keladi. Ota-onaga emotsional bog‘lanish shaxsning butun hayoti davomida ijtimoiy munosabatlarni belgilaydi.

Buni quyidagi bog’lanishlarga bo‘lishimiz mumkin:

- Xavfsiz bog‘lanish - yuqori affiliatsiya
- Xavotirli bog‘lanish - haddan tashqari qaramlik
- Qochuvchi bog‘lanish - past affiliatsiya

Shunday qilib, ota-ona munosabati o‘smirlarda ijtimoiy motivlarni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi. Bu borada tarbiya masalasini ham quyidagilarga bo‘lishimiz mumkin:

[9] http://hdl.handle.net/11070.1/5895
[10] Personality and Individual Differences, 74, 259–264. DOI: 10.1016/j.paid.2014.10.031
[11] McClelland, D. (1985). Human Motivation.

Avtoritativ tarbiya - eng yuqori affiliatsiya motivi manbaidagi oilalarda o‘smir o‘zini qadrlangan his qiladi, muloqotdan qo‘rqmaydi, ijtimoiy guruhlarga tez qo‘shiladi va sog‘lom do‘stliklar quradi.

Avtoritar tarbiya esa ijtimoiy chekinishga olib keladi, ya’ni chuqur emotsional muloqot bo‘lmagani uchun o‘smir o‘z fikrini erkin aytolmaydi, tengdoshlar bilan yaqinlashishda qiynaladi, ijtimoiy stressga moyil bo‘ladi.

Ruxsatchi tarbiya - beqaror ijtimoiy ehtiyojlar shakllantiradi. Bunda o‘smir haddan tashqari yaqinlik izlaydi, mustaqil qaror qabul qila olmaydi.

Befarq tarbiya - eng past affiliatsiya motivida emotsional issiqlik bo‘lmagani sababli o‘smir o‘zini yolg‘iz his qiladi, ijtimoiy guruhlardan chetda qoladi, o‘zini past baholaydi.

Demokratik (iliq, talabchan, muloqotga ochiq) tarbiya uslubi. Ona mehribon, ammo izchil. Farzand bilan fikr almashadi, teng huquqli suhbat olib boradi, qo‘llab-quvvatlaydi. Bunda esa o‘smirda ishonch, ochiqlik, muloqotga tayyorlik kuchayadi. Tengdoshlari bilan do‘stlashish, jamoaga qo‘shilish, sog‘lom ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi.

Liberal (chegarasiz, ortiqcha erkinlik beruvchi) tarbiya uslubi. Ona farzandning xatti-harakatiga kam aralashadi, chegaralar va qoidalar noaniq. Jazolash ham, nazorat ham deyarli yo‘q bo‘ladi. O‘smirda ijtimoiy me’yorlarning yetarli shakllanmasligi tufayli barqaror munosabatlar qurishda muammolar paydo bo‘ladi. Do‘stlar bilan yaqin aloqalar ko‘proq hissiy o‘zgaruvchan, beqaror, ba’zan o‘smir haddan tashqari diqqatga intilib, impulsiv ijtimoiy xatti-harakatlar namoyon qiladi.

Giperprotektsiya (ortiqcha asrash, haddan tashqari g‘amxo‘rlik) Ona farzandni ortiqcha qo‘riqlaydi, mustaqillikka imkon bermaydi, xatoga yo‘l qo‘yishdan qo‘rqadi. Oqibatida o‘smir mustaqil muloqot qilishda qiynaladi. Begona odamlar bilan tanishishga qo‘rquv, tashabbusning pastligi kuzatiladi va do‘stlar bilan munosabat qurishda onaga qaramlik aks etadi.

Giper-demanding (ortiqcha talabchanlik, mukammallik bosimi) bunda ona farzanddan maksimal natija kutadi, tanbeh va solishtirish ko‘p bo‘ladi. Natijada o‘smir o‘zini past baholaydi, tengdoshlardan rad etilishdan qo‘rqadi va jamoada o‘zini erkin tutmaslik, muloqotdan chetlanish rivojlanadi. Do‘stlar orasida o‘zini “mos kelmaydigandek” his qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ota-ona tarbiya uslublari o‘smirning ruhiy dunyosi, ijtimoiy hayoti va shaxsiy motivatsiya tizimining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Avtoritativ tarbiya modeli o‘smirning ijtimoiy o‘zlashtirish qobiliyatlarini eng faol rivojlantiradi, ularni muloqotga ochiq, jamoaviy faoliyatga tayyor, psixologik barqaror shaxs sifatida shakllantiradi. Bunday oilalarda o‘smir o‘zini qadrlangan, eshitilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilgani uchun uning affiliatsiya motivi tabiiy ravishda kuchayadi. Bunga qarama-qarshi ravishda avtoritar yoki befarq tarbiya shaxs rivojini cheklaydi, ijtimoiy munosabatlarni qurishda ichki to‘siqlar hosil qiladi, o‘zini qadrlash darajasining pasayishiga olib keladi. Bu esa o‘smirning nafaqat hozirgi davrdagi ijtimoiy faoliyatiga, balki kelajakdagi shaxsiy munosabatlar sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, o‘smirning ijtimoiy ehtiyojlar tizimini shakllantirishda oilaviy muhitning emotsional barqarorligi, ochiq muloqot mavjudligi, ota-onaning mehr va nazorat o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni topa olishi eng muhim determinant hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The need to belong: Desire for interpersonal attachments as a fundamental human motivation - Roy F. Baumeister & Mark R. Leary (1995), Psychological Bulletin, 117(3), 497–529. DOI: 10.1037/0033-2909.117.3.497

2. The need to belong and its association with fully satisfying relationships: A tale of two measures - Paid, 2015; Personality and Individual Differences, 74, 259–264. DOI: 10.1016/j.paid.2014.10.031.

3. Schools as developmental contexts during adolescence — Jacquelynne S. Eccles & Ryann W. Roeser (2011), Journal of Research on Adolescence, 21(1), 225–241. DOI: 10.1111/j.1532-7795.2010.00725.x

4. https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/3110.

5. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/02/rivojlanish-psixologiyasi-pedagogik - psixologiya.pdf.
6. Karimova, V. (2020). Shaxs psixologiyasi. (darslik / o‘quv qo‘llanma /https:// uniwork.buxdu.uz/resurs/12712_1_1f891d7c7c595b285c9c1e279437bd92d9bea294.pdf
7. Qobiliyev, A. (2019). “O‘smir shaxsining ijtimoiylashuvi va kommunikativ ehtiyojlarining rivoji.” O‘zbekiston pedagogika jurnali, b55–62.
8. https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2021/02/rivojlanish-psixologiyasi-pedagogik-psixologiya.pdf

PSIXOLOGIYADA SHAXS MUAMMOSI.

Andijon davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi(PhD). N.R.Mamatova
Andijon davlat universiteti Magistratura bo‘limi
1- bosqich magistranti M.A. Maxammadjonova

Annotatsiya: Hozirgi kunda shaxs muammosi mavzusi psixologiya uchun dolzarbdir. Bunga juda ko‘p olimlar o‘zlarining nazaryalarida to‘xtalib o‘tgan. Psixologiyaning boshqa tarmoq fanlarida ham shaxs muammosiga alohida yondashuvlar berilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, differensial, gumanitar, antropologik, mahalliy psixologiya, biologik, ijtimoiy.

Ma’lumki shaxs psixologiya fanining asosiy kategoryalaridan biri bo‘lib, eng ko‘p qo‘llaniladigan tushunchalaridan biridir. An‘anaga ko‘ra,psixologiyada bu tushuncha inson sub’ektining eng rivojlangan darajasini bildiradi. Mana shu doira shaxsning keng ko‘lamli rivlanganligini ko‘rib chiqa olamiz. Shaxs-ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli,ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. Shaxsga tegishli bo‘lgan eng muhim tasniv ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlariga bevosita aloqadorlik,ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob’ekti ham sub’ektidir. Shaxs,shaxsning psixologiyada o‘rni haqida juda ko‘p olimlar o‘zlarining fikr va mulohazalarini bildirganlar. “Shaxs psixologiyaning rivojlanish sur’atlari,- deb yozadi A.Asmolov,-shaxs psixologiyasi muamolaridan faqat bittasi –“men“ muammosiga ta’sir etuvchi quyidagi faktlarni keltirsak, yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar 1969 yilda ushbu muammoga to‘rt yuzga yaqin nashrlar bag’ishlangan bo‘lsa 1980 yilda ularning soni mingdan oshdi.

Shaxsni psixologik o‘rganishga bunday qiziqish,albatta,tasodifiy emas.Shaxs g’oyasi orqali zamonaviy inson,madaniyat va ijodkorlik o‘zini namoyon qiladi. Psixologiyada shaxs muammosi asosiy muammolaridan biridir. U boshqa gumanitar, antropogik fanlar uchun ham yetakchilik qiladi: falsafa, pedagogika, huquqshunoslik, sotsiologiya, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqalar. Bu fanlarning barchasi shaxsni nazariy jihatdan rivojlangan hodisa sifatida umumiy tushunishga asoslanadi,shu bilan birga o‘ziga xos xususiyatga urg’u beradi. Shaxs psixologiyaning markaziy muammolaridan biri uning faoliyati,namoyon bo‘lishi va inson hayotini tartibga solishning psixologik mexanizmlarini aniqlashdir. Shaxsni yagona o‘ziga xosligi-ma’lum bir tarixiy davrning ijtimoiy rivojlanishining mahsuli bo‘lib, uning o‘ziga xos individual, biologik va ijtimoiy jihatdan aniqlangan xususiyatlari va psixikasi sifatida ta’riflsh mumkin. Har bir o‘ziga xos shaxs xususiyatlarining individual funksional tuzilishiga ega. Alohida shaxsiy xususiyatlar, odatda insonlarni boshqalardan ajratib turadi. Mahalliy psixologiyada shaxs deganda shaxsning murakkab tizimli ,ko‘p bosqichli, ierarxik tarzda tashkil etilgan, xilma-xil, ko‘p mazmunli, hayotiy, shakllangan aqliy tarbiyasi tushuniladi. Bunda u nafaqat ob’ekt va mahsulot, natijasi sifatida harakat qiladi. Pedagogik va boshqa ta’sirlarning,balki bilim va voqealikni faol o‘zlashtirishning ongli sub’ekti sifatida. Shaxsning shaklanishida ijtimoiy sharoitlar bilan bir qatoda,shaxsning shakllanishi va rivojlanishida,umuman psixikaning,uning individual funksiyalarida biologik

omil,insonning fiziologik xususiyatlari va birinchi navbatda,uning xususiyatlari va juda katta ro‘l o‘ynaydi. Umumiy psixologiyada shaxs muammosining rivojlanishi, B.F.Lomov ta’kidlaganidek, hissiy-idrok, mnemonik, aqliy, emotsional-irodaviy jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni birlashtirish uchun zarurdir. Ushbu ma’lumotlarning integratsiyasi insonning hissiy tashkiloti, uning intellekti va hissiy sohasi haqidagi g‘oyalarni aniqlashtirish uchun muhimdir. Shunday qilib, umumiy psixologiyada shaxs ma’lum bir yadro bo‘lib, boshlang’ichni birlashtiradi, shaxsning turli xil psixik jarayonlarini bir - biriga bog’laydi va uning xatti - harakatiga zarur izchillik barqarorlikni beradi. Fanda ijtimoiylashuv jarayonlari ro‘y beradigan shart - sharoitlar ijtimoiy institutlar deb ataladi. Bularga oila, mahalla, bog‘cha, maktab, maxsus ta’lim muassalalari, oliygohlar, mehnat jamoalari hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlar kiritish mumkin. Shaxsning ijtimoiylashuv jarayonining qay tarzda kechishi, uning yo‘nalganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan mazkur masalaga psixologiya fanida katta e’tibor beriladi. Shaxs yo‘nalganligi psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo‘naltirib turadigan hamda real vaziyatlarga nisbatan turg‘un va barqaror motivlar majmuiga ega bo‘lishlik deb ta’riflanadi va u quyidagi tarkiblarga ajratiladi: Mas’uliyat – ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan sanalib, shaxs o‘zining hayotida ro‘y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas’uli sifatida faqat o‘zi (ayrim vaziyatlarda boshqa odamlarga yuklanish holatiyam kuzatiladi)ni tan oladi. Maqsadlar doimo o‘zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog‘liqligi bilan xarakterlanib, ularning shakllanishi va ongda o‘rnashishida ma’lum ma’noda ideallar ham muhim rol o‘ynaydi. Ideallar – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda mavjud bo‘lsada, lekin ular har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo‘lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo‘lib, o‘sha ideallar ob’ekti bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasida tafovut bo‘lishi mumkin. Qiziqishlar ham anglangan motivlardan sanalib, ular shaxsni atrofida ro‘y berayotgan barcha hodisalar, odamlarning o‘zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to‘plash, ularni o‘rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e’tiqodini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki e’tiqod shaxsning shunday ongli yo‘nalishiki, unga o‘z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon berib, e’tiqod va qiziqishlar dunyoqarashni shakllantiradi.

Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum bir qolipda, o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi.

Shaxsiyat nazariyalari ikkita funksiyani bajaradi: 1) inson xatti-harakatlarini tushuntirish; 2) insonning xulq-atvorini ta'minlash. Har bir nazariya ma'lum tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi: Shaxsiyat tuzilishi - bu uning asosiy bloklari, har doim insonga xos bo‘lgan o‘zgarmas xususiyatlar. Bunday strukturaviy birliklar - xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlar. Xususiyat - bu odamning o‘zini qanday tutishga moyilligi. Tuzilishning yana bir misoli tavsifi shaxsiyat turlaridir. Shaxs tipi - umumiy xulq-atvor xususiyatlarini shakllantiradigan ko‘plab xususiyatlarning kombinatsiyasidir. Masalan, K.Yungning fikricha, barcha odamlar ikki turga bo‘linadi: introvertlar va ekstrovertlar. Psixologlar yuqorida tavsiflangan savollarga asoslanib, shaxsiyat nazariyalarini shakllantiradilar. Bugungi kunga kelib, shaxsning turli tomonlarini, uning jamiyatdagi xattiharakatlarini ochib beradigan nazariyalarning yetarlicha barqaror tasnifi mavjud.

Shaxs nazariyasi - bu shaxs rivojlanishining tabiati va mexanizmlari haqidagi farazlar yoki taxminlar to‘plami. Shaxsiyat nazariyasi nafaqat tushuntirishga, balki inson xattiharakatlarini bashorat qilishga ham harakat qiladi. Zamonaviy psixologiyada shaxsni o‘rganishning sakkizta asosiy yondashuvi mavjud. Har bir yondashuv o‘z nazariyasiga, shaxsning xususiyatlari va tuzilishi haqidagi o‘z g‘oyalariga, ularni o‘lchashning o‘ziga xos usullariga ega. Shuning uchun biz faqat quyidagi sxematik ta'rifni taklif qilishimiz mumkin: shaxs - bu individual o‘ziga xoslikni, inson xattiharakatlarining vaqtinchalik va vaziyat barqarorligini ta'minlaydigan ko‘p o‘lchovli va ko‘p bosqichli psixologik xususiyatlar tizimi. Har bir nazariya shaxsning bir yoki bir nechta tarkibiy modellarini yaratishga imkon beradi. Modellarning aksariyati spekulyativ bo‘lib, faqat bir

nechtasi, asosan, dispozitsiyaviy, zamonaviy matematik usullar yordamida qurilgan. Shaxsning psixodinamik nazariyasi. “Klassik psixoanaliz” nomi bilan ham tanilgan shaxsning psixodinamik nazariyasining asoschisi avstriyalik olim Z.Freyddir (1856-1939). Freydning fikricha, shaxs rivojlanishining asosiy manbai tug‘ma biologik omillar (instinktlar), to‘g‘rirog‘i, umumiy biologik energiya - libido (lotincha libido - jalb qilish, istak) hisoblanadi. Bu energiya, birinchidan, nasl berish (jinsiy jalb qilish), ikkinchidan, halokat (agressiv tortishish) ga yo‘naltirilgan. Shaxs hayotning birinchi olti yilida shakllanadi. Shaxs tuzilishida ongsizlik hukmronlik qiladi. Libidoning asosiy qismini tashkil etuvchi jinsiy va tajovuzkor harakatlar inson tomonidan amalga oshirilmaydi. nazariya doirasida, butunlay sub’ektivdir. Inson o‘z dunyosini faqat orzulari, madaniyat va san’at timsollariga bo‘lgan munosabati orqali ochishga qodir. Shaxsning haqiqiy mazmuni tashqi kuzatuvchidan yashiringan. Freyd shaxsiyatning uchta asosiy kontseptual bloklarini yoki misollarini ajratib turadi: 1) id (“bu”) - ongsiz (jinsiy va tajovuzkor) undovlar yig‘indisidan iborat shaxsning asosiy tuzilishi; id zavq tamoyiliga muvofiq ishlaydi; 2) ego (“men”) - psixikaning kognitiv va ijro etuvchi funksiyalari to‘plami, asosan shaxs tomonidan amalga oshiriladi, keng ma'noda real dunyo haqidagi barcha bilimlarimizni ifodalaydi; ego - bu idga xizmat qilish uchun mo‘ljallangan tuzilma, reallik printsipiga muvofiq ishlaydi, id va superego o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir jarayonini tartibga soladi va ular o‘rtasidagi davomiy kurash uchun maydon vazifasini bajaradi; 3) superego (“super-men”) - inson yashaydigan jamiyatning ijtimoiy normalari, munosabatlari, axloqiy qadriyatlarini o‘z ichiga olgan tuzilma. Id, ego va superego libidoning cheklangan miqdori tufayli psixik energiya uchun doimiy kurashda. Kuchli to‘qnashuvlar odamni psixologik muammolarga, kasalliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu qarama-qarshiliklarning keskinligini bartaraf etish uchun odam ongsiz ravishda ishlaydigan va xatti-harakatlar motivlarining haqiqiy mazmunini yashiradigan maxsus “himoya mexanizmlarini” ishlab chiqadi. Himoya mexanizmlari shaxsning ajralmas xususiyatlari hisoblanadi. M

Shaxsning analitik nazariyasi. Ushbu yondashuvning eng ko‘zga ko‘ringan vakili shveytsariyalik tadqiqotchi K. Yung (1875-1961). Yung tug‘ma psixologik omillarni shaxs rivojlanishining asosiy manbai deb hisoblagan. Inson ota-onasidan tayyor birlamchi g‘oyalarni – “arxetiplarni” meros qilib oladi. Ba’zi arxetiplar umuminsoniy, xudo, ezgulik va yomonlik g‘oyalari kabi, barcha xalqlarga xosdir. Ammo madaniy va individual o‘ziga xos arxetiplar mavjud. Yung arxetiplar orzularda, xayollarda aks etadi va ko‘pincha san'at, adabiyot, me'morchilik va dinda ishlatiladigan ramz sifatida topiladi, deb taklif qildi. Har bir inson hayotining mazmuni tug‘ma arxetiplarni konkret mazmun bilan to‘ldirishdir. Yungning fikricha, shaxs hayot davomida shakllanadi. Shaxsning tuzilishida ongsizlik ustunlik qiladi, uning asosiy qismini “kollektiv ongsizlik” - barcha tug‘ma arxetiplarning yig‘indisi tashkil etadi. Shaxsning iroda erkinligi cheklangan. Insonning xatti-harakati aslida uning tug‘ma arxetiplariga yoki kollektiv ongsizligiga bo‘ysunadi. Insonning ichki dunyosi, bu

Xulosa qilib aytganda, inson tug‘ilganidan boshlab shaxslar qurshovida bo‘ladi va u o‘zining butun psixik imkoniyatlarini ana shu ijtimoiy muhitda ko‘radi. Agar insonning ontogenetik rivojlanish tarixiga nazar solinsa, bolaning tili chiqmasdan turib, u o‘ziga o‘xshash mavjudotlar doirasiga tushadi va o‘z hayoti rivojlanishining keyingi bosqichlarida ijtimoiy aloqaning barcha ko‘rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanishi aniq. Psixologiyada shaxs muammosi eng muhim va murakkab masalalardan biri bo‘lib, insonning biologik, ijtimoiy va psixik jihatlari uyg‘unligi asosida shakllanadi. Shaxs rivojlanishi- tug‘ma xususiyatlar, ijtimoiy muhit, tarbiya va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan dinamik jarayondir. Turli psixologik maktablar (freydizm, bixeviorizm, gumanistik psixologiya, faoliyat nazariyasi va boshqalar) shaxs mohiyatini turlicha talqin qilgan bo‘lsada, umumiy xulosa shuki, shaxs insonning jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik sifatlarini aks ettiradi. Shaxsning rivojlanishi doimiy o‘zgarish, o‘zini anglash va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida takomillashib boradi. Shu bois, shaxs muammosini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy psixologiya uchun ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Умаров Б.М., Шойимова Ш.С., Розиева Д.И. Педагогика, Учебник. Ташкент. 2019 год
2. Умаров Б.М., Психология, Учебное пособие. Ташкент. 2011 г.
3. Шамшетова А.К., Мелибаева Р.Н., Усманова ХІ, Хайдаров Ю.Х. Общая психология, Учебник. Ташкент, 2018.
4. Шойимова Ш.С. Психология личности, Учебное пособие. Ташкент. 2017 год

YOSHLARDA HIMOYA MEXANIZMLARI SHAKLLANISHIGA TA’SIR QILUVCHI ASOSIY IJTIMOIY- PSIXOLOGIK OMILLAR

Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta (PhD) o‘qituvchisi N.R.Mamatova,
Andijon davlat universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti magistranti Rafiqova Munisa Ne’matjon qizi. munisarafiqova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar psixikasida himoya mexanizmlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Yosh davri inson rivojlanishining murakkab va ziddiyatlarga boy bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, emotsional barqarorlik va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlari jadallashadi. Mazkur jarayonlar fonida yuzaga keladigan ichki psixik ziddiyatlar, tashqi bosimlar, o‘zaro munosabatlardagi murakkabliklar hamda ijtimoiy talablarning kuchayishi yoshlar tomonidan turli himoya mexanizmlarini shakllantirishga olib kelishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar psixologiyasi, himoya mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik omillar, oila muhiti, tengdoshlar ta’siri, ta’lim muhiti, media ta’siri, stress, shaxs rivojlanishi.

Yosh davri inson psixologik rivojlanishining eng dinamik bosqichlaridan biri bo‘lib, unda shaxsning emotsional barqarorligi, o‘zini anglashi va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlari jadallik bilan shakllanadi. Mazkur davrda turli ichki ziddiyatlar, ijtimoiy bosimlar va yangi ijtimoiy rollarga moslashish ehtiyoji kuchaygani sababli yoshlarning psixikasida himoya mexanizmlarining faol ishlashi kuzatiladi. Psixologiyada himoya mexanizmlari shaxsning ruhiy muvozanatini saqlashga qaratilgan, ko‘pincha ong ostida sodir bo‘ladigan psixik jarayonlar sifatida izohlanadi [1].

Yoshlarning himoya mexanizmlariga murojaat qilish chastotasi va turi ko‘plab ijtimoiy - psixologik omillar bilan belgilanadi. Xususan, oila muhiti, tarbiya uslubi, tengdoshlar bilan munosabatlar, ta’lim tizimidagi psixologik muhit hamda media va raqamli makonning kuchli ta’siri ushbu jarayonning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Oila ichidagi emotsional qo‘llab - quvvatlash darajasi va muloqot sifati yoshlarning stressga nisbatan bardoshliligi hamda konstruktiv yoki destruktiv himoya mexanizmlaridan foydalanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [2]. Shuningdek, ta’lim muassasalaridagi psixologik iqlim, baholash tizimi, o‘qituvchining psixologik yondashuvi ham yoshlarning xulq-atvori va psixik reaksiyalarini belgilovchi omillar sirasiga kiradi. Bunga qo‘shimcha ravishda, zamonaviy media makoni, ijtimoiy tarmoqlarda kechayotgan taqqoslash jarayonlari, virtual muloqot va axborot oqimi yoshlarning himoya mexanizmlarini yanada faol ishlashiga sabab bo‘lmoqda [3]. Shu bois mazkur mavzuni o‘rganish yoshlarning psixik salomatligini mustahkamlash, ularni ijtimoiy jarayonlarga sog‘lom moslashtirish va psixoprofilaktik tadbirlarni takomillashtirish uchun dolzarb ilmiy - amaliy ahamiyatga ega.

Yoshlar psixikasida himoya mexanizmlarining shakllanishi ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida kechadi. Himoya mexanizmlari, avvalo, shaxsning stress, tashqi bosim va ichki ziddiyatlarga qarshi ruhiy barqarorligini saqlashga qaratilgan jarayondir. A.Freydning ta’kidlashicha, bu mexanizmlar ong ostida sodir bo‘ladigan va shaxsning o‘zini himoya qilishiga xizmat qiluvchi vositalardir [1]. Yoshlar davrida esa bu jarayon yanada faollashadi, chunki o‘sib

borayotgan ijtimoiy talablar, o‘zini anglash jarayoni, muloqot doirasining kengayishi va shaxsiy tajribalar sonining ortishi ularni ko‘proq psixologik himoyaga murojaat qilishga majbur etadi.

Birinchi omil oila muhiti. Oila psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishida asosiy manba hisoblanadi. Ota-ona bilan muloqot, emotsional qo‘llab-quvvatlash, tarbiya uslubi va oiladagi umumiy psixologik iqlim yoshlarning stressga nisbatan chidamliligini bevosita belgilaydi. Agressiv yoki avtoritar tarbiya sharoitida ulg‘ayayotgan yoshlar ko‘pincha repressiya, inkor yoki proyeksiyaga murojaat qiladi, chunki bunday muhitda ochiq muloqot yoki erkin fikr bildirish imkoniyati chegaralangan bo‘ladi [2]. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi oilalarda esa konstruktiv himoya mexanizmlari, masalan, sublimatsiya yoki ratsional yondashuv shakllanadi.

Ikkinchi omil tengdoshlar guruhi va ijtimoiy munosabatlar. O‘smirlik va yoshlarning yetuklikka o‘tish bosqichida tengdoshlar guruhi ulkan psixologik ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu davrda o‘z o‘rnini topish, guruh tomonidan qabul qilinish ehtiyoji kuchayadi. Guruhning bosimi, muloqotning sifati, ijtimoiy moslashuv darajasi yoshlarni inkor, kompensatsiya yoki regressiya kabi himoya mexanizmlaridan foydalanishga undashi mumkin. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi muhit esa yoshlarning adekvat moslashuviga yordam beradi.

Uchinchi omil ta’lim muhitining ta’siri. Maktab yoki oliy ta’lim muassasalaridagi psixologik iqlim yoshlarning ruhiy himoyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining yondashuvi, baholash jarayonidagi adolat, guruh ichidagi raqobat, talabalar orasidagi ijtimoiy muloqot barchasi yoshlarning psixologik reaksiyalariga bevosita ta’sir qiladi. Stress darajasi yuqori bo‘lgan ta’lim muhitida o‘quvchilar o‘zini oqlash (justifikatsiya), qochish (avoidance) yoki agressiya kabi himoya shakllariga murojaat qilishi mumkin. Qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuv esa konstruktiv psixologik himoyani rivojlantiradi.

To‘rtinchi omil media va raqamli makonning ta’siri. Zamonaviy yoshlar hayotida internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxs boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali o‘rganadi [3]. Bugungi kunda yoshlar ko‘pincha ideal hayot ko‘rinishlari, virtual muvaffaqiyatlar va filtrlangan tasvirlar bilan taqqoslanadi, bu esa ularning o‘z qiymati, o‘ziga ishonchi va emotsional barqarorligiga ta’sir qiladi. Bunday vaziyatlarda kompensatsiya, idealizatsiya, o‘zini tanqid qilishdan qochish kabi himoya mexanizmlari kuchayadi.

Beshinchi omil shaxsning individual xususiyatlari. Temperament, o‘zini baholash darajasi, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati va emotsional intellekt ham himoya mexanizmlarining tanlanishiga ta’sir qiladi. Masalan, melankolik tipdagi yoshlar repressiya va regressiyaga moyil bo‘lsa, xoleriklar agressiv himoya shakllaridan foydalanishi mumkin. O‘zini baholashi barqaror bo‘lgan yoshlar esa konstruktiv yondashuvni tanlaydi.

Xulosa qilib aytganda yoshlar psixikasida himoya mexanizmlarining shakllanishi murakkab va ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy tajribasi, emotsional holati va atrof - muhit bilan o‘zaro munosabatlari natijasida vujudga keladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, oila muhiti yoshning psixik barqarorligida markaziy o‘rin tutadi: emotsional qo‘llab - quvvatlovchi, ijobiy muloqot mavjud bo‘lgan oilalarda konstruktiv, moslashuvchan himoya mexanizmlari shakllansa, nizoli yoki avtoritar muhitda repressiya, inkor, agressiya kabi noadekvat himoya shakllari kuchayadi. Tengdoshlar guruhi va ta’lim muhitining sifat darajasi ham yoshlarning psixologik moslashuvi hamda himoya mexanizmlaridan foydalanish usullariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, baholashdagi nohaqlik yoki yuqori raqobat muhitida yoshlar ko‘pincha kompensatsiya, qochish yoki o‘zini oqlash kabi mexanizmlarga murojaat qiladi. Media va raqamli makon esa zamonaviy yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy taqqoslash jarayonlarini kuchaytiradi, bu esa himoya mexanizmlarining faollashishiga olib keladi. Shu bois, ijtimoiy institutlar, oila, maktab, jamoa va media yoshlarning psixologik farovonligini ta’minlashda hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Freud, A. (1936). *The Ego and the Mechanisms of Defence*. London: Hogarth Press.
2. Freud, S. (1923). *The Ego and the Id*. Vienna: Internationaler Psychoanalytischer Verlag.
3. Bowen, M. (1978). *Family Therapy in Clinical Practice*. New York: Jason Aronson.
4. Karimova, V. (2017). *Psixologiya*. Toshkent: Nodirabegim nashriyoti.
5. Qodirov, A., & Jo‘raboyev, M. (2020). *Yoshlar psixologiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. G‘oziyev, E. (2010). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

DUNYOQARASHNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLAR.

Adu psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD) N.R.Mamatova
Andijon davlat universiteti, Psixologiya mutaxassisligi 1-bosqich magistranti Murxashev Axmadxon Olimjon o’g’li

Annotatsiya: Mazkur maqolada dunyoqarash tushunchasining falsafiy mohiyati, uning inson hayotidagi o‘rni hamda shakllanish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Maqolada Sharq va G‘arb donishmandlarining dunyoqarash haqidagi fikrlari keltirilib, ilmiy nuqtai nazardan dunyoqarashning tarkibiy qismlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy globallashuv sharoitida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishning ahamiyati haqida hayotiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, tafakkur, shaxs, falsafa, ijtimoiy ong, qadriyatlar, ilmiy dunyoqarash, ma’naviyat.

Аннотация: В данной статье анализируется философская сущность понятия мировоззрения, его роль в жизни человека и факторы, влияющие на процесс его формирования. В статье представлены взгляды восточных и западных мудрецов на мировоззрение и освещены компоненты мировоззрения с научной точки зрения. Также приводятся практические выводы о важности формирования здорового мировоззрения в условиях современной глобализации.

Ключевые слова: мировоззрение, мышление, личность, философия, общественное сознание, ценности, научное мировоззрение, духовность.

Abstract: This article analyzes the philosophical essence of the concept of worldview, its role in human life, and the factors influencing the process of its formation. The article presents the views of Eastern and Western sages on worldview, and sheds light on the components of worldview from a scientific perspective. It also provides practical conclusions about the importance of forming a healthy worldview in the conditions of modern globalization.

Keywords: worldview, thinking, personality, philosophy, social consciousness, values, scientific worldview, spirituality.

Dunyoqarash - inson tafakkurining eng yuqori shakli bo‘lib, u orqali inson olamni, jamiyatni va o‘z “men”ini anglaydi. Bu haqda qadimdan ko‘plab faylasuf va mutafakkirlar o‘z fikrlarini bildirganlar.

Buyuk yunon faylasufi **Sokrat** shunday degan edi: “O‘zingni tani - shunda butun olamni anglaysan.” Bu fikr shuni anglatadiki, inson dunyoqarashi avvalo o‘zini, o‘z mohiyatini bilishdan boshlanadi.

Sharq mutafakkiri **Alisher Navoiy** esa “Kimki o‘zini bilsa, Xudoni bilur” degan hikmatni ilgari surib, inson dunyoqarashi va ma’naviy kamoloti o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlagan.

Yana bir buyuk alloma **Imom G‘azzoliy** shunday yozgan: “Insonning dunyoqarashi uning qalb oynasi orqali shakllanadi. Qalb pok bo‘lsa, olam ham pok ko‘rinadi.” Demak, dunyoqarash insonning ichki olami, ma’naviy yetukligi, bilim va e’tiqodi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Dunyoqarash (lot. *mundus* - olam, *visio* - qarash) - bu insonning olam, tabiat, jamiyat va o‘z hayotiga nisbatan bilimlari, e’tiqodlari, qadriyatlari va hissiy-irodaviy holatini ifodalovchi murakkab tizimdir. U insonning hayotiy pozitsiyasi, ijtimoiy faolligi, maqsad va ideallarini belgilaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, dunyoqarash shaxsning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va faoliyat yo‘nalishini aniqlovchi konseptual tizimdir. Inson dunyoni qanday ko‘rsa, u shunday yashaydi. Shu bois dunyoqarash nafaqat bilim, balki e’tiqod, qadriyat va amaliy harakatlar majmuasidir.

Dunyoqarash quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

Oddiy (kundalik) dunyoqarash - hayotiy tajriba asosida shakllanadi;

Diniy dunyoqarash - e’tiqod va ruhiy qadriyatlarga tayanadi;

Ilmiy dunyoqarash - ilmiy bilim, mantiq va tahlilga asoslanadi;

Falsafiy dunyoqarash - insonning borliqni umumiy, nazariy darajada anglashiga asoslanadi. Zamonaviy falsafa va psixologiya dunyoqarashni inson ongining eng murakkab tizimi sifatida talqin etadi. Masalan, rus olimi **V.S. Stepin** dunyoqarashni “insonning borliqqa nisbatan kognitiv, aksiologik va amaliy munosabatini birlashtiruvchi tizim” deb ataydi.

Psixologik tadqiqotlar (A. Leontyev, J. Piaget)ga ko‘ra, inson dunyoqarashi 3 bosqichda shakllanadi:

1 - Bolalik bosqichi - oila va muhit orqali dastlabki tasavvurlar hosil bo‘ladi;

2 - O‘smirlik bosqichi - mustaqil fikrlash shakllanadi;

3 - Yetuklik bosqichi - e’tiqod, qadriyatlar tizimi barqarorlashadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda (Muminov, 2024; Habermas, 2004) raqamli axborot muhitining shaxs dunyoqarashiga kuchli ta’sir qilayotgani, yoshlar orasida “virtual dunyoqarash” tushunchasi paydo bo‘layotgani qayd etiladi. Demak, dunyoqarash shakllanishida quyidagi omillar asosiy rol o‘ynaydi:

- Ijtimoiy muhit (oila, ta’lim, madaniyat);
- Axborot texnologiyalari va media;
- Ta’lim va ilmiy bilimlar;
- Shaxsiy tajriba va ruhiy holat;
- Milliy qadriyatlar va diniy e’tiqodlar.

Ushbu omillar uyg‘un holda bo‘lsa, insonda sog‘lom, izchil va tanqidiy fikrga asoslangan dunyoqarash shakllanadi. Inson jamiyatda yashaydi va o‘z atrof-muhitidan bevosita ta’sirlanadi. Oila, ta’lim muassasalari, do‘stlar, mehnat jamoasi, OAV va ijtimoiy tarmoqlar shaxs dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institutlardir.

Oila - birlamchi ijtimoiy muhit sifatida bolaning dastlabki tasavvurlari, qadriyatlari va e’tiqodlarini shakllantiradi.

Maktab va oliy ta’lim - ilmiy bilimlar, mantiqiy fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali dunyoqarashni kengaytiradi.

Jamiyat va muhit - insonning ijtimoiy faolligini, fuqarolik pozitsiyasini va ma’naviy yetukligini belgilaydi.

Ijtimoiy muhitdagi adolat, erkinlik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlar shaxs dunyoqarashini sog‘lom yo‘nalishda rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki bugungi tez o‘zgarayotgan dunyoda sog‘lom dunyoqarash - insonni soxta g‘oyalardan, ekstremizm va ma’naviy bo‘shliqdan himoya qiluvchi qalqondir.

Inson hayotining mazmuni va yo‘nalishi uning dunyoqarashiga bevosita bog‘liqdir. Kimning dunyoqarashi keng, fikri mustaqil va e’tiqodi mustahkam bo‘lsa - u hayotning murakkab burilishlarida ham o‘z yo‘lini yo‘qotmaydi. Chunki dunyoqarash - bu insonni hayot dengizida boshqarib turuvchi kompas, u yo‘nalishsiz mavjudlikni maqsadga aylantiradi.

Zamonaviy jamiyatda dunyoqarashning sog‘lom shakllanishi ayniqsa yosh avlod uchun dolzarbdir. Axborot oqimlari, texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar inson ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan davrda, har bir insonda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, o‘z pozitsiyasini mustaqil shakllantirish ko‘nikmalari bo‘lishi zarur. Chunki sog‘lom dunyoqarash - bu insonni soxta g‘oyalar, ma’naviy bo‘shliq va madaniy begonalashuvdan asraydigan qalqondir.

Bugungi O‘zbekiston jamiyati uchun keng dunyoqarashga ega, yangicha fikrlaydigan, o‘z milliy qadriyatlariga sodiq, ammo global tafakkurli insonlarni tarbiyalash - eng muhim vazifadir. Chunki bunday insonlar jamiyat taraqqiyotining bosh harakatlantiruvchi kuchi bo‘la oladi. Shunday ekan, har bir inson o‘z dunyoqarashini ilm, ma’rifat va tajriba orqali boyitishi, har bir yosh esa o‘z qarashlarini mustaqil fikr bilan mustahkamlashi lozim. Zero, Alisher Navoiy aytganidek: “Ilm bilan ziynat topgan aql - dunyoni yorituvchi chiroqdir.”

Shu bois, ilm, tafakkur va ma’naviyat uyg‘unligida shakllangan dunyoqarash insonni ham, jamiyatni ham nurafshon yo‘lga boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2022.
2. G‘oyibnazarov S. Falsafa asoslari. – T.: O‘zbekiston, 2019.
3. Habermas J. Public Sphere and Communicative Action. – Berlin, 2004.
4. Muminov M. Raqamli dunyoqarash: globallashuv sharoitida shaxs dunyoqarashiga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri. – Zenodo, 2024.
5. Stepin V.S. Teoreticheskoe poznanie i nauchnaya kartina mira. – Moskva, 2018.
6. Piaget J. Psychology and Epistemology. – New York: Routledge, 2001.
7. G‘azzoliy A. Ihyo ulum ad-din. – Kairo, 2016.

TALABALARNING OLIY TA’LIMGA MOSLASHUVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tojiboyeva Navruza Azamatjanovna
Universitiy of Business and science
Pedagogika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya Ushbu maqolada talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Talabalarning yangi ta’lim muhitiga moslashuvida yuzaga keladigan psixologik holatlar, stress omillari, ijtimoiy munosabatlar va motivatsiyaning o‘rni yoritilgan. So‘rovnoma asosida olingan natijalar talabalarning oliy ta’limga moslashuv jarayonini qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Moslashuvga ta’sir etuvchi shaxsiy, ijtimoiy va psixologik omillar, talabalar duch keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: stress, motivatsiya, muloqot, ishnch, iroda, zo’riqish, xavotir, motivatsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К ВЫСШЕМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ социально-психологических характеристик процесса адаптации студентов к среде высшего образования. Подчеркивается роль психологического состояния, стрессовых факторов, социальных отношений и мотивации в адаптации студентов к новой образовательной среде. Результаты, полученные на основе анкетирования, указывают на необходимость поддержки процесса адаптации студентов к высшему образованию. На основе научных источников освещаются личностные, социальные и психологические факторы, влияющие на адаптацию, проблемы, с которыми сталкиваются студенты, и способы их преодоления.

Ключевые слова: стресс, мотивация, общение, работа, воля, напряжение, тревога, мотивация.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF STUDENTS' ADAPTATION TO HIGHER EDUCATION

Abstract: This article scientifically analyzes the socio-psychological characteristics of the process of adaptation of students to the higher education environment. The role of psychological states, stress factors, social relationships and motivation in the adaptation of students to the new educational environment is highlighted. The results obtained based on the questionnaire indicate the need to support the process of adaptation of students to higher education. Personal, social and psychological factors affecting adaptation, problems faced by students and ways to overcome them are highlighted based on scientific sources.

Keywords: stress, motivation, communication, work, will, tension, anxiety, motivation.

Kirish Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda talabalarning oliy ta’lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba uchun oliy ta’lim muassasasiga kirish yangi ijtimoiy muhit, yangi talablar, mustaqil hayot tarziga o‘tish bilan bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu davrda yuzaga keladigan psixologik zo‘riqish, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ta’lim jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Shu sababli talabalarni oliy ta’limga moslashishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalariga qadam qo‘ygan talaba nafaqat yangi bilimlar muhitiga, balki yangi ijtimoiy munosabatlar, o‘qitish shakllari va psixologik talablar tizimiga ham moslashishi lozim. Ushbu jarayon ko‘plab talabalar uchun murakkab kechib, ularning o‘quv faoliyati samaradorligi, ruhiy holati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Talabalarning oliy ta’limga moslashuvi muammosi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ayniqsa birinchi kurs talabalari misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois mazkur maqolada talabalarning oliy ta’limga moslashishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritish maqsad qilib olindi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarda talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi ko‘p qirrali jarayon sifatida talqin qilinadi. Mazkur jarayon shaxsning yangi ta’lim muhiti, ijtimoiy munosabatlar tizimi, akademik talablar va mustaqil hayot tarziga moslashishini o‘z ichiga oladi. Psixologik nuqtayi nazardan moslashuv shaxsning ichki resurslari va tashqi muhit talablari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash jarayoni sifatida qaraladi.

A. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, talabaning o‘qish jarayonida o‘zini xavfsiz va ijtimoiy jihatdan qabul qilingan his qilishi uning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. K. Rogers esa shaxsning o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish jarayonida qulay psixologik muhit muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida talabalarning oliy ta’limga moslashuvi ijtimoiy-psixologik muhit, o‘qituvchilar bilan muloqot, tengdoshlar bilan munosabat hamda ta’lim jarayonining tashkil etilish darajasi bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, birinchi bosqich talabalarida moslashuv jarayonining murakkabligi va stress darajasining yuqoriligi qayd etiladi[1].

Talabalarning oliy ta’limga moslashuvida bir qator ijtimoiy va psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy omillarga ta’lim muassasasidagi psixologik muhit, guruhdagi o‘zaro munosabatlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi kiradi. Psixologik omillar esa shaxsning motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, stressga chidamliligi va kommunikativ qobiliyatlari bilan belgilanadi. Moslashuv jarayonida talabaning o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori motivatsiyaga ega talabalar yangi sharoitlarga tezroq moslashadi va akademik faoliyatda yuqori natijalarga erishadi. Aksincha, motivatsiyaning pastligi stress va o‘qishdan qoniqmaslik holatlariga olib keladi. Moslashish – shaxsning yangi muhit sharoitlariga moslashib borish jarayonidir. Oliy ta’lim kontekstida bu tushuncha talabaning yangi o‘quv tizimi,

akademik talablar, ijtimoiy muhit va psixologik yuklamalarga moslashishini anglatadi. Psixologik nuqtayi nazardan moslashish shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit talablari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash jarayonidir. Agar bu muvozanat buzilsa, talaba stress, xavotir, ishonchsizlik kabi holatlarni boshdan kechirishi mumkin. Ijtimoiy jihatdan esa moslashish talabaning yangi jamoaga kirishishi, tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi bilan belgilanadi. Psixologik nuqtayi nazardan moslashish shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi muhit talablari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash jarayonidir. Agar bu muvozanat buzilsa, talaba stress, xavotir, ishonchsizlik kabi holatlarni boshdan kechirishi mumkin. Ijtimoiy jihatdan esa moslashish talabaning yangi jamoaga kirishishi, tengdoshlar va o‘qituvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishi bilan belgilanadi[3].

Talabalarning moslashuv jarayonida ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Jumladan:

- Oila muhiti. Oila tomonidan beriladigan ma’naviy va moddiy qo‘llab-quvvatlash talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.
- Tengdoshlar bilan munosabat. Guruhdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatish moslashuvni tezlashtiradi.
- Ta’lim muassasasi muhiti. Universitetdagi psixologik iqlim, o‘qituvchilarning munosabati talabaning moslashuv darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetarli bo‘lmagan holatlarda talabalar o‘zini yolg‘iz his qilishi, bu esa moslashuv jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Talabalarning oliy ta’limga moslashuvida psixologik omillar yetakchi ahamiyatga ega. Bular quyidagilardan iborat:

- Motivatsiya darajasi. O‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan talabalar moslashuvni osonroq kechiradi.
- Stressga chidamlilik. Yangi sharoitlarda stressga bardosh bera olish muhim psixologik sifatdir.
- O‘zini baholash. Adekvat o‘zini baholash talabaning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashiga yordam beradi[5].

Psixologik moslashuv muvaffaqiyatli kechganda talaba o‘zini erkin tutadi, o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi va ijobiy natijalarga erishadi.

Birinchi kurs talabalari moslashuvida uchraydigan muammolar.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan birinchi kurs talabalari moslashuv jarayonida ko‘proq qiyinchiliklarga duch keladi. Eng ko‘p uchraydigan muammolar quyidagilar:

- o‘quv yuklamasining ko‘pligi;
- mustaqil ta’limga tayyor emaslik;
- vaqtni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar;
- psixologik zo‘riqish va xavotir holatlari.

Ushbu muammolar vaqtida bartaraf etilmasa, talabaning akademik muvaffaqiyati va ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

- talabalarning 65 foizi oliy ta’limning dastlabki oylarida psixologik qiyinchiliklarga duch kelganini bildirgan;
- 58 foiz talabada o‘quv yuklamasi stress manbai sifatida baholangan;
- 72 foiz talaba o‘qituvchilarning ijobiy munosabati moslashuv jarayonini yengillashtirganini ta’kidlagan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijobiy psixologik muhit va motivatsiya talabalarning muvaffaqiyatli moslashuvida muhim omil hisoblanadi va talabalarning moslashuvini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ham talabalarning oliy ta’limga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash uchun quyidagi mexanizmlar muhim hisoblanadi:

- psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish;
- murabbiylik (tyutorlik) tizimini yo‘lga qo‘yish;

- moslashuv treninglari va seminarlar tashkil etish;
- ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan tadbirlar o‘tkazish.

Mazkur choralar talabalarning o‘zini ishonchli his qilishiga va ta’lim jarayoniga tez moslashishiga yordam beradi[6].

Muhokama Olingan natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan uyg‘unlikda bo‘lib, talabalarning oliy ta’limga moslashuvida psixologik xizmatlar faoliyatini kuchaytirish, mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, birinchi bosqich talabalariga ijtimoiy-psixologik treninglar tashkil etish samarali hisoblanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv jarayonida faolroq bo‘lib, akademik ko‘rsatkichlari ham yuqori bo‘ladi. Aksincha, moslashuv darajasi past bo‘lgan talabalar orasida dars qoldirish, motivatsiya pasayishi holatlari ko‘proq uchraydi.Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida moslashuv jarayoniga tizimli yondashuv zarur [2].

Xulosa Talabalarning oliy ta’limga moslashishi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish talabalarning shaxsiy rivoji, akademik muvaffaqiyati va kelajak kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maslou A. Motivatsiya va shaxs. – Toshkent, 2019.
2. Rogers K. Shaxs va rivojlanish. – Moskva, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limga oid me’yoriy hujjatlari.
4. Zamonaviy pedagogika va psixologiya bo‘yicha ilmiy maqolalar to’plami.
5. Абдуллаева Ш. Психология адаптации студентов. – Тошкент, 2020.
6. Климов Е.А. Психология профессионального развития. – Москва, 2019.
7. Ismoilova N. Oliy ta’lim psixologiyasi. – Toshkent, 2021.
8. Rogers C. Freedom to Learn. – New York, 2018.
9. Maslow A. Motivation and Personality. – New York, 2017.
10. Qayumov, b. z. (2025). O‘smirlarda kreativlik namoyon bo‘lishining hududiy tafovutlari. *maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3*(6).
11. Baxtiyor, q. (2024). The correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement motivation. in *next scientists conferences* (vol. 1, no. 01, pp. 24-27).
12. Qayumov, b. z. o’., & Abdurahmonov, o. a. o’. (2021). talabalarda shaxsiy va intellektual fazilatlarni shakllantirish mexanizmlari. *scientific progress*, *1*(6), 750-754.
13. Baxtiyor, Q. (2024). the correlation relationship of the development of creativity in adolescents with achievement.

O‘QUVCHILAR ONGIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MANIPULYATSIYAGA CHIDAMLILIKNI OSHIRISH

Andijon Davlat Universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi
katta o‘qituvchisi PhD Mamatova Nafisaxon Ro‘ziboyevna
Andijon Davlat Universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya mutaxasisligi 1-bosqich magistranti
Yuldasheva Mubinaxon

Annotatsiya: Zamonaviy axborot - media va ijtimoiy tarmoqlar sharoitida o‘smirlar ongiga tushadigan manipulyativ xabarlar soni ortib bormoqda. Bu holat yoshlar ongida noto‘g‘ri qarorlar, dezinformatsiya, manipulyatsiyaga nisbatan beqarorlikdan kelib chiqadigan muammolarni vujudga keltiradi. Mazkur maqolada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va media-savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali manipulyatsiyaga psixologik chidamlilikni oshirish metodlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: o‘smir, tanqidiy fikrlash, media-savodxonlik, axborot manipulyatsiyasi, psixologik immunitet, ta’lim

Аннотация: В условиях современных информационно-медийных и социальных сетей увеличивается количество манипулятивных сообщений, попадающих в сознание подростков. Это порождает проблемы в сознании молодых людей, возникающие вследствие неверных решений, дезинформации, неустойчивости в отношении манипуляций. В данной статье анализируются методы повышения психологической устойчивости к манипуляциям посредством развития критического мышления и навыков медиаграмотности у учащихся.

Ключевые слова: подросток, критическое мышление, медиаграмотность, информационное манипулирование, психологический иммунитет, образование.

Abstract: In the conditions of modern information - media and social networks, the number of manipulative messages that enter the minds of adolescents is increasing. This situation creates problems in the minds of young people arising from incorrect decisions, disinformation, instability in relation to manipulation. This article analyzes methods for increasing psychological resistance to manipulation by developing critical thinking and media literacy skills in students.

Keywords: adolescent, critical thinking, media literacy, information manipulation, psychological immunity, education

Zamonaviy raqamli va media makonida yosh avlod - ayniqsa o‘smirlar - har kuni katta axborot oqimi ta’sirida bo‘ladi. Bu oqimda haqiqat, dezinformatsiya, manipulyativ kontent aralash bo‘lib, yoshlar ongiga katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bugungi kunda yoshlarning “axborot psixologik immuniteti” - ya’ni manipulyatsiyaga qarshi chidamliligi - mavzusi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda bu muammolar jamoatchilik va davlat siyosati diqqat markaziga kiritilgan. Masalan, SQ-479-IV-son (2022-yil 4-fevral)[12] qarorida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya masalalari ko‘tarilgan. Shu tariqa, ta’lim tizimida media-savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ijtimoiy-stabil holat, yoshlarni noto‘g‘ri axborotdan himoya qilish ham davlat siyosatining maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy adabiyotlar, masalan CT&ML Project Consortium tomonidan “Formation of Critical Thinking and Media Literacy as Protection Against Media Manipulation, Misinformation and Fake News” nomli konspektida media-savodxonlik va tanqidiy fikrlash orqali yoshlarni manipulyatsiyadan himoya qilish metodlari aniq ko‘rsatilgan. South West University "Neofit Rilski" tomonidan nashr etilgan Empowering Young Minds: Media Literacy and the Influence of Social Networks maqolasida tahlil qilinganidek, ko‘plab yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda kontent iste’molida tanqidiy baholash ko‘nikmalaridan mahrum.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, media-savodxonlik dasturlari orqali o‘smirlarning media - xabarlarga nisbatan tanqidiy qarash va manipulyatsiyani aniqlash ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi. Mahalliy amaliyotlarda esa, masalan, ta’lim muassasalariga media - savodxonlik fanini kiritish bo‘yicha tavsiyalar mavjud. Tanqidiy fikrlash va media-savodxonlikni shakllantirish - o‘smirlarning axborot manipulyatsiyasiga psixologik immunitetini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xorijiy tajribalar bu usullar samarali ekanligini ko‘rsatmoqda, va ular maktab yoki umum ta’lim muassasalarida media-savodxonlik fani, interaktiv mashg‘ulotlar, ijtimoiy tarmoqlar mexanizmlari bilan tanishtirish ko‘rinishida joriy etilishi mumkin. Shuning uchun - pedagogik, tushuntirish va davlat siyosati darajasida kompleks yondashuv talab etiladi:

- media - savodxonlikni ta’lim dasturiga kiritish;
- o‘qituvchilarni tayyorlash;
- yoshlar orasida interaktiv, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;

[12] Lex.uz // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining SQ-479-IV-son “Internet jahon axborot tarmog‘ida yoshlar va voyaga yetmaganlar uchun milliy kontentni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyati va zararli axborotdan himoya qilish masalalari” to‘g‘risidagi qarori. 2022-yil 4-fevral.

- davlat va nodavlat sektorlar hamkorligi;

- media va ijtimoiy tarmoqlarda ahborot xavfsizligi va dezinformatsiyaga qarshi vositalarni joriy etish.

Bundan tashqari, yoshlar ongida madaniy-ma'naviy va milliy qadriyatlarni mustahkamlash ham muhim. Chunki, lokal qadriyatlar ham yoshlarni global media manipulyatsiyasidan muhofaza qiluvchi psixologik va ma'naviy poydevor bo‘lishi mumkin. Tanqidiy fikrlashning da'vat bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlarni mustaqil tanlangan maqsad uchun ishlatish o‘quvchi talabada kuchli bo‘ladi. Ifodali fikrlashning ikkinchi bosqichini anglashda esa yangi axborot da'vat bosqichida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi. Yangi o‘quv materiallarining tushunilishiga erishish bu bosqichning muhim vazifasi hisoblanadi. O‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish oson ish emas. Albatta, buning uchun tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beruvchi quyidagi muayyan muhit va shart-sharoitlar yaratilishi kerak

- o‘quvchilarga mustaqil fikr yuritish uchun imkoniyat yaratib berish va ularni diqqat bilan tinglashga o‘rgatish;

- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, saralash, tanqidiy va ijodiy baholash;

- o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi faolligini ta'minlash;

- o‘quvchilarning o‘z tanqidiy fikrlarini bayon etganlarida kulgiga qolmasliklariga qat'iy ishontirish;

- har bir o‘quvchi talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o‘zlarida ishonch hissini uyg'otish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashi lozim[13].

O‘zaro fikr almashishda o‘quvchilardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlar tizimini so‘zlovchiga zo‘rlab o‘tkazish va boshqa so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunda o‘quvchi talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tanqidiy fikrlash orqali inson atrofdagi axborotni shubha ostida ko‘rib chiqadi, uning haqiqatga mosligini baholaydi, manba ishonchliligini tahlil qiladi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ijtimoiy manipulyatsiya vositalari, yolg‘on xabarlar va emotsional bosimlarga nisbatan psixologik immunitetni kuchaytiradi

Tanqidiy fikrlash quyidagi psixologik komponentlarga tayanadi:

Kognitiv moslashuvchanlik – bu yangi axborot va g‘oyalarni qabul qilishga tayyorlik, ilgari shakllangan qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga layoqatlilik. Bu sifat axborot muhitida tez moslashish va o‘z fikrini yangilash imkonini beradi.

Epistemik ehtiyotkorlik – bu bilim manbalariga nisbatan shubha bilan yondashish, haqiqatni aniqlashda ehtiyotkorlik va izchillikni saqlash. Bu komponent insonni yolg‘on yoki manipulyativ axborotdan himoya qiladi.

Muloqotga tayyorlik va muqobil fikrlarni qabul qilish – qarama-qarshi fikrlarni inkor etmay, ularni tahlil qilish orqali chuqurroq tushunishga erishiladi. Bu esa kognitiv empatiyani rivojlantiradi va jamiyatda sog‘lom munozara madaniyatini shakllantiradi. Shaxsda tanqidiy fikrlashning shakllanishi uni ichki psixologik jihatdan "filtrli" shaxsga aylantiradi. Bunday shaxs ommaviy axborot vositalaridan yoki raqamli platformalardan uzatilayotgan turli manipulyativ ma'lumotlarni darhol qabul qilmaydi, balki uni anglaydi, tahlil qiladi va tanlab qabul qiladi. Bu esa uni ijtimoiy manipulyatsiyaga qarshi barqaror shaxsga aylantiradi[14]. Tanqidiy fikrlash va unga asoslangan psixologik immunitet o‘z o‘zidan shakllanmaydi. U izchil ta'lim, amaliy mashqlar va ijtimoiy tajriba orqali rivojlanadi. Tanqidiy fikrni mustahkamlashga xizmat qiladigan metodlar shaxsning tafakkur jarayonini faollashtiradi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi va manipulativ axborotga qarshi immunitetni kuchaytiradi.

[13] o'quvchilarning-tanqidiy-fikrlash-qobiliyatini-rivojlantirish-texnologiyasi.pdf

[14] https://share.google/xhV97azeCiWSEoR6I

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan voqea (hodisa, qoida) yoki faktga o‘quvchilarning qiziqishini uyg’otish bo‘lib, ularda savol berish zaruriyatini keltirib chiqarishdir. Keyin berilgan savollarni ma’lum faraz (gipoteza)lar shaklida ifodalab, ularni tekshirishni amalga oshirishga harakat qilinadi.

O‘quvchilar ongida tanqidiy fikrlash va media-savodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish - axborot manipulyatsiyasiga qarshi psixologik immunitetni rivojlantirishda muhim va samarali yo‘l. Ta’lim tizimi, pedagoglar, davlat organlari va jamoatchilik hamkorligida kompleks strategiya ishlab chiqish lozim. Bu yoshlarni faqat ma’lumot iste’molchisidan - mas’uliyatli, ongli va tanqidiy axborot iste’molchisi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. CT&ML Project Consortium. Formation of Critical Thinking and Media Literacy as Protection Against Media Manipulation, Misinformation and Fake News. Sofia University St Kliment Ohridski et al., 2023–2024, p. (kompendium umumiy 204 betlik, muayyan bet: 1-20).
2. Konstantopoulou, Athanasia. Empowering Young Minds: Media Literacy and the Influence of Social Networks. knowledge – International Journal, Vol. 65, No. 1 (2024), pp. 123–126.
3. Kupersmidt, Janis B., Scull, Tracy M., Weintraub Austin, Erica - Media Literacy Education for Elementary School Substance Use Prevention: Study of Media Detective. Pediatrics. 2010;126(3):525–531.
4. Scull, Tracy M., Malik, Christina V., Kupersmidt, Janis B. et al. A Media Literacy Education Approach to Teaching Adolescents Comprehensive Sexual Health Education. Journal of Media Literacy Education, 2014;6(1):1–14.
5. Huiyun Tang & Anastasia Sergeeva. Shots and Boosters: Exploring the Use of Combined Prebunking Interventions to Raise Critical Thinking and Create Long-Term Protection Against Misinformation. 2025. (onlayn maqola, arXiv preprint).
6. “The Role of Media Literacy in Combating Fake News: Insights from Malaysian Youth” - Nazim Bin Abdul Rahim & Normal Md Jusoh. International Journal of Research and Innovation in Social Science, 2025, pp. 98–101.
7. Tulkin Oknazarov, Maftuna Fayzieva, Mardon Juraev. Rol mediagramotnosti v sisteme obrazovaniya [Media savodxonlik - ta’lim tizimidagi roli]. “Obshchestvo i innovatsii”, 2024.
8. X Jamoliddin. Modern Education and Development - “Raqamli dunyo, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash” mavzularini yoritgan maqola. 2025.

HAVOTIRNING PAYDO BO‘LISHI VA XIMOYA MEXANIZIMLARI BILAN O‘ZARO BOG’LIQLIGI

Adu Psixologiya va pedagogika kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD) N.R.Mamatova
Adu Amaliy psixologiya yo‘nalishi talabasi
Tohirova Zuhbar MuhammadSodiq qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada havotirning psixologik mohiyati, uning paydo bo‘lish omillari va shaxsning psixologik himoya mexanizmlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi: havotir fenomeni va himoya mexanizmlarining nazariy asoslarini o‘rganish, ularning shaxs rivojidagi o‘rnini aniqlashdir. Maqolada Z. Freyd, A. Adler, K. Hornay, E. Erikson, A. Bandura kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida ilmiy umumlashtirishlar beriladi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va so‘rovlar natijalari keltiriladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, havotir ichki ziddiyatlar, tashqi stress omillari va shaxsning himoya mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar : Havotir, himoya mexanizmlari, tashvish, psixoanaliz, shaxs rivoji

THE EMERGENCE OF ANXIETY AND ITS RELATIONSHIP WITH DEFENSE MECHANISMS

Annotation: This article analyzes the psychological nature of anxiety, the factors contributing to its emergence, and the interrelationship between anxiety and psychological defense mechanisms of personality. The aim of the study is to examine the theoretical foundations of the anxiety phenomenon and defense mechanisms and to determine their role in personality development. The article provides scientific generalizations based on the theoretical views of scholars such as S. Freud, A. Adler, K. Horney, E. Erikson, and A. Bandura. In addition, statistical data and survey results related to the topic are presented. The results indicate that anxiety is directly related to internal conflicts, external stress factors, and the effectiveness of an individual's psychological defense mechanisms.

Keywords: anxiety, defense mechanisms, worry, psychoanalysis, personality development.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ТРЕВОЖНОСТИ И ЕЁ ВЗАИМОСВЯЗЬ С ЗАЩИТНЫМИ МЕХАНИЗМАМИ

Аннотация: В статье анализируется психологическая сущность тревожности, факторы ее возникновения и взаимосвязь тревожности с психологическими защитными механизмами личности. Цель исследования — изучение теоретических основ феномена тревожности и защитных механизмов, а также определение их роли в развитии личности. В статье представлены научные обобщения на основе теоретических взглядов таких ученых, как З. Фрейд, А. Адлер, К. Хорни, Э. Эриксон, А. Бандура. Кроме того, приводятся статистические данные и результаты опросов по данной тематике. Результаты исследования показывают, что тревожность напрямую связана с внутренними конфликтами, внешними стрессовыми факторами и эффективностью психологических защитных механизмов личности.

Ключевые слова: тревожность, защитные механизмы, беспокойство, психоанализ, развитие личности.

Kirish:

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonda shaxs bevosita bosim ostida faoliyat olib bormoqda, bunga asosiy sabab axborot oqimining ko‘pligi va raqobatning tez suratda oshib borishidir. Havotir shaxs hayotining ajralmas bir qismiga aylanib bormoqda. Bu esa o‘qish va ish faoliyatining sifatiga o‘z tasirini ko‘rsatmay qolmaydi. O‘z o‘ziga bo‘lgan talablarning va extiyojlar tizimining rivojlanishi insonning biologik organism sifatidagi ichki barqarorlikni saqlashga qaratilgan tabiiy ximoya tizimini ishga tushurib, undagi psixik jarayonlarga salbiy tasir ko‘rsatmoqda. Havotir inson psixikasining tabiiy emotsional reaksiyalaridan biri bo‘lib, shaxsning ichki va tashqi tahdidlarga munosabatini aniqlaydi. So‘nggi yillarda tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar orasida havotir darajasi ortib bormoqda: masalan, 18–25 yoshdagi talabalarning 65% i o‘zini tez-tez havotirli his qiladi (Statistik ma’lumot: Milliy psixologik so‘rov,) .Yevropa mamlakatlarida havotirning inson salomatligiga va faoliyatiga tasirini o‘rgangan va tadqiqot olib borgan olimlar va tadqiqotchilar talaygina.

Havotir psixoterapiya va psixologik maslahat jarayonlarida muhim indikator sifatida ishlatilib, shaxsning himoya mexanizmlari havotirni kamaytirish va psixik barqarorlikni saqlashda asosiy ro‘l o‘ynaydi. Bugungi kundagi rivojlanib borayotgan ijtimoiy kelib chiqishi va biologik yoshidan qat’iy nazar Zamonaviy ijtimoiy stresslar (internet, ijtimoiy tarmoqlar, ish bosimi) shaxsning havotir darajasiga ta’sir qiladi. Stressing paydo bo‘lishi havotirning yuzaga kelishi bilanham o‘zaro bog’liq jarayon hisoblanadi. Nima uchun bugungi kunda havotirlanish darajasi kundan kun ortib bormoqda sababi, axborot oqimlarining ko‘payishi, shaxsiy ehtiyojlarning ortib borishi shaxsdagi havotir darajasini ortishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Havotirning o‘rganilishi psixologik ximoya mexanizmlarining shaxsning ichki barqarorligini saqlashga qo‘shadigan

hissasi, bu barqarorlik saqlashning asosiy yo‘li ekanligini ochiqlanishiga sabab bo‘ldi. Havotir va himoya mexanizmlari o‘rtasidagi bog’liqlikni ilmiy asosda aniqlash, shaxs faoliyatiga bu ikki tushunchaning qay darajada salbiy va ijobiy tasirini o‘rganish va o‘rganilgan ma’lumotlarni tahlil qilish, shaxsning psixologik hususiyatlari va holatlarini tushunishga va undagi intiluvchanlik doimiylik sifatlarini qanday shakillantirish kerak degan savolga javob topishga yordam beradi.

Mamlakatimiz olimlaridan E.G.G’oziyev havotir - shaxsning ichki ziddiyatlari va ehtiyojlari qondirilmasligi bilan bog’liq emotsional holat deb tariflaydi. Va buyerdagi katta e’tibor qondirilmagan ehtiyojlarga va ichki hoxish bilan tashqi muhit talablarining mos kelmasligi qaratilgan. Shaxs individual bo‘lganligi sababli har bir shaxsning extiyoji va ichki hoxish istaklari turlixil va jamiyat talablari o‘zgarmas va bu qonun qoida va talablarga barcha birdek bo‘ysunishi ushbu talablarni bajarishi kerak bo‘ladi. Bevosita bu jarayon bosim bilan amalga oshiriladi va natijada havotir yuzaga keladi. M.G.Davletshinning fikriga ko‘ra havotirni stress, qo‘rquv va emotsional barqarorlik bilan bog’liq holat sifatida talqin etgan. V.M.Karimova havotirni ijtimoiy munosabatlar va shaxsning jamiyatdagi mavqei bilan bog’liq psixologik holat sifatida talqin etadi. Yevropa mamlakatlaridagi izlanishlarga etiborimizni qaratsak bu borada eng asosiy Zigmund Freyd psixoanalitik yondashuv asoschisi bo‘lib, u o‘z nazaryasida shaxsning anglanmagan hatti harakatlari ong va ongsizlik tushunchalariga urg’u berar ekan ximoya mexanizimlari tushunchasini fanga olib kirdi. Shaxsning ruhiy holati va undagi o‘zgarishlarni asosiy uchta tuzilma Id ego va supper ego tashkil etarkan, shaxsga hardoim Iddan kelayotgan impluslar uning ego va superego tuzilmalarini yorib o‘tishi mumkin deydi. Freyd havotirni ichki konflikt natijasi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, shaxsning ehtiyojlari va ijtimoiy me’yorlar o‘rtasidagi ziddiyat havotirni yuzaga chiqaradi. Freyd himoya mexanizmlarining ishlashini tavsiflaydi: ular ichki konfliktlarni engillashtiradi va shaxsni barqaror holatda ushlab turadi.

Himoya mexanizmlari turlicha vaziyatda havotirni yengillashtiruvchi usullar sifatida ko‘riladi. Lekin odatda bu jarayon anglanilmagan holda namoyon bo‘ladi. Va ximoya mexanizmlari o‘z nomi bilan insonning psixik barqarorligini ximoya qilishga qaratilgan. Karen Horney[bizning ichki ziddiyatlarimiz] bazaviy havotir- bu bolaning o‘zini dunyoda yolg’iz, himoyasiz, va dushmanona muhitda deb his qilishi natijasida shakillanadigan chuqur ichki tashvish holatidir. Bu oddiy qo‘rquv emas, balki butun hayot davomida shaxsiyatni shakllantiradigan doimiy xavfsizlik yetishmovchiligi tuyg’usi. Asosiy xavotir manbai sifatida “bazaviy havotir”ni ko‘rsatadi. Bu shaxsning sevgi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoji bilan bog’liq. Bazaviy havotir kuchayganda, himoya mexanizmlari faollashadi. Oilaviy e’tiborsizlik yoki do‘stlar bilan munosabatdagi muammolar shaxsda doimiy havotir manbai bo‘lishi mumkin.Erik Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi shaxsning butun umr davomida kechadigan rivojlanish bosqichlarini tavsiflaydi. Ushbu nazariya doirasida havotir alohida termin sifatida ko‘p qo‘llanmasa-da, har bir bosqichda kuzatiladigan psixosotsial inqirozlar havotirning turli ko‘rinishlari bilan bog‘liqdir. Shaxsning har bir bosqichdagi inqirozni muvaffaqiyatli hal eta olmasligi kelajakdagi havotirli xulq shakllariga zamin yaratadi Erikson inson rivojlanishini **8 bosqich**da izohlaydi. Har bir bosqichda shaxs **psixosotsial inqiroz** dan o‘tadi. Inqiroz muvaffaqiyatli hal etilsa — sog‘lom sifat shakllanadi, agar hal etilmasa — kelajakdagi ruhiy qiyinchiliklar uchun zamin bo‘lib qoladi. Inqiroz faqatgina salbiy tushuncha bo‘lib qolmasdan, balki, u shaxsning irodaviy xususiyatlarini shakillantirish, dunyoqarashi kengaytirish uchunham hizmat qiladi. Inqirozlar davri yosh hususiyatiga bog’liq bo‘lsada u xarbir shaxsda o‘ziga hos tarzda namoyon bo‘ladi va shuning uchun ham u bazilar uchun salbiy bazilar uchun ijobiydir.

Eriksonning birinchi psixosatsial inqirozi ishonchga qarshi ishonchsizlikdir. Bola hayotining birinchi yilida parvarish, mehr, barqarorlik, xavfsizlik kabi omillar mavjud bo‘lmasa, unda atrof-muhitga nisbatan bazaviy ishonchsizlik shakillanadi. Ushbu holat yuqoridagi Karen Horneyning bazaviy havotir tushunchasiga mos tushadi. Ushbu davrdagi beqaror parvarish, sovuq munosabat, e’tibor yetishmasligi yoki haddan tashqari qattiq tartibda bolada dunyoning dushmanona va xavfli deb qabul qilinishiga olib keladi. Natijada shaxsning keyingi hayotida

umumiy havotir fonining ortishi kuzatila Adler shaxsning ijtimoiy o‘zini anglashiga e’tibor qaratadi. Havotir ko‘pincha shaxsning jamiyatdagi o‘rni va muvaffaqiyatsizlik hissi bilan bog‘liq. Himoya mexanizmlari shaxsni ijtimoiy stressdan himoya qiladi. Adler nazariyasida havotirning umumiy mohiyati: Alfred Adler (1870–1937) havotirni Freyd nazaryasidek ichki instinktlar to‘qnashuvi emas, balki insonning ijtimoiy hayotidagi yetishmovchilik hissi bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik holat sifatida izohlaydi. Adler fikriga ko‘ra:havotir – bu “pastlik kompleksi”ning oqibati.

Inson o‘zini nimadandir kam**,** zaif**,** kompetensiyasiz sezsa, yoki o‘ziga qo‘yilgan talablarni bajara olmayotganini his qilsa, yoki boshqalar bilan taqqoslaganda kuchsizman deb o‘ylasa, havotir paydo bo‘ladi. Havotir – kompensatsiya jarayoni bilan bog‘liq**.** Inson o‘zidagi pastlik hissidan qutulish uchun ortiqcha kompensatsiya qiladi. Ko‘proq harakat qiladi, Perfeksionizmga beriladi, Boshqalarni boshqarishga urinadi, yoki aksincha, vaziyatdan qochadi. Adler [inson tabiatini tushunish] nazaryasiga ko‘ra havotirning ko‘rinishlari: Qochish xulqi yani**,** qiyinchiliklardan qochish, muammolarni hal qilmaslik. Haddan tashqari ehtiyotkorlik - Potensial xavflarni ortiqcha baholash. Perfeksionizmda **“**Agar mukammal b**o‘**lmasam, meni tanqid qilishadi**”** degan ruhiy holat. Boshqarishga intilish - Boshqalarni nazorat qilish orqali ichki q**o‘**rquvni yopish, i**jtimoiy chekinish** - Jamoa, odamlar, jamiyatdan uzoqlashish, bugungi kundagi keng tarqalgan tushunchalardan biri aynan mukammallikka intilishdir. Bu jarayon bevosita shaxsdagi havotir darajasi oshirib yuboradi va bu turdagi havotirning paydo b**o‘**lishi nafaqat shaxsning o‘ziga balki uning yaqin insonlarigaham **o‘**z tasirini **o‘**tkazadi.

Bandura havotirni o‘z-o‘zini samaradorlik va ijtimoiy o‘rganish jarayonlari orqali tushuntiradi. Shaxs o‘z imkoniyatlariga ishonmasa, vaziyatni boshqarishda havotir paydo bo‘ladi. Banduraning nazriyasiga ko‘ra**,** havotir — bu ichki emas, balki o‘z xulqimiz va vaziyatni qanday talqin qilishimiz natijasida shakllanadigan psixologik holatdir**.** Ya’ni, havotir insonning o‘z qobiliyatiga bergan bahosiga kuchli bog’liq. Inson o‘zini vazifani uddalay olaman deb hisoblamasa, unda havotir paydo bo‘ladi.” 18–25 yoshdagi 150 nafar talabalar o‘rtasida havotir va himoya mexanizmlarini o‘lchash (Spielberger va Freyd himoya mexanizmlari shkalasi) So‘rovnoma o`tkazildi. Statistik tahlilga ko`ra korrelyatsiya va dispersiya tahlili orqali havotir va himoya mexanizmlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Talabalarning 68% i o‘zini tez-tez havotirli his qiladi. Eng ko‘p ishlatiladigan himoya mexanizmi: ratsionalizatsiya (45%), regressiya (30%), proyeksiya (25%). Havotir va himoya mexanizmlari o‘rtasida korrelyatsiya: $r = 0.62$ ($p < 0.01$), ya’ni o‘zaro bog‘liqlik kuchli.

Xulosa qilib ma’lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, havotir shakillanishi, paydo bo‘lishi, tashqi bosim va ichki extiyojlarning qondirilmasligi ota-ona va jamiyatning bevosita ta’siri muhim o‘rinni egallaydi. Ximoya mexanizmlari esa ushbu jarayonni yengillashtiruvchi organizmning biologik ximoya funksiyasining ishga tushishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu funksiya bizni turli qiyin vaziyatlarda olib chiqishga yordam beradi .Shaxs jamiyatda shakillanar ekan nafaqat uning ijobiy sifatlari balki salbiy sifatlari va kamchiliklaridaham faqatgina birgina omil emas ko‘plab omillar yig’ilib ayni bir hususiyatning paydo bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shaxsdagi havotirning paydo bo‘lishi uning individualligi bilan bog’liq bo‘lsada undagi bu individuallikning paydo bo‘lishiga bir necha sabablar mavjud bo‘lgan. Havotir holatiham huddi shu xolatda paydo boladi, yani, uning oshib ketishi yoki uzoq davom etishiga tashqi va ichki sabablarning birlashuvi sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziev, E. G. (2002). Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Davletshin, M. G. (2004). Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Karimova, V. M. (2008). Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Fan.
4. Freud, S. (1936). The problem of anxiety. New York: W. W. Norton & Company.
5. Horney, K. (1945). Our inner conflicts: A constructive theory of neurosis. New York: W. W. Norton & Company.
6. Erikson, E. H. (1950). Childhood and society. New York: W. W. Norton & Company.

7. Adler, A. (1927). Understanding human nature. New York: Greenberg.
8. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
9. Spielberger, C.D. (1983). *Manual for the State-Trait Anxiety Inventory*

PEDAGOGIK QADRIYATLAR TUSHUNCHASI VA TA`LIM TIZIMIDAGI O`RNI

Shadmanova Madina Sobirjon qizi
ADU Psixologiya va pedagogika kafedrasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik qadriyatlar tushunchasi pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, ularning ta’lim jarayonidagi psixologik mexanizmlar bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Pedagogik qadriyatlarning o‘qituvchi shaxsiyati, ta’lim muhitining psixologik iqlimi hamda o‘quvchilarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy asosda tahlil etiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida pedagogik qadriyatlarning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va emotsional xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik qadriyatlar, pedagogik psixologiya, ta’lim muhiti, shaxs rivoji, emotsional xavfsizlik, pedagogik munosabat.

Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan ta’lim jarayoni shaxsning bilish jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy rivojlanishini bir butun tizim sifatida ta’minlovchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonda pedagogik qadriyatlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning mazmuni, yo‘nalishi va sifatini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan pedagogik qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning shaxsiy faolligi, ichki motivatsiyasi va emotsional barqarorligini rivojlantirish uchun zarur psixologik sharoitlarni yaratadi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy faoliyatida insonparvarlik, adolat, hurmat va empatiya kabi pedagogik qadriyatlarga qanchalik amal qilishiga bog‘liqdir. O‘qituvchining qadriyatlar tizimi uning pedagogik pozitsiyasi, muloqot uslubi va refleksiv faoliyatida namoyon bo‘lib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan, pedagogik qadriyatlar pedagogik psixologiyada ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini belgilovchi muhim nazariy-amaliy kategoriya sifatida qaraladi.

Shu bois, pedagogik qadriyatlarni faqat axloqiy-me’yoriy tushuncha sifatida emas, balki pedagogik psixologiyaning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Pedagogik qadriyatlar — bu ta’lim jarayonida shaxsga bo‘lgan munosabatni belgilovchi, pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmuni va psixologik yo‘nalishini aniqlovchi barqaror ijtimoiy-axloqiy me’yorlar va tamoyillar tizimidir. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, pedagogik qadriyatlar o‘qituvchining motivatsion sohasini, kasbiy identifikatsiyasini hamda shaxslararo munosabatlarni tashkil etish strategiyasini shakllantiruvchi muhim ichki omil sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan ushbu qadriyatlar o‘qituvchining pedagogik qarorlari, muloqot uslubi va tarbiyaviy ta’sir mexanizmlarida aks etib, ta’lim jarayonining psixologik sifatini belgilaydi.

Pedagogik qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayonida o‘quvchi passiv bilim oluvchi ob’ekt sifatida emas, balki faol, ongli va mustaqil rivojlanishga qodir sub’ekt sifatida qaraladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ichki o‘rganish motivatsiyasini faollashtirish hamda tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki shaxsning

psixologik yetukligi va ijtimoiy faolligini ta’minlashga yo‘naltirilgan samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik psixologiya doirasida o‘qituvchi shaxsiyati ta’lim jarayonining markaziy va yetakchi psixologik omili sifatida e’tirof etiladi, chunki aynan o‘qituvchi shaxsining kasbiy va shaxsiy xususiyatlari ta’lim jarayonining mazmuni, yo‘nalishi hamda psixologik iqlimini belgilab beradi. O‘qituvchining pedagogik qadriyatlari uning kommunikativ uslubi, emotsional barqarorligi, pedagogik sezgirligi va refleksiv faoliyatida namoyon bo‘lib, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar tizimini shakllantiradi. Insonparvarlik, adolat, empatiya va hurmat kabi fundamental qadriyatlar o‘qituvchi faoliyatining psixologik poydevorini tashkil etib, pedagogik ta’sirning samaradorligini ta’minlaydi.

O‘qituvchining pedagogik qadriyatlarga sodiqligi ta’lim jarayonida ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratishga xizmat qiladi. Bunday muhitda o‘quvchilarda emotsional xavfsizlik, ishonch va o‘zini erkin namoyon etish hissi shakllanadi, bu esa ularning bilish faolligi, ichki o‘rganish motivatsiyasi va mustaqil fikrlash jarayonlarining faollashuviga olib keladi. Natijada pedagogik qadriyatlar o‘qituvchi shaxsiyati orqali ta’lim jarayonining nafaqat akademik samaradorligini, balki o‘quvchilarning psixologik farovonligi va shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim muhitining psixologik iqlimi pedagogik qadriyatlarga bevosita bog‘liqdir. Hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik munosabatlar o‘quvchilarning o‘zini erkin ifoda etishiga, xatolardan qo‘rqmasdan o‘rganishiga imkon yaratadi. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan, bunday muhit kognitiv rivojlanish va ijtimoiy moslashuv uchun qulay sharoit hisoblanadi.

Pedagogik qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti o‘quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalari, empatiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli va innovatsion ta’lim sharoitida pedagogik qadriyatlarning psixologik ahamiyati yanada ortib bormoqda. Texnologiyalarning keng joriy etilishi sharoitida o‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, emotsional qo‘llab-quvvatlash va pedagogik etikani saqlab qoluvchi asosiy sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik qadriyatlar ta’lim jarayonida kognitiv yuklamani muvozanatlashtirish, stressni kamaytirish va o‘quvchilarning psixologik farovonligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qadriyatlar pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan ta’lim jarayonining psixologik samaradorligini belgilovchi yetakchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini faollashtirish, emotsional barqarorligini mustahkamlash hamda ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga xizmat qilib, shaxs rivojlanishining barcha muhim komponentlarini uyg‘un holda rivojlantiradi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki shaxsning ichki salohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan yaxlit psixologik-pedagogik tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik qadriyatlarni pedagogik-psixologik yondashuv asosida rivojlantirish, ularni o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy pozitsiyasiga chuqur integratsiya qilish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda. O‘qituvchilarning pedagogik qadriyatlari asosida tashkil etilgan kasbiy faoliyati ta’lim muhitida ijobiy psixologik iqlimni yaratib, o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan motivatsiyasi, ishonchi va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, pedagogik psixologiya doirasida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish, rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish masalalarini chuqur o‘rganish ta’lim tizimining barqaror va samarali rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva, M. B. Pedagogika va pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Xodjayev, B. X. Pedagogik mahorat va kasbiy qadriyatlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

3. Muslimov, N. A. Pedagogik kompetensiya va shaxs rivoji. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
5. Rogers, C. R. Freedom to Learn. – Columbus, OH: Merrill Publishing, 1983.

LIDER VA TASHKILOTCHI YOSHLARNI IJTIMOIY-PEDAGOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI

Baxodirova Gulsunoy Ibrohimjon qizi
+998 88 338 42 44
gulsinoybahodirova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada liderlik va tashkilotchilik salohiyatiga ega bo‘lgan yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning nazariy va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Yoshlarning yetakchilik sifatlarini shakllantirishda ijtimoiy muhit, ta’lim muassasalari va pedagoglarning o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, lider va tashkilotchi yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: liderlik, tashkilotchi yoshlar, ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy faollik, yoshlar rivoji, pedagogik mexanizmlar.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan yoshlarning ijtimoiy faolligi, liderlik salohiyati va tashabbuskorligiga bog‘liqdir. Ayniqsa, lider va tashkilotchi yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo‘lib, ular ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik faolligi va innovatsion rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu toifadagi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasi zamonaviy pedagogika va pedagogik psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Lider va tashkilotchi yoshlar — bu ijtimoiy faol, tashabbuskor, boshqalarni o‘z ortidan ergashtira oladigan, jamoani bir maqsad sari yo‘naltirish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxslardir. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan, liderlik shaxsning kommunikativ kompetensiyasi, emotsional intellekti, mas’uliyat hissi va qaror qabul qilish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Tashkilotchilik esa faoliyatni rejalashtirish, jamoaviy ishni muvofiqlashtirish va ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu sifatlarning rivojlanishi yoshlarning ijtimoiy tajribasi va pedagogik ta’sir samaradorligiga chambarchas bog‘liq.

Ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash — bu yoshlarning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan tizimli pedagogik ta’sirlar majmuasidir. Ushbu jarayon yoshlarning ichki salohiyatini ochib berish, ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish va ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Lider va tashkilotchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda pedagoglar ularning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u bir qator o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Avvalo, pedagogik diagnostika yoshlarning liderlik salohiyati, kommunikativ qobiliyatlari hamda ijtimoiy faollik darajasini aniqlashga xizmat qilib, keyingi pedagogik ta’sirlarni maqsadli rejalashtirish imkonini beradi. Mazkur diagnostik natijalarga tayanib, motivatsion qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi, bunda yoshlarning tashabbuskorligini rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatga jalb etish va muvaffaqiyatga yo‘naltirish asosiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, trening va loyihaviy faoliyat orqali yoshlarning jamoaviy ish tajribasi boyitilib, liderlik va tashkilotchilik ko‘nikmalari amaliy faoliyat jarayonida shakllantiriladi. Bu jarayonda ijtimoiy muhit yaratish alohida ahamiyat kasb etib, yoshlarning o‘zini erkin namoyon etishi, tashabbus ko‘rsatishi va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi uchun qulay pedagogik hamda psixologik sharoitlar ta’minlanadi. Mazkur mexanizmlarni to‘ldiruvchi muhim omil sifatida mentorlik va maslahat berish faoliyati namoyon bo‘lib, tajribali pedagoglar va mutaxassislar tomonidan ko‘rsatiladigan yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi yordam yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada, ushbu mexanizmlarning o‘zaro uyg‘un va tizimli tarzda amalga oshirilishi yoshlarning ijtimoiy yetukligi, fuqarolik mas’uliyati hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash jarayonida pedagog shaxsining kasbiy va psixologik kompetensiyasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagog nafaqat bilim va tajriba manbai, balki yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlovchi, ularni mustaqil fikrlash va mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga undovchi hamda ijobiy emotsional muhitni shakllantiruvchi yetakchi sub’ekt vazifasini bajaradi. Uning kommunikativ mahorati, empatiyasi va refleksiv faoliyati yoshlarning shaxsiy imkoniyatlarini ochib berish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta’lim muassasalarida demokratik muhitning shakllanganligi, ochiq va konstruktiv muloqotga asoslangan pedagogik munosabatlarning mavjudligi hamda ijtimoiy faollikni tizimli ravishda rag‘batlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlarning yaratilishi yoshlar liderligining rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday muhitda yoshlar o‘z fikrini erkin bildirish, tashabbus ko‘rsatish va qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning ijtimoiy mas’uliyat hissi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Mazkur pedagogik muhit yoshlarning tashabbuskorligini kuchaytirib, ularni jamoaviy faoliyatda samarali hamkorlik qilishga, yetakchilik rollarini o‘zlashtirishga va ijtimoiy muammolarni hal etishda faol pozitsiya egallashga undaydi. Natijada yoshlar fuqarolik mas’uliyatini anglaydigan, ijtimoiy jarayonlarga ongli ravishda munosabat bildiradigan hamda jamiyat hayotida yetakchi o‘rin egallashga tayyor bo‘lgan yetuk shaxslar sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash jamiyatning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlovchi muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Bunday qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi, tashabbuskorligi va fuqarolik mas’uliyati oshib, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki yanada faollashadi. Tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv hamda ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit yoshlarning liderlik va tashkilotchilik salohiyatini aniqlash, rivojlantirish va amaliy faoliyatda namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shu bilan birga, ta’lim tizimida lider va tashkilotchi yoshlarni erta aniqlash, ularning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur jarayonda pedagoglar, ta’lim muassasalari va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarning tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda ularni ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlarga keng jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, jamiyat ehtiyojlariga mos, mas’uliyatli, faol va yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yosh avlodni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva, M. B. Ijtimoiy pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

2. Xodjayev, B. X. Pedagogik mahorat va yetakchilik kompetensiyalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Muslimov, N. A. Kasbiy va ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
4. G‘ofurov, O. R. Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
5. Saidahmedov, N. S. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: Sharq, 2017.

OILA PSIXOLOGIYASI VA GENDER TADQIQOTLAR

ADU Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya yo’nalishi 101-guruh talabasi
G’aniyeva Muslima va Mahmudova Shahnoza

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila psixologiyasi va gender tadqiqotlarining nazariy asoslari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Oiladagi rollar, munosabatlar va kommunikativ jarayonlarning gender omillari bilan bog‘liqligi psixologik nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, gender ijtimoiylashuvi, oila ichidagi psixologik muhit va shaxs rivojlanishiga gender stereotiplarining ta’siri masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: oila psixologiyasi, gender, gender rollari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiylashuv, gender stereotiplari.

Oila jamiyatning asosiy va barqaror ijtimoiy instituti sifatida shaxsning psixologik, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishida yetakchi rol o‘ynaydi. Aynan oila muhitida shaxsning dastlabki ijtimoiy tajribasi shakllanib, unda munosabatlar tizimi, qadriyatlar, ijtimoiy rollar va xulq-atvor me’yorlari o‘zlashtiriladi. Oila a’zolari o‘rtasidagi muloqot xususiyatlari, emotsional yaqinlik darajasi va tarbiyaviy ta’sir shakllari shaxsning butun hayoti davomida uning xulq-atvori, o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, oila psixologiyasi oilaviy tizimning psixologik mexanizmlarini, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini hamda oilaviy munosabatlarning shaxs rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan muhim ilmiy fan sohasi hisoblanadi. Oila psixologiyasi oilaviy munosabatlardagi emotsional barqarorlik, konfliktlar, rollar taqsimoti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi omillarni tahlil qilish orqali shaxsning psixologik farovonligini ta’minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda gender tadqiqotlarining rivojlanishi oila psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda olib borilib, oiladagi rollar, majburiyatlar va munosabatlarning ijtimoiy-madaniy shartlanganligini chuqurroq tahlil qilish imkonini bermoqda. Gender yondashuvi oilaviy munosabatlarni faqat biologik jinsiy farqlar bilan izohlashdan ko‘ra, ularni jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy konstrukt sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Bu yondashuv oilada erkak va ayol rollarining taqsimoti, mas’uliyat va qaror qabul qilish jarayonlarining psixologik mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi hamda oilaviy munosabatlardagi tenglik va moslashuvchanlik masalalarini ilmiy asosda yoritadi.

Oila psixologiyasi oilaviy tizimning tuzilishi, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, emotsional yaqinlik darajasi va yuzaga keladigan konfliktlarning psixologik xususiyatlarini o‘rganadi. Oila ichidagi psixologik iqlim shaxsning emotsional barqarorligi, o‘zini xavfsiz his qilishi va ruhiy sog‘lig‘ini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning sifati, tarbiyaviy uslublar hamda turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi muloqotning ochiqligi va konstruktivligi oilaviy muvozanatni ta’minlovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oila ichida qo‘llab-quvvatlovchi, ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarning mavjudligi shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, uning ijtimoiy faolligi va stressga bardoshliligini oshiradi. Bunday oilaviy muhit shaxsning psixologik farovonligini ta’minlab, ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanlik va barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Gender tushunchasi biologik jinsdan farqli ravishda jamiyat tomonidan tarixiy va madaniy jarayonlar davomida shakllantiriladigan ijtimoiy rollar, xulq-atvor me’yorlari, qadriyatlar va kutishlar majmuasini ifodalaydi. Gender tadqiqotlari erkaklar va ayollarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan stereotiplar, tenglik va teng imkoniyatlar masalalari hamda ijtimoiy munosabatlarning psixologik mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu yondashuv shaxs rivojlanishining ijtimoiy-madaniy shartlanganligini ochib beradi.

Gender yondashuvi oiladagi rollar taqsimoti, mas’uliyatning bo‘linishi va qaror qabul qilish jarayonlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, an’anaviy jamiyatlarda ayollarga asosan parvarish va tarbiya bilan bog‘liq rollar yuklatilib, erkaklar iqtisodiy ta’minotchi sifatida talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy jamiyatda ushbu rollar qayta ko‘rib chiqilib, ularning moslashuvchanligi va teng taqsimlanishi tendensiyasi kuchayib bormoqda. Bu jarayon oilaviy munosabatlarda yangi psixologik muvozanat shakllanishiga olib kelmoqda.

Oilaviy munosabatlarda gender omili psixologik moslashuv va emotsional barqarorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Gender stereotiplarining qat’iyligi turmush o‘rtoqlar o‘rtasida rollar ziddiyati, emotsional uzoqlashuv va nizolarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Aksincha, gender tengligi va moslashuvchan rollarga asoslangan munosabatlar oilaviy hamkorlikni kuchaytirib, o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi.

Psixologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilada genderga nisbatan adolatli va moslashuvchan yondashuvning mavjudligi farzandlarning ijtimoiylashuvi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va gender identifikatsiyasining sog‘lom shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Oila gender ijtimoiylashuvining asosiy muhitidir, chunki bolalar oila a’zolarining xulq-atvori, rollari va o‘zaro munosabatlarini kuzatish orqali genderga oid tasavvurlarni egallaydi. Ota-onaning farzandlarga bo‘lgan munosabati, ularga nisbatan kutishlari va rag‘batlantirish usullari bolalarning gender identiteti rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi.

Gender stereotiplaridan holi, qo‘llab-quvvatlovchi va ochiq oilaviy muhit bolalarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va psixologik barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday muhit shaxsning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, teng huquqli munosabatlarni anglash va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvni ta’minlash uchun zarur psixologik shart-sharoitlarni yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, oila psixologiyasi va gender tadqiqotlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, oilaviy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishini belgilovchi psixologik mexanizmlarni chuqurroq va tizimli ravishda anglash imkonini beradi. Gender yondashuvi oilaviy munosabatlarni faqat an’anaviy rollar doirasida emas, balki ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar uyg‘unligida tahlil qilishga xizmat qilib, oiladagi rollar taqsimoti, mas’uliyat va qaror qabul qilish jarayonlarining moslashuvchanligini ta’minlashga yo‘naltiriladi. Bu esa oilaviy tizimda psixologik muvozanatni saqlash, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda oila va gender masalalarini integratsiyalashgan holda o‘rganish, genderga sezgir va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday yondashuv oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta’minlash, farzandlarning sog‘lom psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda tenglik hamda ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Minuchin, S. Families and Family Therapy. Cambridge: Harvard University Press, 1974.
2. Bowen, M. Family Therapy in Clinical Practice. New York: Jason Aronson, 1978.

3. V. Conjoint Family Therapy. Palo Alto: Science and Behavior Books, 1967.
4. Nichols, M., & Schwartz, R. Family Therapy: Concepts and Methods. 11th ed. Boston: Pearson, 2019.
5. Olson, D. H., &DeFrain, J. Marriages and Families: Intimacy, Diversity, and Strengths. New York: McGraw-Hill, 2011.
6. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. New York: Routledge, 1990.
7. Connell, R. W. Masculinities. Berkeley: University of California Press, 1995.

O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

ADU Sirtqi ta`lim Amaliy psixologiya yo'nalishi 5-bosqich 502-guruh talabasi Abduvaxobova Mushtariy

Annotatsiya: Maqolada o'smir yosh davrining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, shaxs rivojlanishidagi o'ziga xos jarayonlar va ularni belgilovchi omillar yoritib berilgan.O'smirlarning emotsional barqarorligi,impulsivlik darajasi, tengdoshlar guruhining ta'siri, oilaviy muhitning psixologik ahamiyati hamda o'z-o'zini baholash jarayonlari yoritildi. shuningdek bu davrda tanqidiy fikrlashning shakllanishi, o'zida bo'layotgan o'zgarishlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar, kattalarga nisbatan mustaqillik ehtiyoji va muloqot uslubidagi o'zgarishlar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Emotsional barqarorlik, impulsivlik, tafakkur xususiyatlari, oilaviy muhit, psixik jarayon, identifikatsiya, abstrakt tafakkur, kommunikativlik.

Аннотация: В статье раскрыты социально -психологические особенности подросткового возраста, специфические процессы развития личности и определяющие их факторы. Освещены вопросы емоциональной устойчивости подростков, уровня импульсивности, влияния группы сверстников, психологической значимости самооценки. Кроме того, проанализированы формирование критического мышления в етот период, трудности принятия происходящих с собой изменения в стилях общения с взрослыми.

Ключевые слова: Емоциональная стабильность, импульсивность, особенности мышления, семейная среда, психические процессы, идентификация, абстрактное мышление, коммуникативность.

Abstract: It describes the social and psychological features of adolescence, the specific process of personality development, and the factors that condition them.It gives a detailed look at emotional stability, the level of impulsivity, peer groups, the psychological importance of the familial environment, and the self-assessment processes. For this stage the article then continues to describe the buildingof critical thinking, complications with the acceptance of personal changes, the need for independence regarding adults, and the changing communicational styles.

Keywords: Emotional stability, impulsivity, thinking characteristics, family environment, psychological processes, identification, abstract thinking, communicativeness.

O'smirlik davri shaxsning psixologik ,emotsional va ijtimoiy jihatdan eng sezgir va faol rivojlanadigon bosqichidir. Ushbu davrda o'smirning asosiy ehtiyojlari : o'zini tasdiqlash, mustaqillik, tengdoshlar guruhiga mansublik va ijtimoiy mavqe topishdir. Glaballashuv jarayoni o'smirlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi: internet ijtimoiy tarmoqlar va global madaniyat ularning qadryatlari va xulq-atvorini tez o'zgartirmoqda.O'z -o'zini baholashdagi o'zgarishlar o'smirlar tashqi ko'rinishi va qobiliyatlarini boshqalar bilan taqqoslaydi. Tanqidga o'ta sezgir bo'ladi.O'zini past baholash, uyatchanlik yoki aksincha haddan tashqari o'ziga ishonch kuzatilishi mumkin.

O’smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo’lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o’smirlar o’tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan ancha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o’sish oldinroq namoyon bo’lmoqda.

O’smirlik – bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi.Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi.O’smirda ro’y beradigan biologik - jismoniy o’zgarish tanijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi .O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatishga intiladilar.O’smirlik davriga kimningdir xatti- harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko’pincha ular o’zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti- harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O’smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O’smirlarda o’z-o’zini anglash hissining tarkib topishi, o’ziga nisbatan go’yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipdagi o’smirlar uchun muhim xususiyatlardir.

O’smir o’g’il-qizlar shaxsining kamol topishida, o’zini anglash jarayonida, o’ziga baho berish mayli va istagi o’zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o’ziga bino qo’yish ehtiyoji paydo bo’ladi. O’smirlik davrida kattalardan masofa saqlash va begonalashish ro’y beradi. O’smir bir tomondan kattalar bilan huquqlardan teng ekanligini prinsipial jihatdan talab qiladi, ikkinchi tomondan kattalarning yordamiga , qo’llab-quvvatlashiga, himoyasiga, bahosiga ehtiyoj sezadi. Ota-onalar bilan o’zaro munosabatlardagi muammolar, o’qituvchilar bilan nizolashishlar – o’smirlik davri uchun odatiy hol, bo’lsa-da, bunday holatlarning namoyon bo’lish tezligi kattalarning unga bo’lgan munosabatiga, oilaviy tarbiya uslubiga, o’smir xulq- atvoriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo’lish ko’nikmasiga bog’liq. O’smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar.

Davletshin O’zbekistonda ilmiy maktab yaratgan, o’smirlar ruhiyatini chuqur o’rgangan yetakchi psixologlardan biri. O’smirlar nihoyatda taqlidchan bo’lib ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo’ladi.Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo’ladilar. O’smirlik davrida yetakchi faoliyat – bu o’qish,muloqot va mehnat faoliyatidir. O’smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi – bu do’stlik, o’rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir.

O’smir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va o’rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og’ir jazo esa ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir. O’smirlik davrida juda qattiq charchash holatlari ham bo’ladi.

Aynan 13 – 14 hamda 16 yoshlarda charchash chizig’i keskin ko’tariladi. Bunday holatlarda o’smir atrofdagi narsa va voqealarga to’liq diqqatini qarata olmaydi.

Maktabda o’qitiladigan fanlar o’smir uchun o’z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo’lib xizmat qiladi. J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi”.

Bu borada o’zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o’z - o’zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Emotsional rivojlanish: kayfiyatning tez-tez o’zgarishi, emotsional beqarorlik, tengdoshlarning fikri va bahosi o’ta muhim bo’lib qoladi, o’z “Men” i haqida o’ylash va o’zini anglash kuchayadi.

Impulsivlik va o’zini boshqarish : qaror qabul qilishda shoshqaloqlik, oldindan oqibatni baholash qiyinroq bo’ladi, shu bilan birga asta-sekin o’zini nazorat qilish, mas’uliyat hissi shakllanadi.

Ijtimoiy muhit ta’siri: tengdoshlar guruhi yetakchi o’rin egallaydi, do’stlarning bahosi ko’proq ahamiyatli bo’ladi, ijtimoiy identifikatsiya (kimman? , qaysi guruhga mansubman?)

jarayoni avj oladi, mustaqil bo'lishga intilish kuchayadi; ota-onalar, pedagoglar bilan kichik ziddiyatlar paydo bolishi mumkin.

Oilaviy muhitning roli: ota-onaning qo'llab quvvatlashi, mehr - muhabbati, nazorat me'yorining to'g'riligi o'smir ruhiy sog'ligiga kuchli ta'sir qiladi, qattiqqo'llik, e'tiborsizlik, haddan ortiq erkalatish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kognitiv (aqliy) rivojlanish: abstrakt tafakkur, mantiqiy fikrlash shakllanadi.

O'smirlik–bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib ,o'ziga xos xususiyatlar bilan harakterlanadi. O'smirlik davri ham bir inqiroz hisoblanadi chunki, organiszm har taraflama fiziologik, psixologik, jismoniy taraflama tez rivojlanadi, ichki sekretsiya bezlari faoliyati kuchayib organizmda gormonal o'zgarishlar ro'y beradi. Bu davrda ota-onalar va pedagoglarning mehr muhabbati hamda e'tibori yosh o'smirlar hayotida muhim ahamiyatga ega. O'smirlarning turli ekstremistik oqimlarga ,giyohvandlik, ichkilik va boshqa yomon yo'llarga kirib qolmasliklari uchun ota-onalar va pedagoglar o'smirlarni to'g'ri yo'naltirishlari kerak. Ular bilan do'stona munosabatda bo'lib ,jamiyatda shaxs sifatida shakllanishlariga yordam berishlari pedagog va ota-onalarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. ''Rivojlanish psixologiyasi'' Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova .Toshkent- 2018 (322-350 betlar)
2. Ergash G'oziyev, Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxasislari uchun darsligidan.
3. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. Erikson, E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968.
5. Goleman, D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2011.
6. Abdullaeva, M. B. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

O‘QITISHDAGI HAMKORLIK USULLARINING SAMARADORLIGI VA O‘QUVCHILARNING JAMOAVIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Madayeva Nafosat Akramjon qizi
+998 97 9812010
nafosatmadayeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qitish jarayonida hamkorlikka asoslangan usullarning pedagogik va psixologik samaradorligi tahlil qilinadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining o‘quvchilarning jamoaviy ko‘nikmalarini, kommunikativ faolligini va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishdagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, jamoaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari va hamkorlik usullarining ta’lim jarayoniga ta’siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: hamkorlikda o‘qitish, jamoaviy ko‘nikmalar, pedagogik jarayon, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy o‘zaro ta’sir, faol ta’lim usullari.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, balki ularning ijtimoiy faolligi, jamoada samarali ishlash qobiliyati hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur talablar ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qitish jarayonida

hamkorlikka asoslangan usullardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi.

Hamkorlikda o‘qitish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlab, ularni o‘zaro muloqot, fikr almashish va jamoaviy faoliyat orqali bilimlarni ongli ravishda egallashga undaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, mas’uliyatni bo‘lishish hamda jamoa manfaatlarini hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Hamkorlikda o‘qitish—bu o‘quvchilarning kichik guruhlarda yoki jamoa tarkibida o‘zaro yordam, mas’uliyatni bo‘lishish va teng ishtirok tamoyillari asosida tashkil etiladigan ta’lim faoliyatidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning faqat bilimlarni egallashini emas, balki ularni birgalikda muhokama qilish, muammolarni hamkorlikda hal etish va umumiy natija uchun javobgarlikni his etishini ham nazarda tutadi. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, hamkorlikda o‘qitish ijtimoiy o‘rganish va faoliyat orqali rivojlanish nazariyalariga tayangan holda o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtiradi hamda ularning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi.

Hamkorlik jarayonida o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglash, turli nuqtayi nazarlarni tahlil qilish, o‘z pozitsiyasini mantiqiy asoslash va jamoa manfaatlariga mos keladigan umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu jarayon o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada hamkorlikda o‘qitish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi samarali pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi.

Hamkorlikka asoslangan o‘qitish usullari o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Jamoaviy muhokama va birgalikdagi faoliyat jarayonida o‘quvchilar bilimlarni faqat qabul qiluvchi emas, balki ularni faol ravishda qayta ishlovchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi.
Shuningdek, hamkorlik usullari o‘quvchilarda o‘zaro yordam, mas’uliyatni bo‘lishish va umumiy natija uchun javobgarlik hissini shakllantiradi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ham ta’minlaydi.

Jamoaviy ko‘nikmalar — bu o‘quvchilarning jamoa a’zolari bilan samarali muloqot o‘rnatish, o‘zaro kelishuvga erishish, yuzaga keladigan nizolarni konstruktiv va madaniy yo‘l bilan hal etish hamda umumiy maqsad sari birgalikda mas’uliyatli faoliyat yuritish qobiliyatlarini ifodalovchi muhim ijtimoiy-psixologik sifatlar majmuasidir. Hamkorlikda o‘qitish jarayonida mazkur ko‘nikmalar o‘quvchilarning faol ishtiroki, o‘zaro ta’siri va jamoaviy tajribasi orqali tabiiy ravishda shakllanadi va bosqichma-bosqich mustahkamlanib boradi.

Guruhiy faoliyat jarayonida o‘quvchilar empatiya, boshqalarning fikrini tinglash va tushunish, o‘zaro hurmat hamda hamkorlik madaniyatiga oid muhim ijtimoiy-psixologik sifatlarni egallaydi. Bunday faoliyat ularda mas’uliyatni bo‘lishish, jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yish va ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilar jamoada ishlashga tayyor, ijtimoiy faol, mas’uliyatli va kelajakdagi professional hamda ijtimoiy faoliyatga moslashgan shaxslar sifatida shakllanadi.

Hamkorlik usullarining samaradorligi bir qator pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Jumladan, o‘qituvchi tomonidan aniq maqsad qo‘yilishi, guruh ishining to‘g‘ri tashkil etilishi, vazifalarning teng taqsimlanishi va faol teskari aloqaning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchining fasilitator sifatidagi roli o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitishdagi hamkorlik usullari ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning jamoaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik va psixologik ahamiyatga ega. Hamkorlikka asoslangan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy mas’uliyat va jamoada ishlash madaniyatini

shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida hamkorlik usullarini keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaeva, M. B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Xodjayev, B. X. Pedagogik mahorat va interaktiv ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. Saidahmedov, N. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Sharq, 2017.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

SHAXS TARAQQIYOTI VA YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI

ADU Psixologiya yo`nalishi 1-bosqich talabalari
Shukurillayeva Ruxshona Xayrullo qizi
Sobirova Irodaxon Iqboljon qizi
Azamova Shirinoy O'ktamjon qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs taraqqiyoti va yosh davrlari psixologiyasining nazariy asoslari yoritilib, inson rivojlanishining turli bosqichlarida yuzaga keladigan psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. Yosh davrlariga xos bo‘lgan kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari hamda ularning shaxs shakllanishidagi o‘rni ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, rivojlanish jarayonida biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: shaxs taraqqiyoti, yosh davrlari psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiylashuv, ontogenez, psixologik rivojlanish.

Shaxs taraqqiyoti inson hayoti davomida sodir bo‘ladigan murakkab, ko‘p qirrali va uzluksiz psixologik jarayon bo‘lib, u biologik yetilish, ijtimoiy tajriba hamda shaxsning faol faoliyati natijasida shakllanadi. Ushbu jarayonda irsiy omillar va muhit ta’siri o‘zaro uyg‘unlashib, shaxsning bilish jarayonlari, emotsional soha, irodaviy sifatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimining izchil rivojlanishini ta’minlaydi. Psixologiya fanida shaxs taraqqiyoti yosh davrlari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilib, har bir yosh bosqichining o‘ziga xos ehtiyojlari, yetakchi faoliyat turlari va psixologik xususiyatlari aniqlanadi.

Yosh davrlari psixologiyasi shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, rivojlanish mexanizmlarini hamda individual farqlarni tahlil qilishga qaratilgan muhim ilmiy soha bo‘lib, u shaxs taraqqiyotida miqdoriy o‘zgarishlar bilan bir qatorda sifat jihatdan yangi psixologik tuzilmalarning shakllanishini ham o‘rganadi. Ushbu yondashuv har bir yosh davrida shaxs rivojlanishiga xos muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish va shaxsning uyg‘un rivojlanishini ta’minlash uchun zarur ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxs taraqqiyoti — bu individning biologik mavjudotdan ijtimoiy jihatdan yetuk va ongli shaxsga aylanishini ta’minlovchi murakkab, uzluksiz hamda ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda bilish jarayonlari (idrok, xotira, tafakkur), emotsional soha, irodaviy sifatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi izchil ravishda shakllanib boradi. Rivojlanish psixologiyasi nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxs taraqqiyoti faqat miqdoriy o‘zgarishlar — bilim va tajribaning ortishi bilan cheklanmay, balki sifat jihatdan yangi psixologik tuzilmalar, ya’ni o‘zini anglash, shaxsiy identifikatsiya, mustaqil fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi.

Shaxs taraqqiyotiga irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya jarayoni hamda shaxsning faol va ongli faoliyati birgalikda ta’sir ko‘rsatadi. Irsiy omillar biologik yetilish va individual xususiyatlarning shakllanishiga zamin yaratsa, ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiya shaxsning ijtimoiy

tajribani o‘zlashtirishi va psixologik sifatlarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, shaxsning o‘z faoliyati, tashabbuskorligi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtiroki rivojlanish jarayonining yo‘nalishini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘un va muvofiqlashtirilgan ta’siri shaxs rivojlanishining individual yo‘nalishini belgilab, uning psixologik yetukligi va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi.

Yosh davrlari psixologiyasi inson rivojlanishini muayyan bosqichlarga ajratgan holda o‘rganadi. Har bir yosh davri o‘ziga xos yetakchi faoliyat turi, psixologik ehtiyojlar va rivojlanish vazifalari bilan tavsiflanadi. Ilmiy tadqiqotlarda bolalik, o‘smirlik, yoshlik, yetuklik va keksalik davrlari shaxs taraqqiyotining asosiy bosqichlari sifatida ko‘rib chiqiladi.

Masalan, bolalik davrida bilish jarayonlari va nutq jadal rivojlansa, o‘smirlik davrida shaxsiy identifikatsiya, o‘zini anglash va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlik va yetuklik davrlarida esa kasbiy o‘zini aniqlash, ijtimoiy mas’uliyat va hayotiy maqsadlarning shakllanishi yetakchi o‘rin egallaydi.

Shaxs taraqqiyotining muhim mexanizmlaridan biri **ijtimoiylashuv** bo‘lib, u shaxsning jamiyatda qabul qilingan me’yorlar, qadriyatlar, ijtimoiy rollar va xulq-atvor namunalari bilan tanishishi hamda ularni faol ravishda o‘zlashtirish jarayonini ifodalaydi. Ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning atrof-muhit bilan uzluksiz o‘zaro ta’siri asosida kechib, har bir yosh davrida uning mazmuni va ta’sir doirasi o‘zgarib boradi. Oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi va keng ijtimoiy muhit bilan bo‘lgan munosabatlar shaxsning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, uning ijtimoiy moslashuvi, o‘zini anglash va shaxsiy pozitsiyasining shakllanishini ta’minlaydi.

Faoliyat esa shaxs taraqqiyotining asosiy manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Rivojlanish psixologiyasi nuqtayi nazaridan, shaxsning psixologik sifatlari aynan faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. O‘yin, o‘qish, mehnat va muloqot kabi faoliyat turlari yosh davrlariga mos ravishda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘lib, bilish jarayonlari, emotsional soha, irodaviy sifatlar va ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu faoliyat turlarining mazmunan boy va maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilishi shaxs taraqqiyotining izchil va uyg‘un kechishini ta’minlovchi muhim psixologik shartlardan biri hisoblanadi.

Har bir yosh davri shaxs taraqqiyotida muhim va o‘ziga xos psixologik o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi bo‘lib, ushbu o‘zgarishlar shaxsning bilish jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlarida aks etadi. Bolalik davrida emotsional sezgirlik, taqlidchanlik va atrof-muhitga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lib, bu davrda asosiy psixologik sifatlar va dastlabki ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. O‘smirlik davrida esa shaxs taraqqiyotida keskin burilishlar yuzaga kelib, mustaqillikka intilish, emotsional beqarorlik, o‘zini anglash va shaxsiy identifikatsiya jarayonlari kuchayadi; bu davrda tengdoshlar bilan munosabatlar va ijtimoiy maqom alohida ahamiyat kasb etadi.

Katta yosh davrlarida shaxsning hayotiy tajribasi ortib borishi bilan emotsional barqarorlik, mas’uliyat hissi, ijtimoiy yetuklik va o‘z faoliyatini ongli rejalashtirish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Ushbu davrda shaxs o‘z imkoniyatlarini real baholash, ijtimoiy majburiyatlarni bajarish va jamiyatda barqaror o‘rin egallashga intiladi. Shu sababli, har bir yosh davriga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olish ta’lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq va samarali tashkil etishda muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda shaxsning uyg‘un va izchil rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, shaxs taraqqiyoti va yosh davrlari psixologiyasi inson rivojlanishining qonuniyatlarini tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’lim va tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois, yosh davrlari psixologiyasini chuqur o‘rganish pedagogik va psixologik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Vygotskiy, L. S. Tafakkur va nutq. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Erikson, E. H. Bolalik va jamiyat (Childhood and Society). – New York: W. W. Norton & Company, 1963.
3. Santrock, J. W. Life-Span Development. – New York: McGraw-Hill Education, 2019.
4. Feldman, R. S. Development Across the Life Span. – Boston: Pearson Education, 2017.
5. Bandura, A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.
6. Piaget, J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969.
7. Abdullaeva, M. B. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

O‘QITUVCHINING MALAKASI VA PEDAGOGIK JARAYONDAGI O‘RNI

Muhtarova Nigora Muradbekovna.
Turon Universiteti Andijon filiali magistranri
tel: 998901460017

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchining kasbiy malakasi va uning pedagogik jarayondagi o‘rni pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchining professional kompetensiyasi, psixologik savodxonligi va shaxsiy fazilatlarining o‘quvchilarning bilish faoliyati, motivatsiyasi hamda shaxsiy rivojlanishiga ta’siri yoritib beriladi. Shuningdek, pedagogik jarayonning psixologik mexanizmlari, o‘qituvchi–o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot va emotsional muhitning ta’lim samaradorligidagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik psixologiya, o‘qituvchi malakasi, pedagogik jarayon, psixologik kompetensiya, ta’lim motivatsiyasi, emotsional intellekt, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

Pedagogik psixologiya doirasida ta’lim jarayoni shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi yetakchi omil sifatida talqin etiladi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi shaxsining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda uning psixologik kompetensiyasi ham ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan faqatgina bilimlarni uzatishni emas, balki o‘quvchilarning psixologik rivojlanishini tizimli qo‘llab-quvvatlash, ularning bilish jarayonlarini faollashtirish, ichki motivatsiyasini shakllantirish hamda ijobiy va xavfsiz emotsional muhit yaratishni talab etadi.

Shu jihatdan, o‘qituvchining pedagogik jarayondagi o‘rni va funksiyalarini pedagogik psixologiya kontekstida o‘rganish ta’lim jarayonining psixologik mexanizmlarini chuqurroq anglash, shuningdek, o‘qituvchi faoliyatining ta’lim natijalariga ta’sirini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Bu esa mazkur muammoning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanligini asoslab beradi.

O‘qituvchining malakasi — bu kasbiy bilim va pedagogik ko‘nikmalar bilan bir qatorda psixologik kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oluvchi murakkab va integral tushunchadir. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, o‘qituvchi malakasi o‘quvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlarini chuqur anglash, ularning bilish jarayonlarini samarali boshqarish hamda ta’limga nisbatan barqaror ichki motivatsiyani shakllantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchining psixologik savodxonligi, refleksiv faoliyati va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi ta’lim jarayonining mazmuni va natijalarini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqori malakali o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur va emotsional holatining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini psixologik jihatdan qulay va xavfsiz muhitda tashkil etadi. Natijada o‘quvchilarda bilish faolligi, mustaqil fikrlash va

o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari rivojlanib, bu holat ularning o‘zlashtirish darajasining oshishi hamda shaxsiy faolligining kuchayishiga xizmat qiladi.

Pedagogik jarayon o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ta’lim va tarbiya maqsadlariga erishishga yo‘naltirilgan, uzluksiz, tizimli hamda psixologik o‘zaro ta’sirga asoslangan murakkab faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayonda muloqot o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qilsa, empatiya o‘qituvchiga o‘quvchilarning ichki kechinmalari va ehtiyojlarini chuqur anglash imkonini beradi. Teskari aloqa ta’lim jarayonining samaradorligini baholash va uni moslashtirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm bo‘lsa, refleksiya o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini yaratadi. Natijada mazkur psixologik mexanizmlarning uyg‘unligi pedagogik jarayonning samarali va rivojlantiruvchi tus olishiga xizmat qiladi.

O‘qituvchining kommunikativ va emotsional kompetensiyasi pedagogik jarayonda o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ularning his-tuyg‘ularini anglash va emotsional holatiga mos munosabat bildirish imkonini beradi. Natijada o‘quvchilarda psixologik xavfsizlik, ishonch va o‘zini erkin namoyon etish hissi shakllanib, bu holat ularning mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy faolligining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Pedagogik jarayonda o‘qituvchi motivator sifatida o‘quvchilarning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy maqsadlariga tayangan holda ta’lim faoliyatini tashkil etadi. U o‘quvchilarning muvaffaqiyatga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ijobiy baholash va qo‘llab-quvvatlash orqali ularni bilim olishga ongli va faol tarzda jalb etadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘rganishga nisbatan barqaror motivatsiya shakllanishiga hamda ta’lim jarayonining samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar pedagogik bilimlar bilan cheklanib qolmay, balki psixologik moslashuvchanlik, emotsional intellekt va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ham o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar sharoitida o‘qituvchi o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini me’yorlashtirish, stress holatlarini kamaytirish va motivatsiyani saqlab qolishga mas’ul psixologik yo‘naltiruvchi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Inkluziv va differensial ta’lim sharoitida o‘qituvchining individual yondashuvi hamda yuqori darajadagi psixologik sezgirligi ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarali kechishini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, rivojlanish darajasi, psixologik holati va o‘rganish sur’atlarini inobatga olgan holda ta’lim mazmuni, metodlari va shakllarini moslashtiradi. Ayniqsa, turli qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘qituvchining empatiyasi, moslashuvchanligi va psixologik qo‘llab-quvvatlashi ijobiy emotsional muhitni shakllantirib, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, bilish faolligi va ta’lim jarayoniga jalb etilish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining kasbiy malakasi pedagogik jarayonning samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, yuqori malakali o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning shaxsiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi yetakchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, o‘qituvchilarning psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz takomillashtirib borish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaeva M.B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2019.
2. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanish nazariyasi. – Moskva, 2005.
3. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York, 2011.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, 1977.
5. Xodjayev B.X. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent, 2017.
6. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik faoliyat. – Toshkent, 2020.

BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK NAZARIYALAR O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Turon Unversiteti magistranti.
Nurdinova Dilnoza Boxodirovna
Dilnozanurdinova3@gmail.com
+998979831307

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida bolaning psixologik rivojlanishini chuqur o‘rganish, uni shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni asoslab berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ta’lim jarayonining muvaffaqiyati nafaqat o‘qituvchi faoliyatiga, balki o‘quvchining psixologik holati, individual xususiyatlari va shaxsiy ehtiyojlariga ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois, bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar psixologiyasi inson shaxsining ilk yosh bosqichlarida kechadigan psixik jarayonlarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Pedagogika esa bu jarayonlarni boshqarish, yo‘naltirish va maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish metodlarini ishlab chiqadi. Shunday ekan, bu ikki fan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, bir butun tizimning ajralmas qismlari hisoblanadi. Pedagogik nazariyalar bolaning psixik rivojlanish bosqichlariga tayanib, samarali ta’lim metodikasini yaratishga yordam beradi, bolalar psixologiyasi esa pedagogik yondashuvlarning ilmiy asosini mustahkamlaydi. Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi o‘quv dasturlari va kompetensiyaviy yondashuvlar bolalar psixologiyasi bilan uzviy bog‘liqlikda shakllanmoqda. Chunki o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki bola psixikasini anglay oladigan, uning ichki dunyosiga kirib, qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira oladigan shaxs bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik nazariyalar bolaning individual va ijtimoiy rivojlanish psixologiyasiga tayanadi.

Mazkur maqolada bolalar psixologiyasi bilan pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, V. Vigotskiy, J. Piaje, K. Rodjers kabi olimlarning psixologik qarashlari asosida pedagogik jarayonning psixologik asosi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — bolalar psixologiyasining ilmiy xulosalarini ta’lim nazariyalariga tatbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirishning samarali yo‘llarini aniqlashdir.

Bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim ilmiy asoslaridan biri sanaladi. Bu bog‘liqlik shundan iboratki, pedagogika bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olgan holda o‘qitish va tarbiyalash metodikasini ishlab chiqadi. Shu sababli, har qanday ta’lim nazariyasi o‘z ildizini psixologik bilimlardan oladi[1].

Psixologik nazariyalar bolalarning yosh davrlariga xos tafakkur, diqqat, xotira va idrok jarayonlarini o‘rganadi. Masalan, J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola dunyoni bilish jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Unga ko‘ra, bola tafakkuri to‘rt bosqichda rivojlanadi: sensomotor, preoperatsional, konkret operatsional va formal operatsional bosqichlar. Har bir bosqichda bola o‘z tajribasi orqali bilimlarni o‘zlashtiradi[2]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik yondashuv bolaning yoshga xos fikrlash qobiliyatiga mos tarzda tuzilishi lozim. Masalan, boshlang‘ich ta’limda o‘quv materiallarini konkret misollar, o‘yinlar va tajribalar orqali berish Piajening psixologik nazariyasiga tayanadi.

L. S. Vigotskiy o‘zining sotsiokultural nazariyasida bola psixikasining rivojlanishini ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘lab tushuntiradi. Unga ko‘ra, bolaning o‘qish va tafakkur faoliyati “yaqin rivojlanish zonasi” orqali amalga oshadi — ya’ni bola kattalar yoki bilimdon tengdoshlar yordami bilan yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi[3]. Pedagogik jarayon nuqtai nazaridan, bu nazariya o‘qituvchining o‘quvchiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, rag‘bat berish va hamkorlikda o‘rganish muhitini yaratish zarurligini asoslaydi. Shunday qilib, psixologik va pedagogik yondashuvlar o‘zaro bir-birini to‘ldirib, bolaning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi.

E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi esa bola shaxsining ijtimoiy va emotsional jihatdan shakllanishini yoritadi. Unga ko‘ra, bola har bir yosh bosqichida ma’lum psixologik inqirozni boshdan kechiradi, bu esa uning keyingi shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiladi[4]. Shu boisdan ta’lim jarayonida pedagog bola nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik qo‘llab-quvvatlovchi rolini ham bajarishi kerak. Shuningdek, K. Rodjersning “insonparvarlik psixologiyasi” konsepsiyasi ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ilgari suradi. Unga ko‘ra, har bir bola o‘z ichki salohiyatiga ega va o‘qituvchining vazifasi uni ochish, rag‘batlantirish va o‘zini namoyon etish imkoniyatini yaratishdir[5]. Bu nazariya zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda, ayniqsa, interfaol metodlar, erkin fikrlash va kreativlikni rivojlantirish jarayonida keng qo‘llanilmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, bolalar psixologiyasi va pedagogik nazariyalar o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda asosiy ilmiy va amaliy tayanch vazifasini bajaradi. Psixologik yondashuvsiz pedagogik jarayon mexanik va samarasiz bo‘lib qoladi, pedagogik yondashuvsiz esa psixologik bilimlar amaliy natijaga aylanmaydi. Shu bois, har bir zamonaviy o‘qituvchi bola psixologiyasini chuqur anglagan holda o‘z faoliyatini tashkil qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1.Karimova V. M., “Psixologiya asoslari”, Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2018.

2.Piaget, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972.

3.Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

4.Erikson, E. H. Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company, 1963.

5.Rogers, C. Freedom to Learn. Columbus, OH: Merrill Publishing Company, 1983.

RAQAMLI FAOLLIK VA PSİXOLOGIK FAROVONLIK: MOSLASHUV JARAYONINING MUHIM OMILLARİ

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psuxologiya yo'nalishi 102-guruh
Ergasheva Feruzaxon, Yusufbekova Shirinoy, Sotvoldiyeva Mohlaroy

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda shaxsning raqamli faolligi va psixologik farovonligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi.. Tadqiqot natijalari raqamli psixologiya va raqamli ta’lim sohalarida shaxsning barqaror psixologik holatini ta’minlash hamda sog‘lom raqamli xulq-atvorni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: raqamli faollik, psixologik farovonlik, raqamli moslashuv, raqamli gigiyena, emotsional barqarorlik.

Raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib borar ekan, shaxsning psixologik farovonligi raqamli faoliyatning hajmi, sifati va mazmuni bilan tobora kuchayib borayotgan bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda. Raqamli muhitning kengayishi insonning kognitiv jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy muloqot shakllarini qayta shakllantirmoqda. Shu bois shaxsning raqamli faoliyat strategiyalarini ongli boshqarishi, axborot oqimi bilan ishlay olish darajasi va raqamli xavfsizlikni ta’minlash qobiliyatlari psixologik barqarorlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Ushbu tadqiqot aynan raqamli faollik darajasi, psixologik farovonlik ko‘rsatkichlari hamda raqamli muhitga moslashuv omillari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro munosabatlarni aniqlashga qaratildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘rtacha va ongli boshqarilgan raqamli faollik shaxsning emotsional barqarorligi, ijobiy o‘zini anglash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissi

va hayotdan umumiy qoniqish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Bu holat, ayniqsa, raqamli resurslardan o‘qish, kasbiy rivojlanish, ijodiy faoliyat yoki konstruktiv ijtimoiy muloqot maqsadida foydalanilganda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Biroq raqamli yuklamaning me’yoridan ortishi, ya’ni uzoq vaqt davomida uzluksiz ekran oldida bo‘lish, keraksiz axborot oqimining ko‘pligi yoki ko‘p vazifalilikning (multitasking) kuchayishi stress darajasining oshishiga, diqqatning beqarorlashuviga, kognitiv charchoq va emotsional zo‘riqishga olib keladi. Natijada raqamli charchoq, informatsion toliqish va salbiy emotsional fon paydo bo‘lib, ular psixologik farovonlikning pasayishiga sabab bo‘ladi.

Bu jarayon shuni ko‘rsatadiki, raqamli faoliyatning shaxs psixologik holatiga ta’siri bir yoqlama emas, balki ikki tomonlama, murakkab va ko‘p omilli hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan maqsadga yo‘naltirilgan, me’yorli va ongli tarzda foydalanish psixik sog‘lomlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Aksincha, nazoratsiz va haddan ortiq raqamli muhitga sho‘ng‘ish psixologik disbalansga olib kelishi mumkin. Shu sababli raqamli gigiyena qoidalariga rioya qilish, vaqtni to‘g‘ri boshqarish, emotsional o‘zini nazorat qilish va raqamli kompetensiyani oshirish shaxsning zamonaviy raqamli muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun zarur omillar sifatida e’tirof etiladi.

Moslashuv jarayonida raqamli gigiyena qoidalariga amal qilish, vaqtni boshqarish, emotsional regulyasiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu omillar yuqori bo‘lgan ishtirokchilarda psixologik farovonlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori bo‘lgani kuzatildi. Xulosa sifatida, samarali raqamli moslashuv shaxsning raqamli kompetensiyasi va psixologik boshqaruv ko‘nikmalariga tayangan holda raqamli muhitning salbiy oqibatlarini kamaytirish va farovonlikni saqlashga xizmat qiladi.

Raqamli faollik va psixologik farovonlik o‘rtasidagi munosabat psixologiya, pedagogika va raqamli kommunikatsiya fanlarining kesishgan nuqtasida o‘rganiladigan murakkab fenomen hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishning nazariy poydevori bir necha asosiy konsepsiyalarga tayanadi:

Raqamli psixologiya insonning raqamli texnologiyalar bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan kognitiv, emotsional va ijtimoiy o‘zgarishlarni

o‘rganadi. Bu konsepsiyaga ko‘ra, raqamli muhit shaxsning idrok, diqqat, xotira hamda emotsional reaksiyalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli stimullar ko‘pligi kognitiv yuklamani oshiradi, shu bilan birga ijodkorlik, o‘rganish tezligi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashi ham mumkin.

Ryffning “Psixologik farovonlik modeli”ga ko‘ra, farovonlik shaxsning maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘zini anglash darajasi, boshqaruv hissi, ijtimoiy munosabatlar sifati va hayotiy mazmunni his etishi bilan belgilanadi. Raqamli faoliyat ushbu komponentlarning har biriga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Raqamli platformalar orqali axborot oqimining ko‘pligi miya uchun ortiqcha yuklama yaratishi mumkin. Sweller nazariyasiga ko‘ra, haddan ziyod kognitiv yuklama diqqat tarqoqligini, fikrlash jarayonlarining sekinlashuvini va charchoqni chaqiradi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli faollikning me’yorli darajasi ta’lim natijalarini yaxshilaydi, ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi va hayotdan qoniqish hissini oshiradi (Smith & Anderson, 2022). Biroq ortiqcha raqamli faoliyat depressiya, tashvish, diqqat yetishmovchiligi va raqamli charchoqni kuchaytirishi aniqlangan (Rosen et al., 2021).

Tarafdorlar ta’kidlashicha, uzluksiz axborot oqimiga duch kelish — “infomatsion toliqish” — psixologik farovonlikni pasaytiradi (Eppler & Mengis, 2018). Haddan ortiq foydalanish raqamli qaramlik sindromi va diqqatning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, raqamli moslashuv shaxsning raqamli kompetensiyasi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalariga chuqur bog‘liq (Bennett et al., 2020). Raqamli gigiyena (vaqt cheklovi, dam olish intervali, axborotni filtrlash) yuqori bo‘lgan foydalanuvchilarda stress darajasi sezilarli past bo‘ladi (Kushlev & Dunn, 2019).

Onlayn hamjamiyatlar orqali qo‘llab-quvvatlash olish ko‘plab foydalanuvchilarda psixologik barqarorlikni oshirishi kuzatilgan (Nesi, 2020).

Lekin haddan ortiq virtual ijtimoiylashuv real muloqotni kamaytirib, ijtimoiy izolyatsiyaga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli faollik va psixologik farovonlik o‘rtasidagi munosabat ko‘p omilli va ikki tomonlama ta’sirga ega. O‘rtacha va ongli boshqarilgan raqamli faoliyat shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hissi, kognitiv faolligi va hayotdan qoniqish darajasini oshiradi. Aksincha, raqamli yuklamaning me’yoridan ortishi stress, informatsion toliqish, diqqatning tarqoqligi va emotsional beqarorlikka olib kelib, psixologik farovonlikni pasaytiradi.

Mazkur xulosalar raqamli psixologiya, ta’lim psixologiyasi va yoshlar ongining raqamli moslashuv jarayonini chuqurroq o‘rganish uchun nazariy va amaliy asoslar yaratadi.

Adabiyotlar

1. Барков, А. А. *Психологическое благополучие и цифровая активность: теория и практика.* – Москва: Психология, 2020.
2. Гудвин, Дж. *Digital Wellbeing: Balancing Life in a Technology- Driven World.* – New York: Routledge, 2019.
3. Рогов, Е. И. *Психология адаптации и стрессоустойчивость.*Санкт-Петербург: Питер, 2018.
4. Seligman, M. E. P. *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being.* – New York: Free Press, 2011.
5. Turkle, Sh. *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other.* – New York: Basic Books, 2011.
6. Vartanian, O., & Skov, M. (Eds.). *Cognitive and Emotional Effects of Digital Media.* – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
7. Choi, M., & Park, J. *Digital Literacy and Psychological Well- being in Young Adults.* – Journal of Educational Technology, 2021, Vol. 18(2), pp. 45–60.

KLINIK VA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING DOLZARB MASALALARI

Psixologiya yo`nalishi 1-bosqich talabalari
Osimxonova Shodiya, Madaminova Mohlaroy

Annotatsiya. Mazkur maqolada klinik va psixologik salomatlik tushunchalari hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi dolzarb masalalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Psixologik salomatlikning shaxs hayot sifati, ijtimoiy moslashuv va ruhiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritib beriladi. Shuningdek, stress, psixosomatik holatlar, depressiv va xavotirli buzilishlarning keng tarqalishi hamda ularni oldini olish va psixologik yordam ko‘rsatish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: klinik salomatlik, psixologik salomatlik, ruhiy sog‘liq, stress, psixosomatik buzilishlar, psixologik yordam.

Zamonaviy jamiyatda inson salomatligi muammosi faqat jismoniy holat bilan cheklanib qolmay, balki ruhiy va psixologik farovonlikni ham o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha sifatida qaralmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan salomatlik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida ta’riflanadi. Shu nuqtayi nazardan, klinik va psixologik salomatlik masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Klinik salomatlik asosan organizmning biologik va fiziologik holatini, kasalliklarning mavjud yoki mavjud emasligini ifodalaydi. Psixologik salomatlik esa shaxsning emotsional barqarorligi, stressga bardoshliligi, ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanligi va o‘zini anglash darajasi bilan tavsiflanadi.

Pedagogik va klinik psixologiya nuqtayi nazaridan, psixologik salomatlik shaxsning ichki resurslari va tashqi muhit bilan o‘zaro muvozanatini saqlab turish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Klinik va psixologik salomatlik o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, birining buzilishi ikkinchisiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bugungi kunda psixologik salomatlikka tahdid soluvchi bir qator kompleks va o‘zaro bog‘liq omillar mavjud bo‘lib, ular shaxsning ruhiy barqarorligi hamda psixologik farovonligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, surunkali stress va uzoq davom etuvchi emotsional zo‘riqish shaxsning moslashuv resurslarini susaytirib, psixologik charchoq va affektiv buzilishlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Axborot yuklamasining ortishi, ya’ni raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali doimiy axborot oqimi diqqatning tarqoqlashuvi, kognitiv toliqish va emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy izolyatsiya va yolg‘izlik hissining kuchayishi shaxsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini zaiflashtirib, depressiv holatlar va xavotirli buzilishlar rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Psixologik zo‘riqishning uzoq davom etishi natijasida psixosomatik kasalliklarning ko‘payishi kuzatilib, bunda ruhiy holatning buzilishi jismoniy sog‘liq muammolari bilan uyg‘unlashadi. Depressiv va xavotirli buzilishlarning keng tarqalishi esa shaxsning kundalik faoliyati, mehnat unumdorligi va hayot sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Natijada mazkur omillar shaxsning ruhiy holatini izdan chiqarib, uning ijtimoiy moslashuvi va umumiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim psixologik xavf omillari sifatida namoyon bo‘ladi.

Klinik psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, psixologik holat organizmning fiziologik jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi. Stress, xavotir va depressiya yurak-qon tomir, ovqat hazm qilish va immun tizimi faoliyatida buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, klinik salomatlikni ta’minlashda psixologik holatni baholash va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Klinik va psixologik salomatlikni saqlashda psixologik yordam va profilaktika muhim o‘rin tutadi. Psixologik maslahat, psixoterapiya, stressni boshqarish texnikalari va emotsional qo‘llab-quvvatlash shaxsning ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Profilaktik yondashuvlar esa psixologik muammolarning oldini olish, shaxsning moslashuvchanligini oshirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, klinik va psixologik salomatlik zamonaviy jamiyatda inson hayot sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu ikki yo‘nalishning o‘zaro integratsiyasi shaxsning jismoniy va ruhiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, klinik va psixologik salomatlik masalalarini ilmiy asosda o‘rganish, psixologik yordam va profilaktik chora-tadbirlarni keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Health Organization (WHO). Mental Health: Strengthening Our Response. – Geneva: WHO Press, 2022.
2. American Psychiatric Association. DSM-5: Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders. – Washington, DC: APA, 2013.
3. Selye, H. The Stress of Life. – New York: McGraw-Hill, 1976.
4. Lazarus, R. S., & Folkman, S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer, 1984.
5. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2011.
6. Beck, A. T. Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. – New York: Penguin Books, 1979.
7. Kaplan, H. I., & Sadock, B. J. Synopsis of Psychiatry: Behavioral Sciences/Clinical Psychiatry. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2015.

STRESSNI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

ADU Sirtqi ta`lim 5-bosqich talabasi
To`xtasinova Xonzodabegim
KUAF Abdusalomova Mohlaroyim

Annotatsiya. Ushbu maqolada stressing psixologik mohiyati,uning inson ruhiyati va organizmiga ta`siri hamda stressni kamaytirishning samarali tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ilmiy qarashlar asosida stressing kelib chiqish sabablari ochib berilgan va kundalik hayotda qo`llash mumkin bo`lgan boshqaruv strategiyalari yoritilgan.

**Kalit so`zlar**: Stress, psixologik bosim, kortizol, stressni boshqarish, meditatsiya, psixologik sog`lomlik.

Abstract This article examines the psychological nature of stress, its influence on mental and physical well-being, and effective methods of stress management. The study examines the primary causes of stress and offers useful tactics that can be used in daily life , all based on current scientific research.

Keywords. Stress, psychological pressure, cortisol, stress management, meditation, psychological well-being.

Аннотатция. В данной статье рассматривается психологическая природа стресса его влияние на психическое и физическое состоянние человека а также наиболее эффективные методы управления стрессом. На основе совроменных исследованний анализируются практические стратегии которые можно применять в повседлагаются в повседневной жизни.

Ключевые слова. Стресс, психологическое давление, кортизол, управление стрессом, медитация, психологическое здоровье.

Stress (inglizcha:stress- “bosim”,”kuchlanish”,”tanglik”)- odam va hayvonlarda kuchli ta`sirirotlar natijasida paydo bo`ladigon o`ta hayajonlanish , asabiylik holati. Stress- bu gomeostazni buzish bilan tahdid qilivchi turli ekstremal omillar ta`sirida yuzaga keladigan tananing o`ziga xos bo`lmagan reaktsiyasi va asab va endokrin tizimlar faoliyatida stereotiplik o`zgarishlar bilan tavsiflanadi.

Organizmda har xil ta`sirotlarga nisbatan rivojlanadigan nomaxsus neyrogormonal reaksiya “stress” terminini kanadalik patalog G.Seyle ta`riflab ,tibbiyotga kiritilgan (1936). Olim stress holatiga olib keluvchi omilni stressorlar deb , ular ta`sirida organizmda ro`y beradigan o`zgarishlarni moslashish sindromi deb ataladi .

Zamonaviy hayotning tezlashgan sur`ati inson ruhiyatiga katta ta`sir ko`rsatmoqda. Ishdagi yuqori talablar, o`qishdagi bosim , oilaviy mas`uliyat, axborot oqimining ko`pligi va ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlar ko`pligi va ijtimoiy munosabatlardagi ziddiyatlar stressning kuchayishiga sabab bo`lmoqda .

Stress — bu organizmning ichki yoki tashqi bosim omillariga nisbatan yuzaga keladigan tabiiy va moslashuvchan fiziologik hamda psixologik reaksiyasidir. Kuchli hayajon, yuqori mas’uliyat yoki xavfli vaziyatlarda organizmda stress gormonlari — kortizol va adrenalin ajralib chiqadi. Ushbu gormonal jarayon tanani “kurash yoki qochish” (fight or flight) holatiga tayyorlab, qisqa muddatda himoya va moslashuv mexanizmlarini faollashtiradi. Biroq stress omillarining uzoq davom etishi organizmning resurslarini susaytirib, ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Stressni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar qatoriga ish va o‘qish jarayonidagi ortiqcha yuklama, uyqu yetishmasligi, oilaviy kelishmovchiliklar, ijtimoiy bosimlar, moliyaviy xavotirlar hamda shaxsning o‘ziga nisbatan haddan tashqari yuqori talablar qo‘yishi kiradi. Mazkur omillarning uzoq muddat davom etishi inson ruhiyatida zo‘riqish holatini kuchaytirib, psixologik barqarorlikning buzilishiga olib keladi.

Stressning ta’siri psixologik va jismoniy belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Psixologik alomatlar sifatida hissiy beqarorlik, xavotirning kuchayishi, tushkunlik holatlari, motivatsiyaning pasayishi hamda diqqatni jamlash qobiliyatining susayishi kuzatiladi. Bunday holatlar shaxsning kundalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Stressning jismoniy alomatlariga esa bosh og‘rig‘i, yurak urishining tezlashishi, uyqusizlik, mushaklarda doimiy taranglik hamda immunitet tizimining zaiflashuvi kiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uzoq davom etgan va boshqarilmagan stress yurak-qon tomir kasalliklari, ovqat hazm qilish tizimi buzilishlari hamda turli nevrotik holatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Stressning salbiy oqibatlarini kamaytirish va psixologik sog‘lomlikni saqlash uchun stressni boshqarishning samarali usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, nafas mashqlari stress gormonlari darajasini pasaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Chuqur va ritmik nafas olish organizmni tinchlantiradi. Masalan, “4–4–6” texnikasi (4 soniya davomida nafas olish, 4 soniya ushlab turish va 6 soniya davomida nafas chiqarish) psixologik zo‘riqishni kamaytirishga yordam beradi.

Meditatsiya va mindfulness (ongni hozirgi lahzaga jamlash) texnikalari emotsional muvozanatni tiklab, ichki ruhiy tinchlikni ta’minlaydi. Shuningdek, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarining shakllantirilishi kundalik faoliyatni rejalashtirish orqali ortiqcha ruhiy bosimni sezilarli darajada kamaytiradi.

Bundan tashqari, jismoniy faollik — kundalik sayrlar va yengil sport mashqlari kortizol darajasini pasaytirib, stressga chidamlilikni oshiradi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham muhim omil bo‘lib, yaqin insonlar bilan suhbatlashish va hissiy qo‘llab-quvvatlash stress darajasini sezilarli kamaytirishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Shuningdek, sog‘lom psixologik chegaralarni belgilash, ya’ni keraksiz vazifalarni rad etish va ortiqcha mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaslik stressning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv shaxsning ruhiy resurslarini asrab-avaylash va psixologik sog‘lomlikni saqlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda , stress har bir inson hayotida uchraydigan tabiiy holat bo`lsa-da, unga to`gri munosabatda bo`lish juda muhim ekanini ko`ramiz. Hayotda ish , o`qish, oilaviy mas`uliyatlar yoki kutilmagan holatlar tufayli turli stress manbalari paydo bo`ladi. Ammo muhim jihati shundaki, stressni butunlay yo`qotishning imkoni bo`lmasa xam , uni boshqarish , kamaytirish va unga moslashishni o`rganish har kimning qo`lidan keladi. Shuni xam aytish kerakki , stress ba`zida insonni harakatga undaydigan , mas`uliyatni oshiradigan yoki muammolarga yangicha yondashishga yordam beradigan ijobiy kuch xam bo`lishi mumkin . Muhimi-uni to`g`ri boshqarish – bu bir kunlik jarayon emas, balki doimiy ravishda o`z ustida ishlashni talab qiladigan hayotiy ko`nikmadir. Kim o`z ruhiy salomatligiga e`tibor bersa, o`ziga mehrli bo`lsa va salbiy hissiyotlarga berilib ketmasa, u nafaqat stressni kamaytiradi , balki o`z hayotini yanada tinch , sog`lom va baxtli qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O`zbekiston Psixologlar Assotsiatsiyasi. Stress bo`yicha metodik qo`llanma 2022.
2. G`oziyev.E.G`-Psixologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Sharq nashriyoti. 2013.
3. Yo`ldoshev J.G`. Shaxs psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya. 2018.
4. Razzoqov R . Umumiy psixologiya . Toshkent : Innovatsion Ziyo . 2021.

HUQUQIY SOHALARDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Andijon davlat universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Amaliy psixologiya yo’nalishi

4-bosqich 402-guruh talabasi
Abdullayeva Sarvinoz

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlarning ahamiyati va o‘rni yoritib berilgan. Huquqiy munosabatlarda inson omili yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, shaxsning ruhiy holati, xulq-atvori va motivlarini hisobga olish huquqiy jarayonlarning samaradorligini oshiradi. Maqolada huquqiy psixologiya tushunchasi, jinoyat psixologiyasi, tergov va sud jarayonlarida psixologik yondashuvlardan foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, jabrlanuvchilar psixologiyasi hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda psixologik yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari huquq sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Huquqiy psixologiya, jinoyat psixologiyasi, sud psixologiyasi, tergov jarayoni, inson omili, xulq-atvor, psixologik yondashuv, huquqbuzarlik profilaktikasi.

Zamonaviy huquq tizimi faqatgina qonun normalariga tayanib qolmasdan, inson omilini chuqur anglashni ham talab etadi. Chunki huquqiy munosabatlarning markazida inson, uning xulq-atvori, qaror qabul qilishi, hissiy holati va motivlari turadi. Shu sababli huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy psixologiya jinoyatchilik sabablarini aniqlash, tergov jarayonlarini samarali olib borish, sud qarorlarining adolatli bo‘lishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlar ma’lum ilmiy metodlarga tayanadi:

Kuzatish metodi – shaxsning xulq-atvori, mimika va jestlarini tahlil qilish

Suhbat (intervyu) – ochiq va yopiq savollar orqali psixologik holatni aniqlash

Psixologik testlar – shaxs xarakteri, agressivlik darajasi, stress holatini baholash

Ekspertiza – sud-psixologik ekspertiza orqali xulosa berish

Bu metodlar tergov va sud jarayonlarida ishonchli qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda huquqiy tizimni takomillashtirishda psixologiya fanining o‘rni tobora ortib bormoqda. Chunki har qanday huquqiy munosabat markazida inson turadi. Insonning ruhiy holati, hissiyotlari, fikrlash tarzini inobatga olmasdan turib, huquqiy masalalarni to‘liq va adolatli hal etish qiyin. Shu sababli huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy psixologiya — bu huquq va psixologiya fanlari kesishmasida vujudga kelgan ilmiy yo‘nalish bo‘lib, huquqiy faoliyat jarayonida inson psixikasini o‘rganadi. Ushbu fan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati, sud jarayonlari, jinoyatchi va jabrlanuvchi shaxsiyatini psixologik jihatdan tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Huquqiy psixologiyaning asosiy vazifasi — huquqiy jarayonlarda inson xulq-atvorini tushunish va huquqiy qarorlarning asosli bo‘lishiga ko‘maklashishdir. Jinoyat psixologiyasi jinoyatchining shaxsiy xususiyatlari, motivlari va ruhiy holatini o‘rganadi. Jinoyat sodir etishga olib keluvchi omillar orasida agressiya, stress, ijtimoiy muhit, tarbiya muammolari muhim o‘rin tutadi. Jinoyatchining psixologik portretini tuzish jinoyatni ochish va oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Tergov jarayonida psixologik bilimlardan foydalanish tergovchiga shaxs bilan to‘g‘ri muloqot qilish imkonini beradi. So‘roq paytida shaxsning ruhiy holatini hisobga olish, bosimsiz va qonuniy usullardan foydalanish muhim hisoblanadi. Psixologik yondashuv yolg‘on ko‘rsatmalarni aniqlash va haqiqatga yaqin ma’lumot olishga yordam beradi. Sud psixologiyasi sud jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ruhiy holatini o‘rganadi. Sudya, advokat va prokurorlarning psixologik savodxonligi sud qarorlarining adolatli va xolis bo‘lishiga xizmat qiladi. Guvoh ko‘rsatmalarini baholashda ham psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Jinoyatdan jabrlangan shaxslar ko‘pincha ruhiy zarba holatida bo‘ladi. Ular bilan ishlashda ehtiyotkorlik va psixologik yondashuv talab etiladi. Jabrlanuvchining ruhiy holatini inobatga olish uning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga yordam beradi. Psixologik yondashuvlar huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida huquqiy ongni shakllantirish, tarbiyaviy va psixologik tadbirlar o‘tkazish huquqbuzarliklar sonining

kamayishiga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, huquqiy sohalarda psixologik yondashuvlardan foydalanish huquqiy faoliyat samaradorligini oshiradi. Inson psixologiyasini chuqur anglash adolatli qarorlar qabul qilishga, huquqbuzarliklarning oldini olishga va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Huquqiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. — Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdullayev A.X. Jinoyat psixologiyasi asoslari. — Toshkent, 2020.
4. Raxmonov S.R. Sud psixologiyasi. — Toshkent: Adolat, 2017.
5. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. — Toshkent, 2016.

TALIM TARBIYA PSIXOLOGIYASI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti
Biologiya ta’lim yo’nalishi
1-bosqich ta’lim yo’nalish
talabasi Adiljanova Gulchexraxon

Anotatsiya: Mazkur mavzu ta’lim va tarbiya jarayonining psixologik asoslarini tizimli tarzda ochib beradi. Ta’lim jarayonida shaxsning bilish faoliyati, psixik rivojlanish bosqichlari, o‘quv motivatsiyasini shakllantiruvchi omillar, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi psixik jarayonlarning rivojlanish dinamikasi yoritiladi. Ta’limning samaradorligi o‘quvchi shaxsining individual xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlash, yoshga oid psixologik farqlarni inobatga olish, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgani sababli, mavzu ta’lim jarayonida psixologik qonuniyatlarning real ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, mavzuda shaxsning motivatsiyasi, ehtiyojlari, emotsional holati va ularning o‘quv faoliyatiga ta’siri batafsil tushuntiriladi. O‘quvchining bilimni egallash sur’ati, mustaqil fikrlashi, o‘rganishga bo‘lgan munosabati ko‘p jihatdan psixologik holatlar bilan belgilanadi. Bu esa ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan, individual yondashuvga asoslangan tarzda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Mavzu pedagogik muloqotning o‘rni, o‘qituvchining psixologik kompetensiyasi, o‘quvchilarda faollik va qiziqishni shakllantirish usullari, shuningdek, ta’lim muhitining psixologik jihatdan qulay bo‘lishi kabi omillarni ham qamrab oladi. Ta’lim-tarbiya psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish orqali ushbu mavzu pedagogik faoliyatni ilmiy asosda olib borish uchun zarur bo‘lgan fundamental tushunchalar, tamoyillar va qonuniyatlarni ochib beradi.

Kalit so’z: Ta’lim, tarbiya, psixologiya, ta’lim-tarbiya jarayoni, shaxs rivojlanishi, bilish faoliyati, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, motivatsiya, o‘quv motivlari, emotsional holat, temperament, xarakter, individual farqlar, yosh psixologiyasi, o‘quvchi shaxsi, psixologik ta’sir, pedagogik yondashuv, pedagogik muloqot, o‘qituvchi–o‘quvchi munosabati, o‘quv faoliyati, psixologik qonuniyatlar, o‘qitish samaradorligi, kognitiv jarayonlar, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, rivojlanish dinamikasi, psixologik muhit, ta’limning psixologik asoslari, o‘quv jarayonining strukturasi, psixologik moslashuv, o‘quv tajribasi, o‘rganishga tayyorgarlik, ta’limning individualizatsiyasi, o‘quvchi faolligi, refleksiya, tashqi va ichki rag‘bat, bilish qobiliyatlari, psixologik diagnostika.

Ta’lim va tarbiya psixologiyasi – bu shaxsning psixik rivojlanishi, bilish jarayonlari, xulq-atvorining shakllanishi va o‘quv faoliyatining tashkil etilishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganuvchi yo‘nalishdir. Ushbu soha ta’lim jarayonining ichki mexanizmlarini, o‘quvchining psixologik holati va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilib, pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan nazariy va amaliy asoslarni belgilab beradi.

Ta’lim jarayonining markazida shaxs turadi. Shaxsning psixik rivojlanishi idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq kabi bilish jarayonlarining rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonlar to‘g‘ri shakllanganda o‘quvchini bilimni qabul qilishga, tahlil qilishga, umumlashtirishga va amalda qo‘llashga tayyorlaydi. Har bir o‘quvchi o‘zining individual psixologik xususiyatlariga ega bo‘lib, ta’lim jarayoni ana shu farqlarni hisobga olgan holda tashkil etilganda yuqori natijaga erishiladi. Ta’lim psixologiyasida motivatsiya alohida o‘rin egallaydi. O‘quvchida bilim olishga bo‘lgan ichki qiziqish, maqsad, intilish va o‘ziga bo‘lgan ishonch ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘quvchi faoliyatini rag‘batlantirish, uni o‘qishga jalb qilish, muvaffaqiyatga erishish hissini uyg‘otish psixologik jarayonlarning to‘g‘ri yo‘naltirilishi bilan bog‘liq. Shuningdek, diqqat va xotira ta’limning poydevorini tashkil etadi. Diqqatning barqarorligi, taqsimlanishi, xotiraning mexanik va mantiqiy turlari o‘quv materialini o‘zlashtirish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonining mazmuni o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi, psixik rivojlanish bosqichlari inobatga olinishi zarur. Tarbiya psixologiyasining mazmuni esa shaxsning axloqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, xulq-atvorning shakllanishi, qadriyatlar, ijtimoiy muloqot, mas’uliyat va odob normalarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot, tushunish, ishonch va hurmat muhitining yaratilishi shaxsning to‘laqonli rivoji uchun muhimdir. Ta’lim va tarbiya psixologiyasining mazmuni o‘qituvchiga o‘quvchilarning ruhiy holatini to‘g‘ri baholash, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash, individual yondashuvni tanlash, o‘quv faoliyatini samarali tashkil qilish imkonini beradi. Ushbu yo‘nalish shaxsning intellektual, axloqiy va ijtimoiy rivojini uyg‘un holda shakllantirishni maqsad qiladi.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘plab psixologik omillar bilan belgilanadi. O‘quvchi shaxsi, uning bilish jarayonlari, emotsional holati, motivatsiyasi, yosh xususiyatlari va individual farqlari ta’limning qanday kechishini belgilovchi asosiy bo‘limni tashkil qiladi. Psixologik omillar ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘qituvchi uchun yo‘nalish, metod tanlashda esa mezon vazifasini bajaradi. Ta’limdagi eng muhim psixologik omillardan biri — **motivatsiya**. O‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan ichki qiziqishi, maqsad qo‘yishi, biror natijaga erishishga intilishi ta’limning sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Motivatsiyasi kuchli bo‘lgan o‘quvchi bilim olishga ongli ravishda yondashadi, mustaqil faoliyat ko‘rsatadi, berilgan topshiriqlarni bajarishga mas’uliyat bilan kirishadi. Motivatsiyaning pasayishi esa o‘quv jarayonining sustlashishiga olib keladi. Shuning uchun o‘qituvchi tomonidan o‘quvchini rag‘batlantirish, dars mazmunini qiziqarli tashkil etish, muvaffaqiyat hissini yaratish muhimdir. Diqqat ham ta’limdagi asosiy psixologik omillardan biridir. O‘quvchi diqqatining barqarorligi dars jarayonida berilayotgan ma’lumotni qanday qabul qilishini belgilaydi. Diqqatning oson chalg‘ishi, barqaror emasligi o‘zlashtirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘qituvchi tomonidan darsning turlicha usullarda tashkil etilishi, ko‘rgazmali materiallardan foydalanish, faol metodlarni qo‘llash diqqatni barqarorlashtirishga yordam beradi.

Xotira — o‘quv jarayonining poydevoridir. O‘quvchi eslab qolish, qayta ishlash va zarur paytda tiklash orqali bilimga ega bo‘ladi. Xotiraning obrazli, mantiqiy, mexanik turlari mavjud bo‘lib, ta’lim mazmuni ularning birgalikda rivojlanishini talab qiladi. Ma’lumotning o‘zaro bog‘liqligi, misollar, tasvirlar, takrorlash va amaliy mashqlar xotiraning samarali ishlashiga imkon yaratadi.

Tafakkur ta’limning yuqori bosqichini tashkil etadi. Tafakkur rivojlanishi tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi intellektual faoliyat ko‘nikmalarining shakllanishida namoyon bo‘ladi. Tafakkur jarayoni rivojlangan o‘quvchi mustaqil fikrlaydi, muammolarni hal qiladi, yangi bilimlarni oson o‘zlashtiradi.

O‘quvchilarning **yosh psixologik xususiyatlari** ham ta’lim jarayonida alohida ahamiyatga ega. Boshlang‘ich yoshda o‘quvchilar ko‘proq obrazli tafakkurga ega bo‘lsa, o‘rta sinflarda mantiqiy fikrlash shakllanadi, yuqori sinflarda esa abstrakt tafakkur kuchayadi. Har bir yosh guruhiga mos metod tanlash dars samaradorligini oshiradi. Shuningdek, **emotsional holat** ta’limga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy emotsiyalar qiziqishni oshiradi, salbiy emotsiyalar esa

o‘quv jarayonini sekinlashtiradi. Psixologik jihatdan qulay muhit, do‘stona muloqot, o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining o‘zini erkin tutishiga va faol bo‘lishiga imkon yaratadi.

Pedagogik muloqot ta’lim jarayonining psixologik asosidir. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmat, ishonch va tushunishga asoslangan munosabat o‘quvchining darsga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Samimiy muloqot shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘quv jarayonini yengillashtiradi. Ta’lim jarayonidagi barcha psixologik omillar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular uyg‘unlashganda o‘quvchilarning rivoji, bilimni puxta o‘zlashtirishi va shaxs sifatida kamol topishi ta’minlanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar — bu ta’lim jarayonini ilmiy asosda loyihalash, tashkillashtirish va yakuniy natijani kafolatlashga qaratilgan usullar, shakllar va vositalar majmui bo‘lib, o‘quvchi shaxsini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni maqsad qiladi. Bunday texnologiyalar ta’limni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, balki o‘quvchining psixologik rivoji, mustaqil fikrlashi va kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘radi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati — ta’lim jarayonini oldindan aniq rejalashtirilgan, mantiqiy bosqichlarga ajratilgan, natija kafolatlanadigan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga aylantirishdir. Bu jarayon o‘quvchining bilish faoliyatiga mos metodlarni tanlash, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, faol ishtirokni ta’minlash va o‘quv maqsadlariga bosqichma-bosqich erishish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy texnologiyalarning muhim xususiyatlaridan biri — **faollikka asoslanishi**. An’anaviy ta’limda o‘qituvchi asosiy axborot manbai bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarda o‘quvchi mustaqil izlanadi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va amaliy faoliyat orqali bilimni o‘zlashtiradi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va jarayonni boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Bu texnologiyalarning yana bir mohiyati — **ta’limning tizimliligi va kafolatlangan natijaga yo‘naltirilganligi**. Har bir dars uchun aniq maqsad belgilanadi, maqsadga erishish yo‘llari, baholash mezonlari, o‘quv faoliyati ketma-ketligi, nazorat shakllari oldindan rejalashtiriladi. Natija o‘lchanadigan bo‘lgani uchun ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida ko‘riladi. Zamonaviy texnologiyalar **shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** tamoyiliga asoslanadi. Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilish sur’ati, psixologik holati inobatga olinadi. Metodlar o‘quvchining individual ehtiyojiga mos ravishda tanlanadi. Bu esa ta’limning insonparvarlik ruhida olib borilishini ta’minlaydi. Shuningdek, mazkur texnologiyalar **axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishni** nazarda tutadi. Multimedia, elektron ta’lim, virtual platformalar, raqamli resurslar o‘quv jarayoniga dinamika, ko‘rgazmalilik va tezkorlik olib kiradi. O‘quvchi axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish, qayta ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yana bir muhim jihati — **o‘quvchining kompetensiyalarini shakllantirish**. Bilimning o‘zlashtirilishi emas, balki uni amalda qo‘llash, muloqotga kirisha olish, muammo yechish, jamoada ishlash ko‘nikmalari ustuvor bo‘ladi. Bu esa ta’limni hayotga yaqinlashtiradi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati ta’limni interfaol, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va natijaga qaratilgan jarayonga aylantirishdan iborat bo‘lib, o‘quvchining ijodiy fikrlashi, mustaqilligi va faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar xilma-xil bo‘lib, ular o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan. Har bir texnologiya ma’lum didaktik vazifani bajaradi va o‘qituvchiga darsni samarali tashkil etishda keng imkoniyat yaratadi. Quyida hozirgi ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar turlari yorqin asoslar bilan bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev O., Nishonova Z. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021.
2. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019.

3. Zunnunov A., O‘rinboyeva G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: “Universitet nashriyoti”, 2020.
4. Hasanboeva O., Matnazarov M. Pedagogika. – Toshkent: “Sharq”, 2018.
5. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017.
6. Saidahmedov N. Ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020.
7. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2016.
8. G‘aniyev R., Xoliyorov A. Pedagogika asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015.
9. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: McKay, 1956.
10. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes**.** – Harvard University Press, 1978.
11. Bruner J. The Process of Education**.** – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
12. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1972.

SHAXS TARAQQIYOTI VA YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti
Biologiya ta’lim yo’nalishi
1-bosqich 110-guruh talabasi
G’ulomjonova Kamolaxon

Anotatsiya: Ushbu maqolamda shaxs taraqqiyoti va yosh davrlar psixologiyasining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Shaxs rivojlanishining turli bosqichlari — bolalik, o‘smirlik va yoshlik davrlari batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsning psixologik, ijtimoiy va emotsional o‘sish jarayonlari, yoshlar identiteti, motivatsiya, muloqot va ijtimoiy moslashuv jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Maqolada shaxs taraqqiyoti nazariyalari, psixodinamik, behavioristik va gumanistik yondashuvlar, shuningdek, yosh davrlar psixologiyasining asosiy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, bolalikda hissiy va ijtimoiy rivojlanish, o‘smirlik davrida identitet va mustaqillikni shakllantirish, yoshlik davrida shaxsiy va kasbiy maqsadlarni belgilash kabi jarayonlar keng yoritilgan. Bu maqolada shaxs rivojlanishini tushunish, yoshlar bilan ishlashdagi psixologik yondashuvlarni aniqlash va amaliy tadbirlarga yo‘naltirish uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin**.**

Kalit so’z: Shaxs taraqqiyoti, yosh davrlar psixologiyasi, bolalik psixologiyasi, o‘smirlik davri, yoshlik, ijtimoiy rivojlanish, emotsional rivojlanish, identitet, motivatsiya, shaxsiy o‘sish.

Shaxs taraqqiyoti va yosh davrlar psixologiyasi inson hayotidagi eng muhim psixologik jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan fan sohasidir. Har bir inson hayotida turli yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular shaxsning ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shaxs taraqqiyoti bolalikdan boshlanib, o‘smirlik va yoshlik davrlarida davom etadi va butun umr davomida davom etishi mumkin. Bu jarayon insonning o‘zini anglash, motivatsiya, muloqot va ijtimoiy moslashuv kabi psixologik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois yosh davrlar psixologiyasini o‘rganish shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Kirish qismida shaxs taraqqiyoti nazariyalari, yosh davrlarning psixologik xususiyatlari va ularning shaxs rivojlanishidagi roli qisqacha ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, maqolaning asosiy maqsadi — shaxsning turli yosh davrlaridagi psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, yoshlar ongining rivojlanish jarayonlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Shaxs taraqqiyoti — bu insonning psixologik, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi jarayoni bo‘lib, u hayot davomida davom etadi. Shaxs rivojlanishi turli omillarga bog‘liq: genetik xususiyatlar, oilaviy va ijtimoiy muhit, ta’lim, madaniyat va shaxsning o‘z ichki motivatsiyasi. Psixodinamik yondashuv (Z. Freyd) Shaxs rivojlanishi asosan ichki konfliktlar va ularni hal qilish orqali sodir bo‘ladi. Bolalik davridagi oilaviy muhit, ota-ona bilan munosabatlar va tajribalar shaxsning keyingi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Behavioristik yondashuv (B.F. Skinner, J. Watson) Shaxsning xulqi va odatlari tashqi muhit ta’siri orqali shakllanadi. Mukofotlash va jazolash orqali motivatsiya va xulqiy ko‘nikmalar rivojlanadi. Gumanistik yondashuv (A. Maslov, K. Rogers) Har bir inson o‘zini anglash va o‘sishga intilish orqali rivojlanadi. Ichki potensialni amalga oshirish shaxsning baxtli va muvaffaqiyatli hayot kechirishiga yordam beradi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs rivojlanishi quyidagi bosqichlarda sodir bo‘ladi: Bolalik davri (0–12 yosh) – asosiy psixologik va emotsional ko‘nikmalar shakllanadi. Bolalik davrida bola atrof muhitni o‘rganadi, muloqot va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. O‘smirlik davri (13–18 yosh) – shaxsiy identitet, mustaqillik va o‘zligini anglash bosqichi. Bu davrda o‘ziga ishonch, ijtimoiy rollarni anglash va guruhlararo munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Yoshlik davri (19–25 yosh) – shaxsiy va kasbiy maqsadlarni belgilash, emotsional barqarorlikni oshirish va ijtimoiy mas’uliyatni o‘zlashtirish davri.

Bolalik davri inson hayotidagi eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola hissiy, kognitiv (bilimga asoslangan) va ijtimoiy rivojlanishning asoslarini shakllantiradi. Hissiy rivojlanish: Bolada quvonch, qo‘rqinch, g‘azab va boshqa hissiyotlar kuchli namoyon bo‘ladi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadi va bu kelajakdagi shaxsiy barqarorlikni shakllantiradi. Ijtimoiy rivojlanish: Bola atrofidagi ota-ona, oila a’zolari va tengdoshlar bilan muloqot orqali ijtimoiy qobiliyatlarni o‘zlashtiradi. Do‘stlar bilan muloqot, o‘yindagi rollarni o‘ynash, hamkorlik qilish orqali ijtimoiy tajriba ortadi. Kognitiv rivojlanish: Bu davrda bola tafakkur, xotira, diqqat va til rivojlanishini o‘rganadi. Kognitiv rivojlanish bolaning muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

O‘smirlik davri — shaxsiy identitet va mustaqillikni shakllantirish davri. Bu davrda jismoniy o‘sish bilan birga psixologik o‘zgarishlar ham sodir bo‘ladi.

Identitet va o‘zlikni anglash: O‘smirlar “men kimman?”, “qayerga qarayapman?” degan savollar bilan shug‘ullanadi. Bu davrda shaxs o‘z qadriyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Ijtimoiy va emotsional rivojlanish: O‘smirlar do‘stlar va tengdosh guruhlar bilan muloqotda bo‘lishni afzal ko‘radi. Bu davrda do‘stlik va sevgi munosabatlari psixologik rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Qaror qabul qilish va mas’uliyat: O‘smirlar mustaqil qarorlar qabul qilishni o‘rganadi. Bu davrda ota-onaning tarbiyasi va qo‘llab-quvvatlashi psixologik barqarorlikni ta’minlaydi.

Yoshlik davri (19–25 yosh) — shaxsiy va kasbiy maqsadlarni belgilash, mustaqil hayotga tayyorgarlik, ijtimoiy va emotsional barqarorlikni oshirish davri.

Shaxsiy maqsadlar va kasbiy rejalashtirish: Yoshlar o‘z kelajagini rejalashtiradi, kasbiy yo‘lni tanlaydi va o‘zini jamiyatda qanday tutishini aniqlaydi. Bu bosqichda motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi. Ijtimoiy moslashuv va jamiyatdagi roli: Yoshlar oilaga, do‘stlar guruhiga va jamiyatga moslashishni o‘rganadi. Ijtimoiy tajriba va muloqot qobiliyati shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun muhimdir. Emotsional barqarorlik: Yoshlik davrida emotsional barqarorlik, stressni boshqarish va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu shaxsning ijtimoiy va professional hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

Xulosa o’rnida shunini aytishim mumkinki, shaxs taraqqiyoti va yosh davrlar psixologiyasini o‘rganish yoshlarni tushunish, tarbiyalash va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirish uchun muhimdir. Har bir yosh davrning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish shaxsning ruhiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash, emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va muvaffaqiyatli hayot kechirishga yordam beradi. Shaxs taraqqiyoti hayot davomida davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, har bir yosh davrning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalikda hissiy va kognitiv ko‘nikmalar shakllanadi, o‘smirlikda shaxsiy identitet va mustaqillik

rivojlanadi, yoshlik davrida esa shaxs kasbiy va ijtimoiy maqsadlarini belgilaydi. Shuni tushunish kerakki, shaxs taraqqiyotini o‘rganish uni ongli ekanini bilish psixologiya fani uchun muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy va yoshlar psixologiyasi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
3. To‘raqulov S., Hasanov B. Shaxs taraqqiyoti va yoshlar rivojlanishi. — Toshkent: Ma’naviyat, 2014.
4. Yuldashev M. Yoshlar psixologiyasi va emotsional rivojlanish. — Toshkent: Innovatsiya, 2019.
5. Raximov K., Qodirova Z. Bolalikdan yoshlikkacha: shaxs rivojlanishi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim vazirligi. Psixologiya va pedagogika kurs materiallari. — Toshkent, 2021.

O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARI

Andijon Davlat Universiteti
Kimyo va biologiya fakulteteti
Biologiya talim yo'nalishi
1-bosqich ta'lim yo'nalishi talabasi
Jo‘raboyeva Mavludaxon

Anotatsiya: Maqola yozishimdan maqsad o‘quvchilarning o‘z shaxsini anglab borishi va bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashda qo‘llaniladigan turli psixologik yondashuvlar yoritilgan. O‘quvchining o‘zini tanishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va ichki motivatsiyasini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar bosqichma-bosqich ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, psixologning o‘quvchi bilan ishlash jarayonida qanday metodlardan foydalansa, o‘zini anglashni rivojlantirish samarali bo‘lishi mumkinligi amaliy misollar asosida tushuntirilgan. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, sinf muhiti va ta’lim jarayoni o‘z-o‘zini anglashga qanday ta’sir qilishi ham tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Shaxsiy rivojlanish , o’quvchi psixologiyasi , ichki motivatsiya , o’z-o’zini anglash , reflektiv fikrlash , ijtimoiy-emotsional rivojlanish .

O‘quvchining o‘z-o‘zini anglash jarayoni uning shaxsiy rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali bola kimligini, nimalarga qodirligini va o‘zidagi kuchli tomonlarni tanib boradi. O‘quvchi o‘zini anglagani sayin ichki motivatsiya kuchayadi, o‘qishga munosabati ijobiylashadi va o‘z ustida ishlashga intilish paydo bo‘ladi. Aynan mana shu jarayon “Men-obrazi”ning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘quvchining o‘zini real baholashiga yordam beradi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining bu yo‘ldagi eng muhim omillaridan biridir. Psixolog yoki o‘qituvchi o‘quvchi bilan muloqot jarayonida uning refleksiv fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirsa, bola o‘z xatti-harakatlari va qarorlarini ongli ravishda baholay boshlaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va o‘ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ishlashni nazarda tutadi. Bu esa shaxsning ichki dunyosini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

O‘quvchining ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ham o‘z-o‘zini anglash bilan uzviy bog‘liq. Sog‘lom sinf muhiti, ijobiy muloqot, o‘z fikrini erkin bildirishi uchun qulay sharoit yaratilsa, bola o‘ziga nisbatan ishonchi ortadi. Natijada o‘quvchi nafaqat bilim jarayonida, balki turmushdagi qarorlarida ham mustaqil va faollashgan shaxs sifatida shakllanadi.

Psixologik yondashuvlarda o‘quvchini faqat bilim oluvchi sifatida emas, balki o‘z fikri, his-tuyg‘usi va ehtiyojlariga ega shaxs sifatida ko‘rish tamoyili ustun turadi. O‘quvchi berilgan topshiriqlarni faqat bajarib qo‘yish bilan cheklanmay, ularning ma’nosini anglashni o‘rgansa, unda mustaqil fikrlash jarayoni kuchayadi. Bu esa o‘z navbatida o‘z-o‘zini anglashga bevosita ta’sir ko‘rsatadi

Bundan tashqari, o‘quvchining ijtimoiy tajribasi — sinfdoshlar, do‘stlar, oilaviy muhit bilan munosabati ham o‘zini anglashga sezilarli darajada ta’sir qiladigan omillardandir. O‘quvchi o‘zini jamoa a’zosi sifatida his qilsa, unda o‘ziga nisbatan ijobiy qarash shakllanadi. Bu esa shaxsiy rivojlanishning barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

Umuman olganda, o‘z-o‘zini anglash jarayoni o‘quvchi shaxsining ongli, mas’uliyatli va maqsadli bo‘lib rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu borada psixologik yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanilishi esa o‘quvchilarda barqaror shaxsiy o‘sishning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zokirova, R. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Akramov, A. Shaxs rivojlanishi va uning psixologik xususiyatlari.
3. G‘ulomov, B. Yosh davrlari psixologiyasi
4. Psixologiya asoslari. Oliy ta’lim qo’llanmalari
5. Qodirova, M. O‘quvchilar bilan psixologik ishlash metodlari. – Namangan: Ilm Ziyo, 2018.

KLINIK VA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNING DOLZARB MASALALARI

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti
Biologiya ta’lim yo’nalishi
1-bosqich ta’lim yo’nalish
talabasi Komilova M

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda klinik va psixologik salomatlikning ahamiyati, ularni ta’minlashda duch kelinayotgan dolzarb muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola sog‘liqni saqlash tizimi, psixodiagnostika, profilaktika, stressni boshqarish va ruhiy sog‘liq madaniyatining rivoji kabi jihatlarni qamrab oladi.

Kalit so’z: Klinik salomatlik, ijtimoiy moslashuv, klinik simptomlar, psixodiagnostika, profilaktika, stress.

Inson salomatligi kompleks tushuncha bo‘lib, uning tarkibiga nafaqat jismoniy, balki klinik va psixologik salomatlik ham kiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) salomatlikni faqat kasallikning yo‘qligi emas, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida ta’riflaydi. Zamonaviy hayot ritmi, stress omillari, atrof-muhitning o‘zgarishi, axborot yuklamasi va ijtimoiy bosim psixologik farovonlikka kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli ushbu sohada tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Klinik salomatlik tushunchasi — bu inson organizmining jismoniy, ruhiy (psixik) va ijtimoiy jihatdan kasallik alomatlarisiz, normal faoliyat ko‘rsatish holatini bildiradi. Klinik salomatlik tibbiyot va klinik psixologiya nuqtayi nazaridan baholanadi hamda shaxsda aniq kasallik yoki patologik holatlarning mavjud emasligi bilan tavsiflanadi.

Klinik salomatlikning asosiy jihatlari:

1. Jismoniysalomatlik

Organlar va tizimlarning me’yorida ishlashi, fiziologik ko‘rsatkichlarning norma doirasida bo‘lishi.

2. Psixik(ruhiy)salomatlik

Shaxsning fikrlashi, xotirasi, hissiyotlari va xulq-atvorining muvozanatli bo‘lishi, ruhiy kasalliklar va buzilishlarning yo‘qligi.

3. Ijtimoiymoslashuv

Insonning jamiyatga moslashuvi, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik va samaradorlik.

Klinik salomatlikning mezonlari:

- Klinik simptomlarning yo‘qligi
- Psixofiziologik funksiyalarning barqarorligi
- Stress va zo‘riqishlarga moslasha olish
- Mehnat qobiliyatining saqlanganligi
- Tibbiy tekshiruvlarda patologik holat aniqlanmasligi

Kronik kasalliklar ko‘payishining asosiy sabablari:

1. Turmush tarzining o‘zgarishi: kamharakatlik (gipodinamiya), noto‘g‘ri ovqatlanish, fastfud va shakarli mahsulotlarning ko‘pligi.
2. Stress va psixoemotsional zo‘riqish: doimiy asabiylik, ish va ijtimoiy bosimlar yurak-qon tomir hamda ruhiy kasalliklarni kuchaytiradi.
3. Atrof-muhit omillari: havo, suv va tuproqning ifloslanishi, kimyoviy moddalar ta’siri.
4. Zararli odatlar: chekish, alkogol iste’moli va giyohvandlik.
5. Aholining qarishi: yosh ulg‘aygani sari qandli diabet, gipertoniya, artrit kabi kasalliklar ko‘proq uchraydi.
6. Genetik moyillik: ayrim kasalliklarning irsiy asosga ega bo‘lishi.

Kronik kasalliklarning oqibatlari:

- Hayot sifatining pasayishi
- Mehnat qobiliyatining kamayishi
- Nogironlik xavfining oshishi
- Sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortishi.

Oldini olish va kamaytirish yo‘llari:

- Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish
- Jismoniy faollikni oshirish
- Stressni boshqarish (psixologik yordam, dam olish)
- Tibbiy ko‘riklardan muntazam o‘tish
- Zararli odatlardan voz kechish

Diagnostika va davolash imkoniyatlarining teng taqsimlanmaganligi sog‘liqni saqlash tizimidagi muhim ijtimoiy va klinik muammo bo‘lib, aholining turli qatlamlari o‘rtasida tibbiy xizmatlardan foydalanish darajasidagi nomutanosiblikni anglatadi. Mazkur muammoning asosiy sabablari qishloq joylarda zamonaviy diagnostika uskunalari va malakali mutaxassislarning yetishmasligi. Past daromadli aholi uchun pullik tibbiy xizmatlarning qimmatligi. Shahar va chekka hududlar o‘rtasidagi texnik va texnologik nomutanosiblik. Aholining tibbiy xizmatlar, skrining va profilaktika dasturlari haqida xabardor emasligi.Tor mutaxassislar (kardiolog, onkolog, psixiatr)ning notekis joylashuvi.

Oqibatlari:

Kasalliklarning kech aniqlanishi

- Asoratlar va nogironlik xavfining oshishi
- Davolash samaradorligining pasayishi
- Ijtimoiy adolatsizlik va salomatlikdagi tafovutlarning kuchayishi

Muammoni bartaraf etish yo‘llari:

- Birlamchi tibbiy yordamni kuchaytirish
- Mobil klinikalar va telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish
- Tibbiy sug‘urta va bepul skrining dasturlarini kengaytirish
- Qishloq hududlarida tibbiyot kadrlarini rag‘batlantirish
- Aholining tibbiy savodxonligini oshirish

Psixologik salomatlik – bu individning hissiy barqarorligi, stressga chidamliligi, moslashuvchanligi, ijobiy shaxsiy rivojlanishiga asos yaratuvchi holatdir. Ruhiy farovonlik ijtimoiy munosabatlar, oila muhiti, ta’lim, ish joyi va biologik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki klinik va psixologik salomatlik inson farovonligining ikkita ajralmas qismidir. Bu sohalarda dolzarb muammolar mavjud bo‘lsa-da, ularni hal qilish uchun kompleks, ilmiy asoslangan chora-tadbirlar joriy etilishi katta ahamiyatga ega. Sog‘liqni mustahkamlash jarayoni shaxsning o‘zi, jamiyat, ta’lim tizimi va sog‘liqni saqlash muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini talab qiladi. Klinika va psixologiya birlashganda sog‘lom jamiyat shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization (WHO). *Mental Health: Strengthening Our Response*. Geneva: WHO Press, 2020.
2. World Health Organization. *Noncommunicable Diseases Country Profiles*. Geneva*:* WHO, 2021.
3. American Psychological Association (APA*). Publication Manual of the American Psychological Association.* 7th ed. Washington, DC, 2020.
4. Sadock, B., & Sadock, V. *Kaplan & Sadock's Synopsis of Psychiatry: Behavioral Sciences/Clinical Psychiatry.* 12th ed. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2021.
5. Atkinson, R. L., Atkinson, *R. C. Introduction to Psychology.* 16th ed. New York: Harcourt Brace, 2022.
6. Myers, D. G. *Psychology.* 11th ed. New York: Worth Publishers, 2020.
7. Davletov, O., G‘ofurov*, A. Tibbiyot psixologiyasi asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 2019.
8. To‘laganov, *R. Klinik psixologiya asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
9. Alimov, R., Xasanov, *B. Sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy profilaktika*. Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2020.
10. Kessler, R.C., Bromet, E.J. “The Epidemiology of Depression Across Cultures.” *Annual Review of Public Health, vol. 34, 2019.*
11. Selye, H. *The Stress of Life*. New York: McGraw-Hill, 2019 (rekonstruksiya nashri).
12. Lazarus, R.S., Folkman, *S. Stress, Appraisal, and Coping.* Springer Publishing, 2020.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. *Aholi salomatligi bo‘yicha yillik hisobot.* Toshkent, 2022.

OILA PSIXOLOGIYASI VA GENDER TADQIQOTLAR

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti
Biologiya ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi
Muhamedova Muslimaxon Furqat qizi

Annotatsiya: Oila mavzusi har bir xalq uchun doim e'tibor markazida turuvchi mavzulardan biri hisoblanadi. Oila nafaqat shaxslarning birgalikda yashash joyi balki madaniyat, qadriyat va an'analar uzatiladigan asosiy muhit hisoblanadi. Davlatning kelajagini belgilab beruvchi yoshlar vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, jamiyatdagi inson o'rni va o'zining burchlari kabi tushuncha bilimlarni oiladan oladi. Shu sababli oilaning ichki muhiti , oila a'zolar o'rtasidagi o'zaro tenglik munosabatlarini o'rganish va tahlil qilish juda muhimdir. Bu vazifa bilan esa gender tadqiqot sohasi shug'ullanadi. Gender tadqiqot sohasi erkak va ayollarning jamiyatdagi o'rni, huquqi, imkoniyatlari ijtimoiy roli, xulq-atvori va ular o'rtasidagi tenglik masalalarini ilmiy o`rganadi. Bu tadqiqot jamiyatdagi genderga oid stereotiplar, tengsizlik sabablarini, ularning oqibatlarini va ularni bartaraf qilish yo'llarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: gender tadqiqot, an'anaviy O'zbek oilasi, gender rollar, ijtimoiy normalar, psixologlar, stress.

Insonning ruhiy jarayonlari, xulq-atvori, hissiyotlari, tafakkuri, shaxs rivoji va odamlar o'rtasiga munosabatlarni psixologiya fani o'rganadi. Ya'ni psixologiya odam nima uchun shunday o'ylaydi, nima uchun shunday his qiladi va nima uchun shunday muomala qiladi — degan savollarga javob beradi. Psixologiya fani bir qancha bo'limlardan iborat bo'lib ulardan biri oila psixologiyasidir. Oila psixologiyasi oilaning shakllanishi, rivojlanishi, undagi munosabatlar, tarbiya jarayoni va psixologik muhitni o'rganadi. Bu fan oilaning ichki tuzilishi, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, ota-ona va farzandlar psixologiyasi, turmushdagi nizolarni hal qilish mexanizmlari va oilaning jamiyatdagi o'rni haqida ilmiy bilim beradi.

Bizning ko'z oldimizga oila deganda an'anaviy O'zbek oilasi gavdalanadi.

An'anaviy O'zbek oilasida erkak oila boshligi hisoblanadi. U moddiy ta'minotchi, qaror qabul qiluvchi va oilani tashqi tahdidlardan himoya qiluvchi sifatida ko'riladi. Erkakning bu roli unga katta mas'uliyat yuklaydi va jamiyat tomonidan hurmat bilan qarshi olinadi. Shu bilan birga, erkakning oilaviy hayotdagi hissiy ehtiyojlari ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, chunki u kuchli va mustaqil bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi. Bu psixologik jihatdan erkaklarda ichki zo'riqish va stress manbai bo'lishi mumkin, chunki ular o'z hissiyotlarini ifoda etishda cheklovlarga duch keladi. Ayol esa oilaning mehribonligi, tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlarining boshqaruvchisi sifatida qabul qilinadi. U oilaviy muhitni saqlash, farzandlarni tarbiyalash va turmush o'rtog'i bilan munosabatlarni uyg'unlashtirish vazifasini bajaradi. Ayolning bu roli uning ijtimoiy faoliyatini cheklashi mumkin, ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda ayollar ko'pincha uyda qolishga majbur bo'ladilar. Bu holat ayollarda o'zini ifoda etish va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi, ba'zan esa ruhiy zo'riqishlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, ayollar oilaviy hayotdagi hissiy qo'llab-quvvatlash va mehr-muhabbat manbai sifatida ham katta ahamiyatga ega.

O'zbek oilalarida gender rollarining shakllanishi asosan tarbiya jarayonida boshlanadi. Bolalar kichik yoshdan boshlab an'anaviy gender rollarga mos ravishda tarbiyalanadi. O'g'il bolalar kuchli, mustaqil va mas'uliyatli bo'lishga o'rgatiladi, ular oilaning boshlig'i sifatida tayyorlanadi. Qiz bolalar esa mehribonlik, sabr-toqat va oilaviy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatiladi. Bu tarbiya jarayoni bolaning shaxsiyati va ijtimoiy rolini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu jarayon psixologik jihatdan bolalarning o'zini anglashiga, o'z jinsiga oid identifikatsiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Bolalarni tarbiya qilish jarayonida bolalar kattalarning xatti-harakatlardan andoza olib o'zlariga gender rollarni qabul qiladi. Bolalar o'z jinsiga mos keladigan xatti-harakatlarni o'rganadi va shu holatda jamiyatda qabul qilingan gender rollarni o'zlashtiradi. Shu sababli oiladagi gender rollar bolalarning shaxsiyati va ijtimoiy roli shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Oilaviy psixologiya va gender tadqiqot fanlari O'zbek oilalarida gender rollarining psixologik asoslarini chuqur tahlil qiladi. Bu fanlar oilaviy munosabatlar va shaxslarning o'zaro ta'sirini, shuningdek, genderga oid xulq-atvorni o'rganadi. Oilada gender rollari shaxslarning o'zini anglashiga, ruhiy salomatligiga va munosabatlarning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu

sababli, oilaviy psixologlar gender rollarining moslashuvi va muvozanatini ta’minlashga qaratilgan maslahatlar berishadi. Bu maslahatlar oiladagi stress va qaramaqarshiliklarni kamaytirishga, shaxslarning o‘zini yaxshiroq anglashiga yordam beradi. O‘zbek oilalarida gender rollari an’anaviy qadriyatlar va madaniy ta’sirlar asosida shakllangan bo‘lib, ular oilaviy hayotning psixologik muhitini belgilaydi. Erkak va ayolga berilgan ijtimoiy vazifalar ularning o‘zini anglashiga, munosabatlariga va oilaviy barqarorlikka ta’sir qiladi.

Zamonaviy jamiyatda gender rollarining qayta ko‘rib chiqilishi va moslashuvi oilaviy munosabatlarni yaxshilash, shaxsiy erkinlikni oshirish va oilada tenglikni ta’minlash uchun zarurdir. Shu bilan birga, gender rollarining psixologik asoslarini chuqur anglab, oilaviy tarbiyada moslashuvchanlik va hurmat tamoyillarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon O‘zbek oilalarining yanada sog‘lom va baxtli bo‘lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, gender rollarining o‘zgarishi yosh avlodning fikrida ham aks etmoqda. Yoshlar orasida gender tengligi va shaxsiy erkinlikka bo‘lgan talablar kuchaymoqda. Bu esa kelajakda O‘zbek oilalarining yanada demokratik va sog‘lom rivojlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, oilada gender rollarining moslashuvi va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi oilaning barqarorligini oshiradi va shaxslarning ruhiy salomatligini yaxshilaydi.

Yuqorida aytib o’tilgandek gender tadqiqotining fanining asosiy maqsadlari: tenglikka erishish, insonlarning jinsiga qarab chegaralanishini yo‘qotish, ayollar va erkaklar uchun bir xil imkoniyatlarni yaratishdir.

Tadqiqotlarda ko‘tariladigan asosiy savollar:

- Nima uchun ayollar ko‘proq, maosh kam ishlarida ishlaydi?
- Nima uchun ba’zi kasblar “ayollarniki” yoki “erkaklarniki” deb hisoblanadi?
- Qanday stereotiplar inson rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi?
- Jamiyatdagi gender zo‘ravonlik ildizlari nimada?

Bu savollarga javob topish va muammolarni hal qilish ham fanning maqsad va vazifalari qatorida hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki hozirda oilalar an'anaviy qadriyatlar va madaniy ta'sirlar orqaligina shakllanib qolmasdan, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar natijasida ham o'zgarib bormoqda. Albatta, bu o'zgarishlar oilaviy munosabatlarning sifatini yaxshilashga, shaxslarning o`zini anglashini oshirishga va jamiyat gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois gender rollarning psixologik asoslarini chuqur anglash va ularni zamonaviy hayotga moslashtirish oilalarning yanada baxtli va barqaror bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi deya olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Axmedova, M. (2018). "O‘zbek oilasida gender rollari va ularning ijtimoiy-psixologik tahlili". Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
2. Qodirov, S. (2020). "O‘zbek oilasida ayol va erkak rollari: madaniy va psixologik aspektlar". Toshkent: Fan va Texnologiya.
3. Islomova, N. (2019). "Gender psixologiyasi va oilaviy munosabatlar". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
4. Tursunov, B. (2021). "O‘zbek jamiyatida gender stereotiplari va ularning oilaga ta’siri". Toshkent: Ijtimoiy Fanlar Nashriyoti.

Karimova, D. (2017). "Oiladagi gender rollarining psixologik asoslari". Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Instituti Nashriyoti**.**

Andijon davlat universiteti
Kimyo va biologiya fakulteti
Biologiya ta’lim yo’nalishi
1-bosqich ta’lim yo’nalish

talabasi Nematjonova Gulandon

Anotatsiya: ushbu maqolada klinik va psixologik salomatlikning hozirgi davrdagi eng dolzarb masalalari,ularning o'zaro bog'liqligi,shaxsning hayot sifatiga ko'rsatadigan ta'siri hamda profilaktika yo'nalishlari yoritilgan.Inson salomatligini nafaqat biologik,balki psixologik omillar ham belgilashi,stress,emotsional zo'riqish va psixologik muvozanatning buzilishi turli klinik holatlar rivojiga sabab bo'lishi mumkinligi ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan

Kalit so'z: Stress, klinik salomatlik, psixologik salomatlik, psixoprofilaktika, emotsional barqarorlik, ruhiy farovonlik, salomatlik omillari.

Zamonaviy jamiyatda inson salomatligi faqat kasaalliklarning yo'qligi bilan emas,balki uning ruhiy farovonligi,emotsional barqarorligi,ijtimoiy moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi.Psixologik salomatlikning buzilishi ko'plab klinik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.Shu bois klinik va psixologik sog'liqni tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir

Klinik salomatlik tushunchasi va uning asosiy omillari

Klinik salomatlik organizmning biologik faoliyati,organlar va tizimlarning me'yoriy ishlashi bilan belgilanadi.Uni shakllantiruvchi asosiy omillar:

Irsiyat
Yashash tarsi
Ovqatlanish
Jismoniy faoliyat
Ekologik sharoit
Profilaktik tibbiy ko'riklar

Klinik salomatlikning pasayishi ko'pincha psixologik omillar bilan bevosita bog'liq bo'ladi

2.Psixologik salomatlikning ahamiyati

Psixologik salomatlik-bu shaxsning emotsional barqarorligi,stressni boshqarish qobiliyati,ijtimoiy munosabatlarda moslashuvchanligi va o'zini qadrlash darajasini o'z ichiga oladi.

3.Psixologik muammolarning yoshlar orasida keng tarqalishi

XXI asr axborot texnologiyalari asri bo'lganligi sababli,shaxslararo munosabatlar keskin jadallashib bormoqda.Internet,ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan informatsiyalar insoniyatning psixologiyasiga juda kuchli ta'sir qilmoda.Bu o'z navbatida ma'naviy bo'shlig'i mavjud insonlarga salbiy tasir ko'rsatmasdan qolmaydi .Xulosa qilib shuni aytamanki,klinik va psixologik salomatlik –bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim tushuncha.Insonning har ikki sohada barqaror bo'lishi uning to'laqonli hayot kechirishi,o'qish yoki mehnat faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi va ijtimoiy muhitda to'g'ri moslasha olishini ta'minlaydi.Shu sababli salomatlik masalalariga kompleks yondashuv,profilaktika ishlarini kuchaytirish va psixologik madaniyatni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abu Ali ibn Sino."Tib qonunlari"-Toshkent:Fan nashriyoti,2020
2.Karimov,R;Yo'ldoshev D.-Tibbiyot psixologiyasi.-Toshkent:TMA nashriyoti,2019
3.G'ofurov S-Umumiy psixologiya.-Toshkent:O'zMu nashriyoti,2021
4.Masharipova N-Klinik psixologiya asoslari-Toshkent:Innovatsiya nashriyoti,2022

SHAXS TARAQQIYOTI VA YOSH DAVRLAR PSIXOLOGIYASI

Andijon Davlat Universiteti

Kimyo va Biologiya Fakulteti
Biologiya ta'lim yo'nalishi
1-bosqich 104-guruh talabasi
Oybekova Rayyonaning
Tayyorlagan Maqolasi

Anotatsiya: Ushbu maqola shaxs taraqqiyotini davrlarga bo‘lishni tahlil qiladi, bu jarayonning har bir bosqichi haqida batafsil malumotlar taqdim etadi. Shaxs taraqqiyoti, odamning jismoniy, ruhiy, va ijtimoiy jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida koriladi. Maqola bolalik, osish, yoshlik, keksayish va keksayishdan keyingi davr kabi asosiy davrlarni qamrab oladi. Har bir davrning xususiyatlari, muhim jarayonlari, shuningdek, Vygotskiy, Erikson, Piaget, Freyd kabi olimlar nazariyalariga tayangan holda ilmiy asoslangan tahlillar berilgan.

Понятие и сущность дидактики

Термин «дидактика» происходит от греческого didaktikos — обучающий. В педагогическую теорию он вошёл в XVII веке благодаря Вольфгангу Ратке, однако основателем научной дидактики считается Ян Амос Коменский. Дидактика — это раздел педагогики, который занимается изучением процесса обучения, его закономерностей, принципов, методов и содержания.

Дидактика объединяет теоретические знания о процессе передачи и усвоения знаний и практические рекомендации для организации эффективного обучения. Основная задача дидактики — определить, как создать условия для успешного, осознанного и прочного усвоения учебного материала.

Основные категории дидактики

Обучение

Обучение представляет собой двусторонний процесс взаимодействия между учителем и учеником, в рамках которого происходит передача знаний, формирование умений и навыков. Оно включает два взаимосвязанных компонента: преподавание (деятельность педагога) и учение (деятельность ученика).

Образование

Образование — это результат обучения, выражающийся в развитии личности, приобретении знаний, формировании мировоззрения и жизненных компетенций.

Знания, умения и навыки

Эти элементы составляют основу содержания обучения:

– знания — система научных сведений;

– умения — способность применять знания в практике;

– навыки — автоматизированные действия.

Цели обучения

Цели образования определяются социальным заказом общества и образовательными стандартами. Они включают формирование личности, развитие познавательной активности, подготовку к профессиональной деятельности и социальной адаптации.

Закономерности и принципы обучения

Закономерности обучения

Закономерности отражают устойчивые связи между компонентами обучения. Они выражаются в зависимости результатов обучения от мотивации, активности учащихся, качества методов и содержания, уровня подготовленности и индивидуальных особенностей учеников.

Принципы обучения.

Научность – материал должен соответствовать современному уровню науки.

Наглядность – обучение должно опираться на зрительное восприятие.

Сознательность и активность – ученик должен понимать смысл усваиваемых знаний и активно участвовать в процессе.

Доступность – содержание обучения должно быть посильным для учащихся.

Систематичность и последовательность – информация изучается постепенно, в логической структуре.

Прочность усвоения – обеспечение долговременного запоминания и применения знаний.

Связь теории с практикой – ориентация обучения на реальную жизнь и профессиональные задачи.

Содержание обучения

Содержание образования включает систему знаний, умений и навыков, социальный опыт и ценностные ориентации. Оно определяется учебными планами, программами и стандартами. Современное содержание обучения строится на основе:

компетентностного подхода,

межпредметных связей,

практической направленности,
включения цифровых элементов обучения,
развития критического и творческого мышления.

Методы обучения

Методы обучения — это способы взаимодействия учителя и учащихся, направленные на достижение целей образования.

Словесные методы :

– объяснение,
– рассказ,
– лекция,
– беседа.

Наглядные методы

– демонстрация,
– иллюстрации,
– видео- и мультимедийные материалы.

Практические методы

– упражнения,
– лабораторные работы,
– практикумы,
– моделирование.

Интерактивные методы.

Эта группа включает современные подходы:

– дискуссии,
– проектная деятельность,
– работа в группах,
– игровые технологии,
– исследовательские задания.

Формы организации обучения

Формы обучения — это организация учебной деятельности во времени и пространстве.

Основные формы:

1. урок,
2. лекция,
3. семинар,
4. практическое занятие,
5. лабораторная работа,
6. экскурсия,
7. дистанционное обучение,
8. смешанное обучение.

Современные тенденции развития дидактики

Компетентностный подход

Главная задача — формирование навыков XXI века: критическое мышление, коммуникация, креативность и сотрудничество.

Цифровая дидактика

Использование цифровых платформ, интерактивных ресурсов, виртуальных лабораторий, искусственного интеллекта.

Индивидуализация обучения.

Создание индивидуальных образовательных маршрутов, адаптация заданий под уровень ученика.

Интерактивные и игровые методы.

Применение кейсов, тренингов, симуляций, образовательных игр.

Инклюзивная дидактика.

Ориентирована на создание условий для детей с различными образовательными потребностями.

Заключение

Дидактика является фундаментом всей системы образования, определяя структуру, принципы, содержание и методы обучения. Современная дидактика направлена на развитие личности учащегося, формирование его компетенций и готовности к жизни в быстро меняющемся мире. В условиях цифровизации и обновления образовательных стандартов знание дидактических основ становится важным условием профессиональной успешности будущего педагога. Глубокое понимание дидактики позволяет учителю эффективно организовывать учебный процесс, обеспечивать прочное усвоение знаний и стимулировать познавательный интерес учащихся.

Список литературы :

1. Коменский Я. А. Великая дидактика. — М.: Педагогика, 1982.
2. Бабанский Ю. К. Оптимизация учебного процесса. — М.: Просвещение, 1982.
3. Подласый И. П. Педагогика. Новый курс. — М.: Владос, 2020.
4. Сластёнин В. А., Исаев И. Ф. Педагогика. — М.: Школа-Пресс, 2018.
5. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения. — М.: Педагогика, 1981.
6. Данилов М. А., Скрипченко О. Г. Педагогика. — М.: Академия, 2019.
7. Фридман Л. М. Педагогическая психология. — М.: Академический проект, 2021.

CHET TILIDA YOZMA NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI PSIXOLOGIYANING AXAMIYATI

Farxod ALIMOV
ped.f.f.d (PhD), dotsent, Andijon davlat universiteti

Shaxsning shakllanishida raqamli psixologiya va psixologik omillar juda muhim rol o‘ynaydi, chunki istak, qiziquvchanlik, ehtiyojning mavjudligi kabi omillar xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirishda kuchli stimullar vazifasini bajaradi. O‘quv jarayonini tashkil etishda psixologik omillarni inobatga olish uyatchanlik, xato qilishdan qo‘rqish, o‘ziga ishonchsizlik va boshqalar bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Yozma nutq faoliyatining mexanizmlarini o‘rganishda, til va nutqning psixologik funksiyalari haqidagi turli qarashlarni hisobga olish muhim [1,2]. Yozma nutq nutq faoliyat turlaridan biri sifatida o‘z fikrlarini grafik belgilar orqali ifodalovchi shaxsning kundalik hayotida nutq aloqasini amalga oshiradigan muhim omillardan biridir. Yozma nutq, ongli faoliyat sifatida, yozuvchining niyati bilan chambarchas bog‘liq.

Inson nutq faoliyati lingvistika, psixologiya, fiziologiya, psixolingvistika, pedagogika va didaktika kabi fanlarda tadqiq qilinadi. Nutq faoliyati murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, fikrlash, nutq harakatlari va ijodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli ta’lim jarayonida kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirishning psixologik asoslarini o‘rganish, nutq mexanizmlarini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutqning psixologik xususiyatlari yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda qimmatli ilmiy-ma’lumotlar bazasi hisoblanadi [3]. Bu ikki komponentdan iborat. Birinchi komponent grafika belgilari, orfografik qoidalar va nutq harakati bilan bog‘liq ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi komponent esa ijodiy bo‘lib, inson fikrini yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini o‘z ichiga olib, o‘rganilayotgan xorijiy til normalariga va nutqiy holat talablariga mos keladi.

Yozma nutqiy kompetentsiya kasbiy kompetentsiyani shakllantirishga hissa qo‘shadigan lingvistik, psixolingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy, diskursiv va strategik kompetentsiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin [4]. Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyasini rivojllantirishda bu omillarni hisobga olish zarur, chunki ular nofilologik fakultet talabalarining kasbiy kompetensiyasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ba’zi psixologik omillarni hisobga olish lozim. Bunday omillarga orfografik qoidalarni bilmaslik oqibatida kelib chiqadigan xatolardan qo‘rqish, talabalarning motivatsiyasi yoqligi kabi holatlar kiradi. Kasbiy yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda yosh, qiziqish, bilim darajasi va talabalar istaklarini hisobga olish, o‘quv jarayonini tashkil etishda, yozma nutqqa tegishli o‘quv materiallarini tanlashda muhim axamiyat kasb etadi. Demak, kasbga yo‘naltirilgan yozma nutqiy kompetensiyani shakllantirishda istak, qiziquvchanlik, o‘ziga xos materiallar, nutqiy harakatga bo‘lgan ehtiyoj kabi psixologik omillar kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi Kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyasiga lingvistik, kasbiy, madaniy, pragmatik va metodologik komponentlarni qo‘shish mumkin. Bu komponentlar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishga yordam beradi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan inson ongida fikr, tafakkur jarayonida paydo bo‘lib, tushunchalar orqali ifodalanadi va nutqiy akt jarayonida boshqa shaxsga yozma shaklda yetkaziladi [5]. Raqamli texnologiyalardan foydalangan xolda nofilologik fakultet talabalarning yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirish ingliz tilida quyidagi texnologik ketma-ketlikda aks etadi: yozma topshiriqni idrok etish; yozma topshiriqning maqsadini aniqlash; matnni qismlarga bo‘lib yozishni idrok etish; yozma topshiriq bilan bog‘liq ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish; shakllangan yozma axborotni sintez va ijodiy fikrlash orqali kengaytirish; matn yozish yozma va og‘zaki fikrlash jarayonining mahsulidir.

Ingliz va o‘zbek fonetik tizimlari turli til tizimlariga mansub bo‘lib, bu o‘zbek talabalariga ingliz tilini o‘rganishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu o‘z navbatida yozuv va yozma nutqiy malaka va qobiliyatlarni shakllantirishda qiyosiy tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Lingvodidaktik qiyosiy tahlil nazariy jihatdan diagnostik xususiyatga ega bo‘lib, yozma nutqni o‘rgatishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash va ularni yuzaga kelish sabablari bo‘yicha ilmiy asoslangan tahlilni talab qiladi. Amaliy jihatdan, qiyinchiliklarni aniqlash ushbu qiyinchiliklarni yengish usuli va yo‘llarini topish, shuningdek, o‘zbek auditoriyasida ingliz tilida yozma nutqni o‘rgatishda maxsus mashqlarni tizimini yaratadi.

Qiyinchiliklar asosan, tovush-harf munosabatlarining mos kelmasligi, kaligrafiya va yozish qoidalaridagi farqlarda yuzaga keladi. Harflarning polisemantik xususiyatlari, unli tovushlarning akustik tasvirlari va ularning grafika shaklidagi tasviri o‘qish texnikasida xatolarga olib keladigan omillar hisoblanadi.

Yozma nutqda yuzaga keladigan xatolarga quyidagilarni kiritish mumkin: matnda aytilgan fikrni davom ettira olmaslik; yozma matnni ma’no jihatidan bog‘langan qismlarga ajrata olmaslik; gaplar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish va ketma-ketlikning yo‘qligi; yozma matnni tuzishda asosiy kalit so‘zlar yordamida fikrni maqsadga mos ravishda bog‘lay olmaslik.

Raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish nofilologik fakultet talabalariga ingliz tilardagi kasbiy yozma nutqni o‘rgatishda keng imkoniyatlarni ochib beradi. Binobarin, nofilologik fakultet talabalarini axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish, o‘z kasbiy ehtiyojida xorijiy manbalardan mustaqil axborot olish qobiliyatini shakllantirish birinchi navbatdagi vazifalardan biri hisoblanadi. Talabalarga axborot texnologiyalarini qo‘llanma sifatida ishlatish ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘z kasbiy ehtiyojlari uchun xorijiy manbalardan ma’lumot olishni, yuqori texnologik elektron darsliklar, qo‘llanmalar, o‘quv materiallari, mashqlar tizimini yaratishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda raqamli ta’lim metodikasini yaratish dolzarb bo‘lib, bu kasbga yo‘naltirilgan yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion mexanizm bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek, talabalar orasida yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishni ta’minlaydi. Turli xil

raqamli texnologiyalardan foydalanish zarur, masalan, mobil o‘quv, onlayn kurslar, gamifikatsiya, veb-kvestlar, multimedia doskalar, elektron flipchartlar, planshetlar, noutbuklar va boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish kerak. Raqamli texnologiyalarni yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llash, talabalar individual qobiliyatlarini hisobga olish zarur, bu ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi, yozuv va yozma nutq vazifalarini hal qilishda ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saydullayev J.Y. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. “Raqamli ta’limning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 25-oktabr 2023-yil. 439-442-b.

2. Лурия А.Р. Очерки психофизиологии письма // Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. М.: «Академия». 2002. С. 10–77.

3. Soipnazarova M.N. Talabalarning fikrlash madaniyatini rivovlantirish. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 1-jild. 4-son. Toshkent – 2023. 96-99-b.

4. Конева Е. В., Драпак Е. В. Психология общения: учебное пособие. Ярославль: ЯрГУ, 2016. — 204 с.

5. Храмцова Н. Г., Майборода Т. Ю. Подходы к развитию цифровых компетенций студентов юридических вузов // Перспективы науки и образования. 2019. № 1 (37). С. 80–93.

AMALIY PSIXOLOGIYA YONALISHI TALABALARIDA KASBIY RIVOJLANINSH HUSUSIYATLARINI O’RGANISHGA NAZARIY YONDASHUV

Yusupjonova Iroda Abdirayimjonovna, Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD),dotsent

Annotatsiya: Ushbu mavzu tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarda kasb tushunchasini shakllanishining psixologik omillari va kasbiy motivatsiyasining muammosi rus psixologlari, o’zbek olimlari tomonidan keng doirada tadqiq qilin. Shu bilan birga, kasbiy o'zlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar nazariy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: psixologiya yo’nalishi talabalarining kasbiy rivojlanish jarayoni, pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, bo'lajak psixologning kasbiy ongi, kasbiy motiv va motivatsiya, o’quv мотив.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ВОСПРИЯТИЙ СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Аннотация: Анализ данной темы показывает, что проблема психологических факторов формирования понятия о профессии у студентов и проблема профессиональной мотивации широко исследуются российскими психологами и узбекскими учеными. При этом теоретически анализируются общие методологические и теоретические проблемы, связанные с пониманием и определением профессиональной идентичности.

Ключевые слова: процесс профессионального становления студентов-психологов, особенности педагогического общения, профессиональное сознание будущего психолога, профессиональный мотив и мотивация, учебный мотив.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PERCEPTIONS OF PSYCHOLOGY STUDENTS

Abstract: An analysis of this topic reveals that the psychological factors in the development of students' professional concepts and the issue of professional motivation are widely studied by Russian psychologists and Uzbek scholars. General methodological and theoretical issues related to understanding and defining professional identity are also theoretically analyzed.

Keywords: professional development of psychology students, characteristics of pedagogical communication, professional consciousness of future psychologists, professional motive and motivation, and academic motivation.

Talabalarda kasb tanlashga munosabatning shakllanish jarayonini yanada chuqurroq tahlil qilish va uning o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy psixologik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar asosida ochib berish, bugungi kunda ta'lim – tarbiya muassasalari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Darhaqiqat, bugun har jihatdan omilkor, mas'uliyatli, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyoti uchun ongli – faol ijtimoiy shaxsni tarbiyalash, uni o'z salohiyatiga mos kasbga yo'naltira olish nafaqat ta'lim tizimining, balki butun bir davlatning ham kelajak taraqqiyotiga daxldor bo'lgan muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, O'zbekistonda kechayotgan bugungi keng ko'lami ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar, beto'xtov shakllanayotgan bozor munosabatlari, fan, texnika va ishlab chiqarishning keskin rivojlanishiga javob bera oluvchi jamiyat va shaxs ehtiyojlarining o'zaro uzviy mutanosibligiga erishish uchun ham talabalarda kasb tanlashga nisbatan faol ijobiy munosabat motivatsiyasi tizimini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish lozim bo'ladi. Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim masaladir. Zero, real turmushda uning biror kasb -hunarni mukammal egallab, yetuk mutaxassis bo'lishi zaruriy holdir. Albatta, insonning kasb - hunar bilan bog'liq bolalikdagi his tuyg'ulari, orzu-hayollari yoshga xos psixologik xususiyatlari bilan bog'liq. Bolalikdagi kasb'hunar yoki mutaxassislik uchun zarur bilim, shaxs sifatlari va boshqa talablar e'tiborga olinmaydi. Inson orzularining reallikka aylanishi esa unda mas'uliyat va javobgarlik tuyg'usini paydo qiladi. Talabalarning kasbiy tasavvurlarini shakllantirish, kasbga yo'naltirish, kasb tanlashlariga ko'maklashish, bu bir tomondan, talabalarni o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbni puxta egallashi va jamiyatda o'z o'rnini topish, ehtiyojlarini qondirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan davlatga muayyan darajada ijobiy foyda keltirish, unda progressiv o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Yurtimiz olimlarining ilmiy izlanishlarida bo'lgusi psixologlar uchun zarur kasbiy sifatlarni shakllantirish va ularni amaliyot davomida rivojlantirish nazarda tutilgan bo'łib, ta'limiy, tarbiyaviy, madaniy, iqtłsodiy, ijtimoiy siyosiy va bosha omillar bilan o'zaro aloqadorlikda, bogliq'likda kechai. Psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy sifatlar rivojlanishi masalalari millły muhitda Sh.R.Barotov, M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, Z.T.Nishonova, V.M Karimova, K.B.Qodirov, B.S.AbdulIayeva, O'.U.Shukurova, M.lsoqova, N.D.Sagindikova, A.E.Muxtorova shu kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. M.G.Davletshinning yosh davrlari bo'yicha darsligida talabalik davrining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy rivojlanishda unga ta'sir qiluvchi omillar keng yoritib berilgan. Fikrimizcha, muvaffaqiyatli faoliyatni amalga oshirishda bo'lajak psixologlarni kasbiy sifatlari rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Sh.R.Barotov O'zbekistonda psixologik xizmatni tashkil qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan bo'lib, olimning izlanishlarida ta'lim tizimida psixologik xizmatni tashkil qilish, turli psixologik yo'nalishlarda, jumladan psixodiagnostika, psixokonsultasiya, psixologik korreksiya ishlarining mazmun mohiyati, psixologik jihatdan tashviqot ishlarini olib borish zarurati yoritib berilgan. Bundan tashqari madaniy oqartuv, psixoprofilaktika kabi tadbirlarni tashkil qilish muammoning yechimini topish va amaliy yordam berishda muhim ahamiyatga egadir. Sh.R.Barotov tomonidan psixologik xizmatni tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha ilmiy asoslar ishlab chiqilgan va amaliyotga keng tadbiq qilingan [3,4.]

Nazarimizda, Olim tomonidan olib borilgan tadqiqot bo'lajak psixologlarning kasbiy sifatlarini aniqlashga va uning namoyon bo'lish xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Jumladan, S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilovalarning ta’kidlashicha bo‘lajak mutaxassis shaxsida yangi a’zolari orasida, turli yoshdagi kishilar bo‘lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko‘nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O‘zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. [62]

M.Y.Litvak, A.S.Krivsova, A.B.Kaganov Y.N.Ustyujaninova, YN.Yaliseeva V.A.Biryulin, A.V.Batarshev, V.1.Stenkova, T.G.Xaritonova A.V.Shilakina, E.S.Volkov, O.A.Andrusevichlar tadqiqotlarida bo'lajak amalyotchi psixoIogIarda kasbiy sifatlar namoyon bo’lishi va ularning rivojlanishida ta'limiy, itimoiy, huquqiy, ma’naviy, madaniy va boshqa omillarning ta’siri chuqur o'rganilgan, [4,5] biz o’rgangan olimlarning ilmiy izlanishlarida bo’lgusi psixologlar uchun zarur kasbiy sifatlnmi shakllantirish va ularni amaliyot davomida rivojlantirish nazarda tutilgan bo’lib, ta’limiy, tarbiyaviy, madaniy, Iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy va bosha omillar bilan o'zaro aloqadorlikda. bogliqlikda kechad’i.psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy sifatlar rivojlanishi masalalari millły muhitda Sh.R.Barotov, M.G.Davletshin, E.G’.G’oziyev, Z.T.Nishonova, V.M.Karimova, K.B.Qodirov, B.S.AbdulIayeva, O’.U.Shukurova. M.lsoqova, N.D.Sagindiqova, A.E.Muxtorova shu kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. O’zbekistonda psixologiya fani rivojlanishida o'zining buyuk hissasini qo’shgan olim sifatida e'tirof etiladigan E.G'oziyev asarlarida va ilmiy tadqiqotlarida rivojlanish psixologiyasi uchun zaruriy ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ayniqsa talabalik davrining psixologik xususiyatlari OTMda ta'lim jarayonlarida o'ziga xos tarzda rivojlanishi ta’kidlanadi. Demak, tadqiqotimiz obyektlari talabalar ekanligini hisobga olgan holda, E.G'oziyev qarashlariga tayanib, psixodiagnostik metodikalarni to'g'ri tanlash va psixologik treninglarni o'tkazish maqsadga muvofiqdir. B.S.Abdullayevaning tadqiqotlarida bo’lg’usi pedagoglarning oquv-ilmiy faoliyatining motivatsiyasi, psixofiziologik determinasiyasi, ta'lim oluvchilarning ong ostiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda zamoanviy psixofiziologik metodlarni qo’llash orqali psixodiagnostika va psixokorreksiya imkoniyatlarini oshirish ishlari olib borilgan (6). Nazarimizda, kasbiy tayyorgarlikda o'quv motivatsiya imkoniyatlarining o’rni anglangan holda, bo'lajak psixologlar kasbiy sifatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O’.U.Shukurovaning ilmiy tadqiqotida talabalarda o’ziga ishonch, mas’uliyatlilik, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash xususiyatlari, qaror qabul qilishda qobiliyatning o’rni va shu kabi masalalar omilli tahlil qilingan [3,4,5]. Bu kabi jihatlar bizni tadqiqotimizda ham alohida o'rganilib, psixolog kasbiy sifatlari rivojlanishidagi o’rni ta'kidlangan. Bo’lg’usi psixologlarni kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning psixologik xususiyalari bilan birga maxsus qo'llaniladigan psixologik ta'sirlarning ham o'rni katta. Bu borada A.E.Muxtorova tomonidan ”Pedagog psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik xususiyatlari” nomli dissertasiyasida bo'lajak pedagog-psixologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning pedagogik kasbiy yo’nalganligi, ta'lim jarayoniga moslashish qobiliyati, shuningdek, empatiya qobiliyatining namoyon bo'lishi alohida o'rganilgan (3,5). Mazkur ilmiy izlanish mavzusi garchi bizni tadqiqotimizga yaqin bo'lsada, psixologiya yo'nalishi talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning metodologik asosi, maxsus ishlab chiqilgan psixologik rivojlantiruvchi treningni qo'llanilishi va samaradorligining tekshirilishi natijada bo'lajak psixologlarda kasbiy sifatlarning rivojlanishiga oid mexanizmning keltirilishi tadqiqotlarning bir-biridan farqli ekanligini ko'rsatadi. Bugungi kunda fan-texnikalarning rivojlanishi, insonlarning yashash va tutmush tarzi takomillashishi, bu psixolog mutaxassisligining yanada yuksak darajada takomillashishi, insonlar hayoti uchun ma'suliyatli kasbiy mahoratini rivojlantirishi zamon talabga aylanmoqda. Shu munosabat bilan kasbiy muammolami yechishga nazariy va amaliy jihatdan tayyor, kasbiy faoliyat tizimini yaratish, qo'llash va moslashtirishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammosi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020 yil 30 sentyabr. - https://president.uz/uz/lists/view/3864

7. Абдуллаева М.М. Шахсиятнинг профессионал ўзига хослиги: психосемантик ёндашув / М.М. Абдуллаева // Психологик журнал / Эд. А.В. Брушлинский, И.И. Шесноков. - 2004. - 25-жилд № 2 2004 йил март-апрел ойлари. - С. 86-96.

8. Абдураҳмонова Р.Б. Ўқитувчилар ва психологларнинг касбий йўналишини шакллантириш. Диссертация конспекти. дис. … самимий. психолог. Фанлар. – Тошкент, 2005.-22 б.

9. Балашов У.К. Становление будущего педагога. М.: Наука, 2015. - 82 с.

10. Буякас Т.М. Основания и условия профессионального становления студентов-психологов // Вестн. Моск. Ун-та. Сер. 14 Психология. - 2005. - № 2 - С. 9-16.

11. Р.З.Гайнутдинов Диссертация... кандидата психологических наук: 19.00.03, Ташкент, 2010. - 110 с.

12. Қодиров К.Б. Касб танлашга тайѐрликнинг психологик жиҳатлари ва касбий ташхис (9–синф ўқувчилари маълумотлари асосида). (Псих.фан.ном... дисс.). – Т., 2001. – 24 б.

SUN'IY INTELLEKTNING PSIXOLOGIYAGA TA'SIRI

Xojimatova Marjona Umidjon qizi
Usmonova M, Xakimova S
Andijon davlat universiteti talabasi
Telefon raqam: +998 90 773 68-60 /
Email: xojmatovamarjona@gmail.com

Annotatsiya: Sun'iy intellekt zamonaviy psixologik amaliyotda diagnostika, terapiya va tadqiqot jarayonlarini tubdan o'zgartirmoqda. Maqolada AIning psixologiyaga ko'rsatayotgan bevosita va bilvosita ta'sirlari, uning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi. Muallif ilmiy manbalar asosida texnologiyaning kognitiv jarayonlar, psixodiagnostika va terapevtik amaliyotga qanday kirib kelayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt samaradorlikni oshirsa-da, etik va kasbiy muammolar vujudga keltirmoqda. Maqola psixologlar, tadqiqotchilar va sohada qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, psixologiya, psixodiagnostika, terapiya, kognitiv, texnologiya, algoritmlar, diagnostika, nevrologiya, digital, avtomatlashtirish, empatiya, konsultatsiya, xavfsizlik, etika

ARTIFICIAL INTELLIGENCE'S IMPACT ON PSYCHOLOGY

Annotation: Artificial intelligence is fundamentally transforming diagnostic, therapeutic and research processes in contemporary psychological practice. The article analyzes direct and indirect impacts of AI on psychology, examining its capabilities and limitations. Based on scientific sources, the author demonstrates how technology is penetrating cognitive processes,

psychodiagnostics and therapeutic practice. Research findings indicate that while artificial intelligence enhances efficiency, it generates ethical and professional challenges. The article targets psychologists, researchers and professionals interested in the field.

Keywords: intelligence, psychology, psychodiagnostics, therapy, cognitive, technology, algorithms, diagnostics, neurology, digital, automation, empathy, consultation, security, ethics

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ПСИХОЛОГИЮ

Аннотация: Искусственный интеллект фундаментально преобразует диагностические, терапевтические и исследовательские процессы в современной психологической практике. В статье анализируются прямые и косвенные воздействия ИИ на психологию, рассматриваются его возможности и ограничения. На основе научных источников автор демонстрирует, как технология проникает в когнитивные процессы, психодиагностику и терапевтическую практику. Результаты исследований показывают, что искусственный интеллект повышает эффективность, но порождает этические и профессиональные проблемы. Статья адресована психологам, исследователям и специалистам, заинтересованным в данной области.

Ключевые слова: интеллект, психология, психодиагностика, терапия, когнитивный, технология, алгоритмы, диагностика, неврология, цифровой, автоматизация, эмпатия, консультация, безопасность, этика

Hozirgi paytda psixologiya sohasi texnologik inqilobning markazida turmoqda. Sun'iy intellekt tizimlarining jadal rivojlanishi psixologik xizmatlar ko'rsatish, diagnostika qo'llash va ilmiy tadqiqotlar olib borishning an'anaviy usullarini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Psixologiya tarixi davomida doimo yangi vositalar va yondashuvlar paydo bo'lgan, biroq hozirgi o'zgarishlar o'zining chuqurligi va tezligi bilan ajralib turadi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida kompyuterlashtirish psixologiyaga kirib kela boshladi. Dastlab bu testlarni baholashni tezlashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlashni osonlashtirish bilan cheklangan edi. Biroq yigirma birinchi asr boshlarida mashina o'rganishi va chuqur o'rganish texnologiyalarining paydo bo'lishi yangi imkoniyatlar oynasini ochdi. Endi sun'iy intellekt nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlaydi, balki mustaqil tahlil qiladi, prognozlar beradi va hatto muloqot yuritadi. Bu o'zgarishlar ham katta umidlar, ham jiddiy tashvishlar tug'dirmoqda. Bir tomondan, texnologiya psixologik yordamni yanada ko'proq odamlarga yetkazish, diagnostika aniqligini oshirish va terapevtik jarayonlarni samaraliroq qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, inson munosabatlarining eng nozik jabhalarini mashinaga topshirish, shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va kasbiy etikaning buzilishi xavfi mavjud. Shu sababli, sun'iy intellektning psixologiyaga ta'sirini chuqur tahlil qilish zarurati bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologik amaliyot va fanga ko'rsatayotgan ta'sirlarini har tomonlama baholash, ilmiy dalillar asosida ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda kelajakda muvozanatli rivojlanish yo'llarini ko'rsatishdan iborat.

Psixologiyada sun'iy intellektning o'rni va ahamiyati so'nggi yillarda bir qator tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Rossiyalik olim V.M. Allaxverdov o'zining "Kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt" asarida kognitiv jarayonlarni modellashtirish masalalarini ko'rib chiqadi. U shunday ta'kidlaydiki, inson ongini algoritmik jihatdan tasvirlash urinishlari ko'pincha bilish

jarayonlarining murakkabligini soddalashtirib yuboradi. Allaxverdov sun'iy intellekt asosida yaratilgan modellar haqiqiy psixik jarayonlarning yuzaki ko'rinishini aks ettirishi mumkinligini ilmiy dalillar bilan asoslaydi.

O'zbek psixologi M.G. Davletshin "Zamonaviy psixologiyada raqamli texnologiyalar" nomli maqolasida mahalliy kontekstda texnologik vositalarning qo'llanilishini tahlil qiladi. Muallif O'zbekistonda psixologik xizmatlar ko'rsatishda raqamli vositalardan foydalanishning cheklanganligi va shu bilan birga kelajakdagi istiqbollari haqida mulohaza yuritadi. Davletshin raqamlashtirish jarayonida madaniy xususiyatlarni e'tiborga olish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

A.N. Leybengrad va N.B. Kovalevskaya tomonidan yozilgan "Psixodiagnostikada sun'iy intellekt: imkoniyatlar va xavflar" tadqiqoti diagnostik vositalarning avtomatlashtirilishi masalalariga bag'ishlangan. Ular klassik psixologik testlarni raqamli formatlarga o'tkazishda yuzaga keladigan metodologik qiyinchiliklarni batafsil tahlil qiladilar. Mualliflar shuni ko'rsatadiki, testlarning kompyuter versiyalari ba'zan asl nusxaning o'lchov xususiyatlarini to'liq saqlay olmaydi.

Rossiyalik tadqiqotchi I.A. Nagibina "Onlayn terapiya: samaradorlik va etika" ishida masofaviy psixologik yordam ko'rsatishning zamonaviy shakllarini o'rganadi. U sun'iy intellekt yordamida amalga oshiriladigan terapevtik seans larning an'anaviy usullar bilan qanday nisbatda turishini taqqoslaydi. Nagibina texnologiya insoniy yondashuvni to'liq almashtira olmasligini, biroq qo'shimcha vosita sifatida foydali ekanligini ta'kidlaydi.

E.P. Ilyin "Psixologiya va zamonaviy texnologiyalar: integratsiya yo'llari" nomli monografiyasida fanlararo yondashuvni taklif etadi. Ilyin psixologiya va axborot texnologiyalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning nazariy asoslarini ishlab chiqadi. U sun'iy intellekt psixologiyani boyitishi mumkin, lekin psixologiya ham texnologiya rivojiga o'z hissasini qo'shishi kerakligini mantiqiy ravishda asoslaydi.

ASOSIY QISM

Sun'iy intellektning psixologiyaga kirishi bir necha yo'nalishda amalga oshmoqda. Eng muhim sohalardan biri psixodiagnostikadir. An'anaviy ravishda psixologlar turli xil testlar, so'rovnomalar va kuzatishlar orqali shaxsning psixologik holatini baholashgan. Bu jarayon ko'p vaqt talab qiladi va mutaxassisning malakasiga katta bog'liq. Sun'iy intellekt bu jarayonni tezlashtirish va standartlashtirish imkonini beradi. Masalan, depressiya belgilarini aniqlashda mashina o'rganishi algoritmlari bemor nutqining intonatsiyasi, so'z tanlashi va hatto yozma matnlardagi xususiyatlarni tahlil qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu usullar ba'zi hollarda an'anaviy so'rovnomalar bilan bir xil darajada aniq natija beradi. Biroq muammo shundaki, algoritm faqat ma'lum namunalar asosida o'qitilgan va u hali uchramagan holatlarni noto'g'ri baholashi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt madaniy kontekst va individual xususiyatlarni to'liq hisobga olmaydi. Terapevtik amaliyotda ham sun'iy intellektdan foydalanish kengaymoqda. Chatbotlar va raqamli yordamchilar oddiy psixologik yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Bu xizmatlar odatda kognitiv-xulq-atvor terapiyasining asosiy prinsiplarini qo'llaydi va foydalanuvchilarga o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishda yordam beradi. Bunday vositalarning afzalligi shundaki, ular doimo mavjud va qo'llanilishi juda oson. Biroq ularning cheklovlari ham aniq. Murakkab psixologik muammolar, ayniqsa travma, shaxsiyat buzilishlari yoki og'ir depressiya bilan bog'liq holatlar, hali ham tajribali mutaxassisning bevosita ishtirokini talab qiladi. Sun'iy intellekt tadqiqot ishlarida ham muhim rol o'ynamoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati psixologik hodisalarning yangi naqshlarini aniqlashga

yordam beradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik va psixik salomatlik o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, yoki ma'lum shaxsiy xususiyatlarning hayotdagi muvaffaqiyat bilan qanday bog'langanini o'rganish mumkin. Biroq bu yerda ham ehtiyotkor bo'lish zarur, chunki korrelyatsiya har doim sababiyat degani emas va algoritmlar ba'zan soxta bog'lanishlarni ham aniqlashi mumkin.

Nevrologiya va psixologiya kesishmasida ham sun'iy intellekt qimmatli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Miya faoliyatini tasvir olish natijalarini tahlil qilishda mashina o'rganishi usullari muayyan kasalliklar yoki holatlarning xarakterli belgilarini aniqlashga yordam beradi. Bu erta diagnostika va samaraliroq davolash rejalarini ishlab chiqish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Biroq barcha bu yutuqlar bilan birga jiddiy muammolar ham mavjud. Birinchidan, ma'lumotlar xavfsizligi masalasi. Psixologik ma'lumotlar eng maxfiy hisoblangan va ularning noto'g'ri qo'lga o'tishi shaxsga katta zarar yetkazishi mumkin. Sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha bulutli serverlarda ishlaydi va bu xavfsizlik xavfini oshiradi. Ikkinchidan, etik masalalar. Algoritm qaror qabul qilayotganda kim javobgar bo'ladi? Agar sun'iy intellekt noto'g'ri diagnoz qo'ysa yoki yomon maslahat bersa, bu javobgarlik kimga yuklanadi? Uchinchidan, psixologiya kasbining o'ziga xos jihatlari xavf ostida. Psixoterapiyaning asosiy elementi bu inson munosabati, ishonch va empatiya. Texnologiya bu jihatlarni qanchalik to'liq almashtira oladi? Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar ba'zan mashinalarga ham ochilishadi va o'z muammolarini baham ko'rishadi, ayniqsa hukm qilinish xavfidan qo'rqmasa. Biroq bu munosabatlar haqiqiy terapevtik aloqa bilan bir xil emasligi aniq. To'rtinchidan, raqamli ajralish muammosi mavjud. Sun'iy intellektga asoslangan psixologik xizmatlardan foydalanish uchun texnologiyaga kirish imkoniyati bo'lishi kerak. Bu shahar va qishloq, boy va kambag'al o'rtasidagi farqni yanada kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Psixologik yordam demokratlashishi kerak, lekin texnologiya bu jarayonni murakkablashtirishi mumkin.

Mavjud ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt psixologiyada aniq foydalar keltirmoqda. Diagnostika tezligi va ba'zi hollarda aniqligi oshgan. Masofaviy psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlari kengaygan va bu geografik jihatdan cheklangan hududlarda yashovchi odamlarga yordam berish uchun ayniqsa muhim. Tadqiqot metodlari boyigan va olimlar yangi qonuniyatlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Biroq sun'iy intellektning samaradorligi turli sohalarda turlicha. Oddiy kognitiv-xulq-atvor interventsiyalarida texnologiya yaxshi natijalarga erishmoqda. Murakkab travmatik holatlar, shaxsiyat buzilishlari va chuqur psixoterapiyani talab qiladigan vaziyatlarda esa insoniy omilni almashtirish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Psixologlarning ko'pchiligi sun'iy intellektni yordamchi vosita sifatida qabul qilmoqda, asosiy ish esa hali ham mutaxassis zimmasida qolishi kerak deb hisoblashmoqda.

Natijalarni muhokama qilar ekanmiz, bir necha muhim jihatlarni ta'kidlash lozim. Sun'iy intellekt psixologiyani rivojlantirish uchun qimmatli vosita, lekin u psixologiyaning o'ziga xos insoniy tabiati bilan ziddiyatga kirmasligi uchun ehtiyotkorlik talab etiladi. Texnologiyani joriy etish psixologlar o'rtasida qarama-qarshi his-tuyg'ularni keltirib chiqarmoqda. Ba'zilari yangi vositalarni qo'lga kiritishga tayyor, boshqalari esa kasbning depsixologizatsiyasidan qo'rqishmoqda. Etik masalalar eng jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Psixologik ma'lumotlarning maxfiyligi, rozilik olish tartibi, algoritm qarorlarining shaffofligi va javobgarlik masalalari hali to'liq hal qilinmagan. Xalqaro psixologik tashkilotlar bu borada yo'l-yo'riqlar ishlab chiqmoqda, biroq texnologiyaning tez rivojlanishi tufayli normativ hujjatlar doimo orqada qolmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt va psixologiya o'rtasidagi integratsiya chuqurlashishi kutilmoqda. Ehtimol, gibrid modellar paydo bo'ladi, bunda texnologiya ma'lum vazifalarni bajaradi va psixolog esa murakkab holatlar bilan shug'ullanadi. Shuningdek, sun'iy intellekt psixologlarni o'qitishda ham qo'llanishi mumkin, ya'ni simulyatsiyalar va virtual amaliyot orqali kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Sun'iy intellekt psixologiya sohasida diagnostika, terapiya va tadqiqot jarayonlarini samaraliroq qilayotgan bo'lsa-da, u bilan bog'liq maxfiylik, etika va kasbiy chegaralar muammolari ham dolzarbligicha qolmoqda. Asosiy vazifa - texnologiyadan mas'uliyat bilan foydalanib, insoniy yondashuvni yo'qotmaslikdir. Kelgusida psixologlar, texnologlar va etik mutaxassislarning hamkorlikda ishlashi bilan sun'iy intellekt psixologiya rivojiga xavfsiz va foydali yo'l bilan xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaxverdov V.M. Kognitiv psixologiya va sun'iy intellekt. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg davlat universiteti nashriyoti, 2021. 384 b.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy psixologiyada raqamli texnologiyalar // O'zbekiston psixologiya jurnali. 2022. №3. B. 45-58.
3. Leybengrad A.N., Kovalevskaya N.B. Psixodiagnostikada sun'iy intellekt: imkoniyatlar va xavflar. Moskva: Akademiya nashriyoti, 2023. 296 b.
4. Nagibina I.A. Onlayn terapiya: samaradorlik va etika // Klinik psixologiya jurnali. 2022. №2. B. 112-127.
5. Ilyin E.P. Psixologiya va zamonaviy texnologiyalar: integratsiya yo'llari. Sankt-Peterburg: Piter, 2023. 512 b.
6. Abdullayeva Sh.N. Raqamli psixologik xizmatlar: O'zbekiston tajribasi // Psixologiya va ta'lim muammolari. 2023. №1. B. 78-91.
7. Sokolov D.V. Nevrologiya va sun'iy intellekt: yangi diagnostika usullari. Moskva: Meditsina nashriyoti, 2022. 368 b.

TA’LIM SOHASIDA MALAKALI PSIXOLOGLARNING YETISHMASLIGI

Yusupova Kommuna Dilshodbek qizi
Shermatova Mohinur Zohidjon qizi
Rustamova Mubina Xayrullo qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida malakali psixologlar yetishmasligi muammosi, uning ta’lim jarayoniga ko‘rsatadigan ta’siri hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar yoritilgan. Maktab, maktabgacha ta’lim, kollej va oliy ta’lim muassasalarida psixologlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borayotganligi, ammo kadrlar salohiyatining talab darajasida emasligi tahlil qilindi. Shuningdek, psixologlarning funksional vazifalari, tizimda kuzatilayotgan yuklama, psixologik xizmatning me’yoriy-huquqiy asoslari va zamonaviy talablar ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim sifatini oshirishda psixologlarning kasbiy mahorati va yetarli sonini ta’minlash hal qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, ta’lim tizimi, malakali kadrlar, pedagog-psixolog, psixologiya, ta’lim sifati, psixik rivojlanish, korreksion ish.

Abstract: This article analyzes the shortage of qualified psychologists in Uzbekistan's education system and examines the consequences of this issue on the quality of the educational process. The growing demand for psychological services in schools, preschools, vocational colleges, and higher education institutions is highlighted alongside the existing gaps in professional training and competence. The article explores the legal framework, workload, responsibilities, and modern requirements for school psychologists. The study concludes that enhancing the number and competence of psychologists is crucial for improving students' mental well-being and overall educational outcomes.

Keywords: educational psychology, school psychologist, psychological services, mental health, professional competence, educational system, correctional work.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yoshlar tarbiyasi – kelajagimiz poydevori” bo‘lib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda psixologik xizmatning o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilar psixologik barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, stress va emotsional muammolarni bartaraf etish bo‘yicha samarali tizimni yaratish zarur.

Shu bilan birga, ta’lim sohasida malakali psixolog kadrlar yetishmayotgani jiddiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalq ta’limi tizimida mavjud psixolog shtatlarining 20–25 foizi bo‘sh bo‘lgan, mavjud psixologlarning esa 30–35 foizi kasbiy malaka talablariga to‘liq javob bermagan. Bu esa ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘quvchilar o‘rtasida ruhiy tushkunlik, agressivlik, motivatsiya pasayishi, o‘qishdan bo‘yin tovlash kabi holatlar ko‘p kuzatilayotgani aynan psixologik xizmatni kuchaytirishni talab qiladi. Mazkur maqola ta’lim tizimidagi psixologlar yetishmasligi sabablarini, oqibatlarini va yechimlarini tahlil etishga bag‘ishlanadi.

1. Ta’lim tizimida psixologlarga ehtiyojning ortib borishi

Bugungi kunda ta’lim tizimida 6,5 milliondan ortiq o‘quvchi mavjud bo‘lib, ularning ruhiy holatini nazorat qilish, psixodiagnostika va psixokorreksion ishlarni olib borish uchun yuqori malakali pedagog-psixologlar kerak.

Asosiy ehtiyojning ortishiga sabablar:

O‘quvchilar orasida stress va tashvish holatlarining ko‘payishi;

Raqamli texnologiyalar ta’siri, internet qaramligining kuchayishi;

Ijtimoiy-psixologik muammolar – zo‘ravonlik, oilaviy tangliklar, ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari;

Inkluziv ta’limning kengayishi natijasida maxsus yordamga ehtiyoji bo‘lgan bolalar sonining ko‘payishi.

2. Psixologlar yetishmasligining asosiy sabablari

2.1. Kasbiy tayyorgarlik sifati pastligi

Ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlar yetarli emas. Talabalar amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lmay chiqib ketmoqda.

2.2. Mehnat sharoitlari va maoshning pastligi

Pedagog-psixologlar 25–30 foiz hollarda yuqori yuklama bilan ishlaydi, biroq mehnat haqi mutaxassislik murakkabligiga nisbatan past.

2.3. Psixologik xizmat infratuzilmasining yetarli emasligi

Ko‘p maktablarda maxsus kabinetlar, diagnostik vositalar, testlar, metodik qo‘llanmalar yetishmaydi.

2.4. Jamiyatda psixolog kasbiga bo‘lgan e’tibor pastligi

Ota-onalar psixolog maslahatiga murojaat qilishdan uyalyapti, psixologik madaniyat yetarli darajada shakllanmagan.

3. Psixolog yetishmasligining oqibatlari

O‘quvchilar o‘rtasida ruhiy holat buzilishlari sonining ortishi;

Maktab ichki muhitining keskinlashishi;

O‘quvchilarda o‘qishga motivatsiya pasayisIjtimoiy moslashuv muammolari kuchayishi;
Ta’lim sifatining pasayishi;
Noto‘g‘ri kasb tanlash holatlarining ortishi.
Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixolog bilan muntazam ishlaydigan o‘quvchilarda:
darslarni o‘zlashtirish 15–20% ga,
stressga chidamlilik 30–35% ga,
ijtimoiy faollik 20% ga oshadi.
4. Muammoning yechimlari
4.1. Psixologlar tayyorlash sifatini oshirish
Oliy ta’limda amaliyot soatlarini ko‘paytirish,
Xalqaro tajribaga mos dasturlarni joriy etish,
Amaliy psixologiyani chuqur o‘qitish.
4.2. Mehnat sharoitlarini yaxshilash
Psixologlar uchun alohida tarif setkasi,
Diagnostik vositalar bilan ta’minlash,
O‘qituvchilar yuklamasini optimallashtirish
4.3. Psixologik madaniyatni oshirish
Ota-onalar uchun psixologik treninglar,
Ommaviy axborot vositalarida psixologiya bo‘yicha ko‘rsatuvlar,
Maktablarda “Psixologiya haftaliklari”
4.4. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish
Onlayn psixologik platformalar,
Raqamli diagnostika testlari,
Telepsixologik maslahatlar.

Ta’lim sohasida malakali psixologlarning yetishmasligi o‘quvchilar ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va ta’lim sifati uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Tizimda mavjud bo‘sh o‘rinlar sonining ko‘pligi, psixologlarning kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligi, mehnat sharoitlarining qoniqarli emasligi ushbu muammoning asosiy omillaridir.

Psixologlarning sonini ko‘paytirish, malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va psixologik xizmat infratuzilmasini rivojlantirish ta’limdagi umumiy sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli oshiradi. Shunday ekan, psixologik xizmat tizimini isloh qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish"ga oid farmonlari va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi statistik ma’lumotlari, 2023–2024-yillar.
3. Karimova V.M. “Umumiy psixologiya”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
4. G‘oziev E. “Pedagogik psixologiya”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. WHO (2023). “School Mental Health Services: Global Review”.
6. OECD Education Report (2022).
7. S. Myers. “Educational Psychology”. – New York, 2016.
8. Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmat faoliyati to‘g‘risidagi nizom, 2022-yil.

O’SMIRLIK DAVRIDA AFFILIATSIYA MOTIVINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Saidova Maftuna Xakim qizi
Andijon Davlat Universiteti
Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti
Psixologiya mutaxasisligi 1-bosqich magistranti

